

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA TA'LIM VAZIRLIGI**

A.H. VAHOBOV

VIRUSOLOGIYA asoslari

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta ta'lif vazirligi
tomonidan oliy o'quv yurtlari universitetlari uchun
darslik sifatida tavsiya etilgan*

TOSHKENT – 2017

UDK: 619: 578.1:578.2:578.3.578.8:578.34

Darslik oliv o‘quv yurtlarining tahlil olayotgan biologiya ta’lim yo‘nalishi talabalar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, DTS va “Virusologiya” fani fani dasturiga mos ravishda yozilgan.

Taqrizchilar: Q.S. Davronov, Mirzo Ulug‘bek nomidagi
O‘zMU “Botanika” kafedrasi professori,
biologiya fanlari doktori

Sh.I.Hakimova, Oziq-ovqat mahsulotlari
texnologiyalari instituti, “Oziq-ovqat mahsulotlari”
kafedrasi professori

Ma’sul muxarrir: Qaxramon Davranov, Mirzo Ulug‘bek nomidagi
O‘zMU Biotexnologiya kafedrasi professori
biologiya fanlari doktori

Tuzuvchi: A.H. Vahobov, Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zMU
“Mikrobiologiya” kafedrasi professori, biologiya fanlari
doktori

Muallif yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklar haqidagi taklif va mulohazalar bildirgan o‘quvchilarga o‘z minnatdorchiliklarini bildiradi.

Darslik O‘zbekiston Milliy universiteti Ilmiy Kengashining 2017 yil 31
may № --- sonli majlis qarori bilan nashrga tavsiya etildi.

Universitetlar bakalavr talabalari va magistrleri uchun darslik

So‘z boshi

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining 30.12.2016 yilda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning O‘zbekiston Respublikasi olimlari va akademiklari bilan o‘tkazgan yig‘ilishida O‘zbekiston ilm va faniga bo‘lgan e’tibopHi yanada yangi bosqichga ko‘tarish va uni boshqa rivojlangan mamlakatlar darajasiga olib chiqish va Oliy ta’lim Vazirligi tarkibiga kiruvchi OTMlari tomonidan tayyorlanayotgan mutaxassislarni raqobatdosh qilib tarbiyalash va fanni rivojlantirishni yangi strategiyasini ishlab chiqish va boshqa bir qancha dolzarb masalalarni o‘rtaga tashlandi (61).

2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasining to‘rtinchi yo‘nalishida, ya’ni Fan va ta’limni rivojlantirish zamonaviy talablarga javob beradigan, zamonaviy bilim, ko‘nikmalarga ega bo‘lgan yuqori kvalifikatsiyaga ega kadrlar tayyorlash, tarbiya soxasidagi o‘quv yurtlarini moddiy texnika ba’zasini yaratish va ularni o‘quv va o‘quv metodik qo‘llanmalar bilan ta’minalashga katta e’tibor berildi (61).

Davlatimiz mustaqillikga erishilgandan so‘ng eng birinchi e’tibopHi ta’lim va fan sohalariga qaratdi. Bu yo‘nalishda Davlat ta’lim standartlari ishlab chiqildi, kadrlar tayyorlashning milliy dasturi qabul qilindi. Uzluksiz ta’limning bir turi sifatida o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limida yangi ta’lim yo‘nalishlari, ya’ni akademik litsey, kasb-hunar kollejlari yaratildi. Oliy ta’lim ham ikki bosqichli – bakalavriat va magistraturadan iborat ta’lim berishga asoslangan holda qayta tuzildi. Bu o‘zgarishlar ta’limning ham nazariy, ham amaliy muammolarini ilmiy asosda qayta ishlab chiqishni, buning negizida zamonaviy ilmiy ishlar, o‘quv qo‘llanmalar, darsliklar yaratishni taqazo qildi.

O‘zbekistonda ta’lim tizimining isloh qilinishi, kadrlar tayyorlash milliy dasturining qabul qilinishi barkamol avlodni yaratishdagi dastlabki qadamlardir.

Ta’limning mazmuni o‘zgaruvchan, u doimo yangilanib turadi. YAngi demokratik jamiyat qurilayotgan hozirgi kunda har bir fan jadal rivojlanmoqda. O‘quv jarayoni jahon talablariga mos keluvchi davlat ta’lim standartlari asosida ishlab chiqilgan o‘quv reja va dasturlari asosida tashkil etilmoqda.

Ma’lumki virusologiya biologiya fanlari ichida eng yoshi hisoblanadi. Bu soha bo‘yicha respublikamizda juda ko‘p ishlar qilingan. Lekin talabalar uchun virusologiya fani bo‘yicha Davlat tilida yozilgan adabiyotlar yo‘q, borlari esa hozirgi talabga javob bermaydi. Ayniqsa, molekulyar virusologiyaning rivojlanishi darsliklarni ham mazkur yo‘nalishini chet el adabiyotlari darajasiga ko‘tarish va ularni molekulyar virusologiya asoslari bilan boyitilishini taqazo etmoqda. Mazkur darslikni asosiy boblari aynan shu talabga javob berishi mumkin.

I-qism. Virusologiya predmeti va tarixi

1-bob. Virusologiyaning predmeti va viruslarga ta’rif

1.1. Virusologiyaning tarmoqlari

Virusologiya viruslar haqidagi fan bo‘lib, virus so‘zi grekcha – zahar, logus fan degan ma’noni anglatadi. Virusologiya biologiya fanlari ichida eng yosh mustaqil fan bo‘lib, o‘z ob’ekti va tadqiqod metodlariga ega. Virusologiya umumiy va maxsus qismlarga bo‘linadi. Virusologiya tadqiqodlari fundamental va amaliy tadqiqodlarga bo‘linadi. Virusologiya fundamental tadqiqodlarining predmeti – virionlar shakli va arxitekturasi, ularning tarkibi, virus va hujayra orasidagi munosabat, irsiy axborotni o‘tkazish yo‘llari, virus zarrasi tarkibiy qismlarini molekulyar sintez mexanizmi va ularning qurilish jarayoni, o‘zgaruvchanligining molekulyar mexanizmi va evolyusiyasining o‘ziga xosligini o‘rganish bo‘lsa, amaliy (prikladnoy) tomonlari tibbiyat, veterinariya va fitopatologiya fanlari tomonidan ham o‘rganiladi. Kasallik simptomlari, kasallantiriladigan organizmlar spektri, tarqalishi, zarari, diagnostikasi va profilaktika va kurash choralarini ishlab chiqish, virus rezervatorlari, sirkulyasiyasi, infeksiya o‘choqlari, epidemiya, pandemiya va epifitotiyalarni yuzaga kelish sabablarini o‘rganish ham virusologiya zimmasidagi vazifalardandir. Virusologiya yuqorida aytilganlarni amalga oshirishda boshqa fanlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ulardagi metodlar va olingan natijalardan foydalanadi, ayniqsa, ximiya, fizika, molekulyar biologiya, genomika, proteomika va gen muhandisligi kabi fanlarni yutuqlari viruslarni o‘rganishni ham yangi bosqichlarga ko‘tardi. Virusologiya hozirgi kunda bir qancha mustaqil fanlarga bo‘lingan, ularning o‘zi ham mustaqil nazariy va amaliy vazifalarni bajaradi.

Jumladan, “Umumiy virusologiya” viruslarning tabiatini, ularni morfologiyasi va tuzilishi (arxitekturasi), ko‘payishi (reproduksiyasi), bioximiyasi, genetikasini o‘rgansa, tibbiy, sanitariya, veterenariya va fitovirusologiya va qishloq xo‘jalik virusologiyalari viruslarni patogenligi, ularni yuqumliligi, diagnostikasi, qo‘zg‘atadigan kasalliklari, sirkulyasiyasi, ularni “o‘choqlari”larini o‘rganadi, epidemiya, pandemiya va epifitotiyalarni paydo bo‘lish qonuniyatlarini o‘rganadi va ular natijalari asosida viruslarga qarshi kurash choralarini ishlab chiqadi. Viruslarni ochilishi va o‘rganilishi, ayniqsa, bakteriofaglar sohasidagi molekulyar virusologiyaning paydo bo‘lishi va uning yutuqlari virusologiyaning rivojlanishiga katta hissa qo‘shdi. Viruslarning irsiy xususiyatlarini o‘rganish molekulyar genetika bilan yaqin bog‘liqlikga ega ekanligini ko‘rsatdi. Viruslarni molekulyar genetik tajribalarda ishlatilishi ularni virusologiyani gen injeneriyasi bilan bog‘laydi. Viruslar odam, hayvon, o‘simgilik va hasharotlarda juda ko‘p kasalliklarini qo‘zg‘atuvchilaridir. Demak, viruslar eukariot (hayvon, o‘simgilik, zamburug‘) va prokariot (bakteriya)larni zararlaydi. 2002 yillardan keyingi ingliz va fransuz olimlarini mimi-, mega- va pandorina viruslarini suvdan ajratib olishlari viruslar kasallantiradigan ob’ektlar spektrini

yanada kengaytiradi, chunki mazkur viruslar suvo‘tlarini, amyobalarni kasallantiradi. Adabiyotlarda yana shunday fikrlar mavjudki, ular bo‘yicha viruslarni (pandorina virusini) ham kasallantiradigan faglar yoki agentlar, yoki substansiylar mavjud ekan. Bu nuqtai nazardan virusologiya fanini o‘rganadigan gorizontlari juda ham keng va uni kashfiyotlari boshqa fanlar (tibbiyat, veterenariya, fitopatologiya va boshqa fanlar) bilan ham chambarchas bog‘liqidir.

XIX aspHing oxirida virusologiyada odam (tibbiy), hayvon (veterenariya) o‘simlik (fitopatologiya) kasalliklarini o‘rganadigan bo‘limlari paydo bo‘ldi va sekin-asta virusologiya biologiya fanlari orasida asosiy o‘rinlardan birini qonuniy egalladi (3; 11; 25; 35; 60).

1.2.Viruslar haqida ba’zi mutaxassis olimlarning fikrlari

Viruslarga beriladigan ta’rif ham viruslar haqidagi bilimlarni ko‘payib, boyib borishi bilan o‘zgarib, aniqlashib bordi. Avvallari virus “yuqumli kasalliklar zahari” yoki “chechakka o‘xhash kasallik qo‘zg‘atuvchi zahar” degan ma’noni bildirgan va bu ta’rifni birinchi marta aniq asoslab bergen olim qadimgi grek vrachi Gippokrat edi. U meditsina tarixini o‘rganish jarayonida o‘z asarlarida tepki (svinka) kasalligining to‘liq tavsiflaydi, ya’ni kasallik simptomlari va ularning rivojlanish bosqichlari, yuqumliligi, ayniqsa, yosh bolalarda bu kasallikni o‘tish jarayoni kabi xususiyatlarini o‘rganish borasida aniq ma’lumotlar berdi. Bu vaqtarda mikroorganizmlardan tashqari viruslar olamining ham mavjudligiga va ular ham ko‘pgina yuqumli kasalliklarni qo‘zg‘atishiga ishonch hosil qilish uchun olimlarga juda ko‘p yillar kerak bo‘ldi. Chunki viruslar bilan ishlashning o‘ziga xosligi shunda bo‘ldiki, ular uchun mikrobiologiyaning tadqiqod metodlarining hammasi ham to‘g‘ri kelmadi, viruslar bilan ishlash uchun mutlaqo yangi metodik ishlanmalar zarurligi ma’lum bo‘laboshladi. Yangi usullar bilan yondoshish va ular asosida viruslarni tarqalishi, organizmga kirishi, simptomlari va kasal organizmdan sog‘ organizmga o‘tishini o‘rganish usullarini ishlab chiqish kerak bo‘ldi. Viruslar olami mikroblar olamidan tubdan farq qilishi, ularni fiziologiyasi, strukturalari va ko‘payishi mikroblar olaminikidan butunlay o‘zgacha ekanligi toboro yaqqol ko‘rinaboshladi. Ularni har tomonlama o‘rganishda zamonaviy texnikani, fizika, ximiya, kristallografiya, genomika, proteomika metodlarini keng ko‘lamda qo‘llash viruslar olamining noma’lum bo‘lgan va kutilmagan qonuniyatlarini ochib berdi va bermoqda.

Viruslarga bo‘lgan qiziqishning ortishi, fan va texnikaning zamonaviy asbob-uskunalarini yaratilishi, virusologiyaning jadallik bilan rivojlanishi virusologiyani yaqindagina o‘ta tor doiradagina rivojlanayotgan fan holatidan hozirgi kunga kelib, uni biologiya va meditsina fanlari ichida markaziy o‘rinni egallashiga olib keldi.

Buning sababi yuqumli kasalliklarni bakteriya, zamburug‘ va protozoalar qo‘zg‘atadiganlarini chuqur o‘rganish va ularni viruslar qo‘zg‘atadiganlaridan ajratish, ular qo‘zg‘atadigan kasalliklar miqdorini (salmog‘ini) kamaytirdi va

ba'zilarini butunlay yo'qotilishiga olib keldi, natijada viruslar qo'g'atadigan kasalliklar yuqumli kasalliklar ichida etakchi o'ringa o'tdi. Smorodinsev (30) ma'lumotlarga qaraganda 80% gacha yuqumli kasalliklarni viruslar qo'zg'atar ekan.

Bir necha yillar avval qorin tifi va dizenteriya oshqozon-ichak yo'llari kasalliklari ichida asosiyлari bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda birinchi o'rinni virus kasalliklari (m., yuqumli gepatit, gripp, OITS viruslari va ularning yangi shtammlari) egalladi. O'ta havfli kasalliklar (Ebola, Zika va h.)ni, avval ma'lum bo'limgan va fan va texnikani rivojlanishi, yangi metodlarni yaratilishi bakteriyalar va viruslar olamini bir-biri bilan bog'lovchi yangi zanjir bo'lgan, bakterial filtrdan o'taolmaydigan, mikroorganizmlardek Gram bo'yicha bo'yaladigan Mimi-, Mega- va Pandora viruslarini ochilishiga olib keldi. Ikkinchidan virusologiyaning rivojlanishiga onkogen kasalliklar tabiatining ochilishi natijalari katta rol o'ynadi, uchinchidan biologiyaning fundamental muammolarini organik dunyoning eng sodda tuzilgan vakillari bo'lgan - viruslar modelida echilmoqda.

Virus kasalliklari odamzod paydo bo'lgan vaqtidan beri mavjud. Viruslar tirik organizmlarning barcha guruhlarini - o'simlik, hayvon, zamburug' va bakteriyalarni zararlaydi (65). Ammo ularning o'ta kichik o'lchamga (20 - 300 nm) ega bo'lishlari ularni uzoq vaqtgacha o'rganilmaganligiga sabab bo'ldi. Fizika, ximiya, kristallografiya va boshqa fanlarning rivojlanishi va yutuqlari viruslarning o'rganishni ham yangi bosqichda o'rganilishiga olib keldi. Faqat elektron mikroskopning paydo bo'lishigina bu mavjudotlarni shakllari va nozik tuzilishi haqida, yuqori tezlikda aylanadigan ultratsentrifugalarni paydo bo'lishi viruslarni ular zararlagan hujayra tarkibidan nativ holatda (barcha asosiy xususiyatlarini, shakli o'lchami, antigenligi, yuqumliligi va h. xususiyatlarini saqlagan) ajratib olishga imkon yaratdi. Virus organizmda uzoq vaqt tiriklik alomatini namoyon qilmasdan turishi va birdaniga "qayta tirilib" unga sezgir (moyil) bo'lgan tirik hujayrani kasallantirishi mumkin. Rivojlanish jarayonida bu virus o'zini yangi formasini hosil qilishi va ko'plab odam yoki hayvonlarni nobud qilishi mumkin. Masalan, 1918 yilda gripp virusi epidemiyasi 20 million erkak, ayol va bolalarning halok bo'lishiga sabab bo'lgan. Viruslarni o'ta sodda tuzilganligi sababli uzoq vaqtgacha ularni tirik mavjudotlar qatoriga kiritilmadi. Viruslarni tabiatni va o'ziga xosligi va virus nima degan savolga javob olish uchun birqancha yirik virusolog olimlar o'z tajribalari va fanning shu yillardagi natijalarini hisobga olgan xolda turlicha fikrlar bildirdilar (35). Viruslarni potensial imkoniyatlarini quyida poliomielit virusi misolida ko'rish mumkin. Masalan, U. Stenli, E.Velenslar (31) fikricha poliomielit virusini bir dona zarrachasi odam organizmini kasallantirishi va bipHecha soatdan so'ng o'ta tezlik bilan ko'payib 10 minglab yangi virus zarralarini yaratishi mumkin ekan. Agar Er yuzidagi barcha odamlar poliomielit virusi bilan kasallanganda edi, bitta probirkadagi virus er yuzidagi barcha aholini nobud qilishga etar ekan. Haqiqatdan ham agar virus zarrasining o'lchamlarini nanometrlarda o'lchanishini ko'z oldiga keltirsak, bu juda ham hayratlanadigan narsa emas.

Bitta ping-pong koptokchasini poliomielit virusi zarralari bilan to‘latish uchun **1¹⁸ (1 000 000 000 000 000)** ta virus zarrasi kerak bo‘lar ekan.

Viruslarni o‘ziga xosligini Rossiyaning yirik virusologgi K.S.Suxov (32) quyidagicha ta’riflagan edi:

“Tanasi o‘ta mayda, nanometrlar bilan o‘lchanadigan, hujayra tuzilishisiz, kimyoviy tuzilishi o‘ta sodda (oddiy viruslarda faqat oqsil va nuklein kislotalar sistemasi mavjud bo‘lgan), sun’iy ozuqa muhitlarida to‘planish xususiyatiga ega bo‘lmagan, sezgir xo‘jayin organizmida o‘ziga xos bo‘lgan rivojlanish sikliga ega yoki bu siklni bir qismi hujayrasiz muhitda rivojlanadigan (hujayrani ba’zi organoidlari, nuklein kislotalari va oqsillarini sintezi uchun kerakli moddalar hamda energiya manbai bo‘lib xizmat qiladigan moddalarni ishlataladigan) mavjudotdir”, -degan edi.

Zamonamizni taniqli virusologlari - taniqli molekulyar virusologiya sohasidagi olimlari (1;35;36) viruslarni tuzilishi va reproduksiyasi va bir sezgir hujayradan ikkinchisiga o‘tib ko‘payish xususiyatlariga asoslanib, viruslarga quyidagicha ta’rif beradilar: “Virus - o‘zining sintetik apparatiga ega bo‘lmagan tabiiy sharoitda begona hujayra sistemasida reproduksiyalanadigan hayotning hujayrasiz shaklidir. Viruslarda hayotning ikki shakli: birinchisi-hujayra tashqarisidagi va ikkinchisi - hujayra ichida reproduksiyalanadigan shakllari mavjud. Birinchi ko‘rinishdagi shakllarini quyidagi sinonimlari – virus zarrasi, virus korpuskulasi, virion, ikkinchi ko‘rinishdagi shakllarini sinonimlarini esa-vegetativ virus, reproduksiyalanuvchi virus, virus-hujayra kompleksi degan edi. Virus zarracha stadiyasida u inert, metabolik noaktiv, faqat genetik axborotni saqlovchi va bir reproduksiyalangan sezgir hujayradan boshqa yangi reproduksiyalanadigan hujayraga transportlanish siklini o‘tadigan formadir. Yangi sezgir hujayraga kelib tushgan virus zarrasi reproduksiya siklini yangidan boshlaydi. Yangi hujayrada u yangi sifatga ega bo‘ladi va reproduksiyalanadigan virusga aylanadi, hujayraning sintetik, fermentativ va energetik arsenallarini ishlatib, uning faoliyatini virus zarralarini sintezi tomonga yo‘naltiradi. Yangi hosil bo‘lgan virus zarralari esa yana ko‘payishga moyil bo‘lgan hujayraga tushib va ko‘payish sikli yangitdan boshlanadi. Hayratlanadigan joyi shu erdaki o‘z tarkibi tuzilishi jihatidan o‘ta sodda bo‘lgan virus zarrasi o‘zidan yuz minglab marta katta va murakkab tuzilishga ega bo‘lgan hujayrani engib chiqadi.

Yana boshqa molekulyar virusologiya sohasidagi olim prof. V.I.TovapHitskiyning “MolekulyapHaya biologiya virusov” (1) kitobiga yozgan kirish so‘zida “Viruslar avval ma’lum bo‘lmagan nuklein kislotalarining yangi formasini borligi va ularning tarkibida avvalda uchratilmagan organik asoslarni kashf etilishiga sababchi bo‘ldi. Ular nuklein kislotaning eng muhim genetik funksiyaga ega ekanligini, genetik kodni ochilishi, hujayra makromolekulalarini sintezini idora qilinish mexanizmini tushunishda va genetik axborotni hujayradan hujayraga berilishidagi yangi usullarni bilishda katta ahamiyatga ega bo‘ldilar. Viruslarni chuqur o‘rganish - genom strukturasida yozilgan ma’lum o‘ziga xos qonuniyatga asoslanib quriladigan gigant molekulali oqsillar mikrodunyosini

ochilishiga olib keldi. Ular hujayrada oqsillar biosintezini nozik mexanizmlarini, bиринчи мarta “hujayrasiz sistemada” biologik aktiv oqsillarni biosintezini ochishga yordam berdi”.

Elektron mikroskopda viruslarni o‘rganish metodlarini mukammallashishi viruslarni morfologiyasi va ularni morfogenezi haqida yangi ma’lumotlar berdi. Virus oqsil qavatining (struktura oqsilining) polifunksionalligi va ularni virus nukleoidi hosil bo‘lishidagi roli haqida yangi materiallar olindi. Ba’zi bakteriofaglarni (T-juft), viruslarni genetik kartalari tuzildi va ular zarrasini genetik nazorat ostida ayrim strukturalarini murakkab qurilishi ketma-ketligi aniqlandi. Viruslar molekulyar biologiyasida virus struktura oqsili va uning nuklein kislotasi orasidagi munosabatlarning spetsifikligi isbotlandi. Virusologiyaning rivojlanishi DNK- va RNK-tutuvchi viruslarni reproduksiyasi jarayonida nuklein kislotalarning replikativ formalari va replikativ o‘tmishdoshlarini katta rol o‘ynashi aniqlandi. Ba’zi viruslar zarrachalarida (mikso- va reoviruslarda) avval aniqlanganidek bitta emas, birqancha har xil o‘lchamdagи nuklein kislotalar molekulalari borligi aniqlandi. Virus fermentlari borasida ham ko‘pgina yangiliklarga erishildi. Avval o‘rganilgan virus induksiyalaydigan va kasallangan hujayrada ular aktivlashtiradigan fermentlar safi kengaydi. Ba’zi viruslarda oqsil sintezini idora qilishni transkripsiya va translyasiya darajasidagi maxsus mexanizmlari, “erta sintezlanadigan” (“ertagi”) va kech sintezlanadigan” (“kechki”) asosan, struktura oqsillarni sintezida genetik axborotni o‘qish tartibi va tezligi aniqlandi. Mayda va yirik bakteriofaglarda “etilish faktori” (“faktor sozrevanie”) deb nomlangan yangi tur oqsillar ochildi. Bu oqsillarni etishmasligi bakteriofagni chala(defekt) zarrachalar hosil qilishiga olib kelishi aniqlandi. Birzanjirli va ikkizanjirli virus DNK va RNK lari replikatsiyalari mexanizmlarida yangi natijalar olindi.

Ba’zi bakteriofaglar, o‘simplik va hayvon viruslarida in vitro oqsil sintezi amalga oshirildi va bu borada boshqa ko‘plab yangi natijalar olinmoqda.

Viruslar molekulyar biologiyasida sanab o‘tilgan bu qisqa ma’lumotlar oxirgi vaqtida olingan ilmiy kashfiyotlarni faqat ba’zilarinigina o‘z ichiga oladi, xolos. Natijada o‘zining ajoyib va o‘ta nozik o‘ziga xosligi bilan kishini xayratga soladigan arxitekturasiga ega bo‘lgan mikrodunyo ochildi.

Demak, molekulyar virusologiyaning keyingi yillardagi kashfiyotlari viruslar tabiatini qaytadan ko‘rib chiqishni taqazo qildi. O‘tgan aspHing o‘ttizinchи yillarida ilm ahli orasida viruslarning tabiatini haqida qattiq bahslar bo‘lib o‘tgan bo‘lsa, yillar o‘tishi bilan ilmiy faktlarni va eksperimental materiallarni ko‘payishi, ayniqsa, viruslarni fizika, kimyo, fizik-kimyo, kristallografiya va elektron mikroskop metodlari yordamida o‘rganish viruslar mikrodunyosini yanada chuqurroq bilishga olib keldi. Hozirgi kunda ishonch bilan aytish mumkinki viruslar molekulyar biologiyasini o‘rganish bu - o‘z biologik imkoniyatlari va o‘zaro munosabatlarini molekulyar darajada realizatsiya qiladigan hayotning eng sodda formasini o‘rganishdir, deb aytish mumkin.

Moskva Davlat universiteti “Virusologiya” kafedrasining mudiri akademik mashhur virusolog olim professor I.G. Atabekov (1) viruslarni tirik organizmlar sistemasidagi o‘phini quyidagicha sharhlaydi. “Viruslar o‘z populyasiyalarining soni jihatidan planetadagi organik materiyaning hayotchan eng ko‘p tarqalgan formasidir, - degan fikr bildiradi va ularni tabiatda, ayniqsa, okean suvlarida juda ham ko‘p miqdorda uchrashini, ayniqsa, bakteriofaglarni juda keng tarqalganligini quyidagi misolda ko‘rsatadi, ya’ni ularni 1 ml suvdagi miqdori 10^{11} tani tashkil etishini aytib o‘tadi.

Shunday qilib, biz virus deganda yuqorida keltirilgan bipHecha mashhur virusologlardan ba’zilarini viruslarga bergen ta’riflarini keltirdik, xolos.

Demak, viruslar ham biosferaning ajralmas qismi bo‘lib, ularning evolyusiyasi ham organik materiyaning barcha biologik jarayonlar frontida ro‘y beradigan bir ko‘rinishidir. Ular yuqorida aytilgandek, mikroskopik hujayrasiz zarrachalar bo‘lib, faqat tirik organizmlarnigina kasallantiradigan, hujayradan tashqarida ko‘payaolmaydigan obligat parazitlardir. O‘tgan asrdayoq o‘simplik, hayvon, zamburug‘ va bakteriyalarda ko‘payadigan viruslar ma’lum bo‘ldi. Virus bu mazkur virus zarralarini muhofazalovchi oqsil qobiq (kapsid) bilan o‘ralgan nuklein kislotalardir. Ular tarkibida DNK yoki RNK mavjuddir. Kapsidining bo‘lishi esa viruslarni boshqa infektion agentlardan, masalan, viroidlardan va prionlardan farqlanishini ko‘rsatadi.

Yuqorida aytilgandek, viruslarni sodda tuzilishga egaligi, jumboqliligi, paradoksal xususiyatlari ularga bo‘lgan qiziqishni yanada orttirdi va shu kungacha yangidan yangi viruslar kashf qilinib kelmoqda. Viruslarni o‘rganadigan virusologiya fani biologiyaning barcha tarmoqlari ichida oxirgi yillarida shiddat bilan rivojlanmoqda. Ayniqsa, umumiyligi virusologiya va viruslarning molekulyar biologiyasi sohalarida oxirgi yillarda viruslarni nazariy va amaliy muammolarini echish borasida ko‘plab fundamental kashfiyotlar qilindi.

1.3. Virusologiya sohasidagi ba’zi kashfiyotlar

Avvaldan viruslar mikrodunyosini o‘rganish virusologiya sohasida ishlaydigan olimlarnigina emas, balki viruslar umumbiologiya muammolarni echishda ham eng qulay ob’ekt bo‘lib kelganliklari sababli biologiya, molekulyar biologiya, genetika, molekulyar genetika, boshqa sohadagi tadqiodchilarning ham diqqat markazida bo‘lib kelmoqda.

Viruslarni sodda tuzilishga egaligi, sirliligi, paradoksal xususiyatlari uni umumbiologiya masalalarini echishda beba ho ob’ekt ekanligini ko‘rsatdi. Har yili viruslarni tabiat, o‘zgaruvchanligi, odam organizmining viruslardan himoyalovchi faktorlar, viruslarni diagnostikasi va identifikatsiya qilish, odam, hayvon va o‘simpliklarni virus kasalliklariga qarshi kurash choralari haqida, yangi, ilgari ma’lum bo‘lmagan viruslarni ochilganligi haqida cheksiz ma’lumotlar oqimlari to‘planib bormoqda. Hozirgi kunda viruslar mediklar, veterenarlar, fitopatologlar, genetiklar, fiziklar, ximiklar, kristallograflar va hayotni paydo bo‘lishi muammolarini o‘rganadigan faylasuflarni ham tadqiqod

qiladigan markaziy ob'ektiga aylandi. Ular zamonaviy fanlarni kardinal muammolarini echishda, ya'ni oqsil, nuklein kislotalarni hujayradagi biosintezi mexanizmlarini o'rganishda tengi yo'q ob'ekt bo'lib xizmat qilmoqda.

Bularni hozirgi kunda virusologlar tomonidan qabul qilingani va viruslar xususiyatlarini to'la aks etdiradigani Rossiya Meditsina fanlari Akademiyasining akademigi, Virusologiya institutining direktori bo'lgan akademik V.M. Jdanov (15) tomonidan viruslarga shu vaqtgacha berilgan ta'riflar asosida va ularni oxirgi fan yutuqlariga asoslanib viruslarga quyidagicha ta'rif beradi: "Viruslar - tabiatning yaratgan mikroskopik, molekulalarga yaqin bo'lgan, o'ziga xos parazitlik qilib yashaydigan, xilma-xil, ko'p sonli guruhlarga ega, nuklein kislotasining sintezi har xil darajada hujayraga bog'liq bo'lgan, hujayra oqsil sintezi va energetik sistemasiga esa to'la bog'liq bo'lgan va mustaqil evolyusiyaga uchraydigan avtonom genetik strukturalar bo'lib, saltanatiga birlashgan hayotning hujayrasiz formasidir".

To'plangan ma'lumotlarni barchasini umumlashtirib viruslarga quyidagicha ta'rif bersa bo'ladi degan fikrga kelish mumkin:

"Viruslar minimal organizmlar bo'lgan mikoplazmalar, rikketsiyalar va xlamidiylar kabi o'z oqsil sintezlovchi sistemalariga ham ega bo'lman, nuklein kislotasining sintezi hujayraga har xil darajada bog'liq bo'lgan, hujayra oqsil sintezi va energetik sistemasiga esa to'la bog'liq bo'lgan va mustaqil evolyusiyaga uchraydigan, avtonom genetik strukturalar bo'lib, tabiatning mikroskopik molekulalarga yaqin qilib yaratgan, o'ziga xos parazitlik qilib yashaydigan, xilma-xil, ko'p sonli guruhlarga ega va Vira saltanatiga birlashgan hayotning hujayrasiz formasidir"(davomi 2-bobda batafsil beriladi).

? Savollar

1. Viruslarni tabiatni va o'ziga xosligi nimalardan iboratligini tushuntirib bering va virus deganda nimani tushunasiz va unga ta'rif bering ?
2. Virusologiyaning qanday tormoqlarini bilasiz?
3. Virusologiya fundamental tadqiqodlarining predmeti?
4. Virusologiyaning amaliy (prikladnoy) tomonlari deganda nimani tushunasiz?
5. Tibbiyot, veterinariya va fitopatologiya fanlari virusologiyaning qanday tomonlarini o'rganadi?
6. Viruslarni tabiatni haqida K.Suxovni fikrlari?
7. Viruslarni tabiatni haqida K.Stenlini fikrlari?
8. Viruslarni tabiatni haqida yana qanday olimlarni fikrlarini bilasiz?
9. Virusologiya sohasidagi qanday kashfiyotlarni bilasiz?
10. Vira saltanatiga ta'rif bering va har bir aytilgan fikrlarni tushuntirib bering: viruslarni xlamidiy, rikketsiy va mikoplazmalardan qanday farqlari bor?
11. Viruslarda oqsil sintezlovchi sistemalari qanday?
12. Nuklein kislotasini sintezi qaysi darajada hujayra bilan bog'liq?

13. Viruslarda evolyusiya qanday kechadi?
14. Viruslardagi parazitizm qanday parazitizm hisoblanadi?
15. Vira olamini hayvon, o'simlik, zamburug'lar, prokariotlar olamlaridan farqlarini tushuntirib bering.


2-bob. Virusologiyaning rivojlanish tarixi

2.1. Virusologiyaning viruslarni ochilishigacha bo‘lgan tarixi

Virusologiya juda yosh fan bo‘lib uning tarixini boshlanganiga 100 yildan oshdi xolos. Bu fan o‘ziga xos rivojlanish tarixiga ega, chunki viruslarning ochilishidan ancha ilgari ular qo‘zg‘atadigan kasalliklar o‘rganila boshlangan. Ular ko‘pgina tarixiy materiallarda o‘z aksini topgan. Jumladan, Eduard DjennepHing(1749-1823 yy.) chechak va Lui PastepHing (1872-1895 yy.) (65) qutirish kasalligi bo‘yicha qilgan ishlari buning yaqqol isbotidir. Qadim zamonlardan ma’lumki chechak kasalligi millionlab odamlarni yostig‘ini quritgan. Bu kasallik haqidagi ko‘plab ma’lumotlar Xitoy va Xindistonning qadimiylarida uchraydi. Adabiyot ma’lumotlariga qaraganda, birinchi chechak kasalligining epidemiyasi Evropada eramizning VI asrida bo‘lib o‘tgan. Keyinchalik bu kasallik eramizni 17 asrida barcha kontinentlarga yoyilgan. M., Shimoliy Amerikaning Massachusetts shtatida (1617-1619 yy.) aholining o‘ndan to‘qqiz qismi, Ispaniyada (1707 y.) chechak epidemiyasidan so‘ng 57000 odamdan 17000 odam qolgan, Isthem shahrida (1763 y.) 1331 ta odamdan 4 kishi qoladi. Shu sababli chechak bilan kurashish eng dolzarb masala bo‘lib kelgan. Chechakka qarshi emlash ishlari ham qadimiylarida Xitoy va Xind qo‘lyozmalarida ma’lumligi eslatiladi. Evropada chechakkha qarshi emlash - variolatsiya XVII asr o‘rtalariga kelib, Xitoy, Uzoq Sharq va Turkiyada emlash undan ham erta - ilgaridan qo‘llanilishi eslab o‘tiladi. Variolatsiyaning mohiyati engil kasallangan odamdagagi chechakning suvli pufakchasi (pustula) suyuqlikdan olinib sog‘lom odam terisidagi mikrojarohatga yuqtiriladi. Yuqtirish natijasida mazkur odamda engil kasallanish kuzatiladi. Bu usul bilan og‘ir formadagi chechak bilan kasallanishni oldi olinadi. Ammo bu usulda chechakning og‘ir formasi bilan kasallanish ehtimoli qoladi va emlangan odamlarda o‘lim 10% ni tashkil qiladi. Angliya vrachi Eduard Jenner kasallikni oldini olishda o‘z ishlari bilan revolyusiya qiladi, ya’ni u sigir chechagi bilan kasallangan odamlarni kasallik engil kechishi va ular chechak kasalligini og‘ir formasi bilan umuman kasallanmasligini kuzatadi. 1796-yil may oyida Jenner umuman chechak bilan kasallanmagan Djeyms Fipsning jarohatiga sigir chechagi bilan kasallangan Sara Salmesning pustulasidagi suyuqlikdan o‘tkazadi (65).



Edvard Djenner
(1749—1823)



Lui Paster
(1872-1895)



Dmitriy Ivanovskiy
(1864-1920)

Bolani sun’iy emlangan joyida tipik pustula hosil bo‘ladi va u 14 kundan so‘ng butunlay yo‘qoladi. Endi Djenner bolaga xaqiqiy chechakda hosil bo‘lgan yara (pustula) suyuqligidan olib o‘tkazadi. Bola endi umuman chechak kasalligi bilan kasallanmaydi. Shunday qilib vaksinatsiya qilish g‘oyasi tug‘iladi va tasdiqlanadi, shundan kelib chiqib, vaksina atamasi (**vacca** - lotincha sigir degan ma’noni anglatadi) amaliyotga kiritilgan. 1940-yillarda chechakka qarshi vaksinani buzoqlarni chechak virusi bilan kasallantirib tayyorlangan. Chechak kasalligini virusi esa 1904-yildagina kashf qilinadi. Demak, bиринчи vaksina chechak virusiga tayyorlandi, ya’ni chechak - idora qilish imkoniyati yaratilgan bиринчи virus kasalligidir. Keyingi qilingan ishlar muvaffaqiyati chechak kasalligini butunlay dunyo bo‘yicha yo‘qotilishiga olib keldi. Chechak kasalligidan keyingi vaksinasi tayyorlangan virus kasalligi bu - qutirish kasalligi bo‘ldi. Lui Paster qutirish kasalligini yuqumliligidan tashqari boshqa sabablarini bilmasa ham kasallikni qo‘zg‘atuvchisini yuqumliligini kuchsizlantirish prinsipini - **attenuirlashni** qo‘llaydi. Kasallikni qo‘zg‘atuvchisini kuchsizlantirish maqsadida quyonlarni ishlatadi. Buning uchun qutirish kasalligidan o‘lgan itning miya to‘qimalarini quyon miyasi to‘qimalariga yuboradi. Quyon o‘lgandan so‘ng uning miya to‘qimasini boshqa quyon miyasiga yuboradi va hokazo. Shu kabi passajlar (o‘tkazishlar)ni to quyon miya to‘qimalari adaptatsiya qilguncha 100 ga yaqin passaj qiladi. Endi u quyon miyasi to‘qimasidan olib it organizmiga – terisining ostiga yuborganda u o‘rtacha patogenlik xususiyatini namoyon qiladi. Bunday “qayta tarbiyalangan” - attenuirlangan qo‘zg‘atuvchini Paster yuqori patogenlikga ega “yovvoyi” qo‘zg‘atuvchidan farqlash uchun “fiksirlangan” qo‘zg‘atuvchi deb ataydi. Keyinchalik Paster “fiksirlangan” qo‘zg‘atuvchi konsentratsiyasini sekin asta oshirish va ular bilan in’eksiya qilishdan iborat bo‘lgan immunitet hosil qilish metodini ishlab chiqadi.



Martin Beyerink
(1851-1931)




Viktor Jdanov
(1914 — 1987)

In’eksiyani to‘la kursini olgan it infeksiga to‘la chidamli bo‘ladi. Paster yuqumli kasallikni rivojlanish jarayoni organizmning himoya kuchi bilan mikroblarning kurashi deb hisoblaydi. U:“Har bir kasallik o‘z kasalligining qo‘zg‘atuvchisiga ega, biz patsI.E.Nt organizmning immunitetini bu kasallikga nisbatan rivojlanishiga imkon yaratishimiz kerak,” - deydi. 1885-yili o‘z metodini qutirgan it tishlagan bolada tekshirib chiqadi. Bolaga konsentratsiyasi sekin asta ortib boradigan “fiksirlangan” virusni in’eksiya qiladi va oxirgi ine’ksiyada bolaga haqiqiy patogen virusni in’eksiya qiladi. Bola tirik qoladi (60).

Bu kasallikning virusini ochilishiga keladigan bo‘lsak, uning virusi vaksina tayyorlangandan ancha keyin, 1903-yili Remlenje tomonidan kashf qilinadi.


XIX asr oxiriga kelib qutirish, chechak, gripp, sariq isitma kabi qator odam kasalliklarining yuqumli ekanliklari aniqlanadi, ammo ularni qo‘zg‘atuvchilarini bakteriologiya metodlari yordamida aniqlash imkonи bo‘lmadi. Mikrobiologiyada eng katta kashfiyotlar qilgan nemis olimi Robert Koxning (1843-1910 yy.) “toza bakteriya kulturalarini olish texnikasi” usulini birinchi marta qo‘llash natijasida bakterial va nobakterial kasalliklarni farqlash imkonи paydo bo‘ldi. 1890-yili 10-gigI.E.Nistlar kongressida Kox: “...sanab o‘tilgan kasalliklar umuman boshqa guruh mikroorganizmlar guruhini tashkil qiladi”, - deb aytadi. (Chunki mazkur metod qo‘llanilganda qattiq ozuqa muxitida faqat mikroorganizmlargina ayrim koloniyalar hosil qilib o‘sib chiqadi, ammo sun‘iy ozuqa muhitida o‘smaydiganlari (viruslar) umuman o‘zini namoyon qilmaydi). Koxning bu fikri viruslarni ochilishi juda ham tasodif emasligidan dalolat beradi.



Deyvid Baltimor
1929 y.



Iosif Atabekov
1938 y.



Vadim Agol
1934 y.

Ammo bu bakteriya bo‘limgan o‘ziga xos original kasallik qo‘zg‘atuvchilar borligini eksperimental isbotlash kerak edi.

20-yillar oxiri va 30-yillar boshlariga kelib viruslar tirik materiya ekanligi yaqqol ko‘rindi va ularni xar xil nomlar bilan, ya’ni “filtrlanuvchi viruslar” yoki “ultraviruslar” deb atalaboshlandi. Keyinchalik bu so‘zlar o‘pHini virus so‘zi muqim egalladi va bu so‘z o‘simlik, hayvon va bakteriya viruslarini birlashtirdi.

30-yillar oxiri va 40-yillar boshlarida viruslarni o‘rganish shunchalik oldinlab ketdiki, ularni organizm holatida shakllantira boshlandi (65). Bunga asos bo‘lib viruslarni boshqa organizmlar (hayvonlar, o‘simliklar, sodda hayvonlar, zamburug‘lar va prokariotlar) kabi ko‘payish xususiyati, irsiyat va o‘zgaruvchanlikga ega ekanligi, o‘zi yashab turgan tashqi muhit o‘zgarishiga moslashishi, tabiiy va sun’iy tanlashni ta’minlovchi biologik evolyusiya xususiyati mavjudligi rol o‘ynadi.

Viruslarni organizm ekanligini e’tirof etuvchi konsepsiya 60-yillar boshiga kelib eng gullagan vaqt bo‘ldi, keyinchalik virion tushunchasi kiritilib bu tushuncha virus ham individium deb e’tirof etildi (65).

2.2. Viruslarni ochilishi

Viruslar guruhni borligini isboti 1892-yili o‘simliklar fiziologiyasi mutaxassisi D.I.Ivanovskiy (1864-1920 yy.) tomonidan tamakining “mozaika” kasalligini o‘rganish jarayonida topildi. Bundan avvallari ham epidemik xarakterga ega bo‘lgan kasalliklar o‘simliklarda paydo bo‘lib turar edi. 1883-1984-yillarda gollandiyalik botanik va genetik olim de Friz “gullarni yashillashishi” epidemiyasini kuzatib bu kasallikni yuqumlilik tabiatи borligini aytgan edi. 1886-yilda Gollandiyalik nemis olimi Mayer mozaika kasalligi bilan kasallangan o‘simlikdan ajratilgan shirani boshqa o‘simlikga inokulyasiya qilinganda u o‘simlikda ham xuddi shunga o‘xshash kasallikni namoyon

bo‘lishini kuzatib bu kasallikni mikroorganizmlar yuzaga keltiradi degan fikr bildiradi.

XIX asrda tamakini bu kasalligidan Rossiya va boshqa mamlakatlarda qishloq xo‘jaligidagi katta zarar ko‘riladi. Shu sababli Ukrainaga bir guruh olimlar yuboriladi. Bular qatoriga Peterburg universitetining talabasi D.I.Ivanovskiy ham kiradi. D.I.Ivanovskiy va V.V.Polovsevlar tamakini mozaikali kasalligi ikki hil kasallikdan – “ryabuxa” (zamburug‘lar qo‘zg‘atadigan) va kelib chiqishi noma’lum bo‘lgan kasalliklardan iborat ekanligini aniqlashadi. D.I.Ivanovskiy bu ishlarini akademik A.S.Faminitsin rahbarligida Nikitskiy nomli botanika bog‘ida olib boradi. Mozaika simptomli tamaki o‘simgili shirasini eng mayda bakteriyalarni ham ushlab qoladigan Shamberlen filtridan o‘tkazib, filtratni tamaki bargiga yuqtiradi va uning bargida mozaika kasalligini qo‘zg‘atadi. Ammo bu shirani ozuqa muhitiga ekilganda natija bermadi (bakteriyalar kabi o‘smadi). Demak, deb xulosa qiladi D.I.Ivanovskiy, kasallikni qo‘zg‘atuvchisi odatdan tashqari tabiatga ega va u bakterial filtrdan o‘tadigan, sun’iy ozuqa muhitida o‘smaydigan xususiyatga ega ekan, deb xulosa qiladi. Bu shirani 60°-70° S qizitilsa u o‘z yuqumlilikini yo‘qotishini aniqlanadi (oxirgi yillarda olingan natijalar bo‘yicha tamaki mozaikasi virusini harorat ta’sirida yuqumlilikini yo‘qotishi shtammlariga qarab 90-96° Sni, ba’zi shtammlariniki esa 80-82° S ni tashkil qilishi aniqlangan), bu xususiyat mozaika kasalligidan ajratilgan shirani tirik tabiatliligini isbotlaydi. D.I. Ivanovskiy mozaika kasalligini qo‘zg‘atuvchisini filtrlanuvchi bakteriya deb ataydi va uning qilgan ishlari 1888-yili tayyorlagan dissertatsiyasiga asos bo‘ladi. Olingan natijalarini 1892-yili “Tamakini ikki kasalligi haqida” degan kitobida chop etadi.

Viruslarni ochilishiga gollandiya olimi Beyerinkni (1851-1931 yy.) ham qo‘shgan katta hissasi bor (ba’zi chet el mamlakatlarida uni virusologiyani asoschisi deb ham atashadi). U ham tamaki mozaikasi kasalligi ustida ishlar olib boradi, D.I. Ivanovskiy tajribalarini qaytarib tekshirib ko‘radi va 1898-yili u ham o‘z ishlarini chop etadi. M. Beyerink filtrdan o‘tkazilgan mozaika simptomiga ega bo‘lgan o‘simgili shirasini agar-agar (geli) ustiga quyadi va ma’lum vaqt inkubatsiya qiladi, natijada agar-agar ustida bakteriya koloniyalari o‘sib chiqadi. Ularni agar-agar yuzasidan olib tashlaydi, ichki qavatini esa o‘simliklarni kasallantirish uchun ishlataladi. O‘simliklarda kasallik alomatlari hosil bo‘ladi. M. Beyerink bu ishlardan quydagicha xulosa qiladi, ya’ni kasallikni sababchisi bakteriya emas, balki “qandaydir suyuq substansiya” bo‘lib, u agar-agar ichiga kiraolish xususiyatiga ega va uni Beyerink “contagium vivum fluidum (“jidkoe zaraznoe nachalo” – “yuqadigan suyuq substansiya”) deb ataydi. U o‘z ishlarini D.I. Ivanovskiyni ishlari bilan taqqoslab mozaika kasalligini qo‘zg‘atuvchi substansiya nobakterial tabiatga ega ekanligini aytib o‘tadi. Viruslarni ochilishidagi birinchilik Ivanovskiyga taalluqligini tan olindi. Hozirgi kunda butun jahon bo‘yicha viruslarni **birinchi kashf qilgan olim - D.I. Ivanovskiy deb tan olingan va 1982-yil viruslarni ochilish yili** deb hisoblanadi.

2.2.1. Bakteriofaglarni ochilishi

Bakteriya viruslari haqidagi birinchi ma'lumot 1896-yilda Xankin (balki Xavkin) tomonidan berilgan. Paster Instituti solnomasida u: “Hindistonning ba'zi daryo suvlari bakteritsidlik xususiyatga ega” deb fikr bildiradi va bu xususiyat albatta, bakteriya viruslari bilan bog'liq ekanligi haqida ma'lumot berilgan deyish mumkin.

Bakteriya viruslari borasida yana N.F.Gamaleya 1898-yilda bakteriyalarni ham virus bilan kasallanishini aniqlaydi va ularni “bakteriolizinlar” deb ataydi. Mikrokokklar kulturasida shishasimon tiniqlashish (shaffoflashish) kabi o‘zgarishini (steklovidnoe pererojdenie) va bu agentni bakterial filtrdan o‘tgandan so‘ng ham shu xususiyatini saqlashini aniqlaydi. 1917-yili shu olim tomonidan dizenteriya bakteriyalarini kasallantiruvchi dizenteriya bakteriofagi ochiladi. 1914-1915-yillarda D’ Errel va undan mustaqil ravishda Tuortlar bu hodisalarni o‘rganib, ularni tirik agent - mavjudot ekanligini aytib, bu hodisani mohiyatini ochib berishadi va ularni bakteriofaglar deb atashadi. Ammo ularning zamondoshlari bu fikrlarini ancha vaqtgacha tan olishmasdan bu agentlarni fermentlar deb hisoblab yurishdi. Olingan faktlar va kuzatishlar asosida bir necha yillar ilgari I.Mechnikov “O‘ta kichik mavjudotlar biologiyasini o‘rganish virusologiyaning rivojlanish yo‘lidan borishini, mikrobiologiyaning rivojlanishi va takomillashishi ko‘zga ko‘rinmas dushmanlarni uchratilishini va yuqumli kasalliklar haqidagi qo‘rquvni yo‘qotilishiga olib keladi”- deb, bashorat qilgan edi. Uning vafotidan (1916 y.) keyin u aytganidek virusologiya fanining rivojlanishi boshlandi. Viruslarni o‘rganishni yangi metodlarini ochilishi qator viruslarni kashf qilinishiga sababchi bo‘ldi.

2.2.2. Hayvon viruslarini ochilishi

Ivanovskiyni tamaki mozaikasini ochilishida qo‘llagan “bakterial filtr” dan filtrlash metodi”ni qo‘llash natijasida 10 dan ortiq virus kasalliklarini qo‘zg‘atuvchi viruslar kashf qilindi (65). Viruslar ochilishidan 6 yil keyin odam va hayvon viruslaridan “oqsim”- yashchur virusini Leffler va Frosh kashf qilishdi. Bu olimlar yashchurga qarshi immunizatsiya qilish usullarini ishlab chiqish ustida ish olib borar edilar. Ular yashchur bilan kasallangan hayvonlarni shilliq pardalaridan ajratib olingan materialni (bu material “**aft**” deb nomlanadi) bakteriyalarni tutib qoluvchi kizelgur filtridan o‘tkazib (filtrlab), filtrdan o‘tgan suyuqlik bilan hayvonlarni immunizatsiya qilishganda, mazkur suyuqlikni 10^{-2} - 10^{-4} (0,001 – 0,00001) ml miqdori ham hayvonlarda yashchur kasalligini qo‘zg‘atgan. Ular bu tajribalaridan natijasida **aft suyuqligini** filtrdan o‘tkazilganda ham bu suyuqlikda ko‘payish xususiyatiga ega, yorug‘lik mikroskopida ko‘rinmaydigan “o‘ta mayda kasallik qo‘zg‘atuvchisi” bor degan

xulosaga kelishadi. Bu fikr shu vaqtgacha tabiaty yaxshi o'rganilmagan chechak, skarlatina, qizamiq, toshma tif va h.larga ham qo'llanila boshlandi. Ivanovskiy, Leffler va Froshlarni ishlari faqat o'simlik kasalliklari uchungina emas, balki hayvon va odamlarni kasalliklarini patalogiyasini aniqlash va kurash choralarini ishlab chiqishda katta ahamiyat kasb etdi. Bu kashfiyotlar zamonaviy biologiyada ham katta ahamiyatga ega ekanliklari tasdiqlandi.

1903-yil Ru degan olim shunga o'xhash agentlarni – "shoxli mollar perepnevmoniyasi"ni o'rganib ularni "ko'rinmas mikroblar" deb ataydi, Remlyanje ham shu borada ish olib borib, mazkur agentlarni tabiatiga urg'u berib ularni "**filtruvchi mikroblar**" deb atashni taklif etadi.

Hasharotlar tarqatadigan "**sariq bezgak**" kasalligi ham viruslar tomonidan qo'zg'atilishi aniqlanadi. Keyinchalik filtruvchi yuqumli agentlarni "**filtruvchi viruslar**" deb atala boshlandi. "Virus" so'zi lotincha zahar degan ma'noni bildirishi yuqorida aytilgan edi. Agar bu nomni mohiyati haqida to'xtaladigan bo'lsak mikrobiologiyaning rivojlanishining ilk davrlarida "Virus" degan so'zni barcha yuqumli agentlar va ular tomonidan hosil qilinadigan zaharli moddalarga ham qo'llanilgan. Keyinchalik yuqumli agent bilan toksinlar orasida farq yaqqol ko'ringandan so'ng "**virus**" so'zi **faqat yuqumli agentlarga nisbatan** qo'llanila boshlandi. Sekin-asta viruslar haqidagi bilimlar to'planaboshlandi. Masalan, Borrel virus bilan kasallangan organizmlarda hosil bo'ladigan "**elementar tanachalar**" ustida, Raus (1911) "**o'smalar**" hosil qiluvchi viruslar ustida (**tovuqlar sarkomasi virusi**), Rid virus kasalliklarini tarqatishda hasharotlarni roli haqida ishlar olib borishadi. Ammo bu ishlar viruslarni o'rganishni jadal rivojlanishiga olib kelaolmadı.

Birinchi jahon urushining oxirida katta emidemiyalar sodir bo'ldi. Albatta bular o'z navbatida virus infeksiyalariga katta qiziqish uyg'otdi. Gripp pandemiyasidan 20 million odam nobud bo'ldi, letargik ensefalitdan esa 80 000 odam kasallanishi ko'plab tadqiqodchilarni e'tiborini virus kasalliklariga qaratdi. O'sha vaqtda gripp kasalligini etiologiyasi bakteriyalar emas, balki virus etiologiyasi ega ekanligini tasdiqlab bo'lindi. Letargik ensefalitni ham virusini ajratib olish borasidagi ishlar muvaffaqiyat qozonmadı.

Viruslar haqidagi eksperimental faktlarni to'planishi viruslarni o'rganish metodlarini rivojlanishiga olib keldi. Viruslarni hujayra to'qimalarida, tovuq embrionlarida ko'paytirish, virus o'lchamlarini aniqlash, virus yuqqan hujayrlardagi elementar tanachalarni, kiritmalarni bo'yash, ba'zi serologik reaksiyalar va hokazolar rivojlanaboshladi. (Bular haqida keyiroq batatsil so'z yuritiladi). Virusni boshqa yuqumli agentlarga nisbatan ko'proq xalq sog'ligiga katta zarar keltirishi yaqqol ko'rina boshladı. 1929-1934-yillardagi Millatlar Ligasining epidemiyalar qo'mitasi hisoblariga qaraganda asosiy virus kasalliklaridan (gripp, qizamiq, poliomielit, chechak) 25 142 650 odam kasallangan bo'lsa, asosiy bakteriya kasalliklaridan esa 4 072 446 odam kasallangan.

1935-yilda L.Zilber taklifi va tashabbusi bilan Rossiyada Markaziy virusologiya laboratoriysi tashkil qilinadi. 1938-yilga kelib bu laboratoriya

Butunitifoq eksperimental meditsina virusologiyasi bilan qo'shilib, 1947-yilda ular asosida Meditsina Fanlar Akademiyasi qoshida "Virusologiya instituti" tashkil topadi. Qisqa vaqt (16 yil) ichida Rossiya virusologlari tomonidan ilgari noma'lum bo'lgan viruslarni (Uzoq-sharq ensefaliti, gemorragik bezgak va h.lar) kashf qilinadi va ularni qo'zg'atuvchilari, epidemiologiyasi aniqlanadi. Ko'pgina neyroviruslar, gripp, qizamiq va boshqalar o'rganiladi, viruslarni tabiatи va immunitet masalalarining nazariy tomonlari o'rganiladi.

Qishloq ho'jaligida ham virus kasalliklaridan katta zarar ko'rildi. Umumiy va o'simlik viruslari borasida V.Rijkov, viruslar morfologiyalarini E. Turevich va R.Shenlar, gemorragik bezgakni M.Chumakov, gripp va boshqa yuqumli kasalliklarni A.Smorodinsev, V.Solovyov va V.Jdanov, L.Zilber va A.Shubladze, A.Chumakovlar ensefalitlarni o'rganishadi. Uzoq sharq ensefaliti etiologiyasi va epidemiologiyasini esa ular tomonidan har tomonlama chiqur o'rganiladi.

Keyinchalik odam va hayvon viruslarini organlarga nisbatan kasalliklar keltirib chiqarishlari o'rganiladi va ularni guruhlarga bo'linadi: neyrotrop (qutirish, poliomielit, ensefalit va h.), dermatrop (chechak, ospavaksina, so'gal), pnevmotrop yoki respirator (gripp, psittakoz), enterotrop va politrop (qizamiq) viruslar. Viruslar ham ko'payish o'z virionlar turlarini turg'un saqlash, irsiy belgilarini keyingi avlodlarga berish va nobud bo'lish xususiyatlari o'rganiladi.

2.2.3. Hasharot viruslarini ochilishi

Hasharot viruslarini o'rganish bir qancha vaqtgacha virusologiyaning boshqa bo'limlari - odam va umurtqali hayvonlar viruslarini o'rganish qismidan orqada qoladi. Hozirgi vaqtida hasharotlarni kasallantiruvchi viruslarni shartli ravishda 3 guruhga bo'linadi: haqiqiy hasharot viruslari, hasharotlar oraliq xo'jayin bo'lgan odam va hayvon viruslari, hasharotlarni kasallantiradigan o'simlik viruslari. Birinchi aniqlangan hasharot virusi ipak qurtining sariq kasalligi virusi (Bollea stilpotiae deb nomlangan ipak qurtining poledrozi virusi kasalligi). 1907 yili Pravocheck kasal lichinka gomogenatini sog' ipak qurti lichinkasiga yuqumlikligini isbotlaydi, 1947-yil nemis olimi Bergold tayoqchasimon viruslarni kuzatadi.

Chivin va moskitlar tomonidan o'tadigan sariq isitma (bezgak) ham filtrlanuvchi virus ekanligini 1900-1901-yillari Rid tomonidan aniqlanadi. Moskitlar yuqumli qonni so'rib olganlaridan so'ng 2 hafta davomida yuqumlilik xususiyati namoyon bo'lmaydi, bu vaqt hasharotlarda virusning reproduksiyalanadigan inkubatsiya davri ekanligi aniqlandi.

O'simlik viruslarini o'z tashuvchi hasharotlarida ko'payishi xususiyati 1952-yil Maramorosh tomonidan aniqlanadi. Hasharotlarga in'eksiya qilish texnikasidan foydalanib astra sariq kasalligini o'z tashuvchisi – olti nuqtali sikadkada ko'payishini ko'rsatib beradi.

2.3. Virusologiyaning rivojlanish bosqichlari

XIX asr oxiri va XX asr boshlari Virusologiyaning rivojlanishi viruslarni tadqiq qilish metodlarini yutuqlari bilan chambarchas bog'liq. Viruslarni ochilishi va virusologiyadagi ba'zi muhim voqealar virusologiya metodlarini ochilishiga bog'liqligi qisqacha 1-jadvalda keltirilgan. (Mazkur qismni 2012-yilgacha bo'lgan intepHet ma'lumotlariga asoslangan holda (60) to'liq yoritishga harakat qilindi.)

Shamberlen bakteriya filtrlari orqali filtrlash metodi asosida amalga oshirildi. Bu usulda kasallik qo'zg'atuvchini bakteriyalardan, ya'ni bakteriyalarni nobakteriyalardan ajratildi. Natijada bu usulni qo'llab quyidagi viruslar aniqlandi:

1982-yil tamaki mozaikasi virusi, 1898-yil oqsim-yashchur (qirov) kasalligi virusi, 1899-yil shoxli mollar chumasi virusi, 1900-yil sariq bezgak virusi, 1902-yil parranda va qo'ylar chumasi virusi, 1900-yil qutirish va cho'chqalar chumasi virusi, 1904-yil odam chechagi virusi, 1905-yil itlar chumasi va vaksina virusi, 1907-yil denge virusi, 1908-yil chechak va traxoma viruslari, 1909-yil poliomielit virusi, 1911-yil Raus sarkomasi virusi, 1915-yil bakteriofaglar, 1916-yil qizamiq virusi, 1917-yil uchuq virusi, 1926-yil vezikulyar stomatit viruslari kashf qilindi.

30 - yillar viruslarni ajratish va identifikatsiya qilish uchun asosiy virusologiya metodi bo'lib laboratoriya hayvonlarini qo'llanilishi bo'ldi (gripp viruslari uchun oq sichqonlar, Koksaki viruslari uchun yangi tug'ilgan sichqonlar, shimpanze – V hepatiti virusi uchun, onkogen viruslar uchun kaptarlar, ichak viruslari uchun - gnotobiont cho'chqa bolalari va h.). Birinchi marta laboratoriya hayvonlarini viruslarni ajratishda ishlatish 1881-yilda Pasterdan boshlangan. U qutirish kasalligi virusini quyonlar miyasiga yuqtirib, qutirish kasalligi virusini kuchsizlantirilgan (attenuirlangan) formasini olgan, keyinchalik bu sikldagi ishlarni qo'llanilishining avjga chiqqan vaqt 1948-yilda Sayklz tomonidan mialgiya epidemiyasi viruslari guruhini ajratishda emadigan sichqonlarni ishlatilgan.

1931-yilda viruslarni ajratishda tovuq embrionlarini ishlatishni A. Woodruff va E. Goodpasture lar taklif qilishadi. Tovuq embrionlari gripp, chechak, leykoz, tovuqlar sarkomasi kabi viruslar ajratishda yaxshi model bo'lib ishlatildi. Xorioallantois qobig'i to'qimalarida va allantois suyuqligida juda katta miqdorda virus to'plash va uni keyinchalik tozalash imkoniyati paydo bo'ldi. Bu albatta virusni tovuq to'qimalarini virus bilan kasallantirib va undan virus ajratgandan ko'ra ancha engillik bilan virus ajratish imkonini tug'dirdi. Tovuq xoriallantois to'qimalarida viruslar bilan kasallanganda spetsifik simptomlarni hosil bo'lishi yoki ularni tovuq yoki boshqa hayvon eritrotsitlarini agglyutinatsiya qilishi fenomeni G. Hirst (1941) tomonidan gripp virusini o'rganish jarayonida kuzatiladi va keyinchalik bu xususiyat boshqa viruslarga ham xos ekanligi aniqlanadi. 1932-yil ingлиз kimyogari Elford tomonidan sun'iy mayda porali kolloid membranalarni kashf qilinishi ultrafiltratsiya metodiga asos bo'ldi. Bu

metod bilan viruslarni o'lchamlarini aniqlash va viruslarni bu belgilari bilan differensiatsiya qilish imkoniyati yaratildi.

1935-yili Stenli tomonidan sentrifugalash metodini ishlatish tamaki mozaikasi virusini kristalizatsiyalash imkonini berdi. Hozirgi kunda ham sentrifugalash va ultratsentrifugalash (probirka tagida tezlanish 200 000 g dan oshadi) – differential sentrifugalash viruslarni ajratish va tozalashda keng qo'llanilmoqda.

1939-yilda viruslarni o'rganishda birinchi marta elektron mikroskop ishlatildi, bu mikroskoplarni ko'rsatish imkonini 0,2-0,3 nm bo'lgan. To'qimalarni o'ta yupqa kesmalarini olish va ishlatish va viruslarni suvli suspenziyalarini negativ kontrastlash metodlarini ishlatish virus va hujayra orasidagi munosabatni hamda virionlarni strukturalarini (arxitekturasini) o'rganish imkoniyatini berdi. Elektron mikroskopda olingen kristallar va psevdokristallar haqidagi ma'lumotlarni rengrenstruktura analizi yordamida birmuncha kengaytirildi. Elektron mikroskopni takomillashtirilishi viruslarni skanirlash yordamida ma'lum hajmdagi shaklini ko'rish imkonini berdi. Elektron mikroskop yordamida viruslarni arxitekturasini, ayniqsa, viruslarni hujayraga kirish jarayoni mukammal o'rganildi.

Bu davrga kelib viruslarni asosiy qismlari kashf qilindi. Misol tariqasida quyidagilarni keltirish mumkin: 1931-yil cho'chqa grippi virusi va otlarni g'arbiy ensefaliti viruslari, 1934-yil parotit virusi, 1936-yil sichqonlar sut bezlari raki virusi, 1937-yil kana ensefaliti viruslari aniqlandi.

40-yillar: 1940-yilda Xogland safdoshlari bilan ospovaksina virusini faqat DNA tutishini isbotladi. Viruslarni bakteriyalardan yana bir farqli tomoni ularda faqat bir tipdag'i nuklein kislotaning mavjudligi (DNA yoki RNA) aniqlandi.

1941-yilda amerika olimi Xerst tomonidan grippi virusi modelida gemagglyutinatsiya fenomenini ochildi (eritrotsitlarni yopishishi). Bu kashfiyat viruslarni ajratish va identifikatsiya qilish va virus va hujayra orasidagi munosabatlarni o'rganish asosini tashkil qildi. Gemagglyutinatsiya metodi ko'pgina metodlar asosini tashkil etdi: RGA – (reaksiya gemagglyutinatsiya) – viruslarni aniqlash va titrlashda qo'llaniladi, RTGA – (reaksiya tormojeniya gemagglyutinatsii), 1942-yilda Xerst grippi virusida ferment borligini aniqlaydi va u keyinchalik neyramnidaza fermenti ekanligi isbotlanadi. 1949-yilda hayvon to'qimalari hujayralarini sun'iy muhitda o'stirish imkoniyatining borligi kashf qilindi.

1952-yilda Enders, Ueller va Robinslar hujayralarning o'stirish metodini ishlab chiqqanlari uchun Nobel mukofotini olishdi. Bu metodni virusologiyada yo'lga qo'yilishi virus vaksinalarni o'stirish (ko'paytirish) yo'li bilan olish imkoniyatini berdi.

Hozirgi kunda "attenurilangan" virus shtammlari asosida o'stirilgan tirik va o'ldirilgan vaksinalarni yaratish keng yo'lga qo'yilgan, poliomielit, parotit, qizamiq va qizilcha (krasnuxa) lar vaksinalarini shu qatorga kiritish mumkin (1-jadval).

1-jadval

Viruslarni kashf qilinishini viruslarni tadqiq qilish metodlarini ishlab chiqilishiga bog‘liqligi (60)

Birinchi marta ishlatilgan metodlar, metodik ishlanmalar	Ochilish yili	Viruslar, kasalliklar
Bakterial filtrlardan viruslarni filtrlash	1982	Tamaki mozaikasi virusi (D.I.Ivanovskiy)
	1898	qirov (yashchur) (Leffler va Frosh)
	1899	parranda va qo‘ylar chumasi
	1900	sariq bezgak
	1902	qushlar va qo‘ylar chechagi
	1903	qutirish va cho‘chqalar chumasi virusi
	1904	odam chechagi virusi
	1905	itlar chumasi va vaksina virusi
	1907	denge virusi
	1908	chechak va traxoma
	1909	poliomielit
	1911	Raus sarkomasi
	1915	bakteriofaglar
	1916	qizamiq
	1917	uchuq
	1926	vezikulyar stomatit
Laboratoriya hayvonlarini qo‘llanilishi	1881	qutirish (Paster)
	1931	cho‘chqalar gripi, otlarni g‘arbiy ensefalitali
Yangi tug‘ilgan sichqonlar		koksaiki
Kaptarlar		V hepatiti
Shimpanze		onkogen viruslar
Cho‘chqa bolalari		ichak viruslari uchun
Viruslarni ajratishda tovuq embrionlarini ishlatish	1931	gripp, chechak, leykoz, tovuqlar sarkomasi kabi viruslar (A. Woodruff i E. Goodpasture)
	1933	odam grippi va otlarning sharqiy ensifalitali
	1934	parotit
Sentrifugalash metodini ishlatish	1935	TMVning kristallari olindi(Stenli)
	1936	sichqonlar sut bezlari raki
	1937	kana ensefalitali
Viruslarni o‘rganishda birinchi marta elektron	1939	A.V.Arden, G.Ruske

mikroskop ishlatalishi		
Ospovaksina virusini faqat DNK tutishini isbotladi. bir tipdagi nuklein kislotaning mavjudligi aniqlandi – DNK yoki RNK.	1940	ospovaksina virusini DNK tutishi (Xogland va safdoshlari)
Gemagglyutinatsiya fenomenini ochilishi (eritrotsitlarni viruslarga yopishishi)	1941	gripp virusini o‘rganish jarayonida (G. Hirst)
	1942	gripni neyramnidaza fermenti (G. Hirst)
	1945	Qrim gemorragik isitmasi virusi
	1948	Koksa viruslari
Emadigan sichqonlar	1948	mialgiya epidemiyasi (Sayklz)
Hayvon to‘qimalari hujayralarini sun’iy muxitda o‘stirish	1949	
Viruslarni ko‘paytirish uchun to‘qima kulturalarini ishlatalish metodi	1950	F. Bobbins i J. Enders
Tirik vaksina (attenuirlash asosida)		poliomielitga qarshi (Sebin)
O‘ldirilgan vaksina		poliomielitga qarshi (Solk)
Lizogen faglar profagining induksiyasi isbotlandi	1950	(Lvov va b.,)
Sitomegalovirus, respiratopHo-sinsstitial viruslar;	1951	sichqonlar leykozi va ESNO viruslari;
Hujayralarning o‘stirish metodini ishlab chiqqanlari uchun Nobel mukofotini berilgan	1952	Enders, Ueller va Robinslar
Bakteriofaglarning yuqumliligi faqat DNK siga bog‘liqligi isbotlandi	1952	T-2 fagi (Xershi va Ch eyz)
Tovuq embrioni hujayralarining monosloyida blyashkalarni titrlash, miqdoriyani aniqlash metodi	1952	Dulbekko
	1953	adenoviruslar
	1954	qizilcha (krasnuxa);

Tamaki mozaikasi virusini rekonstruksiyalangan yuqumliligi saqlangan zarralarini olindi	1955-57	TMV(Frenkel-Konrat, Vilyams, Singer)
Virus zarrasining simmetriyasi nazariyasini ishlab chiqildi	1956-62	virus zarrasining strukturasi viruslar klassifikatsiyasi sistemasidagi mezonlardan biri bo‘ldi (Kaspar (Amerika) va Klug (Buyukbritaniya)
	1956	paragripp virusi virusilari; sitomegalovirus, respiratopHo-sinsitital viruslar;
	1957	polioma virusi
Elektronmikroskopda viruslarni negativ kontrastlash	1957	viruslarni strukturalarini o`rganish (N. Huxley)
	1959	argentina gemorragik isitmasi virusi.
	1960	rinoviruslar
	1963	avstraliya antigeni (NBsAg) aniqlandi
φX174Bakteriofagni sintez qilish	1967	φX174 bakteriofagini sintez qiladi (A.KopHberg)
Ospovaksina virusi tarkibida DNK-mute,(tobe, muxtoj) (zavisimiy) RNK polimerazani aniqladilar	1967	ospovaksina (MakAuslan)
Poliovirus genomini RNK si poliproteinni translyasiyasi sintezi amalga oshirildi	1968	poliovirus (Baltimor va Boston)
RNK-tobe. RNK-polimeraza	1968	Reovirus, paramiksa-va rabdoviruslada
Teskari transkriptaza (revertazalar)	70-yillar	RNK-tutuvchi onkogen viruslar (Baltimor, Tyomin va Mizutani)
m-RNKda kep-struktura borligi va uni RNK translyasiyasida, mRNK 3'uchida poliadinel ketaketligini borligi, splaysing va enxanserlarni transkriptiyadagi roli	1970	hayvon viruslari
	1970	V-gepatiti virusi,
	1973	rotaviruslar va A-gepatiti virusi
Monoklonal antitelalar(MKA) hosil qiladigan gibrid	1975	Keler va Milshteyn

liniyalarni birinchi bor olindi		
Gepatitni har xil viruslar tomonidan qo‘zg‘atilishi tasdiqlanadi.	1976	gepatit A va hepatit B (Blamberg)
	1977	delta- hepatiti viruslari
	1983	odam immuntanqisligi virusi
PSR metodi ochilishi	1985	qator virusmlar ochildi:
	1989	S-hepatiti virusi
PSR metodi	1995	G-hepatiti viruslari

Poliomielitga qarshi vaksinalarni amerika virusolog Sebin (attenuirlash asosida poliovirus shtammlarining uchta serotipiga uch valentli tirik vaksina) va Solk (o‘ldirilgan uch valentli vaksina) lar tomonidan yaratildi. Poliomielitga qarshi tirik va o‘ldirilgan vaksinalarni yaratish texnologisi Rossiya virusologlari CHumakov va Smorodinsevlar tomonidan ishlab chiqildi.

1945-yilda Qrim gemorragik isitmasi virusi, 1948-yil Koksaki viruslari kashf qilindi.

50-yillar 1950-yilda F. Bobbins i J. Enders lar tomonidan virusologiyada revolyusiya qilinadi, ya’ni ular viruslarni ko‘paytirish uchun to‘qima kulturalarini ishlatish metodini ishlab chiqishadi. Ularni bu metodi har qanday hujayra kulturasini o‘sirish imkoniyatini yaratdi. O‘sirilgan to‘qimalarni qalinligi bir hujayradan iborat bo‘ladi va ularda barcha hujayralarni kasallantirish imkon tug‘iladi va viruslarni maksimal miqdorda ajratsa bo‘ladi, hujayra oqsillari esa bunda minimal bo‘ladi. To‘qima kulturalarida viruslarni o‘stirganda ulardagi virusning sitopatik ta’sirida hosil bo‘lgan xarakterli sitopatik o‘zgarishlarni – “blyashka”lar yoki dog‘larni asboblarsiz ko‘rish va aniqlash mumkin bo‘ldi. Ko‘p viruslar to‘qima kulturasida o‘sganda gemaadsorbsiya hodisasini (gemagglyutinatsiyaga o‘xhash) namoyon qiladi. Bu hodisalarni spetsifik bo‘lishi to‘qima kulturalarida viruslarni titrlash va maxsus sivorotkalar bilan neytralizatsiya reaksiyalarini olib borish imkoniyatini yaratdi.

Endi avvallari virus turiga qarab hayvonlarni virus kasalligiga nisbatan sezgirli har xil bo‘lishi kabi chegaralar yo‘qoldi. 50-yillarda bu metod virusologyaning barcha tarmoqlarida keng qo‘llanildi va avval noma’lum bo‘lgan ko‘pgina viruslar ochildi..

1952-yilda Dulbekko tomonidan tovuq embrioni hujayralarining monosloyida blyashkalarni titrlash metodi ishlab chiqildi. Bu metod o‘z navbatida virusologiyaga viruslarni miqdoriy aniqlash usulini kiritdi.

Bu davr bakteriofaglarda ham katta yutuqlarga erishish davri bo‘ldi.

Lizogen faglar profagining induksiyasi isbotlandi (Lvov va b., 1950), bakteriofaglarning yuqumliligi uning oqsiliga emas, balki faqat DNK siga bog‘liqligi isbotlandi (Xershi va CHeyz, 1952). Umumiy transduksiya hodisasi kashf qilindi (Sinder, Lederberg, 1952). Frenkel-Konrat, Vilyams, Singer, 1955-57 yy.) tamaki mozaikasi virusini rekonstruksiyalangan yuqumliligi saqlangan zarralarini olish, 1955-yilda Shaffer va Shverdlar tomonidan

poliomielit virusini kristall holatida olindi. Mazkur yillarda quyidagi viruslar kashf qilindi: 1951-yilda sichqonlar leykozi va ESNO viruslari; 1953-yilda adenoviruslar; 1954-yilda qizilcha (krasnuxa); 1956-yilda paragripp viruslari; sitomegalovirus, respirator-sinsitial viruslar; 1957-yilda polioma virusi; 1959-yilda argentina gemorragik isitmasi virusi ochildi.

1957-yilda N. Huxley tomonidan elektronmikroskopda viruslarni negativ kontrastlash usuli yo‘lga qo‘yildi va natijada viruslarni ayrim strukturalari va makromolekulalarini farqlash imkoniyati yaratildi.

Kuns (A. Coons i dr., 1941) tomonidan antitelolarni flyuoroxromlar bilan markirovka qilish lyumenessent mikroskoplarda hujayrada to‘plangan virus oqsillarini to‘planish dinamikasini o‘rganishga olib keldi. Ferritin-kon’yugirlangan antitelolarni qo‘llanilishi (S. Singer, 1959) virus oqsillarini elektron mikroskopda kuzatishda spetsifik kontrastlash imkonini yaratdi. Sentrifugalashni mukammalashishi, ionalmashish smolalarini va boshqa adsorbentlarni qo‘llash, spektroskopiyanı qo‘llash virus oqsili va nuklein kislotalarini fraksiyalarga ajratish imkonyatlarini yaratdi. Radioaktiv izotoplар va avtoradiografiya texnikasi va rentgenostruktura analizlarini qo‘llash virusologiyada eng yaxshi va aniq natijalar berdi.

60-yillarga kelib **molekulyar biologiya** metodlarini viruslarni tavsiflashda o‘ta gullagan vaqt bo‘ldi. Ximiya, fizika, molekulyar biologiya va genetika fanlarini yutuqlari virusologiyaning rivojlanish metodikasining asosini tashkil qildi. Molekulyar biologiyaning barcha yutuqlarida viruslarni model sifatida ishlatildi.

1967-yilda Kates va Mak Auslan ospovaksina virusi tarkibida DNK- mute (zavisimiy) RNK polimerazani aniqladilar. Keyingi yili reoviruslarda va undan keyinroq paramikso- va rabdoviruslarda 1968-yilda Yakobson va Baltimorlar tomonidan RNK polioviruslarida genom oqsili borligi isbotlandi. So‘ngra Baltimor va Bostonlar tomonidan poliovirus genomi RNK si poliproteini translyasiyasi sintezi amalga oshirildi, 1960-yilda rinoviruslar, 1963-yil avstralaliya antigeni (HBsAg) aniqlandi.

70-yillar Baltimor bilan bir vaqtida Tyomin va Mizutanilar RNK-tutuvchi onkogen viruslar tarkibida qaytalama transkriptaza(revertaza) fermenti borligini xabar qilishadi. Endi RNK-tutuvchi viruslar genomini o‘rganish real haqiqat bo‘lib qoldi.

Eukariotlar viruslari genlari ekspressiyasini o‘rganish eukariotlarning o‘zlarini molekulyar biologiyasi haqidagi fundamental axborotni berdi, ya’ni mRNA dagi kep- strukturani borligini va uning RNK translyasiyasidagi rolini, mRNAning 3’-oxirida poliadenil kislota ketma-ketligini borligi, splaysing va enxarsenlarning transkripsiadagi rollari hayvon viruslarini o‘rganishda ochildi.

1972-yilda Berg DNK molekulasining rekombinantlarini yaratish haqida ma’lumot chop etadi. Endi molekulyar biologiyaning yangi bo‘limi- gen injeneriyasi paydo bo‘ladi. DNK rekombinantlari texnologiyasini qo‘llash tibbiyotda katta ahamiyatga ega bo‘lgan oqsillarni (insulin, interferon, vaksinalar) olish imkonini berdi. 1975-yilda – Keler va Milshteynlar monoklonal antitelalar

(MKA) hosil qiladigan gibrildi liniyalarni birinchi bor olishadi. MKA lar asosida viruslarni diagnostika qilishning eng spetsifik test-sistemalari ishlab chiqiladi. 1976-yilda Blamberg NbsAg ni kashf qilishgani uchun Nobel muofotini olishadi. Gepatit A va gepatit B har xil viruslar tomonidan qo‘zg‘atilishi tasdiqlanadi.

1970 y.- V-gepatiti virusi, 1973-yilda rotaviruslar va A-gepatiti virusi, 1977-yilda delta- gepatiti viruslari ochildi.

80-yillarda L.A.Zilber tomonidan asos solingan o‘smalarni paydo bo‘lishi viruslarga bog‘liqligi haqidagi dunyoqarash rivojlanadi. O‘smalarni rivojlanishiga javobgar virus qismlarini onkogenlar deb nomlandi. Virus onkogenlari eng yaxshi model sistema ekanligi aniqlanadi, ya’ni bu sistema sutmizuvchilar hujayralari onkogenetik transformatsiyasi mexanizmini o‘rganishda yordam beradi.

1985-yilda Myullis polimer zanjir reaksiyasini (PSR) kashf qilgani uchun Nobel mukofotini oladi. Bu molekulyar-genetik diagnostika metodi rekombinant DNK olish texnologiyasini mukammallashtirib, yangi viruslarni ochilishi imkoniyatini berdi. Quyidagi viruslar ochildi: 1983-yilda odam immuntanqisligi virusi, 1989-yilda S-gepatiti virusi, 1995-yilda PSR metodini qo‘llab G-gepatiti viruslari ochildi.

2.4. Viruslar tabiatini haqidagi konsepsiyaning rivojlanish muammolari haqidagi fikrlar(60)

Viruslar kashf qilingandan buyon viruslar nima va ularning tabiatini qanday degan savollar birqancha yillardan buyon baxslashishlarga sabab bo‘lib kelgan (65). 20-30-yillarda viruslarni tirik materiya ekanligi to‘g‘risida hechkim shubhalanmagan. 1930-40-yillarga kelib viruslar bu mikroorganizmlar, chunki ular ko‘payish xususiyatiga ega, irlsiyatga ega, o‘zgaruvchanlikga ega, yashash muhit o‘zgarishiga moslashaoladigan tabiiy va suniy tanlanadigan biologik evolyusiya bilan ta’minlangan, degan fikrlar hukm surgan bo‘lsa, 60-yillarga kelib molekulyar biologiyaning rivoji viruslarni organizm deb hisoblagan bu konsepsiyanı noto‘g‘ri ekanligini ko‘rsataboshladi. Viruslarni ontogenetik siklida - hujayradan tashqari va hujayraviy ikki formasini ajratildi. Hujayradan tashqari formasini **virion** deb nomlandi. Virionning tuzilishi hujayra tuzilishidan farqliligi ko‘rsatildi. Viruslarni ko‘payishi hujayranikidan tubdan farqlanishi va ularni ko‘payishini dis‘yunktiv reproduksiyanish deyildi. Dis‘yunktiv ko‘payish deganda viruslarni tashkil qiluvchi qismlarni, ya’ni genetik materiali va oqsillarini vaqt va hududiy ayrim-ayrim sintezlanishi va keyingi qurilishi va virionning shakllanishini tushuniladi. Viruslarni genetik materiali yoki DNK dan yoki RNK dan iboratligi ko‘rsatildi. Viruslarni boshqa hayot formalaridan farqlashning asosiy va absolyut mezoni bu ulardagи o‘z oqsil sintezlovchi sistemasini yo‘qligidir.

To‘plangan materiallar viruslarni o‘ta kichik organizmlardan ham kichikligini, ya’ni ular minimal organizmlar bo‘lgan mikoplazmalar, rikketsiyalar

va xlamidiylardan ham kichik va o‘z oqsil sintezlovchi sistemalariga ega bo‘lماgan agent ekanligini ko‘rsatdi.

V.M.Jdanovning viruslarni tabiatni haqidagi fikri bo‘yicha: “ viruslar faqat tirik hujayralardagina hayot faoliyati kechadigan, ularning nuklein kislotasining sintezlanishi hujayraga qisman(har xil darajada) bog‘liq bo‘lgan, hujayraning oqsil sintezi va energetik sistemalariga esa to‘la bog‘liq bo‘lgan va mustaqil evolyusiyaga uchraydigan avtonom genetik strukturalardir”, - deydi.

Parazitologiya nuqtai nazaridan viruslar obligat hujayraaro parazitlardir. Parazitizm (parazit grekcha tekinxo‘r (naxlebnik - parasitos)) degan ma’noni bildirib, ikki organizmni biri ikkinchisiga zarar keltirib yashashidir. Bunda parazit xo‘jayin organizmga ham fizik, ham fiziologik jihatlardan bog‘liq bo‘ladi. Viruslar genetik parazitlardir. Bu parazitizm viruslarni genomini hujayraning genomini bilan bilan integratsiyalanishida yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu nuqtai nazaridan viruslar molekulyar va molekulyar genetik darajada parazitlik qiladigan hayotning hujayrasiz formasidir.

SHunday qilib, viruslar xilma-xil ko‘p sonli guruhga ega, mikroorganizm bo‘lماgan va Vira saltanatiga birlashgan hayotning hujayrasiz formasidir.

Yuqorida takidlangan fikrlar va to`plangan ma’lumotlarni umumlashtirib yana bir bor viruslarga quyidagicha ta’rif bersa bo‘ladi deb o‘ylaymiz:

“Viruslar organizm, hatto o‘ta kichik organizm - mikroorganizm ham bo‘lماgan, minimal organizmlar bo‘lgan mikoplazmalar, rikketsiyalar va xlamidiylar kabi o‘z oqsil sintezlovchi sistemalariga ham ega bo‘lماgan, nuklein kislotasining sintezi har xil darajada hujayraga bog‘liq bo‘lgan, hujayra oqsil sintezi va energetik sistemasiga esa to‘la bog‘liq bo‘lgan va mustaqil evolyusiyaga uchraydigan, avtonom genetik strukturalar bo‘lib, tabiatning mikroskopik molekulalarga yaqin qilib yaratgan, o‘ziga xos parazitlik qilib yashaydigan, xilma-xil, ko‘p sonli guruhlarga ega va Vira (Vira) olamiga birlashgan hayotning hujayrasiz formasidir”.

Viruslar virusologiyada o‘rganiladigan mustaqil fan dissiplinasi bo‘lib, o‘z ob’ekti va tadqiqod metodlariga ega.

Virusologiya umumiyyatini maxsus virusologiyaga bo‘linadi va qilinadigan virusologiya tadqiqodlari **fundamental va prikladnoy** (amaliy) tarmoqlarga bo‘linadi. Virusologiyaning fundamental tadqiqodlarini **predmeti** bo‘lib virionlar arxitekturasi, ularni tarkibi, virus va hujayra orasidagi munosabatlar, irsiy axborotni berilish usullari (yo‘llari), elementlarni sintezining molekulyar mexanizmi va ularni bir butun bo‘lib birlashishi, viruslarni o‘zgaruvchanligi va evolyusiyasining molekulyar mexanizmlarini o‘rganishdir. Virusologiyaning prikladnoy (amaliy) tomonlarini yechish tibbiyot, veterenariya va fitopatologiya problemalari yechish bilan bog‘liqdir (60).

2.5. Viruslarning ahamiyati

Viruslarni foydali maqsadlarda ishlatalish XX asrdan boshlandi. Quyon miksomatozi kasalligini qo‘zg‘atuvchi virusni Avstraliyada quyonlarni tez

ko‘payishiga qarshi ishlatildi. Hozirgi kunlarda olimlarda kelajakda molekulyar genetikaning muvaffaqiyatlaridan foydalanilgan holda sun’iy viruslarga kerakli genlarni kiritib, sog‘ hujayralarni shikastlamay faqat kasal hujayralarnigina nobud qiladigan yoki davolaydigan viruslarni ishlatish fikrlari mavjud.

Virus kasalliklarini ahamiyati kattaligini bilgan holda urushdan keyin Sobiq SSSR vaqtida iqtisodiy tanglikka qaramasdan doimo yangi virusologik tashkilotlar ochishga mablag‘ ajratildi. Bulardan D.I.Ivanovskiy nomidagi Virusologiya instituti, Gamaleya nomidagi Epidemiologiya instituti. Poliomielit va virus ensefalitlari instituti, Sankt-Peterburgdagi Gripp instituti, Virus preparatlari ilmiy –tadqiqod institutlarini ko‘rsatish mumkin.

Yildan-yilga virus kasalliklarini soni ortmoqda. Smorodinsevni (1979) ko‘rsatishicha virus kasalliklarini soni 500 dan ortib ketgan. Virus kasalliklarini tabiatini o‘rganishda Rossiya olimlarini salmoqli xizmatlari bor. Gripp bir necha yuz yillardan buyon ma’lum bo‘lsa ham uni qo‘zg‘atuvchisi 1933-yilda Angliya olimi K. Smit va Rossiya olimi A.Smorodinsevlar tomonidan ajratib olindi va xususiyatlari ta’riflab berildi.

Viruslar odam, hayvon va o‘simliklarda ko‘plab havfli kasalliklarni qo‘zg‘atadi. Ular to‘g‘ridan-to‘g‘ri kontakt vaqtida, havo-tomchi, jinsiy va boshqa yo‘llar bilan o‘tadi. Viruslar boshqa organizmlar (tashuvchilar) orqali ham o‘tadi: masalan qutirish virusi itlar va ko‘rshapalaklar orqali o‘tadi. Qator virus guruhlari odam uchun patogendir. Ularga DNK–tutuvchi (chechak viruslari, uchuq viruslar guruhi, adenoviruslar (nafas olish va ko‘z kasalliklari)), papovaviruslar (so‘gal viruslari), gepadnaviruslar (V hepatiti), hamda RNK–tutuvchi viruslar (pikopHaviruslar, A-hepatiti, poliomielit, ORZ), miksoviruslar (gripp, qizamiq, tepki), arboviruslar (ensefalit, sariq bezgak va hokazo) kiradi (1-jadval).

1981 yilda aniqlangan “Odam immun tanqisligi virusi” (SPID kasalligi) ham virus kasalliklariga kiradi. Viruslar juda tez o‘zgaruvchanlik - yuqori mutatsiyalanish xususiyatiga egaligi ular yuqtirgan kasalliklarni davolashni mushkullashtiradi (masalan gripp virusi). Kuchsizlantirilgan (attenuirlangan) mikroorganizmlarni yoki mo‘‘tadil (bir-biriga yaqin, nopalogen) shtammlardan tayyorlangan vaksinalarni odam organizmiga yuborish muvaffaqiyat bilan qo‘llanilmoqda.

Viruslarni EpHing flora va faunasi vakillari bilan genetik bog‘liligi bor. Oxirgi tadqiqodlar bo‘yicha 30% dan ortiq odam genomidagi axborotlar virusga o‘xshash elementlar va transpozonlar tomonidan kodlantirilgan. Viruslar yordamida genlarni gorizontal o‘tishi ro‘y berishi mumkin, ya’ni genetik axborotni ota-onadan o‘g‘il-qizga va hokazogina emas, balki qarindosh bo‘lмаган osoblar orasida (yoki ikki har xil turga mansub) o‘tishi mumkin. Primatlarning genomida retroviruslar tomonidan kiritilgan sinsitin oqsili borligi aniqlandi.

1955-yilda X.Frenkel-Konrat va R.Uilyams virus RNK si oqsilini ajratadi va yana qaytadan resintezlaydi. Yuqumlilik xususiyati faqat nuklein kislotaga

xosligi, oqsil qismi esa kasallangan hujayraga doimo ham o‘tavermasligi aniqlandi.

1967-yilda A.KopHberg φX174 bakteriofagini sintez qiladi. Uni kimyoviy tarkibi tabiiy fagni kimyoviy tarkibiga mos keladi, ammo yuqumlilik xususiyatiga ega bo‘lmadi. YAqinda ochilgan ferment chiziqli (lineyniy) DNK strukturasini siklik holatga birlashtiradi va unda fag va bakteriyalarga xos xususiyat paydo bo‘ladi. Bularni jami hayotni hujayrasiz darajada (nukleoproteidlar molekulalaridan tuzilgan murakkab strukturalardagidek) hayot borligi ko‘rinadi.

2.6. Viruslarni kelib chiqishi haqidagi muammoli fikrlar

Viruslarni evolyusion kelib chiqishi haqida ham turli fikrlar mavjud bo‘lib ulardan ba’zilari haqida quyida fikr bildiriladi. Viruslarni evolyusion nuqtai nazardan bir-biri bilan bog‘liqligini bilish, ularni klassifikatsiyasini tuzish asosida yotuvchi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi. Eng haqiqatga yaqin gipoteza bu ularni hujayraning genetik elementlarini (nuklein kislotalari) avtonom “xo‘jayin-hujayra”ga bog‘liq bo‘lmagan holda replikatsiyalanish hususiyatiga ega bo‘lishidir. Viruslarni ko‘payishi ham boshqa organizmlarnikidan tubdan farq qiladi. Viruslar faqat tirik hujayradagina ko‘payaoladilar, “xo‘jayin-hujayra”dan o‘zlarining nuklein kislotalari va oqsillarini sintezi uchun foydalanadilar. Hujayra ichiga kirgan virusning oqsil qavati parchalanadi, uni nuklein kislotasi matritsa vazifasini bajarib, xo‘jayin-hujayra ishtirokida virus o‘z nuklein kislotasi va oqsil qobig‘i va boshqa tarkibiy qismlarini sintez qiladi. Viruslar hujayradan hujayraga inert mavjudot kabi o‘tadi, degan fikrlar mavjud edi va unga asoslanib, **viruslar hujayrali organizmlardan kelib chiqqan deb xulosa qilingan**.

Viruslarni kelib chiqishi haqida oxirgi fan ma’lumotlari ko‘rsatishicha ular umumiy ajdodga ega bo‘lmagan **yig‘ma guruhi** deb hisoblanadi. Hozirgi kunda viruslarni kelib chiqishi haqida birqancha gipotezalar mavjud: **DNK-tutuvchi yirik viruslar o‘z genomini salmoqli qismini yo‘qotgan murakkab hujayra parazitlaridan (mikoplazma va rikketsiylardan) kelib chiqqan** deb ham hisoblanadi (yuqorida aytilgan fikpHing tasdig‘i desa ham bo‘ladi). Haqiqatdan ham, ba’zi yirik DNK-tutuvchi viruslar birinchi qarashda funksional fermentlarni ortig‘i bilan kodlantiradi, bu balki murakkab hayot formalaridan meros bo‘lib qolgan bo‘lishi mumkin.

Aytib o‘tish joyizki, ba’zi virus oqsillarini bakteriyalar, arxeylar va eukariotlar oqsillari orasida hech qanday gomologiyaga (o‘xshashlikga) ega emasligi kuzatilgan. Bu esa mazkur guruhni avvaldan yaralganligidan darak beradi degan fikrlar mavjud.

Bu haqda yana boshqa bir fikr bo‘yicha RNK-tutuvchi viruslarni kelib chiqishini viroidlar bilan bog‘lanadi. Viroidlar hujayra RNK-polimerazasi tomonidan replikatsiya qilingan murakkab tuzilishga (yuqori konstruksiga) ega RNK ning halqali fragmentidir. Viroidlar – m-RNKning(informatsion RNK (i-RNK) ning) ahamiyatsiz (mazmunsiz) qismlarini splaysing vaqtida

qirqilgani -“qochib qolgan intronlari (kodlanmaydigan qismlar)” dir. Ular keyinchalik tasodifan replikatsiyalanish xususiyatiga ega bo‘lib qolishgan deyiladi.

Viroidlar oqsillarni kodlantirmaydi. Viroidlarni kodlantiruvchi qismlarga ega bo‘lishi birinchi RNK-tutuvchi viruslarni paydo bo‘lishiga olib keldi. Haqiqatdan ham, misol uchun, “viroidga-o‘xhash” uchastkalarga ega viruslar bor. Misol qilib, Delta gepatiti virusini aytish mumkin.

2.7. Viruslarni ishlatilishi

Viruslar zararli ahamiyat kasb etishi bilan bir qatorda foydali hamda strategik maqsadlarda ham foydalanishi mumkin. Bunga birinchi bo‘lib XX aspHing boshlarida Avstraliyada yuqorida ta’kidlanganidek quyon miksomatozini quyonlarni tez ko‘payishiga qarshi ishlatilishini keltirish mumkin. Bundan tashqari bugungi kunda viruslardan genlarni hujayrraga ekspressiya qilish maqsadida vektorlar sifatida foydalanish, bundan tashqari kelajakda genetikaning muvaffaqiyatlari natijasida sun’iy viruslarga kerakli genlarni kiritib, sog‘ hujayralarga tegmasdan faqat kasal hujayralarnigina nobud qiladigan yoki davolaydigan viruslarni ishlatish fikrlari paydo bo‘ldi.

Chechak virusi o‘limga olib keladigan viruslar qatoriga kiradi. SHu sababli terroristlar bu virusni biologik qurol sifatida ishlatishi mumkin. Bu virusni o‘ta havfli ekanligi bibliya zamonidan ma’lum. Eng dahshatli epidemiyalar XVII-XVIII asrlarda Evropada millionlab odamlarni kasallantirgan va XVIII aspHi oxiriga kelib 150 millioncha odam nobud bo‘lgan. 1796-yilda E. Djenner (60) tomonidan vaksina ishlab chiqilgandan so‘ng unga qarshi aktiv kurash boshlandi va uni butunlay engildi. Odamzod tarixida shu virusni birinchi marta to‘la engish imkoniyati bo‘ldi. XX asrga kelib vaksina yordamida Evropa, SHimoliy Amerika va sobiq SSSRda chechakni to‘la engildi. 1977-yilda bu virusni Somalida oxirgi marta hisobga olindi, xolos. 1980-yilda VOZ tomonidan chechakni to‘la yo‘qotilgani haqida xabar qilindi. Virus faqat ikki mamlakatda Amerika va Rossiyada laboratoriya sharoitida ishlatish maqsadida saqlanmoqda. Ammo virusni sovuq vaqtida ko‘milgan murdalardan reanimatsiya qilib olish imkonи bari bir saqlanadi. Chunki bu virus tashqi sharoitga chidamli virus hisoblanadi.

Viruslarni **bioterrorizm maqsadlarida** ishlatish mumkinligi ustida olimlarda har hil fikrlar mavjud. Masalan, Butun dunyo taniqli olimlari tomonidan Taras Shevchenko nomidagi Kiyev shahridagi Milliy universitetida NATO ilmiy fondining qo‘llab quvvatlashiga tayangan holda bu masalani atroflicha muhokama qilindi va bu muammoning ijobiy va salbiy tomonlari ko‘rsatib o‘tildi. Fransiya o‘simpliklarni himoya qilish institutining professori Erve Lekok o‘simplik viruslarini biologik qurol sifatida ishlatish ancha mushkul ish bo‘lsa kerak, degan fikrHi bildirdi. Chunki o‘simplik viruslari hasharotlar vositasida tarqalib butun er sharini aylanib yana o‘sha virus tarqatilgan xududga qaytib kelishi va o‘ziga zarar keltirishi mumkin. Lekin bioqurol sifatida toksin

ishlab chiqadigan qilib “o‘rgatilgan” virusni (genetik modifikatsiya qilingan) virusnigina ishlatish mumkin. Ammo bunday ishlar bipHecha yillardangina keyin amalga oshishi mumkin. Chunki hozircha virus genetik apparatiga sun‘iy ravishda kiritilgan gen virus genomida uzoq vaqt saqlanib qolmayapti, har bir keyingi reproduksiyada virus toksini sintezlash qobiliyati yo‘qolib borayapti. Valensiya shahri universitetining professori Mariano Kambra virusdan tashqari ham o‘simliklarga zarar keltirishni boshqa yo‘llari borligini, ya’ni masalan, sug‘orish sistemasida zararli kimyoviy moddalarni qo‘llash mumkin, viruslar esa shundoq ham hasharotlar va urug‘ orqali tarqalib faqat qishloq ho‘jalik o‘simliklaridagina emas balki ularni yovvoyi turlarida ham epidemiyaga sabab bo‘lishi mumkin. “Yaxshi” virus xuddi qishloq ho‘jaligida ishlatiladigan har xil toksinlar kabi yoki insektitsidlardek ta’sir qilishi mumkin. Oregon universitetining professori Valerian Dolya zararli viruslarni foydali viruslarga aylantirish ustida ish olib borayotganliklari haqida fikr bildirdi. Viruslar hujayraga kirgandan so‘ng hujayrani yangi virus zarralarini sintez qilishga majbur qiladi. Ammo biz uni boshqatdan tarbiyalaymiz, deydi olim. M., papilloma virusi so‘gal hosil qiladi. Ayollarda esa rak hosil qiladi. Biz bu virusdan bitta gen olib o‘simlik virusinig geniga joylashtiramiz va bu yangi virus bilan o‘simliklarni kasallantiramiz. Natijada bizga kerakli virus ko‘payadi va o‘simlikda papilloma virusining oqsili to‘planaboshlaydi. Bu oqsilni tozalab vaksina tayyorlash mumkin. Demak, o‘simlik vaksina ishlab chiqaradigan fabrikaga aylanadi. Bu texnologiyani potensial terroristik maqsadlarda ham ishlatish mumkin. Masalan, odamlarda kasallik qo‘zg‘atadigan yangi virus paydo bo‘lsa, uni avvalo identifikasiya qilinadi va unda qanday genlar mavjudligi aniqlanadi, so‘ngra xuddi yuqorida aytilgan texnologiyadan foydalanib, ya’ni yangi virusni qandaydir bizni qiziqtiradigan (foydali yoki zararli maqsadlarda ishlatish mumkin bo‘ladigan) geni olinadi va uni o‘simlik virusining genomiga joylashtiriladi va mazkur virus ko‘payishi jarayonida ko‘p miqdorda **vaksinatsiya qilishda ishlatiladigan oqsil** sintezlanadi va uni olib vaksinatsiya qilishda ishlatiladi. Bu ishga bipHecha oygina ketadi, xolos. SHuning uchun ko‘p virusologlar yangi viruslarni o‘ta tez topish va aniqlash hamda qishloq ho‘jaligida oson ishlatiladigan o‘simlik urug‘larini yoki yangi nav o‘simliklarni yaratish ustida ish olib borishadi. Albatta o‘simlikni o‘zi ham tashqi aggressor viruslardan himoyalanish qobiliyatiga ega. O‘simlik “aggressor” virusni nuklein kislotasini (genetik materialini) tanish qobiliyatiga ega. O‘simlik o‘z nuklein kislotasini saqlagan holda begona nuklein qislotani yo‘q qiladi. Shuning uchun o‘simlik viruslarini havfli ekanligini yoddan chiqarmaslik zarur. O‘simlik viruslarini ishlatib ma’lum davlatga iqtisodiy zarar etkazish mumkin. Bu zarar xuddi tabiiy ofatdek tuyulishi mumkin. Aslida nazariy jihatdan qaraganda biror zararkunandalik maqsadini ko‘zlab qilinishi ehtimoldan holi bo‘lmasligi mumkin.

Yana bir nazariy havf mavjud. O‘simlik viruslarning genetik va molekulyar xususiyatlari ularga yaqin bo‘lgan odam va xayvonlar viruslariga o‘xshashdir. Organizmlarni “okkupatsiya” qilishda ularga o‘xshash hujayra strukturalaridan foydalilanadi. Shuning uchun ko‘p olimlar o‘simlik viruslarini odam va boshqa

organizm hujaylarini o‘zini muhofaza qilishda qanday ishlashini bilish uchun model sifatida ishlatishadi. Chunki hujayralar strukturalari har xil bo‘lsa ham ularni tashkil qilinish tizimi juda o‘xshashdir. Ehtimoldan xoli emas o‘simlik viruslarini ozgina modifikatsiya qilib to‘g‘ridan-to‘g‘ri odamlarni hech kimda birorta yomon fikr uyg‘otmasdan hafla virus bilan kasalantirish mumkin.

Taras Shevchenko nomli Kiev universitetining professori V. Polishuk viruslarni tarqalishi jiddiy muammolar keltirib chiqarishi mumkinligini aytadi. Ammo bunda hech kim bu zarapHi bo‘lishida virus ishlatilgan deb isbot qilmagan bo‘lsa ham, ammo bunga bilvosta isbotlar etarlicha qo‘p, ayniqsa “sovuq urush” vaqtlarida. O‘simlik viruslari terrorist uchun havfsiz bo‘lib havfdan maxsus muhofaza qilish zarur emas, faqat laboratoriya va issiqxonalar bo‘lsa ularni virulent va agressiv shakllarini modifikatsiya qilib yaratish mumkin. SHuning uchun ham kichik hududda o‘stirilgan o‘simliklar ancha nozik bo‘ladilar, ayniqsa issiqxonalar o‘simliklari. Ko‘p issiqxonada etishtiriladigan o‘simliklar boshqa davlatlarga uzoq masofalarga yangi yig‘ilgan holatda jo‘natiladi. Modifikatsiya qilingan zararli komponentga ega bo‘lgan latent holatdagi infeksiya toksik va allergen mahsulot hosil bo‘lishiga olib keladi. Masalan, biror kishi qo‘shnisining dalasiga zarar etkazmoqchi bo‘lsa kartoshka virusini agressiv shtammini bahorda qo‘shnining eriga sochib yuborishi mumkin va uch yil mobaynida uni erida kartoshka kasallanish oqibatida hosil olaolmasligi mumkin. Hozirgi kunda biz bexavotir yurganimiz bilan viruslarni “o‘zgaruvchan” shtammlarini tayyorlash texnologiyasini rivojlanishi bilan qo‘shni davlatlar orasidagi munosabatlar darajasiga qarab o‘simlik viruslari katta havf tug‘dirishi “odamzodni oziq-ovqat bazasini” qo‘porishi mumkin. Bu faqat iqtisodiy yo‘qotishdan tashqari mahalliy regionlarda ocharchilikga sabab bo‘lishi mumkin. Kuba mustaqilligining dastlabki yillarida dalalarga shakarqamish virusi yuqtirilgan hasharotni tashlashgan. Natijada Kuba 50% asosiy eksport qiladigan mahsuloti hosilini yo‘qotgan edi. Albatta, u vaqtda buni isbotlash mushkul edi, ammo hozir isbotlash ancha osondir.

2.7.1. Viruslarni amaliy maqsadlarda ishlatilishi imkoniyatlari

Viruslarni kasallik qo‘zg‘atib faqat zarar keltiruvchi biologik mavjudotligidan tashqari ularni bu xususiyatlarini **foyDALI tomonLARGA** ham yo‘naltirish mumkinligi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan va chiqilmoqda, jumladan, ulardan foydalanib har xil yuqumli kasaliklarga qarshi kurash choralarini ishlab chiqilmoqda. Jumladan, qorin tifi va dizenteriyaga qarshi ularni faglari ishlatilmoqda (fagoterapiya). Ayniqsa antibiotiklarga qarshi bakteriyalarni turg‘unligi oshib borgan sari viruslarni bakteriyalarga qarshi ishlatish yo‘nalishi virusologiyadagi eng ustivor yo‘nalishlardan bo‘lishi mumkinligi virusologlarni diqqat markazidadir. Bakteriofaglarni ajratish uchun tanlangan tashqi muxitdan olingan yoki bakteriya kulturasi (namuna) bakterial filtrdan o‘tkaziladi va olingan filtrat eng sezgir bakteriya muxitiga qo‘shiladi. Ma’lum vaqt, ma’lum temperaturada inkubatsiya qilinadi. Inkubatsiya davri tugagandan so‘ng bakteriya

mazkur muhitda o'smasa, bu oziqa muhitida fag borligini ko'rsatadi. Oziqa muhitdagi fagni bakterial filtr orqali filtrllash yordamida tozalangan fag zarrachalarini ajratib olinadi. Agar bakteriyaning o'sishi kuzatilsa, albatta muhitda mazkur bakteriya fagining yo'qligidan dalolat beradi. Bakteriyalarning fagga bo'lган sezgirligiga qarab ularni fagotiplarga bo'linishida ishlatiladi.

Bunda bakteriyalarni faglarni lizis qilishiga qarab tiplarga ajratiladi (fagotipirovanie).

Uning uchun xususiyati o'rganilayotgan bakteriyalarni (yoki shtammini) Petri likopchasidagi agar ozuqa muhitiga "gazon" – bir tekis qilib ekiladi. So'ngra unga o'rganilayotgan fagni tomiziladi va inkubatsiya qilinadi. Inkubatsiya qilinishi tamom bo'lgandan so'ng esa Petri likopchasidagi hosil bo'lган "steril shaffof dog'lar" ("blyashkalar") hisoblab chiqiladi. Lizis qilish natijasiga qarab fag tipi (fagovar) aniqlanadi, ya'ni mazkur variant bakteriyani lizis qiluvchi faglar tipining ro'yhati belgilanadi.

? Savollar

1. Virusologiya tarixida E.Djenner ishlarining ahamiyatini tushuntirib bering, u qanday virus kasalligi ustida ish olib boradi va unga qarshi davo usulini ishlab chiqadi?
2. Vaksinatsiya nima va u qanday ma'noni anglatadi?
3. Virusologiya tarixida L.Paster ishlarining ahamiyati, u qanday virus kasalligi ustida ish olib boradi va unga qarshi davo usulini ishlab chiqadi?
4. "Attenuirlash" deganda nimani tushunasiz va u qanday amalga oshiriladi?
5. Viruslarni kashf qilinishida qanday metod ishlatilgan va birinchi qaysi virus kim tomonidan ochilgan?
6. D.I.Ivanovskiyni viruslarni ochilishidagi ishlari haqida so'zlab bering?
7. "Kontagium vivum" deb viruslarni kim tomonidan atalgan va uni qaysi hususiyatlarini ko'zda tutilgan?
8. Bakteriofaglarni ochilishi kim tomonidan amalga oshirilgan va nega ikki olimni nomi tilga olinadi?
9. Hayvon viruslaridan qaysi virus birinchi marta ochilgan va uning ochilishida ishlatilgan qanday usulni bilasiz?
10. Viruslarni ahamiyati, ularni foydali va zararli maqsadlarda ishlatish imkoniyatlarini so'zlab bering?
11. Virusologiya tarixidagi bosqichlarni so'zlab bering?
12. Viruslarni ochilishida qanday metodlar ishlatiladi va ularni mikrobiologiya metodlaridan tubdan farqi nimada?
13. Qaysi metod eng ko'p virus ochilishiga sabab bo'lgan?
14. D. Errelni faglarni ochilishidagi xizmati va u Tuvort ishlaridan nimasi bilan farq qiladi?
15. Viruslarni bioterrorizmda ishlatish imkoniyatlari nimalardan iborat?
16. Viruslarni kelib chiqishi haqida qanday gipotezalarni bilasiz?

II -qism. Viruslar molekulyar biologiyasi asoslari

3-bob. Viruslarni ajratish va biologik tozalash

Yuqorida aytilganidek, eng sodda tuzilgan viruslar nukleoproteid holatida, ya’ni virus oqsili va uning nuklein kislotasidan iborat. Ularni minimal viruslar ham deb ataladi. Ularga misol qilib, tamaki mozaikasi virusini olishimiz mumkin. Bu virusni har tomonlama o‘rganilgan bo‘lib, uni birinchi marta Nobel mukofoti sovrindori Stenli virus bilan kasallantirilgan tamaki o‘simgi barglaridan toza holda ajratib oladi. Toza preparati olingandan so‘ng bu virusni barcha fizikkimyoviy xususiyatlari, shakli, arxitekturasi va boshqa nozik strukturalari aniqlanadi. Viruslarni toza preparatini olish ularni va ularni tarkibiy qismlarini barcha xususiyatlarini o‘rganishga ochilgan katta qadam bo‘ldi. Afsuski, barcha kashf qilingan viruslarni toza preparatlari haligacha to‘la ajratib olingan emas, chunki ularni ko‘plari TMV kabi barqaror viruslarga kirmaydi. Ular beqaror (termolabil), tashqi muhitga o‘ta sezgir, hujayrada virus miqdori o‘ta kam miqdorda to‘planadigan viruslarga kiradi, shuning uchun ham ularni ko‘plariga qarshi samarali kurash choralarini ham ishlab chiqilgan emas. O‘z-o‘zidan ma’lumki viruslarni hujayrada va to‘qimada yoki ulardan ajratib olingan “yuqumli shirada”, qisman tozalangan preparatda va nihoyat toza preparatlarga qo‘yilgan barcha mezonlarga javob beraoladigan to‘liq tozalangan preparatlardagina ularni barcha xususiyatlarini o‘rganish mumkin.

A.H.Vahobov tomonidan 2004-yilda “Virusologiyadan amaliy mashg‘ulotlar” (10) o‘quv qo‘llanmasida bakalavr talabalar uchun bajarishga mo‘ljallangan amaliy mashg‘ulotlar, hamda magistrler uchun tasdiqlangan dasturlarga moslab yozilgan laboratoriya mashg‘ulotlarida toza preparat va uni olish usullari, muammolari, preparatini olish usullarini optimallashtirish masalalari keltirilgan. Qo‘llanmadagi umumiy virusologiya sohasida bajariladigan laboratoriya ishlarining eng muhimlari xavfsiz va stabil bo‘lgan fitopatogen viruslarga asoslangan holda tuzilgan. Unda viruslarni sog‘ o‘simga yuqtirish, fitopagogen viruslar simptomlari, indikator o‘simgiklar vositasida viruslarni tadqiq qilish usullari, viruslarni tozalashning molekulyar virusologiyada ishlatiladigan har xil usullari, virus, uning oqsili va nuklein kislotalarini ajratish usullari, hamda viruslarni diagnostika qilishda ishlatiladigan tezkor va sezgir usullari xaqida nazariy va amaliy ma’lumotlar berilgan.

3.1. Viruslarni ajratib olish

3.1.1. Viruslarni to‘qimalardan ajratib olish

Virusologiya laboratoriysi. Virusologiya fanining rivojlanishi, viruslarning tadqiq qilishning zamonaviy, tezkor va sezgir uslublarini, jihozlarini, asbob-uskunalarini yaratilishi o‘z-o‘zidan ba’zi umumiy virusologiya metodlaridan kam foydalanishga olib keldi. Shu sababli mazkur qismda biz bunday metodlarni chetlab o’tdik. Virusologiya hozirgi kunda juda tez

rivojlanayotgan fanlardan bo‘lib, u o‘simlik, hayvon, odam, hasharot, bakteriya, aktonomitset, zamburug‘ viruslarini, viroid va prionlarni o‘rganadi. Biz umumiy virusologiyada qo‘llaniladigan zamонавиј metodlar haqida, yuqorida aytilgandek, asosan fitopatogen viruslar misolida so‘z yuritamiz.

Bu qismda toza preparat olish uchun virusli materialni yig‘ish va tayyorlashda viruslarni sog‘ o‘simlikka yuqtirish, ko‘paytirish va toza virus preparatini olish usullari, fitopatogen viruslarning simptomlari va ular asosida identifikasiya qilish, indikator o‘simliklar vositasida viruslarning oxirgi suyulish darajasi (yuqumli viruslarni hujayradagi miqdorini aniqlash), temperatura ta’sirida aktivligining yo‘qotishini aniqlash kabi mashg‘ulotlar haqida fikr bildirilgan.

Keyingi ikkinchi qismida viruslarni tozalashning nazariy va turlicha amaliy tomonlari yoritiladi. Jumladan, gelfiltratsiya, differensial sentrifugalash, moddalarning gradient zichligida sentrifugalash, biospetsifik xromatografiya va polakrilamid gelida elektroforez metodida tozalash kabi molekulyar virusologiya metodlari haqida ma’lumotlar berilgan.

Shu bilan bir qatorda yorug‘lik va elektron mikroskopda viruslarni tadqiq qilish usullari hamda viruslarni immunologiya usullari yordamida aniqlashga e’tibor qaratilib, immunologiyaning ba’zi fitovirusologiyaga oid zamонавиј, tezkor va sezgir usullari haqida so‘z boradi.

Ushbu darslikni tuzishda viruslarni biologik, fizik, fizik-kimyoviy xususiyatdarini o‘rganish adabiyotlarda va intepHetda hamda muallifning nomzodlik, doktorlik dissertatsiyalarini bajarishda olingan ma’lumotlarga suyangan holda tayyorlandi (5; 13; 15; 35; 60).

Stenli tomonidan viruslarni toza preparatini ajratib olingandan buyon birqancha yillar o‘tib ketdi va juda ko‘p harakatlar viruslarni tozalash va ularni xususiyatlarini o‘rganishga qaratildi va ma’lum natijalarga erishildi, ya’ni nafaqat ularni toza preparatlarini olish, ularni tarkibiy qismlari – nuklen kislotalari, oqsillari va ularni ajratish, tavsiflash, birlamchi strukturalarini aniqlash, ularni rekonstruksiyalash va genomika, proteomika fanlari va ularni metodlari yordamida o‘rganilmoqda. Albatta, bu aytilgan masalalarni echish uchun zamонавиј laboratoriya bo‘lishi taqazo etiladi.

Virusologiyadan olib boriladigan amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari, ilmiy tadqiqot ishlari maxsus jihozlangan laboratoriyalarda, hayvonlar bilan o‘tkaziladigan tajribalar vivariylarda, o‘simliklar bilan olib boriladigan tajribalar issiqxonalarda, hayvonlar, odam, o‘simlik to‘qimalari, hujayra kulturalari (ekmalari) va bakteriofaglar bilan o‘tkaziladigan tajribalar bakteriotsid lampalar bilan sterillangan bokslar yoki maxsus jihozlangan xonalarda olib boriladi. Boks oldidagi xonada boksga kirishda kiyiladigan maxsus kiyimlar saqlanadi. Boksda eng zarur asbob-uskunalargina saqlanadi: stol, stullar, instrumentlar uchun shisha shkaf, gaz gorekasi, gugurt, katta-kichik qaychilar, skalpellar, pinsetlar, ignalar, sterilizator, ishlatilgan pipetkalar saqlanadigan fenolli (2%-li) yoki xloraminli idish, dezaktivatsiya qilish uchun ishlatiladigan fenol yoki xloraminli, ishlatilgan materiallarni soladigan idish, 70% -li yodni spirtli eritmasi, probirkalar uchun

shtativlar, sterillangan oddiy va paster pipetkalari, steril probirkalar, oddiy va mum qalamlar, leykoplastir, steril paxta va hokazolar. Bundan tashqari boksga har bir vazifani bajarish uchun ishlatiladigan materiallar va eritmalar olib kirilib, ish tamom bo‘lgandan so‘ng olib chiqib ketiladi.

Yana bir maxsus xonada viruslarni toza preparatlarini olishda ishlatiladigan har xil aylanish tezligida ishlaydigansovutgichli sentrifuga va ultratsentrifugalar bo‘ladi (minutiga 6-12 mingdan 30-60 ming.marta ayl.tez.).

Virusologiya laboratoriysi yana elektron mikroskop, spektrofotometr, elektroforez, avtoklav, xromatografiya asboblari (fraksiyalarni avtomatik yig‘uvchi kollektorlar), distillangan suv olish asbobi, gomogenizator, texnik va analitik tarozilar, quritish shkaflari,sovutgich, termostat, pH metr, diffuziya nasosi, liofil quritgich va hokazolarga ega bo‘lishi lozim.

Virusologiya laboratoriyasining tuzilishining tashkillashtirish prinsiplari va unda ishlash sharoitlari, ishlash joylarini taqsimlanishi, yuvish va dezinfeksiyalanadigan xona, asosiy asbob -uskunalar, reaktiv va oziqa muhitlar, shishadan yasalgan idish va asbob-uskunalar, sterillash, antizardob olish va tayyorlash, viruslarni saqlash, virusologiya laboratoriyasida dezinfeksiya va sterilizatsiya shartlari, ayniqla meditsina va veterenariya virusologiyalari sohasidagi amaliy mashg‘ulotlar Gyunter Shtarkening "Prakticheskaya virusologiya" (9) o‘quv qo‘llanmasi asosida bo‘lishi kerak. Hamda hozirgi kunda chop etilgan adabiyotlarda ko‘rsatilgan asbob-uskunalar ko‘zda tutilishi kerak (5;10; 27).

3.1.2.Viruslarni biologik tozalashda ishlatiladigan umumiyoq qoidalar

Viruslarni toza preparatlarini olishni shartli ravishda ikki bosqichga ajratish mumkin. **Birinchi bosqichda** bizni qiziqtirgan narsa ya’ni virusni biologik tozalash ko‘zda tutiladi, ya’ni mazkur virusni indikator o‘simliklar yordamida boshqa viruslardan, bakteriyalardan, zamburug‘lardan va mikroskopda ko‘rinadigan biologik organizmlardan ajratib olinadi (ammo u gohida ho‘jayin o‘simlikning nekrozidagi hujayralari ichida, gohida xo‘jayin o‘simlik hujayrasida bo‘ladi). Bu ish avvaldan xususiyati aniq bo‘lgan virusologiya amaliyotida ishlatilib kelinayotgan har bir virus uchun uning spetsifikligiga mos indikator (aniqlagich), differensiator (ajratuvchi) va to‘plovchi (virus o‘simlikni tizimli kasallantiradi (ilova, 1-rasm va ilova, 17-rasmlar).

Demak, virusni birinchi ko‘paytirib olish uchun xo‘jayin o‘simlik kerak, ikkinchidan bu virusni nekrozar hosil qilish bilan kasallananadigan o‘simlik va undagi hosil bo‘lgan nekrozdan ajratib olingan mononekrozdagi virus zarralarini ko‘paytiradigan virus to‘plovchi o‘simliklar bo‘lishi taqazo etiladi. Agar TMV ni oddiy shtammini O-TMV (adabiyotda “TMV vulgare” deb nomlanadi) mononekrozdan ajratiladigan bo‘lsa unga Nicotiana sylvestris (differensiator), Nicotiana glutinosa va Nicotiana tabacum ning Samsun navlari kerak bo‘ladi. Masalan, tomat o‘simligidan TMV ning tomat shtammini va oddiy TMV ni birinchi Nicotiana sylvestris ga yuqtirilganda TSH-TMV (TMVning tomat

shtammi) bu o'simlikda nekrozlar hosil qiladi, O-TMV esa sistemalik kasallantiradi, ya'ni nekroz hosil qiladi, demak ikki shtammni fizik kimyoviy usullarda ajratish mumkin bo'lmanan yoki o'ta mushkul bo'lgan bo'lsa, bu ishni indikator o'simlik orqali osongina ajratib olinadi, ya'ni biologik shtammlarini ham bir-biridan ajratiladi va tozalanadi. Albatta bu ishni kamida uch marta qaytarilishi maqsadga muvofiq bo'ladi (uch marta mononekrozdan o'tkaziladi).

Ikkinci bosqichda toza preparatni olish uchun fizik-kimyoviy usullar qo'llaniladi, ya'ni differensial sentrifugalash xromatografiya, elektroforez, gradient zichlikda sentrifugalab tozalash metodlari qo'llaniladi (bu haqda viruslarni fizik-kimyoviy metodlar bilan toza preparatlarini olish qismida batafsil ma'lumot beriladi. (Hozircha o'simliklar yordamida bajariladigan ishlar to'g'risida ma'lumotlar keltiramiz).

Viruslarni o'simlikga yuqishiga bir qancha faktorlar ta'sir qiladi va ular virusni dastlabki hujayraga kirishida, kasallikni rivojlanishining keyingi jarayonlarida muhim rol o'ynaydi. Tarr bu omillarni 4 guruhga bo'ladi: birinchi guruhga o'simlikni xususiyatlari, ikkinchisiga patogenlik xususiyatlari, uchinchisi ekologiya va to'rtinchisi biotik faktorlardir (10 dan olindi).

a) O'simlikni xususiyatlariga uni irsiy chidamliligi kiradi. CHidamlilik darajasi esa o'simlik to'qimasining yoshiga va oziqlanishiga (m., mikroelementlarni etishmasligi o'simlikni virusga chidamliligini pasaytiradi) qarab o'zgaradi. CHidamlilik haroratga qarab ham o'zgaradi. Virus hujayraga kirgandan so'ng yuqori temperaturaga to'g'ri kelib qolsa, o'simlik barglari va boshqa organlarini o'zgarishisiz, simptomlar yashirin holatda o'tishi mumkin. Nimjon va kuchsiz o'simliklar kasallikga sezgiroq (chidamsizroq) bo'lsa, baquvvat, yaxshi rivojlanayotgan o'simliklar virusga ancha chidamli bo'ladi, ularni to'qimalari ancha qattiq dag'al bo'ladi. Ularga virus yuqishi o'simlikda engil simptomlar hosil bo'lishiga olib keladi va o'simlikni butunlay nobud bo'lmay qolishi mumkin.

O'simlikni virusga sezgirligi yoki chidamliligi o'g'itlar bilan uni ta'minlanishiga ham bog'liq, masalan, azotli o'g'itlarni ko'pligi o'simlik chidamliligini pasaytiradi.

O'simlikni virus bilan kasallanishiga o'simlikni virusga bo'lgan "moyilligi" ham yordam beradi. Uoker "moyillik" degan tushunchaga o'simlikni bir yoki bir necha faktorlar ta'siri natijasida virus bilan oson kasallanishini ko'zda tutadi. CHester bu tushunchani boyitib "moyillik" qatoriga sezgirlik yoki "kasallanish tendensiyasi borligi" tushunchalarini kiritadi.

O'simlikni virus bilan kasallanishiga yana o'simlikni yoshi, bir sutka davomidagi, fasl mobaynidagi chidamliligi, mexanik bosim, o'g'it (kaliy, fosfor, azot), fungitsid va pestitsidlar ham ta'sir qiladi.

b) Patogenlik xususiyatlari (patogen organizmda parazitlik bilan hayot kechiruvchi organizm) uni aggressivligiga (o'simlikni kasallantirib, uni qarshiligini engib, unda yashashi, ko'payishi) bog'liqdir. Virusni oz miqdori (zarralar soni) tez va qisqa muddatda (kasallanishga ketgan vaqt) o'simlikni kasallantirishga etarli bo'lsa, uni aggressivligi yuqori hisoblanadi.

Patogenni yana bir xususiyati uni **virulentligi bo'lib**, **bu** patogenni (virusni) kasallik qo'zg'atish xususiyatidir. Bu xususiyat barqaror xususiyat bo'lib, u genotip o'zgargandagina o'zgaradi.

v) Ekologik omillar. O'simlikka virus zarralari kirib, ularda simptomlar hosil bo'lishida ekologik omillar - namlik, harorat, yorug'lik, pH, inokulyum ion kuchi va hokazolar ham rol o'ynaydi.

g) Biotik omillar. Bunga interferensiya hodisasi misol bo'lishi mumkin, ya'ni bir tupHi (shtammni) rivojiga ikkinchi tupHi (shtammni) yoki bir xil viruslarni noinfektion zarralari o'simlik retseptorlarini band qilishi sababli virus hujayraga kiraolmaydi yoki kam miqdordagi virus zarralari kiradi va yuqumlilik darajasi pasayadi.

S.V.Kustni (4) fikricha o'simlik virusi yuqishiga 4 xil reaksiya bilan javob beradi: 1) immunlik, o'simlikga vipuc yuqmaydi; 2) o'ta sezgirlik, o'simlikni virus kirgan joyidagi to'qimalar nobud bo'ladi va nekroz kabi simptomlar hosil bo'ladi; 3) tolerantlilik, virus o'simlik to'qimalari bo'ylab tarqaladi, ammo simptomlar kuchsiz ko'rindi; 4) tizimli kasallanishda organizmni hamma to'qimalari kasallanadi, virus o'simlikni hamma to'qimalari va yaruslaridagi barglari va o'simlikni butun tanasi bo'ylab tarqaladi va kasallik simptomlari yaqqol ko'ringan bo'ladi (Ilova, 17-rasm). Simptomlar har xil bo'lishi mumkin, ya'ni - mozaika (mozaikani 6-7 xili mavjud), barg shaklini o'zgarishi, tomirlarni rangsizlanishi, xlorotik dog'larni hosil bo'lishi va hokazo. Ba'zan yuqorida ko'rsatilgan 4 guruh simptomlar orasida aniq, chegara bo'lmasligi ham mumkin. Masalan, tolerantlik bilan sistemali kasallanishni aniq ajratish ba'zan qiyin bo'ladi, ba'zi o'simliklarda mexanik inokulyasiyada avval nekroz hosil bo'lib (o'tasezgarlik), so'ngra o'simlikni hamma organlari kasallanadi.

Agar har bir tip kasallanishga misol keltiradigan bo'lsak, birinchi tip **immunlik** holati. G'o'za o'simligiga arpa mozaikasi virusi yoki jo'xori pakana mozaikasi viruslarini yuqtirilsa, g'o'za bu viruslar bilan kasallanmaydi, ya'ni g'o'za o'simligi bu viruslarga chidamli - immundir. Ammo yuqorida keltirilgan viruslar bilan arpa yoki jo'xori kasallantirilsa (o'ziga mos spetsifik o'simlikga), ularda chiziqli mozaika alomatlari 12-14 kunlardan so'ng hosil bo'ladi. Bu holda hosil bo'lgan simptomlarni tizimli kasallanish deyiladi. Agar xuddi shu viruslarni sho'ra o'simligini ma'lum navaiga yuqtirilsa, 10-12 kunlardan so'ng kasallantirilgan bargda diametri 2-3 mm kattalikdagi sariq dog'lar - nekrozlar hosil bo'ladi. Bu xildagi kasallanish o'simlikning o'ta sezgirligiga misol bo'laoladi. Tolerant o'simlik deb ataladigan holatga misol qilib kartoshkaning X-virusi bilan pomidor o'simligini kasallanishini, ya'ni virus zarralari kartoshka o'simligida bo'lsa ham ko'zga yaqqol tashlanadigan alomat, birinchidan sezilmaydi va ikkinchidan bu virusning zarari o'simlik hosildorligiga uncha sezilarli ta'sir ko'rsatmasligi mumkin.

Virus o'simlikka yuqorida aytilgan usul bilan yuqtirilgandan so'ng ma'lum vaqt soya erda saqlansa, o'simlik to'qimalarida abrazivlar ta'sirida hosil bo'lgan mikrojarohatlarning bitishini, ya'ni reparatsiyasini tezlatadi (13). Inokulyasiya qilingan (kasallik yuqtirilgan) o'simliklarda kasallik alomatlarini kuzatish 12

sutkadan to 4 haftagacha va undan ko‘proq vaqt mobaynida olib boriladi. Nekroz kabi alomatlarni 3 - 12 kun davomida kuzatilsa, tizimli kasallanish alomatlarini 7 – 15 kun va undan ko‘proq muddat davomida olib boriladi.

Aniqlagich o‘simlik yordamida faqat bir o‘simlikdagi birligina virusni ajratib va aniqlabgina qolmasdan, balki bir necha viruslar birga aralash holda uchraydigan holatlarda ham viruslarni aniqlash, ajratish mumkin. Tabiatda har xil o‘simliklarning madaniy va yovvoyi turlari tarqalgan bo‘lib, ularda ham viruslar unga ixtisoslashishiga qarab yovvoyi tup o‘simlik shu virusga sezgir bo‘lishi, uning madaniylashgan navlarining liniyalari bu virusga turg‘un bo‘lishi mumkin. Bir tur ichidagi har xil navlar virus turi va shtammlariga nisbatan har xil reaksiya bilan javob berishi mumkin. Tabiatda, masalan, arpa o‘simligi bir vaqtning o‘zida ikki virus bilan “arpa chiziqli mozaikasi” va “yaltirbosh mozaikasi virus”lari bilan kasallanishi mumkin. Tamaki o‘simligi, ham tamaki mozaikasi virusi, ham bodring mozaikasi virusi bilan kasallangan bo‘lishi mumkin va hokazo. Ana shunga o‘xhash viruslar aralashmalaridan ham aniqlagich o‘simliklarni to‘g‘ri tanlab toza virusni ajratish va aniqlash mumkin. Masalan, tamaki o‘simligidagi bodring mozaikasi virusini aralash viruslar ichidan ajratib olish uchun virusli o‘simlik shirasi bilan bodring va tamakining Nicotina sylvestris navini kasallantirilsa, bodringda faqat bodring mozaikasi virusi, tamakida esa faqat tamaki mozaikasi virusi ko‘payib, mozaika alomatlari namoyon bo‘ladi. Arpani kasallantiruvchi arpa chiziqli mozaikasi virusini shu virusni ushbu o‘simlikdagi yaltirbosh mozaikasi virusidan ajratish uchun esa jo‘xori o‘simligini kasallantirilsa, jo‘xorida faqat yaltirbosh mozaikasi virusigina ko‘payadi. Viruslarni aralashmalar ichidan ajratib olishda qo‘llaniladigan o‘simliklarni ***differensiator*** o‘simliklar deyiladi. Xuddi shunga o‘xhash tabiatda kartoshkaning viruslarini (kartoshka 20 ga yaqin virus bilan kasallanadi) ajratish uchun har xil kartoshka virusini aniqlagich o‘simliklari mavjuddir. Ba’zan o‘simlikga virus yuqtirish va virusni aniqlash hollarida aniqlagich o‘simliklar ham yordam beraolmaganda bir qator virus tarqatuvchi yoki yuqtiruvchi hasharotlardan ham foydalaniladi (12).

3.1.3. Viruslarni mexanik usulda yuqtirish va uni optimallashtirish

Mexanik usulda virus (yoki uni RNK si) hujayraga barg kutikulasidagi jarohatlar (mikrojarohatlar) orqali kiritiladi (1-rasm).



1-rasm. Viruslarni mexanik usulda barmoq yordamida TMVni fizalisdan ajratilgan izolyati bilan kasallantirilgan *Ch. amaranticolor* (sho'ra) o'simligidagi nekrozlar

(Keng dalalardagi ko‘p o’simliklarga virusni bo‘yoq purkagich (kraskapult) yordamida yuqtirsa ham bo‘ladi).

Barg kutikulasida mikrojarohatlarni diatom suvo‘tlari (selit) yoki karborund (kremniy carbidi) yoki korund (alyuminiy oksidi) kabi abrazivlarni mayda kukuni (400-700 mesh) yordamida hosil qilinadi. Abraziv ishlatilganda inokulyasiya samaradorligi 20 - 50 barobar oshadi. Avtoklavda yoki quritish shkaflarida sterillangan karborund, korund yoki selitii yoki diatom tuprog‘ini barg yuzasiga inokulyasiyadan oldinroq changlatiladi, chunki ular suvda oson cho‘kadi, ammo selit ularga qaraganda sekin cho‘kmaga tushadi, shuning uchun uni inokulum bilan aralashtirib ishlatsa ham bo‘ladi. Abrazivni barg sathiga changlatish uchun probirka yoki 50 ml lik hajmga ega bo‘lgan kolbaga solib, uni og‘zini 2 qavatli doka bilan yopib, so‘ngra uni changlatishda foydalanish mumkin. Inokulum bilan abrazivni aralashtirilganda uning miqdori 50 - 100 mg/ml bo‘lishi kerak.

Inokulumdan barg sathiga 1-2 tomchi virusli suspenziyadan tomiziladi va sterillangan shisha tayoqcha, paxta yoki doka tampon yoki yaxshilab yuvilgan va artilmay quritilgan barmoqlar yordamida ohistalik bilan surtiladi. Surtishdag‘i kuch kattaligi bir qancha omillarga bog‘liq bo‘ladi: o’simlikning turi, yoshi, bargning holati, abrazivni sifati va h. Abraziv ishlatilgandan so‘ng barg so‘lib

qolishga moyilroq bo‘lgani uchun ular qurib qolishining oldini olish maqsadida bir necha soat nam atmosferada saqlash yaxshi natijalar beradi.

Virus yuqumliliginin oshirish uchun quyida bir qancha omillar muhimligini e’tiborga olishni maslahat beriladi(15), ya’ni:

a) **Inokulumda ionlarning bo‘lishi.** Inokulumning yuqumliligi undagi ionlar va ularning miqdoriga bog‘liq bo‘ladi. Masalan, fosfatni konsentratsiyasi 0,02 - 0,1M va pH 7,0 - 8,5 bo‘lishi virus yuqumliliginin oshiradi. Yana yuqumlilik virus va xo‘jayin o‘simlik va ularni kombinatsiyasiga bog‘liq bo‘ladi. Ko‘pgina viruslar pH ning quyi darajalarida yoki o‘ta yuqori darajalarida (pH 11 va yuqori) faolligini yo‘qotadi.

b) **Yuqumlilik ingibitorlari.** Ba’zan viruslarni sezgir o‘simlikga mexanik usulda o‘tkazish o‘ta qiyin bo‘ladi. Bunday hodisa ko‘pgina o‘simlik hujayrasidagi "yuqumlilikni ingibitori" bo‘lib xizmat qiladigan ba’zi oqsil va polisaxaridlarga bog‘liq bo‘ladi. Bular virus faolligini yo‘qotmaydi, ammo qandaydir yo‘l bilan virus yuqishiga ta’sir qiladi. Bunday ingibitorlar qand lavlagi, *Chenopodium* spp. , *Phytolacca* spp. va *Dianthus* spp. o‘simliklaridan ajratilgan shiralarda bo‘ladi. Ingibitor ta’sirini yo‘qotish uchun virus konsentratsiyasi kattaroq bo‘lsa virusli o‘simlik shirasini suyultirilganda, ingibitor ham suyuladi va ta’siri yo‘qoladi. YOki ingibitor ta’sirini yo‘qotish uchun virusni ingibitoridan tozalash kerak bo‘ladi, yoki virus yuqumliliginin baholash uchun ingibitor ta’sir etmaydigan o‘simlik turlari ishlatiladi. Shuning uchun, bodring, *Chenopodium amaranticolor*, *Gomphrena globosa* kabi o‘simliklarga ingibitorlar ta’sir etmaydi. Shuningdek beda mozaikasi virusini *Ch. amaranticolor* dan *Nicotiana* spp. ga mexanik inokulyasiya yordamida o‘tkazish qiyin, chunki *Ch. amaranticolor* ingibitorga ega. Lekin uni avval *Gomphrena globosa* ga va so‘ngra *G. globosa* dan *Nicotiana* spp. ga o‘tkazish yaxshi natija beradi.

v) **Virus faolligini yo‘qotuvchi moddalar.** Virus yuqumliligiga yana uni faolligini yo‘qotuvchi o‘simlikdagi moddalar ham ta’sir etadi. Daraxtsimon o‘simliklar barglarining shiralari tanninga ega bo‘lib, ular ma’lum sharoitda viruslar bilan bog‘lanib, viruslarni cho‘kmaga tushiradi, natijada virus yuqumliligi yo‘qoladi. Ammo bunday holatlarning oldini olish uchun o‘simlik barglarini gomogenizatsiya qilish jarayonida pH 8 – 9 ga teng bo‘lgan bufer ishlatiladi va nikotin yoki kofeini bor eritmalarida eziladi. Ishqoriy muhitda tanninlarning virus bilan bog‘lanishi susayadi. Boshqacha usullar ham mavjud bo‘lib, bunda virus gomogenizatsiya qilinadigan muhitga birorta oqsil solinadi (masalan, kukun qilib maydalangan teri solinadi). Bu oqsil virus bilan birga tanninni birlashtirish uchun raqobat qiladi. Bu usul “kakao shohlarini shaklini o‘zgarishi virusining” bir daraxtdan ikkinchisiga o‘tkazishga imkon yaratadi. Faol virus olishning yana bir usuli bu tanninga boy o‘simliklardan aktiv virus olishda o‘simlikni tannin miqdori kam qismidan virus ajratishdir. Masalan, gultojibarglar va yosh ildizchalarda tannin miqdori kam bo‘ladi.

O‘simlik shiralari odatda faol oksidazalarga ega bo‘lib, ularni mahsulotlari viruslar faolligini yo‘qotadi. Bu holatlarni oldini olish uchun muhitga qaytargichlar (masalan, ditioreytol, merkaptoetanol, tioglikol kislotasi, sistein

solyanokisliy) yoki xelatlashitiruvchi agentlar (masalan, natriy dietilditiokarbamat) solinadi.

Ba’zi “defekt” (nuqsonli) viruslarni nuklein kislotalarini muhofazasi kuchsizroq bo’ladi; bargni gomogenizatsiya qilish davrida shiradagi nukleaza va boshqa virus faolligini yo‘qotuvchi agentlar virus nuklein kislotasini o‘ta tez parchalab yuboradi. Shu sababli kerakli muhofaza amallarini qilinsa virus yuqumliligin qisman saqlab qolish mumkin. Jumladan, muhitga bentonit solib virus ajratish nukleazalarni bentonitga adsorbsiya qilinishiga olib keladi yoki virusni ishqoriy (pH 9,5) muhitda ekstrakatsiya qilish ham virus nuklein kislotasi aktivligini saqlab qoladi.

Virus yuqumliligin saqlashning yana bir yo‘li virus ajratish vaqtida virusli o‘simlik shirasini deproteinizatsiya qilishdir. Buning uchun o‘simlik shirasini +2°Cda suyultirilgan bufer ishlatib uni teng hajmda suvga to‘yingan fenol bilan aralashтирiladi. So‘ngra aralashma sentrifuga yordamida virus nuklein kislotasiga ega “suvali fraksiya”ni barg qoldiqlari, fenol kabi boshqa moddalardan ajratiladi. Keyin esa “suvali fraksiya” sovitilgan dietil efipHi bir necha hajmi bilan yaxshilab chayqatilib fenol qoldiqlaridan tozalanadi. EfipHi yo‘qotish uchun esa undan azot o‘tkaziladi. Shundan so‘ng preparat inokulyasiyaga tayyor hisoblanadi. Fenol virus faolligining yo‘qotuvchi agentlarni denaturatsiya qiladi va virus nukleoproteididan virus nuklein kislotasini ajratadi va oqsil tabiatli virus yuqumliligin ingibitorlarini denaturatsiya qiladi.

Yuqorida ko‘rsatilgan qoidalarga roiya qilingan holda virus mexanik usulda yuqtirilganda o‘simliklarda ma’lum muddat o‘tgandan so‘ng har xil simptomlar hosil bo‘ladi. O‘simlikni har xil turlari virus yuqishi jarayonida turlicha ta’sirlanadi, bu ta’sirlanish o‘simlikni irsiyatiga, virusni tipiga va hokozolarga bog‘liq bo‘ladi.

3.1.4. Viruslarni payvandlash yordamida yuqtirish

Payvandlash bog‘dorchilikda qadimdan ishlatiladi (15). Bunda har xil o‘simliklar to‘qimalarning (kesmalarini) ustki tomonlarini bir-biriga yopishtirib qisib qo‘yiladi, keyinchalik ular bir-biri bilan qo‘silib o‘sib ketadi. Odatda bir o‘simlikni (payvandustni) distal qismini ikkinchi ildizli o‘simlikka (payvandtagga) o‘tkaziladi. Agar payvandustda yoki payvandtagda virus bo‘lsa, payvandlashdan so‘ng virus ikkinchi juftiga o‘tadi va unda ko‘zga ko‘rinadigan kasallik simptomlar hosil bo‘ladi.

Birinchi marta payvandlash vositasida viruslarni yuqtirish XVII asrda Gollandiya bog‘bonlari tomonidan qo‘llanildi. Ular lola gultojibarglarining atlasga o‘xhash simptomlar hosil qilishini bilishdi va bu o‘ta yuqori baholanadigan lola xususiyatini payvandlash bilan sog‘lom lola piyozlariga o‘tkazishni amalga oshirib kelishdi.

Asosan payvandlash bilan daraxt o‘simliklarga (olma, nok, olxo‘ri, olcha va sitrus o‘simliklari) viruslari yuqtiriladi.

Payvandlash yaxshi natija berishi uchun payvandtag va payvandustning kambiy to‘qimalari bir-biriga to‘gri kelishi va ularning moyilligi bo‘lishi kerak.

Moyillik esa turlar bir-biridan uzoq o'simliklarda, hamda bir pallalik o'simliklarda o'ta sust bo'ladi.

Payvandlashdan so'ng o'simlikni yaxlit bo'lib o'sishiga ba'zan ularni biridagi virus ham ta'sir qiladi.

Sitrus o'simliklarini payvandlashda ancha murakkab hodisa kuzatiladi. Ko'pincha iqtisodiy ahamiyati katta bo'lgan nav, payvandlangandan so'ng o'zini virusga chidamlilik xususiyatidan ayriladi.

Virus yuqishi ba'zan payvandlanish amalga oshmasa ham yuz beraveradi. Taksonomik bir-biridan uzoq bo'lgan o'simliklardan *Chenopodium amaranticolor* va tok o'simliklarini ham bir-biri bilan yaqinlashtirilganda, ularning kesilgan qismlari ustida kalluslar o'sganda ham virus yuqadi. Ba'zan payvandlash yaxshi amalga oshgani bilan virus yuqmasligi mumkin. Masalan, tamakini "shaldirashi" virusi (virus pogremkovosti tabaka) kartoshkani payvandlaganda (boshqa viruslarga qaraganda) o'ta sust yuqadi, balki bu virusni o'simlik tanasi bo'ylab to'la tarqalmasligidan bo'lishi ham mumkin.

Viruslarni payvandlash usuli bilan yuqtirishning ko'pgina usullari mavjud. Masalan, eng keng tarqalganlaridan o'simlikdan qirqib olingan payvandtagga payvandustni o'tkazish va ikki o'simlikni yaqinlashtirish bilan amalga oshiriladi.

Payvandlashning viruslarni yuqtirishda ishlatiladigan birqancha turlari bor (15).

A. Daraxtsimon o'simliklarni "ko'z payvandlash" usuli. Payvandust (kurtak) payvandtag po'sti tagiga joylashtiriladi. Ko'z payvandlashdan olrdin payvandustdagi (kurtak) birga kesib olingan yog'och qatlamini olib tashlasa ham bo'ladi.

B. Payvandlashning "butilka" usuli malinani payvandlashda ishlatiladi. Payvandustning bargli shoxi suvli probirkaga solinadi. Probirkadagi suvda suvo'tlari o'sib ketmasligi uchun alyumin folgasi bilan o'rab qo'yilsa yaxshi bo'ladi.

B. Payvandlashni "yorma" (uskuna) usuli kartoshka kabi o'tsimon o'simliklarni payvandlashda ishlatiladi.

G. Payvandlashni "kopulirovka" yaqinlashtirish usuli, sho'ra o'simligi virusining tok o'simligiga o'gkazishda ishlatiladi. Ildizli ikki o'simlikning kambiy qismi ochilguncha tozalanadi, so'ngra ikkala o'simlik kesilgan joylari bilan bir-biriga jipslashtiriladi va bog'lanadi.

D. Payvandlashning "tilsimon kopulirovka" usuli. Bu usul zemlyanika kabi o'simliklar viruslarini o'gkazishda ishlatiladi. O'simliklar maxsus lenta bilan bog'lanadi.

Birinchi usul payvandustdagi virusni payvandtagga yuqtirishda ishlatiladi. Bu usulni har xil variantlari mavjud.

a) o'tsimon o'simliklarni payvandlaganda payvandustning pastki qismini ponasimon qilib o'tkirlashtiriladi.

b) daraxtsimon o'simliklarni kurtak payvand qilish yo'li bilan (payvandust bo'lib kurtak xizmat qiladi).

v) malinaga o'xshash o'simliklarni shoxlarining suvli idishga solib ("butilka usul"), kartoshka, zemlyanika va boshqa o'simliklarni ham payvandlash orqali ularga virus yuqtirish mumkin. Yaqinlashtirib payvandlanganda ikkala partnyor ham ildiz qismini saqlab qoladi.

Payvandlashni qaysi usuli qo'llanilishidan qat'iy nazar, ulanadigan o'simlik to'qimasini bir-biriga zich qilib tutashtirish muhim bo'lib, ular to bir-biri bilan qo'shilib o'sib ketguncha qoldiriladi.

Payvandust va payvantaglarni bir-biriga bog'lash uchun maxsus lentalar ishlatiladi. Payvandlangan qismning usti, ayniqsa o'tsimon o'simliklarning ustki yuzasi doimo namlanib turishi katta ahamiyatga ega.

Agar virus konsentratsiyasi o'simlikda yuqori bo'lsa, hamda o'simlikning butun tanasi bo'ylab bir tekis tarqamagan bo'lsa, ikki kundan so'ng payvandlangan joyda virus ikkinchi o'simlikga o'tadi. Ammo virusning konsentratsiyasi o'simlikda kam va butun tana bo'ylab bir tekisda tarqalgan bo'lsa virus partnyor o'simlikga o'tishi uchun hafta va updan oshiqroq, daraxtsimon o'simliklarda bir necha oy bo'lishi mumkin. Kasallik simptomlari avval sog' o'simlik shoxlarining eng ustki qismlarida paydo bo'ladi. O'tsimon o'simliklarda esa simptomlar bir va bir necha haftada, daraxtlarda 1 yildan so'ng yoki bir necha yildan so'ng paydo bo'ladi.

3.1.5. Viruslarni zarpechak yordamida yuqtirish

Ushby usul (15) ham payvandlashga o'xshab ketadi, chunki bu holda ham virus o'tishi uchun har xil o'simliklarning hujayralari va o'tkazuvchi to'qimalari orasida jips bog'lanish bo'lishi muhim. Zarpechak *Cuscuta* spp. ko'plab ingichka shoxlarga ega moyali parazit o'simlik bo'lib ho'jayin o'simlik poyasini o'rabi oladi va tegib turgan joylarida ho'jayin o'simlikni o'tkazuvchi to'qimalariga kirgan ildizsimon gaustoriyalar hosil qiladi.

Zarpechak yordamida ikki o'simlikni birlashtirish mumkin. 1940 yildan Bennet birinchi marta ba'zi viruslarni zarpechak kanali orqali boshqa o'simlikga o'tishini aniqladi. Zarpechakning 20 dan ortiq turi virus yuqtirishda ishlatiladi. Eng ko'p ishlatiladiganlari *Cuscuta campestris*. Bu tur 39 ta tekshirilgan virusdan 24 tasini o'tkazgan, *C. subinclusa* esa 23 tadan 12 tasini o'tkazdi. Odatda zarpechak to'qimalarida ham ko'payadigan viruslar (bodring mozaikasi virusi) sog'gom o'simlikga yaxshi o'tadi, aksincha zarpechakda passiv tarqaluvchi viruslarning yuqish samaradorligi past bo'ladi.

Bu usulda virus yuqtirish, odatda, mexanik inokulyasiya bilan, hasharotlar bilan, payvandlash bilan virus boshqa o'simlikga o'tkaza olinmagan xollarda qo'llaniladi. Ba'zan ikki o'simlik bir-biridan taksonomik uzoq bo'ladi, shu vaqtarda yuqoridagi usullar qo'llanilganida virus yuqmaydi. SHunday vaqtarda zarpechak bilan virusni o'tkazish qo'l keladi.

Zarpechak urug'i o'z unuvchanligini bir nechta yillargacha (10 yilgacha) saqlashi mumkin. Ularni ho'jayin-o'simliklarning orasiga urug'i ekilsa ular o'z hayot faoliyatini yaxshi saqlaydilar. Zarpechak ko'chatlarini birdaniga ishlatsa ham bo'ladi, yoki ularni avval xo'jayin-o'simlik tanasiga yaxshilab yopishib

olganidan so‘ng, uni shoxlari ishlatiladi. Zarpechakning ko‘chati yoki shoxini virus bilan kasallangan o‘simlik yaqiniga joylashtiriladi va u o‘simlikga yaxshi yopishib olganidan so‘ng uni ikkinchi uchini indikator o‘simlikga biriktiriladi. Ko‘pgina viruslarda simptomlar avvalo indikator o‘simliklarning uchlaridagi yosh barglarda hosil bo‘ladi. Masalan, bodring mozaikasi virusi zarpechakni o‘zida simptomlar hosil qiladi.

Virusni tamakiga yuqtirish uchun zarpechak avval virus bilan kasallangan qand lavlagiga yopishtiriladi, so‘ngra zarpechakning poyasi sog‘ tamaki o‘simligiga o‘tkaziladi (15).

3.1.6. Hasharotlar yordamida o‘simliklarga virus yuqtirish

Gibbs va Xarrison (15) o‘simliklarni virus bilan kasallantirish uchun ishlatiladigan hasharotlarni (shirincha, kana va boshqalarni) doimo boqib turadigan sharoit bo‘lishini va parvarishlash sharoitlarining quyidagicha bo‘lishini ko‘rsatishadi. Quyida shu usullarni batafsil ko‘rsatishga harakat qilamiz. Hasharotlar boqiladigan o‘simliklar ma’lum shamollatilib turiladigan kameralarda saqlanishi kerak.

Ishlatiladigan o‘simlik esa shu virusga chidamli bo‘lgan o‘simlik (immun) bo‘lishi kerak. Hasharotlarni doimo yaxshi holatda saqlash uchun ular faol o‘sib turgan o‘simlikda bo‘lishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Kameraning tuzilishini quyidagicha tasvirlash mumkin. Diametri 10 smga teng keladigan gultuvak uchun moslanadigan kamerani tag qismi diametri 10-12 smlik taglikdan iborat plastmassa yoki boshqa materialdan tuzilgan, balandligi 57 smlik berk elaksimon idish bo‘lib, uning ust qismi 25-30 smlik selluloid plenka bilan aylantirib qoplanadi va uning ustki qismi esa hasharotlar razmeridan kichikroq bo‘lgan to‘r o‘ralgan qopqoq bilan yopiladi (doka ishlatish ham mumkin). To‘r ishlatishdan maqsad o‘simlik o‘stiriladigan va hasharot parvarishlanadigan bu kameraning ichida kondensatsiyalangan suv (kam shamollantirilsa) yig‘ilishini oldini olish, hasharotlarni unda cho‘kib qolishi, hamda zamburug‘lar rivojlanib mog‘orlashiga yo‘l qo‘ymaslikdir). Hasharotlarni bir o‘simlikdan ikkinchisiga o‘tkazish uchun qo‘llaniladigan moslama odatda quyidagicha tuzilishlarda bo‘ladi, nematodalar bilan ishlaganda tish do‘xtirlari tishning kavaklarini muolaja qilishda ishlatadigan uchi qayrilgan metalldan yasalgan bandlik moslama qo‘llaniladi, kanalar bilan ishlash uchun esa birgina hayvon mo‘yi o`rnatilgan (ko‘pincha olmaxon mo‘yi) mo‘yqalam ishlatiladi, chirildoqlar bilan ishlash va ularni yig‘ish uchun aspiratorlar ishlatiladi. Aspirator bu katta probirkaga po‘kak yordamida kiritilgan ikki naycha bo‘lib, uning biri doka bilan yopilgani bo‘lib og‘izda tortish uchun xizmat qilsa, ikkinchisi 20-25 smlik oson bukiluvchan tiniq plastmassa naychadan iboratdir, odatda (aspiratopHing bu tomoni) sikadalarni yig‘ish uchi xisoblanadi (Illova, 2-rasm)

Shiralar partenogenez yoki tirik tug‘ib ko‘paygani uchun ular juda tez ko‘payadi va qanotli, qanotsizlari paydo bo‘ladi, shuning uchun xam ularni ko‘paytirish ancha osondir. Qo‘ng‘izlar, chirildoqlarni ko‘paytirish ancha qiyin bo‘lib, ayrim malaka talab etadi. Nematodlarni ko‘paytirganda esa tuproq o‘ta

quruq yoki sepHam bo‘lmasdan mo“tadil bo‘lishi zarur. Zamburug‘larni virus yuqtiruvchi qilib o‘stirish uchun steril qumda saqlanadigan o‘simlik ildizlarida saqlash maqsadga muvofiq bo‘ladi, chunki uning zoosporalarini kerak vaqtda oson yuvib olsa bo‘ladi.

Virus tarqatuvchi hasharotlar bilan ishlash ham mutaxassisdan malaka talab qiladi. Masalan, shiralar bilan ishlashda ularni bir o‘simlikdan boshqasiga o‘tkazish uchun mo‘yqalam sal ho‘llaniladi, so‘ngra mo‘yqalamdagি yagona mo‘y yordamida shiralarning qorin qismiga salgina urib-urib qo‘yiladi, natijada shira o‘z stiletini barg tubidan sug‘irib oladi. Keyin uni qil yordamida ko‘tarib olinadi va yangi kasallantiriladigan barg ustiga ohista qo‘yiladi Ba’zi hollarda, ayniqsa shirinchcha oziqlanayotgan bargda virus katta miqdorda bo‘lsa, bexosdan stilet sug‘irib olinganda o‘simlik shirasi mo‘yqalam qiliga tegib so‘ngra sog‘ o‘simlikga o‘tib ketmasligining oldini olish uchun mo‘yqalam bilan ajratib olingen shirinchcha avval barg ustiga qo‘yilgan kichik qog‘oz parchasiga qo‘yiladi, qog‘ozdan esa shirinchcha sekin-asta o‘zi bargga o‘tadi. Chirildoqlar juda faol bo‘lganligi uchun ularni aspirator yordamida boshqa bargga o‘tkaziladi. Nematodalar bilan kasallantirish uchun esa ularni tuproq suspenziyasida ajratib olinadi va u bilan kasallantiriladigan o‘simlik ildizi kasallantiriladi. Nematodalarni ajratib olishning birinchi stadiyasi tuproq bo‘lakchalarini maydalab, ko‘proq hajmdagi suvga o‘tkaziladi. So‘ngra nematodalarni har xil o‘lchamlik elaklardan o‘tkazib, suzib olinadi. Birinchi eng yirik teshikli va keyin undan mayda va eng mayda teshikli elaklardan o‘tkazib, kerakli tur nematodalarni yig‘ib olinadi. Odatda kerakli tur birinchi yoki ikkinchi elakda yig‘iladi. So‘ngra ularni stereomikroskop yordamida har xil o‘simlik ildizi qoldiqlaridan, boshqa har xil organizm va begona buyumlardan tozalab ajratib olinadi va ularni idishdagi suvda saqlanadi. Nematodalar bilan ishlash, ular bilan o‘simliklarni kasallantirish uchun tish do‘xtirlarini tish muolijasida ishlatadigan qayrilgan uchli asboblardan foydalaniladi. Boshqacha usul ham bo‘lib, bu usulni ishlatganda paxtadan to‘qilgan material joylashtiriladi, bu material (filtr) ustiga esa elakdan ajratilgan nematodalar solinadi.

Bir necha soatdan so‘ng nematodalar to‘qimadan sekin asta suvga o‘tadilar va bu tozalangan nematodlarni virus yuqtirish tajribalarida ishlatiladi.

Yana boshqa usul bu **elyutriator** degan asbobdan foydalanib ajratiladi. Bu asbobning prinsipi shundayki, unda suvning kuchsiz oqimi yuqoriga yo‘naltirib oqiziladi, tuproq zarrachalari esa cho‘kib qoladi, asbobdan o‘tgan suv fraksiyalarida esa nematodlar bo‘ladi.

Virus tashuvchi zamburug‘larni virusga ega bo‘lishlari uchun Olpidium zamburug‘i zoosporasini tamaki nekrozi virusi (TNV) bilan ta’minalash kerak. Buning uchun tozalangan virusni zoosporalar suspenziyasi bilan aralashdiriladi, 5 - 15°Cda bir necha daqiqa saqlanadi. So‘ngra suspenziyani virus yuqtiriladigan o‘simlik ildiziga o‘tkaziladi. Zoosporalarni aktivligini 2 kun va undan ortiqroq saqlash uchun ularni suyultirilgan fosfat buferi yoki 5% li Xoglend eritmasida saqlanadi.

Virus tashuvchi hasharotlarga virus yuqtirish uchun ularni membrana orqali oziqlantirish kerak. Membrana vazifasini Parafilm bajarishi mumkin. Shiralar 10-20% saxaroza solingan virus preparatlarini sevib iste'mol qilishadi.

Ba'zi viruslar hasharotlarda uzoq vaqtgacha saqlanadilar. Ba'zi hollarda hasharot virusini o'simlikga yuqtirishdan ilgari ma'lum vaqt o'tishi zarur bo'ladi. Chunki bu vaqt ichida virus ovqat bilan hasharot ichagidan gemolimfaga, so'ngra esa undan so'lak bezlariga o'tadi, ana shu vaqt ichida bir xil tur viruslar ko'payadilar va o'simlikga yuqadilar. Bunda virus-tashuvchilar (shirincha, qo'ng'iz, chirildoqlar) virusni to'g'ridan-to'g'ri in'eksiya qilishi mumkin.

Hashorotlarni 4°C da SO_2 bilan anesteziya qilinib, diametri 30 mkm li shisha kapillyar bilan virus preparati hasharot **qopHidagi segmentlar orasiga** yuboriladi.

Inokulum miqdori hasharot og'irligining 1% dan kamrog'iga teng bo'lishi va bakteriyalardan holi bo'lishi kerak (1 shiraga 5 mkl). In'eksiyadan so'ng hasharot bir necha soat salqin nam kamerada saqlanadi, so'ngra indikator o'simlikga o'tkaziladi.

Virus yuqtiruvchi zamburug'lar bilan ishlaganda zamburug'larning zoosporalardan foydalaniladi. Zoospora olish uchun masalan, olpidium zamburug'i bilan kasallangan o'simlik ildizini quruqroq sharoitda bir kun saqlanadi, bunda zoosporalarning chiqishi kechikadi, keyinchalik ildizni xo'llab (suvga botirib) zoosporalarni olinadi. Buning uchun ildiz 15-20 daqiqa davomida suvga yoki birorta zamburug' o'stiriladigan ozuqa muhitiga solib qo'yiladi. Suvga o'tgan zoosporalarni sentrifuga yordamida konsentrash mumkin.

Zoosporalarni ehtiyyotlik bilan asrash zarur, sovuq sharoitda yaxshi saqlanadi, bo'lmasa zoosporalar xarakatchanliklarini yo'qotadi, shu bilan birga virus tarqatish, o'simlikda kasallikni qo'zg'atish xususiyatlarini ham yo'qotishi mumkin (Ilova, 2-rasm).

3.1.7. Viruslarni hujayra (to'qima) lar kulturalariga (ekmalariga) yuqtirish

Ko'pgina viruslar faqat o'simliklarnigina emas, ulardan ajratib olingan probirkalarda o'stiriladigan hujayralarni ham kasallantiradi. Kallus to'qimalari yoki kallus hujayralari suyuq yoki qattiq oziqa muhitlarida o'stiriladi.

Maxsus muhitlarda o'simlik meristemalari kulturalarini olingan bo'lib, ularni hozir virussiz o'stirish ishlarida qo'llaniladi. Ba'zi kallus hujayralari g'ovak to'plamlar hosil qiladi. Tamakining kallus hujayralarini TMV bilan kasallantirish uchun virusni ular bilan gomogenizatorda aralashtirib amalga oshirish mumkin. Bu usulda 50 dan 90% gacha hujayra suspenziyasiga virus yuqtirish mumkin 100 soatdan so'ng bir hujayraga 10^7 cha virus zarrasi to'g'ri keladi. O'simlik viruslarini yuqtirish uchun bargni fermentlar yordamida matseratsiya qilingan hujayra po'sti saqlangan hujayralar ishlatiladi (Ilova, 2-rasm).

Keyingi vaqtarda hujayra po'stisiz protoplastlar virus yuqtirishda ishlatilmoqda. Protoplastlarni olish uchun tamaki barg hujayralarini pektinaza va

sellyulaza fermentlari yordamida ishlov berib olish mumkin. Ular o‘z hayot faoliyatlarini, bir necha kungacha saqlaydilar. Protoplastlarni poli L-opHitin ishtirokida TMV ni RNK si bilan yoki nativ virus bilan ham kasallantirish mumkin, 20 minutdan so‘ng bir hujayraga 10^6 virus zarrasi to‘g‘ri keladi. Protoplastlarga kartoshkani virusi, bodring mozaikasi virusini va shunga o‘xhash bir qancha viruslarni yuqtirilgan.

Demak, fitoviruslarni biologik tozalash va eksperimental yuqtirishni birqancha usullari borligini ko‘rib o‘tdik. Endi virus namunasi bilan kasallangan mazkur o‘simlikda virus bor-yo‘qligi, bo‘lsa uning miqdorini (oz-ko‘pligini) aytaoladigan indikator o‘simliklar mavjud bo‘lib ular virus to‘plovchi o‘simliklarda virus titrini, guruhini identifikasiya qila oladilar. Quyida shular haqida so‘z boradi.

3.2. Fitopatogen viruslarni indikator o‘simliklarga yuqtirib identifikasiya qilish

3.2.1. Tomat o‘simligi viruslarini identifikasiya qilish

Tabiatda minglab o‘simlik viruslari va ularning shtammlari tarqalgan. Har bir o‘simlik bir yoki bipHecha virus bilan kasallanishi mumkin. Masalan, pomidor o‘simligida (*Lycopersicum virus*) eng ko‘p tarqalgan quyidagi viruslarni keltirish mumkin:

1. Tamaki mozaikasi virusi *Nicotiana virus* 1.
2. Tomatni zarhallanishi virusi (virus bronzovosti tomatov) - *Lycopersicum virus* 3
3. Tomatni bepushtliliqi virusi (virus aspermii tomatov) - *Lycopersicum virus* 7.
4. Bodring mozaikasi – (Virus ogurechnoy mozaiki-1) *Cucumus virus* 1
5. Beda mozaikasi virusi - (virus mozaiki lyusepH) - *Medicago virus* 1 (Viruslarni lotincha nomlari Smit (48) bo‘yicha berilgan).

Bu viruslardan tashqari pomidor o‘simligi kartoshkani M, X, U viruslari bilan kasalanadi. M – virus odatda latent (yashirin) holatda bo‘ladi. Tomatda yana qo‘qongulni sariq kasalligi (jeltuxa) virusi uchraydi.

Pomidorda viruslarni aniqlashni Yu.I. Vlasov (13) quyidagi usulini taklif etadi. TMV ni tashqi simptomlari o‘simlikni ko‘chatlik davridan to vegetatsiyasining oxirigacha bo‘ladi, zarhallanish (bronzovost) va boshqa viruslar simptomlari o‘simlikning meva hosil qilish davrida yaxshi kuzatiladi. Kasal o‘simliklarni aniqlab yilib tashlash va kasallikning rivojlanish dinamikasini o‘rganish uchun kuzatuvni o‘simlik rivojlanishining erta davrlarida boshlagan ma’qul hisoblanadi. Issiqxona sharoitida hamma o‘simliklar kuzatuvdan o‘tkaziladi, chunki kuzatuv maydoni ham kichik, ham kasallik har er - har erda uchraydi.

Ochiq dala sharoitida kasallangan o‘simliklarni aniqlash uchun ikki bir-biri bilan kesishadigan diagonal bo‘ylab har tekshiruv nuqtasi 10 tadan o‘simlikda

olib boriladi. Bir gettar maydonda 20 ta nuqta tekshiriladi (1 namunada 10 ta o'simlik), ja'mi 200 ta o'simlik bo'ladi.

Demak, 1 ga maydonda jami 200 ta o'simlik kuzatiladi. 3 gettarda 40 nuqta, 5 gettarda 60 nuqta, 10 gettarda 80 nuqta va yana 10 gettarga qo'shiladigan har gettar maydonga 1 tadan nuqta (10 ta o'simlik) qo'shilib boraveradi.

Pomidordagi yashirin viruslarni (latent) aniqlash uchun m., TMV guruhi viruslarni aniqlash uchun yig'ilgan namunalardagi viruslar aniqlanadi. Tomatning 10-15 o'simligini olib ularni yuqori, o'rtalari va quyi yaruslaridagi barglardan bittadan namuna olinadi va ularni aniqlagich o'simliklar yordamida yoki serologiya usullari bilan analiz qilinadi.

Kuzatish metodikasi har bir ob'ekt va vazifaga qarab o'zgarishi mumkin.

1. Tomat o'simligida uchraydigan TMV va boshqa viruslarni identifikasiya qilish uchun bu virusning ko'p yillardan buyon o'rganilgan xususiyatlardan foydalanib quyidagi usullar Vlasov Yu.I. (13) tomonidan amaliyotda keng ko'lamda qo'llanilmoqda (2-3 jadvallarga qaralsin).

a) TMV barglarida mozaika va ularni ba'zan ipsimonlashishi, strik, mevasini ichini qo'ng'ir rangga kirishi kuzatiladi.

b) TMV virusining boshqa indikator o'simliklardagi simptomlari ham mazkur jadvalda keltirilgan.

v) Viruslarning fizik xususiyatlari: O-TMV (oddii tamaki virusini xarorat ta'sirida faolligini yo'qolishi (HTFY) – 93-96°S, aukuba shtamminiki - 80,6°S, qozoq shtamminiki esa - 82°S; oxirgi suyulish miqdori (OSM) 1:1 000 000. O'simlikdan ajratilgan shirada saqlanish muddati bir necha oy.

g) Serologiya usulida diagnostika "tomchi usul"da bajariladi.

d) Mikroskop bilan analiz qilish virus zarralari tayoqchasimon shaklga ega; o'lchamlari 300x18 nm.

2-jadval

Tomat viruslarining indikator-o'simliklardagi reaksiyasi

Virus	Indikator o'simlik turi	Reaksiya xarakteri	Eslatma
TMV	<i>Nicotiana glutinosa</i>	L; LLN	Ko'pchilik TMB ni shtammlari mahalliy nekrozlar hosil qiladi
	<i>Datura stramonium</i>	L; LLN	TMV ni odadagi shtammlarining TMV vulgare - (O-TMV) reaksiyasi
	<i>Petunia hybrida</i>	L; LLN	TMV ni tomat shtammlari reaksiyasi
	<i>Petunia hybrida</i>	S; M	Tamakini duragay navlari shunday reaksiya beradi.

	<i>Nicotiana tabacum</i>	L; LLN	Gruziya tamaki va maxorka insituti navi
	<i>Petunia hibrida</i>	L; LLN	
	<i>Nicotiana glutinosa</i>	L; LLN, S; M, N	
TZV	<i>Datura stramonium</i>	L NR, S NOL	
	<i>Nicotiana tabacum</i>	L NR, S N, NR	
	<i>Nicotiana rustica</i>	L NR, S N, NR	
	<i>Lycopersicum esculentum</i>	S BsN, VO, NR	
TBV	<i>Petunia hibrida</i>	S M, En, Vb	
	<i>Tetragonia expansa</i>	L LL	
	<i>Nicotiana glutinosa</i>	S M, D S N, En	
BV №1	<i>Nicotiana glutinosa</i>	S M, Dis	
	<i>Nicotiana tabacum</i>	S M, Sis	
	<i>Cucumis sativus</i>	S YMO	
	<i>Datura stramonium</i>	L Sp S Mo, M, Ch, Rp	Hamma shtammlarida ham emas
	<i>Chenopodium murale</i>	L LL	
KXV	<i>Datura stramonium</i>	L N Sp, S Mo	
	<i>Nicotiana glutinosa</i>	S Mo, N	
	<i>Gomphrena globosa</i>	L LLN	
KUV	<i>Nicotiana tabacum Samsun navi</i>	S VC Vb	
	<i>Datura metel</i>	S Ve LB	
	<i>Solanum demissum hybr. H₆</i>	L Ve LB	
	<i>Solanum demissum</i>	L. N Sp Br	
BV	<i>Datura stramonium</i>	L, Sp, S Vc, Y Sp M, N	
	<i>Capsicum annum</i>	S ym	

3-jadval

Tomat viruslarini identifikasiya kilishda foydalaniladigan ba’zi xususiyatlari

Virus	Simptom	XTFY	OSM	DSHS	Ser	Kirit-ma	Morfo-logiya, nm
TMV	Mozaika, bargini ipsimon shakli bo‘lishi, meva ichi qo‘ng‘ir rangga kiradi	0 - TMV-93°, Aukuba shtamm, K-TMV 80°	1;1000 000	oylar	Tomchi usul	Tuklari da ignasi mon, duts imon kris tallar	300x18 290x18
TZV	Bargni zarhallanishi, mevada yumaloq halqalar	40 - 48°	1;100-1,5000	4 - 10 soat			40
TBV	Mozaika, o‘ta shohlash,	50-55°					200

	barglarini maydalashishi, barg shaklini o‘zgarishi, buralishi, mevasi may dalashishi, urug‘i etilmasligi.						
B V - 1	Bargi ipsimon, paporatniksimon shaklga kirishi	60 - 70°	1; 10000	6-8 kun	Tomc hi usul		35
KXV	Virulent shtammlarda: bargda nekroz, keyinchalik nekrozli halqa hosil bo‘ladi. Virulentligi kuchsiz shtammida: xol- xollik va uni tezda yo‘qolishi kuzatiladi.	70°	10^5		Tomc hi usul	-	480-12; 520x10
KYB	Barg tomirlarini oqarishi (rangsizlanishi), va so‘ngra tomirlar to‘q yashil hoshiyaga ega bo‘ladi Ba’zan simptomlar noaniq bo‘lib, tezda yo‘qoladi	55-60°S	1;1000 - 1:8000		Tomc hi usul		756 x12
BMV	Bargni har xil jadallikkagi mozaikasi, o‘tkazuvchi to‘qimalar -ning nekrozi	62°- 64°S	1:2000 - 1:1000 0	3 - 8 kun	Ikkiy oqla ma immu nodiff uziya		

e) "Kiritmalar" usulini qo‘llash. Tomat barglaridan TMV ni kristall kiritmalarini kuzatish ancha keng tarqalgan. Barg tukchalaridagi hujayralardan kiritmalar topish tavsiya etiladi.

Tomatni ko‘k mevalarida esa virus barg va mevasining qoplovchi to‘qimalardagi kiritmalar borligiga qarab aniqlanadi. Pishgan mevalarda kiritmalarni qidirish yaxshi natijalar bermaydi. Shuning uchun ulardan virus kiritmalari axtarilganda urug‘ni o‘rab olgan shilliq to‘qima analiz qilinadi. Kasallangan mevaning to‘qima hujayralarida har xil kattalikkagi ignasimon va dugsimon kiritmalar to‘plamlari kuzatiladi. Sog‘ hujayralarda esa bunday kiritmalar kuzatilmaydi (topilmagan).

Preparatlar mikroskopda 200 - 400 marta kattalashtirib kuzatiladi.

2. Tomatni zarhallanishi virusini (TZV) (virus bronzovost tomatov) tomatda identifikasiya qilish uchun TZV ni quyidagi xususiyatlaridan foydalilanildi.

a) Tomat o‘simligi barglarida zarhallanish, "krapchatost" va mevalarida yumaloq xalqalar kuzatiladi. Ko‘pincha butunlay o‘simlik nobud bo‘ladi.

b) Aniqlagich o‘simliklardagi simptomlar adabiyotlarda batafsil keltirilgan (13; 14; 15; 29).

v) Fizikaviy xususiyatlari HTFY - 40°-48°S; OSM 1:100 - 1:5000; ajratilgan shirada saqlanishi (ASHS) – 4 - 10soat.

g) Mikroskopda tadqiq qilish: zarralar diametri 40 nm.

3. Tomatning bepushtiligi virusi (virus aspermii tomatov) (TBV)

a) Tomatdagи simptomlari: o'simlik o'ta shoxlangan bo'ladi, barglari maydalashadi, mozaika hosil bo'ladi. Bargni shakli o'zgaradi, deformatsiyalanadi va barglar buraladi. Mevalari mayda va deformatsiyalanadi, urug'lari etilmaydi.

b) Indikator o'simliklardagi simptomlari 1-jadvalda keltirilgan.

v) Virusni fizikaviy xususiyatlari: HTFY 50-55°S.

g) Mikroskopda tadqiq qiligan: diametri 200 nm ga teng sferik virus zarralari.

4. Bodring virusi 1 (Cucumis virus-1).

a) Tomatdagи simptomlari: ipsimon va paporotniksimon barglilik.

b) Indikator o'simliklardagi simptomlari 1-jadvalda keltirilgan.

v) Virusni fizikaviy xususiyati HTFY - 60-70°S; OSM - 1:10000

g) Serologiya analizlari tomchi usul bilan bajariladi.

d) Mikroskop yordamidagi tadqiqotlar: diametri 35 nm ga teng sferik virus zarralari.

5. Kartoshkani X-virusi (KXV)

a) Tomatdagи simptomlari: o'ta virulent pgtamm virus yuqtirilgan bargda nekrozlar hosil qiladi va u keyinchalik rivojlanib dumaloq nekrozlangan halqa hosil qiladi. Kuchsiz virulentlikka ega bo'lgan shtammlari bargda yorug' va to'q yashil xol—xollik (svetlotemnozelyonaya krapchatost) hosil bo'lishi ham mumkin.

b) Indikator o'simliklardagi simptomlari 1-jadvalda berilgan.

v) Virusni fizikaviy xususiyatlari: HTFY - 70°S, OSM - 10^{-5} shtammlariga qarab bu ko'rsatkichlar o'zgarishi mumkin.

g) Serologiya analizlari tomchi usulda bajariladi.

d) Mikroskop yordamidagi tadqiqotlar: virus zarralari ipsimon shaklli, uzunligi 520 nm, eni 10 nm.

6. Karotoshkani U-virusi (KUV)

a) Tomatdagи simptomlari tomirlarining oqarishi (rangsizlanishi), "krapchatost", so'ngra tomirlarni to'q-yashil hoshiyaga ega bo'lishi.

Ba'zan simptomlari aniq bo'lmasdan keyinchalik yo'qolib ketadi.

b) Indikator o'simliklaridagi simptomlari 1-jadvalda berilgan.

v) Virusni fizikaviy xususiyatlari: XTFY-55 - 60°S; OSM - 1:1000-1:8000

g) Serologiya analizi tomchi usulida bajariladi.

d) Mikroskop yordamidagi tadqiqotlar: virus zarrachalari ipsimon shaklli, uzunligi - 756 nm

7. Beda mozaikasi virusi

a) Tomatdagи simptomlari: bargning har xil jadallikkagi mozaikasi, o'tkazuvchi to'qimalarining nekrozi.

b) Indikator o'simliklardagi simptomlari: HTFY - 62-64°S;

v) Virusni fizikaviy xususiyatlari: OSM = 1:2000 - 1:10000; ASHS = 3 - 8 kun.

g) Serologiya analizi; ikkiyoqlama immunodiffuziya yordamida bajariladi.

8. Aralash infeksiyalar

Issiqxonalarda pomidorlar bir vaqtini o‘zida TMV va KXV yoki ochiq dalada TMV va KXV, TMV va KUV, TMV va boshqa yuqoridagi ko‘rsatilgan viruslar bilan birga uchraydi. Bunday hollarda analizni tezlik bilan amalga oshirish uchun serologiya usullaridan foydalaniladi. Indikator o‘simpliklar yordamida analiz qilinadigan bo‘lsa, aytilgan viruslarni aniq identifikatsiya qilish uchun indikator o‘simpliklar to‘plami bo‘lishi zarur. Tomatda TMV dan bodring mozaikasp virusini (BMV) ajratish uchun kiritmalar usuli yaxshi natija beradi, chunki BMV hujayrada kiritmalar hosil qilmaydi.

4-jadval

Simptomlarni belgilashda ishlataladigan shartli belgilar

Qisqartma	Ingliz tilida	Рус тилида	О‘zbek tilida
Br	brown	Коричневый	Jigarrang
Ch	chlorosis, chlorotic	Хлороз, хлоратичный	Xloroz
Dis	distortion	Деформация	Deformatsiya
En	enation	Выросты	O’simtalar
L	locally	Локальный, местный	Maxalliy
LL	local lesion	Местные повреждения	Mahalliy jarohatlanish
M	mosaic	Мозаика	CHiporlanish
Mo	moottling	Крапчатость	"Xol —xollik"
N	necrosis	Некроз	Nekroz, to‘qimalarni doira shakliga o‘tishi
NR	necrotiring	Некротические кольца	Nekroz xalqasi
NV	necrtotic vein	Некроз жилок	Tomir nekrozi
Nql	necrotic qeercees lesion	Некротический Дубовидный рисунок	Dubsimon ko‘rinishdagi nekroz
S	systemically	Системный	Butun tana bo‘ylab virusning tarqalishi
Sp	spots	Пятна	Dog‘
VB	Vein banding	Окаймление жилок	Tomirlarni hoshiyalanishi
vc	Vein clearing	Посветление жилок	Tomir rangsizlanishi
YM	Yellow mosaic	Жёлтая мозаика	Sariq mozaika
YMO	Yellow motling	Жёлтая крапчатость	Sariq xol-xollik

Shunday qilib, viruslarni tozalashning birinchi bosqichi – biologik tozalash haqida baholi qudrat olingen materiallar bilan tanishtirdik. Endigi vazifa viruslarni hujayraning barcha organellalaridan (xloroplastlar, oqsillar, polisaxaridlar, ribosomalar, pigmentlar, tannin moddalari va hokazolardan) fizikkimyoviy usullardan foydalanib virus zarralarini yuqumliligi, antigen xususiyatlari, xullas uning nativ holati saqlangan holda ajratib olishdir.

3.3. Viruslarning toza preparatlarini olish. Virus preparatini olishda dastlabki o'simliklar yordamida qilinadigan tayyorgarlik ishlari

Viruslarni preparativ miqdorda ajratib olish uchun virus to'plagich o'simlikda ajratiladigan virusni miqdori etarlicha to'planganligini bilib, uning bargidan shirasini ajratib olib undagi to'plangan yuqumli virus miqdorini aniqlansa maqsadga muvofiq bo'ladi. Ba'zi virus bilan kasallangan o'simliklarning 1 kg dan 1 - 3 gr toza virus ajratib olinsa, ba'zilaridan 3-5 mg gina ajratib olish mumkin, bu birinchi navbatda virusning hujayrada to'planishiga bog'liqdir. Uning uchun virusning oxirgi suyulish miqdorini (OSM) aniqlash kerak bo'ladi.

Virus hujayrada ko'p to'plangan hollarda suyulish darajasi 10^{-6} - 10^{-7} ni tashkil qilsa (TMV), ba'zi vaqtarda 10^{-2} - 10^{-3} nighina tashkil etadi. (M. jo xorining pakana chiziqli mozaikasi virusi) (5 -jadval).

Tamaki mozaikasi virusining tomat shtammini (TMV —TSh) oxirgi suyulish miqdorini (OSM) aniqlash uchun shu virus bilan kasallantirilgan o'simlik barglaridan 50—60 g 0,05 M fosfat buferi ishtirokida (oligan virusli material vazniga teng miqdorda 1:1 nisbatda bufer olinadi va suyultirilgan vaqtda hisobga olinishi kerak) havonchada ezib maydalanadi. So'ngra 3—4 qavatlidokadan suziladi va bu virusli suyuqlik sentrifugada 10 minut davomida minutiga 5-6 ming aylanish tezligida aylantiriladi. Cho'kma usti suyuqligidan qator probirkalarga 10^{-1} , 10^{-2} , 10^{-3} , 10^{-4} , 10^{-5} , 10^{-6} , 10^{-7} marta suyultirilgan virus eritmalari tayyorlanadi hamda *N. glutinosa* yoki *N. sylvestris* barglarining korund sepilib tayyorlangan o'ng tomoniga 4-5 tomchi tomizilib ohista barmoq bilan surtiladi. Bargning chap tomoniga esa suyultirilmagan o'simlikning shirasi tomiziladi va surtiladi. Har biri suyultirilgan probirkadagi virusli eritma 5-6 bargga yuqtiriladi. Etiketkalar bog'langandan so'ng nam kamera hosil qilingan eksikatorga osib qo'yiladi. Eksikatorga bakteriyalarga qarshi 3-4 tomchi xloroform tomizib qo'yiladi.

Kasallik alomatlari 48-72 soatlardan so'ng paydo bo'lganidan so'ng natijalar hisobga olinadi, ya'ni hosil bo'lgan nekrozlar soni hisoblanadi. Nazorat va tajribadan olingan nekrozlar ayrim — ayrim qilib jadvalga tushiriladi, 5-6 bargning o'ng tomonidan olingan nekrozlarning o'rta chasi hisoblanadi.

Natijalarni grafik ravishda tasvirlash uchun ordinata o'qiga nekrozlar soni kontrolga nisbatan foiz hisobida, absissaga esa suyulish darajasi qo'yiladi. Olingan natijalar nuqtalari birlashtirilsa suyulish darajasi oshishi bilan, egri chiziq 0 ga intiladi. Olingan natjalardagi eng oxirgi kasallik alomatlari hosil bo'lgan suyulish miqdori shu virusning oxirgi suyulish darajasi deb hisoblanadi.

Suyulish darajasi har bir virusni identifikatsiya qilishda ahamiyatga ega bo'lib, ularni virus turiga va shtammiga qarab har xil bo'ladi (5-jadval). Virus mazkur metod bilan aniqlanganda maksimal OSM ni ko'rsatsa bu virus to'plagich o'simlikda virus miqdorini yuqoriligidan dalolat beradi.

5-jadval

Ba'zi fitopatogen viruslarni oxirgi suyulish miqdori

Virus yoki uning shtammi	Oxirgi suyulish miqdori
TMV	10^{-6}
TMV-TSh	10^{-7}
TMV-Koz.Sh	10^{-5}
Jo‘xorining pakana mozaikasi	10^{-3}
Sholg‘om mozaikasi	10^{-3}
Redis mozaikasi	10^{-3}
Vodring mozaikasi virusi	10^{-3}
Gulkaram mozaikasi	10^{-5}
G‘o‘za mozaikasi virusi	—

Virus miqdorini bargda maksimal to‘planganligini bilish uchun hozirgi kunda bir qancha immunologiya usullari mavjud. Bulardan vira bakterial agglyutinatsiya, immunoferment analizi, PSR kabi usullarni ishlatib aniqlasa ham bo‘ladi.

Endi yana bir virus ajratishda zarur faktor bor bo‘lib, bu shu virusni termostabilligidir. Agar virus termostabil viruslarga kirsa uni bemalol xona temperaturasida ajratib olsa bo‘ladi. Aksincha virus termolabil viruslarga kirsa unda sovuq xonalarda ($+2\text{-}4^{\circ}\text{S}$) virus preparatini ajratish maqul bo‘ladi. Viruslarni harorat ta’sirida faolligini **yo‘qotish** (HTFY) **nuqtasini aniqlash** uchun masalan, tamaki mozaikasi virusining (TMV) tomatdagи shtammini harorat ta’sirida faolligini yo‘qotishi nuqtasini aniqlash uchun tomatning kasallantirilgan barglari (50 - 60 g) 0,1 M fosfat buferi bilan havonchada yaxshilab maydalanadi (virusli material va fosfat buferining nisbati - 1:1), so‘ngra 4 qavat dokadan o‘tkaziladi. Dokadan o‘tkazilgan suyuklikni 10 daqiqa davomida minutiga 6000 marta aylanish tezligidagi sentrifugalanadi. Cho‘kma usti suyuqligini yupqa devorli shisha probirkalarga (12 dona) 5 ml dan qilib quyiladi. Birinchi probirkadagi virusli o‘simlik shirasi nazorat variant qilib olinadi va qizdirilmaydi. Qolgan ikkita probirkadagi virusli namunalar har xil haroratda (50, 55, 60, 65, 70, 75, 80, 85, 90, 95, 100°S) suv hammomida 10 daqiqa davomida qizdiriladi, probirkadagi virusli o‘simlik shirasi termometr bilan bir xil chuqurlikda suv hammomiga joylashtiriladi. Termometr 50°Cni ko‘rsatishi bilan suv hammomidagi issiqlik 10 minut davomida 50°Cda saqlanadi. So‘ngra u suv hammomidan olinib vodoprovod tagida sovitiladi. Sovitilgan virusli o‘simlik shirasini *Nicotina glutinosa* aniqlagich o‘simligining korund bilan changlatilgan bargini o‘ng tomoniga pipetka yordamida 4-5 tomchisi tomiziladi. So‘ngra sterillangan shisha tayoqcha yoki shisha kurakcha yordamida yoki sterillangan paxta bilan yoki sovunlab yuvib artilmay quritilgan barmoqlar bilan ohistalik bilan surtiladi (ishqalanadi). Bargning chap tomoniga esa qizdirilmagan nazorat o‘simlik shirasi tomiziladi va u ham ohistalik bilan surtiladi. So‘ngra ikki tomoniga virusli o‘simlik shirasi surtilgan bargga etiketka bog‘lanadi va nam kamera vazifasini bajaruvchi eksikatordagи ipga osib qo‘yiladi. Xuddi shu usulda ikkinchi probirka -55°Cda , uchinchisi -60°S , to‘rtinchisi -65°S , beshinchisi -70°S , oltinchisi -90°S , o‘ninchi -95°Cva o‘n birinchisi -100°Cda alohida - alohida suv hammomida 10 daqiqa davomida isitilib so‘ngra sovitilib

tayyorlangan shira aniqlagich o'simliklar bargini o'ng tomoniga yuqtiriladi va ular ham eksikatorga etiketkalari bilan osib qo'yiladi. Har bir variant 4 - 6 ta bargga yuqtiriladi. Etiketkalarga virus yuqtirilgan vaqt, qizdirilgan temperatura, virusning nomi, chap tomoniga qizdirilmagan nazorat virusli shira yuqtirilgan bo'lib, u ham belgilanib qo'yiladi. Eksikator qopqog'iga vazelin surtilib zikh qilib yopiladi va 48 soatga (aniqlagich o'simlik qilib *N. glutinosa* ishlatilganda) yoki 72 soat (*N.sylvestris* ishlatilganda) havo haroratida qoldiriladi. Ko'rsatilgan muddat o'tgandan so'ng, paydo bo'lgan kasallik simptomlari hisobiga olinadi va jadvalda qayd etiladi. Natijalari grafik ravishda tasvirlash uchun absicca o'qiga nekrozlarni soni, ordinata o'qiga esa harorat sonlari qo'yiladi. Olingan natijalar nuqtalari birlashtiriladi. Nazariy ravishda qaralganda haroratning oshishi bilan egri chiziq nolga intiladi. Qaysi bir qizdirish haroratida virus aktivligi O gacha pasaysa (nekrozlar kuzatilmasa) shu harorat virusning harorat ta'sirida faolligining yo'qotish (HTFY) nuqtasi deb belgilanadi (6-jadval).

Odatda tamaki mozaikasi virusini tamakidagi shtammining HTFY nuqtasi - 95°C- 97°С, TMV ning Qozoq shtamminiki 80°C- 82°С, TMV ning tomatdagi shtamminiki - 96 - 98°С, jo'xorining pakana mozaikasi virusiniki - 50 - 52°С, sholg'om mozaikasi virusiniki 60 - 62°Cva h.k.

Bu ko'rsatkichlar shuni ko'rsatadiki barcha tamakining shtammlari termostabil bo'lganligi uchun ularni bemalaol xona temperaturasida toza preparatini olish mumkin. Ammo jo'xorini pakana mozaikasi virusi yoki sholg'om mozaikasi virusi, kartoshkaning U virusi kabi viruslarni albatta sovuq xonalarda virusini ajratish shart bo'ladi.

Mazkur virus xususiyatlarini bilib olish, uni hujayradagi miqdorini ko'rsatsa, ikkinchi qilingan ishdan olinadigan xulosa, mazkur virusni qanday temperaturada tozalash ishlarini olib borish mumkinligini bilishga yordam beradi. Keyingi qilinadigan tanlov ishlar virus xususiyatiga, uni "avaylovchi" usul bilan tozalash kerakmi yoki bemalol barqaror viruslarni tozalash metodlarini qo'llanilishi mumkinligini ko'rsatadi.

6-jadval

Har xil shaklli ba'zi fitopatogen viruslarning harorat ta'sirida faolligini yo'qotish nuqtalari

Virus yoki shtamm	Shakli	Diametri (nm)	Harorat ta'sirida faolligining yo'qotish nuqtasi, S	Adabiyotlar
TMV	Tayoqcha	300 x 18	95 - 96	Goldin M.I.
TMB ni pomidordagi shtammi	Tayoqcha	280 x 18	96 - 98	Xasanova R., Vahobov A.H., Dehqonova Z.N.
Jo'xorini mozaikasi virusi	Ipsimon	720 - 750 x 12	50 - 52	Davronov Q.S.

SHolg'om mozaikasi virusi	Ipsimon	720 - 10	50 - 52	Dehkonova Z.N.
Redis mozaikasi virusi	Sharsimon	30	60 - 62	Dehqonova Z.N.
Bodring mozaikasi virusi	Sharsimon	26 - 30	60 - 62	YUldashev J.
Gulkaram mozaikasi virusi	Sharsimon	50		Dehqonova Z.N.

Ishlatiladigan fizik-kimyoviy metodlar ham birinchidan tadqiqodchini malakasini talab qilsa, ikkinchi tomondan mazkur metod bilan virus tozalash uchun laboratoriyadagi sharoitni borligini - kerakli asbob-uskuna, reaktivlarni borligini taqazo etadi. Keyingi bobda shu haqdagi metodlar, ularni xususiyatlari va imkoniyatlariga e'tibor qaratiladi.

? Savollar

1. Viruslarni biologik tozalash va fizik-kimyoviy tozalashdan qanday farqi bor?
2. Viruslarni biologik tozalashda ishlatiladigan ho'jayin-, indikator-, differensiatsiallovchi- va virus-to'plovchi o'simliklarni nomlari, bir-biridan farqi, funksiyalari haqida ma'lumot bering.
3. Viruslarni hujayraga kirishi va rivojlanishida qanday faktorlar ta'sir etadi?
4. Kasallangan o'simliklarda hosil bo'ladigan simptomlar haqida ma'lumot bering va ularni tavsiflang.
5. Virusni biologik tozalagandan so'ng to'plovchi o'simlikda maksimal virus to'planganligini qanday qilib bilinadi?
6. Mexanik usulda virus yuqtirish deb nimaga aytildi?
7. Viruslarni o'simliklarga yuqtirishda mexanik usul bilan yuqtirish imkoniy yo'q bo'lgan viruslarni boshqa qanday usullar bilan amalga oshiriladi, u usullarni sanab bering va tavsiflang.
8. Hasharotlar bilan virus yuqtirganda ishlatiladigan asbob-uskunalarni sanab bering va qanday holatlarda ishlatilishini ko'rsating.
9. Elyutriator nima va u qanday vaqtda ishlatiladi?
10. O'simlik viruslarini identifikatsiya qilishni tushuntirib bering, qaysi virus uchun qanday indikator o'simlik ishlatiladi?
11. O'simlik viruslarida hosil bo'lgan simptomlarni qanday qisqartma lotin harflarida belgilanadi?
12. Bir o'simlikda ikki va undan ortiq viruslar uchraganda ularni bir-biridan qanday usullarda, viruslarni, o'simliklarni qaysi xususiyatlaridan foydalilanadi?
13. Virus zarrachalarini shakllari va harorat ta'sirida yuqumliligin yo'qotish temperaturalari?

14. Virus yuqumliliginini ingibitorlari deganda nimani tushunasiz va ularniqilish yo'llari qanday?

15. Viruslarni fizik-kimyoviy usulda tozalash uchun tayyorlangan namuna qanday sifatlarga ega bo'lishi kerak?

4-bob. Viruslarni fizik va kimyoviy usullarda tozalash

4.1.Viruslarning tozalik mezonlari

Viruslarning toza va faolligini saqlagan holda ajratib olish, ularning xususiyatlarini chuqurroq va atroflicha kengroq o‘rganishga, kurash choralarini ishlab chiqishga imkon yaratadi.

Virus zarrasi o‘ta kichik o‘lchanadi (angstrom yoki nanometrlar bilan o‘lchanadi) biopolimer (m.m. $4\text{-}10^6\text{-}50\text{-}10^6$ va undan yuqori dalton) bo‘lgani uchun ularni tozalash va o‘rganishda boshqa fanlar (biokimyo, molekulyar biologiya, immunologiya, biotexnologiya, fizik-kimyo, kristallografiya, kimyo fizikasi) metodlaridan keng va unumli foydalilanadi. Tozalangan virus preparatlarini tozaligini va gomogenligini (bir jinsli) hamda haqiqatdan ham ajratilgan bu preparat o‘z yuqumliligin saqlab qolganligini bildiruvchi omillar bor (8).

Toza holda ajratilgan virus zarrasini morfologiyasi, strukturasi, kimyoviy tarkibi, antigenligi, oqsil va nuklein kislotasi va boshqalarining xususiyatlari o‘rganiladi.

Toza holda ajratib olingan virus preparati quyidagi mezonlarga javob berishi kerak:

1. Ajratib olingan preparatning yuqumliligin, shu virusning o‘ziga xos spetsifik sezgir indikator o‘simliklariga (o‘simlik viruslari uchun), hayvonlarga (to‘qima va hujayra ekmalariga) va bakteriyalarga (bakteriofaglar uchun) yuqtirib, ijobiy natija olish bilan tasdiqlanadi (Ilova, 3-rasm).

2. Preparatning gomogenligini isbotlash uchun biror moddani (saxaroza, seziy xlor) gradient zichligida sentrifuga qilinib tadqiq qilinganda bir virus zonasi (doira) hosil bo‘lishi ko‘rsatadi.

3. Tozalangan virus preparatini elektron mikroskopda tekshirilganda preparat faqat virus zarralaridangina iborat bo‘lishi kerak. Elektron mikroskop natijalari olingan preparatni gomogenligidan va virus agregatlari haqida ma’lumot beradi (Ilova, 4-rasm)

4. Tozalangan virus preparati spektrofotometrda analiz qilinganda UB-nupHi maksimum 260 nmda yutishi, hamda UB-nupHi 230nm - 320nm to‘lqin uzunligida da virus spektrini o‘lchanganda ham 260 nm da cho‘qqi hosil bo‘lishi, 260 nm ni 280 nm nisbati kam nuklein kislotasi tutuvchi (5-6%) viruslarda 1,2 – 1,3 ni (TMV, BMV-3), ko‘p nuklein kislotasi tutuvchi viruslarda 20% va undan oshiqroq ko‘rsatkichni bo‘lishi (YAMV, TSPV) toza virus preparatlariga qo‘yilgan talabga mos kelishini ko‘rsatadi (Ilova, 8-rasm).

5. Immunologiya analizi. Tozalangan virus preparati virusga qarshi tayyorlangan antizardob bilan ikkiyoqlama immunodifuziya usulida tekshirilganda pretsipitatsiya chizig‘ini hosil qilishi va o‘simlik hujayrasining normal tarkibiy qismlariga qarshi olingan antizardob bilan pretsipitatsiya chizig‘ini hosil qilmasligi kerak (Ilova, 9 -rasm).

6. Sedimentatsiya analizi. Toza preparatni 1 –2 gramm miqdordagisini analitik ultratsentrifugada ma’lum tezlikda va va ma’lum vaqt o‘tgandan keyin sedimentatsiyasini shlireng –optikasida rasmga olinganda simmetrik cho‘qqi hosil

qilishi kerak. Agar asosiy virus cho'qqisini yoki o'ng, yoki chap tomonida qo'shimcha cho'qqichalarni borligi tayyorlangan virus preparati tarkibida virusdan tashqari katta yoki kichik molekula massali substansiyalarni borligini ko'rsatadi (Illova, 10-rasm).

7. Izotop analizi usulini qo'llash. Toza preparatni shu virus ajratilgan o'simlik, hayvon yoki bakteriyani nishonlangan muqobil (normal) hujayra qismlari bilan sun'iy aralashma tayyorlanadi. So'ngra virus tozalangan usul bilan virus ajratiladi. Tozalangan preparat tarkibida izotop nishoni bo'lmasligi virus tozaligini ko'rsatadi.

Atabekovning fikricha o'ta sifatli tozalangan virus preparatida ham oz miqdorda bo'lsa ham hujayra moddalari qolgan bo'lishi mumkin. Yuqorida aytilgan metodlar bilan tozaligi tekshirilganda ham bu metodlar sezgirligi etmasligi mumkin. Undan tashqari kichik malekulali ba'zi moddalalar virus sirtiga adsorbsiyalangan ham bo'lishi mumkin

4.2. Viruslarni tozalashning asosiy o'ziga xos xususiyatlari

Fitopatogen viruslarni shu kungacha faqat 35-45% nigina toza holda ajratilgan va ularni ajratish metodlari ishlab chiqilgan.

1898 yilda Beyerink TMV ning etil spirti bilan cho'kmaga tushishini, cho'kmadagi virusni quritib qaytadan suvda eritilganda ham o'z yuqumliliginini saqlashini aytadi. Bu ishlarni viruslarni birinchi tozalash ustidagi urinishlardan deyish mumkin. Keyinchalik o'simlik viruslarini ho'jayin-hujayralari qismlaridan spetsifik xususiyatlari bilan farq qilishi aniqlanadi. Bunday farqlarni aniqlash va ularni virus preparatini xo'jayin materiallaridan virus yuqumliliginini saqlagan holda ishlatish virus tozalashning asosini tashkil qiladi (14, 15). Har qanday virus hujayrada bo'lib uni toza holda olish uchun hujayraning asosiy elementlaridan ajratiladi. Muqobil hujayra - hujayra po'sti, sitoplazma membranasi, uning ichki tomonida jelatinasimon sitoplazmadan iborat. Sitoplazmada esa har xil kiritmalar, kraxmal donalarini tutuvchi xloroplastlar, mitoxondriyalar va yadro bor. Hujayrada vakuola, endoplazmatik to'r, ribosomalar, tanin moddalari, pigmentlar, oqsillar va h. lar mavjud.

Virus tozalashning birinchi bosqichi, hujayrani parchalab virusli yuqumli shirani ajratib olish - ekstraksiya qilishdir.

Yuqumli shira murakkab aralashmadan tashkil topgan. Ular ichida o'simlik shirasidagi ba'zi qismlarni parchalab, virus faolligining yo'qotadigan fermentlar bor.

Yuqumli shira ancha beqaror bo'lib, uni pH -i neytraldan past bo'ladi. Bunda eng yirik tarkibiy qismlar (xloroplastlar, mitoxondriyalar, kraxmal donalari, hujayra po'sti fragmentlari bo'lib, ularni ancha past darajada sentrifugalash (minutiga 5000 — 7000 ayl. tez.) yordamida cho'kmaga tushirish mumkin. Shirada endi mayda molekulali massaga ega - qandlar, aminokislotalar, tuzlar va ulardan yirikroq oqsillar, ribosomalar, mikrosomalar (endoplazmatik to'pHing mayda fragmentlari) qoladi.

Oxirgi guruh moddalar o‘z o‘lchami, stabilligi, tarkibi bilan viruslarga ancha yaqin bo‘lganliklaridan, ulardan qutilish va tozalash jarayoni ancha murakkab bo‘ladi. Hujayra shirasiga yana boshqa sedimentatsiya koeffitsenti 4 S va 18 S ga teng oqsillar, protoplastlarning parchalanishidan fitoferritin kelib qo‘shiladi. Unda temir atomi bo‘lib, o‘lchami kichik bo‘lsa ham (10 nm) "suzish zichligi" yuqori, sedimentatsiya koeffitsenti 60 S ga yaqin. Protoplazmada xloroplastlarda 70 S ribosomalar bo‘lib ularga Mg⁺⁺ ionlarining etishmaslik holatlarida ular 35 S va 50 S subbirliklarga parchalanadi. Sitoplazmadagi ribosomalar esa 80 S bo‘lib, 35 S va 58 S subbirliklarga dissotsiatsiyalanadi.

Bulardan tashqari hujayrada hali qurilib bo‘lmagan har xil o‘lchamli virus zarralari ham bo‘ladi. Virusni tozalaganda esa ana shu yuqorida aytilgan organella va boshqa moddalardan ajratish kerak bo‘ladi. Bu esa o‘ta murakkab jarayondir. Chunki ko‘pchilik viruslarni sedimentatsiya koeffitsenti va ba’zi bir xususiyatlari (izoelektrik nuqtasi, "suzish zichligi" o‘lchamlari hujayra qismlarinikiga juda yaqin bo‘ladi. Juda ko‘p viruslarni tozalash jarayonlarini o‘ta ehtiyyotkorlik bilan bajarilmasa, ularning yuqumlilik xususiyatlari yo‘qoladi.

4.2. Virus ajratishni optimallashtirish

a) O‘simlikning ahamiyati. Virusni ajratish u qaysi o‘simlikdan ekanligiga bog‘liq bo‘ladi, ba’zi o‘simliklar ulardan virus ajratishga o‘ta mos bo‘ladilar, chunki ularda virus ko‘p miqdorda to‘planadi. Masalan, tamaki shirasidan undagi virusni ajratish nisbatan oson. Virusni yana 20 - 25°C da etarlicha namlikda, o‘g‘it juda ko‘p bo‘lmagan tuproqda o‘stirilgan yosh o‘simliklardan ancha engil ajratish mumkin.

b) Virusning ahamiyati. Birinchi guruh sistemali kasallangan o‘simlikda mahalliy kasallangan o‘simlikga nisbatan ko‘p virus to‘planadi. Masalan, TMV tamaki shirasini 1 litrida 2 - 3g bo‘lib, shirani 50 - 80% oqsilini tashkil kiladi.

Ikkinchi guruh viruslar - beda mozaikasi virusi - miqdori o‘rtacha, tozalash jarayonida konsentratsiyasi tezgina pasayishi mumkin.

Uchinchi guruh viruslari katta miqdorda to‘planmaydi. Masalan, suli o‘simligining 11 shirasida 100 mkg arpaning sariq pakana virusi bo‘ladi xolos.

Ko‘p viruslarning konsentratsiyasi (quyuqligi) ularni xo‘jayin - o‘simliklarini o‘stirishga bog‘liq bo‘ladi va virus to‘planishini tajriba yo‘li bilan aniqlanadi.

v) Haroratning ahamiyati. Odatda viruslarni +4°Cda ajratiladi, harorat undan yuqori bo‘lsa virus parchalanib ketish ehtimoli bo‘ladi. Masalan, TMV xona haroratda bir necha yillab yuqumliligin saqlasa, olma mozaikasi virusining faolligi esa har 7 minutda ikki barobar pasayadi (Gibbs, Xarrison, 1978). Barqaror viruslarning toza preparatlarini, muzlatilgan o‘simlik bargidagi shirasidan ajratilsa undagi virus miqdori oshadi.

Xona haroratida shirani virus bilan kasallangan o‘simlikdan ajratish uchun mexanik usulda, xavonchada, elektr gomogenizatorlari yordamida maydalanadi.

Bunda o'simlik shirasiga faqat viruslarning yarmigina o'tadi xolos, ularning miqdorini oshirish uchun esa shira ajratilgan o'simlik barglarini yana suv yoki buferda ezilib maydalananadi.

g) Buferning ahamiyati. Bufer shiraning pH ni o'zgarishidan saqlaydi (7-jadval), hujayradan chiqqan virus o'zining optimal pH da bo'ladi. Virusning eruvchanligi va barqarorligi pH o'zgarishiga qarab o'zgaradi. Virus oqsilining ba'zi aminokislotalaridagi kimyoviy guruhlar ma'lum pH da ionlashadi. Asparagin va glutamin kislotalari nordon, arginin lizin - asosli guruhlar tutadi. Ular ionlashadi va virus sirtining zaryadlanishini ta'minlaydi. Shuning uchun, har xil pH da eritilganda, virus zarrasini ionizatsiya darajasi va sirt zaryadi o'zgaradi. Salbiy zaryadlar yig'indisining, ijobiy zaryadlar yig'indisiga teng bo'lgan pH **izoelektrik nuqta** (I.E.N) nomini olgan. Virusning eruvchanligi uni sirt zaryadlariga bog'liq. I.E.N siga qancha yaqin bo'lsa virus eruvchanligi shuncha kam bo'ladi. Ko'pgina tayoqchasimon viruslar I.E.N asl holiga qayta oladigan bo'lib cho'kmaga tushadi. Ko'pchilik viruslarni I.E.N pH - 4 ga yaqin bo'ladi. Virusning eng yaxshi erish va barqarorligi neytral pH da namoyon bo'ladi.

7-jadval

Ba'zi standart buferlar va ularning pH larini chegarasi

pH	Tarkibi
2,2-3,6	Glitsin, HCl
2,2-8,0	Limon kislota, natriy fosfopHokisliy
3,0-6,6	Limon k-ta, limon kislotani natriyli tuzi
3,6-5,8	Sirka kislota, natriy atsetat
5,8-8,0	Natriy fosfat, kaliy fosfat
7,2-9,1	Tris-Oksimetilaminometan (tris), HCl
6,8-9,2	Bor kislota, bura
8,6-10,6	Glitsin, natriy gidrooksi
9,2-11,0	Bura, natriy gidrooksi

Shuning uchun beda mozaikasi virusini (I.E.N - 4,5) tamaki bargidan 0,1M fosfat buferida (pH 7) ajratilsa suvda (pH 5,8) ajratilgandagiga qaraganda virus 3 marta ko'p ajraladi. O'simlik oqsillari va ribosomalar pH 7 da barqaror va eruvchan bo'ladilar, pH 4,5 da esa o'zini avvalgi holiga qaytmaydigan izometrik viruslardan bo'lib, birdaniga cho'kmaga tushadi. Yaltirbosh mozaikasi virusiga, yo'ldosh viruslarining I.E.N si pH - 7 ga yaqin bo'lib, ular pH - 7 ga qaraganda pH - 5 da ancha barqaror bo'ladi. Shuning uchun ularni pH - 4,5 bo'lgan 0,1M atsetat buferi ishlatib o'simlikni qismlaridan ajratish va bir vaqtning o'zida qisman tozalash mumkin.

pH neytral bo'lgan, konsentratsiyasi baland buferda o'simlik shirasini ma'lum muddat tutib turish o'simlikning tarkibiy qismlarini cho'kmaga tushishiga olib keladi. Bu ko'pgina tayoqchasimon viruslarni ekstraksiya qilishda sitrat (pH -6,5), fosfat (pH-7,0) yoki borat (pH-7,5) buferlarini yuqori molyarligini ishlatsa virus yaxshi tozalanadi. Bu holatda o'simlik oqsillarining sirt zaryadlari neytrallashsa kerak, natijada ular cho'kmaga tushadi. Limon

kislotasining anioni Mg^{2+} ionini bog'laydi va ribosomalarning parchalanishiga yo'l ochadi. Fosfat buferi spiralsimon simmetriya asosida tuzilgan tayoqchasimon, ipsimon, umuman, cho'zinchoq viruslarni agregatsiyalanishiga olib keladi. BufepHing bu xususiyatidan tomat zaxallanishi virusini tozalashda foydalanildi.

YAltirbosh mozaikasi virusi esa yuqori molyarli bufer ishlatalganda parchalanib ketadi. Tuzlarning yuqori konsentratsiyasiga chidamli viruslarni suyultirilgan bufer eritmalarida saqlanadi.

Skotning (10) fikricha bodring mozaikasi virusini o'simlikdan ekstraksiya qilish 0,5M sitrat buferida olib borilib, keyingi tozalash bosqichlarini pH 9 bo'lgan 0,005M borat buferida bajarish yaxshi natija beradi.

d) Virus tozalashdagi boshqa qo'shiladigan moddalar. Ribosomalarni shiradan yo'qotish uchun Ca^{++} va Mg^{++} ionlarini bog'laydigan xelat moddalari va etilendiamintetra atsetatni (EDTA) ekstraksiya buferiga qo'shiladi.

Ko'pgina virus zarralari aggregatsiyaga moyil bo'ladi, bu holatni ekstraksiya qiladigan buferga detergent olioksietilensorbita fmmonoleat (tvin 80) qo'shib yo'qotish mumkin. Brekke (5) fikricha arpaning chiziqli mozaikasi virusi N-metil-N-oleoiltauratning natriyli tuzi (igepon T-73) qo'shilgan buferda yaxshi dispersiyalanadi. Ko'pgina potiviruslarni ajratganda 0,5M mochevinaning buferda bo'lishi yaxshi natija beradi (5). CHunki mochevinaning past konsentratsiyasi gidrofob, vodorod bog'larini kuchsizlantirsa kerak.

O'simlik shirasidagi fenol birikmalarining oksidlanishidan hosil bo'ladigan polifenoloksidaza, tanninlar ba'zi (bodring mozaikasi virusi) viruslarning faolligini yo'qotadi. Bunday hollarda o'simlikni maydalash vaqtida buferga 2% - li nikotin eritmasi yoki har xil qaytaruvchi moddalar (sulfit, tioglikolat, merkаптоетанол yoki ditioreytol) qo'shiladi.

4.3. Virus tozalash metodlarining imkoniyatlari haqida

Stir o'zini "Viruslarni tozalash" (6) obzorida virus tozalashni juda ko'p tomonlarini atroflicha muhokama qiladi va viruslar morfologiyasi, kimyoviy va fizik-kimyoviy xususiyatlaridagi farqlar assosida quyidagi tozalash metodlarini taklif qiladi.

1.Zarralarning o'lchamlariga asoslanib fraksiyalarga ajratish:

- a) agar, agarova va sefadeks gellarida filtrlash,
- b) quruq agar va sefadeksga adsorbsiyalash,
- v) cho'ktirish.

2.Zarralarni shakllariga qarab fraksiyalarga ajratish:

- a) agar va sefadeks kolonkalarida filtrlash,
- b) biror moddaning gradient konsentratsiyasida sentrifugalash.

3.Kimyoviy tuzilishi va ichki strukturasining barqarorliklarining farqlanishiga asosan fraksiyalash:

- a) qizdirib denaturatsiyalash,

- b) har xil sharoitda saqlash,
- v) ion kuchini yoki pH ni o'zgartirish,
- g) ma'lum ionlarni (Ca^{++} , Mg^{++}) ishlatish.

4. Zarralarning sirtqi zaryadlariga asoslanib:

- a) elektroforez yoki pH gradientida elektroforez,
- b) izoelektrik pretsipitatsiya,
- v) ion almashish xromatografiyasi.

Ushbu usullarni har xil kombinatsiyada ishlatib virus zarrasini faolligini saqlagan holda tozalash mumkin.

Virus ajratish va tozalash metodlarini shartli ravishda ikki guruhga: kimyoviy va fizik - kimyoviy metodlarga bo'lish mumkin (8).

Viruslarni tozalashning kimyoviy usullari

Bu usullarni qo'llaganda virus kimyoviy moddalar (etanol, ammoniy sulfati, polietilenglikol) bilan cho'ktiriladi. Bu guruhga yana tozalash jarayonida aralashmaga fermentlar bilan ishlov berish (hujayra qismlarini fermentlar bilan parchalash) kiradi. Ammoniy sulfati bilan cho'ktirish ikki bosqichda o'tkaziladi:

1. Virus ekstraktiga faqat hujayra qismlarigina cho'kadigan miqdordagi tuz solinadi va uni sentrifugalash bilan ajratib tashlanadi. So'ngra cho'kma usti suyuqligiga yuqori konsentratsiyadagi (25 - 30%) ammoniy sulfati qo'shiladi. Hosil bo'lgan virus cho'kmasi sentrifugalanib ajratib olinadi. Bu usulni bir necha marta qaytarilib toza virus preparati olinadi. Metodni faqat yuqori konsentratsiyadagi tuzga chidamli bo'lgan viruslar uchun qo'llaniladi. Kimyoviy metodni qo'llaganda ko'pgina beqaror (labil) viruslar tozalash jarayonida faolligini yo'qotadi yoki parchalanadi, chunki kimyoviy moddalarni qo'llaganda ular virusni denaturatsiyaga uchratadi. Agar virus fermentlar ta'siriga chidamli bo'lsa, u holda virus suspenziyasi proteoletik fermentlar yoki nukleazalar bilan ishlov berilib, hujayra oqsillarini va nuklein kislotalarini mayda molekulali birikmalargacha parchalanadi. So'ngra virus ekstraktini boshqa metodlar qo'llab tozalanadi (36).

4.4. Viruslarni ajratish va tozalashning fizik-kimyoviy metodlari

Bu metodlarni qo'llaganda virus va hujayra qismlari fizik - kimyoviy xususiyatlariga qarab ma'lum fraksiyalarga ajraladi.

Hamma fizik-kimyoviy metodlarni qo'llaganda virus o'zining birlamchi xususiyatlarini saqlab qolgan bo'lishi kerak. Fizik-kimyoviy usullarning viruslarga bo'lgan ta'siriga qarab "ayovsiz" (jyostkiy) va "ehtiyyotkor" (shadyashiy) metodlarga bo'linadi.

1."Ayovsiz" virus ajratish usullari qo'llanilganda virusli ekstraktga issiqlik ta'sir ettirilganda ham, virus "nativ" (o'zgarmagan holda) holatda bo'ladi yoki virusli ekstraktni muzlatib normal hujayra qismlarini denaturatsiyalanadi. Tozalashning bu usulini qo'llaganda issiqlikga yoki muzlatishga chidamsiz

bo‘lgan hujayra qismlari denaturatsiyalanadi va cho‘kmaga tushadi. Bu usulni boshqa metodlar bilan birgalikda qo‘llab, toza virus preparatini olish mumkin. Mazkur metodlar termostabil va muzlatishga chidamli viruslar uchun qo‘llaniladi.

“Beayov” virus tozalash metodlariga yana ikki faza chegarasida sirtqi denaturatsiyalash metodi ham kiradi. Masalan, “suv-havo”, “suv - qutbsiz modda, suv - qattiq modda kabi ikki modda fazalari chegarasida hujayra qismlari oson denaturatsiyalanadi. Oqsillarni sirt denaturatsiya qilish uchun ular orasidan havo pufakchalarini o‘tkazib yoki xloroform va benzol bilan emulsiyalash mumkin. Bu usul qo‘llanilganda bir qism hujayra oqsillari denaturatsiyalanadi va erimaydigan holatga o‘tadi. So‘ngra ularni sentrifugalab yo‘qotiladi. Albatta bu metod ham sirt denaturatsiyaga chidamli bo‘lgan viruslar uchun qo‘llaniladi.

Fizik - kimyoviy ta’sirlarga sezgir bo‘lgan viruslarni tozalash uchun fizik - kimyoviy usullarni virusni “ayaydigan” metodlari qo‘llaniladi.

2. Viruslarni tozalashni “ayovchi” fizik-kimyoviy metodlariga gel xromatografiyasi, xromatografiya, sentrifugalash, elektroforez va hokazolar kiradi. Bu usullar ko‘llanilganda virus virusli ekstraktdan fraksiyalarga ajratilgan holda olinadi.

Viruslarni ion almashish va adsorbsion xromotografiya metodlarida tozalash virus va hujayra qismlarini sirtqi zaryadlarini farqlariga asoslangan. Viruslarni **defferensial sentrifugalash** usulida tozalaganda ikki vazifa bir yo‘la bajarilishi mumkin: virus konsentatsiyasi oshadi (quyuqlashadi) va u yana hujayra qismlaridan ozod bo‘ladi. Bu usul eng ishonchli virus tozalash metodidir. Tiniqlashtirilgan virusli eritma 1 daqiqada 20 - 50 ming marta aylanish tezligida ultratsentrifuga qilinadi. Virus va u kabi hujayraning yirik tarkibiy qismlari probirka tagiga cho‘kadi. Cho‘kma virusga mos buferda eritiladi. Yirik virus bo‘limgan qismlarni 8-15 ming marta ayl.tezl.da (m.m.a.t.) sentrifugalanadi. Cho‘kma usti suyuqligi 20-50 m.m.a.t. da yana sentrifugalanadi va cho‘kma ustida qolgan kichik malekulali qismlardan ajratiladi. Uch-to‘rt sikl differensial sentrifugalash toza virus preparatini olish uchun etarli hisoblanadi.

Viruslarni saxarozaning har xil konsentratsiyali gradientida va og‘ir metallar tuzlarini (seziy xlor, seziy sulfat) gradient zichligida sentrifugalab toza preparat olish mumkin.

Virus zarralari va boshqa qismlarini sentrifugalash jarayonida gradient bo‘yicha joylashishi ularning o‘lchami, shakli va zichligiga bog‘liq bo‘ladi.

Viruslarni **“izoelektrik pretsipitatsiya”** metodida tozalaganda eritma pH ni virus izoelektrik nuqtasigacha o‘zgartirilganda virus cho‘kmaga tushadi. Bunda virus I.E.N dan farqlanadigan bir qism “normal hujayra qismlari” eritmada qoladi. Cho‘kmaga tushgan virus mo‘tadil sentrifugalash bilan ajratib olinadi va o‘ziga mos buferda eritiladi. Izoelektrik nuqtada cho‘ktirish siklini (I.E.N cho‘ktirish, eritish va sentrifugalash) bir necha marta qaytarib, ancha toza virus preparatini olish mumkin.

Viruslarni ajratishda **preparativ elektroforez metodi** ham ishlataladi. Bu metodda virus zarralari va hujayra qismlari sirtqi zaryadlarini farqlariga qarab ajratiladi. Gradient zichlikda elektroforez olib borilganda konsentratsiyasi yuqori

virus saxaroza gradienti solingan kolonkaga solinadi va elektroforez o'tkaziladi. Saxaroza o'pHiga boshqa gellar (kraxmal, agar, agaroza, jelatina, poliakrilamid) ishlatilishi ham mumkin.

Shunday qilib, yuqorida bir necha xil virus tozalash metodlariga qisqacha tavsif berildi. YUqorida ta'riflangan metodlardan eng afzallaridan modda gradientida sentrifugalashni aytish mumkin, chunki bu holatda virus doimo eritmada bo'ladi. Preparativ elektroforezda ham virus eritmada bo'lsa ham elektroforez davomida u qizishi mumkin.

4.5. Gelfiltratsiya

Yana bir istiqbolli metodlardan biri viruslarni va hujayra zarralarini granulalangan agar, agaroza gellarida tozalashdir. Bu metod gelfiltratsiya, gelxromatografiya, molekulyar elaklarda xromatografiyalash nomlari bilan mashhur bo'lib, ko'pgina biokimyoviy va virusologiya laborotoriyalarida keng qo'llaniladi. Gelfiltratsiya (bu nom ko'proq ishlatiladi) usulini qo'llanilganda ko'pgina beqaror (nozik) viruslar o'zining nativ (asl) hollarini o'zgarishsiz saqlaydilar. Lekin bu metod yordamida virus tozalanganida eng katta rolni virus tozalash (ekstraksiya, elyusiya) jarayonlarida ishlatiladigan bufer eritma o'ynaydi. Bir xil viruslar eritma pH ni yuqori yoki past bo'lishiga o'ta sezgir bo'ladilar, boshqa xillari esa o'ta nordon yoki o'ta ishqoriy bo'lganda sezgir bo'ladilar. Ba'zi viruslar ma'lum ionlar bo'lishini talab qilsa, ba'zilariga esa bunday ionlarning bo'lishi ularning tabiiy xususiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Gelfiltratsiya yordamida virus tozalanganda ishlatiladigan eng oddiy va arzon virus tozalash asbobi granulalangan agar yoki agaroza bilan to'latilgan shisha kolonkalardir.

1. Gelfiltratsiya metodining prinsipi. Gelfiltratsiya metodi nisbatan yangi metodlarga kiradi, moddalarning ajralishi ular molekulasing massasi va o'lchamlariga qarab bo'ladi. Bu metod oxirgi yillarda ko'plab kimyoviy, biokimyoviy va virusologiya laborotoriyalarida keng qo'llanilmoqda. Bu metod oqsil, nuklein kislota, virus, gormon, antibiotiklar, lipidlar va boshqa molekulyar biologiya ob'ektlari bo'lgan biopolimerlarni o'rganishda ishlatilmoqda.

Bu metodni imkoniyatlari ancha keng bo'lib, u molekulalarning molekula massasini aniqlashda, molekulalarni o'lchamiga qarab, viruslarni uzunligiga qarab fraksiyalarga ajratishda ishlatiladi (Stir va Akkers,"Farmatsiya Fayn Kemikali" firmasi ma'ruzasidan) (5; 6; 16).

Bu metodni qulayligi shundaki, u minimal asbob-uskuna talab kiladi, bajarish jarayoni o'ta "yumshoq" sharoitda o'tganligi uchun ko'pgina beqaror moddalarni (viruslarni) ajratishda yaxshi natija beradi.


Gelfiltratsiya ko'ndalang-tikilgan dekstran, agar, agaroza, poliakriamid gellarida amalga oshiriladi (5 ; 6; 36).

Gelfiltratsiya uchun ishlatiladigan shisha kolonkalar dekstran, poliakrilamid, agar, agaroza gellari, porali shisha granulalari va boshqalar bilan to'latiladi. Xromotografiyaning bu turi hozirgi vaqtida biopolimerlarni ajratishda eng asosiy metodlardan hisoblanadi.

Gelfiltratsiya jarayonida yirik molekulalar maydalariga qaraganda geldan oson o'tadi. Bu hodisani Stir va Ekkers gel granulasiga modda diffuziyalanishining kamayishi, Porat va Pederson esa moddalarning geldan chiqarilishi jarayoni deb tushuntirishadi. Laurent va Killender gelfiltratsiyada yuqoridagi har ikkala mexanizmning ham borligini ta'kidlaydilar (5;6;16). Gelfiltratsiyada molekulaning o'lchami va massasi katta ahamiyatga ega ekanligi bir necha moddalar gelfiltratsiya metodida ajratilgan paytda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Moddalarni fraksiyalarga ajratish tabiiy va sun'iy olingan seolitlarda amalga oshirilganda "molekula-elak" prinsipi ishlaydi. **SiO₄** va **AlO₄** larni tetraedrik guruhlari uch o'lchamli to'r hosil qiladi va ularda ichki bo'shliqlar hosil bo'ladi. Ular bir-birlari bilan poralar orqali birikadi. Seolit poralarining o'lchamlarini chegaralanganligi sababli ham katta molekulalarning unga kirishiga tusqinlik qiladi, maydalari esa erkin diffuziyalanadi (15) (2-rasm).

1956 yilda Flodin va Porat ko'ndalang tikilgan dekstran granulalarini kolonkali xromatografiyada ishlatishdi. Xierton va Mozbax granulalangan poliakrilamidni, Polson va Xierton agar va agarzoza gellarini makromalekulalarni ajratishda, Ekkers, Male va boshqalar gelfiltratsiya prinsipi ustida ishlar olib borishdi (5). Gelfiltratsiya metodini qo'llaganda moddalarni ajratish quyidagi prinsipiga asoslangan, ya'ni filtrlanganda molekula massasi, molekula o'lchami va shakliga qarab bo'linadi (2-rasm). Gelfiltratsiya prinsipiga asosan moddalarni kolonkadan o'tkazilganda, moddalar faqat filtralanib



2-rasm. Gelfiltratsiya jarayonining chizmadagi ko'rinishi.

a—kolonkaga aralashma solingandan so'ng;

b—mayda molekulalarning gel granulasiga diffuziyasi va yirik molekulalarning granula atrofidagi erituvchida taqsimlanishi;

v—kolonkadagi kichik molekulalarning gel granulalariga diffuziyalanishi, kattalarining esa granulalarga kira olmasdan ular orasidan o'tishi.

qolmasdan balki ular molekula massasi, o'lchami va shakliga qarab ham bo'linadi. Shuning uchun ham har bir moddani elyusiya hajmi uning sirt zaryadi va xususiyatlariga emas, balki molekulaning o'lchami va shakliga bog'liqdir

Agar kolonkadagi gelning ustiga katta va kichik molekulalar aralashmasini solinsa gelning elyuent bilan yuvilishi jarayonida har xil molekulyar massaga ega moddalar oldinda harakat qiladi, ular orqasidan kichiklari, ya’ni har xil molekulyar massasiga ega moddalar kolonkada xromotografiyalanadi. Bunda har bir tur molekulalar gel granulalariga har xil tezlikda diffuziyalanadi va gelning ichidagi ma’lum fraksiya suyuqligida taqsimlanadi, elyuent bilan yuvilganda kolonkadan molekulyar massaning kamayishi tartibida yuviladi. Porali strukturaga ega bo’lgan gel har xil o’lchamdagি poralarga ega bo’lib, ma’lum o’lchamdagи molekulalardan boshqasini o’tkazmaydi (“geldan chiqarilish chegarasi”).

Shunday qilib, “geldan chiqarilish chegarasi” dan yirik molekulalar gel zarralariga kira olmay ularni chetlab o’tib, granulani o’rab turgan suyuqlikda harakatlanadi. Bu suyuqlik bilan band bo’lgan bo’shliq - kolonkaning “erkin hajmi” yoki “chiqarilish hajmi” (V_0) deyiladi.

Juda mayda molekulalar gel zarralariga kirib, gel zarrasining ichki va tashqi suyuqliklariga erkin diffuziyalanadi. Ularga gelning matriksi to’siq bo’la olmaydi. Shuning uchun ham ular kolonkadagi suyuqlikning butun maydoni bo’ylab harakatlanadi. Bu bo’shliq (V_0) va gel zarralaridagi suyuqlik hajmi (V_i) larning yig‘indisiga teng. Demak, mayda molekulalarning katta hajmdagi suyuqlikdan o’tganlari uchun, ular katta molekulalardan orqada qoladi va butun kolonka bo’ylab o’tib, quyidagi elyusiya hajmini tashkil qiladi.

$$V_e = V_0 + V_i \quad (1)$$

Kolonkaning umumiyl hajmi (V_e) quyidagicha aniqlanadi:

$$V_t = V_0 + V_i + V_g \quad (2)$$

V_t - kolonkaning hajmi;

V_g - gel matriksining hajmi;

V_i - statsionar faza hajmi.

Gelfiltratsiyada ishlatiladigan muhitlar (Vahobov, 1970) (8)

Gelfiltratsiya uchun ideal muhit - muhitning adsorbsiya qilish xususiyatining yo’qligi, barqarorligi va denaturatsiyalanmasligidir. Muhitda poralarni turlari diapazonini kengligi uni har xil o’lcham va molekula massasiga ega makromolekulalarni o’rganishga imkon tug‘diradi Ammo shu vaqtgacha ideal muhit hali bo’lmagan. Eng tarqalganlari dekstran gellari (sefadeks), poliakrilamid gellari (biogel R), agar va agarozza gellari (sefarozza, sagaroza), hamda porali shishalar bo’lib hisoblanadi.

1. Dekstran gellari. Bu gellar bakteriyalarning mahsuloti bo’lib suvsiz muhitda epixlorgidrin bilan ko’ndalangiga tikilgan. Bu gellar “sefadeks” deb nomlanadi. Suvda erimaydi, inert, granulalari sferasimon shaklga ega, suvli eritmalarda oson bo’kadi va 1 mln molekulyar massasga ega biopolimerlarni gelfiltratsiya qilishda ishlatiladi. Gelning suv tortishi undagi tikilish miqdoriga bog‘liq., 8 - jadvalda sefadeks turlari va ularning xususiyatlari sanab o’tilgan.

8 - jadval

Sefadeks tiplari va ularning tavsifi (16)

Tip	Taqribiy geldan	Suv yutishi	Gelning to’la	Zarraning
-----	-----------------	-------------	---------------	-----------

	chiqarish chejarasi (mol. massa)	gramm suv/ gramm quruq gel	hajmi (ml da)	o'lchami (mkm)
Sefadeks G —10	700	1,0±0,1	2-3	40-120
SefadeksG — 15	1500	1,5±0,1	2,5-3,5	40-120
Sefadeks G —25	5000	2,5±0,2	5	
Nafis				20-80
Dag‘al				100-300
O‘rtacha				50-150
Sefadeks G — 50				
Nafis	1000	5,0±0,3	10	20-80
Dag‘al				100-300
O‘rtacha				50-150
Sefadeks G —75	5000	7,5±0,5	12-15	40-120
Sefadeks G— 100	100.000	10,0±1,0	15-20	40-120
Sefadeks G — 150	150.000	15,0±1,5	20-30	40-120
Sefadeks G — 200	200.000	20,0±2,0	30-40	40-120

Sefadeks gellari virus tozalashning hamma bosqichlarida ishlataladi, ammo sefaroza va agaroza gellaridek viruslarni tozalashda imkoniyatlari ancha kam hisoblanadi.

Kolonka to‘latishdan ilgari sefadeksning quruq granulalari suvga yoki bufer eritmasiga 24-60 soatga bo‘ktirish uchun solinadi. Bo‘ktirishni tezlatish uchun uni suvda qaynatish ham mumkin, lekin qaynatilganda ba’zi granulalar yorilib ketadi, ulardan dekantatsiya yo‘li bilan tozalanadi.

Tayyorlangan sefadeks granulalari bilan xromatografik kolonkani ma’lum balandligigacha to‘latiladi. O‘ziga mos bufer bilan gel yuvilgandan so‘ng uni xromatografiya maqsadlarida qo‘llaniladi.

2.Poliakrilamid gellar. Akrilamidni ko‘ndalang - tikish agenti N.N-metilenbis-akrilamid ishtirokida suvli eritmada polimerlanadi. Tarkibini o‘zgartirib har xil porali qator gellar olish mumkin. AQSH da chiqariladigan poliakrilamid gellari "biogel" deb ataladi. 10 tip biogel R bor. Ular uch turda chiqariladi: 5- 100, 100 - 200 va 400 mesh lik. Biogel R-2 eng kichik porali, biogel R-300 eng yirik porali. Hamma gellar granulalangan shaklda, quruq holda chiqariladi. 9 -jadvalda biogellar tipi va ularning xususiyatlari keltirilgan (16) .

Biogel sefadeksiga qaraganda ancha yaxshi natijalar beradi, chunki ular inert bo‘lganligi uchun past ion kuchda xromatografiya ishlarida qo‘llash mumkin. Determan (16) fikricha pH 2-11 orasida u turg‘un bo‘ladi. Biogel sun’iy gel bo‘lgani uchun mikroorganizmlarga ham chidamlı.

9-jadval

Poliakrilamid geli (biogel R) ning xususiyatlari

Tip	Taqribiy chiqarish chejarasi (mol. massa)	Zarra o'lchami	Suv yutishi gr suv/gramm quruq gel (mg/g)	Gelni to‘la hajmi (ml/g)
R-2	200-2.000	50-100	1,5	3,8

R-4	500-4.000	50-150	2,4	5,8
R-6	1.000-5.000	50-150	3,7	8,8
R-10	5.000-17000	50-150	4,5	12,4
R-30	20.000-50000	50-150	5,7	14,8
R-60	30.000-70.000	50-150	7,2	19,0
R-100	40.000-100.000	50-150	7,5	19,0
R-150	50.000-150.000	50-150	9,2	24,0
R-200	80.000-300.000	50-150	14,7	34,0
R-300	100.000-400.000	50-150	18,0	40,0

3.Porali shishalar: Xaller (5 dan olindi) yuqorida aytilgan gellarga qaraganda afzalliklari ko‘proq bo‘lgan porali shishalarni gelfiltratsiya uchun taklif etdi. Uni poralari virus o‘lchamlariga yaqin, u kislotaga chidamli sterilizatsiya qilish mumkin, bosim ostida gelfiltratsiya qilinganda ham hajmi o‘zgarmaydi, hohlagancha elyusiya tezligini oshirish mumkin. Kamchiligi ba’zi virus va oqsillarni porali shishaga adsorbsiyalanishidir.

1969 yilda Bresler xodimlari bilan keng porali shisha ishlab chiqishdi. Bunda mayda poralar uchramaydi. Katta porali shisha olish uchun shishani natriyborsilikatini ishqor bilan ishlov beriladi. Dobichin (5) bunday shishalarni porasi 9000 E ligini tayyorlaydi.

Xaller, Bresler (5) porali shishalarni viruslarni, bakteriofaglarni tozalashda, virus aralashmalarini ajratishda qo‘llashdi. Xaller tamakining halqa dog‘li virusini tamaki mozaikasi virusidan ajratishda 1700 E porali shishani, janubiy loviya o‘simgi mozaikasi virusini albumindan ajratishda 260 E li porali shishalarni ishlatishdi.

4. Stiragel. Stirol va divinilbenzolni polimerlab stiragel olinadi. Gel AQSH tomonidan ishlab chiqariladi. Gel granulalari umuman bo‘kmaydi. Gel granulalari sferasimon bo‘lib diametri 40 — 80 mk.

5. Jelatina geli. Jelatinaning oshlanishidan gelfiltratsiya uchun mos jelatin tayyorlanadi. Jelatinadan 2 dan to 30% gacha gel olsa bo‘ladi. Jelatina gellari molekula massalari 20-600 000 bo‘lgan har xil ob’ektlarni (oqsillar, aminokislotalar) ajratishda ishlatiladi.


6. Agar va agaroza gellari. 1961 yili Polson gelfiltatsiya uchun agar gelini taklif qildi. Agar geli juda katta molekulyar massaga ega bo‘lgan moddalarni ajratishda boshqa gellardan bir qancha afzalliklarga ega ekanligini ko‘rsatadi. Agar geli yaxshi mexanik pishiqlikka ega. Agar gellari eng yuqori konsentratsiyada ham (12%) fraksiyalarga ajratish qobiliyatiga ega bo‘ladi va sefadeks G-200 da olingan natijalarni beradi. Agar gellarining eng past konsentratsiyalari juda katta molekula massasiga ega moddalarni (bir necha milliongacha) fraksiyalarga ajratish imkonini beradi. 1-2% li agar etarlicha mexanik mustahkamlikga ega bo‘lib, ular molekula va zarracha o‘rtasidagi katta

molekula massali substansiyalarni fraksiyalarga ajratish imkoniga ega ("Farmatsiya Fayn Kemikali" firmasi ma'ruzasidan, 5).

Agar-agar dengiz suvo'tlaridan olinadi, u 2 polisaxarid aralashmasidan tashkil topadi. Asosan D-galaktoza va 6-6 - angidro - L - galaktoza qoldiqlaridan iborat. Qaynagan suvda tezda eriydi. Sovutilganda suvli eritmalari eng past konsentratsiyada ham (0,5%) gel hosil qiladi. AgapHing kamchiligi uning tarkibida zaryadli molekula guruhlari bo'lib, kimyoviy beqaror. Zaryadli molekula guruhlari asosan sulfatli guruhlar bo'lib, ular agarga ion almashinish xususiyatlarini beradi. Nordon guruhlarning bo'lishi elektroforezda ishlatganda kuchli endoosmos hosil qiladi va jarayon kuchsiz ion kuchiga ega erituvchida olib borilsa moddaning gelga adsorbsiyasi kuzatiladi. Gelfiltratsiyada agar geli ishlatilganda albatta elyuent ion kuchi yuqori bo'lishi kerak (5).

Gelfiltratsiyani past ion kuchida ishlatish maqsadga muvofiq bo'lsa, agarozaning ishlattan ma'qul.

1937 yilda Araki agapHi ikki guruh polisaxaridlardan tashkil topganligini, birini agaropektin va ikkinchisini agarzoza deb atadi. Agaropektin agapHi zaryadli guruhlariga (karboksil va sulfoguruhlar) ega. AgapHing asosiy qismi agarzoza esa zaryadli guruhlardan xoli. Shu yili Araki agapHi agarzoza va agaropektinga ajratish metodini ishlab chiqdi. Toza agarzoza D-galaktoza va 3,6—angidro — L — galaktozadan iborat (3 –rasm).



3 -rasm. Agarozaning strukturasi.

1 - 3,6 – angidro-L-galaktoza.

2 - D-laktoza

Agarzoza olish metodlari. Araki agapHi to'la atsetillashni va u suvli va xlorofilli fazalar orasida taqsimlanishini aniqladi. Atsetillangan agarzoza xloroformli fazaga, agaropektin esa suvli fazaga o'tadi (5).

1964 yilda Rassel va boshqalar agapHi mochevinali eritmadan polietilenglikol yordamida ajratib olishadi (5).

Issiq agar eritmasidan agaropektinni (45°C va undan yuqori haroratda) piridin xlorid bilan cho'ktirib, agarozani ajratish ham mumkin. Cho'kmani sentrifuga qilib ajratiladi. Setilpiridin yuvilib, infuzoriya tuprog'iga adsorbsiyalanib yo'qotiladi. Agaroza geli esa muzlatilib-quritilib yoki etanol bilan cho'ktirilib suvsizlantiriladi. Tayyorlangan agarzoza oq rangli kukun holida bo'ladi. Bu metod bilan ancha ko'p miqdorda agarzoza olish mumkin.

1962 yilda Rassel, Ionagar-2 ning issiq eritmasini polietilenglikol (m.m.6000) bilan katta miqdordagi agar fraksiyalarga ajratib agarzoza olishni

ko'rsatib berdi. 1966 yilda Syodj agapHi dimetilsulfoksid yordamida agaroz va agrosulfoksid yordamida agaroz va agaropektinga ajratadi. AgapHi 60—80°Cda 50 marta ko‘p dimetilsulfoksid bilan ishlov berib, so‘ngra 13000 g da sentrifuga qilinadi. Cho‘kma usti suyuqligidan 3 marta ko‘p atseton bilan agaroz cho‘ktirib ajratiladi. Oppoq agaroz va sariq —kulrang agaropektin preparatlariga ajraladi. Bu metodda olingan agarozada zaryadli guruhlar minimal miqdorda bo‘lganligi uchun, gelfiltratsiyada o‘ta qo‘l keladi (5).

Olingan agaroz barqaror gel hosil qiladi. Agaroz gellari pH 4,5 dan past va 9 dan yuqori bo‘lganda beqaror bo‘ladi. Ba’zan agaroz gelini organik (atseton) bilan ishlov berilganda strukturalari o‘zgarmaydi, barqaror bo‘ladi.

Granulalash. Hamma xromatografiya materiallari kabi agar va agaroz gellari ham granulalangan holda yaxshi ishlaydi. Xerton granulalash uchun gelning talab qilingan konsentratsiyasini olib aralashtirgichda aralashtiradi va suv hammomida agar to‘la eriguncha qizdiradi. Olinadigan granulaning o‘lchami aralashtirish tezligiga bog‘liq bo‘ladi.

Granulalar suvli holatda elakdan o‘tkaziladi. Olingan granulalar xromatografiya kolonkalarini to‘latish uchun ishlatiladi.

Bengtson va Filipson usulida agar granulalanganda agapHi granulalash uchun avval agapHi avtoklavda eritib, 65°Cgachasovutiladi, so‘ngra esa uni 65°Cgacha qizdirilib uchiga 0,5 mm li trubkaga biriktirilgan Zeyts filtriga solinadi. So‘ngra gel siqilgan azot yordamida (2 - 4 atm)sovutilgan efirga ezib chiqariladi. Hosil bo‘lgan granulalar efirdan yuvib tozalanadi hamda har xil o‘lchamli elaklarda elanib fraksiyalarga ajratiladi (5).

FepHelius va Veliserlar agar granulalarini olish uchun bir stakandagi 54°Cgacha qizdirilgan mineral moyga (150 ml agarga 600 ml mineral moy) solib, aralashtirgich bilan jadal aralashtirishadi. Harorat 25°Cgacha kamayganda muz vannasiga joylashtirishdi va yana 10—15 min aralashtirishadi. Moyli fazada gel granulalari shakllanadi. Ularni keyinchalik sentrifugalab ajratib olinadi. Granulalar 3 marta suv bilan yuviladi, moyni esa etil efiri bilan ekstraksiya qilinadi. So‘ngra granulalar elanadi, 40 - 50 mesh li fraksiyalari eksperimentlarda ishlatiladi(5).

Regenmortel va Engelbrextlar agar eritmasini avtoklavda eritib, sovutib gelni mayda bo‘laklarga kesishadi, elakdan o‘tkazib, olingan ma’lum o‘lchamdagisi fraksiyalarni gelfiltratsiya eksperimentlarida ishlatiladi.

Yuqorida aytilgan metodlarning eng afzallari Bengtson va Filipson hamda Xertonlarnikidir (5). Chunki bu usullar ishlatilganda standart granulalar hosil bo‘ladi. Bir xildagi fraksiyalardan tayyorlangan granulalar beqaror viruslarni tozalashda katta elyusiya tezligini ta’minkaydi.

Granulalangan agar (agaroz) gellarida gelfiltratsiya usulini preparativ va analitik maqsadlarda qo‘llanilishi mumkin.

4.5.1. Gelfiltratsiya yordamida viruslarni tozalash (5;6)

1962 yilda Chex 3% agar bilan to‘latilgan kolonkada tamaki mozaikasi virusini o‘simlik shirasidan ajralishini o‘rgandi. TMV ni erkin ob’yomda

taqsimlanib geldan to‘liq chiqishini aniqladi. Bu sharoitda monomer va agregatsiya bo‘lgan virus zarralari bir-biridan ajralmasligini kuzatdi. Xloroplastlar ham xromatografiya jarayonida virusli zonada taqsimlanadi.

Regenmortel va Engelbrextlar 5% agar granulalari bilan “danakli o‘simgliklarni halqa dog‘li virusi”ni tozaladilar. Immunologiya usullari yordamida virus zarralarini erkin hajmda birinchi bo‘lib kolonkadan yuvilib chiqishi, hujayraning qismlari esa ikkinchi cho‘qqini tashkil qilishi aniqlandi. Olingan natijalarni yana yuqumlilagini bodring o‘simgilda tekshirib tasdiqlandi.

Gelfiltratsiya yordamida viruslarni bir-biridan ajratish. TMV va “no‘xatning janubiy mozaikasi virusi”dan ajratish Stir va Akkers va Oberglar tomonidan amalga oshirildi. Fridborg, Kogland “tamaki nekrozi virusi” va uning “yo‘ldoshi”ni ajratib, tozalashda 4% va 10% agar gellaridan foydalanishdi (5).

Gelfiltratsiya yordamida virus zarralarining uzunligiga qarab fraksiyalarga ajratish. Xromatografik kolonkadan har xil uzunlikdagi virus zarralarini gelfiltratsiya qilinganda elyusiya tezligi o‘ta sekin bo‘lganda zarralar kolonkadan o‘tish va diffuziya vaqtida aylanadilar. TMV ning 3000 nm zarralarini ulardan kalta bo‘lgan zarralardan (2000 nm va undan kichik) ajratish mumkin.

Virus zarralari kolonkadan o‘ta sekin harakatlangan xolatda ular o‘z uzunligiga teng diametrli aylanayotgan shapHi eslatadi. Uzunligi 3000 nm ga teng tayoqcha 2500 nm li poraga (1% li gel) qiyin diffuziyalanadi. 2000 nm li zarralar kolonkada 3000 nm li zarralarga qaraganda birmuncha uzoqroq tutilib qoladi. SHu metoddan foydalanib Stir va Akkeres; Kado, Nayt lar TMV ni uzunliklariga qarab fraksiyalarga ajratishdi. Vahobov va Atabekovlar esa qisman deproteinizatsiya qilingan TMV ni fraksiyalarga ajratishdi (5).

TMV ni o‘lchamiga qarab fraksiyalarga ajratishda ma’lum qoidalarga amal qilish zarur. TMV ni agregatsiya bo‘lishining oldini olish uchun elyuentning pH - 7,2 dan past bo‘lmasligi, ion kuchi ham minimal bo‘lishi, elyusiya tezligi 5 ml/soatdan oshmasligi kerak.

Gelfiltratsiya yordamida virus va hujayra nuklein kislotalarini ham fraksiyalarga ajratish. Poliomielit virusi RNK sini hujayra nuklein kislotalaridan gelfiltratsiya usuli yordamida to‘la ajratish mumkin. Hujayraning DNK si kolonkaning “erkin” hajmida kolonkadan yuvilib chiqadi, ribosoma RNK si va transport RNK lari DNK dan va bir - birlaridan to‘la ajraladi (5).

Poliomielit virusining RNK si kolonkadan DNK va ribosoma RNK larining orasidan yuvilib chiqadi. Gelfiltratsiya bir zanjirli RNK ni uning replikativ shaklidan ham osonlik bilan ajratadi, ya’ni polioviruslarning ikki zanjirli shaklini, uning bir zanjirli RNK sidan ajrata oladi. Poliomelitni ikki zanjirli replikativ shakli kolonkadan avval yuvilib chiqadi va bir zanjirli RNK undan keyin chiqib, ular bir-biridan to‘la ajraladi.

Agar va agaroza gellari yordamida T-2 bakteriofagining DNK si va gripp virusining RNK sidan, T-2 bakteriofagining DNK fragmentlarini bakteriofagning replikativ shaklidan to‘la ajratish mumkin.

Gelfiltiratsiya yordamida qon lipoproteidlarini, odam so‘lagi glikoproteidlarini, qo‘y oshqozon osti bezi ekstraktlarini va h.k.zlarni ajratish va tozalash mumkin.

Quyida gelfiltratsiya usulini qo‘llash va uni amalda virusologiyada **preparativ va analitik** maqsadlarda qo‘llanilishini ko‘rsatishga harakat qilamiz.

4.5.2. Gelfiltratsiya usulini preparativ maqsadlarda qo‘llanilishi (5)

Granulalangan 3% agarda tayoqchasimon (TMV, BMV, ACHMV) va ipsimon viruslarni (KXV, KUV) (spiral strukturali viruslarni) tozalash.

Gelfiltiratsiya usulida virus tozalash uchun kolonka va virusli namunani tayyorlash va kolonkaga solib fraksiyalarga ajratish va ulardan virusning toza fraksiyasini ajratib olinadi. Uning uchun xromatografik kolonkaga 3% granulalangan agar yoki agarzoa gelini to‘latiladi va uni virus tozalaydigan bufer eritmasi bilan kolonkaning 3 hajmiga teng miqdordagi bufer bilan yuviladi. Parallel tamaki mozaikasi virusi bilan kasallantirilgan tamaki o‘simgining barglaridan 100 mg gacha namuna olib uni mazkur kolonkani yuvilgan bufepHi ion kuchi yuqoriroq bo‘lgan eritmasi (0,1M fosfat buferi) bilan birgalikda gomogenizatsiya qilinadi. So‘ngra uni 2 qavatli dokadan filtrlanib, so‘ngra 5-6 ming min.ayl. tezligida sentrifugalab, cho‘kma usti suqligini xloroform bilan (1:8 nisbatda) ishlov berib, so‘ngra xloroform natijasida denaturatsiyaga uchragan hujayra qismlarini (oqsil, xloroplastlar, polisaxaridlar va h.) sentrifugalab cho‘kmaga tushganini tashlab yuboriladi. Cho‘kma ustidagi virus va hujayrani boshqa virusdan mayda molekuliyar massaga ega bo‘lgan tarkibiy qismlarini tuzlar yordamida yoki izoelektr nuqtasida cho‘ktirib, kam miqdordagi erituvchida eritib konsentrланади. Olingan virusli eritmani yana bir marta sentrifugalanib tiniqlashtirib olinadi. Ana shu virusli namuna avvaldan tayyorlangan (yuqorida aytilgan) xromatografik kolonka gelining ustiga 2-3 ml eritmasi ohistalik bilan solinadi. So‘ngra uni avvaldan tayyorlangan elyuent bilan yuviladi va kolonkadan yuvilib chiqqan elyuentlarni fraksiyalarni yig‘uvchi kollektor yordamida ma’lum hajmda yig‘ib olinadi.

Olingan virusli fraksiyalarni analizi: 1. Avvalo olingan fraksiyalarni spektrofotometrda 260 nm va 280 nm to‘lqin uzunligida ultrabinafsha nupHi yutishi aniqlanadi va u asosida grafik tuziladi. Absissa o‘qiga fraksiyalar hajmi (ml) yoki soni, ordinata o‘qiga esa fraksiyani ultrabinafsha nupHi yutish miqdori belgilanadi.

Olingan natijalarni grafik asosida belgilanganda ikki cho‘qqiga ega bo‘lgan egri chiziq hosil bo‘ladi.

2. Birinchi cho‘qqi tashqi ko‘rinishdan sutsimon rangli moddalardan, ikkinchi cho‘qqi esa jigarrang tusli moddalardan iborat.

3. Olingan cho‘qqidagi fraksiyalarni spektrofotometrda 220 nm dan 320 nm gacha ultrabinafsha nupHi yutishlari o‘lchab chiqilganda, 260 nm da fraksiyadagi moddani (yuqumlilagini bilgandan so‘ng virus desak bo‘ladi) UB-nupHi eng ko‘p yutishi, 320 nm da esa uni minimumga intilishi kuzatiladi. 260 nm da UB— nur

yutishda olingan natijani 280 nm da olingan natijaga nisbati 1,18—1,22 ($A_{260\text{nm}}/A_{280\text{nm}} = 1,18 - 1,22$) teng bo‘ladi. (Ilova, UF spektr rasmlari)

Bunday natija faqat 95% oqsil va 5% nuklein kislotaga ega nukleoproteidlar uchun olinadigan konstanta son bo‘ladi.

4.Elektron mikroskop usulida tekshirilganda birinchi cho‘qqida faqat katta molekulyar massali viruslar (tayoqchasimon viruslar (yoki ipsimon, yoki sferasimon) kuzatiladi.

5.Ikkiyoqlama immunodiffuziya usuli bilan ikkala cho‘qqi fraksiyalari tekshirilganda birinchi cho‘qqi fraksiyalari faqat TMV ga olingan antazardob bilan pretsipitatsiya chizig‘ini (PCh) yuzaga keltiradi. Tamakini normal hujayralariga olingan antazardob bilan esa PCh kuzatilmaydi. Ammo ikkinchi cho‘qqi fraksiyalaridagi moddalar esa, aksincha, PCh ni hosil qiladi. Nazorat fraksiya — kolonkaga solinmasdan avvalgi gelfiltratsiya qilinmagan namuna ikkala antazardob bilan ham PCh ni hosil qiladi. Demak, kolonkaga solingan qisman tozalangan virus gelfiltratsiya natijasida virus va hujayra qismlariga to‘la ajraldi.

6. Birinchi cho‘qqi fraksiyasini analitik ultratsentrifugada tekshirilganda bitta simmetrik cho‘qqi hosil bo‘lishi undagi moddalarning viruslar gomogen ekanligidan ham dalolat beradi. Demak gelfil’tratsiya metodi bilan TMV ni toza, yuqumilik va antigenlik xususiyatlarini saqlagan oppoq rangli gomogen preparati olinadi(Ilovadagi rasmlarga qaralsin).

Demak, mazkur usul bilan beqaror viruslarni ajratishda ishlatish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Aniqrog‘i, aytish mumkinki, tamaki mozaikasi virusi bilan molekulyar massasi va o‘lchamlari o‘xhash bo‘lgan barcha viruslarni ajratish mumkin. O‘lchamlari TMV dan 10-20 marta kichik bo‘lgan viruslarni endi xromatografik kolonkaga to‘ldirishda ishlatiladigan agarzoa gelini konsentratsiyasi yuqoriyoqlarini (5-6%) ishlatish ma’quldir. Masalan, arpani kasallantiradigan yaltirbosh mozaikasi virusi, turpni kasallantiradigan redis mozaikasi virusi, bodringni kasallantiradigan bodring mozaikasi virusi-1, karamni kasallantiradigan tupHeps sariq mozaikasi virusi kabilarni gelfiltratsiya usulida 5% granulalangan agar gelida toza preparatini olish mumkin.

4.5.3. Gelfiltratsiya usulini analitik maqsadlarda qo‘llanilishi

Gelfiltratsiya usulida yana molekulyar massasi o‘lchamlari keskin farq qiladigan viruslarni bir-biridan ajratib olish mumkin.

Tabiatda viruslar keng tarqalganligini, ularni ho‘jayinlari ko‘pincha bir organizm bo‘lishi mumkinligini esga olib, ularni qanday qilib avval bir-biridan ajratish, aniqlash va ularga muolija qilish ishlari to‘g‘ri bo‘ladi. Masalan, paralel ikkita virus: arpa shtrixli mozaikasi virusi va yaltirbosh mozaikasi viruslari arpa o‘simgilagini bir vaqtida kasallantiradi, ularni simptomlari ham bir-birinikiga o‘xhash bo‘ladi. Bunday holatda u ikki virusni bir-biridan ajratishda gelfiltratsiya usuli yordamga keladi.

TMV ni namunasini tayyorlagandek kolonka uchun namuna tayyorlanadi. Kolonkani esa endi 5% -li agar-agar ni granulalangan gelida xuddi TMV ni

gelfiltratsiya qilingandek ish olib boriladi. Kolonkani yuqori qismidagi gelning yuzasiga virus aralashmasi (AShMV va YAMV) ni pipetka yoki shprits bilan ohistalik bilan quyiladi. So‘ngra virus aralashmasini bufer bilan sekin-asta yuviladi. 5-6 soatda virus aralashmasi fraksiyalarga bo‘linib, kolonkadan yuvilib chiqadi. Ularni endi spektrofotometrda o‘lchab, virusli cho‘qqilarni aniqlab, ularni yuqoridagi 6 punktdagidek qilib analiz qilinadi. Yuqumlilikini test o‘simliklarda analiz qilinadi, hamda virus qaysi fraksiyadagini, yuqumlilikini saqlanishi, miqdori (mg/ml), morfologiyasini elektron mikroskopda ko‘rib, ajratilgan virus preparati haqida xulosa qilinadi.

Gelfiltratsiya usulida granulalangan 5% li agarozaga kolonkasida 3 xil o‘lchamli - viruslar va hujayra moddalarini ham ajratish mumkin.

Bu safar ham xromatografik kolonkani avvalgidek qilib yuvib tayyorlanadi. Endi AShMV va YAMV bilan kasallangan arpa o‘simgidan yuqoridagidek qilib gelfiltratsiya qilinadi. Kolonkaga solinayotgan namunada endi ikkita o‘lchamga ega viruslar –AShMV (m.m. 25 000 000), YAMV (m.m. 4 000 000) va o‘simgi tarkibiy qismlari (m.m. 30 000) bor. Xromatografiya qilinganda mazkur viruslar va o‘simgi tarkibiy qismlari uch cho‘qqini hosil qilib kolonkadan yuvilib chiqadilar. Ularni analizi ham yuqoridagidek olib boriladi.

Virusologiyada fizik-kimyoviy analizlarni olib borish gomogen, yuqumliliği yuqori virus preparatlari talab qilinadi, masalan, TMV ni yuqumliliği yuqori bo‘lishi, yuqumlilikni yuqoriligi uni zarrachalarini maksimal uzunligiga (3000A) bog‘liq bo‘ladi. Bunday zarrachalarni olish uchun yana gelfiltratsiyaga murojaat qilinadi. Stir va Akkerslar (5) TMVning toza preparatini olib, 1% agarozaga gelida fraksiyalarga ajratganlar. Olingan fraksiyalarni eng birinchi kolonkadan chiqadiganlarini uzunligi asosan 2200 - 3000A ni tashkil qilar ekan. Kolonkadan eng kech yuvilib chiqqan fraksiyalarda 2000 dan kichik o‘lchamli virus zarrachalari chiqar ekan.

Mazkur usulni viruslarni RNK sini pigmentlardan holilashda, RNK ni virusdan ajratishda, qisman deproteinizatsiya qilingan viruslarni fraksiyalarga ajratish ishlarida muvaffaqiyat bilan qo‘llasa bo‘ladi.

Albatta, bu ishlar tajribali mutaxassis tomonidan amalga oshirilsa virus, ribosoma, hujayra komponentlarini ajratish, aniqlash ishlarida ma’lum ijobiy natijalarga erishish mumkin.

4.6. Tamaki mozaikasi virusining qisman tozalangan preparatini virusning izo elektrik nuqtasida (i.e.n.) da olish

Tamaki mozaikasi virusi bilan kasallangan o‘simgik shirasini yuqorida aytilgan usullarda ajratib olinadi va uni xloroform yoki butanol yordamida yana ishlov berib, sentrifuga yordamida tiniqlashtirilib, virusli ekstrakt ajratib olinadi. So‘ngra unga 1 n HCl dan qo‘sib doimo aralashtirib turiladi. pH ni 5,0-5,5 ga kelguncha indikator qog‘oz bilan tekshirib boriladi.

Endi 0,1 n HCl yordamida pH 4,5 ga tushiriladi, bu bosqichda pH - metrdan foydalilanadi. 4,0-5,5 orasida ohistalik bilan past konsentratsiyalik kislota tomizgan ma’qul, aks holda virusli ekstraktning mahalliy uchastkasida

pH keskin pasayadi va ballast oqsillar bilan birga virus ham izoelektr holatga kelib, cho'kishi mumkin. pH 4,5 ga teng bo'lganda suspenziyadan cho'kmaga o'tadigan hujayra ballastlarini 3-5 ming ayl/tezligida sentrifuga yordamida 3 - 5 ming aylanish tezligida 20 minut aylanitrib cho'kma tashlanadi. Cho'kma usti suyuqligini 0,1 n HCl bilan pH 3,5 gacha nordonlashtiriladi. Bu pH da TMV zarralari izoelektrik holatga o'tadi, agregatlar paydo bo'ladi va aralashtirilganda seziladigan darajada ignasimon parakristallar hosil bo'ladi. Natijada eritma ipaksimon yaltiraydi. Eritmani sovuqxonada to'liq kristallanishi uchun kechasiga qoldiriladi. Ertasiga virusli ekstrakt solingan stakanga tashqaridan nazar solinsa, uning tubida virusli cho'kma yaqqol ko'zga tashlanadi. Virusli cho'kmani 6000 aylanish tezligida 20 minut davomida sentrifugalash bilan ajratiladi. Cho'kmani 0,01 M fosfat buferida eritiladi. Eritish uchun ishlatiladigan bufepHing miqdori eng birinchi virusli materialni ekstraksiya qilish uchun ishlatilgan bufepHi 1/10 miqdorini tashkil qiladi. Demak, virus 10 marta quyuqlashadi. Virusli eritmani 0,1 NaOH bilan pH 7,0-7,5 gacha ko'tariladi (pH indikator qog'oz yordamida yoki pH-metrda nazorat qilib boriladi). So'ngra eritma 15-18 ming aylanish tezligida 10 minut davomida sentrifuga qilinib, erimagan cho'kma tashlab yuboriladi.

So'ngra virusni ikkinchi marta qaytadan cho'ktiriladi. Virusli suspenziyani 0,1 n HCl bilan ehtiyyotkorlik bilan mutaacsil aralashtirilgan holda pH 3,5 gacha nordonlashtiriladi (pH diqqat bilan pH-metrda nazorat qilib boriladi. Virusli ekstraktni to'liq kristallanishi uchun muzlatgichda yoki muzli hammomda 1 soatga qoldiriladi. Cho'kma minutiga 6000 aylanish tezligida 20 minut davomida sentrifuga kilinadi.

Tiniq cho'kmausti suyuqligini tashlab yuboriladi, cho'kmadagi virus kristallari 15 - 20 ml 0,01 M fosfat buferida (pH 7,5) eritiladi. Suspenziya ehtiyyotkorlik bilan pH 7,5 gacha ishqoriylashtiriladi. So'ngra minutiga 15 - 18 ming aylanish tezligida 10 minut davomida sentrifuga qilinadi. Cho'kma 5 - 6 ml 0,1 M fosfat buferi bilan yuvib tashlanadi va sentrifuga qilinadi. Yuvindi suvlar odatda asosiy virusli eritma bilan birlashtiriladi.

Yuqoridagi usullar bilan tozalangan virus boshqa metodlar bilan (gelfiltratsiya, PEG bilan cho'ktirish, differensial sentrifugalash, gradient zichlikda sentrifugalash) oxirigacha tozalanadi.

Viruslarni preparativ miqdorda ajratilganda katta hajmdagi (bir necha litr) virusli eritmani i.e.n da cho'ktirilganda, cho'kma usti suyuqligini cho'kmadan sifon yordamida ajratib olish ham mumkin (10).

4.7. Tamaki mozaikasi virusini tuz yordamida cho'ktirib qisman tozalangan preparatini olish

Xloroform bilan ishlov berilib tozalangan virus ekstraktiga 20% ammoniy sulfati solinib yaxshilab aralashtiriladi. So'ngra 60 minutdan 24 soatgacha sovutgichda tutiladi, natijada cho'kmaga virus va ballast moddalar tushadi. Ularni minutiga 3 ming ayl/tezligida 20 minut davomida sentrifuga qilinadi. Cho'kma usti suyuqligiga 25% gacha ammoniy sulfati solinadi va yaxshilab aralashtiriladi

va yana 60 minut kristallar hosil bo‘lishi uchun saqlanadi. Inkubatsiya vaqtida virus parakristallari hosil bo‘lishi jarayonida ipaksimon yaltirash paydo bo‘ladi.

Virusli idish virus to‘liq kristallanishi va cho‘kishi uchun kechasiga sovutgichda qoldirilib ketiladi. Ertasiga sifon yordamida cho‘kma usti suyuqligi ajratiladi. Qolgan cho‘kmadagi virusli suspenziya minugiga 6 - 8 ming aylanish tezligida 15 -20 minut sentrifuga qilinadi va cho‘kma 100 ml 0,01 M fosfat buferiga, pH 7,5 0,005 M EDTA solingan erituvchida eritiladi. So‘ngra tozalashning keyingi bosqichida - dializ qilinadi. Bu jarayonda virusli suspenziya tarkibidagi sulfat ammoniy ionlari va boshqa moddalardan holilanadi.

Dializ tugagandan so‘ng preparat 10 minut 15—18 ming ayl.tezligida sentrifuga qilinadi. Cho‘kma tashlab yuboriladi. Virusli eritmani (cho‘kmausti suyuqligi) qaytadan 25% li sulfat ammoniy bilan cho‘ktiriladi va 60 minugdan so‘ng 20 minut davomida 6 ming ayl tezligida sentrifuga qilinadi. So‘ngra cho‘kmani 2 ml 0,01 M fosfat buferida (pH 7,0 — 7,5) eritiladi va 15—18 ming aylanish tezligida senrifuga qilinib, erimagan qism ajratib tashlanadi.

Shu usullarda ajratib olingan qisman tozalangan preparat endi boshqa usullar bilan (yuqorida aytilgandek gelfiltratsiya, PEG bilan cho‘ktirish, differensial sentrifugalash, gradient zichlikda sentrifugalash) to‘liq tozalanishi mumkin (10).

4.8. TMV ning differensial sentrifugalash metodi bilan toza preparatini olish

Sentrifuganing yaxshilab yuvib quritilgan probirkalariga virusli eritma (Yuqorida berilgan "namuna tayyorlash" bo‘limiga qaralsin) quyiladi, so‘ngra probirkalar tarozi yordamida tenglashtiriladi va qopqoqlar avval qo‘l bilan, so‘ngra maxsus "kalit -moslama" bilan yopiladi. Probirkalarning tengligi qayta torozida tekshiriladi, so‘ngra burama qopqoqlari bilan germetik yopiladi (agar probirkalarning biri og‘irroq bo‘lsa, barobarlashtirish uchun shprits yordamida eritmadan qo‘shiladi).

Probirkalar sentrifugani rotoriga bir-biriga qarama-qarshi qilib qo‘yiladi. Rotor zich qilib rotor qopqog‘i bilan yopiladi va ultratsentrifuga kamerasiga joylashtiriladi (ultratsentrifuga rotorini o‘rnatish va sentrifugani ishlatish maxsus operator tomonidan bajariladi). Sentrifugalash 90 minut davomida 105 000 g da bajariladi.

Ultratsentrifuga aylanishdan to‘xtagandan so‘ng, rotordan probirkalarni chiqarib olinadi, probirkaning eng tagida ozgina jigarrang virus cho‘kmasi va undan to‘la ajralgan cho‘kma usti suyuqligi kuzatiladi. Cho‘kma usti suyuqligini to‘kib tashlanadi, virus cho‘kmasini esa ozgina 0,01 M tris - HCl buferida (pH - 7,6) eritiladi. Agar virus yaxshi tozalangan bo‘lsa oq -havorang "opalessensiya" kuzatiladi. Eritmani 15-18 ming ayl. tezligida sentrifugalanadi va erimagan qismidan ajratiladi. Erimagan cho‘kmani yana bir marta 1-2 ml bufer bilai eritib, cho‘ktirib, cho‘kmausti suyuqligini asosiy virus eritmasiga qo‘shiladi va saqlanadi.

Shu differential sentrifugalash siklini 3 - 4 marta qaytarib etarlicha tozalangan virus preparati olinadi.

Viruslarning o'lchamlari (18-600 nm) va zichliklari shundayki, agar ularga markazdan qochma kuchni 30000 dan 200000 g ta'sir ettirilsa, virus zarralari cho'kmaga tushadi. Shu maqsadda preparativ ultratsentrifugalarning rotorlarini minutiga 50000 — 60000 marta aylanadigan sentrifugalari ishlatiladi. Eng mashhurlaridan Hitachi MSE firmasining Spinco L 2 va Spinco L 50, Super-Speed -25, Super-Speed-40, Super-Speed-50, GDR ning Vac-40, Vac -60 sentrifugalari ishlatiladi. Ular rotor to'plamlariga ega. 1500 ml suyuqlikni 59000 da aylantiradigan rotorlardan 80 - 100 ml suyuqlikni 200000 g gacha aylantiradigan rotorlarga ega.

Differential centrifuga usulida virus tozalaganda virusni suspenziyadan cho'ktiriladi, boshqatdan suspenziya holatiga o'tkaziladi, sovuqda magnit aylantirgichida chayqatiladi hamda past tezlikda sentrifugalanadi (6000 g, 30 min). Bu jarayonni bir necha marta qaytarish mumkin.

Hayvon viruslarini, bakteriofaglarni bir sikl differential sentrifugalash bilan tozalash qiyin bo'ladi. Bunda avval har xil usullarda (m., ionalmashish xromatografiyasi) virus tozalash bosqichlaridan o'tib, virusni katta hajmli suyuqlikdan kichik hajmga o'tkazishda ishlatilishi mumkin. O'simlik viruslarini tozalashda bu metod yaxshi samara beradi (10).

4.9. TMV ning "saxaroza gradienti konsentratsiyasida sentri-fugalash" usulida tozalash (10)

Suvda yaxshi eriydigan kimyoviy inert moddalar gpadI.E.Nti konsentratsiyasida sentrifugalab makromolekulalar aralashmalarini (viruslar, nuklein kislota) fraksiyalarga ajratish mumkin. Bunday moddalarga saxaroza, glitserin, rubidiy yoki seziy tuzlari, polivinilpirrolidone kabilar kiradi.

Bu metodlarni asosiy prinsipi shundan iboratki, sedimeitatsiya tezligi bilan farqlanadigan aralashma qismlari markazdan qochma kuch ta'sirida sentrifuga probirkasida boshqa-boshqa o'z sedimentatsiya koeffitsentiga teng bo'lgan saxaroza gradientining joyiga ko'chib o'tadi. Sentrifugalash natijasida fraksiyalarga ajratilayotgan moddalarning diskret zonalari hosil bo'ladi. Saxarozaning yopishqoqligi zonalarga ajralgan qismlarni stabillashtirib aralashib ketishidan saqlaydi. Viruslar probirkaning ma'lum qismida zona hosil qiladi, bu probirkani o'tuvchi nur ta'sirida qorong'u xonada kuzatilsa virusli zona yaqqol' oppoq bo'lib ko'rindi.

Marker moddalarini (koeffitsenti sedimentatsiyasi aniq bo'lgan makromolekulalar) ishlatib turib saxaroza gradienti konsentratsiyasida noaniq virusning taxminiy sedimentatsiyasi koeffitsentini aniqlash mumkin. Quyidagi mutanosiblikdan foydalaniladi:

$$S_x/S_y = d_x/d_y$$

S_x va S_y – sedimentatsiya koeffitsI.E.Ntlari,

d_x va d_y gradientni tepa sathidan sentrifuga jarayonida o'tilgan masofa.

Bu usulda sentrifugalanganda eng axamiyatli narsa bu rotopHi tanlashdir. Prereparativ ultratsentrifugalar ichida eng qulayi "Spinco" L modeli sentrifugalaridir. Ular har xil hajmdagi rotorlar bilan ta'minlangan. Saxaroza konsentratsiyasi gradientida ishlatish uchun osma stakanlarga (probirka) ega "baket — rotorlar" (Swinging Bucket Rotor yoki SW) ishlatiladi, quyida ularning ba'zilari berilgan (10-jadval).

10-jadval

'Spinco" (model L) sentrifugasining ba'zi rotorlarining tavsifi

"Spinco" L sentrafugasining osma stakanli (baket-rotorli)rotorlarining ba'zi tiplari				
Rotor tipi	Maksimal aylanish tezligi min/ ayl	Maksimal tezlanish X_g	Probirkalar soni	Probirkalar hajmi, ml
SW-65 T	65000	249000	3	5,0
SW-50,1	50000	300000	6	5,0
SW-41 Ti	41000	286500	6	13,2
SW-40 Ti	40000	284000	6	14,0
SW-36	36000	193000	4	13,5
SW-27,1	27000	135000	6	17,0
SW-27	27000	131000	6	38,5
SW-25,1	25000	90000	3	34,0
SW-25,2	25000	107000	3	60,0

Kerakli materiallar: a) asbob uskunalar: ultratsentrifuga "Spinco", basket— rotor SW-27 va uning probirkalari (38,5 ml hajmli), shtativlari, gradient tayyorlash uchun kerakli aralashtirgach, tomchilatib fraksiyalarga ajratishla ishlatiladigan qurilma, fraksiyalarni yig'ishda ishlatiladigan probirkalar (35 donadan kam mikdorda bo'limgan), spektrofotometr yoki "Uvikord" tipidagi spektrofotometr.

b) Reativlar: 0,1 M atsetat bufer, pH 5,0, 5% va 20% 0,1 M atsetat buferida (pH 5,0) tayyorlangan saxaroza eritmasi;

v) Viruslar: TMV va yaltirbosh mozaikasi viruslarining toza preparatlari.

Ishning borishi. Saxaroza eritmasini "liniyali" konsentratsiyasi radI.E.Ntini tayyorlash. Tayyorlanadigan saxaroza gradientining konsentratsiyasi tadqiq qilinadigan ob'ektining molekula massasi, zichligi va shunga o'xshash ko'rsatkichlari rol o'ynaydi. Sentrifugalash muddati ham katta ahamiyatga ega.

Quyidagi Ilova, 11-rasmda "liniyali" konsentratsiya gradienti tayyorlaganda ishlatiladigan qurilma ko'rsatilgan.

Qurilma odatda shaffof sun'iy shishadan (pleksiglas) dan tayyorlanadi. Qurilma ikkita bir-biri bilan tutash idishdan iborat bo'lib, ular pastki qismidan bir-birlari bilan tutashtirilgan bo'ladi. Idishlardan biri aralashtirgichlik vazifasini

bajaradi va u aralashtirgich bilan ta'minlanadi. Ikkinci idish bo'lib turgich idishlik vazifasini bajaradi. Ikkala idishni to'latish vaqtida idishlar orasidagi jo'mrak yopiq holatda bo'ladi.

Bu qurilma yordamida konsentratsiyasi katta bo'lgan saxaroza eritmasi rezervuardan kelayotgan konsentratsiyasi past bo'lgan saxaroza eritmasi bilan uzluksiz aralashtirib boriladi va sekin asta ajratgich quvur orqali sentrifuga pirobirkasida to'planadi. Agar ikkala idish hajmi teng bo'lsa, saxarozaning liniyali gradienti hosil bo'ladi (Illova, 11- rasm)

Virus namunasini saxaroza gradienti tayyorlangan probirkaga quyish. TMV va YAMV larining sun'iy aralashmalari namunalik vazifasini bajaradi.

TMV — tayoqchasimon virus bo'lib, sedimentatsiya koeffitsenti $S_{20,w}^{0}$ 180S, D 260/280 nisbati 1,2 teng, ekstinktsiya koeffitsenti ($E_{260, 1\text{ sm}}^{0,1\%}$) 2,7 teng.

YAMV (Brome mosaic virus) mayda virus bo'lib, diametri 25 nm, zarrachalari 180 subbirlikdan tuzilgan. Sedimentatsiya koeffitsenti 90S ga teng. D 260/280 nisbati 1,7 ga teng, ekstinktsiya koeffitsenti ($E_{260, 1\text{ sm}}^{0,1\%}$) 5,2 ga teng. Bu ikki virusning sedimentatsiya koeffitsentlari bir-biridan ikki barobar farq qiladi, demak bu usulda ularni oson ajratish mumkin.

Bu ikki virusni optimal pH lari I.E.N larini solishtirib ikkala virus uchun ham optimal bo'lgan pH ni tanlanadi. Chunki YAMV, muxit pH-i 7 ga teng bo'lsa, oson parchalanishi mumkin. Shuning uchun saxaroza gradientini muhit pH-i 5 ga teng qilib 0,1 M atsetat buferi yordamida tayyorlanadi.

Gradient tayyorlangan probirkaga 1 ml 0,1 M atsetat buferida (pH 5,0) eritilgan TMV (1 mg) va YAMV (1 mg) aralashmasi solishda uchi ingichka pipetkadan foydalaniladi va uning uchi probirkaga chetiga tekizib turiladi va virus aralashmasi ohistalik bilan solinadi.

Sentrifugalash oldidan probirkalarning og'irliklari tenglashtiriladi va ularni baket rotoring osma stakanlariga joylashtiriladi. Stakanlar qalpoqchalar yordamida zich qilib yopiladi, so'ngra rotorga mahkamlanadi. Rotorni sentrifuga o'qiga o'rnatiladi va minutiga 25000 ayl.tezligida 1,5 soat davomida sentrifugalanganadi. Sentrifugalangandan so'ng hosil bo'lgan fraksiyalarni pipetka yoki shprits yordamida yoki avtomatik apparatura yordamida ajratib olinadi.

Fraksiyalarni ajratib olishda sentrifuga probirkani maxsus shtativga joylashtiriladi, shtativga avvaldan shprits ignasi o'rnatilgan bo'lib u, probirkaning tagini teshishga yordam beradi. Tagi teshilgan probirkadan igna orqali tomchilayottan fraksiyalar qator probirkalarga 10 — 20 tomchidan qilib yig'ib olinadi. So'ngra spektrofotometr yordamida UB nurni 260 nm da yutishiga qarab tadqiq qilinadagan fraksiyalarning konsentratsiyasi o'lchanadi. Har bir zonaning virusli cho'qqisida D260/280 nisbati o'lchanadi.

Abssissa o'qida fraksiyalar soni yoki miqdori, ordita o'qiga esa 260 nm dagi optik zichligining qiymati yoziladi. Grafikda fraksiyalarga ajratish yo'nalishi probirkaning tag va ustki qismi ko'rsatiladi.

Avtomatik fraksiyalarga ajratilganda fraksiyalar probirkaning tagidan yig'iladi, yoki probirkaning ustidan maxsus kapillyar yordamida ajratiladi.

Ikkala holatda ham probirkadan olinadigan fraksiyalar spektrofotometr kyuvetasidan o'tib UB -nurni yutishi o'lchab boriladi.

260 nm da hosil bo'lgan zonadagi virus fraksiyasi ajratib olinadi va toza preparatni saxarozadan ajratib olingandan so'ng toza preparatlarga bo'lgan mezonlar bo'yicha tahlil qilinadi.

TMV ni biospetsifik xromotografiya usulida tozalash. Poliamid granulalaridan biospetsifik sorbent tayyorlash uchun P-6 markali poliamid kukuni (2x2 mm) olinadi.


Poliamid kukuni to'qimachilik kombinatidagi chiqindi kapronlardan tayyorlanadi, ularni konsentrangan xlorid kislotada ($d=1,17$) eritib (1 kg kapron matosiga 2,5 l xlorid kislota hisobida), unga 0-50 hajmda atsetonning suvli eritmasi 1 l/g tezlikda aralashtirilgan holda quyiladi. Poliamid cho'kmasi dekantatsiya yo'li bilan ajratib olinadi, so'ngra Byuxner voronkasida filtrlanib, havoda quritiladi va elanadi (0,14, 0,25, 0,5, 1 mm teshikli elaklar ishlatiladi).

Poliamid granulalarini faollashtirish uchun ularni 3,0 n xlorid kislotada 45°Cda 2 soat davomida inkubatsiya qilinadi (1:2 nisbatda). So'ngra poliamid granulalari avval suv bilan, so'ngra 0,1 M borat bufer (pH 8,5) bilan yuviladi.

Bu granulalar ligand reaksiyaga qobiliyatli aminoguruhlarga ega. Biosietsifik sorbentni sintezlashda xuddi shu guruhlarni ligand bilan biriktiriladi. Biriktirish bifunksional birikmalar (glutar aldegid) orqali amalga oshiriladi.

Bu birikmaning poliamidga birikishi xona haroratida olib boriladi. SHiff reaksiyasi asoslarini hosil qilish prinsipida ishqoriy muhitda (pH 8,0 - 9,5) olib boriladi. Reaksiya modifikator ishtirokida boradi. Modifikatsiya qilish quyidagi tartibda olib boriladi: faollashtirilgan poliamid granulalariga 0,1 M borat buferi (pH 9,0) solinadi, so'ngra 6 marta ko'p hajmda glutaraldegid (1 g sorbentga 2,5% li glutar aldegiddan 3,14 ml) solinadi. So'ngra kechasiga muttasil aralashtirilgan holda qoldiriladi. Reaksiyaga kirmagan glutar aldegidni 4 marta suyultirilgan bufer bilan yuvib tashlanadi.

Poliamid granulalarini glutardialdegidi bilan modifikatsiya qilish quyidagicha boradi.



So'ngra bu modifikatsiyalangan poliamidga ligand (AT) ulanadi, yangi tozalangan antitelodan 10 mg solib 2 sutka sovutgichda muttasil aralashtirgan holda qoldiriladi. Endi modifikatsiyalangan kapronga TMV antitelasi birikadi (Shiffa reaksiyasi asosida) lizin amina guruhi orqali, birikmagan ortiqcha antitelolar so'rib tashlanadi, poliamid esa 30 marta oshiqligida 0,1 M borat buferi (pH 9,0) bilan, so'ngra 20 marta ortiq hajmdagi shu bufer bilan yuviladi.

Ochiq qolgan erkin aldegid guruhlarini bloklab qo'yiladi. Buning uchun biospetsifik sorbentga monoetanolamin (MEA) solinadi (1g poliamidga 0,36 ml

MEA solinadi va muttasil aralashtirilgan holda) 2 sutka davomida qoldiriladi. MEA ning ortiqchasi 10 marta ko‘p xajmdagi M borat bufer (pH 8,5) bilan yuviladi. Biospetsifik sorbentga virusni sorbsiyalash. Biospetsifik sorbentga (polamid granulaga dialdegid orqali biriktirilgan antitela) TMV ni sorbsiyalash va so‘ngra desorbsiya qilib tozalash uchun xromatografik kolonka 1x7 sm) sorbent bilan to‘latiladi va 0,05 M tris -HCl, 30 SaS₁, 5% etilenglikollik sorbsiyalash buferi bilan to‘yintiriladi, so‘ngra kolonkaga 10 mg (1,5 ml) toza TMV solinadi. Ushbu kolonka sorbsiyalash buferi bilan yuviladi (6 ml/soat), fraksiyalar 3 ml dan to‘planadi. Adsorbsiyalanmagan virus spektrofotometr yordamida o‘lchanadi. Kolonka yaxshilab yuvilgandan so‘ng kolonka sorbsiyalangan virusni tris-HCl, 1 M KCl va 0,015 M EDTA solingan bufer pH gradienti 7,5 dan to 11,0 bo‘lgan desorbsiyalovchi eritmada desorbsiya qilinadi. Eritma pH ni 0,1 n li NaOH bilan oshiriladi. Desorbsiya qilish boshlanganda avval kolonkadan virusni adsorbsiyalangan qismi yuvilib chiqadi. Sekin asta pH ni oshirishi natijasida virusning sorbentga sorbsiyalangan qismi desorbsiyalanib chiqadi. Desorbsiyalanish maksimumi pH 10,5 - 11,0 da kuzatiladi, ya’ni virusning asosiy qismi yuvilib chiqadi. Spektrofotometrda UB -nurlarni 260 nm da yutishi, *N. glutinosa* o‘simligida nekrozlarni hosil bo‘lishi kolonkadan pH gradientiga TMV desorbsiyalanganini ko‘rsatadi.

Toza virus preparati bilan yuqoridagi uslub yordamida sorbentli kolonka kalibrlanadi (aniq bir o‘lchamga keltiriladi) (10).

4.10. TMV bilan kasallangan o‘simliklardan biospetsifik xromatografiya usulida toza virus ajratish

Virusli materialga n-butanol (8%) bilan ishlov berilgandan so‘ng, virusli ekstrakt 6000 molekula massasi polietilen glikol (4%) va 1,5 M osh tuzi yordamida konsentratsiyasi oshiriladi.

Kolonkaga 1 ml virusli namuna solinadi va sorbsiyalovchi bufer (0,05 M tris - NS1+5% etilenglikol +30 mm SaS₁) bilan yuviladi.

YUvish jarayonida elyuatlar 3 ml dan qilib yig‘iladi va spektrofotometrda 260 nm ga UB-nurini yutishga asoslanib elyusiya grafigi chiziladi. Kolonkani yaxshilab jigarrang tusli pigmentlar ketguncha yuviladi. Kolonkaga adsorbsiyalangan virusni desorbsiyalovchi bufer (0,05 M tris-NS1+0,1 M NaCl+0,015 M EDTA, pH 5,0) bilan yuviladi. Olingan fraksiyalar 260 nm da UB-nurlarni maksimal yutish xususiyatiga ega. Shu fraksiyalardagi D 260/280 nisbati 1,20-1,25 ga teng bo‘ladi. Elektron mikroskopda mazkur fraksiyalarni analiz qilish ularda tayoqchasimon virus zarralari borligini ko‘rsatdi. Uning yuqumligini *N. glutinosa* barglarida aniqlanadi (1 bargda 16-18 nekroz). Demak, affin xromatografiya usulida ham viruslarni tozalash imkoniyati mavjud ekan (10).

4.11. TMV ni poliakrilamid gel (PAAG) kolonkasida elektroforez usulida tozalash

1975 yili Paul (10) poliakrilamid gelidagi elektroforez yordamida kartoshka A, M, U viruslarini, baqlajon mozaikasi virusini, tupHeps sariq mozaikasi viruslarini aniqladi, Georg va Altman (10) esa bu metodni mevali daraxtlar viruslarini diagnostika qilishda ishlatishdi (Vaxabov, 1990 dan olindi). Buning uchun virusli namunani maydalab, undan olingan virusli eritmani tris-HCl buferida eritib, gelfiltratsiya qilib, uni konsentrlandi. Konsentrangan virus 4% li poliakrilamidda elektroforez qilinadi (poliakrilamid gelining 3,75% va undan past konsentratsiyalarining yumshoqligi sababli ularni ishlatish mumkin emas). Polikarilamidning 4,5,6,7 - % li gellari mustahkam bo‘lishiga qaramasdan poralarining kichikligi sababli virusdan tashqari hujayra tarkibidagi moddalarni ham tutib qoladi. Shu sababli ular virus tozalashda ishlatilmaydi. Kichik malekulali oqsillar trubkada oson harakatlanadi, viruslar esa nisbatan katta molekula massasiga ega bo‘lganliklaridan gel ichiga 1 sm gagina kiradilar xolos. Oqsillarni fraksiyalariga ajratishda ishlatiladigan gellarga 5-6% viruslar umuman kirmaydilar.

Qora amid bo‘yog‘i bilan bo‘ylganda gel probirkasining tagida hujayraning normal oqsillaridan tashkil topgan bitta zona hosil bo‘ladi. Demak, viruslarni va normal hujayra oqsillarini fraksiyaga ajratishda, sifat reaksiyasi o‘tkazishda PAAG elektroforezidan foydalanish mumkin.

Bu metodning imkoniyatlarini yanada kengaytirib, unda ishlatiladigan gel konsentratsiyasini pasaytirib (poralarni kengaytirib) virus tozalashda ishlatish mumkin.

Veritkal qilib o`rnatilgan xromatografiya kolonkasi elektroforez o‘tkazish uchun 4% li PAAG ohistolik bilan to‘latiladi. Gel polimerlanganidan so‘ng, avvaldan tayyorlangan anod va katod idishlari buferlar bilan to‘latilib, ular elektroforez o‘tkazilgan kolonkaga ular shoga tayyorlanadi. Kolonkaga 40 mg qisman tozalangan virus solinadi va u katod idishiga ulanadi (Ilova, 12 rasm) elektroforezgacha bo‘lgan holat). So‘ngra tok manbaiga ulanib tok kuchi beriladi. Elektroforezni 1-3 soat davomida o‘tkaziladi. Elektroforez tugagandan so‘ng, gel ustidagi virus minimal bufer bilan eritib olinadi (Ilova, 12 - rasm).

Elektroforez jarayonida hujayraning normal qismlari virusga qaraganda start nuqtasidan tezroq harakatlanib saxarozadan Ilova, 12 rasm, 2 zona) va geldan 3 soat ichida o‘tib ketadilar va kolonkaning 20-25 sm lik oralig‘ida zonasida tor zona hosil qiladi (Ilova, 12 rasm, 4 zona). Bu muddatda virus zarralari ham saxarozadan oson o‘tib, gel kolonkasi yuzasida to‘planadi.

Ma‘lum qism virus zarralari (10% gacha) gelga kiradi (Ilova, 12 –rasm, 1 b).

Elektroforez tugashi bilan kolonka anod va katod idishlari ajratiladi, gel kolonkasi ustidagi virus 2 ml bufer bilan eritib olinadi (bufer solib eritish 3 marta qaytariladi). Gelga kirgan virusni ajratish uchun gel 1 sm dan qilib kesiladi va havonchada fosfat buferi bilan eziladi, so‘ngra virus geldan filtrlanib ajratib olinadi. Gel ustidan ajratib olingan (Ilova, 12 –rasm, 1 a).

1 a) va gelga kirgan viruslarni (1 b) elektron mikroskopda ko‘rilganda ularni tayoqchasimon virus zarralari ekanligi aniqlanadi.

Olingan virus UB -nurlarni 260 nm da maksimum yutadi, A_{260/280}=1,2 koeffitsentni ko‘rsatadi. Viruslarni *N.gulinosa* ga yuqtirilganda barg sathida 40 - 65 ta nekrozlar hosil bo‘ladi. Ikkiyoqlama immunodiffuziya usulida tekshirilganda virus antigenlik xususiyatini saqlab qoladi.

PAAG elektroforezi bilan stabil viruslarni muvaffaqiyatli tozalash mumkin (Illova, 12 - rasm).

4.12. Kartoshkani X-virusini (KXV) toza preparatini ajratish

KXV ni do‘rmon (Datura stramonium L.) o‘simgidan ajratiladi. Virusli namuna xuddi TMV ni ajratilgan tartibda avval go‘sht maydalagichda bufer bilan (1:1) maydalanadi, so‘ngra virusli shiraga xloroform bilan (1:8) ishlov berib, sentrifugalanadi. Ekstraksiya qiluvchi bufer sifatida 0,02 M fosfat buferi 0,01 M natriy giposulfiti va 0,01 M EDTA (pH 7,5) ishlatiladi. Virusli eritmani virusni i.e.n sida (pH 4,0) cho‘ktirib yoki bir hajm virusli ekstratni 0,5 hajm to‘yingan ammoniy sulfati eritmasida cho‘ktirib sentrifugalab (6000 ayl.tezl) ajratib olinadi. Virusli cho‘kma tris-HCl buferida eritiladi, erigan qismi 15000 aylanish tezlikda sentrifugalanadi, erimagan qismi tashlab yuboriladi. Cho‘kma ustidagi virusli eritmadan toza virus ajratish granulalangan agar gelida xromatografiya qilib differensial sentrifugalash usuli bilan yoki saxaroza gradienti konsentratsiyasida sentrifugalash usulidan foydalanib tozalanadi. Natijada 1 kg virusli namunadan 100 mg toza virus ajratish mumki10n.

4.13. Virus zarralarini tarkibiy qismlarga ajratish metodlari

Viruslarning strukturalarini nazariy jihatdan o‘rganish uchun ularni tarkibiy qismlarga ajratiladi. Ma’lumki, virus zarrasi tarkibida oqsil va nuklein kislota mavjud. Undan tashqari, qator viruslarda (miksoviruslar va hakozo) uglevod va lipidlar uchraydi.

Qator viruslarda nuklein kislota virus zarrasining qobig‘idan fazoviy ajralgan bo‘ladi. Ularga ko‘pgina o‘simglik viruslari, polioviruslar, T -guruhiiga mansub bakteriofaglar kiradi. Boshqa bir guruh viruslarda (miksoviruslar, chechak viruslari kabi) nuklein kislota va oqsil bilan mustahkam bog‘lanib ichki nukleoproteid hosil qiladi. Shuning uchun ham virus zarralari dezintegratsiya qilish ishlari uch xil metodda olib boriladi: 1. Nuklein kislotalarni ajratish, 2. Oqsillarni ajratish, 3. Virusning ichki nukleoproteidini ajratish.

Bu mavzudagi to‘liq ma’lumotni Kiselyov va Dobrovlarni (1970) adabiyotlaridan olish mumkin. Biz bu erda ulardan foydalangan holda qisqacha tavsif beramiz.

Virus nuklein kislotalarini ajratish

Virus nuklein kislotosi virus zarrasining markaziy qismini egallaydi, tashqi qismi oqsil qobiq bilan o‘ralgan.

Virus nuklein kislotasining xususiyatlarini o‘rganish uni virus zarrasidan ekstraksiya qilib olish kerak. Shu maqsad bilan virus zarralaridagi oqsil po‘st

orasidagi hamda oqsil va nuklein kislota orasidagi vodorod bog‘lariga, tuz bog‘lariga va boshqa tipdagi bog‘larga ta’sir etuvchi birikmalarni qo‘llash kerak.

1.Yuqori haroratda tuzli eritmalar yordamida virus nuklein kislotasini ekstraksiya qilish. Bu usul fitoviruslar RNK larini ajratishda qo‘llaniladi. RNK ning umumiy ajratish miqdori virus zarralarining bir qismini parchalanmasligi sababli ancha kam bo‘ladi. Suv hammomidagi 0,3 NaCl eritmasiga oxirgi konsentradiyasi 10-15 mg/ml dan oshirmasdan TMV suspenziyasini 100°Cda 1 minut saqlanadi va muz hammomiga o‘tkaziladi. Sovutilgandan so‘ng suspenziyani 5000-10000 g da sentrifuga qilinib koagulyasiyaga uchragan oqsildan ajratiladi. RNK ning natriyli tuzi sovuq sharoitda dializ qilinib tuzdan ajratiladi yoki etanol bilan ikki marta cho‘ktiriladi.

Mualliflarning ko‘rsatishicha (10), bu metodni modifikatsiyasi ham bo‘lib tupHepsni sariq mozaikasi virusi va tamakining halqali dog‘i viruslariga qo‘llanilgan. Bunda NaCl ning konsentratsiyasi 1 M gacha oshiriladi, virusning konsentratsiyasi esa 5-10 mg/ml gacha pasaytiriladi, qizdirish muddati 35 sek. ga kamaytiriladi. Qolgan jarayonlar yuqoridagidek bajariladi.

Bu metod hayvon viruslaridan gripp va Raus sarkomasi viruslariga qo‘llanilgan. Avvalo ikkala virus ham xloroform va metanol aralashmasi (2:1) bilan so‘ngra esa n - butanol va ikki marta efir bilan ishlov beriladi. RNK ni ajratish uchun 10% NaCl eritmasi bilan 100°Cda 20 minut davomida 1 tadan 3 martagacha ekstraksiya qilinadi. Bu metodni Fx174 bakteriofagidai DNK ajratish uchun ham tadbiq qilinadi.

Bu metodni kamchiligi 100°Cda qizdirish jarayonida ko‘pgina virus RNK lari nativ (birlamchi) xususiyatlarini yo‘qotishi, DNK esa denaturatsiyaga uchrashi mumkinlidir.

2.Detergentlar ishlatish. Avvalo bu metodni anchagina ijobiy tomonlari bor, chunki virusga 100°Cli ishlov berish, kuchli chayqatish kabi ta’sirlar qilinmaydi. Ammo 100% virus zarralari parchalanmaydi, shuning uchun qo‘srimcha fenol bilan ishlov beriladi. Detergentni o‘zi bilan ishlov berib ham yuqori sifatli toza TMV ning RNK si ajratilgan. Detergent sifatida natriyning dodetsil sulfati (dyupanol S, DDS) natriy lauril sulfat, natriy dezoksixolat, sitrimid ishlatiladi.

Polioma virusidan DNK ajratish uchun virus differensial va gradient sentrifugalash usullari bilan tozalanadi. So‘ngra virus susnenziyasi va 10% li DDS (pH 7) barobar hajmda aralashtiriladi va 2 soat davomida 65°Cisitiladi. Ammoniy atsetatining oxirgi konsentratsiyasi 0,1 M gacha qilib qo‘shiladi va DNK ni 2 hajm etanol solib cho‘ktiriladi.

SHop papillomi virusini DNK sini ham detergent metod bilan ajratilgan.

3. Detergent va tuz yordamida ekstraksiyalash metodlaripi birgalikda qo‘llab RNK ajratiladi, chunki birgina usulni ishlatilganda nuklein kislota kam ajraladi. Ikkala metod birgalikda ishlatilganda RNK miqdori oshadi.

Virusning suvli eritmasiga (10 mg/ml) 1/4 hajm 10 % li DDS solinadi. Aralashma 100°Cda 4 minut qizdiriladi, so‘ngra muz hammomida sovutiladi. Detergentni asosiy qismini dializ yordamida yo‘qotiladi. So‘ngra oxirgi

konsentratsiyasi 1 M bo‘lguncha NaCl qo‘shiladi. Aralashma 100°Cda 3 min. isitiladi, sovutiladi, denaturatsiyalangan oqsil sentrifugalab yo‘qotiladi, RNK esa etanol bilan cho‘ktiriladi(10).

4. Fenol yordamida ajratish. Bu metod har xil viruslardan nuklein kislota ajratishda ishlatiladi. Virusli suspenziyani suvgaga to‘yingan fenol bilan yaxshilab chayqatilgandan so‘ng sentrifugalanganda aralashmani 2 fazaga ajralganligi kuzatiladi. Denaturatsiyalangan oqsil pastki (fenol) fazasiga o‘tadi yoki interfazada cho‘kmaga tushadi, nuklein kislota esa suvli fazada qoladi. Bu usul birinchi marta Shuster tomonidan nuklein kislotalarni ajratishda qo‘llanilgan. TMV RNK si xuddi shy usulda ajratiladi. Keyinchalik poliomielit, kartoshkani X-virusi, bodring mozaikasi virusi, RNK tutuvchi hasharot viruslari va DNK tutuvchi bakteriofaglar T2, T4 va FX 174 larning nuklein kislotalari ajratiladi.

5. Detergent va fenol bilan ekstraksiyalash usullarini birgalikda qo‘llash. Avvalo virusli suspenziyani fenol bilan ekstratsiya qilishdan oldin virus zarralari detergent bilan (DDS) parchalanadi. Tomat tupini pakanalashishi virusining RNK si ushbu usul yordamida ajratilgan. Yashur virusining RNK si, Fx174 bakteriofagini DNK si va hokazolar nuklein kislotalarini ajratishda ushbu metoddan foydalanilgan.

6. Nuklein kislotalarni ajratishda fermentlarni ishlatilishi. Nuklein kislotalarni ajratishdagi eng qiyin jihatni ularning virus oqsillaridan ajratishdir. Oqsillarga proteolitik fermentlar yordamida ishlov berib, so‘ngra detergent va fenol bilan ishlov berish kerak. Ferment sifatida pronaza (ospovaksina virusining DNK sini ajratishda) va papain (adenoviruslar DNK sini ajratishda) ishlatiladi.

YUqoridagi metodlardan tashqari bir qancha boshqa metodlar ham bo‘lib, ularning birorta universali yo‘q, har bir virus uchun konkret uslub ishlab chiqish zarur.

Virus oqsillarini ajratish

Virus oqsillarini ajratish jarayonida ishlatiladigan metod oqsilning birlamchi strukturalarini saqlaydigan, ikkilamchi va uchlamlamchi strukturalarini uzsa ham qayta tiklanishi oson bo‘lishi kerak. Avvaldan to‘rtlamchi strukturalarni buzish virus zarralarini kislota, ishqor yoki detergent yordamida amalga oshiriladi. Ba’zan mochevina yoki oqsil tabiatli moddalar xam ishlatiladi.

1. Ishqor yordamida "yumshoq" usulda virus oqsilini ajratish. Virus nreparatini (TMV) sovuqda ishqoriy muhitda (pH 10-10,5) inkubatsiya qilish, undan 90000—100000 molekula massaga teng "A-oqsilini" ajratishga olib keladi.

Parallel ravishda RNK oligonukleotidlargacha gidrolizlanadi. Ishqoriy muhit borat, karbonat va glitsin buferlari yordamida yaratiladi. Ba’zi amin spirtlari (etanolamin) ham ishqoriy buferlarga o‘xshash samara beradi.

TMV dan oqsil ajratish uchun 10 mg/ml konsentratsiyali virus suspenziyasini sellofan qopchasiga solinadi va 0,1 M karbonat buferida 4°CpH 10,5 da 2-5 kun dializ qilinadi. Parchalanmagan virus sentrifugalash yordamida 1 soatda 105 000 g da ajratiladi. Cho‘kma tashlangandan so‘pg cho‘kmausti suyuqligiga teng hajmda to‘yingan ammoniy sulfatini solinadi. Cho‘kmaga

tushgan oqsil 5000 g da sentrifugalanadi so‘ngra suvda resuspenziyalanadi. Oqsil yana ikki marta sulfat ammoniy bilai cho‘ktiriladi. 4°Cga suvga qarshi dializlanadi. Suv dializ davomida bir necha marta almashtiriladi. Dializ oxirida muhit pH ini 7,0 keltiriladi, "so‘ngra 60000—100000 g da sentrifuga qilinadi va yirik zarrachalar yo‘qotiladi. Olingan oqsilni ultrabinafsha nurlarini maksimum yutishini minimum yutishiga nisbati : A_{280/250}=2,4 bo‘lishi bilan tavsiflanadi (10).

2. Virus oqsilini kislota bilan ekstraksiyalash. Viruslarning ishqorga nisbatan o‘ta chidamlilari ham bor. Bunday hollarda virus zarralarini buzish uchun kislotadan foydalaniladi. Virusning suvli eritmasiga (10 - 30 mg/ml) ikki hajm sovutilgan sirka kislotasini aralashtirib turgan holda quyiladi. Cho‘kmaga tushgan nuklein kislotani sentrifuga yordamida ajratiladi, cho‘kmausti suyuqligidagi oqsil 2 - 3 kun 4°Cli suv yordamida dializlanadi (bu vaqt ichida eritmadi oqsil izoelektr nuqtasiga etib keladi). Dializ qopchasidagi oqsil ajratib olinib sentrifugalanadi. Cho‘kma qaytadan suvda eritiladi, oqsilning pH i suyultirilgan ishqor bilan pH 8,0 ga keltiriladi. Oqsil eritmasi 100 000 g da 1 soat davomida sentrifugalanib parchalanmagan virus va denaturatsiyaga uchragan oqsildan ajratiladi. Cho‘kma ustidagi oqsil eksperimentlarda ishlatilishi mumkin.

3. Issiq tuzli eritmalar yordamida virus oqsilini ajratish. Bu usul beda mozaikasi virusi kabi 81% oqsil va 19% RNK-li tayoqchasimon virusdan oqsil subbirliklarini ajratib olishda ishlatiladi. 0,01 M fosfat buferidan (pH 7,0) virusli suspenziyaga (130 mg) teng hajmda 2 M NaCl solib aralashtiriladi va 20 minut 45°Cda inkubatsiya qilinadi. Ajralib chiqqan oqsilni eruvchanligini pastligi sababli eritma loyqalanadi. 20 minutdan so‘ng eritma sovutiladi va sentrifugalanadi. Oqsil cho‘kmaga tushadi, RNK va uning parchalangan bo‘laklari cho‘kmausti suyuqligida qoladi. Cho‘kmani 1 M NaCl bilan yuviladi va sentrifugalanadi. Cho‘kmadagi oqsil 0,01 M fosfat buferi (pH 7) 0,005 M DDS ishtirokidagi eritmada eritiladi. Eritma 24 soat distillangan suvda dializlanadi, oqsilni 0,66 hajmdagi to‘yingan ammoniy sulfati bilan cho‘ktiriladi. Cho‘kma qaytadan 0,05 M DDS tutuvchi fosfat buferida qaytadan eritiladi va 4 soat davomida 0,005 M DDS tutuvchi fosfat buferida dializlanadi. Shu usulda ajratilgan oqsilning molekula massasi 34000 tashkil qiladi, oqsil serologik faolligini to‘la saqlaydi.

4. Fenol yordamida ekstraksiya qilish. Ba’zi viruslar oqsilini (TMV) fenol fazasidan yoki interfazadan maxsus ishlov berib ajratib olish mumkin. Buning uchun suvli faza ajratib olingandan so‘ng fenol fazasiga va interfazaga (nuklein kislotalarni fenol bilan ajratish bo‘limiga qaralsin) 5 - 10 hajm metanol va 2 - 3 atsetat natriy kristalidan solinadi. Cho‘kma sentrifuga qilib ajratib olinadi va 3 marta metanol, 1 marta efir bilan yuviladi. Olingan oqsilni havoda quritiladi va suvda eritiladi (10 mg:5ml suv), so‘ngra 60-80°Cda (pH ni 0,02 M NaOH bilan 7,5 ga keltiriladi) qizdiriladi. SHunday sharoitda oqsil eriydi(10).

Viruslarning ichki nukleoproteidlarini ajratish

Chechak, miksoviruslar va boshqa bir qator viruslar murakkab tuzilishga ega bo‘lib, ularning nuklein kislotalari oqsil bilan mustahkam kompleks - nukleoproteid hosil qiladi. Bunday holatlarda nuklein kislota ajratish boshqacha

tadbir bilan amalga oshiriladi. Avvalo virus zarrasidan ichki nukleoproteidni ajratish kerak. Ichki nukleoproteidni ajratish jarayonida tozalik darajasi o‘ta sifatli bo‘lishi muhim. Ma’lumki, ko‘pgina viruslar sirtida har xil ifloslantiruvchi moddalar to‘planadi. Nukleoproteidni nativ saqlovchi sharoitda virus zarrachasi parchalanganda ko‘p qismli sistema hosil bo‘ladi. Ularni bir - birlaridan molekulyar massasi, suzish zichligi farq qiladigan virus qobig‘i qismlari bilan birikkan ifloslantiruvchi moddalar bo‘lishi mumkin.

Ko‘rsatilgan ta’sirlardan birortasi yordamida o‘ta toza virus nukleoproteidini olish mumkin. Toza nukleoproteiddan yoki nuklein kislota yoki oqsil ajratish mumkin. Xuddi shu usullarni qo‘llab SV5paragrip virusi bilan kasallantirilgan hujayralardan CsCl gradientida sentrifugalash usulida virus ribonukleoproteidi (PHP) ajratish uddalandi. Ko‘pgina bu tipdagi viruslar tarkibida lipid bo‘lganligi uchui ichki PHP ni ajratishda efir, natriy dezoksixolati kabi moddalarni ishlatiladi. Ba’zan Tvin-80 ishlatish ham yaxshi samara beradi. Leykemiya viruslaridan PHP ajratishda Tvin-80 qo‘llaniladi. Miksoviruslardan PHP ajratishda dezoksixolat ishlatiladi.

Kiselev va Dobrovlar (1970) Senday virusining PHP sini ajratish uchun toza virusga natriy dezoksixolat (DXN) bilan (virus va DXN) bilan (virus va DNX nisbati 1:4) ishlov beriladi. Ishlov berish 20°Cda 5 minut davomida pH 7,0 da bajariladi. Parchalangan virus 20-60% saxaroza gradientida sentrifugalanadi yoki TEAE sellyuloza bilan hromatografiya qilinadi. So‘ngra minutiga 17500 aylanish tezligida 2,5 soat 10°Cda MSE-50 sentrifuganing 3x20 ml rotorida gradientda sentrifuga qilinganda 3 fraksiya kuzatiladi. Probirkaning yuqorisida virus qobig‘i qismlari joylashadi, 40% saxaroza probirkasining markazida virus PHP si esa probirkka tubida uning agregatlari joylashadi. Xuddi shunday natija PHP ning TEAE sellyulozasida xromatografiya qilinganda ham kuzatiladi. PHP ion almashish kolonkasida adsorbsiyalanmaydi. Kolonkani ishqor bilan regeneratsiya qilinganda virus qobig‘ining har xil qismlari yuvilib chiqadi. Bu metodni qulayligi yana shundaki, nativ Senday virusi kolonkaga adsorbsiyalanadi va 0,6 M NaCl yordamida desorbsiyalanadi. Yuqorida keltirilgan usulni boshqa viruslarga ham qo‘llab, PHP ajratish mumkin. Yuqoridagi metodlardan tashqari kazeininkaza S va fosfolinaza S fermentlari yordamida ham virus PHP sini ajratish mumkin (10).

Virus preparatlarini biokimyoiy tadqiq qilishning umumiyligi metodikasi

Toza virus preparati olingandan so‘ng virusni tashkil qiluvchi tarkibiy qismlar strukturalarini o‘rganish mumkin. Masalan, virus zarrasining nuklein kislotasi qismini o‘rganish mumkin, chunki oxirgi vaqtarda viruslarga tavsif berish va klassifikatsiya qilishda virus nuklein kislotasining tipi va strukturasi va boshqa tuzilishlariga e’tibor berilmoqda.

1. Virus nuklein kislotasini o‘rganish uning tipini o‘rganishdan boshlanadi. Bu ish umuman oson bo‘lsa ham, ammo virus nuklein kislotalarining birlamchi va ikkilamchi strukturalaridagi qator anomaliyalar uni o‘ta murakkablashtiradi. Masalan, bakteriofag φX-174 bir zanjirli DNK ga, reovirus,

o'simliklar jarohatlanishi shishi virusi ikki spirallik RNKga ega. Qator DNK tutuvchi faglar DNK sida timin o'pHiga oksimetiluratsil yoki uratsil uchraydi. Tabiiy, bu holatlar virus nuklein kislotasining tipini yoki ikkilamchi strukturalarini aniqlashni qiyinlashtiradi.

SHuning uchun nuklein kislota tipini aniqlashning asosiy metodi riboza va dezoksiribozalarni rangli reaksiya yordamida aniqlashdir. DNK ni indol va difenilamin bilan RNK ni orsin bilan bo'yagan reaksiyalari asosida aniqlanadi. YOrdamchi metod sifatida RNK yoki DNK preparatlarini maxsus o'ziga mos fermentlar bilan (DNK aza va RNK aza bilan) ishlov berishni tavsiya qilish mumkin.

2. Virus nuklein kislotasini virus zarrasidagi miqdorini aniqlash. Nuklein kislotaning virus zarrasidagi miqdorini (%) va bir virus zarrasidagi DNK yoki RNK ning miqdorini (dalton hisobida yoki 1 virus zarrasidagi mg hisobida) aniqlash muhimdir.

Ko'pgina o'rganilgan viruslarda bir molekula DNK yoki RNK mavjud, ularning molekulyar massasi deb, bir virus zarrasidagi absolyut miqdori (daltonda) ko'zda tutiladi ($1 \text{ mg } 6 \cdot 10^{17}$ daltonga to'g'ri keladi).

Nuklein kislotalarning molekulyar massasini aniqlash uchun har xil metoddardan foydalaniladi. Masalan, nur taratish metodi mayda molekulali virus nuklein kislotalarini aniqlashda ishlatiladi. Eng keng tarqalgan metodlardan moddalarning diffuziya konstantasi, sedimentatsiyasi va yopishqoqligi kabi xususiyatlariga asoslangan uslublarni ko'rsatish mumkin.

Ultratsentrifuga yordamida, saxaroza gradientida molekulyar massalari aniq moddalarni qo'llab, virus nuklein kislotasining molekulyar massasini aniqlash keng qo'llaniladi.

Oxirgi yillarda nuklein kislotalar molekula massalarini elektron mikroskop yordamida, avtoradiografiya yordamida, kimyoviy va boshqa uslublarda aniqlanmoqda.

4.14. Nuklein kislotalarni tadqiq qilish

1) Poliakrilamid gelida fraksiyalash. Bishop, Kleyvruk va SHpigelman virus nuklein kislotalarini proliakrilamid gelida elektroforez qilib fraksiyalashni tavsiya qilishdi. Bu metod oqsil ximiyasida avvaldan qo'llanilar edi, ammo virus nuklein kislotalarini tadqiq qilish keyingi yillardagina boshlandi.

Mualliflar poliakrilamid gellarini bis - akrilamid yordamida tikib yaratilgan gellardan foydalanishni tavsiya qildilar. Gellarning nolimerizatsiyasini sun'iy shisha trubalarda o'tkaziladi. Fraksiyalarga ajratish 90 min ni egallaydi (gel ustunlarining uzunligi 5 sm bo'lganda) har bir trubaga 100-200 mkg RNK ni 0,1 mg RNK solinadi.

Nuklein kislotalarni bo'linganligini gel ustunlarini to'g'ridan to'g'ri xromoskanda 260 nm da ultrabinafsha nurlarni yutishiga qarab aniqlanadi.

Mualliflar bu usul yordamida MS 2 bakteriofagini RNK sini, φX-174 bakteriofagini bir zanjirli va ikki zanjirli shakllarini va h.k. larni ajratish mumkinligini ko'rsatishgan.

? Savollar

1. Virus preparatining tozalik mezonlari qanday bo‘ladi?
2. Immunologiya usullaridan qaysi biri va qanday qo‘llaniladi? Aniqlash uchun kerak bo‘lgan reaktivlar va ularni tayyorlash?
3. Virus preparatini tozaligini aniqlashni nishonli elementlardan qaysi birlari va qanday qilib qo‘llaniladi?
4. Virus tozalashni “ayovchi” usullari va ular qanday viruslarga qo‘llaniladi?
5. Virus tozalashni “beayov usullari”ga qaysi metodlarni kirlitsa bo‘ladi va nima sababdan?
6. Virus tozalashda ishlatiladigan barcha metodlaridan qaysi biri molekulalarni shakliga o‘lchamiga qarab ajratadi?
7. Gelfiltratsiya usulini prinsipini tushuntirib bering.
8. Gelfiltratsiya uchun ishlatiladigan muhitlar va ularni turlarini viruslar bilan bog‘liqligi.
9. Xromatografik kolonkani umumiy hajmi nimaga teng bo‘ladi?
10. Viruslarni aralash uchraganda qanday usuldan foydalilanadi? Usullarni sanab va tushuntirib bering.
11. Virus zarralarini tashqi zaryadlariga qarab tozalanganda qaysi usullar qo‘llaniladi?
12. Viruslarni tuzlash yordamida qisman tozalangan preparatini olish metodi haqida axborot bering.
13. PAAG elektroforezini virus preparatini olishda ishlatish imkoniyatlari?
14. Gradient zichlikni viruslarni tozalashdagi ishlatilishi va uning moxiyati?
15. Viruslarni izoelektr nuqtasida preparatlarini olish metodikasini so‘zlab bering.

5-bob. Viruslarni morfoloyiyasi va strukturasi

5.1. Viruslarning morfoloyiyasi

Viruslar tashqi ko‘rinishi, o‘lchamlari – morfologik xususiyatlari bilan turlichadir. O‘simlik viruslari, odam va hayvon viruslari, faglar va boshqa prokariot va eukariotlar viruslari o‘ziga xos morfoloyiyaga egadirlar.


Quyida ularni shu vaqtgacha o‘rganilgan vakillarining ba’zilarini adabiyot, intepHet va o‘z (tayoqchasimon, ipsimon, sferasimon va murakkab qobiqli tuzilishga ega) ma’lumotlarimiz asosida to‘rt toifasini keltiramiz.

a) O‘simlik viruslarining morfoloyiyasi. O‘simlik viruslarini shakllarini “Rotamsted tajriba stansiyasi” va “SHotlandiya bog‘dorchilik ilmiy tadqiqod instituti”ning tayyorlagan elektron mikrofotografiyalarini Gibbs va Xarrisonning 1978 yilda Moskva Davlat Universiteti virusologiya kafedrasi olimlari tomonidan tarjima qilingan va akademik I.G. Atabekovning tahriri ostida chop etilgan “O‘simlik virusologiyasi asoslari” kitobidagi rasmlarini mazkur kitobni ilova qismida keltiramiz. Rasmlarga nazar soladigan bo‘lsak ularni ko‘pchiligi tayoqchasimon, ipsimon, batsillasimon, sferasimon va boshqa shaklli zarrachalarini ko‘rish mumkin. Ba’zi tayoqchasimon viruslar zarralarida RNK kanali ham yaqqol ko‘zga tashlanadi (Illova, 13-rasm, A, G).

b) Faglarning morfoloyiyasi ilovadagi chizmada keltirilgan (Illova, 14-rasm), (1). Ularga razm soladigan bo‘lsak, ko‘pchilik faglar murakkab tuzilishga ega ekanligi ko‘zga tashlanadi. ularni zarrachalari bosh va dum qismlarga egaligi ko‘rinadi. Bosh qismi asosan har xil o‘lchamdagи geksagonal ko‘rinishga ega. Dum qismlari ham uzun, qisqa, ingichka, yo‘g‘on va ularning ba’zilarida o‘zak (sterjen) qismining po‘stida (chexol) va h.k.larida bir necha dona fibrillarni kuzatiladi. Albatta faglarni ham hozirgi kunda yangi ochilgan sferasimon, ipsimon va boshqa shaklga ega vakillari mavjud bo‘lishi mumkin.

v) Odam va hayvon viruslarining shakllariga keladigan bo‘lsak, ularni ko‘pchiligi sferasimon, oddiy va murakkab tuzilishga ega zarrachalar bo‘lib, ularni qobiqli va qobiqsiz, qobiqlarida har xil ko‘rinishdagi o‘sintiali yoki o‘sintasiz shakllilari, do‘ngliklar bo‘ladi. ularni tuzilishlari “Odam va hayvon viruslari va kasalliklari” bobida keltiriladi (Illova, 15-rasm).


g) Amyobaldan ajratilgan mimiviruslar morfoloyiyasi birinchi marta 1992 yili *Acanthamoeba polyphaga* amyobasidan (APMV) ajratib olindi va mazkur amyoba sharafiga shu nom berildi. Organizmni *Bradfordcoccus* deb amyoba ajratilgan rayonning nomi bilan atashdi (Bredford, Angliya). 2011 yil oktyabrgacha bu virus yagona virus hisoblandi. Ammo shu yili undan yirikroq virus **Megavirus chilensis** ochildi. **Mimivirusni** diametri 500 nm bo‘lgan bo‘lsa megavirusniki undan ancha kattaligi aniqlandi.




4-rasm. Mimiviruslar morfologiyasi. Mimiviruslarni elektron mikroskopda ko‘rinishi



5-rasm. Beda mozaikasi virusi,E (Ilova,13)



6-rasm. Gripp virusining elektronmikrofotografiyasi.



**7-rasm. OITS- virusining elektronmikrofotografiyasi.
Kattalashtirilishi 50000 X.**

To‘g‘nag‘ichsimon (kolbasimon) viruslar - bakteriofaglarning T-guruhi vakillari (T-1, T-2) ham murakkab viruslar guruhiga kirib, virus zarrasida ikki morfologik qism - bosh va dum qismi borligi bilan harakterlanadi.

Virus zarrachalarining o‘ziga xos tuzilishi uning asosiy funksiyasi - o‘ziga o‘xhash zarrachalarni hosil qilish vazifasini bajarish imkoniyatini beradi. Nuklein kislotasi virusining genetik funksiyasini bajarsa, oqsil qismi nuklein kislotani tashqi muhitdan to‘la muhofaza qilib, virus zarrasining avtonomligini ta’minlaydi va uning turg‘unligini oshiradi.



**8-rasm. T-2 bakteriofagining elektron
mikrofotografiyasi**

5.2. Virus nukleoproteidining o‘lchamlari

Viruslarning hujayradan tashqaridagi holati, ya’ni virionlari har xil morfologiyaga ega ekanligini yuqorida ko‘rib o‘tdik. Ularning o‘lchamlari ham jadvalda keltirilganidek xilma-xildir va ular nanometrlar bilan o‘chanadi.

Viruslar ham ma'lum muhitda o'z morfologiyasi va uning barcha xususiyatlarini (yuqumliligi, antigen strukturasi, sedimentatsiya koeffitsI.E.Nti, I.E.N. va h.k.) optimal ravishda saqlaydi. Quyidagi jadvalda viruslarni o'lchamlari haqida **tayoqchasimon yoki ipsimon viruslar, sferasimon, batsillasimon** viruslarning o'lchamlari keltirilgan. Jadvaldan ko'rinaldiki TMV ning uzunligi 300 nm va eni 18 nm ni, kartoshkani X-virusini uzunligi - 450nm, eni - 13 nm, qant lavlagini sariq virusini uzunligi 1200 nm va eni – 10 nm ni tashkil qiladi. Uchchala virus ham RNK va oqsildan iborat, ammo ular har xil o'simliklarni kasallantiradi, ularni birinchisi qattiq, oson sinuvchan, mo'rt zarracha, qolgan ikkita virusni uzunliklari TMV nikidan 1,5 – 4 barobar uzun, ammo ularni eni ancha ingichka, shu sababli bo'lsa kerak, ular oson egiluvchan, zarrachalari bir-biri bilan matashuvchan va bukiluvchanlik xususiyatlariga ega bo'ladilar.

11- jadval

Har xil shaklli viruslarning o'lchamlari (1)

Virus zarrachalari	O'lchami (nm)
Tayoqchasimon yoki ipsimon viruslar	
Tamaki mozaikasi virusi	300x18
Kartoshkaning X-virusi	450x13
Qand lavlagi sariq virusi	1200x10
Sferasimon virus zarrachalari	
Bodring mozaika virusi	30
Arpa sariq pakana virusi	25
Tamaki nekrozi virusi	26
TupHeps sariq mozaikasi virusi	28
Gulkaram mozaikasi virusi	50
Quturish virusi	110—120
Qoramol chechagi virusi	225—305
Poliomielit virusi	27
YAshchur(oqsim) virusi	20—32
Bakteriofaglar	
boshchasi	47—104
dumi	10—225
Batsillasimon shakldagi zarrachalar	
Beda mozaikasi virusi	58X18+52x18+42X1
Kartoshka sariq pakana virusi	8 380x75

Sferasimon viruslarga nazar soladigan bo'lsak, ularni bipHecha barobar mayda, barchasini diametri 20-305 nm ni tashkil qiladi. "Quturish virusi" va "Qoramol chechagi virusi"dan boshqalarini diametri 30-50 nm dan oshmaydi. Ular minimal viruslarga kirib, tarkibida oqsil va nuklein kislotadangina (DNK yoki RNK) iboratdir.

Batsillasimon shakldagi zarrachalarga kiruvchi – “Beda mozaikasi virusi” ni o‘lchamlariga e’tibor beradigan bo‘lsak, uning zarrachasi uch xil tipdagi zarrachalardan (**58X18+52x18+42X18**) iboratligi va ularni o‘lchamlari ham bir-biridan farqlanishini ko‘rish mumkin.

Jadvalda keltirilgan viruslarni eng uzuni “Qand lavlagi sariq virusi” - 12000x10nm bo‘lsa va eng kichigi yashchur (oqsim) virusidir - 20—32 nm .

Jadvaldagagi viruslarni DNK yoki RNK tutuvchi viruslar ekanligi ma’lum. Ko‘pincha RNK tutuvchi viruslarni ikosaedr tipida tuzilganlarini ipsimon yoki tayoqchasimon zarrachalari bilan nuklein kislota miqdorini solishtirib ko‘rilsa, tayoqchasimon va ipsimonlarida 5-7 %, sferasimonlarida esa bu miqdopHi 20% atrofida ekanligini ko‘rish mumkin

5.3. Viruslarni strukturasi va molekulyar tuzilishi (1; 65)

Viruslarining tuzilishi va tarkibi. O‘simlik viruslarining ko‘pchiligi sfera yoki tayoqcha shaklidagi oqsilli qobiq va uning ichida joylashgan nuklein kislotadan iborat bo‘lib, ularning tarkibidagi nuklein kislota miqdori 15—45% atrofida, spiral simmetriyali viruslarda 5%, batsillalarga o‘xshashlarida 1% ga yaqin; ba’zi vakillarida 20% ga yaqin lipidlar ham uchraydi. Bulardan tashqari virus kristallarida 50% ga yaqin suv ham bo‘ladi.

D.I. Ivanovskiy birinchi bo‘lib, tamaki mozaikasi virusining mozaika alomati bor barglari hujayrasida virus **kristallarini** kuzatgan (Ilova, 16-rasm). Ular erituvchilarda yaxshi erish xususiyatiga ega, ularni kasallangan hujayradan amorf holda ajratib olish mumkin va qaytadan kristallarini hosil qilish ham mumkin. Har bir kristall millionlab virus zarrachasidan (ba’zan boshqa viruslarda virus-spetsifik oqsillar ham bo‘lishi mumkin) iborat bo‘ladi.

Mazkur kristallarni hosil qilgan tamaki mozaikasi virusi zarrachasini ustki qavati oqsildan tashkil topgan. Uni kapsida deb atalib, ular kapsomerlardan tashkil topgan. Har bir virusdagi kapsomerlar soni doim bir xil bo‘ladi (masalan, poliomielit virusida 32 ta, tamaki mozaikasi virusida 2130 ta subbirlik mavjud). Kapsida bilan o‘ralgan nuklein kislota **nukleokapsida** deb ataladi. Ba’zi kapsidalar ustidan qobiq bilan ham o‘raladi, bu qobiq **peplos** deb atalib, u **peplomerlardan** iborat bo‘ladi. Ba’zi viruslarda peplos virus oqsilidan iborat bo‘lsa, boshqalarida esa hatto lipidlar, glikoproteidlar va fermentlar ham uchraydi.

1955 yilda X. Frenkel - Konrat va R. Uilyams tamaki mozaikasi virusini RNK sini ajratib oldilar va uni tamaki o‘simligiga yuqtirilganda o‘simlikda mozaika alomatini kuzatdilar va unda yangi virus zarralari sintezlanganini **isbotladilar**, oqsilining molekulyar massasi 18000 Da bo‘lib, 158 ta aminokislota qoldig‘idan iborat bo‘ladi. Virusning oqsil qobig‘i birxil shakldagi subbirliklardan tashkil topadi. Oqsil qobiq ichida esa 2.10^6 Da molekulyar massaga teng RNK si bor. Tamaki mozaikasi virusi oqsil va RNK dan iborat bo‘lib, uni molekulyar massasi 40×10^6 Da ga teng.

Odam va hayvon viruslari ichida RNK li yoki DNK lilari uchraydi. Masalan, poliomielit virusi bir molekula RNK va oqsildan iborat bo‘lsa, gripp

virusi 8ta RNK, oqsil, lipid va uglevodlardan iborat. Gripp virusida fermentlar topilgan. Bu virus eritrotsitlarga adsorbsiyalanib agglyutinatsiya reaksiyasi yo‘qolishiga sabab bo‘ladi. Bunda eritrotsitlarga viruslardagi **neyraminidaza** fermenti ta’sir etadi. Bakteriofaglarning dum qismida o‘z xo‘jayini bo‘lgan bakteriyaning, ya’ni *Echerichia coli* ning hujayra po‘stini eritadigan **lizotsim** fermenti topilgan.

Virion shaklida viruslar noqulay faktorlarga ancha chidamli bo‘ladilar. Masalan, kartoshka o‘simligining “U-virusi” pH - 4,5 da inaktivatsiyaga uchrasa, tamaki o‘simligining virusi hatto pH - 2 dan past bo‘lsa ham chiday oladi, virionlarning temperaturaga chidamliligi pH ga va virusning shtammiga ham bog‘liq. Masalan, tamaki mozaikasi virusining “Qozoq shtammi” pH - 7 bo‘lganda 82°Cda parchalansa, “tomat shtammi” 96-98°S issiklikdagina aktivligini yo‘qotadi, eng chidamli bo‘lgan no‘xatning S-1 virusi **108°Cda** qisman inaktivatsiyaga uchraydi.

Ko‘pchilik viruslar past temperaturaga ham chidamli bo‘ladi. Masalan, gripp virusi - **70° S da 6 oy**, psittakoz virusi bir yilgacha chidasa, xona temperaturasida bir necha kun ichida nobud bo‘ladi.

Ko‘pchilik viruslarni juda tez vakuumda quritilsa, uzoq muddat chidamli bo‘ladi. Masalan, **ensefalit virusini vakuumda quritib besh yil** saqlash mumkin. Lekin ultrabinafsha nurlar viruslarga salbiy ta’sir etadi, ularni yuqumliliginini pasaytiradi, ko‘proq muddat ta’sir qilinsa butunlay yo‘qotadi. 1935 yilda amerikalik olim Stenli birinchi bo‘lib tamaki mozaikasi virusini **sof preparatini** olish va viruslarni kimyoviy va fizikaviy usullar bilan tekshirish mumkin ekanligini aniqladi. Fizikaviy va kimyoviy usullarni qo‘llanish esa, o‘z navbatida, viruslarning hajmi, shakli hamda virus zarrasining molekulyar qurilishi haqida ko‘pgina ma’lumotlar berdi. Viruslarga tashqi faktorlarni, kimyoviy, fizikaviy va boshqalarini ta’siri, mexanizmi, ketadigan o‘zgarishlar haqidagi ma’lumotlarni **Metyuzdan (.....) batafsil o‘qish mumkin.**


Viruslarning o‘lchamini aniqlash uchun har xil usullardan foydalaniladi. Ulardan biri viruslarni teshiklarining kattaligi, avvaldan ma’lum kallodiy pardalari orqali o‘tkazish yo‘li bilan aniqlash bo‘lsa, ikkinchisi - yuqori tezlik bilan (bir minutda 30-60 ming marta) aylanuvchi sentrifugalarda, virus zarralarini cho‘ktirish yo‘li bilan aniqlashdir. Bir necha ming marta katta qilib ko‘rsatish qobiliyatiga ega, elektron mikroskopning kashf etilishi, virus zarrasining kattaligi, formasi va nozik qismlarini ko‘rish va virus zarrasining tashkil topishi haqida ma’lumot olish imkonini berdi.

Agar viruslar murakkabliliga qarab, bir qatorga joylashtirilsa, ular jonsiz organik materiya bilan jonli bir hujayrali organizmlar orasidagi bo‘sh joyni egallaydi. Bu qatorda, oddiy va murakkab viruslar bilan birga, xlamidozoolar ham turadi. Xlamidazoolarda, xuddi hujayrali organizmlardagi kabi, nuklein kislotaning ikkala tipi uchraydi, bu guruhning eng oxirida rikketsiy turadi. Rikketsiyalar viruslar bilan bakteriyalar orasida turuvchi organizmlardir. Ular sintetik apparatlarining yo‘qligi va hujayrada parazitlik qilishi bilan viruslarga

yaqin bo'lsa, morfologiyasi, ko'payishi, kimyoviy tuzilishining murakkabligi bilan bakteriyalarga yaqin turadi.

Hozirgi vaqtida fizik - kimyoviy, fizika va immunokimyo metodlari yordamida viruslarning nozik strukturalari o'r ganilmoqda. Viruslar morfologiyasi va ultrastrukturalarini o'r ganishda, ayniqsa elektron mikroskop muhim rol o'y naydi. Tadqiqot natijalaridan ma'lum bo'lishicha, etilgan virus zarrachalari - virionlarini asosan ikki turga: **oddiy va murakkab viruslarga bo'lish mumkin deb yuqorida aytilgan edi.** O'z navbatida oddiy virionlarning ikki tipi mavjud bo'lib, bulardan birinchisi sferasimon, ikkinchasi esa tayoqchasimon viriondir. Tayoqchasimon virionlar o'z navbatida tayoqchasimon va ipsimon viruslarga bo'linadi.

1.Oddiy viruslarning tuzilishi (Tamaki mozaikasi virusining tuzilishi misolida). Bu virus ilk kashf etilgan virus bo'lib, oddiy viruslar guruhiga kiradi. U boshqa viruslarga nisbatan mukammal o'r ganilgan. Bu virusning tayoqchasimon shaklga ega ekanligi 1933-yilda amerikalik olimlar Takaxashi va Roulinzlar tomonidan, sog' va kasallangan o'simlik shiralarini solishtirib o'r ganish asosida aniqlangan. Keyinchalik Stenli va boshqa olimlar tomonidan tamaki mozaikasi virusining (TMV) sof preparatini o'r ganib, virusning uzunligi **300 nm va eni 18 nm**, molekulyar massasi esa **40 000 000 D** ekanligini aniqlashdi. TMV tayoqchasimon shaklli bo'lib, uzunligi uni enidan **17 marta katta**. Oqsil qavati 2130 subbirliklardan – peptid zanjirlaridan tuzilgan. Subbirliklar virus o'qi atrofida spiral simmetriya bo'y lab tartibli joylashgan (9-rasm, 1, 2). Oqsil hamda nuklein kislota har tomonlama o'r ganilib, bu virus tarkibida molekulyar og'irligi bir hil (**18 000**) oqsil va molekulyar og'irligi **2 000 000 bo'lgan nuklein kislota** borligi aniqlandi. Nuklein kislota virus oqsili bilan muhofaza qilinadi.




9-rasm. Tamaki mozaikasi virusining tuzilishi:

1-virion; 2-virionning ultrastrukturasi; 3-oqsil subbirligi; 4-RNK; 5-virionning bir qavatida joylashgan subbirliklar (1).

Subbirliklarni joylanishi shunday mustahkamki ular orasida joylashgan RNK ribonukleazalardan to‘la muhofazalangandir.

Virus zarrachasining 95% oqsil, 5%ni esa nuklein kislotasi tashkil qiladi. Ammo, nuklein kislotasi miqdor jihatidan kam bo‘lsada, virus zarrachalarining xususiyati unga bog‘liq. Agar virus zarrachalaridan nuklein kislotalarini kimyoviy yo‘l bilan ajratib olib, uni sog‘lom tamaki bargiga yuqtirilsa, sog‘ tamakida xuddi butun virus zarrasi yuqtirilgandek, kasallik alomatlari ko‘rinadi. Sog‘lom tamaki bargiga virus oqsili yuqtirilsa, hech qanday kasallik alomatlari kuzatilmaydi. SHunga qaramay kasallantirish jarayonida oqsil ham ma’lum rol o‘ynaydi. U nuklein kislotani tashqi muhitdan muhofaza qilish bilan bir qatorda kasallantiradigan hujayra bilan virus orasidagi munosabotlarda muhim ahamiyatga ega.

2. Murakkab viruslarning tuzilishi (Gripp virusining sxematik ko‘rinishi misolida). Gripp virusi (virioni) oqsil pardasi (10-rasm, 5) (**kapsidi**), ichidagi nuklein kislotasi (10-rasm, 4) mavjud bo‘lib, ularni birgalikda **nukleokapsid deyiladi**. Kapsidni tashkil qiluvchi elementlar **kapsomer** deyiladi. Kapsomerlar bir xil polipeptid zanjirchalaridan tuzilgan agregatlardir. Nukleokapsida simmetrik tuzilgan ichki nukleoproteid zanjiri bo‘lib, u o‘z navbatida bir yoki bir necha oqsil parda bilan o‘ralgan. Virion “*peplos*” deb ataluvchi qavat bilan birga etilib, hujayra membranasidan o‘tish davrida o‘raladi. Chechak, uchuq va miksoviruslarda peplos qavati bor. Peplosni tashkil etuvchi elementlar peplomerlar deb atalib, ular hujayraga xos oqsildan tuzilgan bo‘ladi.



10-rasm. Gripp virusining sxematik diagrammasi:

1-gemoagglyutinin; 2-neyraminidaza fermenti; 3-lipid qobig'i; 4-RNKning polinukleotid zanjiri; 5-oqsilli qobig'i.

OITS virusining tuzilishi. 1983-yili L. Montane OITVni retroviruslarga kirishini aniqladi. Retroviruslar lipid qobiqqa ega bo'lib, **genomi RNK** tipida. Virion tarkibida "**qaytalama transkriptaza**" fermenti bo'lib (hozirgi kunda yana ikkita ferment borligi aniqlandi), u virus RNK sidan DNK nusxalar (k-DNK) sintez qiladi va kasal odam hujayrasi genomiga joylashadi.

Virion sferik shaklda bo'lib, ancha murakkab tuzilishga ega, markazida virus genomiga ega **nukleoid va ichki oqsillar (r-7, r-9)** mavjud. Virus genomi esa ikki mustaqil zanjirdan iborat. Virus nukleoidi oqsil kapsulasi bilan o'ralgan. Virionning tashqi qavati ikki qavatli **lipid membranadan** iborat bo'lib, bu qavatga virus hujayradan chiqish jarayonida o'raladi. Virion tarkibida yana membrana bilan bog'liq **glikoproteid gr-41** (uglevod qismining molekula massasi 41 kD ga teng) bo'lib, u tashqi glikoproteid **gr-120** (virion o'simtalari tarkibidagi glikoproteid) bilan bog'langan. O'simtaning balandligi 9 nm va diametri 15 nm.

Elektron mikroskopda OITV buyraksimon shaklga ega bo'lib, zarrachaning markazida **o'roqsimon yadrosi** bor. OITV ning diametri 100 - 140 nm. Virus zarrachalari har xil kattalikda bo'lishi mumkin (85 - 200 nm).

Elektroforez yordamida OITV tarkibida molekula massasi 24 - 25 (r - 24), 16-18 (r-16), 12-13 (r-12) bo'lgan oqsillar borligi aniqlandi. Demak, gr -120 virion tarkibiga kiradi, gr-41 esa ikki qavatli lipid qobiqni teshib o'tib, tashqi tomonidan gr-120 bilan birikadi, ichki tomonidan halqa uchastkalarga "virus skeleti" mahkamlangan bo'ladi.

Viruslarni ontogenezida ikki bosqichni – hujayradan tashqaridagi virus va hujayra ichidagi siklni farqlanadi va shunga mos ravishda virusni ikki formadagi hayot faoliyati – virion va vegetativ shaklda bo'lishi mumkin.

Virion o'z arxitekturasiga ega, virus nuklein kislotasini saqlash va sezgir hujayraga o'tkazish xususiyatiga egadir. Uning ultrastrukturasini tushunish uchun **quyidagi terminlar** nomenklaturasi ishlab chiqilgan:

Oqsil subbirligi - ma'lum shaklda joylashgan polipeptid zanjir birligi.

Struktura birligi (elementi) - yuqoriroq darajadagi oqsil ansambl bo'lib, birqancha kimyoviy bog'ga ega bo'lgan o'xshash - identik yoki ularning aksi bo'lgan subbirliklardan tashkil topgan.

Morfologik birlik - kapsid sathidagi elektron mikroskopda ko'rinaligan o'simtalar guruhi (fanda **klaster** deb ataladi). Odatda beshtadan (pentomer) yoki oltitadan (geksomer) tuzilgan klasterlar kuzatiladi. Bu hodisa **pentamer-geksamer klasterizatsiya** deb nom olgan. Bu morfologik birlik kimyoviy ahamiyatli bo'lsa unga kapsomer terminini ishlatiladi.

Kor (sore) - nuklein kislotaga bevosita birikib turgan ichki oqsil qobiqdir.

Nukleokapsid – oqsil va nuklein kislotani kompleksi bo'lib, genomni joylashtirish shaklidir.

Superkapsid yoki peplos – hujayra lipid membranasidan va virus oqsilidan tashkil topgan virion qobig‘idir.

Matriks – superkapsid va kapsid orasida joylashgan oqsil qismdir.

Peplomer va tikanlar – superkapsidni sathidagi do‘ngliklar yoki o‘sintalar.

YUqorida aytilgandek viruslarni o‘lchami o‘ta kichik bo‘lib, ular nanometrлар bilan o‘lchanadi va o‘lchamlari har hil kattalikda bo‘ladi. Eng kichik mayda virus o‘lchami 20 nm (parvoviruslar, pikopHaviruslar, Q β fagi), o‘rtacha kattalikdagi viruslar - 100-150 nm (adenoviruslar, koronaviruslar). Eng katta zarrali viruslar - chechak, ospovaksina viruslarini kattaligi 170-450 nm va mimiviruslarniki esa undan ham kattadir (diametri 500 nm). Ipsimon o‘simlik viruslarni uzunligi esa 450 (kartoshkani X-virusi), 550 nm (kartoshkani U virusi), 1200nm (lavlagini sariq mozaikasi virusi), hamda mimi-, mega-, pandora va boshqa viruslar) va undan ham ortiq bo‘lishi mumkin (2000nm). Demak, Vira olami vakillari ham boshqa prokariot, eukariot mikroorganizmlar kabi turlituman morfologik shakllarga ega. Bir-biridan qobig‘i orqali tubdan farqlanadigan ikki xil virus zarralari mavjud, ya’ni qobiqli virus zarralari va qobiqsiz virus zarralari.

Qobiqsiz virionlarni **uchta morfologik tipi** mavjud – **tayoqchasimon (ipsimon), izometrik va to‘g‘nag‘ichsimon yoki kolbasimon.**

1.Oqsil subbirliklar nuklein kislotaning atrofida **spiralsimon** davriy ravishda tartib bilan o‘ralib joylashadi va **nukleokapsid** deb nomlanadigan strukturani hosil qiladi. Bunday oqsil nuklein kislota bilan tartibli va davriy joylashib - munosabatda bo‘lib, tayoqchasimon va ipsimon virus zarralarini hosil bo‘lishiga olib keladi.

2. Nuklein kislota oqsil qobiq bilan bog‘lanmagan bo‘ladi (ba’zi hosil bo‘lish imkoniyati bo‘lgan **kovalent bog‘lar** o‘ta harakatchan bo‘ladi). Bunday prinsipdagи munosabatda **izometrik** (sferasimon) virus zarrasini hosil bo‘lishini ta’minlaydi

3.To‘g‘nag‘ichsimon virionlar differensiallashgan strukturaga ega bo‘lib, qator diskret strukturalardan tashkil topadi. Virionni asosiy struktura elementlari bu izometrik boshcha va dum qismidir. Virus turiga qarab virion strukturasida **mufta, bo‘yin qism, yoqa, dum sterjeni, dum po‘sti (qobig‘i), bazal plastinkasi va fibrillar** bo‘ladi. Eng murakkab differensiallashgan strukturani tashkil bo‘lishi T-juft bakteriofaglarda kuzatiladi, ularda yuqorida zikr etilgan qismlarni barchasi uchraydi. Ularni virionlari va ularni qismlarida ikki tipdagи simmetriya (biror subbirlikni o‘z qismini qaytarish xususiyati) – spiral va ikosaedrik simmetriya uchraydi. Agar virion qismlari xar xil simmetriyaga ega bo‘lsa virus zarrasi ularni **kombinatsiyasi asosidagi** tip – aralash tipga ega simmetriya bo‘ladi deyiladi(Atabekov).

Makromolekulalarni spiralsimon joylashishi quyidagicha parametrlarni o‘z ichiga oladi: spiralni bitta to‘la aylanasidagi subbirliklar soni - u , (butun son bo‘lishi shart emas), spiral o‘qi bo‘ylab muntazam joylashgan subbirliklar orasidagi masofa - r ; spiral odimi - R ; $R = ru$. Spiral simmetriya asosida tuzilgan

viruslarga misol qilib tamaki mozaikasi virusini ko'rsatish mumkin. Bu virusni nukleokapsidi 2130 ta bir xil subbirliklardan tuzilgan, spiral aylanasiga 16 1/3 ta subbirlik to'g'ri keladi, spiral qadami esa 2,3 nm ga teng.

Ikosaedrik simmetriya – ayrim subbirliklardan yopiq qobiq yasashda eng samarador simmetriya hisoblanadi. Ikosaedrik simmetriya elementlari - simmetriya va shakldir. Bu holatda simmetriya – burilishlar to‘plami, ya’ni aylanib har bir ob’ekt o‘zini - o‘zi qoplashidir. Shakl (forma) kubsimon ob’ekt sathini umumiy ko‘rinishidir (tetraedr, oktaedr, dodekaedr va h.). Ikosaedr – 12 cho‘qqili, 20 tomonli, 20 qobirg‘aga ega bo‘ladi. Ikosaedr hosil qiladigan eng kichik struktura elementlari 60 ga tengdir, ammo murakkab tuzilgan viruslarni kapsidi $60n$ struktura elementlaridan iborat bo‘ladi. Struktura elementlarini ikosaedr ko‘rinishida joylashishi uchun triangulyasiya raqami (T) kiritilgan. Bu son subbirliklar sonini 60 ga bo‘linganiga teng. M., tamaki nekrozi virusi, bakteriofag φX174 da T = 1, ko‘pgina o‘simlik viruslarida T = 3 ga teng (180 ta subbirlik), Sindbis virusida T = 4 (240 ta subbirlik), rotavirusda T=13 ga (780 ta subbirlik) teng.

Ko‘pgina yirik ikosaedrik viruslar kapsidining zinch joylashishini ta’minalash uchun kichik o‘lchamdagisi strukturalar asosida subtriangulyasiyalarni shakllantiradi, bu holatda ikosaedr tepasida har xil tipdagi subbirliklar bo‘lishini taxmin qilinadi, bu o‘z navbatida ular kontaktda bo‘lgan mahalliy joylarda simmetriya buziladi. Bu hollarda virus zarrasidagi haqiqiy simmetriyadan va shu virusga mos bo‘lgan triangulyasiya raqami T da farqlanish kuzatiladi. Bu prinsipda tuzilgan eng sodda tuzilgan kapsid papovaviruslarga xosdir. Ularni kapsidi pentamerlarni tashkil qilgan, har biri uchta oqsil sub’edinitssidan iborat bo‘lgan 72 ta morfologik birlikdan tuzilgan, virus zarrasi esa T=7 ga teng struktura turiga ega bo‘ladi.

Adenoviruslarda esa virionning ancha murakkab strukturasi kuzatiladi, uning kapsidi ansamblar prinsipda tuzilgan ikosaedrik simmetriyaga ega va T=25 struktura turi kuzatiladi. IkosaedpHi cho‘qqisida klaster-pentonlar bo‘lib, ularning asosida fibrilar - uchi yo‘g‘onlashgan o‘zaklar mavjud. Kapsidni qolgan strukturasi geksonlardan tuzilgan. Geksonlar va pentonlar adenoviruslar kapsidining tashkil qiluvchi eng oddiy strukturachalaridir. Adenoviruslar tarkibiga hammasi bo‘lib 12 ta penton va 240 ta gekson asoslari kiradi. Agar virionni yumshoq sharoitda dissotsiatsiyalansa 9ta geksondan iborat kapsomerlar hosil bo‘ladi.

YAnada murakkab tuzilgan virion bu T juft bakteriofaglarida kuzatiladi. Ularda simmetriya tiplari kombinatsisi kuzatiladi. T-4 bakteriofagini bosh qismi ikosaedrik simmetriya tipida, dum qismi sterjenining qisqargan holatdagi qobig‘i spiral simmetriya tipida tuzilgan. Umuman T 4 bakteriofagining virioni har xil tipdagi simmetriyalar kombinatsiyasi asosida tuzilgan.

Qobiqli virionlarning tuzilishi. Qobiqli va qobiqsiz viroionlar har xil tayoqchasimon, ipsimon va izometrik shakllarda aniq chizilgan g‘ishtsimon ko‘rinishdagi chechak virusidan tortib pleyomorf uchuq va koronaviruslar kabi bo‘lishi mumkin.

Virion qobig'i (peplomer, superkapsid)ning tuzilishini ko'radigan bo'lsak, u hujayradan kelib chiqqan (sitoplazmatik membrana, endoplazmatik retikulyum yoki Goldji apparati, yadro membranasi) va membranaga joylashgan virus glikoproteididan tuzilgandir. Bu qobiqqa virus hujayra membranasidan kurtaklanayotgan jarayon vaqtida ega bo'ladi.

Membranadagi virus glikoproteinlari virion tashqarisidagi turtib chiqqan, tikon yoki peplomerlarni shakllantiradi. Ular har xil darajada tartibga ega bo'lib bitta oqsildan (qizamiq virusidagidek) yoki ikki har xil virus oqsilidan (gripp), ular monomer oqsildan yoki dimer va trimerlardan hosil bo'lishi mumkin.

SHunday qilib, virionning strukturasini tashkil bo'lishi ikki xil tavsiflanishi mumkin – qobig'ini bor yo'qligi va kapsidning simmetriya tipi. Qobiqli va qobiqsiz virionlar ikosaedrik, spiral va ularni kombinatsiyasi asosidagi simmetriyada bo'lishi mumkin.


5.4. Spiral simmetriyaning o'ziga xosligi spetsifikligi va TMV ni strukturasi

Hozirgi kungacha to'plangan eksperimental natijalariga asoslanib oddiy viruslar zarrachalarini simmetrik qurilgan deyish mumkin. Kristallografiyaga biroz murojaat qilib quyidagilardan foydalanib viruslarni qurilishini tushuntirish mumkin. Simmetrik jismlarni (tanalarни) makonda joylashishini fikran o'zgartirish va yana shu erga joylashtirish mumkin. Biror figurani joyini o'zgartirib yana o'z joyini egallashi simmetrik o'zgarishlar deyiladi. Bunga o'xhash o'zgarishlarni uch xili mavjud: o'z o'qi atrofida aylanishi - **rotatsiya; translyasiya** - figurani to'g'ri chiziq bo'ylab joy o'zgartirishi; bir vaqtin o'zida figurani to'g'ri chiziq bo'ylab joy almashishi; figurani liniya bo'ylab joyini o'zgartirishi va bir vaqtin o'zida aylanishi - **rotatsiya va translyasiya**; tekisilik bo'ylab aksini hosil bo'lishi (ko'zgudagi figurani aksiga o'xhash) va boshqalar. Biror elementni liniya bo'ylab joylashishida **translyasion simmetriya** bo'ladi. **Rotatsion simmetriya bilan translyasion simmetriyani kombinatsiyasi parmani o'z o'qi atrofida aylanganidek spiralni hosil** qiladi. Rengenostruktura analizi yordamida aniqlanishicha tayoqchasimon va ipsimon shaklli virus zarralari translyasion-rotatsion simmetriya asosida tuzilgan, ya'ni ular virus o'qi atrofida spiralsimon joylashgan substrukturalardan tuzilgan. Rengenostruktura analizi yuksak tartibda tuzilgan kristallarni o'rganishda qo'l keladi. Ammo TMV ni zarralari o'simlik hujayrasidan tashqarida uch o'lchamli kristallarni hosil qilmaydi. Uni kristallarini *in vitro* olish uchun qilingan harakatlar natijasida faqat mayda (40 x 0,4 mk) kristall o'qi bo'ylab bir-biri bilan parallel joylashgan ignasimon kristallarni – parakristallarni kuzatiladi. Parakristallarni strukturasini xarakterli xususiyati shundan iboratki, ularni joylanishi faqat ikki o'lchamligina bo'ladi, xolos. Uchinchi o'lchamni yo'qligini virus zarralarini to'g'ri joylanishida virus zarralarini uzunligini har xilligi natijasi deyiladi. Ammo TMV preparatlarini **yuqori konsentratsiyasida ularni anizotrop** bo'lishi, ya'ni ularni **suyuq kristal xususiyatiga** ega bo'lishi kuzatiladi. YUqori konsentratsiyada virus zarralarini "xaotik" orI.E.Ntatsiyalanishiga joyni "torligi " sababli zarrachalar bir-biri bilan

parallel joylanishiga “majbur” bo‘ladi va suyuq kristallar hosil qiladi. TMV ni rengenostruktura analizi qilinganda ularni maxsus gel yordamida ingichka kapillyardan orqali so‘rib olinadi va ularni bir xil yo‘nalish tomon mo‘ljallab yo‘naltiriladi. Rengenostruktur analizida individual oqsil molekulalaridan tashkil topgan subbirligi virus zarrasi o‘qi atrofida spiral bo‘ylab joylashadi. Subbirliklar shunday joylashadilarki zarrachani ichida erituvchi bilan to‘lgan bo‘sh kanal paydo bo‘lib qoladi. Spiral qadami diametri 40 A lik ichki bo‘sh kanal atrofida 23 A lik spiral qadami hosil bo‘ladi. Virus zarrasining har bir spiral xalqasida 16,34 ta subbirlik mavjud bo‘lib butun virus zarrasi bo‘ylab bir xildagi subbirliklardan tuzilgandir. Subbirliklarni “o‘xhashlik davri” spiralni uch aylanishida takrorlanadi va unda 49 ta subbirlik bor. Bu “o‘xhashlik davri”ni uzunligi 69 A ga teng, 1 A ga 0.710 subbirlik to‘g‘ri keladi. Demak TMV zarrasida $3000 \times 0,710 = 2130$ ta subbirlik mavjud. Virus oqsilini analizi uni 158 ta aminokislota qoldig‘idan tashkil topganligini, molekulyar massasi 17530 teng ekan. Spiral aylanasida 49 ta nukleotid 16,34 ta subbirlikga to‘g‘ri kelsa, oqsilni har bir molekulasi 3 nukleotid qoldig‘i bilan bog‘langandir.

Virus zarrasi ichida spiralsimon joylashgan, bitta nuklein kislota, uning tashqarisida esa 2130 subbirliklardan tashqil topgan oqsil parda bor. Oqsil subbirliklari ham virus zarrasi o‘qi atrofida spiralsimon bo‘lib shunday tartib bilan joylashganki, virus zarrasi ichida erituvchi bilan to‘lgan 40 A ga teng bo‘sh kanal mavjud. Subbirliklar ellipssimon bo‘lib ularni o‘lchami $70 \times 20 \times 23$ A. Virus o‘qidan 40 A uzoqlikda virus oqsilida virus RNK si joylashishi uchun 8A lik chuqurcha mavjud bo‘lib, u RNK ni tashqi faktorlardan to‘la himoya qiladi.

1960-yili tamaki mozaikasi virusining barcha aminokislolarining ketma-ketligi aniqlandi. Har bir virus oqsilini hosil qiluvchi 2200 ta subbirlik amino kislolarining ketma ketligi aniqlandi. Ularni har birini 158 ta aminokislota tashkil qiladi. Bu oqsil polipeptid zanjiri o‘z o‘qi atrofida spiral zanjir hosil qiladi. Bu zanjirda 16 ta aminokislota turi mavjud. 18 Asp, Aspn-asparagin kislotsi, asparagin 16, Glu, Glun-glutamin kislotsi, glutamin, 16 Ser-serin, 16 Tr-treonin, 14 Ala-alanin, 14 Val-valin, 12 Ley-leysin, 11 Apr-arginin, 9 Iley-izoleysin, 8 Pro-prolin, 8 Fen-fenilalan, 6 Gli-glitsin, 4 Tir-tirozin, 3 Tri-triptofan, 2 Liz-lizin, 1 Sis-Sh-sistein. (Raqamlar mazkur aminokislotani TMV oqsilida necha marta qaytarilishini ko‘rsatadi). Quyida mazkur virus oqsilini 158 aminokislota qoldiqlarini ketma-ketligi keltirilgan (Stenli, Velens, 1963).



Spiral viruslarni simmetrikligini asosi virus zarrasidagi subbirliklarni hammasi makonda bir-biri bilan ekvivalentlidir. 2130 ta subbirlikni (virus zarrachasini ikki uch tomonidagi subbirliklardan tashqari) har biri qo'shni subbirliklar bilan bir xildagi bog'lar bilan ulangan. Ekvivalentlik prinsipi sxemada tasvirlanganda subbirliklarni tekislikda joylashgan assimmetrik figuralar deb faraz qilinadgan bo'lsa, ularni mazkur tekislikda buraladigan bo'lsa, o'q atrofida joylashgan (silindrsimon simmetriya) tarkibida bir xil parallel assimmetrik subbirliklardan tashkil topgan silindrsimon struktura hosil bo'ladi (ABSDEF) yoki spiralsmon bo'lib bir o'q atrofida joylashgan silindrsimon struktura hosil bo'ladi. Ilova, 18-22rasm.

Albatta hamma subbirliklar bir-biriga to'liq o'xshash bo'lishi kerak. Ammo bu holat doimo ham bo'lavermaydi TMV ni Dalem shtammida spiral simmetriya asosida virus o'qi atrofida spiralsimon bo'lib subbirliklar joylashadi, ammo ba'zi subbirliklarni bir-biri bilan juft- juft bo'lib birlashishi umumiy zarrachani deformatsiyasiga olib keladi. Bunday strukturada barcha subbirliklar bir-biriga fazoviy ekvivalent bo'lmasdan kvaziekvivalentlik hodisasi kuzatiladi. Boshqa spiral simmetriyali viruslar haqida ma'lumotlar ancha kam.

Virus zarrasini dezintegratsiyasi

Virus zarrasini tuzilishi detallarini aniqlash va bilish uchun uni tarkibiy qismlarga bo'lish kerak bo'ladi. Viruslarni "dezintegratsiya" lash - tarkibiy qismlarga ajratish uchun uni konsentrangan mochevina detergenti bilan, kuchsiz ishqor bilan (pH 10-11), sirka kislotasi bilan (70%), fenol bilan va neorganik tuzlarni (1-2 M) konsentrangan eritmalari bilan ishlov beriladi.


Agar tamaki mozaikasi virusining toza preparatini karbonat – bikarbonat buferi (pH 10,0) bilan ikki sutka davomida dializ qilinsa virus nukleoprteidi 190 S lik substrukturalarga bo'linadi va degradatsiyaning tezligi temperatura, eritma ion kuchi, muhit pH va virus konsentratsiyasiga bog'liq bo'ladi.

Eng birinchi substruktura elementlaridan degradatsiya jarayonida kichik molekulali koeffitsentsimentatsiyasi 4-4,9 S (A-belok)lik oqsil ajraladi, eritmani pH 11,0, temperaturasi 5°S bo'lganda bu komponent 17,5 – 18 ming

molekulyar massali monomerlarga dissotsialanadi. Bu monomerlar bitta polipeptid zanjiridan tuzilgan bo‘lib 158 ta aminokislota qoldig‘idan iborat bo‘ladi.

Kaspani olgan natijalari asosida aytish mumkinki A-oqsil molekulasi siklik tuzilgan trimerdan tashkil topgan. Keyinchalik A-oqsili preparatida trimerlardan tashqari dimerlarni bo‘lishi tasdiqlandi. Ishqoriy degradatsiyani keyingi komponenti bu ettita subbirlikdan tuzilgan (geptamer), konstanata sedimentatsiyasi 8 S lik agregatlatlar topilgan (A-oqsil + geptamer) bloklar bo‘lib, ular virus korpuskulasidan ajralib chiqqandir. Yana bir stabil agregatlardan 34 subbirlikdan tuzilgan 18-22 S lik agregatni aytish mumkin. Bu agregatni o‘lchami elektron mikroskopda kuzatish imkonini beradi. Bu fragment disk shaklida bo‘lib, uni markaziy bo‘shliqqa ega, diametri TMV ni diametriga mos keladi. Bu fragment ikki yassi diskdan iboratdir. Har bir disk tarkibida 17 ta subbirlik mavjud. Bu “yarim-disklar” yo‘nalishlari bir-biriga teskari tomonga qaratilgandir. Demak, 18-22 S agregat “juft-disk” strukturasiga ega bo‘ladi. Ishqoriy degradatsiyada juft disklardan tashqari siklik fragmentlar ham ajraladi, ular 49 subbirlikdan tashkil topgan bo‘lishlari mumkin, ularni koeffitsentsimentatsiyasi 30S ni tashkil qiladi. Ularni molekulalari juft disklardan farqli o‘laroq spiralsimon joylashish pritsipiga amal qiladi. Bulardan tashqari degradatsiyada yanada kattaroq agregatlar ajraladi (130-170S). TMV ning degradatsiyasini o‘rganish uni A-oqsil trimerlari zarrachani bir uchidan ajrala boshlasa, undan keyin katta molekulalari agregatlar ajralaboshlaydi (Illova, 17-22-rasm).

Virus preparatiga qattiq ishlov berilsa zarrani ikki tomonidan oqsil ajrala boshlaydi, ba’zan zarrachani o‘rtasidan ham ajralishi mumkin.



11-rasm. TMV ning fenol bilan qisman ishlov berilishi natijasida virus zarrasidan subbirliklarni ajralib chiqqandan so‘nggi holatini elektron mikrofotografiyasi:

kattalashtirilishi — 250000. RNK ning oqsil subbirliklardan ajralib qolgan ipini ko‘rinishi, platina bilan changlatilganlarini va ajralib xolis qolgan uchastkalarini ko‘rinishi.

Virus oqsilini repolimerizatsiyasi (Ilova, 20-22-rasm)

A-oqsil neytral muhitda eruvchanlik, serologik xususiyatlarini saqlaydi va ma’lum sharoit yaratilganda tayoqchasimon shakldagi agregatlarni hosil qiladi. Ular RNK si yo‘q TMV ga o‘xhash bo‘ladi. Repolimerlangan oqsil proteazalarga chidamli bo‘ladi. Uni elektr maydonidagi harakati xuddi virusnikiga o‘xhash bo‘ladi, A-oqsilni ellektr maydonidagi harakati virusnikidan ancha farq qiladi. Oqsil molekulalarini spiralsimon joylashishida ba’zi zaryadlangan monomepHi ustida bo‘lgan zaryadli guruhlar spiralni shakllanishida yashirinadi (maskirovkalanadi). Shundan ma’lumki intakt TMV ni zaryadi A-oqsilini zaryadidan farqlanadi. RepolimepHi tarkibida RNK ni yo‘qligi uni stabilligini pasaytiradi.

TMV ning oqsil molekulasini repolimerizatsiyalanish fenomeni biologiyada juda noyob hodisadir.

Shunday qilib, toza virus zarrasini dezintegratsiya qilib uni molekulyar tuzilishini, olingan oqsil monomerlaridan o‘z-o‘zini tiklash prinsipida virus oqsillarini repolimerlarini olish mumkin. Bunda ular orasidagi farqlar va o‘xshashliklar haqida to‘la ma’lumotlarni bilish mumkin. (Ilova,18-20rasm).

? Savollar

1. Viruslarni morfologiyasiga asosan nechta guruhi bor?
2. Tayoqchasimon virus guruhlariga misollar keltiring va ta’riflang;
3. Ipsimon virus guruhlariga misollar keltiring va ta’riflang;
4. Sferasimon virus guruhlariga misollar keltiring va ta’riflang;
5. Ipsimon virus guruhlariga misollar keltiring va ta’riflang.
6. Tuxumsimon (cho‘zinchoq oval) virus guruhlariga misollar keltiring va ta’riflang;.
7. Kolbasimon virus guruhlariga misollar keltiring va ta’riflang;
8. Murakkab virus guruhlariga misollar keltiring va ta’riflang.
9. Har xil shaklli viruslarning o‘lchamlari o‘lchamlari va ularni qiyosiy tariflang va ularni qaysi birida prokariotlarni va viruslarni xususiyatlari mujassamlangan?
10. Gram musbat bo‘yaladigan viruslarni ochilishi va ularni gram bo‘yicha bo‘yalishi ulardagi qaysi moddani borligidan darak beradi?
11. Minimal yoki oddiy viruslarni tuzilishini tamaki mozaikasi virusi misolida tushuntirib bering.

12. TMV va uning tarkibmiy qismlarini (virionni, oqsil qismini, nuklein kislotasini molekulyar massalari)o‘lchamlari haqida ma’lumot bering.
13. Spiralsimon shaklli viruslar subbirliklarini o‘lchamlari qanday va ularda qanday noyob xususiyat bor?
14. Assimetrik figuralarni qanday qilib bir silindr atrofida joylashtirish mumkin va bundan qanday model sifatida foydalaniladi?
15. TMV ida nechta subbirlik bor va ular virus zarrasida qanday joylashadilar?
16. Virus rekonstruksiyasida virus uzunligini belgilovchi faktor bo‘lib nima xizmat qiladi?
17. Virus rekonstruksiyasi nuklein kislotasi ishtirokisiz amalga oshganda zarrachalarni qanday shakllari hosil bo‘ladi?
18. Virus oqsilini repolimerizatsiyasi deb nimaga aytildi?
19. Gibrid viruslar olish va uni amalga oshirish haqida ma’lumot bering.
20. Gibrid viruslar viruslarni yuqtirish jarayonlarida immunlik bar’eridan (to‘sig‘idan) o‘tishda qanday funksiyani bajaradi?
- 21.Ikosaedr yuzasida simmetrik ravishda nechta oqsil subbirligini joylashtirish mumkin?
- 22.Monomer subbirliklardan dimer, trimer, geksameric, disklarni va silindrsimon shakllarni hosil bo‘lishini tushuntirib bering.

6-bob. Viruslar bioximiysi

Viruslarni bioximiysi, kimyoviy va strukturaviy tuzilishi, virus va hujayra orasidagi munosabatning molekulyar mexanizmlari professorlar T.I.Tixonenko, I.G.Atabekov, V.I.A gol (1971) (1) larni MGU talabalariga o‘qilgan ma’ruzalarida va bu asosida chop etilgan to‘plam, o‘quv qo‘llanma va darsliklarida hamda jahon adabiyotida ko‘zga ko‘ringan virusologlarni viruslarni o‘rganishdan olgan oxirgi natijalari yangiliklari asosida va ularni ilmiy ishlari natijalari bilan umumlashtirilgan holdagi ma’lumotlari keltirilgan. Viruslarning irsiy materiali RNK yoki DNK molekulalarida mujassamlashgandir. Ularning DNK va RNKasi strukturasining o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Ularda umumiylklassifikatsiya: ikki zanjirli DNK va RNK, bir zanjirli DNK va RNK, xalqali, o‘ta spirallahashgan formalar uchraydi.

Viruslarga xos xususiyatlardan yana shuni ko‘rsatish mumkinki, virus nuklein kislotalarining birlamchi strukturasi ham o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Virus DNK strukturasining o‘ziga xosligi, ikki zanjirli DNKdagi halqali o‘rinalmashishlar va zanjir uchlaridagi nukleotidlar mo‘lligi (izbtochnost nukleotidov) uchraydi.

Minor asoslarni uchrashi (osnovanie), ularni sintezidagi fermentlari, ekstraqand qismini glyukozalanishi, metillanishi kabilar virusdarga xosdir.

Mazkur mavzu haqida so‘z yuritishdan oldin molekulyar biologiya (virusologiyada) viruslardagi sintetik jarayonni tushunishni osonlashtirishi va ishlatiladigan ba’zi ibora va atamalarni mazmunlarini bilib borish maqsadga muvofiq bo‘ladi degan niyatda quyidagi ma’lumotlarni keltirishni ma’qul topdik.

Transkripsiya - tirik hujayralardagi DNK matritsada amalga oshadigan ribonuklein kislotani biosintezidir. Bu - fundamental biologik jarayon bo‘lib DNK da 4 tipdagи monomer nukleotidlar ketma-ketligida yozilgan genetik axborotni realizatsiyasidagi birinchi bosqich. Transkripsiya fermentlar – DNKga qaram RNK-polimerazalar tomonidan amalga oshiriladi Transkripsiya jarayoni natijasida RNK ning DNK ga komplementar bo‘lgan polimer zanjiri sintezlanadi. Translyasiyaning mahsuli bo‘lib har xil funksiyaning bajaradigan 4 tipdagи RNK: 1) informatsiya (axborot) yoki m- yoki i- RNK si; 2) ribosoma RNKsi; transport RNKsi; 4) DNK replikatsiyasida xamirturush (zatravka) vazifasini bajaradigan RNK.

DNK ning transkripsiysi ayrim uchastkalar holatida sintezlanadi (ularga bir yoki bir necha gen kiradi (operon). RNK polimeraza fermenti DNK zanjirini bittasidagi shunday uchastkalarni (promotor) boshlang‘ich qismini “taniydi” va unga birikadi, DNK qo‘sh bog‘ini biri-biridan ajratadi va shu joyidan DNK bo‘ylab harakatlanib nusxa olaboshlaydi) hosil bo‘layotgan RNK ketma-ket monomer zvenolarni - nukleotidlarni bir-biriga komplementarlik prinsipida bog‘laydi. RNK polimerazani harakatiga qarab sintezlanib o‘sayotgan RNK zanjiri matritsadan ajralaboshlaydi, fermentni orqasidan qo‘sh zanjir qaytadan tiklanaboshlaydi. RNK polimeraza nusxalayotgan uchastkani (terminatsiyalovchi) oxiriga etgandan so‘ng RNK matritsadan ajraladi. DNK ning har xil uchastkalarini nusxalari hujayrani, organizmni o‘sish jarayonida maxsus

oqsillarga muhtojligiga, yashash sharoitini o‘zgarishiga bog‘liq bo‘ladi. Translyasiya regulyasiyasi mexanizmini yuksak o‘simliklarda o‘rganish molekulyar biologiyaning eng muhim vazifalaridan hisoblanadi.

Informatsiya faqat DNK dan RNK ga o‘tibgina qolmasdan buning teskarisi RNK adan DNK aga ham o‘tishi mumkin. Bu tipdagi translyasiya RNK tutuvchi o‘sma hosil qiluvchi viruslarda uchraydi. Ularni tarkibida hujayra virus bilan zararlangandan so‘ng virus RNK sini matritsa qilib komplementar DNK zanjirini sintezlaydigan ferment topilgan. Natijada, ikki zanjirli RNK-DNK gibridi, hamda bu o‘z navbatida DNK ga komplementar bo‘lgan ikkinchi DNK zanjiri hosil bo‘ladi. Paydo bo‘lgan boshlang‘ich RNK dagi barcha informatsiyani o‘zida mujassamlashtirgan ikki zanjirli DNK virus bilan zararlangan hujayra xromasomasiga joylashishi mumkin va xavfli o‘smani qo‘zg‘atishi mumkin. Qaytalama yokt teskari transkriptazani kashf qilinishi L.A. ZilbepHing rakni paydo bo‘lishida virus-genetik nazariyasini tasdiqlaydi (G. Tyomin. RNK napravlyayet sintez DNK. “Priroda”, 1972, № 9).

Viruslarning irsiy materiali, avvalda aytib o‘tilganidek, RNK yoki DNK molekulalarida mujassamlashgandir. Ularning DNK va RNKasi ularning strukturasining o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Umumiy klassifikatsiya: ikki zanjirli DNK va RNK, bir zanjirli DNK va RNK, halqali, o‘taspirallahgan shakllar uchraydi.

Viruslarga xos xususiyatlardan yana shuni ko‘rsatish mumkinki, virus nuklein kislotalarining birlamchi strukturasi ham o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi.

6.1. Viruslarning tarkibiy qismlari.

Individual virus zarrasini (virionni) strukturasini ko‘radigan bo‘lsak, virion bir molekula DNK yoki bir yoki bir necha molekula RNKdan iborat virus genomiga ega **kapsiddir**(quticha). Nuklein kislotani oqsil bilan hosil qilgan kompleksi **nukleokapsid** deb ataladi. **Kapsid kapsomerlardan tuzilgandir** (protomerlardan tashkil topgan oqsil kompleksi). Ba’zi kapsidlar ikkilamchi qobiq – peplosdan tuzilgan (peplos o‘zbekcha –yopinchiq, rus tilida – plashch bilan o‘ralgan degan ma’noni anglatadi. Ba’zi viruslarda peplos faqat virus oqsilidan, boshqa viruslar peplosida esa har xil moddalar (lipidlar, glikoproteidlar, fermentlar va h.k.) uchraydi. Har xil viruslarni o‘lchamlari har xil bo‘lib, 20 nm dan (pikopHavirusr) to 500 nm (mimiviruslar) gacha va undan ham katta bo‘lishi mumkin. Virionlar ko‘pincha to‘g‘ri geometrik shaklga ega bo‘ladilar (ikosaedr, silindr, ipsimon, to‘g‘nag‘ichsimon va boshqa shakllarda bo‘lishi mumkin). Kapsidning bunday tuzilishi uni tashkil qiluvchi oqsillari orasidagi bog‘larni bir xilligini ko‘zda tutadi, yani standart bir xil oqsillarni bir yoki bipHecha turlaridan tuzilgan bo‘lishi mumkin. Ikosaedr tipida tuzilgan virionlar strukturalariga misollar: masalan, lipid qobig‘i yo‘q virus – pikopHavirus bo‘lib uni struktura elementlariga kapsid va nuklein kislota kiradi; qobiqli virus – gerpes virus bo‘lib, u quyidagi virus struktura elementlaridan

tuzilgan: kapsid, nuklein kislota, kapsomer, nukleokapsid, virion, lipid qobiq, qobiqning membrana oqsillari.

Spiral simmetriya asosida tuzilgan minimal viruslar vakili bo‘lgan tamaki mozaikasi virusi ham nuklein kislota va oqsildan tashkil topgan. Aralash simmetriya asosida tuzilgan bakteriofag T-2 ning bosh va dum qismi bo‘lib, uning tashqi tomonida: ikosaedr simmetriya asosida tuzilgan bosh qismi, bo‘yin qismi, dum qismi, bazal plastinkasi, fibrillari va ichki tomonida: bosh qismida nuklein kislota, dum qismida o‘zak va uning ustidagi spiral simmetriya asosida tuzilgan oqsil qavat; fibrillarida esa virus ho‘jayin bakteriyaga kirishida asosiy rol o‘ynaydigan retseptorlar mavjud. Bakteriya viruslarining bosh qismida yana plazmida DNK si bo‘lishi mumkin. Virionlar NaOH ni past konsentratsiyasida parchalanib ketadi va uni tarkibiy qismi oqib chiqadi, ustki membranasi soya shaklida qoladi. Virionlar osmos ta’sirini sezadi, ya’ni gipotonik eritmada o‘lchamlari kattalashadi, gipertonik eritmada esa – kichrayadi. Virionlar o‘ta turg‘un bo‘lib, suvsizlikga, o‘ta past temperaturaga chidamli bo‘ladilar.

1930-35 yillarda Stenli birinchi marta tamaki mozaikasi virusini (TMV ni) toza kristall holda ajratib oldi. Shu vaqtidan boshlab genetiklar, bioximiklar, biofiziklar, kristallograflar tomonidan virus zarralarining ximiyasi va fizikasi, arxitekturasi kabi xususiyatlarini o‘rganish boshlandi. Natijada virion tarkibidagi nuklein kislotada hujayra ichidagi kechadigan ifeksion jarayonning axborotlari “yozilib”- shifrlanib qo‘ylganligi aniqlandi. Bu davrga kelib boshqa viruslarni ham o‘rganish va ulardagи molekulyar tuzilish va ular bilan ilgari o‘rganilganlarini taqqoslash ishlarini olib borish masalasi qo‘yildi va ularni amalga oshirish o‘z navbatida viruslarni toza holda ajratib olish, fizik - kimyoviy xususiyatlarini, virus zarrasining elementar tarkiblarini o‘rganishga e’tibor kuchaydi.

Olingen natijalar fitoviruslar ham, hayvon va odam viruslari ham, bakteriofaglar ham, prokariot va eukariotlar hujayralari tarkibiga o‘xshash uglerod, vodorod, azot, fosfor, kislorod, oltingugurt va mineral elementlaridan tashkil topganligi aniqlandi. Virus zarralari va ular parazitlik qiladigan hujayralar kabi bir xil organik materiallardan tuzilganliklari isbotlandi.

Viruslarning kimyoviy tuzilishini analiz qilish, ularning oqsil, nuklein kislota, lipoid, uglevod va h.larini kimyoviy tarkiblarini aniqlashda olingen natijalar viruslar tabiatini o‘rganishda qimmatli ma’lumotlar berdi. Bir qarashda viruslar bir-biriga yaqin va o‘xshash bo‘lib ko‘ringani bilan aslida esa ularni xilma-hilligi va ular orasida katta tafovut borligi va ular geterogen guruhlardan tashkil topganligi isbotlandi. Hujayradagidek nuklein kislotani ikki xili o‘pHiga viruslarda bir hildagi nuklein kislotani – DNK yoki RNK ni uchratish, eukariot va prokariotlar evolyusiya natijasida irsiy axborot faqat DNK molekulalarida joylashgan bo‘lsa, RNK esa bu irsiy axborotlarni faqat oqsil sintez qiladigan apparatlarga olib kelish funksiyalarini bajaradigan bo‘lsa, viruslarda bu funksiyani ikki zanjirli DNK yoki bir zanjirli RNK ham bajarishi mumkin ekan. Demak, virus bilan kasallangan hujayrada virus DNK-asi matritsasida virusga xos

informatsion RNK sintezlanadi, RNK tutuvchi viruslarda esa informatsion RNK vazifasini virusni RNK- asi bajaradi.

Viruslarga xos keyingi o‘ziga xoslik bu ularning sodda tuzilganligi, masalan minimal viruslar deb ataluvchi viruslar guruhi faqat oqsil, nuklein kislota va metall ionlaridangina tuzilgan. Oqsil deganda biz hujayrali organizmlardagi o‘n minglab strukturalari va funsiyalari har xil bo‘lgan turli tuman oqsillarni tushunsak, eng murakkab tuzilgan viruslarda ham o‘n-o‘n ikkitadan ortiq oqsil uchramaydi, boshqa sodda tuzilgan viruslarda bu miqdor yanada kamayib boradi va ba’zilarida bitta tur oqsil uchraydi. Shunga o‘xhash viruslarda lipoid va uglevodlar ham kam turda uchraydi.

Ba’zi olimlarning fikricha hujayra va ko‘p hujayrali organizmlar paydo bo‘lgandan so‘ng evolyusiya asosan fiziologik yo‘nalishda – differensiallashish va spetsializatsiya yo‘lidan ketgan. Viruslar kelib chiqishidan qatiy nazar (birlamchi strukturalar paydo bo‘lishimi yoki ikkilamchi strukturalarni soddalashishimi) qadimiy biogen sistemalar shakllanadi. Bu fikrHi isboti agar viruslarni kimyoviy murakkabligi bo‘yicha bir “gomologik qatorga” joylashtirilsa viruslar o‘lik organik materiya va hayotni hujayraviy formasi orasidagi bo‘shliqni to‘ldiradi. Bu qatopHi boshida tamaki mozaikasi virusiga o‘xhash minimal viruslar turadi. Undan so‘ng tarkibida lipoid, uglevodlar bor murakkab viruslar, masalan, 2000 yildan so‘ng ochilgan mimi-, mega- va pandora viruslari turadi. So‘ngra xlamidazoa, rikketsiyalar va bakteriyalar joylashadi. Bu guruh mikroorganizmlarni viruslar bilan yaqinlashtiradigan xususiyatlar - ularni sintetik apparatini yo‘qligi va obligat parazitizm, rikketsiyalar va bakteriyalar bilan viruclarni yaqinlashtiradigan xususiyat - ko‘payish usullari, murakkab tarkibi va tuzilishi, morfologiyasidir (1).

Endi viruslarni ba’zi asosiy tarkibiy qismlarini quyida ko‘rib o‘tamiz.

6.2. Virus oqsillari. Oqsillarni lokalizatsiyasi

Virus hayot sikli bilan bog‘liq bo‘lgan oqsillar virus genomi determinirlaydigan va hujaradan kelib chiqadigan oqsillar bo‘lishi mumkin. Misol qilib virion tarkibida topilgan hujayra oqillaridan sitoskelet – aktin va yadro oqsillari – gistonlarni aytish mumkin. Virus genomi kodlantiradigan (determinirovat) qiladigan oqsillarni ikki guruhga: 1) struktura oqsillari – virion tarkibiga kiruvchi oqsillar ularni VP deb belgilanadi; 2) virus strukturasida qatnashmaydigan oqsillari – struktura oqsillarini o‘tmishdoshlari, regulyasiyalovchi oqsillar va fermentlar (virusni reproduksiya jarayonini hujayra ichida ta’minlovchi, ammo virus zarrasi tarkibiga kirmaydigan oqsillar bo‘lib ularni NS-oqsillar deyiladi.

Virus oqsillarini xususiyatlari. Virionlar tarkibiga har xil molekulyar massaga ega bo‘lgan (4 KD dan 100 KD gacha) va bitta yoki bir qancha polipeptid zanjirlardan iborat oqsillar kiradi. Ularni miqdori ham har xil viruslarda har xil. TMV tarkibiga bitta oqsil kirsa, boshqa viruslar virioni tarkibiga o‘nlab oqsillar kiradi. Ularni fizik-kimyoviy xususiyatlari ham har xil

bo‘ladi. Virus kapsidini, nukleokapsidini va qobig‘ini shakllantiruvchi oqsillar bitta umumiyl xususiyatga ega bo‘ladilar, ya’ni ularda o‘z-o‘zini tiklash (qurish) xususiyatiga egaliklari.

Virus zarrasi tarkibiga kapsidni shakllantirmaydigan mayda molekulali oqsillar ham kiradi. Masalan pikopHaviruslar va adenoviruslarni genom oqsillari. Genom oqsillar nuklein kislota bilan kovalent bog‘langan bo‘lib uni replikatsiyasida qatnashadi.

Murakkab oqsillar glikoproteinlar (gp deb nomlanadi) va **lipoproteinlardir**. Glikoproteinlarni borligi virionda uglevod qismini borligini ko‘rsatadi. Ular oligosaxaridlarni mannoza tipiga kiradi, galaktoza, N-atsetilglyukoza yoki neyramin kislota bo‘lishi mumkin. Glikoproteinlar odatda virus zarrasini tashqarisida bo‘ladi va uchta funksiyani bajaradi: virionni hujayra retseptorlari bilan bog‘lanishini ta‘minlaydi (yopishtiruvchi oqsil funksiyasi), fuzion aktivlikga ega (membranalarni biri-biri bilan qo‘shilishini ta‘minlaydi), viruslarni antigen hususiyatlarini aniqlaydi. Shu bilan birga, virus glikoproteini nostruktura oqsilari ham bo‘lishi mumkin, g‘adir-budir endoplazmatik retikulyumni membranasida integral shaklda bo‘lib, ochiq joylarga virus qismlarini transport qilishini ta‘minlaydigan translokaza funksiyasini bajarishi mumkin.

Virus lipoproteinlari atsilirlangan oqsil bo‘lib, odatda miristin(S^{14}) kislotasi bo‘ladi. Yog‘ kislotalarini qoldig‘i, oqsil bilan birikib lipofil yakor funksiyasini bajaradi.

Viruslarni oqsil-fermentlari virus tarkibiga kirishi yoki nostruktura oqsillari bo‘lishi mumkin va hujayrada virus genomini ekspressiyasidan so‘ng paydo bo‘lishi mumkin Eng to‘la nabor fermentlar bilan ta‘minlangan virion bu chechak virusinikidir. Virusni hujayraga bog‘liq bo‘lmagan holda replikatsiyasini ta‘minlashi mumkin. Ammo mayda oddiy izometrik pozitiv RNK-genomli viruslar virionida umuman fermentlar bo‘lmagligi mumkin.

Funksional aktiv oqsillar birinchi navbatda replikatsiyani murakkab mexanizmlarini ta‘minlaydigan - nuklein kislota almashinishi fermentlari, translyasiyadan keyingi va oqsillarni modifikatsiyalovchi, virusni hujayraga kirishida qatnashuvchi fermentlardir.

Viruslar molekulyar biologiyasida ishlatiladigan ba‘zi atamalarni keltirish keyingi qism materiallarini tushunishni engillashtiradi. SHu sababli ba‘zi atamalarni shu erda keltiramiz. Birinchi guruh fermentlar, bular juda ham ko‘p bo‘lib, ularga hujayra fermentlarini analoglari va virus-spetsifik fermentlar kiradi.

DNK-mute DNK-polimeraza – DNK matritsasida DNK sintezini amalga oshiradi (chechak viruslari).

DNK-mute RNK-polimeraza – DNK matritsasida mRNK sintezini amalga oshiradi (chechak viruslari).

RNK-mute RNK-polimeraza – RNK matritsasida RNK sintezini amalga oshiradi. Trankriptaza va replikaza funksiyalarini bajaradi. 1970 yilda Baltimor tomonidan vezikulyar stomatit virusida aniqlangan. Virion tarkibiga kiradi yoki RNK-tutuvchi viruslarda NS-oqsili vazifasini bajaradi.

Qaytalama transkriptaza yoki revertaza yoki RNK-mute DNK-polimeraza RNK matritsada DNK sintezini amalga oshiradi. Bu fermentni Temin va Mizutanilar 1970 yilda retroviruslarda kashf qilishadi.

Xelikaza – ikki zanjirli DNK strukturasida zanjirlarni ajratishni amalga oshiradi. Xelikaza yana nukleozidtrifosfat-mute RNK-xelikaza aktivligiga ega, bu jarayon o‘z ichiga uch jarayonni oladi: dezoksinukleotidtrifosatlarni bog‘lash, uni gidroliz qilish va bu energiya hisobiga ikki zanjirli RNK ni ajratadi.

m-RNK ni modifikatsiyalovchi fermentlar: poli-A-polimeraza – ATF energiyasi hisobiga RNK ning 3'-uchini adenillashtiradi; Kep-enzim va metiltransferaza kompleksi – kep strukturaning 5' -uchida hosil bo‘lishini katalizlaydi.

ATF-aza va GTF-aza – mos energetik substratlarni gidrolizini amalga oshiradi.

Ribonukleaza N – DNK dupleksidagi RNK ni parchalaydi.

Oqsil almashinishidagi ikkinchi guruh fermentlar – oqsil almashinishi fermentlari. Bu erda ba’zilarinigina keltiriladi:

Proteinazalar – poliproteinlarning posttranslyasion protsessingida qatnashadigan fermentlar. RNK-tutuvchi viruslarni NS-oqsili shularga kiradi.

Proteinkinazalar - virionlarni struktura oqsillarini fosforirlovchi fermentlar. Bu fermentlar vezikulyar stomatit virusida, qutirish virusida, alfaviruslarda va retroviruslarda topilgan. Viruslarni hujayraga kirishlarida qatnashuvchi fermentlarga misol qilib bakteriofaglarni lizotsimlarini va gripp virusini neyramnidaza fermentlarini keltirish mumkin.

Virus oqsillarining o‘ziga xosligi (komponentlar tarkibi). Umuman virus zarrasini o‘ta soddalashtirilgan holda ko‘z oldiga keltirilsa nuklein kislotani o‘rab olgan qobiq deb qarash mumkin. Yuqorida aytilgandek, qobig‘i “kapsid” va uni tashkil qiluvchi subelementlar kapsomerlar yoki uni tashkil qiluvchi morfologik subbirliklar deyish mumkin. Butun virus zarrasini esa nukleokapsid deb ataladi. Tamaki mozaikasi virusi kabi oddiy viruslarda virusni oqsil qavati bir xil tuzilgan bir tipdagi polipeptid zanjirdan iborat. Ularni aminokislota tarkibi bir xil oqsilgagina xos bo‘ladi. Murakkab viruslarda (T juft bakteriofaglarda) esa bir necha o‘nlab oqsili bor bo‘lgan holatlarda barcha aminokislotalar tarkibini aniqlash murakkabroq bo‘ladi, chunki bunda geterogen oqsillarga xos bo‘ladi. Bu holda harbir kapsidni tashkil qiluvchi oqsilni tarkibini ayrim analiz qilinadi.

Virus oqsillarini birlamchi strukturalarini o‘rganish ularda D-aminokislotalarni borligini aniqlash bo‘lib, ularni borligi antibiotiklik xususiyatga egaligini ko‘rsatadi (m.. gramitsidin). Shu vaqtgacha aniqlanishicha birlamchi strukturasi o‘rganilgan virus oqsillarini barchasi tabiiy L-qatorga xos aminokislotalar ekan, D-aminokislotalar yoki anomal aminokislotalar virus zarrachasi tarkibida topilmadi. Ular tarkibi virus reproduksiya qilgan organizm tarkibidagidek odatdagи 16-18 aminokislordan iborat. Agar summar oqsil tarkibini kuzatadigan bo‘lsak unda neytral va nordon dikarbon kislotalar uchraydi. Dikarbon kislotalarni amidlari, ya’ni glutamin va asparagin juda kam miqdorda, natijada ko‘p viruslarni izoelektrik nuqtalari nordon yoki kuchsiz

nordon zonada bo‘ladi. **Ba’zi o’simlik viruslari (yaltirbosh mozaikasi virusi, dukkanaklilar xoldorligi virus (virus shirokoy krapchatosti bobov) tarkibidagi arginin va lizin aminokislotalari ularni oqsiliga asosli (ishqoriy) xususiyatlarni beradi.** Ko‘pincha ularni izoelektrik nuqtalari kuchsiz ishqoriy tomonda bo‘lishi mumkin (m., yaltirbosh mozaikasi virusi).

Murakkab tuzilgan viruslarda nordon kapsid oqsil bilan bir qatorda **asosli xususiyatga ega gistonsimon “ichki oqsillar”** uchraydi Bu oqsillar nuklein kislota bilan bog‘langan holda kapsidning ichki tomonida joylashgan bo‘ladi. Virus oqsillari tarkibiga kiruvchi aminokislotalar boshqa tirik mavjudotlarnikidek **turspetsifik – turga xos** bo‘ladi. YUksak organizmlarnikiga qaraganda virion oqsili keng darajadagi o‘zgaruvchanlikga - variabellikga ega. SHuning uchun bir virus turiga kiruvchi ko‘plab shtammlar aminokislota tarkibi bilan farq qiladi. Bunday farq murakkab tashkil qilingan hujayrali organizmlarni turlari orasidagina ko‘rinadi. Qator holatlarda viruslarni turlararo o‘zgaruvchanligi u yoki bu aminokislotali faqat miqdoriy jihatidangina farq qilmasdan, balki bir yoki ikki aminokislotali yo‘qolib ketishi yoki paydo bo‘lishi ham mumkin. Masalan, TMV ning “yovvoyi” shtammi va boshqa variant va shtammlarining oqsilida gistidin va metionin uchramaydi, ammo sodda viruslarning *HR* va boshqa shtammlari oqsillarining aminokislota tarkibida bu **aminokislotalar paydo** bo‘ladi. **Sodda viruslar oqsilining aminokislota tarkibidagi** katta o‘zgaruvchanlik, uning oqsil qobig‘i funksiyasi bilan bog‘liq (nuklein kislotali himoya qilish funksiyasiga ega). Hozirgacha ma’lum bo‘lgan viruslar oqsil qismi polipeptid zanjirlardan tuzilgan. Oddiy minimal viruslar (TMV) tarkibida bir xil tipdagi polipeptid zanjirlar mavjud. Uing molekulyar massasi 38×10^6 dalton, kapsidi tarkibida 2130 - 2320 ta, molekulyar massasi 18 270 Da ga teng peptid zanjirlardan iborat. Har bir polipeptid zanjiri 158 ta aminokislota qoldig‘idan iborat (Stenli, 1963; Atabekov, 1971; Tixonenko ,1971)(31;1).

TMV peptid zanjirining **S-uchi treonin** aminokislotasidan iborat, N-uchi yashiringan, ya’ni unda atsetillangan serin mavjud, NH₂-guruhi atsetillangan holda yashiringan. Uning molekulyar og‘rligini aniqlash uni konstanta sedimentatsiyasi 2,2-2,3 S_{20,w}, diffuziya konstantasi - 9,6 D₂₀ ga teng.

Shramm va Stenlilarning laboratoriylarida TMV ning polipeptid zanjirining aminkislotalar ketma-ketligi to‘la aniqlangan.

Har xil oqsillardan tuzilgan murakkab viruslar polipeptid zanjirlari ham geterogendir. Ammo bunday viruslar oqsillarining ajratish va fraksiyalarga ajratish, individual oqsillarning preparativ miqdorda ajratish qiyinligi sababli murakkab viruslar oqsillarini o‘rganish muammolari ancha orqada qolmoqda.

Murakkab viruslar oqsillarini birlamchi strukturalarini aniqlash faqat T-juft faglar tarkibiga kiruvchi **lizotsim oqsilida** ancha yaxshi o‘rganilgan. Uni birlamchi aminkislotalar tarkibi va ketma-ketligi to‘la o‘rganilgan. T-juft faglar tarkibida juda ko‘p oqsillar mavjud. Ular murakkab morfologik strukturalardan iborat (bosh va dum qismi). Bosh qismi bitta asosiy va ikkita minor qismlardan iborat. Bosh qismining asosiy peptid zanjirining molekulyar massasi 40 000 – 50 000 Da va minor peptid zanjirlariniing mol. massasi 10 000 – 15 000. Bosh

qismining molekulyar massasini kattaligi, ularni agregatsiyalanganidan – dimerligidan darak beradi. Fagning bosh qismi ichidagi ichki oqsil ishqoriy oqsil bo‘lib, u ham geterogen 2-3 fraksiyadan iborat. Ichki oqsilning molekulyar massasi 10 000 – 15 000.

T-juft faglar dum qismida qisqaruvchi qobig‘i bo‘lib, 2 tipdagi peptid zanjiridan iborat – o‘zak va bazal plastinkasi va unga birikkan kalta va uzun iplarga ega. Ba’zi fikrlar bo‘yicha bosh qismini o‘zakka birikishi ayrim oqsillar bilan amalgalashiriladi (**bo‘yin va yoqa qismlar**). Bunga yana ikki fag fermentini qo‘silsa (ATFaza va lizotsim), unda individual oqsillar ro‘yxati 16-17 taga etadi.

Keyingi misol tariqasida **gripp virusining** olib ko‘rish mumkin. Bu virus miksoviruslarga kirib, tashqi lipoprotein qobiqqa ega, basal membrana, ichki ribonukleoproteid, gemagglyutininlar va neyraminidaza fermentlari mavjud. Gemagglyutinin zarrachalari eritrotsitlarni agglyutinatsiya qilishga javob beradi, neyraminidaza (silaza) hujayra devori mukopeptidlari bilan sial kislota orasidagi glyukozid bog‘ini uzadi (parchalaydi). Gripp virusining aminokislota tarkibi V.I. Agol va b., (1971) da berilgan. Laver olgan natijalar bo‘yicha gripp virionidagi aminokilotaning N - uchi faqat asparagin kislota va oz miqdorda glitsindan iborat. Gripp virusining ba’zi shtammlarida aminokislotalarining S-oxirida ikkita aminokislota identifikasiya qilingan: leysin va tirozin. Boshqa miksoviruslarda, adenoviruslarda, ospovaksinada va boshqa murakkab viruslar oqsillari ham geterogendir.

Yuqorida qisqacha keltirilgan ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki viruslarnig oqsillari va ular parazitlik qilib yashaydigan ho‘jayin organizm oqsillari bilan o‘xshashlik va juda ko‘p o‘ziga xoslikni kuzatish mumkin. Viruslar o‘zi yashagan muhitdagi substratlardan o‘ziga kerak oqsil, ferment va boshqa makro- va mikro molekulali moddalarnilarni o‘zi sintez qilaoladi (m., oksimetilaza fermenti). Bu fermentlarni kodlari esa virus RNK sida shifrlangandir. Mazkur fermentlar haqida “Virus va hujayra orasidagi munosabat” mavzusida batafsilroq to‘xtalamiz.

6.3. Nuklein kislotalar

Barcha tirik organizmlar hujayralari, hammaga ma’lumki, ikki tipdagi nuklein kilotalarga ega – **DNK** (hujayra genomining ikki zanjirli D NK si) va RNK (**informatsion RNK(m RNK), transport RNK (t RNK), ribosoma RNK (r RNK)**). Ammo hujayradagi nuklein kislotalar tarkibidan viriondagi nuklein kislotalar tarkibidagi farq shundaki, virionda bir tipdagi nuklein kislota (DNK yoki RNK) mavjud, xolos. Ular virus genomi funksiyasini bajarib, irsiy axborotlarni saqlaydilar. Virusni bir tipdagi nuklein kislotaga egaligi faqat virionga xos xususiyatdir, ammo virusga emas. Virusni hayot siklida uni genomi bo‘lgan nuklein kislota transkripsiyalanadi, ya’ni D NK-tutuvchi viruslar RNK hosil qiladi. Qator RNK-tutuvchi viruslar o‘z reproduksiyasida qaytalama transkripsiya sikliga ega va RNK matritsasida D NK sintezlaydi. Barcha

viruslarni 20% chasi DNK-genomli, 80% - RNK-genomli. RNK ni irsiy axborotni saqlashi – virusni noyob xususiyatidir.

Virus genomining o'lchami (nukleotidlarda belgilanadigan nukleotidlarning ketma-ketligining uzunligi) keng diapazonda bo'lib, cho'chqalarni sirkovirusidagi 1,7 ming nukleotiddan (t.n. yoki m.n.), arxibakteriyarning fikodnaviruslaridagi 300 m.n. (ming nukleotid) bo'lishi mumkin. Virus genomlari bir zanjirli, ikki zanjirli shakllarda, tizimli yoki halqali, uzlusiz yoki segmentlarga bo'lingan shakllarda bo'ladi. DNK-genomlilarni xususiyatlarini xarakterliligi shundaki, ular molekulalarini oxiri-uchlari birorta ma'noga ega bo'ladi. Molekulani oxirgi uchlari to'g'ri yoki inversiyalangan oxirgi (yopishqoq) uchlarga, o'z-o'ziga komplementar ketma-ketlikka ega hamda terminal genom oqsili bo'lishi mumkin.

RNK genomning xilma-xilligi uglevod-fosfat bog'li nukleotidlar ketma-ketligi ustuni yo'nalishlariga qarab farqlanadigan nukleotidlar ketma-ketligini borligiga qarab kengayib boradi.


Birzanjirli RNK pozitiv qutbli – (+)RNK, negativ qutbli – (-)RNK yoki ikkiyoqlama axborotli zanjirli – (+, -)RNK bo'ladi. O'z navbatida, pozitiv qutbli RNK har xil tashkil qilingan strukturaga: matrichniy RNK bo'lib 5' -uchida kep ketma-ketlikga ega (7-metilguanozin, Sar), 3' -uchida – poli-A (poli-A) ketma-ketlik; kepni yoki poli-Aga ega bo'lmasisligi mumkin; 5' -uchida genom oqsili bo'lishi mumkin; 3' -uchida t-RNKhemon yoki shpilkaga ega bo'lishi mumkin.

Virus genomlarini turlari ularni klassifikatsiyasi asosini tashkil qiladi. Molekulyar virusologiya va molekulyar biologiyaning asosiy terminlari, ishlash prinsiplari, metodlari o'xshashdir. Viruslarning asosiy xo'jayin organizmlari prokariot va eukariot organizmlar bo'lib, viruslar ular hujayrasiga kirdandan so'ng ho'jayin hujayrasida viruslarni tashkil qiluvchi yangi biopolimerlar sintezlanadi. Mazkur biopolimerlar struktura va funksiyasi tomonidan hujayra tarkibidagi turdosh biopolimerlar bilan o'xshash bo'ladi, ularga virus DNK, RNK, oqsillar, lipidlar, riboza, dezoksiriboza va h. larni ko'rsatish mumkin. Ba'zi biopolimerlarni formulalari va ularni sifatlari haqida ma'lumotlar ko'plab bioximiya darslik va o'quv qo'llanmalarida keltirilgan bo'lishiga qaramasdan talabani o'qishi va onglashini osonlashtirish maqsadida quyida keltirishni ma'quil deb hisobladik (3;33).


Nuklein kislotalar barcha tirik organizm hujayralarida bir xil funksiya - irsiy axborotni saqlash, nasldan-naslga uzatishni ta'minlaydi. DNK molekulasi genetik informatsiyani nukleotidlarning ketma-ketligi shaklida saqlaydi, RNK ning turli xillari uni oqsillar biosintezi jarayonida amalga oshiradi.

Nuklein kislotalarning molekulalari 4 xil nukleotidlardan tuzilgan bo'lib, ular o'z navbatida tarkiblarida 3 xil birikma – azot asoslari, uglevod qismi – pentoza va fosfor kislotasining qoldig'idan iborat. Nukleotidlarning tarkibiga qaysi bir uglevod kirishiga qarab nuklein kislotalar ikki guruhga bo'linadi: dezoksiribonuklein kislotalar (DNK) va ribonuklein kislotalar (RNK). **DNK tarkibida uglevod komponenti sifatida – dezoksiriboza, RNKda esa – riboza bo'ladi.** Nukleotidlarning tarkibida 5 azot asoslari mavjud. Ulardan ikkitasi -


adenin va guanin ham DNK, ham RNK tarkibiga kiradi va purin asoslari hisoblanadi. Quyida nukleotidlар таркебида учрайдиган азот асосларини эски ва янги тартибда о‘қиш тартиблари, hamda hujayrada учрайдиган purin va pirimidinlarning formulalari keltirilgan (33):





YAngi tizimda




Eski tizimda




Цитозин
(2-окси-4-аминопиримидин) Урацил
(2,4-диоксипиримидин)




Тимин
(5-метилурацил)





5-метил-
цитозин





5-оксиметил-
цитозин




Пурин





Adenin va guaninning strukturasi






Цитидин-5'-фосфат

Тимидин-5'-фосфат






DNK molekulasining replikatsiya chizmasi (1).


To‘q qora chiziqlar bilan yangi sintezlangan DNK zanjiri ko‘rsatilgan
A, T, G, S – nukleozidlar, r – fosfat. Shtrixli chiziqlar – vodorod bog‘larini
belgilaydi.

Uchta azot asosi – sitozin, uratsil va timin pirimidin asoslari hisoblanadi. Sitozin ham DNK, ham RNK tarkibiga kiradi, uratsil - faqat RNK, timin esa – faqat DNK tarkibiga kiradi. Nuklein kislotlar tarkibida ba’zi bir boshqa purin va pirimidin asoslari (digidrouratsil, psevdouridin, inozin, metilsitozin va h.kabilar.) ham topilgan. Ular ko‘proq t-RNK tarkibida uchraydi.

Purin yoki pirimidin asoslari riboza yoki dezoksiribozani biriktirib olib, nukleozidlarni hosil qiladi. Nukleozid tarkibidagi riboza (dezoksiribosa) ning gidroksil guruhida (5-nchi holatdagi) fosfor kislotasining qoldig‘ini biriktirib nukleotidga aylanadi. Nukleozidlarning nomi purinlarning nomiga “-ozin” suffiksini (adenozin, guanozin), pirimidinlarga esa “-din” suffiksini (uridin, timidin, sitidin) qo‘sishchasi bilan olinadi.



Riboza



Dezoksiribosa

Nukleotidlarni nomi nukleozidlarning nomini oxiriga fosfor kislotasining qoldig‘ini soni va fosfat so‘zini qo‘sish bilan hosil qilinadi. Jumladan, agar nukleozid bitta fosfor kislota qoldig‘ini tutsa nukleozidmonofosfat, ikkita kislota

qoldig‘i bo‘lsa nukleoziddifosfat va uchta qoldig‘i bo‘lsa nukleozidtrifosfat deb ataladi va nukleozidning nomini birinchi harflari bilan qisqartirilib belgilanadi. Masalan, adenozin monofosfat – AMF, adenozindifosfat - ADF, adenozintrifosfat – ATF va h.k.

DNK va RNK molekulalari o‘zaro kimyoviy tarkibi bilan farqlanadi, ya’ni: D NK tarkibiga adenin, guanin, sitozin, timin, dezoksiriboza va fosfat kislota ($N_3 RO_4$) lar kiradi. RNKning tarkibiga adenin, guanin, sitozin, uratsil, riboza va fosfat kislota ($N_3 RO_4$)lar kiradi.

Nuklein kislotalar bir-biridan ularning tarkibiga kiradigan nukleotidlarning tuzilishi, soni va ketma-ket joylashishi tartibi bilan farqlanadi. Nuklein kislotalarda birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi strukturalarini farqlanadi.

6.3.1. D NK ning tuzilishi

D NKning molekulasida dezoksiribonukleotidlar bir birlari bilan fosfor kislotasining qoldig‘i va dezoksiriboza orqali birikib polinukleotid zanjirini hosil qiladi. Polinukleotid zanjirida dezoksiribonukleotidlarning ma’lum tartibda ketma-ket joylashishi D NK molekulasining birlamchi strukturasini tashqil qiladi.

1953 yilda D.Uotson va F.Krik taklif qilgan qo‘shspiral modeliga muvofiq, D NK molekulasi faraz qilinadigan o‘q atrofida biri ikkinchisiga spiral hosil qilib o‘ralgan burama shaklidagi ikkita zanjirdan iborat. Zanjirlar uglevod fosfat qoldiqlaridan tuzilgan, ulardan spiral ichiga ma’lum doimiy oralidqa azot asoslari tortilgan. Bu ikkita zanjir identik, bir biriga to‘la mos keladi va komplementardir (lotincha complement – to‘latish so‘zidan olingan). Lekin ikki zanjir bir biriga qarama qarshi yo‘nalishda antiparalel o‘rin olgan. Ikkala zanjipHing azot asoslari juft-juft bo‘lib joylashgan. Ularni oraligida vodorod bog‘lari bo‘ladi, ya’ni adenin va timin oralig‘ida – 2ta, guanin va sitozin oralig‘ida – 3ta vodorod bog‘lari bor. Utson va Kriklarning aniqlashiga ko‘ra ikkita zanjipHing azot asoslari ma’lum bir tartibda, ya’ni komplementarlik nomini olgan prinsipda joylashadi: bir zanjipHing ma’lum bir azot asosining qarshisida ikkinchi zanjipHing qat’iy ravishda ma’lum bir azot asosi joylashadi. Shunday qilib, A qarshisida T va G qarshisida S yoki T qarshisida A va S qarshisida G joylashadi. Bundan boshqacha joylashishi mumkin emas. Chunki purinlarning (A va G) molekulasi 2-ta geterotsiklik halqadan tuzilgan va o‘lchami katta, primidinlarning (T va S) molekulasi 1-ta geterotsiklik halqadan tuzilib, o‘lchami kichik. Ikkita parallel uglevod-fosfat zanjirlarning oralig‘i 1,8 nm bo‘lib, bu masofaga 1-purin va 1-ta pirimidin asoslari joylashadi xolos. Lekin ikkita pirimidin – T va S mumkin emas, chunki bunday holda asoslар ancha joy bo‘sh qolib vodorod bog‘lari hosil bo‘lmaydi. Ikkita purin (A va G) bo‘lishi mumkin emas, chunki ularning molekulalari bu oralidqa sig‘maydi. Bulardan tashqari A-S yoki G-T jufti bo‘lishi ham mumkin emas. Chunki bunday xollarda ularning o‘rtasida vodorod bog‘lari hosil bo‘lmaydi.

DNK uchun xarakterli bo‘lgan belgi - bu uning tarkibiga kirgan nukleotidlar o‘zaro ma’lum nisbatda bo‘lishidir. Bunday bo‘lishini birinchi marta 1949 yilda Ervin Chargaff aniqlab bergan bo‘lib, Chargaff qoidasi nomi bilan yuritiladi. Ana shu qoidaga asosan barcha o‘rganilgan DNK molekulalarida: Chargaff qoidasi bo‘yicha:

1. DNK molekulasidagi purin asoslari, adenin va guanin molyar konsentratsiyasini yig‘indisi pirimidin asoslari – sitozin va timinning molyar konsentratsiyasi yig‘indisiga teng:

$$A+G=C+T \text{ yoki } \frac{A+G}{C+T} = 1$$

2. Adenin va sitozinning miqdori guanin va timinning miqdoriga teng $A+C=G+T$ yoki $\frac{A+C}{G+T} = 1$;
3. Adenining miqdori timin miqdoriga va guaninning miqdori sitozin miqdoriga teng $A=T$ va $G=C$ yoki $\frac{A}{C} = 1$ va $\frac{G}{T} = 1$

Spetsifiklik koeffitsI.E.Nti – G+C va A+T – larning nisbati: $\frac{G+C}{A+T}$

DNK molekulalarida G+C va A+T-larning miqdori hech qachon teng bo‘lmaydi. Shuning uchun ularning o‘zaro nisbati, ya’ni spetsifiklik koeffitsenti hayvonlar va ko‘pchilik o‘simliklar D NKlari uchun - 0,54-0,94, mikroorganizmlarning DN Klari uchun - 0,45-2,57ga teng.

Hujayrada D NK uchlamchi strukturaga ham ega bo‘lib, shu tufayli molekulasi juda ixcham joylashgan. Deyarli hamma D NK hujayraning yadrosida joylashgan, juda kam miqdorda mitoxondriya va xloroplastlarda bo‘ladi. Hisoblashlar bo‘yicha D NK zanjirining uzunligi 8 sm atrofida bo‘lsa, tirik hujayrada u 5 nm joyni egallaydi.

6.3.2 RNKning tuzilish

R NK molekulasingi birlamchi strukturasi ham poliribonukleotid zanjirida ribonukleotidlarning (AMF, GMF, SMF va UMF) ketma-ket joylashishi bo‘lib, ular o‘zaro uglevod va fosfat qoldiqlari bilan bog‘langan. R NK-ning har xil turlari bir-birlaridan o‘zaro nukleotidlar tarkibi, molekulyar massasi, struktura tuzilishi va bajaradigan funksiyalari bilan farqlanadi.

R NK ning ikkilamchi strukturasi - R NKning turi hamda hujayraning funksional holatiga bog‘liq bo‘ladi. R NKning molekulalari bitta zanjirdan iborat bo‘lib, uning ba’zi qismlari zanjir ichidagi vodorod bog‘lari hisobiga spirallahsgan va qat-qat bo‘lishi mumkin. Transport R NKlarning ikkilamchi strukturasi yaxshi o‘rganilgan bo‘lib, u “beda bargining” shakliga o‘xshaydi.

Bajaradigan funksiyalariga qarab R NKlarni uch turga ajratiladi: informatsion, ribosomal va transport R NKlar.

Informatsion RNK (i-RNK) – hujayraning taxminan 2% RNKsini tashqil qiladi, tarkibida 75-3000 nukleotid tutadi. Molekulyar massasi – 2.5×10^4 – 1×10^6 Da. Hujayraning yadrosi va sitoplazmasida uchraydi. Oqsil sintez jarayonida matritsa vazifasini bajaradi.

Ribosomal RNK (r-RNK) – hujayraning 80-90% RNK sini tashkil qiladi, tarkibida 100-3100 nukleotid tutadi va molekulyar massasi – $3,5 \times 10^4$ – $1,1 \times 10^6$ Da. Ribosomalarning asosiy strukturasini tashkil qiladi.

Transport RNK (t-RNK) – hujayraning 10-15% RNK sini tashkil qiladi, tarkibida 75-90 nukleotid tutadi. Molekulyar massasi – 2.5×10^4 – 3×10^4 Da. Asosan sitoplazmada uchraydi. Ularning formasi o‘ziga xos va “beda bargaining” shakliga o‘xshaydi. Sitoplazmada aminokislotalardan oqsillarning sintezlanish joyiga – i-RNK ga tashish vazifasini bajaradi.

RNK aning bu turi (i-RNK) yoki vositachi m-RNK (mesenjer RNK) deb ataladi. RNK ning bu turi umumiy RNK ning 5% ni tashkil etadi. U ham sitoplazmada va yadroda uchrab nukleotid tarkibi bo‘yicha D NK molekulasi muayyan bir qism nukleotidlarning nusxasi hisoblanadi. Bu RNK DNK molekulasi dagi axborotni oqsil sintezlaydigan organoid – ribosomalarga olib boradi. i-RNK ning molekulyar massasi bir millionga yaqin bo‘lib ularning nukleotid tarkibi sintezlanayotgan oqsilning molekulyar og‘irligiga qarab har xil bo‘ladi. i-RNK ning sintezlanishi yadroda boshlanib, so‘ng sitoplazmaga o‘tib ribosomaga o‘rnashadi va oqsil sintezida qolip (matritsa) rolini bajaradi. i-RNK bipHecha qismlardan tashkil topib uning informativ qismi oqsil sintezida matritsa vazifasini bajaradi. Informativ bo‘lmagan qismi poliadenin fragmentlaridan tashkil topgan (50-400 nukleotid qoldig‘idan iborat). i-RNK molekulasi dagi poli A yonida 30 nukleotiddan iborat bo‘lgan akseptor qismi bo‘lib, u ribosoma bilan bog‘lanishda ishtirok etadi. Molekulaning (transkriptning) 5’ oxirida RNK-polimeraza-2 tomonidan sintezlangan alohida struktura bo‘lib, uni KEP (inglizcha sar - qalpoqcha) deb ataladi, u kimyoviy tuzilishi tomonidan **KEP 7-metil guanozin fosfat bo‘lib, RNK ni ferment ta’siridan saqlab**, translyasiyada ishtirok etadi. i-RNK molekulasi dagi noinformativ qismi, molekulani bir meyorda turishini ta’minlaydi. Informativ RNK ning sintezi yadrodan boshlanib, sitoplazmada yakunlanishiga RNK ning etilish jarayoni deyiladi (33).

Viruslar RNK si alohida guruhni tashkil etadi. U birinchi navbatda vazifasi jihatidan hujayralar RNK sidan farq qiladi. Ularni genetik RNK deb ham ataladi. Uning molekulyar massasi katta bo‘lib, 10^6 – 10^7 dalton atrofida bo‘ladi (3).

KEP pre-m-RNK ning protsessing jarayonining samaradorligini oshiradi, ya’ni m-RNK ni yadrodan eksport qilinishida, uni translyasiyasida va uni tez degradatsiya bo‘lishidan asraydi - himoya qiladi. (Viruslar haqidagi yuqorida keltirilgan fikrlar kelgusida viruslarning reproduksiyasini tushuntirishni osonlashtiradi, chunki viruslarni ko‘payishi eukariot va prokariotlarni ko‘payishidan tubdan farq qiladi, ular **dis'yunktiv** ko‘payadilar).

Lipidlar

Hamma qobiqli RNK-tutuvchi kurtaklanuvchi viruslarda hujayrada hosil bo‘ladigan lipidlar mavjud bo‘lib ular superkapsid tarkibiga kiradi (quruq moddasining og‘irligini 15-30% tashkil qiladi). Ularning 50-60% ni fosfolipidlar, 20-30% ini xolesterin tashkil qiladi.

DNK-tutuvchi viruslardan chechak, uchuq, gepatit V lar lipidlar tutadi. Bular kurtaklanmaydigan viruslar. Chechak viruslarining lipidlari sitoplazmada poksviruslar forfogenezi jarayonida differensiallashgan qobiq hosil qilmaydi. V gepatiti viruslarining lipidlari membrananing endoplazmatik retikulyumini invaginatsiyalanishi jarayonida hosil bo‘ladi. Gerpes virusining lipid tutuvchi qobig‘i virion ichki qismini yadro mebranasidan o‘tishi jarayonida shakllanadi. SHuning uchun gerpes viruslar qobig‘i tarkibiga yadro membranasi lipidlari kiradi.

? Savollar

1. Viruslarning kimyoviy tarkibi?
2. Viruslarni tuzilishida kasid, kapsamer, nukleokapsid so‘zlarini ma’nosini tushuntirib bering.
3. Transkripsiya jarayonini tushuntirib bering.
4. Translyasiya jarayoni deb nimaga aytildi?
5. Necha xil RNK ni bilasiz?
6. Nuklein kislotalarning bajaradigan funksiyasi haqida ma’lumot bering.
7. Virus RNK asi hujayra RNK laridan qanday farqlanadi?
8. Virus oqsillari va ularni lokalizatsiyasi.
9. Virus nuklein kislotalari va ularni hujayra nuklein kislotalaridan farqlari.
10. Virus nuklein kislolarining tuzilishi qanday?
11. D NK molekulasining replikatsiya chizmasini tushuntirib bering.
12. D NK tuzilishida Chargaff qoidasini tushuntirib bering.
13. Virus RNKsining tuzilishi va uning o‘ziga xosligi.
14. Viruslarning murakkab oqsillari.
15. Virus lipidlari, fermentlari
16. KEP strukturaning funksiyasini tushuntirib bering.

7-bob. Viruslarning reproduksiyasi (1)

7.1. Virus va hujayra orasidagi munosabat

Produktiv (mahsuldor) - virus zarralari hosil bo‘ladigan, infektion jarayonning umumiy tavsifi.

V.I. Agol bu munosabatni quyidagi so‘zlar bilan ifodalaydi: “Virus zarrasi va hujayra orasidagi to‘qnashish birorta biologik natijaga olib kelishi mumkin yoki buning aksi - virus va hujayra to‘qnashsa ham biror natijaga olib kelmasligi mumkin. Birinchi holatdagi o‘zaro munosabatda biologik kompleks - “virus-hujayra” kompleksi hosil bo‘ladi. Bu kompleks hujayra genetik apparati va virus genetik apparatlaridan tashkil topadi va ularni funksiyalari bir-biri bilan aralashib kutilmagan holatlar yuzaga kelishi mumkin. Demak, bu kompleksni ikki organizm gibridi deyish mumkin”. Bu munosabatlarni sxematik ravishda ikki xilini farqlash mumkin:

I. Virus genomi mustaqil hujayra genomiga bog‘liq bo‘lmagan ravishda yoki avtonom holatda reproduksiyalanishi (ko‘payishi) mumkin. Bunday holatda hujayraga kirib avtonom ko‘payadigan virus - virulent viruslar guruhi kiradi. Bu tipdagi munosabat hujayrada virus zarralarini yangi avlodlari hosil bo‘lishi bilan tugaydi. Bu tipdagi munosabat “produktiv munosabat” deb ataladi, virus zarralari – mahsulotlari hosil bo‘ladi. Ba’zan infektion jarayonning ma’lum davrida to‘xtab qolishi mumkin, natijada yuqumli virus avlodi hosil bo‘lmaydi. Bunday virus va hujayra orasidagi munosabat abortiv munosabat deyiladi.

Ko‘pincha hujayra va virus genomlari simbiozi qisqa muddatli bo‘ladi va virus zarralaring yangi avlodi hosil bo‘lganidan so‘ng kasallangan hujayra (xo‘jayin-hujayra) nobud bo‘ladi. Bunday virus infeksiyasiga “litik reaksiya” yoki “xo‘jayin-hujayraning erib ketishi” deyiladi.

Boshqa holatlar ham bo‘lishi mumkin, ya’ni xo‘jayin-hujayra uzoq muddat hayot faoliyatini saqlash mumkin.

II. Infektion jarayon sodir bo‘layotgan “virus-hujayra” kompleksining rivojlanishi tubdan o‘zgacha yo‘lda borish imkoniyati ham mavjud bo‘ladi. Bu holatda ikki organizm genomlari birlashadi (integratsiya) va hujayrada ikkala genom reproduksiyasi bir vaqtida yuz beradi va umumiy idora qilinadi. Birlashgan genomlik yangi organizm to‘la hayotchan bo‘lishi mumkin. Bo‘linishdan hosil bo‘lgan qiz hujayralar birlashgan hujayralar o‘zgargan hususiyatga ega bo‘ladilar. Bu tip virus va hujayra munosabati virogeniya deyiladi, agar bakteriya viruslari va bakteriyalar orasidagi munosabat bo‘lsa lizogeniya deyiladi. Virogeniya holatini qo‘zg‘atadigan viruslar mo‘‘tadil viruslar guruhi kiradi.

Bu ikki guruhi viruslar - virulent va mo‘‘tadil viruslar guruhlari orasida o‘tib bo‘lmas chegara yo‘qdir. Bir guruhi viruslarini o‘zaro munosabat bosqichlari bir xil prinsipda amalga oshadi. Ba’zan mo‘‘tadil viruslar ba’zi holatlarda avtonom reproduksiya xususiyatiga ega bo‘ladi. Mo‘‘tadil viruslar esa yuqumli jarayon rivojlanishi bosqichlarida virogeniyaga olib kelish xususiyatini butunlay yo‘qotishi mumkin, ya’ni virulent viruslar tipi xususiyatlariga ega bo‘lishi mumkin.

Produktiv infekcion jarayonining umumiyligi tavsifi.

Viruslarni ajratish va miqdoriy aniqlashning asosiy prinsiplari. Viruslarni miqdoriy aniqlash uchun har xil mezonlarni ishlatish mumkin. Agar biz birorta virus preparatiga ega bo'lsak, undagi viruslar miqdori fizik viruslar birligi yoki yuqumli virus birliklari bilan belgilanishi mumkin.

Fizik virus birligi deganda virus zarrasi - virionni tushuniladi. Uni to'g'ridan-to'g'ri aniqlanadigan usulda ajratiladi, masalan elektron mikroskop usulida. Ammo odatda virus populyasiyasi elektron mikroskopda qanchalik bir turda bo'lsa ham, ularni oz qismigina yuqumlilikka ega bo'ladi.

Fizik virus zarralari va yuqumli virus zarralari orasidagi bu farq hayvon viruslarida yaqqol ko'rindi, o'simlik viruslarida esa bundan ham farq katta bo'ladi. O'simlik viruslarida yuz mingdan yoki milliontadan bir - biridan farq qilmaydigan zarralarni bittasigina yuqumlilikka ega bo'ladi. Shuning uchun elektron mikroskop natijalariga asoslanib virus yuqumliligi haqida fikr yuritish mumkin emas.

Viruslarni aniqlashda spetsifik xo'jayin-hujayrani nobud qilish xususiyatiga ega usullar viruslarni aniqlashda keng tarqalgan. Odatda virusli materialni suyultiriladi, masalan, 10^1 , 10^2 , 10^3 va h. marta, so'ngra uning ma'lum hajmi (miqdori) sezgir sistemaga yuqtiriladi.


Sezgir sistema sifatida har xil ob'ektlar ishlatiladi:

O'simlik viruslari uchun o'simlik bargi bo'lib, unga maxsus usul bilan virus suspenziyasi yuqtiriladi. Virus zarralari o'simlik hujayrasida ko'payadi, qo'shni hujayralarga yuqadi, sekin asta virus ko'plab barg yuzasini egallaydi va oxirida ko'zga asbobsiz ko'rindigan **nekroz** hosil bo'ladi yoki boshqa to'qimalarning mahalliy zararlanishi kuzatiladi.


Bakteriofaglarni miqdoriy aniqlash uchun o'rganayotgan materialni maxsus suyultirilgan miqdori bu fagga sezgir bo'lgan mikroorganizm bilan, so'ngra eritilgan agar oziqa muhiti bilan aralashtiriladi, olingen aralashmani Petri kosachasiga quyiladi va 37°S da inkubatsiya qilinadi. Bu vaqt ichida mikroorganizmlar ko'payadi va likopchada bir tekis gazon hosil qiladi. Gazonning qaysi qismida fag zarrasi bo'lsa, ular avval bir bakteriya hujayrasini kasallantiradi va uning avlodlari qo'shni hujayralarga o'tadi, sekin-asta bu jarayon katta xududni egallay boshlaydi. Virus bilan kasallangan hujayra parchalanadi (lizis bo'ladi). YUqumli fag bo'lgan qismda bakteriya koloniyalari yo'qolgan uchun yorug'-tiniq joy hosil bo'ladi, uni **negativ koloniya, steril dog' yoki blyashka** deb nomlanadi. SHunday negativ koloniylar soni yuqumli fag miqdorini ko'rsatadi.

Hayvon va odam viruslarini ham shunga o'xshash usullar qo'llaniladi. Bu holatda gazon sifatida bir qavatli hujayra ekmalari (kultura) yoki agardagi hujayra suspenzilari ishlatidi. Blyashkalarni yaxshiroq kontrastlash uchun maxsus bo'yoqlar bilan bo'yaladi. Ammo hamma viruslar ham blyashka hosil qilavermaydi. Bunday holatlarda sezgir sistema sifatida virusga sezgir bo'lgan probirkalar tagida o'stirilgan hujayra kulturalari (ekmalari) ishlatiladi. Virus

borligini ma'lum vaqt inkubatsiya davrini o'tkazilgandan so'ng hujayraning degeneratsiya bo'lishi hisobiga olinadi (sitopatogen ta'sir).



12-rasm. O'simlik viruslari hosil qilgan mahalliy nekrotik jarohatlari : a-*Nicotina glutinosa* o'simligi bargidagi tamaki mozaikasi virusi; b-*N. glutinosa* dagi pomidor mozaikasi virusining alomati (nekroz); v-pomidor pakanaligi virusining alomatlari (virus kustistoy karlikovosti tomatov) *Nicotina glutinosa*. g-doirasimon dog'lanish virusining (virus kolsevoy pyatnistosti) na *Nicotina tobacum* o'simligidagi alomatlari. (1)



13-rasm. *E. coli* hujayrasidagi T-4 bakteriofaglar hosil qilgan “blyashkalar”(1)

Hayvon viruslarini yuqumliligi tovuq embrionlariga virus yuqtirib yangi tug'ilgan yoki katta hayvonlar (ko'pincha sichqonlar) ga virus yuqtirib aniqlanadi. Virus borligini hayvonlarni nobud bo'lishi (**letaln. isxod**) yoki spetsifik simptomlar (m., **maxsus antigenlar hosil bo'lishi yoki sut kislotasining degidrogenazasini** kasal hayvon qonida hosil bo'lishiga qarab aniqlanadi.

Bundan tashqari, yana bilvosita aniqlaydigan usullar qo'llaniladi. Bu usul ba'zi **viruslarni eritrotsitlarni ustki yuzasi hususiyatlarini o'zgartirishi** va u asosida ularni **agglyutinatsiya (yopishishi) bo'lishiga** olib keladi. Bu usul ancha oddiy va tez bo'ladigan usul bo'lishiga qaramasdan uni sezgirligi ancha pastdir. Bu metodlardan boshqa metodlar ham ko'p bo'lib ular virus titrlarini aniqlashda ishlatiladi va ular ma'lum qo'llanmalarda berilgan.

Ishlatiladigan (qo'llaniladigan) usulga qarab virus titrini **1 ml dagi virus miqdorini, yoki blyashka hosil qiluvchi birlikka qarab (BOE), yoki to'qima kulturasi bor probirkalarni 50 % da sitopatogen ta'sirlarga ega doza (ni), yoki hayvonlarni 50 % ni letal holatga olib keladigan (LD₅₀) va h.ni aniqlanadi.**

Endi virusni identifikasiya qilinadi. Viruslarni identifikasiya qilish uchun har xil sezgir sistemalarda virus ko'payishini o'rganiladi, chunki ma'lum hujayralarda virusni **ko'payishi yoki ko'paymasligi virusni eng xarakterli belgilariga** kiradi. Viruslarni identifikasiya qilish metodlari ichida **immunologiya metodlari** eng ahamiyatli o'rinnlardan birini egallaydi. Masalan, **neytrallah reaksiyasi**. Bu reaksiya virusga qarshi olingan antizardobni aynan shu virusni ko'payishiga qarshilik qilishdir. Albatta ahamiyatli o'rinni **elektron mikroskop egallaydi**.

Infektion jarayon bosqichlari

Hujayraga virus yuqish jarayoni o'tayotgan sistemada eng ahamiyatli xarakteristika - bu virus va hujayra bir-biriga bo'lgan nisbatining miqdori

(sootnosheniyasi) bo‘lib, u “yuqish miqdori-ko‘pligi” (mnojestvennost zarajeniya – M) dir. Bu yuqtirish uchun olingan virus miqdorini (soni) va virus yuqtiriladigan sezgir sistema – bakteriya, hayvon va uning hujayrasi, o‘simplik hujayrasiga nisbati bo‘lishi mumkin.

$$M = \frac{V}{N}$$

M - (mnojestvennost zarajeniya) yuqish miqdori ko‘pligi; V- yuqumli virus miqdori; N –hujayra miqdori.

M ni miqdori har xil turda ko‘rsatiladi, ya’ni “Vnosimaya mnojestvennost zarajeniya” – deyilganda V – yuqtirish uchun ishlatilgan virus miqdori tushuniladi, “effektivnost mnojestvennogo zarajeniya” (EIZ) deyilganda V - virusni hujayra bilan xaqiqiy munosabatda bo‘lgan qismiga to‘g‘ri keladi. Agar EIZ birdan kam bo‘lsa, M hujayrani ma’lum qismi (dolya) virus bilan zararlangan bo‘ladi, M >1 dan katta bo‘lsa bir hujayra bilan munosabatda bo‘lgan yuqumli virus miqdori birligi tushuniladi. M tushunchasi statistik bo‘lib, M = 1 bo‘lganda ma’lum qism hujayralar ikki yoki undan ko‘p virus zarralarini oladi, ma’lum qism hujayralar esa virussiz qoladi.


Hujayra populyasiyasida infeksion jarayon o‘tish dinamikasi juda ham M ga bog‘liq bo‘ladi. M birdan kam bo‘lsa har xil hujayralarda infeksion jarayon asinxron ravishda o‘tadi, bir qism hujayralar birlamchi yuqtirilgan viruslar ko‘paygandan so‘ng virus bilan kasallanishi mumkin. Hujayrada virus reproduksiyasini tavsiflash uchun yoki bu siklni populyasiyada (hamma hujayralar bir vaqtda kasallanadi), yoki bitta ayrim ajratib olingan hujayrada o‘rganish kerak.

Birinchi marta hujayrada bir siklda viruslarni ko‘paytirishni bakteriofaglar modelida o‘rganilgan. Buning uchun ichak tayoqchasi kulturasini fag bilan bir vaqtda kasallantiradigan M bilan virus yuqtiriladi, ya’ni bunda populyasiyadagi barcha hujayralar bir vaqtda virus bilan kasallanadi. Suspenziyaga antifag zardob solinib adsorbsiyalanmagan viruslarni neytrallanadi. So‘ngra suspenziya suyultiriladi (yangi hosil bo‘lgan faglar ta’sirini yo‘qotish uchun), so‘ngra ma’lum vaqt intervalida ma’lum miqdor suspenziyada blyashka hosil bo‘lishini aniqlanadi. Natijada 14-rasmdagi egri chiziq olinadi. Bu egri chiziqda latent bosqich (suspenziyadagi infeksiya birligi miqdori o‘zgarmagan davr). Latent davrda har bir kasallangan hujayra bitta yuqumli markazga to‘g‘ri keladi (sezgir hujayrada bitta blyashka hosil qilish xususiyatiga ega bo‘ladi). Bu vaqtda kasallangan hujayradan boshqa hech qanday boshqa yuqumli markaz yo‘q (latent davrda). Ammo bir necha minutdan so‘ng bu holat o‘zgaraboshlaydi, fag titrining oshish davri boshlanadi. Bunda etilgan fag hujayradan muhitga chiqadi. Endi yuqumli markazni faqat fag yuqtirilgan hujayradan tashqari yangi hosil bo‘lgan erkin faglar beraboshlaydi. Bir qancha vaqt suspenziyada yuqumli markaz eksponensial ravishda ortaboradi. Lekin kasallangan barcha hujayralar lizisga uchragandan so‘ng yangi fag zarralari hosil bo‘lishi to‘xtaydi.

Bu keltirilgan egri chiziqdagi bakteriofaglarni bir siklda ko‘payishi egri chizig‘i ko‘pgina o‘rganilgan bakteriofaglarga xosdir. Ammo har bir ayrim holda

ayrim masshtab ishlataladi. Agar abssiss o‘qida faglar uchun minutlar (o‘nlab minutlar) olingan bo‘lsa, hayvon viruslari uchun bu o‘qga soatlar (o‘nlab soatlar) qo‘yiladi. Bir hujayrada hosil bo‘ladigan yangi viruslar miqdori o‘ntadan o‘n minglarga hisoblanishi mumkin.

Latent davrida hujayradagi virus miqdorini aniqlash qiziq natijalar beradi. Latent **davri** vaqtida hujayra ichida bitta yoki birqancha fag bo‘lishiga qaramasdan faqat bitta infektion markaz beradi va bitta blyashka hosil qiladi. SHuning uchun hujayra ichidagi haqiqiy virus miqdorini aniqlash uchun titrlashdan oldin hujayrani buzish kerak bo‘ladi. Xuddi shunday tajriba qo‘yliganda paradoksal holat kuzatildi. Latent davpHi boshlanishida hujayra yuqumli markaz bo‘lishiga qaramasdan hujayra ichida umuman fag topilmadi. Agar uni parchalamaganda bir necha minutdan so‘ng bu hujayrada bir qancha yangi fag zarralari avlodni hosil bo‘lar edi. Shunday qilib infektion jarayonning ma’lum davrida kasallangan hujayrada etilgan fag topilmaydi, latent davpHi ikkinchi yarmida paydo bo‘ladi (14-rasm). **Infektion davpHing fag topilmagan davriga eklips (zatmeniya) davri deb ataldi.** Eklips davri boshqa viruslarda ham mavjudligi aniqlandi. Biror biologik agentni viruslar guruhiga kiritishda eklips davri asosiy mezonlardan hisoblanadi.



14- rasm. Viruslar tomonidan qo‘zg‘atiladigan infektion jarayon bosqichlarining sxemasi (1)

- 1 — “bittadan portlatish” usulida olingan virus ko‘payishi egri chizig‘i;
- 2 — virusni hujayra ichida ko‘payishi.

Ordinata o‘qida infektion davpHing o‘tish vaqt, minutlarda;
Absitsa o‘qida hosil bo‘lgan blyashkalar (yuqumli markazlar) soni

Infektion jarayonning asosiy parametrlarini aniqlashni ikkinchi yo‘li ham bor. Bunda bitta hujayrani fag bilan kasallantirib olingandagi natijalardir. Buning uchun erkin fagdan ozod qilingan, fag bilan kasallangan hujayralarni shunday suyultirish kerakki unda bir ml da bitta (yoki undan kam) hujayra bo‘lsin. So‘ngra bu hajmdagi suyuqliklarni ayrim probirkalarga quyiladi; bunda ba’zi probirkalarda umuman hujayra bo‘lmaydi, ozgina qismda esa ikkita yoki undan ortiq hujayra bo‘ladi. **Ko‘pchilik probirkalarda bittadan hujayra bo‘ladi.** Ma’lum vaqt oralig‘ida hamma hajmdagi suyuqliklarda virus borligi aniqlanadi. Bu metod – “edinichny vzrv” (single burst analysis -“bittadan

portlatib analiz qilish") deb nomlangan metod yordamida olingan natijalar "bir sikllik ko'paytirish metodi"da olingan natjalarga mos keladi. Mazkur, ya'ni "bitta hujayrani portlashi"da faglarni aniqlash metodi hujayrani o'lchamiga bog'liq ekanligini, ya'ni "hujayra qancha katta bo'lsa hosil bo'lgan faglarni miqdori ham shuncha ko'p bo'lishi" qonuniyatni ochdi. Ikkinchidan har bir ayrim hujayrada latent davrini farqlanishi va ko'p yoki kam vaqt ketishi aniqlandi.

Viruslarni hujayraga kirishi (1)

Viruslar faqat hujayra ichida reproduksiyalanadi. Demak, ular hujayraga kirish qobiliyatiga ega bo'lishlari kerak. Hujayra membranasidan mayda molekulyar massali moddalar ham o'tishi qiyin. Ammo bir necha million molekulyar massaga ega bo'lgan viruslarni hujayraga kirishi ancha murakkab jarayondir. Viruslarni hujayraga kirishini o'rganish uchun quyidagi metodlarni aytib o'tish joyizdir.

Virusologik metod. Agar ma'lum miqdordagi virusni hujayra suspenziyasi bilan aralashtirilsa va hujaralarni sentrifugalab ajratib olib, cho'kmausti suyuqligida virus miqdorini aniqlansa, hujayraga qancha virus bog'langanini hisoblab topish mumkin. Bu virus miqdori ham ikki narsani ko'rsatishi mumkin, ya'ni qancha virus hujayraga yopishgan va qanchasi hujayraga kirgan bo'ladi. Bu ikki zonani bir-biridan ajratish uchun hujaralar virusga qarshi antazardob bilan ishlov beriladi. Hujayra ustidagi virus antazardob bilan neytrallanadi va uni reproduksiyasi to'xtatiladi (hujayra infektion markaz-blyashka hosil qilmaydi). Agar virus hujayra ichiga kirgan bo'lsa, antazardob uni neytrallay olmaydi, chunki u antazardobdag'i antitelalar hujayra ichiga membranadan o'ta olmaydi va infektion jarayonni to'xtata olmaydi.

Kimyoviy metod. Viruslarni hujayraga kirishini o'rganishda ishlatiladigan metodlar guruhi kimyoviy metodlardir. Bu metodni ishlatilganda virusni biror komponenti – oqsili yoki nuklein kislotasi radioaktiv izotoplar bilan nishonlanadi. Bu holda virusni hujayraga adsorbsiyasini o'rganiladi, hujayraga u yoki bu virus komponentini saylanma kirishi, hamda hujayrani ma'lum fraksiyalari tomonidan virusni bog'lanishi yoki parchalanishi o'rganiladi. M., nuklein kislotalarni - fosfor R³² yoki N³, oqsillarni – S¹⁴ yoki S³⁵ bilan nishonlanadi. Hozirgi zamон asboblari har bir izotopni aralashmadan ayrim-ayrim aniqlab berish imkoniga ega.

Morfologik metod. Virus va hujayra orasidagi munosabatni o'rganganda yirik viruslarni (m., faglarni va hayvon viruslarini) elektron mikroskop yordamida ham o'rgansa bo'ladi.

Radioaktiv metod. Viruslarni qaysi qismi hujayraga kirishi 1952 yilda Xershi va CHeyz tomonidan o'rganilgan. Ular T2 fagini o'rganishadi. Ichak tayoqchasini radioaktiv R³² yoki S³⁵lik oziqa muhitida o'stirishadi. Nishonlangan fosforli oziqa muhitida o'stirilganda fagning nuklein kislotasi, radioaktiv oltingugurtli muhitda o'stirilganda – oltingugurt tutuvchi aminokislotali oqsil nishonlanadi.

Nishonlangan fag ichak tayoqchasining suspenziyasi bilan aralashtiriladi. Adsorbsiyalangan fagli hujayralarni kichik aylanish tezligida sentrifugalab ajratib olinadi, so‘ngra bu hujayralarni radioaktiv bo‘lmagan oziqa muhiti bilan suyultiriladi va ma’lum vaqt dan so‘ng Uoring blendorida (gomogenizatorida) kuchli tezlikda chayqatib aralashtiriladi, bu holatda hujayraga kirib ulgurmagan fagning qismlari ajralib chiqadi. So‘ngra hujayralar yana sentrifugalab ajratib olinadi va ularni blyashka hosil qilishi aniqlanadi. Eng asosiysi cho‘kmausti suyuqligida va hujayrada ayrim nishonlangan fosfopHi va ayrim nishonlangan oltingugurtni aniqlanadi. Blendorda kuchli aralashtirilishiga qaramasdan barcha hujayralar fag bilan kasallanadi va ularni fag reproduksiya qilish qobiliyati saqlanib qoldi. Oltingugurtni 75-80 % cho‘kma usti suyuqligida ekanligi aniqlandi. Bundan ko‘rinadiki, fag oqsilining asosiy massasi hujayraga kirmaydi va infektion jarayonning rivojlanishiga kerak emas ekan. Ammo radioaktiv fosfopHining asosiy massasi hujayradan ajralmaydi, demak, DNKnинг asosiy massasi hujayraga kirar ekan. Shunday qilib, DNK ning asosiy qismi yangi fag zarralari avlodini hosil bo‘lishini induksiya qiladi. Hozirgi kunda fag bakteriyaga yuqtirilganda hujayraga asosan DNK va ehtimol ichki oqsil nomini olgan oqsil ham kiradi deb qabul qilingan. Fag oqsilini asosiy qismi hujayra devorining tashqi tomonida qoladi.

Xershi va Cheyzlar ishining asosiy mohiyati shundan iboratki, ular viruslarni hujaraga kirish mexanizmlarini aniqladilar, ikkinchidan esa birinchi marta virusning yuqumlilagini boshlanishiga ma’sul nuklein kislota ekanligi aniqlandi. Ularning bu ishlari Shramm, Frenkel-Konrat va ularni hamkasabalarini tomonidan TMV ning toza preparatlaridan nuklein kislotalarini ajratib olishadi va RNK ni o‘simplikga yuqtirilganda o‘simplikda xuddi virus hosil qilgan simptomlarni hosil bo‘lishi kuzatildi. Xershi i Cheyz metodi bilan nuklein kislotani genetik informatsiyani tutishi va u hujayralarni kasallantirishida asosiy rol o‘ynashi konuniyatni tasdiqlanadi, ammo uni universal emasligi aniqlanadi. M., ipsimon fd bakteriofagini hujayra ichiga ham nuklein kislotasi, ham oqsili kirishi hamda Senday virusining ichki nukleoprteidi hujayraga kirishi isbotlanadi. Elektron mikroskop yordamida ba’zi yirik hayvon viruslari morfologiyasi o‘zgarmagan holda kirishi isbotlandi.

Shunday qilib kasallangan hujayraga albatta nuklein kislota kiradi. Ba’zi holatlarda oqsilden xoli bo‘lgan nuklein kislota kirsa, boshqa holatlarda hujayraga nuklein kislota bilan birga oqsilni asosiy qismi, yana boshqa holatlarda virus zarrasini qisman o‘zgargan yoki butunlay o‘zgarmagan holatda kirishi isbotlanadi.

Adsorbsiya. Virusni hujayraga kirishini **birinchi stadiyasi** uni hujayra yuzasiga birikishi bo‘lib, uni **adsorbsiya** deyiladi. Aniqlanishicha ma’lum viruslar ayrim tip hujayralargagina adsorbsiyalanan ekan. M., poliomielit virusi faqat primatlarning ba’zi to‘qimalari hujayrasiga adsorbsiyalananadi. Ba’zi faglar mutant bakteriyalarga yoki erkak (F^+ jinsiy faktorli) yoki faqat ayol hujayralarga adsorbsiyalananadi. Demak, adsorbsiya o‘ta spetsifik jarayondir.

Adsorbsiyaga bir qancha tashqi faktorlar ta'sir etadi, birinchi navbatda muhit tarkibi, m., faglar distillangan suvdan adsorbsiyalanmaydi yoki nordon yoki ishqoriy tuzli muhitdan, yoki o'ta ishqoriy muhitda ham adsorbsiyalanmaydi. Ion kuchlarini adsorbsiyaga ta'sirini o'rganish, adsorbsiyalanishdagi asosiy kuch bu virus va hujayra o'rtasidagi elektrostatik munosabat ekanligi aniqlandi.

Temperaturaning virus adsorbsiyasiga ta'siri kam bo'lib, ammo u keyingi hujayraga kirish jarayonida sezilarli rol o'ynaydi.

Har bir hujayra ma'lum qism fagni adsorbsiyalashi mumkin, m., ichak tayyoqchasiga 300 tagacha T-juft faglarni adsorbsiyalashi mumkin. Natijada hisoblashlar ko'rsatishicha, bakteriyani sirti fag bilan to'la qoplangan bo'lar ekan. Odam to'qimasi kulturasi HeLa ga 500 tagacha pikopHaviruslar adsorbsiyalanishi aniqlangan.

Avvalo virusni hujayraga yopishishi ularni bir-biri bilan tasodifan to'qnashishi orqali yuz beradi. Adsorbsiya kinetikasi birinchi darajali tenglamaga bo'yasinadi:

$$\log \frac{P}{P_0} = -\frac{1}{2,3} k. N. t, \quad \text{bu erda,}$$

P_0 – boshlang'ich davrdagi viruslarni soni,


P - ma'lum vaqt t -dan so'ng adsorbsiyalanmagan virusning soni,

N - hujayralar soni,

k - adsorbsiyalanish tezligining konstantasi.

Ko'pincha avval virus hujayraga qaytadigan bo'lib adsorbsiyalanadi, ya'ni virus-hujayra kompleksidan intakt virus qaytadan ajratib olinishi mumkin. Keyinchalik adsorbsiya qaytmas holatga o'tadi, ya'ni virusda ham, hujayra sathida ham o'zgarishlar (modifikatsiya) ro'y beradi.

Ba'zi sistemalarda virus o'z-o'zidan biror tashqi ta'sirsiz hujayradan ajralib ketishi mumkin. Bu holatga **elyusiya** deyiladi. Elyusiya miksoviruslarda uchraydi. Elyusyaning mexanizmi shundan iboratki bu hujayraning ba'zi komponentlarini virusning neyramnidaza fermenti eritib yuborishi natijasida bo'lishi mumkin. Taxmin qilinishicha virus hujayrani ba'zi komponentlari bilan birga o'z-o'zidan ajralib tushib ketishi mumkin. Bu albatta virusning yuqumlilik xususiyatini yo'qolishiga olib keladi.




15-rasm. T-4 fagini *E. coli* ga yopishishi (adsorbsiyasi)(1)

Virus va hujayra retseptorlari. T-juft faglarni hujayraga adsorbsiyalanishini o'rganishlar shuni ko'rsatdiki, virus dum qismi bilan hujayraga adsorbsiyalanadi. Xuddi shu kabi faglarni DNK siz po'st qismi ham adsorbsiyalanadi. Bu hususiyat faglarni dum qismiga va fibrillariga ham xosdir. Ammo faglarni DNK si va uning bosh qismi adsorbsiyalanish xususiyatiga ega emas. Demak fibrillari yo'qotilgan fag hujayraga adsorbsiyalanmaydi. YUqoridagilardan ma'lum bo'ladiki fag fibrillari qandaydir adsorbsiyalanishni ta'minlaydigan strukturaga ega. Fag fibrillardagi qandaydir strukturalar ularni hujayra bilan adsorbsiyalanishni ta'minlaydi. Bunday hujayra bilan birinchi muloqatda bo'ladigan strukturalar **virus retseptorlari** nomini oldi. Bu tushunchani boshqa viruslarga ham tatbiq qilinadigan bo'lsa masalan, sferik viruslarda retseptor vazifasini ular sathidagi ma'lum kimyoviy guruhlar bajarishi mumkin. Bu retseptorlar hujayra sathidagi ularga mos guruhlar bilan munosabatda bo'ladilar. Bunday virus retseptorlarining kimyoviy strukturalari hali yaxshi o'rganilmagan. Ammo, virus po'sti oqsilidagi ma'lum guruhlarni (sulfgidril) blokirovka qilib qo'yish, aminkislotalardagi ainogruppalarini dezaminirlash adsorbsiyalanish xususiyatini yo'qotishiga olib keladi. Ba'zan fag zarralarini mutatsiya natijasida ham adsorbsiyalanishi yo'qoladi, bu o'z navbatida virus yuqumliligi ham yo'qolishiga olib keladi.

Hujayra retseptorlari. Hujayraning sathi ham viruslarni bog'lanishiga javobgar ma'lum hujayra retseptorlariga ega. Ular hujayraning ba'zi morfologik strukturalarda joylashgan. M., *Bacillus subtilis* ning faglari faqat ho'jayin-

hujayraning hivchinlariga, RNK tutuvchi faglar E.coli ni F jinsiy faktoriga ega hujayralariga, to‘g‘rirog‘i F-pili larga adsorbsiyalanadi. E.coli ni retseptorlari ancha chuqurroq o‘rganilgan bo‘lib, fagni adsorbsiya qiladigan struktura hujayra devorida joylashgan. Hujayra devori uch qavatdan tuzilgan - tashqi – lipoproteid va lipopolisaxarid va ichki mukopeptid polimeri. T-3, T-4 va T-7 faglar faqat liopolisaxarid qavatga (uni ham maxsus L-gala-D-mannozeptozasi bo‘lsa), T-2 va T-6 faglar ichak tayoqchasini lipoproteid qavatiga yopishadi. T-5 fagi esa hujayradan gomogen preparat qilib ajratib olingan o‘lchami 30 nm lik hujayra strukturasiga yopishadi. Bu zarrachalar markaziy lipopolisaxarid va lipoproteid qavatlardan iborat. T-1 fagi uchun retseptorlar ajratish imkoni bo‘lgani yo‘q. Ammo bu fag faqat tirik hujayralargagina yopishadi.

Hayvon hujayralari bilan olib borilgan tajribalar shuni ko‘rsatdiki, ulardan ba’zi retseptorlarni ajratib olish imkoni bo‘ldi, ya’ni poliomielit virusini hujayra membranasidagi lipoproteid strukturalariga, ba’zi gerpes va arboviruslarning retseptorlari ham lipoproteid strukturaga ega ekanligi aniqlandi. Gemagglyutinatsiya qiluvchi enteroviruslarni odam eritrotsitlaridagi retseptorlari oqsil, lipid va uglevodli qismlardan tuzilgan. Miksoviruslarni va yopishtiradigan hujayra retseptorlari ancha yaxshi o‘rganilgan bo‘lib, ular N – atsetilneyramin kislotadir:



Hujayra retseptorlari ham virus retseptorlari kabi kimyoviy ta’sir natijasida, mutatsiya natijasida o‘zgirishi va yuqumlilagini yo‘qotishi mumkin. Natijada virusga chidamli hujayralar hosil bo‘ladi.

O‘simliklarning hujayra retseptorlari juda kam o‘rganilgan. Masalan, tamaki nekrozi virusini o‘simlik bargiga yuqtirish uchun kutikulani jarohatlash kerak bo‘ladi. Jarohatlash natijasida o‘simlik hujayrasidagi virusga sezgir retseptorlar ochilishi mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, **virus va hujayra orasidagi birinchi munosabat bu virus retseptorlari va hujayra orasidagi reaksiyadir**. **O‘simlik viruslari retseptorlari ham** deyarli o‘rganilmagan. Ko‘pincha hujayra kutikulasining jarohatlanishi natijasida maxsus sezgir qismlar ochilib, virus bilan bog‘lanadi va virus hujayraga o‘tadi. O‘sha "sezgir" qismlar mikroorganizm va hayvon hujayralaridagi retseptorlarga o‘xshasa kerak, degan fikrlar va uni tasdiqlovchi dalillar mavjud.

Ammo oxirgi vaqt dagi tadqiqodlar o‘simlik viruslarini hujayraga kirishida quyidagi ma’lumotlarni berdi. Virus yoki uning RNK si o‘simlikning bitta hujayrasiga tushadi va unda ko‘payadi. Kasallangan o‘simlik hujayrasida yangi RNK va oqsillar sintezlanadi; so‘ngra oqsillar RNK bilan birlashadilar. Hosil bo‘lgan kompleks qo‘shni hujayralarga o‘tadi va ularni ham kasallantiradi. Qo‘shni hujayralarga virus RNK si ikki hujayrani birlashtiruvchi **plazmodesmalar** orqali o‘tadi. Virus RNK sining qo‘shni hujayraga o‘tishi

uchun u avvalo, maxsus oqsil - **transport oqsili (TO)** bilan kompleks hosil qiladi.

Virus aktivlashishi va uni birinchi kasallangan o'simlik hujayrasidan sog' hujayraga o'tishi uchun virusning **transport oqsili** xo'jayin-o'simlik **retseptoriga** mos bo'lishi kerak ekan.

Bu virusga yaxshi xo'jayin-o'simlikga tushgani haqida ishonch hosil qiladi degan taxmin qilinadi. Bu vaziyatda virusga sharoit optimal bo'ladi, u bemalol ko'payaoaldi.

Virus retseptorlari va hujayra retseptorlarini mos kelishi va ular orasida komplementar uchastkalarni bo'lishi virusni yuqumliligini, kasallantiradigan hujayra spektrlarini belgilaydi, boshqacha aytganda virus tropizmiga bog'liq bo'ladi. Ammo ba'zan virus va hujayra orasida retseptorlar adekvat bo'lмаган taqdirda ham **ma'lum sharoitda virus bilan hujayrani kasallantirish imkoniyatini yaratish mumkin**. Bu usul virus **nuklein kislotasi bilan yuqtirish** orqali amalga oshiriladi. M., primatlar avlodidan bo'lмаган hujayralarni poliomielit virusi kasallantirmaydi, masalan quyonni. Ammo poliomielit virusini nuklein kislotasi bilan kasallantirilsa nuklein kislota hujayraga kirishi va bir sikl mazkur hujayrada ko'payishi mumkin. Ammo hosil bo'lган etilgan virus zarralari yangitdan quyonni kasallantirmaydi.

Yana bir misol, bakteriyani intakt hujayrasini nuklein kislota bilan ham kasallantirib bo'lmaydi. Bu holda bakteriya hujayrasini lizotsim bilan ishlov berib hujayra devorini parchalab uni protoplastini fag DNK si bilan kasallantirish mumkin. Hujayra retseptor bar'erini (to'sig'ini) gibriddi virus bilan kasallantirib ham amalga oshirish mumkin. Bunda virus oqsilini (retseptori virus yuqadigan hujayraga mos bo'lган virusdan olinadi).


M., poliomielit virusining RNK asi va Koksaiki virusini oqsilidan tashkil topgan gibriddi virus zarrasi bilan kasallantirib poliomielit virusi hujayra bar'eridan o'taolmaydi, ammo bu vazifani Koksaiki virusining oqsili retseptorlari orqali amalga oshirish mumkin. YAltirbosh mozaikasi virusini RNK sini tamaki mozaikasi virusining oqsili bilan rekonstruksiyalab yaltirbosh mozaikasi virusi kasallantira lmaydigan tamakiga TMV oqsili yordamida yuqtirildi. Albatta bu virus tamakida bir sikl gina ko'payishi mumkin, unda hosil bo'lган viruslar albatta yaltirbosh mozaikasi virusi zarralari edi. Ular shu holatida tamakini kasallantira olmadilar, chunki ularda tamaki o'simligiga komplementar retseptorlar yo'q edi.

YUqorida keltirilgan tajribalar natijalaridan ko'rindiki virus hujayraga kirib kasallantirishi uchun uning retseptorlari va hujaraniki bilan mos bo'lishi talab etiladi.

Pinotsitoz va va unga o'xshash mexanizmlar.

Hayvon hujayralarida ayrim o'ziga xos mexanizm bo'lib virusni hujayraga kirishida katta rol o'ynaydi. Bu **pinotsitoz** bo'lib, hujayra atrofi muhitidagi zarralarni zabt etadi ("yutadi"). Bunda hujayra membranasini hujayra ichiga botib kiraboshlaydi. Virus hujayra membranasiga adsorbsiyalangan yoki hujayra atorofida erkin xolda bo'lsa pinotsitoz natijasida hujara ichiga kirib qoladi.

Pinotsitoz vakuolasi hujayra ichida harakatlanib yadroga gacha etib borishi mumkin. Virusni bunday hujayraga kirishini **viropeksis** ham deb ataladi.



16-rasm. Pinotsitoz jarayonining ketma-ketligi sxemasi(Ag,1970)

Virus zarrasini modifikatsiyasi. Virus zarrasi hujayra ustida yoki pinotsitoz vakuolasida bo‘lishi bilan virus zarrasini o‘zgarishi boshlanadi – **virusning tashqi qobig‘i o‘zgaraboshlaydi**. Faglarda uning dum qismidagi struktura o‘zgara boshlasa, boshqalarida hujayra fermentlari ta’sirida virus zarrasini hamma qismi o‘zgaradi. Bu virus zarrasi strukturasini **orqaga qaytmas** modifikatsiyasi (o‘zgarishi) bo‘lib, infektion jarayonning **eklips davrini boshlanishi** bildiradi. Birqancha muddat intakt virus zarrasini hujayradan ajratib olib bo‘lmaydi. M., poliomielit virusi o‘z antigen strukturasini o‘zgartiradi va yuqumlilagini yo‘qotadi. Bu vaqtida virus zarrasi o‘z shaklini saqlagan bo‘ladi va nuklein kislotasini tutadi. Bunday modifikatsiyalangan virus zarrasidan fenol yordamida virus nuklein kislotasini ajratib olish mumkin. Oqsil va lipidlardan tashkil topgan chechak viruslarini tashqi qobig‘ini hujayraning gidrolitik fermentlari (proteaza va lipaza) parchalaydi.


Virus zarrasini modifikatsiyasi asosiy stadiyalardan hisoblanadi. Bu davrda bo‘ladigan o‘zgarishlar keyingi stadiyaga virus nuklein kislotasini ajralishiga tayyorlanish bo‘ladi.

Nuklein kislotaning ajralishi. Virusning yuqumlilik xususiyati namoyon bo‘lishi uchun albatta virus nuklein kislotasining oqsil qavatidan ajralib chiqishi zarur. Infeksiya jarayonining ma’lum bir stadiyasida virus nuklein kislotasi oqsil qavatidan to‘la ozod holda bo‘ladi.

Bu fikpHi bildirishga asos bo‘lib quyidagi tajribalar natijasini aytish mumkin, ya’ni virus bilan kasallangan hujayradagi virusni infektion jaraen siklining ma’lum stadiyasida ma’lum vaqtdan so‘ng olingan ekstraktda ekstraktidagi ona nuklein kislota nukleazalarning gidrolitik ta’siriga sezgir bo‘ladi (aslida esa virus nukleoproteidi tarkibidagi nuklein kislota odatda nukleazaning ta’siriga rezistent bo‘ladi). Virus nuklein kislotasini nukleazaga sezgir erkin nuklein kislota holatiga o‘tishi infektion jarayonning eng erta stadiyasida sodir bo‘ladi. Boshqa vaqtarda esa bu holat ancha kechga cho‘ziladi. Virus nuklein kislotasini erkin holatga o‘tishi, virus nukleoprteidini deproteinizatsiyasi hali yaxshi o‘rganilmagan. Ammo ba’zi bu jarayon mexanizmlari har xilligi ancha oydinlashgan. Ba’zi faglarda DNK ning hujayraga kirish mexanizmlari murakkabligi ma’lum. Hujayraga kirgan virus nukleoproteidini hujayra fermentlari yordamida oqsilini emirilishi mumkin. Bu fermentlar virus genomida yoki hujayra genomida kodlangan bo‘lishi mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, infektion jaraenning boshlanishi uch asosiy bosqichdan - hujayraga virusni adsorbsiyasi, virus zarrasining

modifikatsiyasi va virus nuklein kislotasini ajralib chiqishidan iborat. Ikkita oxirgi stadiyada **eklips stadiyasi** namoyon bo‘ladi.



17-rasm. T-juft faglar DNKhining hujayraga kirishining asosiy bosqichlari sxemasi (1).

Virus nuklein kislotasini hujayraga kirishiga ba’zi misollar.

a) **T-juft faglar.** Birinchi stadiya bu fag o‘sintasidagi fibrillarni maxsus hujara devorining retseptorlariga yopishishi. Fag adsorbsiyasining tezligi temperaturaga deyarli bog‘liq bo‘lmasa ham, ammo hujayra suspenziyasidagi muhit tarkibiga juda sezgir bo‘ladi. Muhitning boshqa tarkibiy qismlari adsorbsiya jarayoniga sezilarli ta’sirga ega. Ba’zi bir faglarning shtammlari hujayraga triptofan aminokislotsi bo‘lsagina yopishadi. Taxmin qilinishicha triptofan aminokislotsi fag o‘sintasidagi fibrillarini ayrim aktiv konfiguratsiyaga ega bo‘lishi uchun zarur. Fibrillarni aktiv konfiguratsiyaga ega bo‘lishida **fol** kislotani hosilalari rol o‘ynaydi, agar ular kimyoviy modifikatsiya qilinsa ham fagni hujayraga yopishishi buziladi.

SHu stadiyada fag zarrasi o‘zini oltita fibrillari bilan hujayra devoriga yopishadi, fag o‘sintasidagi bazal plastinka hujayra devoridan 1000 Å uzoqlikdagi masofaga joylashadi. Fibrillar ma’lum egiluvchanlikka ega bo‘lsa kerakki, o‘zini hujayra devori bilan birikkan bo‘lishiga qaramasdan, u fag zarrasini ma’lum masofada harakatchanligiga imkon yaratib beradi. Bu harakatlar broun kuchlari hisobiga amalga oshadi oqibatda fag zarrasini hujayra devoriga 100 Å cha masofaga yaqinlashtiradi. Fag zarrasini fiksatsiyalanishini ta’minalash bazal plastinkaning o‘sintalari orqali mahkamlanadi. Taxmin qilinishicha fibrillarni distal uchlari retseptorlar kabi bazal plastinkanin o‘sintalarini uchlari ham retseptorlarga ega bo‘lishi mumkin. Demak fag zarrasi bir emas ikki tipdagi retseptorlarga ega deyish mumkin.

Endi fag zarrasini modifikatsiyasi boshlanadi. Bu modifikatsiyaning ko‘rinadigan modifikatsiyasi bazal plastinka konfiguratsiyasini o‘zgarishidan bilinadi. Agar fag zarrasini intakt (asl) holatida oltiburchakli ko‘rinishga ega bo‘lsa, modifikatsiyalangan bazal plastinkani ko‘rinishi endi oltiburchakli yulduz ko‘rinishiga ega bo‘ladi. SHu bosqichda yoki sal kechroq plastinkaning markazidagi “tiqin” yo‘qoladi, uning funksiyasi sterjen kanalini berkitishdan iborat bo‘lsa kerak deb taxmin qilishadi.

So‘ngra fag o‘sintasining po‘sti qisqaradi. Uning qisqarishi mexanizmiga qanday faktor signal bo‘lishi noma’lum. Signallik vazifasini o‘sintadan ajralgan ba’zi moddalar bajarishi mumkin, degan fikrlar mavjud, stimul bo‘lib bazal plastinkasining konfiguratsiyasini o‘zgarishi bo‘lishi mumkin. Po‘stning qisqarish mexanizmi etarlicha o‘rganilmagan. Boshqa fikrlar bo‘yicha o‘sinta po‘stning qisqarishiga, taxmin qilinishicha oqsil subbirliklarini o‘zaro joylashishini o‘zgarishi sabab bo‘lishi mumkin. Yana boshqa fikrlar bo‘yicha po‘stning oqsillari mushak oqsillari bilan o‘xshash bo‘lishi mumkin. Po‘st xuddi mushak oqsillari qisqargandek ATF (va boshqa nukleozidtrifosfatlar) tutishi mumkin, ular mushaklar qisqargandagidek energiya manbai vazifasini bajarishi mumkin. Hisoblar ko‘rsatishicha, bitta subbirlikga bir molekula nukleozidtrifosfat to‘g‘ri kelar ekan. Fagning qisqarish oqsillari mushak oqsillaridek ATF- aza aktivligiga ega bo‘lishi mumkin. Bazal plastinkaga fiksirlangan po‘stning qisqarishi fag bosh qismini bazal plastinkaga yaqinlashtirishi mumkin. Endi bazal plastin hujayra devoridan birmuncha uzoqlashadi (370 A ga yaqin masofaga), natijada tikanlarni birmuncha cho‘zilishiga olib keladi, tikonlar qisqa fibrillarga o‘xshab ketadi. Tikanlarni cho‘zilishi chegaralangan bo‘lgani uchun po‘stning qisqarishi bosh qism va unga birikkan sterjen-o‘zakni hujayra devoriga yaqinlashtiradi va oqibatda sterjen-o‘zak hujayra devorini teshadi.

Aytilgan stadiyalarni birortasida yashiringan fag lizotsimi ajralib chiqib mukopeptiddan tuzilgan hujayra devorining eng ichki qismini parchalaydi. Ichki qavat ancha pishiq bo‘lganidan lizotsim uni parchalab nuklein kislotani hujayraga kirishini engillatadi. Jarayonning eng oxirgi stadiysi fag DNK sini hujayraga in’eksiyasidir. Bunda fag DNK si fag zarrasining bosh qismidan sterjenning ichki bo‘sh qismiga bosib o‘tkaziladi (xuddi shpritsdagi suyuqlikni qisib chiqarilganidek). Bunda 7.10^5 A uzunlikga, diametri 20 A ega yopishqoq DNK ni bir minut davomida 800 A uzunlikdagi diametri 25 A lik sterjenni ingichka kanalidan o‘tishi ancha qiyin. Balki bunda fag bosh qismi po‘sti oqsillarini bosimi natijasida ro‘y berishi mumkin.

b) Ospa-ospovaksina viruslar guruhlari. Bu guruh viruslarining hujayraga kirish mexanizmi yuqoridagi viruslarnikidan tubdan farq qiladi. Bu erda hayvon hujayrasi membranasiga virus adsorbsiyalangandan so‘ng pinotsitoz ro‘y beradi. Natijada virus zarrasi hujayra ichiga o‘tadi. Tezgina (20 minutchadan so‘ng) hujayraning gidrolitik fermentlari ta’sirida virus zarrasini oqsil va fosfolipidlarini ko‘p qismi parchalanadi. Natijada virus zarrasining markazidagi nukleoid – nukleoproteid ozod bo‘ladi. Pinotsitik vokuolani o‘rab turuvchi membranani parchalanishidan so‘ng bu nukleoid hujayra sitoplazmasiga qarab siljiydi (o‘tadi). Virus bilan kasallanmagan hujayradagi fermentlar bilan virus nukleoididan DNK ozod bo‘laolmaydi. Bu DNK ning deproteinizatsiyasi infektion jarayonning eng “erta stadiya”sida hosil bo‘ladigan maxsus “echintiruvchi” ferment bilan amalga oshadi. So‘nggi tadqiqodlarni ko‘rsatishicha virus nukleoidida DNK-bog‘liq RNK polimeraza topilgan. U RNK ni hali virus nukleoididan to‘la ajralmagan DNK matritsasida sintez qiladi. Nukleoidni sitoplazmaga tushishi bilan DNK matritsasida virus RNK-polimerazasi

yordamida spetsifik RNK - virus informatsion RNK si hosil bo‘ladi, bu o‘z navbatida ribosomada “echintiruvchi fermentlarni” sintez qiladi. Keyinchalik “echintiruvchi ferment” nukleoidni deproteinizatsiya qiladi va virus DNK si ozod bo‘ladi.

v) Gerpes (uchuq) virusi guruhlari. Bu viruslarni hujayraga kirish mexanizmi ancha kam o‘rganilgan. Ba’zi olimlar bu virus guruhi viruslarini hujayraga kirishini besh bosqichga bo‘lishadi. **Birinchi bosqichda** virusni hujayraga yopishishi ro‘y beradi. **Ikkinchi bosqichda** virusni hujayraga tegib turgan membrana qismini parchalanishi kuzatiladi. **Uchinchi bosqichda** virus tegib turgan hujayra membranasi parchalanadi. **To‘rtinchi bosqichda** virus nukleoproteidi hujayra membranasida hosil bo‘lgan yoriqdan (bresh) sitoplazmaga o‘tadi. Aytib o‘tish joyiz bo‘lsa kerak, bu usulda virus o‘tganda o‘lchami katta bo‘lgan uchuq virusi avval pinotsitoz bo‘lmasdan ham hujayraga o‘tadi. **Beshinchi bosqichda** virus nukleoproteidini parchalanishi va DNK ni ozod bo‘lishi kuzatiladi. Bu jarayon kasallanmagan hujayradagi fermentlar yordamida amalga oshadi.

PikopHaviruslar. RNK-tutuvchi viruslarni hujayraga kirishini o‘zi virus RNK sini ozod bo‘lishiga olib keladi. Poliomielit virusida hujayra retseptorlari virusni qaytar xolida yopishtiradi. Poliomielit virusida quyidagi tartibda virus hujayraga kiradi, ya’ni hujayra retseptorlari virusni avval qaytadigan holatda hujayraga bog‘laydi. Bu jarayon virus va hujayra retseptorlaridagi har xil guruh qarama-qarshi zaryadli zarralarning elektrostatik munosabatiga bog‘liq bo‘ladi. Intakt virus hujayra va virus kompleksidan yuqori ion kuchi yoki past darajadagi pH hamda mochevinaning ta’sirida ajratib olinishi mumkin. Qaytalama adsorbsiyaning tezligi temperaturaga kam darajada bog‘liq bo‘ladi. Keyinchalik adsorbsiya qaytmas holatga o‘tadi, birdaniga sovutish bu jarayonni tezlik bilan pasaytiradi. Bu jarayonning qaytmasligida birinchidan virus zarrasi strukturasi o‘zgarishga uchraydi, uni yuqumlilagini yo‘qolishi, antigen strukturasini spetsifikligini proteolitik fermentlarga bo‘lgan sezgirligini o‘zgarishi kuzatiladi. Intakt poliomielit virusi proteolitik fermentlarga o‘ta chidamli bo‘ladi. Virus xususiyatini o‘zgarishi virus va hujayra retseptorlari munosabatda bo‘lganda virus qobig‘ining struktura oqsilida konformatsion o‘zgarishga bog‘liq bo‘lgan kapsomerlarni qaytadan qurilishi ro‘y bergen bo‘lishi mumkin. Oxirgi stadiyada virus oqsilini proteolizi sodir bo‘ladi va virus nuklein kislotasi ajraladi.

d) Miksoviruslar. Virus hujayraga yopishgandan so‘ng pinotsitoz sodir bo‘ladi. Virusni tashqi lipoproteid qavati pinotsitik vakuolada hujayra gidrolitik fermentlari yordamida parchalanadi. Yana bir boshqa fikrlar bo‘yicha miksoviruslarni hujayraga kirishida pinotsitoz bo‘lmasligi ham mumkin bo‘lib, taxmin qilinishicha virus va hujayra orasida kontakti ro‘y berishi bilan virus va hujayra membranalari parchalanaboshlaydi. Ajralgan nukleoprteid sitoplazmaga tushadi. Bundan keyin uni qanday deproteinizatsiya bo‘lishi noma’lum, yangi “echintiruvchi fermentlarini” hosil bo‘lishiga hojat yo‘q deb hisoblanadi.

OITS virusining hujayraga kirish jarayoni r-120 oqsilini T - xelperlarni membranasidagi T-4 retseptorlar bilan bog‘lanishidan boshlanadi. Elektron

mikroskopda virus zarrasini T-hujayralar retseptorlari bilan birikib, hujayra sitoplasmasi ichiga botib kirishi yaxshi ko‘rinadi. Avval hujayra membranasining protoplazma ichiga bo‘rtib chiqishi kuzatiladi va virus zarrasi vakuola bilan o‘raladi. Keyinchalik virus qobig‘i erib ketadi. Virus shu vaqtda hujayrada yo‘qoladi, uning RNK si yoki k-DNK si ham o‘ta kichik bo‘lganligidan elektron mikroskopda ham ko‘rinmaydi. Sekin-asta virus replikatsiyasi boshlanadi va kasallangan hujayra membranasida r-120 oqsili paydo bo‘ladi. Bu davrda virus hosil bo‘layotgan kasal hujayrani molekula darajasida sog‘ hujayradan farqlab aniqlash mumkin bo‘ladi. Vaqt o‘tishi bilan elektron mikroskopda ko‘plab virus zarralarini kuzatish mumkin. Hozirga kunda kasal hujayralar membranasida r-120 oqsilini paydo bo‘lishi bu dahshatli virus bilan kurash choralarini ishlab chiqishda qo‘llanilmoqda.

Viruslarni hujayradan hujayraga o‘tishi. Viruslarni zararlangan hujayradan yangi hujayraga o‘tishi o‘simlik viruslarida plazmodesmalar – hujayralararo ko‘prikchalar vositasida o‘tishi mumkin. Hayvon viruslarida muhitda antivirus zardobi bo‘lishiga qaramasdan virus bir hujayradan boshqa hujayraga o‘taveradi. Bunday o‘tishlar gerpes (uchuq), respirator va boshqa viruslarda bo‘ladi.

Ayrim ajratilgan nuklein kislotalarni hujayraga kirishi. Nuklein kislotalarni hujayraga kirishi yaxshi o‘rganilmagan. Polioviruslarni nuklein kislotalari hujayraga avval juda tez adsorbsiyalanadi va bu jarayon boshqa tashqi faktorlarga bog‘liq emas. Bu stadiyada RNK RNK-azaga sezgirligini to‘la saqlagan bo‘ladi. So‘ngra virus nuklein kislotasini hujayraga kirishi boshlanadi. Va nuklein kislotani RNK-azaga sezgirligi yo‘qoladi. Bu jarayon tashqi muxitga (temperatura,pH, osmotik bosim va h.) o‘ta sezgir bo‘ladi.

7.2. Virus DNK sining sintezi

Ko‘pgina viruslar zarrasida asosan bitta nuklein kislotaga bor bo‘ladi. Infektion jaraen hujayraga kirgan bitta virus zarrasidan rivojlanadi, shundan xulosa qilish mumkinki, demak, u bitta nuklein kislotadan rivojlanadi. Ana shu bitta nuklein kislota hujayradagi patologik reaksiyalarga sabab bo‘ladi va bir vaqtin o‘zida juda ko‘p miqdordagi virus zarralarini **avlod boshisi bo‘ladi**.


Yangi virus zarralari – bu virus bilan kasallanmagan hujayrada avvaldan umuman bo‘lmagan virus nuklein kislotasi va oqsillarining molekulasiidir. Bu yangi nuklein kislota va oqsillarni hosil bo‘lishi hujayrada virus reproduksiyasining eng ahamiyatli bosqichlaridandir. Quyida shu bosqichni ko‘ramiz. Viruslarni bakteriyalardan asosiy farqi ularni tarkibiy qismlari hujayrada ayrim-ayrim sintezlanadi va eng so‘ngida etilgan virus zarrasiga birlashadi. Bu xildagi **ko‘payishga diz'yunktiv ko‘payish** deyiladi. Virus nuklein kislotasi va oqsillarini sintezi kasallangan hujayrada har xil vaqtda va hujayrani har xil joyida sintezlanadi. Hujayradagi barcha sintetik jarayonlar o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq bo‘ladi va bir butun jarayon hisoblanadi. Ammo

tushunish oson bo‘lishi uchun hujayrada o‘tadigan virus DNK asi, RNKasi va oqili sintez jarayonlari mexanizmini ayrim-ayrim tavsiflanadi. Har bir holatdagi sintez jarayonida qanday substratlardan virus makromolekulalari sintezlanadi, qanday fermentlar bu monomer substratlarni bitta polimer zanjirga birlashtiradi, qanday matritsa maxsus ketma-ketlik asosida monomerlarni birlashtiradi va bu virus makromolekulalarini sintez qilishini idora qilish kabi masallalar xaqida so‘z boradi.

Hujayra DNK si sintezining umumiyyatli sxemasi.

Hujayra DNK sining sintezi uchun substrat bo‘lib dezoksiribonukleozidtridtrifosfatlar: dezoksiadenozintrifosfat (d-ATF), dezoksitimidintronifosfat (d-TTF), dezoksitsitidintronifosfat (d-STF), dezoksiguanozintronifosfat (d-GTF) lar ishlataladi. Nukleotidlarning tarkibida 5 azot asoslari topilgan. Ulardan ikkitasi - adenin va guanin ham DNK, ham RNK tarkibiga kiradi va purin asoslari hisoblanadi (6-bob, 6.3. Nuklein kislotalar bandi ga qaralsin). Timin doimo DNK tarkibida va uratsil esa RNK tarkibiga uchraydi. Nukleotidlarning tarkibida yana riboza RNK va dezoksiriboza DNK tarkibida uchraydi. Hamma nukleotidlarda fosfor mono-, di- va trifosfat shaklida uchraydi.

Bu struktura elementlari bitta polinukleotid zanjiriga fermentlar kompleksi yordamida birlashadi. Zanjirdagi nukleotidlarning ketma-ketligi shifrini ona DNK zanjiri beradi va u matritsa rolini bajaradi. Nuklein kislotani sintezida matritsa komplementarlik prinsipi asosida ishlaydi. DNK ning yangi molekulalari Uotson-Krik sxemasi asosida ona molekulasingning ikkilanishidan hosil bo‘ladi. Ona zanjipHing qo‘sh spirali sekin asta bir-biridan ajralaboshlaydi (raskruchivanie) despirallahadi va DNK ning har bir zanjiriga komplementar zanjir tiklanadi. Komplementar paralar adenin-timin va guanin-sitozin. Natijada bir molekula DNK dan yangi ikki molekulasi hosil bo‘ladi. Ular ona zanjirga to‘liq o‘xshash bo‘ladi. Nuklein kislotaning bu usuldagagi replikatsiyasi (har bir qiz molekula bittadan ona molekulani materialidan tuzilgan zanjirga ega bo‘ladi) yarim konservativ usuldagagi replikatsiya nomini olgan.



18-rasm. DNK replikatsiyasining sxemasi (chapda); DNKnинг yarim konservativ replikatsiya sxemasi (o'ngda) (1)

Virus DNK si sintezini o'rganish metodlari

Virus DNK si sintezi mexanizmini o'rganish uchun virus DNK sini hujayra DNK sidan farqlaydigan metodlarga ega bo'lish kerak. Bunday metodlarni birqancha guruhlari mavjud.

1) YUqumlilik. Virus DNK sidan hujayra DNK sini farqlab aniqlaydigan eng yaxshi metod. Kasallangan hujayradan yuqumli virus DNK sini ajratish kundan kunga ko'payib bormoqda. Ammo hali barcha viruslardan yuqumliligi saqlangan olda virus DNK sini ajratishga muvaffaq bo'linganicha yo'q.

2) Gibridizatsiya. Virus DNKsini qiz molekulalari ona DNK si molekulalariga o'xshash bo'lgani uchun maxsus metod bilan **yangi sintezlangan DNK ni aniqlash uchun** gibridizatsiya qilish kerak, ya'ni o'rganiladigan materialni toza preparati olingan DNK bilan (yoki shu DNK dan in vitro olingan RNK preparati bilan).

3) Fizik-kimyoviy usullar. Virus DNK sini o'ta yaxshi tozalangan virus preparatidan olib uni xususiyatini o'rganish mumkin. Bu xususiyatlarni bilgandan so'ng uni tozalanmagan hujayra ekstraktidagi miqdorini ham aniqlash mumkin.

4) Noyob nukleotidlar. Virus DNK si hujayra DNK sida uchramaydigan asoslarni tutadi. M., T juft bakteriofaglar DNK sini tarkibiga 5-oksimetilsitozin kiradi. Demak, bu fag DNK si miqdorini bilish uchun 5-oksimetilsitozinni jami DNK dagi miqdorini aniqlash orqali bilish mumkin.

5) Molekulyar massasi va nukleotid tarkibi. Jami virus DNK si va hujayra DNK lari bir xil asoslardan tuzilgan bo'lsalar ham ularni molekulyar massalar va nukleotid tarkibidan farqlash mumkin. Saxaroza gradienti zichligida yoki seziy sulfati gradient zichligida sentrifugalab yoki metillangan albumin kolonkalarida xromatografiya qilib bu ikki sinfga mansub DNK ni fizik-kimyoviy metodlar asosida ajratish mumkin.

6) Virus DNK si o'tmishdoshlarini nishonlash orqali. Virus DNK si sintezini DNK o'tmishdoshlarini nishonlab (m., timidin yoki fosfatni), so'ngra u yoki bu metod bilan ajratilgan DNK preparatini radioaktivligini aniqlab bilish mumkin.

7) Virus DNK sini sitologik usullar orqali. Virus bilan kasallangan hujayrada DNK ni joylashishi (lokalizatsiyasi)ni o'rganiladi. Hujayra DNK si asosan yadroda joylashgan bo'ladi, sitoplazmada DNK miqdorini oshishiga qarab virus DNK si sintezini ko'rsatadi. Bu yangi sintezlangan DNK ni o'rganish gistoximiya va avtoradiografiya usullarida amalga oshiriladi. Bu asosan hayvon va odam viruslarida yaxshi natija beradi.


Virus DNK si sintezining substratlari

Virus DNK si ham xuddi hujayra DNK si kabi to'rtta asosiy nukleotiddan tarkib topgan (d-AMF, d-TMF, d-SMF, d-GMF). Bunday hollarda virus DNK si sintezi uchun hujayra DNK si uchun ishlatiladigan dezoksiribonukleozidtrifosfatlar ishlatiladi (d-ATF, d-TTF, d-STF, d-GTF). Ammo ba'zan ba'zi viruslar tarkibiga hujayra DNK sida uchramaydigan nukleotidlar kiradi. M., **T-juft bakteriofaglar tarkibiga** d-SMF o'pHiga **dezoksi-5-oksimetilsitidinmonofosfat (d-OMSMF)**, **Bacillus subtilis** ni ba'zi faglari DNK sida d-TMF o'pHiga boshqa odatdan tashqari nukleotid – **dezoksimetiluridinmonofosfat (d-OMUMF)** uchraydi. Bunday anomal nukleotidlarni tutgan virus DNK sining sintezi uchun ularga mos nukleozidtrifosfatlar zarur bo'ladi (d-OMSTF, d-OMUTF). Virus bilan kasallangan hujayrada bunday noyob substratlarni hosil bo'lishi quyidagicha bo'ladi.

Ba’zi viruslarni DNK si glyukozilirlangan bo‘ladi. DNK ni glyukozilirlash uchun glyukozani aktiv formasi **uridindifosfat-glyukoza** ishlatiladi. Qator xollarda Virus DNK siga kiruvchi nukleotidlar metilirlangan bo‘ladi. Metil gruppasining manbai bo‘lib **S-adenozilmetionin** bo‘lishi mumkin.

Virus DNK sining sintezida qatnashadigan substratlarni hosil qilishda ishlatiladigan fermentlar.

T-juft faglar bilan kasallangan hujayrada DNK sintezida qatnashadigan substrat d-OMSTF ni paydo bo‘lishini kuzatadigan bo‘lsak, fag bilan kasallanmagan hujayrada bu modda umuman uchramaydi. Hujayra fag bilan kasallanishi bilanoq hujayra 5-oksimetilsitozin hosilalarini sintezlash qobiliyatiga ega bo‘laboshlaydi. Hujayra kasallanishini birinchi minutidanoq hujayrada yangi ferment - **d-SMF oksimetilazasi paydo** bo‘ladi. Bu ferment quyidagi reaksiyani katalizlaydi:




Bu fermentni hujayrani kasallantiradigan fag olib kiradi degan taxminlar ham bor bo'lib, ammo fag zarrasida mazkur ferment uchramaydi. Tadqiqodlar ko'rsatishicha agar fag zarrasi olib kirganda bir mikrob hujayrasida hosil

bo‘ladigan oksimetilazani miqdori fag miqdoriga teng bo‘lar ekan, unda fag zarrasi faqat oksimetilaza fermentidan iborat bo‘lishi kerak edi. Tajribalar ko‘rsatishicha oksimetilaza fag bilan kasallangunicha noaktiv formada biror hujayradagi ingibitor yordamida bo‘ladi va fag uni aktiv holatga o‘tkazadi deyiladigan fikpHi quyidagi tajriba yordamida tasdiqlanmaganligini ko‘ramiz, ya’ni normal hujayra ekstraktini olib fag bilan kasallangan oksimetilazali hujayra ekstraktiga qo‘shilganda uni aktivligi pasaymaydi, o‘zgarishsiz qoladi, demak fag bilan kasallangan hujayrada ham bu ferment ingibitori yo‘q ekan. Demak, oksimetilaza fag bilan kasallangan hujayrada yangidan hosil bo‘ladi (bir **sekundda 9 molekula** oksimetilaza hosil bo‘ladi). Endi keyingi savol - oksimetilaza fermentinig genetik axboroti fag genomida yoki hujayra genomida kodlashtirilganligi haqidagi savolga olimlar quyidagi tajriba bilan aniqlik kiritadilar. Oksimetilaza fermentini hosil qilmaydigan mutant faglar ishlatilishi va boshqa qator ekperimentlar yordamida oksimetilaza fermentining geni aniqlandi. U fag xromosomasida joylashgan bo‘lib, fagning genetik xaritasida **42 gen** hisoblanadi.

Muallifni ta’kidlashicha mazkur fermentga chuqur to‘xtalib o‘tishni boisi boshqa fermentlarni ham hosil bo‘lishi shunga o‘xshashdir. Bu fermentlar infektion jarayonning birinchi yarmida hosil bo‘lib, ular virus qismlarini hosil qilishda ishtirok etadi, ammo etilgan virus tarkibiga kirmaydi. Bu fermentlar virus induksiya qilgan fermentlar bo‘lib ularni “**ertagi fermentlar**” yo “**ertagi oqsillar**”(rannie ferment) deb ataladi.

Virus DNK si substratinig sintezida ishtirok etadigan boshqa qator fermentlari T-juft fagi bilan kasallantirilgan ichak tayoqchasi hujayrasida yaxshi o‘rganilgan.

Infektion jarayon davrida d-STF ni d-SMF gacha defosforirlaydigan yangi **fosfataza** katta ahamiyatga ega. d-SMF ni keyingi o‘zgarishlari boshqa yangi paydo bo‘ladigan fermentlar vositasida boradi: **oksimetilaza** ta’sirida u d-OMSTF ga o‘tadi, boshqa ferment - **dezaminaza** d-SMF ni d-UMF ga, d-UMF **timidilatsintetaza** fermenti ishtirokida d-TMF ga o‘zgaradi. Virus induksiyalagan bu ikki guruh fermentlar ishtirokida fag uchun kerak bo‘lmaydigan d-STF chetlatiladi hamda fag DNK si sintezi uchun **o‘tmishdoshlar** hosil bo‘ladi. Undan tashqari kasallangan hujayrada dezoksiribonukleozidtrifosfatlar - to‘g‘ridan-to‘g‘ri fag DNK si sintezida qatnashadigan substratlarni hosil bo‘lishida qatnashadigan fermentlar hosil bo‘ladi. Keyinchalik nukleozidtrifosfatlarni fosforirlaydigan yangi **kinazalar** hosil bo‘ladi(19-rasm).



19-rasm.T-2 fagi bilan kasallangan *E.coli* hujayrasidagi dezoksiribonukleozidtrifosfatlarni sintezlanish sxemasi

To‘q qora strelkalar bilan fag induksiyalagan fermentlar katalizlaydigan reaksiyalar ko‘rsatilgan. 1 – d-STF ning pirofosfatazasi; 2) d-SMFning oksimetilazasi; 3) d-SMF ning dezaminazasi; 4) d-SMF ning timidilatsintetazasi; 5) kinaza(1)

Quyida endi *Bacillus subtilis* ni kasallantiradigan ba’zi faglarni DNA si sintezida ishlatiladigan substrat d-OMUTF ni hosil bo‘lishi bilan tanishamiz.

Bu holatda ham d-SMF ni d-UMFga o‘zgartiradigan **dezaminaza** fermenti paydo bo‘ladi. Bundan tashqari bu faglar ham o‘z hususiyatlari bilan T-juft faglarni oksimetilazasidan farq qiladigan oksimetilaza fermentini induksiya (hosil) qiladi: *Bacillus subtilis* ni oksimetilazasi d-UMFni d-OMUMF ga o‘zgartiradi. O‘ziga mos kinaza bilan d-OMUMF ni fosforirlab

d-OMUTF hosil qiladi. Qo‘srimcha ravishda mazkur fag hujayraning timidilatsintetaza fermentini aktivligini yo‘qotadigan oqsil ingibitorini hosil qiladi. IngibitorHing bo‘lishi fag uchun kerak bo‘lmaydigan d-TMF ni d-UMF dan hosil bo‘lishini to‘xtatadi. Fagning DNA si d-TMF o‘pHiga d-UMF dan iborat bo‘lsa noyob substratlarni hosil bo‘lishi ancha oson bo‘ladi. Unda asosiy reaksiya d-STF ni dezaminirlashdan iborat bo‘ladi.

Aytish joyizki, agar virus DNAsi tarkibi hujayra DNA si tarkibidan farq qilgan holdagina yangi fermentlar, faqat noyob substratlarni kerak bo‘lgandagina hosil bo‘lmasdan, balki hujayrada shu fermentlar bo‘lsa ham virus induksiya qiladigan fermentlar aktivligi oshishi mumkin. M., DNA-tutuvchi hayvon viruslari (ospovaksina, oddiy uchuq va h. kasallantirgan hujayralarda timidinkinaza (timdin) va timidilatkinaza (timidil kislotalarni fosforirlovchi) fermentlar aktivligi oshadi.

Mazkur virus induksiyalagan fermentlarni hujayra fermentlaridan termostabilligi, Mixaelis konstantasi, pH ga nisbatan aktivligi va antigen xususiyatlari farq qilishi aniqlangan.

Fermentativ reaksiyani ketishi uchun hujayra fermentiga qaraganda virus induksiyalaydigan ferment substratni past konsentratsiyasida ham keraklik tezlikda reaksiyani amalga oshiradi.

Virus DNK si sintezi uchun kerakli substrat bo‘lib hujayra DNK si ham ishlatalishi mumkin. Hujayra DNK si dezoksiribonukleotidmonofosfatgacha va dezoksiribonukleozidlargacha gidrolitik parchalanadi va ular keyin trifosfatlargacha fosforirlanadi.

Virus DNK asi uchun substrat manbasi bo‘lib hujayra ribonukleotidlari ham ishlatalishi mumkin.

Virus informatsion RNKsi

YUqorida ko‘rsatilgandek virus hujayraga kirgandan so‘ng hujayrada avval sintezlanmagan yangi fermentlar sintezlana boshlaydi. Demak virus DNK si hujayrani yangi ferment sintez qilishga o‘rgatishi kerak bo‘ladi. YAngi ferment bu aminokislotalar ketma-ketligi aniq bo‘lgan ferment oqsilidagi polipeptidlar zanjiridir. Polipeptidlarni ketma-ketligi haqidagi axborot virus DNK sining bir uchastkasidagi nukleotidlar ketma-ketligida kodlangandir. M., oksimetilaza fermentining shifrlangan sxemasi T-juft faglarning DNK sida kodlangandir. DNK ni oqsil sintezlanadigan ribosoma tushunishi uchun informatsion (vositachi – mesenjer) m- RNK mavjud. mRNA ning nukleotid ketma-ketligi unga komplementar bo‘lgan virus DNKsidagi nukleotidlar ketma-ketligi orqali beriladi. O‘z navbatida mRNA ribosomada sintezlanadigan polipeptid zanjiridagi aminokislotalar ketma-ketligini aniqlaydi. Fag bilan kasallangan hujayradagi virus spetsifik mRNA oksimetilazani hosil qiladi.

Virus DNK si sintezining fermentlari

Ikki guruh fermentlar mavjud. Birinchi guruhi - substratlarni yagona DNK ning polinukleotid zanjiriga birlashtiruvchi fermentlar va ikkinchi guruhi – sintezlangan DNK zanjirini qo‘srimcha modifikatsiyalovchi fermentlar.

Hujayradagi bor substratlар yordamida qiz virus (hujayra) DNK asini quradigan ferment – DNK-polimeraza fermenti deb ataladi. DNK ning sintezida bu fermentdan tashqari har xil funksiyalarni bajaradigan kompleks fermentlar sistemasi ishtiroy etadi. Demak, birinchisi har bir DNK zanjiriga komplementar polidezoksiribonukleotid zanjipHi tiklaydigan DNK polimeraza fermenti bo‘lsa, ikkinchisi endonukleazaga o‘xshash funksiyani bajaradigan ferment bo‘lib, DNK molekulasidagi fosfodiefir skeletiga bittadan ajratadigan-uzadigan (vnosuyaщie odinochnye razrv) ferment. Uchinchisi polinukleotidligaza fermenti bo‘lib DNK zanjirini ichida fosfodiefir bog‘larini ularni funksisini bajaradi. SHuningdek yana boshqa fermentlar ham bo‘lishi ehtimoldan xoli emas. Virus bilan kasallangan hujayradagi DNK- polimeraza virus bilan kasallanmagan hujayradagiga qaraganda katta farq qiladi. Hujayra DNK- polimerazasi va virus DNK- polimerazalari ingibitorlarga nisbatan hamda immunologik spetsifikligiga qarab xar xil sezgirlikga ega va h.

Ikki spirallik virus DNK si sintezida matritsa.

Viruslar ko‘payganda paydo bo‘lgan avlodida avvalgi ona virus zarralaridagi belgilar mavjud bo‘lishi kerak. Hujayra DNK sida virus DNK sigamos uchastkalarni yo‘qligi sababli matritsalik funksiyani faqat hujayrani

kasallantiradigan virus DNK si bajaradi. Ikki zanjirli virus DNK si replikatsiyasi Uotson Krik sxemasi bo'yicha amalga oshadi.

Polukonservativ replikatsiya. DNK ning birinchi qiz molekulalari bittadan ona zanjir va bittadan yangi sintezlangan qiz zanjir hisobiga tuziladi. Keyingi avlod molekulalarida esa ikki molekula DNK butunlay yangi materiallardan sintezlangan qiz molekulalaridan va ikkita boshqasi bittadan ona zanjiri molekulasidan tarkib topadi va h. Replikatsiya sikli qancha bo'lishiga qaramasdan DNKnинг ona zanjiri materiali DNK avlodida uchraydi, ona zanjir materialidan tuzilgan molekulalarni 50% undan tuzilgan bo'ladi.

Dispersion mexanizm. Bu mexanizm bo'yicha DNK replikatsiyalanganda virusning ona DNK asi hujayraga tushgandan so'ng mayda bloklarga (nuklotidlargacha) maydalanadi, so'ngra bu bloklar yangi qiz DNK molekulasini qurishda qatnashadi. Ona DNK materialini qiz molekulalarda qanchalik tarqalib uchrashini tasdiqlash uchun quyidagicha tajriba qo'yilgan. DNK ni gradient zichlikda sentrifuga qilishdan ilgari ultratovush yordamida parchalanadi. Radioaktiv material tutuvchi fragmentlar engil va og'ir zanjirlar zichligi zonalari orasida joylashadi. Demak, fragmentdagи zanjirlarni biri engil (radioaktiv), ikkinchisi – og'ir zanjir. Demak, fragmentlar polukonservativ usulda hosil bo'ladi.

Qilingan tajribalarni xulosa qilib shunday xulosa qilinadi. YA'ni DNK ning replikatsiyasi polukonservativ mexanizm asosida amalga oshadi, DNK ning molekulalari orasida ayrim fragmentlar bilan almashinish ro'y berishi mumkin. Bu almashinish jadalligi har xil viruslarda har xil bo'ladi. T-juft faglarda lyambda faginikiga qaraganda ancha yuqoriroq bo'ladi va h.

Virus DNK si sintezining sxemasi. Ikki spiralli virus DNK si hujayrada ikki funsiyani balki parallel, balki ketma-ket bajarishi kerak bo'lsa kerak. YA'ni ikki zanjarli DNK da oqsil sintezi ketishini ta'minlaydigan i-RNK lar trankripsiysi bo'lishi kerak va bu i-RNK lar ribosomada oqsil sintezida qatnashadi. Natijada har xil virus spetsifik oqsillar sintezlanadi. Ikkinchidan infektion jarayon sodir bo'layotgan hujayrada virus RNKsinig yangi avlodlari sintezlanishi kerak. Bunda yangi qiz virus DNK si molekulalari sintezlanadi. Unda albatta ribosomada sintezlangan fermentlar ishtirok etadi.

7.3. Bir zanjirli DNKnинг replikatsiyasi

Bir zanjirli virus DNK sining sintezi ham komplementarlik prinsipi asosida amalga oshadi. Komplementarlik prinsipi bo'yicha bir zanjirli virus DNKsida ("musbat" zanjir) unga komplementar (o'xshash bo'lmagan) molekula ("manfiy" zanjir) hosil bo'ladi. Ammo oxirgi mahsulot bo'lib yana musbat zanjirlar paydo bo'lishi kerak. Qiz musbat zanjirlar komplementarlik prinsipi bo'yicha hosil bo'ladi, ammo ularga matritsa bo'lib oldindan yangi hosil bo'lgan manfiy zanjirlar xizmat qiladi.


φ X 174 fagi bilan kasallangan hujayrada bu jarayon quyidagicha ketishi mumkin. Bu fagning DNK si bir zanjirli xalqa shaklda bo'ladi. Fag bilan hujayra kasallangandan so'ng bu DNK molekulasi ona molekulasidan keskin farq

qiladigan xususiyatlari alohida shaklga o'tadi. Fizik-kimyoviy usullar yordamida bu DNK ajratib olingan va uning xususiyatlari o'rganilgan. Uni virus tabiatli ekanligini, uni yuqumliligi orqali aniqlandi. Birqancha kompleks belgilari uni ikki zanjirli ekanligidan dalolat berdi.

Bu DNK ning qovushqoqligigi va temperatura ta'siridagi optik zichligini o'zgarishlari (plavlenie DNK) yangidan fagdan ajratilgan DNK adan keskin farq qiladi, ammo olingan ikki zanjirli DNK preparatinikiga esa mos keladi. Hisoblashlar shuni ko'rsatadiki, gradient zichlikda sentrifuga qilinganda etilgan fagdan ajratilgan ikki zanjirli DNK ga o'xhash ko'rsatkichlarga egaligi ko'rindi. Nazariy jihatdan bu DNK ni nukleotid tarkibi ikki zanjirli DNK nikiga o'xhash bo'lib chiqdi (Chargaff qoidasi bajariladi). Bu yangi DNK - DNK ning replikativ shakli(RF) deb nomlandi.

φ X174 fagining replikativ formasi siklik xalqa shakliga ega. Bunday tuzilishni elektron mikroskopda ham tasdiqlandi. RF nuklein kislota uchlaridagi nukleotidlarni uzadigan ekzonukleazalarga o'ta rezistent.

RF qanday hosil bo'ladi degan savolga quyidagicha javob bersa bo'ladi. RF ni birinchi molekulasini hosil bo'lishiga (to'g'riroq'i "manfiy" zanjipHi hosil bo'lishiga) matritsa, substrat va fermentlar zarur. φ X 174 fagini nuklein kislotasini tarkibiga xuddi ichak tayoqchasi DNK sining tarkibidagidek nukleotidlар kiradi, shuning uchun yangi substratlarni sintezi uchun zaruriyat yo'q, hujayrada bor dezoksiribonukleozidtrifosfatlar RF sintezi uchun ishlatiladi. Ferment bo'lib hujayradagi ferment(lar) ishlatilishi mumkin. Ona zanjir materiallaridan hosil bo'lgan RF ni hosil bo'lishi hujayradagi ikki ferment yoramida amalga oshadi. Virusni "musbat" zanjirida DNK-polimeraza komplementar "manfiy" zanjipHi sintezlaydi, ammo bu ferment DNK ning ikki uchidagi fosfodiefir bog'larini kovalent - yopiq xalqa qilib bog'layolmaydi. Natijada iplarni birida fosfodiefir bog'ları etishmagan(uzilgan joyi bor) xalqali struktura hosil bo'ladi. Bu shakl RF 2 deb nomlangan bo'lib, hujayrada bor bo'lishi mumkin. Infektion jarayonning "erta" bosqichida mazkur fosfodiefir bog'i etishmayotgan qismi hujayradagi polinukleotidligaza fermenti bilan qaytarilib, yopiq xalqa hosil bo'ladi (RF 1). Ona DNK RF molekulasi hosil bo'lgandan so'ng keyingi bosqich - bu DNK ning replikatsiya bosqichi bo'ladi. Bu replikatsiya yarimkonservativ usulda amalga oshadi, ya'ni RF ning har bir zanjiridan biri ikki xar xil qiz molekulalarga tushadi. Bu erda bir umumiyl mulohaza qilish o'rindidir, ya'ni RF ni replikatsiyasi uchun uch xil ferment funksiyasi zarur bo'ladi. Birinchidan, DNK-polimerazaga o'xhash ferment bilan polinukleotid zanjipHi sintezini ta'minlashi kerak. Ikkinchidan, etishmayotgan zanjir uchlarini polinukleotidligazaga o'xhash ferment bilan bog'lash zarur. Uchinchidan, ikki qiz zanjir molekulasini ajratish uchun fosfodiefir bog'larini uzadigan endonukleazaga o'xhash ferment zarur.



20 -rasm. Birzanjirli ϕ X 174 fagining replikatsiya sxemasi
Halqali ona zanjir nuqta bilan belgilangan; k – hujayra qismlari bilan kompleks hosil qilshini ko’rsatadi(1).

Mazkur fermentlardan bittasi bo’lsa ham RF molekulasi replikatsiyasida qatnashadigan virusspetsifik (virus genomida kodlantirilgan) ferment bo’lishi kerak. Birinchi ona RF molekulasini hosil bo’lishida oqsil sintezi umuman yo’qligida amalga oshsa, yarim konservativ usulda replikatsiya bo’lishi uchun qandaydir yangi oqsil sintezi zarur bo’ladi. Shunday virusspetsifik oqsil toza xolda ajratilgan, ammo uni funksiyalari o’rganilmagan.

RFni ona molekulasi hujayra membranasidagi struktura bilan kompleksda bo’lsa kerak. Sintezlanayotgan bir qism qiz molekulalar mazkur komponent bilan kompleksda bo’lsa, boshqa qismi erkin holda sitoplazmaga o’tadi. Hujayra strukturasi bilan kompleksda bo’lgan RF gina replikatsiyalanadi degan taxminlar bor. Bu bog’langan molekulalar ma’lum qismi replikatsiya uchun kerak bo’lgan RF 2 holatida bo’ladi. Sitoplazmada bo’lsa RF 1 ko’pchilikni tashkil qiladi. SHunday qilib infektion jarayonning erta boshlanish vaqtida bir qism RF **yarimkonservativ usulda replikatsiyalanadi**, qolgan qismi esa sitoplazmada to’planadi. Hujayrani fag bilan kasallanganidan so’ng 15-20 minutgacha RF molekulalarini miqdori oshib boradi. Undan so’ng RF molekulalarini oshishi to’xtaydi va sitoplazmada bir zanjirli “musbat” molekulalar hosil bo’ladi.

Nazariy jihatdan o‘ylab ko‘riladigan bo‘lsa bu ikki spiralli molekulada bir qancha usullar yordamida replikatsiya sodir bo‘lishi mumkin. Birinchidan, konservativ mexanizm usulida replikatsiyalanishi mumkin deb faraz qilish mumkin. Bunda ona RF “musbat” zanjir molekulalari faqat qoliqlik vazifasini bajaradi va uni molekulalari qiz molekulalarda qatnashmaydi (o‘tmishdoshlik vazifasini bajarmaydi). Ikkinchidan, RF molekulalarining “musbat” zanjiri virus zarrasiga o‘tadi. Keraksiz bo‘lib qolgan “minus” zanjirlar esa saylanib parchalanishi mumkin yoki “musbat” zanjirlar assimetrik yarimkonservativ usulda replikatsiyalanadi. “Manfiy” zanjirda sintezlangan yangi “musbat” zanjir RF molekulasidan ajraladi va fag tarkibiga kiradi, bo‘sh qolgan “manfiy” zanjir yana keyingi yangi “musbat” zanjir sintezi uchun matritsa bo‘lib xizmat qiladi. φ x174 fagining replikatsiyasi bo‘yicha olingan natijalar konservativ mexanizm yordamida replikatsiya ro‘y bermayotganini ko‘rsatmoqda.

Virus DNK si sintezining idora qilinishi. Infektion jarayon sodir bo‘layotgan hujayradagi hosil bo‘ladigan virus DNK sining miqdori va infektion siklning har xil bosqichlarida bu molekulalarning sintezlanish tezligi “virus-hujayra” kompleksi sistemasida nisbatan stabil. Qanday faktorlar virus DNK si sintezini idora qiladi va chegaralaydi degan savol bo‘lishi tabiiydir. Har xil sistemalarda idora qilish har xil faktorlarga bog‘liq bo‘ladi. DNK ning sintezlanish tezligi substratlarni borligiga, matritsa-molekulaning miqdoriga (dostupniyligiga), DNK replikatsiyasida ishtrok etadigan fermentlarning borligi va aktivligiga bog‘liq bo‘ladi. Bu parametrlar o‘z navbatida xo‘jayin-hujayraning fiziologik holatiga va virus-spetsifik oqsillarni sintezlanish dinamikasiga bog‘liq bo‘ladi. Yana bir muhim faktor bu virus DNKsi va hujayra membranasi orasidagi kompleks hosil bo‘lishidir. Albatta, bu murakkab munosabatlarni sirlarini bilish ko‘p izlanishlarni talab qiladi.

E’tibor berish kerakki, virus DNK si bir vaqtning o‘zida ham infektion RNK bo‘lib, ham yangi DNK molekulalarini sintezida qatnashishi kerak bo‘ladi. Virus DNK sining bu ikki funksiyani qanday almashlab idora qilinishi katta umumbiologik ahamiyatga ega, ammo bu amaliy jihatdan umuman o‘rganilmagan.

Virus DNK si sintezining hujayradagi lokalizatsiyasi (joyylanishi).

Bu masalani o‘rganishga juda ko‘p sitologik ishlar bag‘ishlangan. Virus DNK sining sintezi hujayra membranasiga bog‘liq holatda sintezlanadi deyish mumkin. Hayvon viruslari DNK sining sintezi har xil hujayra strukturalarda lokalizatsiyalangan bo‘lishi mumkin. Chechak guruhi viruslari sitoplasmada hosil bo‘ladi. Adenoviruslar DNK si, uchuq viruslari va polioma viruslari DNK si yadroda lokalizatsiyalangan. Nega ular mazkur strukturalarda lokalizatsiyalangan degan savol hali to‘la aniqlangan emas.

Agar infektion jarayonda bir hujayra birqancha virus zarralari bilan zararlansa ularni har biri o‘zini alohida xududida, bir-biridan ayrim joyda DNK sini replikatsiyalaydi.

7.4. Virus RNK sining sintezi

Etilgan virus zarrasining tarkibidagi RNK ning replikatsiyasi bilan tanishishdan oldin hujayra RNK sining replikatsiyasi bilan tanishamiz.

Hujayra RNK si sintezining umumiy sxemasi. Hujayra RNK si sintezi uchun substrat bo‘lib ribinukleozidtrifosfatlar (ATF, GTF, STF va UTF) xizmat qiladi. Bu substratlarni yagona polinukleotid zanjirga biriktirish RNK-polimeraza fermenti yordamida amalga oshiriladi. Hujayradagi hamma tipdagi RNK larning (informatsion, ribosomal va transport) matritsasi hujayra DNK si hisoblanadi. Bu DNK ning ma’lum uchastkalarida hamma tip RNK lar uchun komplementar sistronlar mavjud. Hamma hujayra RNK larini matritsasi hujayra DNK sidir. Bu fikrHi tasdiqlash uchun qilingan tajribalarda aktinomitsin D ishtirok etishi hamma tipdagi yangi RNK molekulalari sintezini to‘xtatadi (antibiotikni ta’sir mexanizmi - DNK transkripsiya jarayonini tormozlashdir) (blokirovka qilib qo‘yishdan iborat).

Virus RNK si sintezini o‘rganish metodlari.

1) Virus RNK si sintezini o‘rganish metodlari ichida eng ahamiyatlisi uni **yuqumlilikini** miqdoriy aniqlashdir. Albatta bu metod virusni yuqumli nuklein kislotasini ajratish imkonи bor viruslar uchun qo‘llaniladi.

2) Virus RNK sining sintezini o‘rganishni eng keng qo‘llaniladigan usuli RNK sintezini **radioaktiv o‘tmishdoshlarini** (uridin, fosfat va h.) **ishlatish** usulidir. Bunda avvalo hujayra RNK sini sintezini tanlab to‘xtatadigan ingibitorlarni ishlatiladi (m., aktinomitsin D va unga yaqin birikmalar). Bunday sistemalarda RNK sintezini radioaktiv o‘tmishdoshlarini RNK ga o‘tishi birikishi virus-spetsifik RNK sintezini o‘lchovi bo‘lishi mumkin. Bu guruh RNK ga virus RNK sidan tashqari boshqa guruh RNK lar ham kirishi mumkin. Virus bilan kasallangan hujayradan summar RNK ajratib olinadi har xil usullarda fraksiyalarga ajratiladi, m., summar RNK ni gradient zichlikda sentrifugalab (yoki xromatografiya usullari orqali), etilgan virus zarrasidan ajratilgan RNK xususiyatiga yaqin RNK ajratib olinadi. Bu fraksiyani radioaktivligi virus RNK sining sintezi jadalligini ko‘rsatadi.

Virus RNK sintezini avtoradiografiya usullari tadqiq qilish ham virus RNK si sintezidan ma’lumot beradi. Bunday tajribalarda kasallangan hujayralarni RNK si sintezini aktinomitsin D bilan igibirlanadi va RNK sintezi o‘tmishdoshlari qilib radioaktiv tritiy bilan nishonlangan uridin ishlatiladi.

Virus RNK si sintezi substratlari. Shu vaqtgacha virus RNK lari ichida hujayra RNK sidan farq qiladigan noyob nukleotidlар topilmagan. Shuning uchun ham virus RNK si sintezi uchun ham hujayrada virus bilan kasallanishidan ilgari mavjud bo‘lgan substratlар ishlatiladi (ATF, GTF, UTF va STF). Shuning uchun substrat hosil qiladigan “ertagi” fermentlar sintezini hojati qolmaydi.

Virus RNK sintezining fermentlari. Virus RNK si sintezining fermentlari juda kam o‘rganilgan. Ba’zi mayda RNK tutuvchi Q β va MS2 faglaridagina o‘rganilgan. Fag bilan kasallangandan so‘ng hujayrada fermentativ aktivlik paydo bo‘ladi. Ozgina virus RNKsini matritsa sifatida ishlatib fermentativ aktivlik natijasida ribonukleozidtrifosatlardan yangi virus RNK si paydo bo‘ladi.

Bu ferment RNK-replikaza (RNK-sinetaza, virus RNK-polimerazasi, RNK-mute RNK-polimeraza) nomini olgan. Fag induksiyalangan RNK-replikaza juda katta spetsifiklikga egadir. Qβ tomonidan sintezlangan RNK-replikaza MS2 fagining RNK sini matritsa qilib taxminan 100 martagacha yomon ishlataladi. Ikkinchisi tomonidan esa, MS2 fagining replikazasi gomologik matritsa (MS2 fagining RNK si)ni matritsa qilib Qβ fagining RNKsiga qaraganda 100 martagacha yaxshi ishlataladi. Fag replikazasi boshqa viruslarni RNK sini va hujayra RNK larini matritsa qilib umuman ishlata olmaydi. Demak fag replikazasi “o’zini” RNK sini va “begona” faglarni RNK sidan ajrataolish xususiyatiga ega. Qβ fagining replikazasi toza holda ajratib olingan va qator xususiyatlari o’rganilgan. Bu ferment ikki subbirlikdan tuzilgan – molekulyar massasi 130 000 bo’lgan og‘ir va 80 000 molekulyar massaga ega engil subbirlikdan iborat. Bu subbirliklarni birortasi ham ayrim olinganda virus RNK si sintezini katalizlayolmaydi. Ammo og‘ir subbirlik poli-S ni matritsa qilib poliguanilkislotani (poli-G) kataliz qilaolish xususiyatiga ega. **Ayrim ajratilgan subbirliklarni aralashtirib olingan kompleks normal replikaza aktivligiga ega bo‘ladilar.** Tekshirishlar natijasida aniqlanishicha, engil subbirlik fag bilan kasallantirilmagan hujayradan ham ajratib olinishi mumkin ekan. Normal engil subbirliklar kasallangan hujayrani og‘ir subbirliklari bilan aralashmasi yuqumli virus RNK sini sintezini katalizlashi mumkin ekan.

Bu olingan natijalar ko‘rsatishicha, replikazaning bitta komponenti xo‘jayin-hujayra genomida kodlashtirilgan ekan. Demak, biz bu erda **noyob qonuniyat** bilan to‘qnashamiz, ya’ni virus reproduksiyasi uchun kerak ferment virus va hujayra subbirliklari kompleksidan tashkil topar ekan.

Ba’zi RNK tutuvchi hayvon viruslari kasallantirgan hujayralarda (pikopHaviruslar, miksoviruslar va arboviruslarda) RNK-replikazaga o‘xhash fermentlar topilgan, ammo ularni xususiyatlari hali chuqur o’rganilgan emas.

Fitoviruslar bilan kasallangan o‘simliklarni hujayrasiz ekstraktlaridan virus-spetsifik RNK ni sintezini kataliz qilish xususiyatiga ega. Aytish mumkinki, bu o‘simlik ekstraktlarida ham RNK-replikazaga o‘xhash ferment mavjud ekan. Hozircha ribopolinukleotidlar zanjiri shakllanishida ligazaga, endonukleazalarga o‘xhash fermentlarni qatnashishi xaqida axborotlar yo‘q, ammo bu bilan ularni borligini inkor etish ham mumkin emas. Albatta virus RNK si sintezi enzimologiyasi rivojlanib borayotgan jabhalar qatoriga kiradi. Kelguvsida bu sohada yangi kashfiyotlar bo‘lishi mumkin deb ishonch bilan aytish mumkin.

Birzanjirli virus RNK si sintezining matritsasi.

Hujayra RNK si va virus RNK larini sintezida katta farq mavjud bo‘lib, ya’ni virus RNK si sintezida matritsa bo‘lib virus RNK si qatnashsa, hujayra RNKlari sintezida esa matritsa bo‘lib hujayra DNK si qatnashadi. Bu fikrini qo‘llaydigan uchta fikr mavjud:

1) Hujayra DNK sida virus RNK siga gomologik bo‘lgan uchastka mavjud emasligi RNK-tutuvchi viruslar bilan o‘tkazilgan tajribalar asosida isbotlandi.

2) Virus RNK sinining replikatsiyasi hujayra DNK sinining sintezi butunlay “bloklangan” holatida ham yuz beradi.

3) DNK ni virus RNK si replikatsiyasida qatnashmasligini ko'rsatadigan uchinchi fikr bu aktinomitsin D virus RNK sini hosil bo'lishini umuman to'xtataolmaydi, ammo DNK matritsada RNK larni sintezi butunlay to'xtab qoladi.

RNK-tutuvchi hayvon viruslarining aktinomitsin D ga bo'lgan rezistentligi keyinchalik o'simlik viruslarida va RNK tutuvchi faglarda ham aniqlandi.

RNK sintezlanadigan sistema to'la DNK kazaga rezistentligini ko'rsatadi va matritsa sifatida esa RNK ni ishlatadi.

Hamma olingen natijalar asosida virus RNK si sintezida matritsa bo'lib faqat virus RNK si qo'llanilishi isbotlandi. Keyingi masala bu bir zanjirli matritsa qanday qilib o'z funksiyasini amalga oshirishidir. Bir zanjirli RNK replikatsiyasida komplementarlik prinsipi mexanizmi asosida replikatsiya amalga oshadigan bo'lsa virus bilan kasallangan hujayrada "manfiy" zanjipHi bo'lishi shart bo'ladi (nukleotid ketma-ketligi virus RNK si nukleotid ketma-ketligiga komplementar bo'lgan RNK molekulasi). 1963 yilda RNK-tutuvchi viruslar bilan kasallangan hujayralarda alohida shaklli virus-spetsifik RNK ni borligi aniqlanadi. Bu forma RNK virus RNK sidan ba'zi xususiyatlari bilan farqlanadi: bu RNKnini konstanata sedimentatsiyasini kichikligi, sulfat seziyda suzish zichligini (plavuchaya plotnost) kichikligi (kamligi) konsentrangan tuzli eritmalarda cho'kmaga tushmasligi, (m., 2 M NaCl) va xromatografik ko'rsatkichlari bilan ham farqlanadi. SHunday xususiyatlariga asosan bu RNK ajratib olinishi va tozalanishi mumkin. Ko'p xususiyatlari bu RNK ni komplementar zanjirlardan ("musbat" virusli zanjir va "manfiy" zanjir) tuzilgan qo'shspiralli ekanligidan dalolat beradi. Bu RNK ni nukleotid tarkibi ikki spiralli polinukleotidlarga xos bo'lgan Chargaff qoidasiga bo'ysunadi. O'rtacha va konsentrangan tuzli eritmalarda replikativ forma molekulalari pankreatik RNK kazani gidrolistik ta'siriga chidamli, bu ham bu RNK ni ikki zanjirliligidan dalolat beradi. Denaturatsiya qilingandan so'ng (qizdirilganda) RNK ning molekulalari RNK-azaga sezgirligi namoyon bo'lib qoladi. Uning ikki spiralligi to'g'ridan-to'g'ri rengenostruktura analizi yordamida tasdiqlandi.

Hamma olingen natijalar RNK ning replikativ formasini bir-biriga komplementar qo'sh spiralli ekanligini ko'rsatdi. Ammo bu faktlar bu ikki polinukleotidlarni birini virus RNK si molekulasi ekanligini ko'rsatmaydi. Bu holatni birqancha usullar yordamida isbotlanadi. Replikativ formani molekulyar massasi virus RNK sini molekulyar massasidan ikki marta ko'pligi. Replikativ formani uni denaturatsiyasidan so'ng hosil bo'ladigan "manfiy" zanjiri virus zarrasidan ajratilgan RNK bilan kompleks hosil qiladi. Replikativ forma holida ham hayvon viruslarida yuqumlilik xususiyatini namoyon qiladi, faglarda esa denaturatsiya qilingandan so'ng (ikki zanjirli holatdan bir zanjirli holatga o'tganidan so'ng) yuqumlilik xususiyatini ko'rsatadi.

Demak, kasallangan hujayradagi replikativ forma bu hujayrada RNK sintezi mexanizmi borligidan dalolat beradi. Hozirgi vaqtida replikativ formani **fiziologik roli** haqida har xil fikrlar mavjud. Bir qator tadqiqodchilar replikativ forma virus "musbat" zanjirini sintezida qatnashadi deb taxmin qilishadi. Bu fikr

bo‘yicha Qβ fagining tozalangan replikativ formasini hosil bo‘lishini kataliz qiladigan reaksiyada ularni biri “musbat” zanjir va unga komplementar polinukleotid zanjirdan tuzilgani qo‘sh spiralli mahsulot hosil bo‘ladi. Shundan keyingina keyingi oraliq mahsulotlar, ya’ni yangi virus RNK lari hosil bo‘ladi.

Keyingi tadqiqodlarni ko‘rsatishicha virus bilan kasallangan hujayrada “manfiy” zanjirchani faqat replikativ forma shaklidagina emas, balki hujayrada shunday struktura borki u ham “musbat”, ham “manfiy” zanjirlardan iborat, ultratsentrifuga qilganda replikativ formadan ilgariroq cho‘kadi va qisman RNKaza bilan parchalanadi. Ferment bilan ishlov berilgandan so‘ng replikativ formaga o‘xshab qoladi. Yuqorida ko‘rsatilagan va boshqa xususiyatlari, elektron mikroskopda olingan natijalar bu strukturani ikkizanjirli o‘zakka ega va unga birqancha bir zanjirli uchastkalar yopishgan bo‘lib, bunday strukturaga **replikativ o‘tmishdosh (replikativny predshestvennik)** deb nom berilgan. Ko‘pgina olimlarni fikricha replikativ o‘tmishdoshgina birzanjirli virus RNK si sintezida qatnashadi.

N’yukastl kasalligi virusi bilan zararlangan hujayrada RNK ning “musbat” zanjir bilan birikmagan “manfiy” zanjirlari to‘planganligi aniqlandi.

RNK tutuvchi viruslar bilan kasallangan hujayralarda RNK ning “manfiy” zanjirlarini bo‘lishi (replikativ forma, replikativ o‘tmishdosh tarkiblariiga kirgan yoki erkin xoldagi) shunday xulosa qilishga imkon beradi, ya’ni **“manfiy” zanjirlar “musbat” virus zanjirlar hosil bo‘lishida matritsa bo‘lib xizmat qiladi**. Qβ fagining tozalangan replikazasi sistemada ayrim holda ajratilgan “manfiy” zanjir bo‘lgandagina virus RNK si sintezini amalga oshiradi.


Nazariy jihatdan komplementar matritsada birqancha “musbat” zanjir hosil bo‘lish sxemasi bo‘lishi mumkin.

Konservativ replikatsiya (21-rasm). Ikki zanjirli yoki bir zanjirli matritsada qiz “musbat” zanjirlar sintezlanadi, ammo matritsanı materiali qiz molekulalar tarkibiga kirmaydi. Ikki zanjirli replikativ forma matritsa qilib ishlatiladigan bo‘lsa sintez vaqtida **replikativ o‘tmishdoshdagidek struktura** hosil bo‘ladi.

Ikkinchidan, yangi “musbat” zanjirlar yarimkonservativ usulda sintezlanadi, deb hisoblash mumkin. Bu erda ikki variantni ko‘z oldiga keltirish mumkin. YA’ni yarimkonservativ usuldagagi replikatsiyaga RNK ni ikkizanjirli replikativ formadagi shakli qatnashishi mumkin (22-rasm. a). Bunda ikkimolekulali formadagi molekulalar ko‘payishi mumkin. So‘ngra kerak bo‘lmay qolgan “minus” zanjirlarni tanlab parchalanishi mumkin, hujayrada kerakli miqdorda virus RNK si to‘planadi. Yarim konservativ usulning boshqa varianti bo‘yicha esa ikki spiralli matritsada bir zanjirli “musbat” zanjir sintezlanadi. Endi “eski” (replikatiq forma tarkibiga kirgan) “musbat” zanjini yangi sintezlanayotgan “musbat” zanjir tomonidan siqib chiqariladi (b), bu usul asimmetrik yarim konservativ mexanizm, deb ataladi, va bu mexanizmda ham oraliq strukturali mahsulotlar sifatida **replikativ o‘tmishdoslar** hosil bo‘ladi. “21 va 22 rasmlarni qiyosiy taqqoslaydigan bo‘linsa, **replikativ o‘tmishdoshning molekulyar sintez bo‘lishi konservativ va yarimkonservativ usullar farqli**


bo‘ladi. Birinchi usulda yangi sintezlangan “musbat” zanjir erkin bo‘lsa, ikkinchi usulda ikki zanjirli strukturadan avval sintezlangan “musbat” zanjir siqib chiqariladi. Bu ikki usulni tarafdorlari va ularni raqiblari ikki usulda ham sintezni amalga oshishi mumkinligini isbotlaydigan dalillar keltirishadi. Qanday bo‘lganda ham hozircha mayda RNK-tutuvchi faglarda va hayvon viruslarida “musbat” qiz molekula hosil bo‘lishi “minus” molekulalar yordamida hosil bo‘ladi. Bu reaksiyalarni amalga oshirishda Q β fagining tozalangan replikaza fermenti amalga oshirishi aniqlangan.

Yirik RNK tutuvchi viruslarda, miksoviruslarda va paramiksoviruslarda yuqoridagi usulda amalga oshiriladi.



21-расм. Икки спиралли матрицада вирус РНК сининг консерватив репликацияси.

Штирихли чизиқ янги синтезланган занжирни кўрсатади. I-III – жараённинг кетма-кетлик босқичлари



22-расм. Вирус РНК сининг ярим консерватив усулда гирепликацияси а –“минус” занжирни кетма-кет танлаб парчаловчи симметрик репликация; б) – ас симметрик репликация. Штирихли чизиқ янги синтезланган занжирни кўрсатади. I-III – жараённинг кетма-кетлик босқичлари

Ikki zanjirli virus RNK sining replikatsiyasi.

Ikkizanjirli virus RNK sining sintezi reoviruslar misolida yaxshi o‘rganilgan. Bu virusning toza preparatidan RNK molekulalarini murakkab aralashmasi ajratiladi. Hisoblashlar va elektronmikroskopning natijalarini ko‘rsatishicha har bir virus zarrasi har xil molekula massasiga ega 10-11 ikkizanjirli molekulalardan tashkil topadi. Undan tashqari har bir virus zarrasi birqancha yuz bir zanjirli kichik molekulyar massaga ega bo‘lgan RNK molekulalaridan iborat.

Ikkizanjirli virus RNK sini replikatsiyasi ikki zanjirli virus DNK sining sinteziga o‘xshash ananaviy **yarim konservativ usulda** amalga oshadi deb faraz qilish mumkin. Mazkur masalalar yaqin kelajakda butunlay hal bo‘ladi, deb umid qilamiz.

7.5. Virus oqsillarini sintezi

“Virus oqsili” deganda etilgan virus zarrasining tarkibiga kiruvchi oqsilni hamda virus induksiya qiladigan (virus genomida kodlantirilgan) infektion jarayonda qatnashadigan, ammo virus tarkibiga kirmaydigan oqsillarni ko‘z oldiga keltiriladi.

Hujayra oqsillari sintezining umumiy sxemasi. Virus nuklein kislotasini sintezida aytilgan uch faktorlari kerakligini bu erda ham qo‘llaydigan bo‘lsak ancha murakkabliklarni kuzatamiz.

Hujayra oqsilini sintezi uchun substrat bo‘lib aminokislotalar xizmat qiladi. Avvalo ular ATP bilan birikib aktivlashtiriladi va aminoatsiladenilatlar hosil bo‘ladi. Aminoatsiladenilatlar transport RNK lar (transfer, adaptor, eruvchan RNK, tRNK) bilan reaksiyaga kirib, aminoatsil-tRNK hosil qiladi. Bu ikki reaksiya aminoatsil-tRNK-sintetaza fermenti tomonidan katalizlanadi. Har bir aminokislota bitta yoki birqancha tRNK va bitta yoki birqancha amino-atsil-tRNK-sintetaza fermenti mos keladi. Aminoatsil-tRNK oqsil sintezida kerakli substrat bo‘lib xizmat qiladi.

Matritsa bo‘lib hujayra DNK sining mos sistronda sintezlangan informatsiya (matritsa) RNK si (mRNK) xizmat qiladi. U matritsa bo‘lishi uchun avvalo ribosoma bilan birikishi kerak. Bu jarayon ancha murakkab bo‘lib, birqancha bosqichlardan iborat. Avvalo uchlangan - m RNK, t-RNK va ribosomani kichik subbirligidan tashkil topgan kompleks hosil bo‘ladi. So‘ng’ra bu kompleksga ribosomani katta subbirligi birikadi. Bu kompleksni hosil bo‘lishida maxsus oqsil faktorlar ishtiroy etadi. Keyinchalik boshqa oqsil faktorlar ishtiroyida polipeptid zanjirini sintezi boshlanadi. mRNA molekulasi ribosoma bo‘ylab siljiydi; iRNK ning ma’lum tripletlari (kodonlar) ularga komplementar bo‘lgan aminoatsil tRNKning tripletlari (antikodonlar) bilan muloqatda bo‘ladi. Natijada ribosomada aminokislota qoldiqlarini ketma-ket bir-biri bilan birlashish reaksiyasi sodir bo‘ladi. Ribosomada mRNA ni axborotini o‘qish tartibi ma’lum yo‘nalishda – molekulaning 5'- oxiridan 3'- oxiriga qarab boradi. Polipeptid zanjirini hosil bo‘lishiga signal bo‘lib mRNA dagi ma’lum tripletlar – initsiatsiyalovchi tripletlar xizmat qiladi. Bakteriya hujayralarida initsiirlovchi tripletlar bo‘lib AUG va GUG tripletlar xizmat qiladi. Bu tripletlar tRNK molekulasi idagi antikodon - formil-metionin qoldig‘ini olib yuruvchi tripletlardir. Demak, sintezlanayotgan har qanday polipeptid zanjirida birinchi aminokislota bo‘lib formil metionin turadi. Polipeptid zanjirini sintezlanishini to‘xtatish uchun signali bo‘lib mRNA dagi ma’lum tripletlar – terminirlovchi tripletlar xizmat qiladi. Bu funksiyani UAA, UAG, UGA kodonlar bajaradi.

Hujayra oqsillari sintezining umumiyyatli sxemasi. Virus nuklein kislotasini sintezida aytilgan uch faktorlari kerakligini bu erda ham qo'llaydigan bo'lsak ancha murakkabliklarni kuzatamiz.

Hujayra oqsilini sintezi uchun substrat bo'lib aminokislotalar xizmat qiladi. Avvalo ular ATP bilan birikib aktivlashtiriladi va aminoatsiladenilatlar hosil bo'ladi. Aminoatsiladenilatlar transport RNK lar (transfer, adaptor, eruvchan RNK, tRNK) bilan reaksiyaga kirib, aminoatsil-tRNK hosil qiladi. Bu ikki reaksiya aminoatsil-tRNK-sintetaza fermenti tomonidan katalizlanadi. Har bir aminokislota bitta yoki birqancha tRNK va bitta yoki birqancha aminoatsil-tRNK-sintetaza fermenti mos keladi. Aminoatsil-tRNK oqsil sintezida kerakli substrat bo'lib xizmat qiladi.

Matritsa bo'lib hujayra DNK sining mos sistronida sintezlangan informatsiya (matritsa) RNK si (mRNK) xizmat qiladi. U matritsa bo'lishi uchun avvalo ribosoma bilan birikishi kerak. Bu jarayon ancha murakkab bo'lib, birqancha bosqichlardan iborat. Avvalo uchlangan - mRNK, t-RNK va ribosomani kichik subbirligidan tashkil topgan kompleks hosil bo'ladi. So'ngra bu kompleksga ribosomani katta subbirligi birikadi. Bu kompleksni hosil bo'lishida maxsus oqsil faktorlar ishtirok etadi. Keyinchalik boshqa oqsil faktorlar ishtirokida polipeptid zanjirini sintezi boshlanadi. mRNA molekulasi ribosoma bo'ylab siljiydi; mRNA ning ma'lum tripletlari (kodonlar) ularga komplementar bo'lgan aminoatsil tRNKnинг tripletlari (antikodonlari) bilan mulqoqatda bo'ladi. Natijada ribosomada aminokislota qoldiqlarini ketma-ket bir-biri bilan birlashish reaksiyasi sodir bo'ladi. Ribosomada mRNA ni axborotini o'qish tartibi ma'lum yo'naliishda – molekulaning 5'-oxiridan 3'-oxiriga qarab boradi. Polipeptid zanjirini hosil bo'lishiga signal bo'lib mRNA dagi ma'lum tripletlar – initsiatsiyalovchi tripletlar xizmat qiladi. Bakteriya hujayralarida initsiatsiyalovchi tripletlar bo'lib AUG va GUG tripletlar xizmat qiladi. Bu tripletlar tRNA molekulasi dagi antikodon - formil-metionin qoldig'ini olib yuruvchi tripletlardir. Demak, sintezlanayotgan har qanday polipeptid zanjirida birinchi aminokislota bo'lib formil metionin turadi. Polipeptid zanjirini sintezlanishini to'xtashi uchun signal bo'lib mRNA dagi ma'lum tripletlar – terminirlovchi tripletlar xizmat qiladi. Bu funksiyani UAA, UAG, UGA kodonlar bajaradi.

Ribosomaga terminatsiyaolovchi tripletni tushishi bilan, ayrim (terminatsiyalovchi) oqsil faktorlar qatnashuvida sintezlangan polipeptidni ribosoma va tRNA molekulalaridan ajralishi kuzatiladi. Bu polipeptiddan maxsus fermentlar yordamida formil qoldig'i ajraladi, shunda (endi u metionindan boshlanadi) yoki formilmetonin butunlayigacha ajraladi (endi u boshqa birorta aminokislotadan boshlanadi). Ozod bo'lgan ribosoma endi o'zini subbirliklariga dissotsiatsiyalananadi, butun sikl yana qaytadan boshidan boshlanishi mumkin. Bu qonuniyat bakteriya sistemalarida tasdiqlangan; initsiatsiya va terminatsiya mexanizmlari hayvon va o'simlik hujayralarida ancha kam darajada o'r ganilgan.

Oqsil sintezi ayrim ribosomalarda emas, balki polisomalarda (poliribosoma komplekslarida) - tRNK ga qator tizilgan ribosomalarda ro'y beradi. Terminologiya – transkripsiya va translyasiya atamalarni ma'nolarini tushuntirib berish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Virus oqsillarini sintezini o'rganish. Virus nuklein kislotalari hujayra nuklein kislotalaridan farqlanganidek, virus oqsillari hujayra oqsillaridan juda kam farqlanadi. SHuning uchun ham virus oqsillarini hujayra oqsillaridan ajratib olish imkonini beradigan maxsus prinsiplar yo'q. Har bir ayrim oqsil fraksiyalarga ajratilganda ayrim usullar ishlatiladi, bu usullar avvalgi standart usullar kombinatsiyasidir (tuzlash yordamida cho'ktirish, xromatografiya, gelxromatografiya, ultratsentrifugalash va h.). Keyingi vaqtida poliakrilamiddagi elektroforez, nishonli izotoplar ko'p ishlatilayapdi. Undan tashqari ularni analizida immunologiya usullari ishlatilmoqda.

Virus oqsillarini sintezining substrati. Virus oqsilining amnokislotalarini tarkibi hujayra oqsilini aminokislotalarinikidan juda kam farqlanadi. Virus oqsilini ham sintezida asosiy substrat bo'lib odatdagি aminokislotalar ishlatiladi. Substrat bo'lib erkin aminokislotalar emas, balki aminoatsil-tRNK ishlatiladi. Virus bilan kasallangan hujayrada aminoatsil tRNK hosil bo'lish sistemasi ba'zi o'zgarishlarga uchrashi mumkin ekan. T-juft faglar bilan kasallangan hujayrada qiziq natijalar olingan. Bu hujayralar (coli tayoqchalar) leysinni akseptirlaydigan 4 yoki 5 tipdagи tRNKlar tutar edi, ularni xromatografiya usullarida bir-biridan ajratish ham mumkin edi. Ularni har birlari ayrim antikodonlarga ega tRNK ning har xil fraksiyalari ribosoma bilan birlashishi uchun har xil tipdagи tripletlar bilan stimulyasiya qilinadi. Infeksiyaning eng boshlang'ich davrlarida yangi antikodonli tRNK paydo bo'ladi va tRNK larni bittasi kamaygani kuzatiladi. Infektion jarayonning kechroq bo'ladigan stadiyasiда yangi tipdagи tRNK yo'qoladi, ammo avvaldan bor ba'zi bo'lgan tRNK ning turlarining konsentratsiyasi oshadi. Kuzatishlarga qaraganda bu o'zgarish - avvalda hujayrada avvaldan bor bo'lgan tRNK ning modifikatsiyasi ham bo'lishi mumkin. YOKI yangi tipdagи tRNK hujayra DNK sini matritsa sifatida foydalanish natijasida hosil bo'lgan bo'lishi mumkin. Qisman bo'lgan o'zgarishlar virus genomida kodlantirilgan fago spetsifik tRNK bo'lishi ham mumkin. To'g'ridan to'g'ri kasallangan hujayra dagi leysil- va proline-tRNK ni hujayra va virusDNK si bilan gibrildlanganda virusniki bilan gibrildlangan.

Boshqa bir tajribalarda aniqlanishicha T-juft bakteriyafaglar kasallantirilgan hujayrada valil-tRNK-sintetaza fermentida o'zgarishlar (termostabilligi, xromatografiya qilingandagi va sedimentatsiyalanishi xususiyatlari) sodir bo'lgan. Mazkur ferment hujarada avvaldan virus bilan kasallanmasidan bor bo'lib keyinchalik u modifikatsiyaga uchragan bo'lishi ham mumkin degan fikrlar bor.

SHunday qilib, ko'rib turibmizki, ba'zan virus infeksisidan so'ng tRNK da va aminoatsil-tRNK-sintetazada ma'lum o'zgarishlar sodir bo'ladi. Bu o'zgarishlar hujayrada virus bilan kasallanmasdan oldin bo'lgan makromolekulalarni modifikatsiyalanishi ham bo'lishi mumkin. Boshqa

holatlarda esa gap aminoatsil-tRNK-sintetaza qismlarini virus induksiyalagan bo‘lishi mumkin. Bu o‘zgarishlarni biologik ahamiyati hozircha aniqlanmay qolmoqda.

DNK-tutuvchi viruslarning oqsil sintezida matritsa

DNK-tutuvchi viruslarning oqsil sintezida matritsa funksiyasini virus DNK sida hosil bo‘lgan infarmatsion RNK bajaradi. Oqsil sintezida informatsion RNK ni qatnashishini isboti shuki, bu sintez aktinomitsin D tomonidan tormozlanib qolishi mumkin. Chunki aktinomitsin D RNK hosil bo‘lishini DNK matritsada to‘sib (blokirovat) qilib qo‘yadi. Hujayrani fag bilan kasallantirilgandan keyingi hosil bo‘lgan RNK ning nukleotid tarkibi fag D NK sining nukleotid tarkibiga mos bo‘lib chiqadi. D NK tutuvchi viruslarning informatsion RNKsini aniqlashni eng spetsifik usuli bu RNK ni denaturatsiyalangan virus D NK si bilan kompleks hosil qildi. Bundan kelib chiqadiki hosil bo‘lgan RNK virus D NK si bilan komplementardir. Ular mustahkam RNK-D NK gibriderlarini hosil qiladilar. Bu gibriderlarni har xil metodlar bilan aniqlash mumkin. Bu RNK hujayra D NK si bilan gibrider hosil qilaolmaydi. Chunki RNK da hujayrani uzun va katta D NK si bilan kompleks hosil qilaolmasligidadir (ularda kerakli uzunlikdagi gomologik (komplementar) uchastkalar yo‘q).

Virus informatsion RNK si kasallanmagan hujayradagi substratlardan (ribonukleozidtrifosfatlar: ATF, GTF, STF, UTF) sintezlanadi. Virus mRNK si sintezlanmaguncha virus-spetsifik oqsillar sintezlana olmaydi, aytish mumkinki eng birinchi mRNKn sintezi (DNK-mute-RNK polimeraza) kasallanmagan hujayradagi avvaldan bor bo‘lgan ferment yordamida amalga oshishi yoki virus bilan olib kelingan ferment yordamida amalga oshishi kerak. Hozirgi kunda tabiatda bu ikkala imkoniyat ham ishlatilishi mumkinligi isbot qilingan. Ko‘pgina D NK-tutuvchi viruslar tarkibida RNK-polimerazaga ega emas. Bu viruslarni inforsatsion RNK si (infektion jarayonni dastlabki daqiqalarida) hujayra RNK-polimerazasi tomonidan hosil qilinadi. Ikkinchisi tomonidan ospovaksina virusini zarrachasi reproduksiya siklini oxirgi daqiqalarida D NK-mute RNK polimeraza hosil qiladi.

Virus mRNK si bir ipli polinukleotid zanjirchadir. Uni hosil qilish uchun matritsalik vazifasini ikki zanjrli D NK (matritsalik vazifasini ikkiz zanjirchali replikativ formalgi birzanzirchali virus D NK tutuvchi viruslar uchun ham shunday) mRNK zanjirchalarni bittasidami yoki ikkalovidan hosil bo‘ladimi degan savol tug‘iladi. Buni bilish uchun virus mRNK sini nukleotid ketma ketligini D NK ni ikkala zanjirini nukleotid ketma-ketligi bilan solishtirish kerak bo‘ladi. Buning uchun D NK ning ikkala zanjirini bir-biridan ajratiladi preparativ miqdorda ajratiladi va ularni gibriderlanishini virus mRNK si bilan solishtiriladi. Ajratib olingan virus D NK sini virus mRNK si bilan gibriderlanishini o‘rgangan tadqiqodchilar D NK ani ikkala zanjiri ham ma’noli bo‘lgani uchun ikkala zanjir ham ishlatilishi mumkinligini aniqlagan. Ammo mRNK ni har bir klassi D NK ni ikkala zanjiridan biridan axborot ni o‘qiydi. Ikkinchisi xil mRNK lar ikkinchi

zanjirdan o‘qiladi. Xuddi shunday qonuniyat λ va T-juft bakteriofaglarda uchraydi. T7 fagida DNKn iki zanjirini biridan sintezlanadi.

mRNK ni sintezi uni 5'-uchidan boshlansa (unga komplementar DNK zanjirini 3'-uchidan boshlanadi). DNK zanjirlarini antiparallelli uchun DNK zanjirini uchlarda mRNK ni sintezi har xil yo‘nalishda sintezlanadi. Bitta zanjirda “o‘ngdan chapga” bo‘lsa, ikkinchisida “chapdan o‘ngga” qarab sintezlanadi.

Oqsil sintezida mRNK molekulasi o‘zini matritsalik rolini hali to‘la sintezlanmasidanoq boshlab yuborar ekan va mRNK ni 5'-uchini sintezlanishi boshlanishi bilan u DNK matritsadan ajraladi va ribosoma bilan reaksiyaga kirishadi..

Virusning mRNK molekulti (bakteriya hujayrasida hosil bo‘ladigani m-RNK) metabolik o‘ta beqaror bo‘ladi. Ular hosil bo‘lishi bilanoq parchalanaboshlaydi, ularni “yarim hayot” davri 2-4 minut. Hayvon hujayralarida virus mRNK si ancha stabildirularni “yarim hayot” davri o‘zgarib turadi va ular soatlar bo‘lishi mumkin.

RNK-tutuvchi viruslarning oqsil sintezida matritsa

RNK-tutuvchi viruslarda mRNK DNK ni ishtirokisiz ro‘y beradi. Virus RNK sining sintez mexanizmini o‘rganganda birqancha sinf RNK larni ko‘rildi, ya’ni virus babilan kasallangan hujayrada bir ipli virus RNK si (“plyus” zanjir), komplementar “minus” zanjir, ikkizanjirli replikativ forma va replikativ o‘tmishdosh. Shulardan bittasi yoki bipHechta virus spetsifik RNK lar virus informatsion RNK si rolini bajarishi kerak. Ikki zanjirli replikativ formani birdan hisobdan chiqarsa bo‘ladi. Qolganlarini ko‘rib chiqsa bo‘ladi. Virus RNK sini o‘zi (“plyus” zanjir) informatsion RNK rolini bajarishi mumkin. Kasallangan hujayradagi virus oqsillarini sintezi ro‘y beradigan polisomada molekulyar massasi, nukleotid tarkibi va yuqumliligi bor bo‘lgan RNK ning shu formasi uchraydi.

RNK ning “plyus” zanjiri ribosoma bilan birikib “hujayrasiz kultura”da oqsil sintezini stimullashtiradi. Natijsada oqsillar hosil bo‘ladi. Hosil bo‘lgan oqsillarni ko‘p xususiyatlari (antigenlik xususiyatlari, mol.massasi, elektroforezdagi harakati, aminokislotalarini ketma-ketligi) RNKsi ajratib olingan virusni oqsillariga o‘xshaydi. Ishonch bilan aytish mumkinki, deydi Agol (), RNK tutuvchi faglarda **virus RNK si mRNK rolini bajaradi** (tamaki nekrozi virusining yo‘ldoshi). Bu RNK faqat erkin vaqtidagina emas, balki replikativ forma tarkibida bo‘lganda ham mazkur funksiyani bajaradi. Hujayrasiz oqsil-sintezlovchi sistemadagi tajribalarda ham replikativ o‘tmishdosh virus oqsillarini hosil bo‘lishini stimullar ekan.

Ikkinci tomondan mRNK vazifasini komplementar minus-zanjir ham bajarishi mumkin ekan. Virus RNK sining molekulasi politsistondir, ya’ni u birqancha xar xil polipeptid zanjirlarni hosil qiladigan axborotga ega. Har bir sistronni boshida initsiatsiyalovchi triplet mavjud va har bir sistronni oxirida terminatsiyalovchi triplet mavjud deb hisoblasa bo‘ladi. Politsistron virus RNK

sining ishini quyidagicha ko‘z oldiga keltirsa bo‘ladi. Birinchi usul bo‘yicha ribosoma har bir sistrонни mustaqil “o‘qiydi”, ya’ni xar bir sistronдаги initsiatsiyalovchi tripletga birikadi, bu sistron molekulni boshidami, o‘rtasidami o‘qiydi. O‘qishni terminatsiyalovchi tripletda o‘qishni tamomlagandan so‘ng u RNK dan ajraladi. Ikkinci mexanizm bo‘yicha esa barcha sistronlar ketma ket o‘qiladi, ya’ni ribosomalar faqat molekulani 5'-uchi tomoniga yaqin bo‘lgan **initsialovchi** tripletga birikadi va 3'-uchidagi **terminatsiyalovchi tripletda** RNK dan ajraladi. RNK-tutuvchi faglarda prolytsiston RNKning translyasiyasi birinchi usulda amalga oshadi deb aytish haqiqatga yaqindir.

Oqsil sintezida eng ahamiyatli faktorlardan biri bu ribosomadir.

Oqsil sintezida eski ribosomalarni yoki yangi sintezlangan ribosomalar ishlataladimi degan savol o‘z-o‘zidan o‘rtada turadi. Mulohaza qilib ko‘radigan bo‘linsa, umuman eski ribosoma ishlatalishi ham mumkin. Ko‘pincha infektion jarayon boshlanishi bilan ribosomani yangisini hosil bo‘lishi to‘xtaydi. Virus oqsillarini sintezi avval sintezlangan ribosomalarda hosil bo‘ladi degan fikr hozircha ma’qul hisoblanadi. Erkin ribosomalar (to‘g‘rirog‘i ribosomaning subbirligi) virus mRNK si bilan muloqatda bo‘ladi va poliribosomal kompleks hosil bo‘ladi. RNK si (m.m.) 2.10^6 Da li viruslarda bitta RNK polisomasi birqancha o‘nlab ribosomalarni tutishi mumkin. Virus antigenlarini to‘g‘ridan to‘g‘ri tajribalarda aniqlab virus oqsilini sintezi shu polisomalarda o‘tishi isbotlangan.

DNK tutuvchi viruslarda oqsil sintezining boshqarilishi

DNK-tutuvchi viruslarning genomi qator struktura va nostruktura oqsillarning axborotini o‘zida saqlaydi. Infektion jarayonning har xil davrlarida yuqorida aytilgan oqsilarning yo unisi, yoki bunisi sintezlanadi. Bu jarayonlar T-juft faglarni hujaylarni kasallantirish dinamikasida virus-spetsifik oqsinllarni hosil bo‘lishini o‘rganishda aniqlangan. Infektion jarayonni erta davrlarida asosan nostruktura oqsillari sintezlanadi. Bu oqsillar fag DNKhining sintezida ishtirok etadi. Kechroq sintezlanadiganlari esa fagning struktura oqsillari sintezlanadi. Albatta bu o‘zgarmay qoladigan holat emas, sintezlanadigan oqsillarni muddatlari o‘zgarib turishi mumkin (fag zarrasining sintezlanishi talabiga yarasha). Fag oqsillarining dinamikasini o‘rganilganda ularni to‘rt guruhga bo‘lish mumkin.

A-guruhi oqsillari infektion jarayonning boshlanishidan 10-minut o‘tguncha (bu tajribalar 25^0 S da olib boriladi, chunki 37^0 S ga qaraganda sintez jarayoni ikki barobar sekinroq o‘tadi);

V-guruhi oqsillari kasallanish boshlangandan so‘ng birdaniga boshlanib, ularning sintezi 20 minutda tugaydi;

S-guruhi oqsillari 5 minutdan 25 minutgacha sintezlanadi;

D-guruhi oqsillari 20 minutdan to infektion jarayonning tugallanishigacha davom etadi.

Masalan, oksimitelaza d-SMF firmenti V-guruhi oqsillariga kiradi, timidilatsintetaza – S guruhi oqsillariga kiradi va fag zarrachasining struktura oqsillari D-guruhi oqsillariga kiradi.

Shunga o‘xshash qonuniyat DNK-tutuvchi hayvon (ospovaksina virusi) viruslarining infektion jarayonida kuzatilgan.

Keltirilgan faktlar shuni ko‘rsatadiki, bu jarayonlarda maxsus mexanizm ishlashi mumkin. Bu shundan ko‘rinadiki, infektion jarayonning har xil davrlarida har xil genlar ishlaydi, fag DNK sining uchastkalarini o‘qilishi vaqtga qarab sintezlanishni almashtirib turadi. Bunday axborotni o‘qilishi **transkritsiya darajasida idora qilish** deyiladi.

Ikkinci tomondan, infektion jarayonning rivojlanishiga qarab oqsil sintezining samaradorligi o‘zgarishi mumkin. Bu jarayonlarni mRNA ning har xil sinfiga kiruvchilari yo‘naltirib turadi. Bu usulagi idora qilishga **translyasiya darajasida idora qilish** deyiladi.

RNK-tutuvchi viruslar oqsil sintezining regulyasiyasi

RNK-tutuvchi faglarni oqsili har xil infektion jarayonning har xil davrida har xil oqsillar, har xil proporsiyada hosil bo‘ladi. Barcha fagospetsifik oqsillarni bitta molekula politsiston virus RNAksi kodlantiradi. Ularda oqsil sintezini **regulyasiyasi translyasiya darajasida** amalga oshadi

Hujayrada virus oqsillarining sintezining lokalizatsiyasi

Chechak viruslari va pikopHaviruslar guruhida virus-spetsifik oqsillar sitoplazmada amalga oshadi. Gerpes virusida virus antigenlari yadroda topilgan bo‘lsa ham, sintez avval sitoplazmada amalga oshib, so‘ngra tezgina yadroga o‘tishini isbotlangan.

Miksoviruslar bilan kasallangan hujayralarda esa kartina umuman boshqacha. Chunki virus nukleoproteidining oqsili yadroda aniqlangan, gemaglyutinin va neyraminidaza sitoplazmada sintezlanishi aniqlangan. Ammo ko‘plab olimlar barcha virus-spetsifik oqsillarni sitoplazmada lokaziyasiyalanishi gipotezasi tarafdarlaridirlar.

Etilgan virus zarrasining shakllanishi va ularni hujayradan chiqishi

Oddiy viruslar zarrachasini (spiral simmetrili viruslar) shakllanishi yuqorida TMV ni rekonstruksiya, repolimerizatsiya, gibrid viruslar olish kabilarni tushuntirilganda aytib o‘tilgan edi.

Murakkab viruslarni T-juft bakteriofaglarida kuzatadigan bo‘lsak ularni bipHecha bo‘lakda avval sintezlanib shakllanishi va so‘ngra bosh, dum va qismlarini birikishi sodir bo‘ladi. Har bir qismni shakllanishida birqancha genlarni mahsulotlari ishlatiladi. Etilgan virus zarrasi hujayradan chiqqanda “portlash” yo‘li bilan yoki lizis natijasida hujayradan chiqadi (1; 36).

Viruslarning ko‘payishi haqidagi qisqacha xulosa

Viruslarning ko‘payishi bakteriyalar va boshqa bir hujayrali organizmlarnikidan farq qiladi, shuning uchun ham viruslarni ko‘payishini dis’unktiv ko‘payish dedik va bu jarayonni shartli ravishda **to‘rt fazadan** iborat

deb yuritiladi. **Birinchi fazada** virus zarrachasi boshqa organizm hujayrasiga yuqorida aytib o‘tilgandek **adsorbsiyalanadi**. Bu faza gripp va poliomielit viruslarida chuqur o‘rganilgan.

Virus adsorbsiyalanadigan hujayraning po‘sti turli uchastkalardan iborat bo‘ladi, ba’zi uchastkalarda mukoproteidlar, boshqa uchastkalarda lipoproteidlar bo‘ladi. Gripp virusi mukoproteidli uchastkaga, poliomielit virusi esa lipoproteid uchastkaga adsorbsilanadi. So‘ngra virus pinotsitozga o‘xhash mexanizm vositasida hujayra ichiga o‘tadi, bunga **viropeksis** deyiladi. **Ikkinci fazada virus hujayra ichiga o‘tadi**.

Hujayra ichiga o‘tgan virusning oqsil qobig‘i fermentlar ta’sirida emiriladi va hujayraning ichiga nuklein kislota o‘tadi. **Uchinchi fazada** hujayra ichiga o‘tib olgan nuklein kislota hujayradagi moddalar almashinushi jarayonini **virus zarrachalarini sintezlash** tomonga yo‘naltiradi. Bunda sintezlovchi fermentlarning faoliyati aktivlashadi, boshqa fermentlarning ishi tormozlanadi. Bundan tashqari, viruslar uchun xos bo‘lgan fermentlar ham sintezlanadi, ya’ni bu davrda yangi virus—hujayra sistemasi vujudga keladi. Bunda nuklein kislota, oqsil va boshqa qismlar sintezlanadi, undan keyin bu qismlar birlashib, virus zarrachasi hosil bo‘ladi. **To‘rtinchi fazada** virus zarrachalari **hujayradan tashqariga** chiqadi. Hujayradan yuzlab virus zarrachasi chiqadi. Gripp virusining chiqishi 5—6 sikldan iborat bo‘lib, **30 soat** davom etadi, har bir sikl 5—6 soatdan so‘ng boshlanadi. Lekin o‘simlik viruslari tashqariga chiqmay, hujayralarda to‘planadi va turli shakldagi kristallar hosil qiladi.

Keyingi vaqtarda virusologiyaning jadallik bilan rivojllanishi viruslar ko‘payishi va uning ba’zi tomonlariga ma’lum o‘zgarishlar kiritdi. Quyida shu haqida so‘z yuritiladi.

Hujayraga virus yuqtirilgandan so‘ng, virus zarrachasi hujayra ichida ko‘payadi va o‘ziga o‘xhash millionlab virus zarrachalarini hosil qiladi yoki hujayra irsiy moddasi bilan virus irsiy moddasi birlashib, ma’lum vaqtgacha virus zarralari hosil bo‘lmay hujayra normal hayot kechirishi mumkin (mo‘‘tadil viruslar).

Virus hujayrada ma’lum vaqtgacha o‘zini namoyon etamaydi. Ammo birorta tashqi ta’sir (ultrabinafsha nurlar, rentgen nurlari, kimyoviy moddalar) virus nuklein kislotasini replikatsiyasini tormozlab turgan oqsil faktorHi denaturatsiyalanishi natijasida, virus nuklein kislotasi hujayra DNKsidan ajralib, ko‘payib, o‘ziga o‘xhash virus zarrachalarini hosil qilishi mumkin.

Virusning hujayraga kirishidan to ko‘payishigacha bo‘lgan davpHi bir necha bo‘laklarga bo‘lib tekshiriladi. Birinchi davr - latent davri. Bu davrda virus zarrachalarining soni o‘zgarmaydi. Latent davrining **birinchi yarmida** virus zarrachalari hujayrada umuman uchramaydi va bu **davr eklips** (yo‘qolish) deyiladi. **Ikkinci davr** - virus zarrachalari sonining oshish davridir. Bu davr virus zarralari hujayradan chiqishi bilan tugaydi.

Virus hujayraga yuqtirilganda, dastlab virus zarrachasi hujayra yuzasiga yopishadi, ya’ni adsorbsiyalanadi. Bu protsess ham spetsifik xususiyatga ega

bo'lib, bir virus hamma hujayraga ham adsorbsiyalanavermaydi, balki ma'lum hujayragagina adsorbsiyalanadi.

Adsorbsiyalanish jarayonida hujayra va virusning ayrim qismlari - retseptorlari ishtirok etadi. Ya'ni, virus hujayraga kirish uchun uning retseptori hujayra retseptorlari bilan bog'lanishi kerak. Masalan, T- 2 bakteriofagining retseptorlari uning **o'simta**, to'g'rirog'i dum qismdagi **fibrillarida** joylashgan. T-2 bakteriofaglari singari, maxsus adsorbsiyalanish qismlari bo'limgan, sferasimon va boshqa viruslarda shu virus zarrachalaridagi muayyan kimyoviy guruhlar **retseptor** deb qabul qilingan. Ammo, shu vaqtgacha, birorta virus retseptorining kimyoviy tuzilishi to'la aniqlangan emas.

T-2 bakteriofagi hujayraga kirish paytida o'zining **fibrillari** bilan hujayra devoriga yopishadi va dum qismidagi bazal plastinkada joylashgan "**tiqin**" yo'qoladi. So'ngra, o'simtaning oqsil pardasi qisqara boshlaydi, o'simta o'zagi hujayra devorini teshadi va fag DNK si hujayraga oqib o'tadi.

Viruslarning hujayraga kirishidagi yana bir yo'l yuqorida batafsil aytilgandek - **pinotsitoz** usulidir. Bu usul chechak viruslarida qayd etilgan. Hujayraga virus yopishgandan so'ng, hujayra membranasi ichiga virus botib kiradi va hujayra ustidagi virus hujayra ichiga kirib qoladi. Hujayra gidrolitik fermentlari ta'sirida virus zarrasidagi oqsil va fosfolipidlar parchalanadi. Ozod bo'lgan nukleoproteid tarkibidagi DNK, hujayradagi "**echintiruvchi**" fermentlar vositasida ajraladi.

SHunday qilib, hujayraga kirgan virus zarrachasi hujayra ichida ko'payadi. Hujayraning ma'lum bir qismida virus nuklein kislotasi va boshqa bir qismida esa virus oqsili sintezlanadi.

Virus zarrasi hosil bo'lishi uchun virus nuklein kislotasi va oqsili birikib virus zarrachalari hosil bo'lishi o'z-o'zidan qurilish (samosborka) asosida ro'y beradi.

Virus ikki zanjirli DNK sining replikatsiyasida (ikki marta ko'payishida) virus DNK sidan informatsion RNK ma'lum oqsillarning kimyoviy usulda yozilgan informatsiyalarini qabul qiladi (transkripsiya) va mazkur informatsion RNK ribosomalarda virus DNK si replikatsiyasi uchun zarur oqsillarni (bevosita virus DNK replikatsiyasiga zarur bo'lgan fermentlar, virusning strukturasi oqsillarni) sintezlaydi. DNK - polimeraza fermenti, o'z navbatida hujayradagi dezoksiribonukleozidtrifosatlarni ona DNK ga mos qilib, bir zanjirchaga ulaydi. Natijada, ona DNK ning har ikkala zanjirchasiga mos yangi DNK zanjirchalari sintezlanadi.

Bir zanjirchali virus DNKsining replikatsiyasida ham, asosan xuddi shunga o'xshash jarayon sodir bo'ladi. Ammo bir zanjirchali ona DNK da DNK ning replikatsiyasi uchun zarur bo'lgan ikki zanjirchali replikativ forma sintezlanadi. Shu replikativ formada zarur oqsillarning informatsion RNK si sintezlanadi. Bu RNK lar o'z navbatida hujayra ribosomalardagi oqsilning sintezida qatnashadi. Hosil bo'lgan oqsillar (fermentlar) yordamida replikativ forma onaligida dezoksiribonukleo-zidtrifosatlardan yangi bir zarrachali virus DNK si vujudga keladi.

Bir zanjirchali RNK replikatsiyasida esa, bir tomondan virus RNKsi informatsion RNK vazifasini bajarib, ribosomada oqsil sintezida ishtirok etsa, ikkinchi tomondan, undan ham ikkinchi shu ona zanjirchaga mos zanjircha hosil bo‘ladi, uni RNK ning replikativ formasi deyiladi. Bu replikativ formaning hosil bo‘lgan ikkinchi zanjirchasi onaligida yangi va unga mos ona virus RNK siga har tomonlama o‘xshash virus RNK lari sintezlanadi.

Ribosomalarda sintezlagan ferment (RNK replikaza) vositasida, hujayradan ribonukleozidtrifosfatlardan (ATF, GTF, STF va UTF) RNK hosil bo‘ladi.

Ikki zanjirchali virus RNKsining sintezi ham ikki zanjirchali virus DNKsining sintezi kabi amalga oshiriladi.

Nuklein kislota hosil bo‘lishi jarayonini kuzatib, aniqlandiki, har bir sintezlanishda uch muhim faktor:

- 1) nusxa ko‘chiriladigan ona zanjircha - matritsa;
- 2) yangi zanjirlar tuzilishida qurilish materiali sifatida ishlatiluvchi dezoksiribonukleozidtrifosfatlar – substrat;
- 3) dezoksiribonukleozidtrifosatlarni bir-biriga matritsaga moslab sintezlovchi - fermentlar mavjud bo‘lishi shart.

Sintezlanish juda murakkab jarayon bo‘lib, yuqorida aytib o‘tilgan har bir faktorlarning yaratilishi bir qancha bosqichlarda amalga oshiriladi. Masalan, T-2 bakteriofagi ikki zanjirchali DNKsining sinteza ishtirok etuvchi substrat - dezoksi-5-oksimetilsitidinmonofosfat (d-OMSMF) virus bilan kasallanmagan hujayrada uchramaydi. Ammo hujayra virus bilan kasallanishi bilanoq unda d-SMFdan d-OMSMF ni hosil qilishda qatnashuvchi ferment - oksimetilaza paydo bo‘ladi, ya’ni bu ferment virus DNK sinteza zarur d-OMSTF ni d-STF dan sintezlab beradi.

Haqiqatdan ham virus DNKsi tarkibi tekshirilsa, unda hujayrada uchramaydigan yangi d-OMSMF ni uchratish mumkin. Xuddi shuningdek boshqa substratlar ham virus DNK sinteza ishtirok etishdan avval, har xil o‘zgarishlarga uchraydi. Shu xil substratlarni hosil qilish uchun esa hujayrada virusga xos bo‘lgan yangi fermentlar kerak bo‘ladi. Bu fermentlar virus DNK sidagi informatsiyaga asosan yaratiladi va ular virus DNK si sinteza ishtirok etadigan substratlar hosil qiluvchi fermentlar deb ataladi.

Bulardan tashqari, DNK sinteza bevosa ishtirok etuvchi DNK - polimeraza, polinukleotidligaza hamda endonukleaza kabi fermentlar ham mavjud. Ularning vazifasi substratlarni bir zanjirga ulash (DNK -polimeraza) etishmagan bog‘larni ulash (polinukleotidligaza) zarur bo‘lganda, hamda DNK zanjirini uzish (endonukleaza) dan iborat bo‘lib, ular virus DNK sintezi fermentlari deb ataladi.

Virus DNK si sintezi uchun substrat hosil qilishda ishtirok etuvchi fermentlar, struktura oqsillari hujayra oqsillari kabi ribosomalarda sintezlanadi. Hujayradagi transport RNK lar ulardagи aminokislotalarni virus informatsion RNK sidagi (RNK tutuvchi viruslarda i-RNK vazifasini bir zanjirli virus RNK sining o‘zi bajaradi) shifrga asosan, bir zanjirga ulab, oqsil molekulasi shakllantiradi.

Hujayraning turli qismlarida bir vaqtida hosil bo‘lgan nuklein kislota va oqsillarning "o‘z-o‘zidan" (samosborka) qo‘silishi natijasida virus zarrachalari etiladi. "O‘z-o‘zidan" qo‘silishi virus oqsiliga xos xususiyatdir (repolimerizatsiya). Agar virusning toza preparatidan ajratib olingan oqsil muayyan bir sharoitda probirkada tutilsa, ma’lum vaqtadan so‘ng bu oqsillar virusga o‘xshash (ammo nuklein kislotasiz) tayoqchasimon forma hosil qiladi. Ammo ularning uzunligi har xil bo‘ladi. Chunki bu zarrachalar uzunligini boshqarib turuvchi faktor - virus nuklein kislotasidir. Virus oqsili va nuklein kislotasini toza holda ajratib olib, ularni qayta qo‘silsa, uzunligi virus uzunligiga teng, kasallantirish qobiliyatiga ega virus zarrachalarini hosil qilish mumkin. Demak, virus formasini hosil qilish xususiyati oqsilga, kasallantirish va uzunligini boshqarish esa nuklein kislotaga xos xususiyatlardir. Hozirgi vaqtida bir virus oqsilini olib, uni boshqa virusning nuklein kislotasiga qo‘sish orqali "gibrid" virus zarrachalari olimoqda. Masalan, arpada chiporlanish kasalligini tug‘diruvchi sharsimon virus oqsilini tamaki chiporlanish kasalligi virusi RNK siga qo‘silsa, sharsimon "gibrid" virus hosil bo‘ladi: "gibrid" virus bilan o‘simplik kasallantirilsa, tayoqchasimon tamaki chiporlanish kasalligi virusi zarrachalari paydo bo‘ladi. Chunki "gibrid" virusdagi RNK tamaki chiporlanish kasalligi virusidan ajratib olingan. Bu esa, o‘z navbatida, irsiyatni belgilaydigan asosiy faktor virus ribonuklein kislotasi ekanligini tasdiqlaydi. Demak, yuqorida aytilgan usulda hosil bo‘lgan virus zarrachalari hujayraning yorilishi natijasida yoki hujayrani jarohatlamasdan undan chiqishi mumkin. O‘simplikda har bir hujayrada to‘plangan virus (yoki nuklein kislota) ikkinchisiga plazmodesmalar orqali o‘tishi mumkin. Virusni bir hujayradan ikkinchisiga o‘tishi plazmodesmalar orqali amalga oshadi, ammo virusni o‘tish yoki o‘tmasligini belgilaydigan maxsus oqsil faktori – transport oqsili mavjudligi ma’lum bo‘ldi. Demak, virusni o‘simplikda ko‘payishi va uni kasallantirishi murakkab jarayondir. Bu jarayonlarni molekulyar mexanizmlarini o‘rganish organizmlarni virusga turg‘unligi yoki sezgirligini o‘rganish natijasida ularga qarshi ilmiy asoslangan kurash choralarini ishlab chiqish imkoniyatini yaratadi.

Viruslarning tabiatи. Viruslar haqida mutaxassis olimlarning fikrlari bilan tanishgandan so‘ng endi viruslar tabiatini haqida qisqacha muloxaza. Viruslarning tabiatini to‘g‘risida bir qancha gipotezalar bor. Birinchi gipotezaga muvofiq, viruslar hujayraviy tuzilishga ega bo‘lmagan sodda formalardan kelib chiqqan deyiladi. Ikkinci gipotezaga muvofiq, viruslar degeneratsiyaga uchragan mikroorganizmlardir deyiladi. Uchinchi gipotezaga muvofiq, viruslar hujayra komponentlarining hosilasidir deb tushuntiriladi.

Viruslar boshqa organizmlar singari bir xil tipdagi molekulalardan tashkil topganligi bioximiya viy tekshirishlarda isbotlangan. Boshqa organizmlarga qaraganda viruslarning genetik jihatdan moslanishi yuqori turadi, ehtimol genomi kichik, replikatsiya darajasi yuqori bo‘lganligi uchun shundaydir.

Hayvonlar virusi ham yuqori darajadagi genetik moslanish xususiyatiga ega, ularda komplementatsiya, rekombinatsiya, psevdorekombinatsiya, satelitizm uchraydi.

Shunday qilib, viruslar hujayrasiz organizmlar bo‘lib, boshqa organizmlardan shakli, xususiyatlarining turli - tumanligi, bu virusning har xil organizmlarda turli kasallik alomatlarini namoyon qilishi va ular tarkibida faqatgina bir xil tipdagi nuklein kislotasi uchrashi bilan farq qiladi. U o‘zida modda va tirik organizm xususiyatlarini namoyon etadigan va faqat tirik to‘qimadagina ko‘payadigan hayot formasidir. Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda viruslarni tarifini quyidagicha keltirish mumkin bo‘lsa kerak:

“Viruslar organizm, hatto o‘ta kichik organizm - mikroorganizm ham bo‘lmagan, minimal organizmlar bo‘lgan mikoplazmalar, rikketsiyalar va xlamidiylar kabi o‘z oqsil sintezlovchi sistemalariga ham ega bo‘lmagan, nuklein kislotasining sintezi har xil darajada hujayraga bog‘liq bo‘lgan, hujayra oqsil sintezi va energetik sistemasiga esa to‘la bog‘liq bo‘lgan va mustaqil evolyusiyaga uchraydigan, avtonom genetik strukturalar bo‘lib, tabiatning mikroskopik molekulalarga yaqin qilib yaratgan, o‘ziga xos parazitlik qilib yashaydigan, xilma-xil, ko‘p sonli guruhlarga ega va Vira saltanatiga birlashgan hayotning hujayrasiz formasidir”.

(Bu ta’rifni virusologiya predmeti qismida ham berilgan, ammo negadir shu bobni oxirida ham eslatish ma’qulga o‘xshayapti).

? Savollar

1. Virus va hujayra orasidagi munosabatlarnin xillarini tushuntirib bering.
2. Produktiv infektion jarayon deb nimaga aytildi va uni qanday viruslar amalga oshiradi?
3. Lizogeniya yoki virogeniya nima va ular qanday vaqlarda hosil bo‘ladi?
4. Fizik virus zarralari deb qanday viruslarga aytildi va ular qaysi metod bilan aniflanadi?
5. Yuqumli virus zarralari deb qanday virus zarralariga aytildi?
6. Yuqumli virus zarralarini aniqlash metodini szlab bering.
7. Viruslarni miqdoriy aniqlash deb nimaga aytildi? Hayvon viruslarini qanday usullar bilan miqdoriy aniqlanadi?
8. Faglarni qanday qilib miqdoriy aniqlanadi?
9. Fitopatogen viruslarni qanday qilib miqdoriy aniqlanadi?
10. Viruslarni aniqlashda ishlatiladgan sezgir sistemalarni aytib bering?
11. Ishlatiladigan (qo‘llaniladigan) usulga qarab virus 1 ml dagi virus miqdorini, yoki blyashka hosil qiluvchi birlikka qarab (BOE), yoki to‘qima kulturasi bor probirkalarni 50% da sitopatogen ta’sirlarga ega doza (ni), yoki hayvonlarni 50% ni letal holatga olib keladigan miqdorini aniqlashni qanday nomlanadi ?
12. LD₅.ni qanday usullarda aniqlanadi ?
13. Infektion jarayon bosqichlarini aytib bering.
14. “Eklips” nima va u qanday organizmlarda uchraydi?
15. “Diz’unktiv” ko‘payish deganda nimani tushunasiz?

16. Viruslar tomonidan qo‘zg‘atiladigan infektion jarayon bosqichlarining ketma-ketligini so‘zlab,tushuntirib bering.
17. $M = \frac{V}{N}$ formulasini tushuntirib bering
18. M - mnojestvennost zarajeniya (yuqish miqdori ko‘pligi) deb nimaga aytildi? V- nimani va N – nimani bildiradi?
19. YUqtish uchun olingan (vnosimaya va effektivnaya) mnojestvennost zarajeniya deganda nimani tushunasiz?
20. Virus va hujayra retseptorlari deb nimaga aytildi?
21. Viruslar DNK sini sintezi uchun qanday faktorlar kerak bo‘ladi?
22. Virus DNK si sintezini o‘rganish metodlarini sanab, tushuntirib bering.
23. Noyob nukleotidlarni qanday hosil bo‘lishi va ularni qaysi organizm genomida kodlanganligini aytинг?
24. Viruslarni hujayraga kirishi: faglarni hujayraga kirishni aytib bering.
25. Hayvon viruslarini hujayraga kirishini aytib bering.
26. Fitopatogen viruslar hujayraga qanday kiradi,ko‘payadi va harakatlanadi, transport oqsili deb nimaga aytildi?
27. Birzanjirli virus DNK sining replikatsiyasi?
28. Virus RNK sining konservativ replikatsiyasi?
29. Virus RNK sining yarim konservativ va assimetrik replikatsiyalari haqida ahborot bering.
30. Virus oqsillarining sintezida strukturaviy va nostrukturaviy oqsillar deb nimaga aytildi?
31. Viruslarni etilishi va hujayradan chiqishi.

III – qism. Viruslar klassifikatsiyasi va kasalliklari

8-bob. Viruslarni klassifikatsiyasining rivojlanish tarixi haqida

Mikrobiologiyada sistematika (taksonomiya) deb mikroorganizmlarni ma'lum aniq belgilariga asoslanib, ularni qarindoshlik aloqalarini o'rnatib guruhlarga (taksonlarga) bo'linishiga aytildi. Mikroorganizmlarning asosiy guruhlarini o'rganishdan avval ularni nomenklaturalarga ajratish prinsiplarini yoritish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Nomenklatura deb biror bilim sohasida ishlatiladigan nomlar (atamalar) tizimiga aytildi. Har qanday mikroorganizmlar ob'ektini nomlash va sinflarga ajratish uchun ularni nomenklatura tizimi va taksonomiyasi ob'ektlarini to'la-to'kis bilishni talab etadi.

Aniqlagichda jami mikroorganizmlar yuqorida keltirilgan taksonlar bo'yicha **Rgosariotae** dunyosiga (**regnum**) birlashtirilib, u o'z navbatida to'rt bo'limga (**divisio**), bo'limlar esa sinflarga (**classis**), **tartiblarga** (**ordo**), **oilalarga** (**familia**), **avlodlarga** (**genus**) va **turlarga** (**spesies**) bo'linadi.

Mikroorganizmlar asosan, hujayra devorining bor-yo'qligi, tarkibi va ularning turiga qarab bo'limlarga, undan boshqa taksonomik kategoriyalarga (sinf, tartib, oila, avlod, tur) mikroorganizmlarning morfologiya, fiziologo-biokimyoviy va boshqa xususiyatlari va belgilari yig'indisiga qarab bo'linadi.

Viruslarga keladigan bo'lsak, ularni ham bir sistemaga solish, taksonlarga bo'lish ishlari viruslar haqida ma'lumotlar yig'ilgandan boshlab virusologlarni diqqat markazida turadi. SHuning uchun biz viruslarni hozirgi kundagi klassifikatsiyasi haqida so'z yuritar ekanmiz, avvalo viruslar klassifikatsiyasini bor ma'lumotlarga asoslanib tuzishga harakat qilingan dastlabki qadamlari va hozirgi holati haqida baxoli qudrat qisqacha so'z yuritishga harakat qilamiz.

Quyida D.A.Vasilev va hamkasabalarining (4) "Viruslarning klassifikatsiyasi va nomenklaturasi" ("Klassifikatsiya i nomenklatura virusov") asarida Xalqaro Viruslar Taksonomiya Qo'mitasini hozigi kundagi talab va o'zgarishlarini hisobga olgan holda viruslar klassifikatsiyasi bo'yicha olingan natijalari yoritilgan va eng ahamiyatga molik zoopatogen viruslarning taksonomik kataloglari keltirilgan (46). Ayrim e'tibor yangi taksonlarga berilgan. Unda barcha viruslar DNK-tutuvchi-, RNKtutuvchi- va klassifikatsiya qilinmagan viruslar guruhlari bo'lingan. MKTV ning beshinchı ma'rzasida umurtqalilar, umurtqasizlar, o'simliklar, zamburug'lar va prokariotlarning 164 avlod (24 tasi klassifikatsiya qilinmagan), 71 oilasi, 9 ta kichik oilasi va bitta tartibi 3,6 ming virus turlari va subvirus agentlarini o'z ichiga olgan. Hozirgi kundagi taksonomik guruhlari berilgan va ularda virus satellitlari (yo'ldosh viruslar), viroidlar va prionlar hamda sinflarga bo'linmagan viruslar tavsiflangan. Mazkur ma'ruza elektron versiyasida amaliy va iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan 30 000 virus, shtammlari va subtiplari haqida axborotlar berilgan, deb ma'lumot berishadi mazkur mualliflar.

Virusologiyada viruslarni klassifikatsiyasi va nomenklaturasi doimo yangilanib boradi, yangi viruslar ochilishi va bu haqdagi ma'lumotlar o'zgaradi,

mukammallashadi, yangi oila, avlod va virus turlari hisobga olinib, mavjud klassifikatsiya to‘latilib boriladi.

Keyingi vaqtlardagi o‘zgarishlarni hisobga olgan holda MKTB tomonidan barcha viruslarni hozirgi kungacha tuzilgan klassifikatsiyasining to‘ldirilgan varianti quyida taqdim etilgan (Kartashova, 2007) (23). Muallifni ko‘rsatishicha, bundan bir necha yillar avval (1973 yillar) Moskvadagi Xalqaro mikrobiologiya kongressida viruslar nomenklaturasi bo‘yicha viruslar klassifikatsiyasi va nomenklaturasini Xalqaro Qo‘mitasi 1973-yil Xalqaro Viruslar Taksonomiya Qo‘mitasi (MKTV) degan nom bilan atalaboshlagan edi. Unga asosan MKTV bo‘yicha viruslar universal taksonomiya sistemasida **3 tartib, 80 ta oila (30 ta fitoviruslar oilasi** bilan birga), **233 ta avlodga** kiruvchi hayvon, o‘simplik va mikroorganizmlar viruslari avlodlari joy oldi. Bu sistemada ma’lumotlar (viruslarni kerakli xususiyatlari) etishmaganligi sababli hali klassifikatsiyalarinmagan yuzlab viruslar saqlanmoqda.

Endi viruslarni tarixiy klassifikatsiyalari va ularni rivojlantirishda asoslanilgan kriteriyalar haqida qisqacha so‘z yuritmoqchimiz.

8.1. Viruslar klassifikatsiyasining qisqacha rivojlanishi

Viruslar taksonomiyasi tarixida Kovanning (Cowan, 1966) fikricha uch qismdan, ya’ni klassifikatsiya, nomenklatura va identifikatsiyadan tashkil topadi. Demak, shu uch yo‘nalish bo‘yicha tadqiqod ishlari olib boriladi va ochilgan viruslar klassifikatsiyadan o‘rin oladi. Ammo har xil virus guruhlari (hayvon, o‘simplik, bakteriya) bo‘yicha qilingan ishlarga nazar solinadigan bo‘lsa ulardagi tadqiqodlarni rivojlanishi har hil darajada bo‘lgan va ularni bir tartibga solish ko‘pincha muammolarga keltirib chiqargan. Agar 40 yillarga nazar soladigan bo‘lsak, yangi viruslarni kashf qilinishiga qarab ularni klassifikatsiyacini yaratishga bipHecha martalab harakat qilingan. Ayniqsa, 40 yillarda Xolmsning o‘simplik viruslarini (Holmes, 1941) va SH.D. Moshkovskiyning (1945) hayvon viruslarini klassifikatsiyalari chop etildi. Bu klassifikatsiyalar barcha kashf qilingan viruslarni o‘z ichiga oldi. Viruslarni strukturalari haqidagi ma’lumotlarni etarli bo‘limganligi, bir vaqt ichida chop etilgan klassifikatsiyalar orasida katta farqlar bo‘lishiga olib keldi (Holmes, 1948; V. L. Rjkov, 1950; V. M. Jdanov; R. S. Korenblit, 1950; V. M. Jdanov, 1953) va ularni barcha virusologlar tomonidan bir ovozdan qabul qilinmadı. Viruslarga tur va linneyning binominal nomenklaturasini kiritish ham katta baxslarga sabab bo‘ldi. Rio-de-Janeyro (1950)dagi 5 Xalqaro mikrobiologlar kongressida ham bu masalada bir qarorga kelinmadı. Monrealdagi (1962) 8-mikrobiologlarning Kongressida viruslar taksonomiyasi bo‘yicha bakteriyalarga qo‘llaniladigan taksonomiyani prinsiplarini viruslarga qo‘llab bo‘limganligi uchun Monrealda (1962) maxsus qo‘mita tuzish haqida qaror qilindi.

Umumiyligini maxsus virusologiyani hamda umumbiolgianing dolzarb masalalari sohasida juda chuqur va keng bilim egasi bo‘lgan akademik V.M.Jdanovni 50 yillarda klassik virusologlar K.Endryus, F.Fenner, F.Xolms, A.Lvov, R.Metyus, X.Pereyra va P.Vaildilar qatori “Viruslar taksonomiyasining

Xalqaro qo‘mitasi”ga abadiy a’zo qilib saylandi. Uni shaxsan qatnashuvi va rahbarligi ostida umurtqali hayvonlar, o‘simpliklar, hasharotlar klassifikatsiyasi ustida katta ishlar qilindi. Viruslarning klassifikatsiyasi asosida ularni bir-birlari bilan evolyusion bog‘liqligi kriteriyasi zarur ekanligi ko‘rsatildi. V.M.Jdanov virusologiya taksonomiyasiga qo‘yilgan barcha talablar va uning o‘zi, shogirdlari tomonidan yig‘ilgan va dunyo adabiyotlaridagi ilmiy materiallar asosida viruslarni Vira saltanatiga kiritdi.

Shu sohada ish olib borgan X.Endryus (1967) ham o‘zining “Virus pozvonochnx” nomli ensiklopedik asarida viruslarni ilmiy klassifikatsiyasiga katta e’tibor beradi va viruslarni RNK-tutuvchi, DNK-tutuvchi viruslar hamda o‘sha vaqtgacha klassifikatsiya qilinmagan odam(pikopHa-, arbo-, miksoviruslarni, qutirish, qushlardagi leykozlar va sichqonlarda o‘smalar qo‘zg‘atuvchi kompleks viruslarni), hayvon (adeno-, papova-, uchuq- va chechak viruslarini), qushlar (psittakoz) va baliqlarda kasallik qo‘zg‘atuvchi viruslar guruuhlariga ajratadi va keng ta’riflaydi. Xalqaro viruslar nomenklaturasi qo‘mitasi (XVNQ) tomonidan tan olingani 55 ta oila (hozirgi kunda ularni soni 80 tadir) va ulardan 20 (17+3) tasi odam va hayvon viruslarini o‘z ichiga olgan edi.

Shular asosida u tomonidan viruslar olamini quyidagi: Tartib (-virales); Oila (-viridae); Kichik oila (-virinae); Avlod (-virus); Tur (-virus) taksonlarga bo‘linadi. Misol qilib quyida ba’zi viruslarni qaysi olam, tartib, oila, kichik oila, avlod va turga mansubligi hamda ho‘jayinlarini joylanishi berilgan.

Keyinchalik, viruslar klassifikatsiyasiga **linney prinsiplarini** tatbiq qilish tarafdorlari va ularga qarshilar bir fikrga kelaboshladilar, ya’ni avval viruslarni ayrim guruuhlarini ajratish va undan so‘ng ularni umumiyligi prinsiplar asosida klassifikatsiya qilishga kelishildi. Andrewes i va b., undan keyingi yillarda chop etilgan V. M. Jdanov, S. Ya. Gaydamovich, Lwoff, HopHe, Touphier (11) larni klassifikatsiyalari bir-biridan shunisi bilan farq qilar ediki, birinchisida linney prinsiplari qo‘llanilgan bo‘lsa, ikkinchisida esa linney prinsiplariga asoslanmagan holda viruslar shartli nomlar bilan ataldi. Qolgan jihatlari bilan ikkala klassifikatsiya ham Xalqaro viruslar taksonomiyasi qo‘mitasi ishtirokchilarining birgalikdagi say harakatlari asosida ishlab chiqilgan klassifikatsiyaga mos kelar edi (11).

Viruslarni boshqa tirik mavjudotlardan ajratib turadigan asosiy kardinal xususiyatlari e’tiborga olindi: virion tarkibida ikki nuklein kislotadan faqat bir tipdagisining borligi; avtonom modda almashinishini yo‘qligi va uni o‘zi parazitlik qiladigan hujayrani modda almashinishi bilan bog‘liqligi; hujayra tuzilishining yo‘qligi; dis’unktiv usulda ko‘payishi (reproduksiya) – hujayrada virus komponentlarini ayrim sintezlanishi va keyinchalik ularni ayrim uchastkalarda qurilishi (samosborka). Ammo ba’zi xususiyatlari – faqat ulargagina xos bo‘lmasdan hujayra ichida parazitlik qilishi hayotni boshqa formalarida ham uchraydi. Viruslar kardinal xususiyatlari bilan hayvon va o‘simpliklardan farq qilgani uchun ularni mustaqil Vira (viruslar) olamiga ajratildi. Bunda viruslar olamida bipHecha tartib, tartib tarkibida bipHecha oila va

uning tarkibida kichik oila, uning ichida esa avlod va avlod tarkibida virus turlari keltirilgan. Masalan, viruslar olamiga kiruvchi adenoviruslarni oilasi va uni tarkibida mastodenovirus avlodi keltirilgan. Ularni xo‘jayin organizmi bo‘lib sutevizuvchilar (odamlar) keltirilgan. Ikkinchisi avlodi aviadenovirus bo‘lib ularni ho‘jayin organizmi qushlardir. Keyingi misol chechak (Poxviridae) virusi oilasi va uni tarkibidagi Chordopoxvirinae kichik oilaga kiradi va hokazo boshqa viruslarni klassifikatsiyadagi o‘rinlari keltirilgan (12-jadval).

Virusologiya sohasidagi olingan natijalarni ko‘payishi o‘z-o‘zidan ularni klassifikatsiyasini to‘ldirilishiga va o‘zgarishiga olib kelaboshladi. Avvalgi klassifikatsiya mezonlari yoniga yangilari qo‘shilaboshladi. Avval ahamiyatli bo‘lib hisoblangan shakl o‘pHiga endi virionning tuzilish simmetriyasi, nuklein kislota tiplari kabilar ahamiyatga ega bo‘lib qoldilar. Viruslarni shakllari, o‘lchamlari, qobiqqa egaligi, zarrachasining tuzilishida nukleoproteidning simmetriyasi, nuklein kislotasining tiplariga qarab guruhlash kabilar klassifikatsiyaning assosini tashkil qilaboshladi. Quyida mazkur klassifikatsiya keltirilgan. Bu klassifikatsiyaning assosida virus nuklein kislotasining tipi (RNK yoki DNK), virus zarrasida tashqi qobiqning bor yoki yo‘qligi inobatga olingan. So‘ngra kapsidning diametri yoki kapsomeri berilgan. Aytilgan sifatlarga ega bo‘lgan virus va ularning guruh nomlari beriladi. Masalan, oq beda mozaikasi virusini nuklein kislotasini RNK ligi, spiral simmetriya assosida virus zarrasining tuzilishi, tashqi qobig‘ini yo‘qligi, kapsid diametri keltirilgan (12-jadval).

12-jadval

8.1.1. Hayvon, o‘simlik va bakteriya viruslari

Nuklein kislotasi	SimmetriyaTi pi	Tashqi qobiq‘i(+ -)	Kapsid diametri(A) yoki kapsomeri(K)	Viruslar	Guruh nomlari
RNK	V	-	100—130A	Oq beda mozaikasi, kartoshkaning-X virusi, kaktus virusi, kartoshkaning aukuba virusi, no‘xotni viskonsiya yo‘l- yo‘lligi virusi, bug‘doy yo‘l- yo‘lligi mozaikasi virusi, lavlagining sariq virusi.	O‘simlik viruslari
		-	170—200A 250A	Tamaki mozaikasi virusi, yovvoyi no‘xot mozaikasi virusi, bodringning yashil dog‘lanishi virusi, arpaning yo‘l- yo‘l mozaikasi virusi	
	+		90—100A 170A	Gripp, tovuq chumasi, Paragripp virusi, Senday, parotit, shoxli mollar chumasi, itlar chumasi, qizamiq, quturish, Raus sarkomasi, qushlar leykozi	Miksoviruslar, Paramiksoviruslar

RNK	K		32 K 60 K 92 K	TupHeps sariq mozaikasi Pomidor tupi shoxlanishi pakanaligi Poliomielit, Koksaki A va V, ECHO, rinoviruslar Jaroxatlanish o'smalari, reoviruslar	O'simlik viruslari PikopHavir uslar, Reoviruslar
DNK	V	+	90-100 A	Ospovaksina, qushlar chechagi, mollar terisi jarohati	Poksvirusla r
	K		12 K 42 K 252 K 812	Fag fX174 Poliomalar, papillomalar, SV40 Adenoviruslar, it gepatiti Radujnosti dolgonojki	Papovavirus lar Adenovirusl ar, Hasharot viruslari
		+	162 K	Uchuq, suv chechak, psevdobeshenstva	Gerpes virusi
	S	—	100S	T2 va boshqa juft faglar, V. megaterium fagi	Fagi

V – spiral simmetriya, K- kubimon simmetriya, S- aralash simmetriya

Keyingi tuzilgan klassifikatsiyalarda genetik materialiga qarab viruslar ikki tipga bo'linadi: RNK-viruslar va D NK-viruslar. Keyingi viruslarni tartiblarga bo'linganda nukleokapsidning simmetriyasi, diametri (ikosaedr tipdagi viruslarga), kapsomerlarning soni (kubsimon simmetriya tipdagi viruslarga), tashqi qobiqning bor-yo'qligi va boshqa xususiyatlari inobatga olinadi. Mazkur belgilarga asosan mazkur vaqtida o'rganilgan umurtqali hayvonlar viruslarini quyidagi guruhlarga bo'lingan:

Vira olamiga (tipi), Subphyla (kichik tip), irsiy materiali- (Deoxyvira); sinflari - nukleokapsid simmetriyasi- Deoxyhelica yoki Deoxycubica; tartiblari - tashqi qobig'inining bor yo'qligi Chitovirales yoki Haplovirales; oilalar - nukleokapsid diametri, kapsomer va hokazolar – Poxviridae, Microviridae, Parvoviridae, Papillomaviridae, Adenoviridae, Iridoviridae, Inophagoviridae (13-jadval).

Xuddi shunga o'xshash bu kichik tipga o'xshash irsiy materiali Ribovira bo'lgan kichik tipi bo'lib, unda Ribohelica, Ribocubica sinflar mavjud. Bu sinfda Rhabdovirales, Rigidoviridales, Flexiviridales, Sagovirales tartiblari mavjud. Ribocubica sinfida esa Gyminovirales, Togavirales tartiblari bor. Bu tartiblar ichida esa birqancha oilalar bor, ya'ni Dolichoviridae, Protoviridae, Pachyviridae, Leptovirida, Mesoviridae, Adroviridae, Myxoviridae, Paramyxovirida, Stomatoviridae, Napoviridae, Reoviridae, Arboviridae oilalari bor. Boshqa sinflar va ulardagi tartiblarda o'ziga mos oilalar joylashtirilgan (13-jadval).

13-jadval

8.1.2. Hayvon viruslari sistematikasi (S. YA. Gaydamovich, 1965)

Olami, tip (Phylum)	Kichik tip (Subphyla)	Sinflar	Tartiblar	Oilalar
	Irsiy material	nukleokapsid simmetriyasi	Tashqi qobig‘ining bor-yo‘qligi	Nukleokapsid diametri, kapsomer va hokazolar
Vira	Deoxyvira	Deoxyhelica	Chitovirales	Poxviridae
		Deoxycubica	Haplovirales	Microviridae, Parvoviridae, Papillomaviridae, Adenoviridae, Iridoviridae, Inophagoviridae, Herpesviridae, Phagoviridae
		Deoxybinala	Peplovirales, Urovirales	
	Ribovira	Ribohelica	Rhabdovirales ,Rigidoviridales	Dolichoviridae
			Flexiviridales	Protoviridae
			Sagovirales	Pachyviridae
			Gyminovirales	Leptoviridae
		Ribocubica	Togavirales	Mesoviridae
				Adroviridae
				Myxoviridae
				Paramyxoviridae
				Stomatoviridae
				Napoviridae
				Reoviridae
				Arboviridae

8.1.3. Virus nuklein kislotasining tipi va zanjirlar sonlariga asoslangan klassifikatsiya

Mazkur klassifikatsiyada barcha viruslar nuklein kislotasining tipiga qarab ikkiga bo‘lingan, ya’ni Dezoksiviruslar va Riboviruslar. Bularning har biri o‘z navbatida ikkizanjirli va birzanjirli DNK guruhiga hamda ikkizanjirli va birzanjirli RNA guruhlariga bo‘lingan. Endigi bo‘linishlar asosida virionning tuzilishi simmetriyasi va qobiqqa egaligi asosida bo‘ladi.

14-jadval


Virus nuklein kislotasining tipi va zanjirlar sonlariga asoslangan klassifikatsiya turi

Viruslar			
Dezoksiviruslar		Riboviruslar	
1. Ikki zanjirliDNK	2.Birzanjirli DNK	1.Ikki zanjirliRNK	2. Birzanjirli RNK
1.1. Kubsimon tipdagi simmetriya: 1.1.1. Tashqi qobiqsiz: adenoviruslar 1.1.2.Tashqi qobiqli: uchuq-viruslari 1.2. Aralash simmetriya: T-juft bakteriofaglar 1.3. Aniq simmetriyaga ega bo‘lmagan: chechak viruslari	2.1. Kubsimon tipdagi simmetriya: 2.1.1. Tashqi qobiqsiz: Kilxam kalamushi virusi, adenosatellitlar	1.1. Kubsimon tipdagi simmetriya: 1.1.1. Tashqi qobiqsiz: O‘simliklarning jarohatli o‘smasi viruslari	2.1. Kubsimon tipdagi simmetriya: 2.1.1. Tashqi qobiqsiz: poliomielit virusi , enteroviruslar, rinoviruslar 2.2. Spiral simmetriya tipi: 2.2.1. Tashqi qobiqsiz: Tamaki mozaikasi virusi 2.2.2. Tashqi qobiqqa ega: gripp viruslari, qutirish, RNK-tutuvchi onkogen viruslar

8.2 Baltimor klassifikatsiyasi (1971)

Baltimor klassifikatsiyasi hozirgi kunda eng zamонавиy klassifikatsiya bo‘lib, viruslarni barcha xususiyatlarini hisobga olgan holda tuzilgan, chunki undan avvalgilari yoki virus qo‘zg‘atadigan kasalliklarga yoki virusning morfologiyasiga asslanib tuzilgan edi. 1971 yilda Nobel mukofoti sovrindori **Devid Baltimor** taklif qilgan klassifikatsiya, viruslarni **xo‘jayin hujayrasida m-RNK (oqsil sintezlanadigan RNK (matrichniy) molekulasi) hosil bo‘lish mexanizmiga asosan 7 guruhga** ajratadi. Oqsil ishlab chiqish va replikatsiya uchun virus birinchi navbatda zararlangan hujayrada m-RNK hosil qilishi kerak. Ammo har xil tipdagi viruslar genetik informatsiya olib yuruvchi nuklein kislota tipiga qarab (RNK yoki DNK), m-RNK hosil bo‘lishining xar xil usullarini ishlataladi, nuklein kislota zanjirlarining miqdori (bir yoki ikki ipli) va onRNK (bir ipli RNK) matritsada ikki ipli dnDNA (ikki ipliDNK) sintezini amalga oshirish uchun qaytalama transkriptaza RT (reverse transcriptase) – fermentini ishlatalishning lozimligi. Viruslarga mRNK molekulasi (+)onRNK (oqsil sintezi amalga oshadigan kodlantiruvchi RNK) deb belgilash oson bo‘ladi.

(+)onRNK ga komplementar RNK zanjirchasini (-) onRNK (yoki kodlantirmaydigan RNK-zanjirchasi) deyiladi.



23-rasm. Viruslarning Baltimor bo‘yicha klascifikatsiyasi

^xdn - ikki zanjirchali(iz); on – bir zanjirchali(bz)

Baltimor klassifikatsiyasida viruslar quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

I. izDNK viruslar (izDNA virus) izDNA tutuvchi viruslar (masalan, uchuq viruslari, chechak va adenoviruslar). Bu guruh vakillarida virus replikatsiyasi quyidagicha amalga oshadi:

Virus **genomi bilan** zararlangan hujayraning **DNK-tobe (zavisimiyl RNK-polimeraza fermenti mRNA ((+)bzRNK)** molekullarini sintez qiladi (transkribiruyut) va u asosida virus oqsillari sintezi amalga oshiriladi.

Virus DNK-genomidan nusxa olish xo‘jayin-hujayraning DNK-tobe (zavisimoy) DNK-polimeraza fermentini ishlatish orqali amalga oshadi. Virus genomlarini yangi sintezlangan virus kapsid oqsillari bilan o‘ralib-qurilishi va virionlarni hujayradan chiqishi bilan infektion sikl jarayoni tugaydi.

II. bzDNK viruslari(onDNA virus). bzDNA tutuvchi viruslar (m., parvoviruslar). Virus hujayraga tushgandan so‘ng virus genomi hujayra DNK polimerazasi yordamida ikki zanjirchali shaklgacha qayta quriladi, so‘ngra I guruh viruslari mexanizmi bo‘yicha o‘tadi.

III. izRNK viruslar (dnRNA virus) izRNA tutuvchi viruslar (m., ichak infeksiyasini qo‘g‘atuvchi rotaviruslar). Virus RNK si bilan birga hujayraga virusning **RNK-tobe(zavisimaya) RNK-polimerazasi** tushadi va u (+)bzRNK molekulalarini sintezini ta’minlaydi. O‘z navbatida, **(+)bzRNK** ho‘jayin hujayrada virus oqsillarini ishlab chiqarishni ta’minlaydi xamda **matritsa bo‘lib xizmat qiladi** va **yangi virus(-)bzRNKzanjirini** sintezini **RNK-polimeraza** yordamida ta’minlaydi. Komplementar **(+) i (-)RNK** zanjirlar so‘ngra **ikki zanjirchali (+-)RNK-genom** hosil qiladi va u oqsil qobiq bilan o‘ralib (upakovivayutsya), yangi avlod virionlarini shakllantiradi.

IV. (+)bzRNK viruslar –bu viruslar tarkibida **(+)bzRNK** yoki **mRNA** tutadi (m., poliomielit i kana ensefaliti viruslari, A gepatiti virusi, **tamaki mozaikasi virusi**). Hujayraga mRNA tushishi bilan **RNK-tobe(zavisimiyl RNK-**

polimeraza fermenti ishga tushib virus oqsillari sintezi boshlanadi, u DNK ishtirokisiz RNK sintez qilish qobiliyatiga ega. Bu ferment ishtirokida hujayrada virus mRNK si ko‘payishi boshlanadi va to‘plangan virus oqsillari va RNK dan tayyor virionlar yig‘iladi.

V. (-)bzRNK viruslar – bu viruslar (-)bzRNK tutadi (m., gripp virusi, qizamiq, qutirish viruslari). Bu guruh viruslari (-)bzRNK bilan bir qatorda o‘zi bilan birga RNK-tobe(zavisimuyu) RNK-polimeraza fermentini “olib yuradi”, virus bilan zararlangan hujayrada yuqumli jarayonni birinchi davrida RNK ipiga komplementar ((+)bzRNK) hosil qilish uchun bu ferment kerak bo‘ladi. So‘ngra virus oqsillari hosil bo‘ladi, shular qatorida virus genomini mazkur hujayrada ko‘payishini ta’minlaydigan RNK- tobe (zavisimaya) RNK-polimeraza hosil bo‘ladi va yangidan hosil bo‘lgan virionlar tarkibida joylashadi.

VI. biRNK-RT viruslar, yoki retroviruslar, bu viruslar (+)biRNK tutadi va o‘z hayot siklida RNK matritsada DNK sintez stadiyasiga ega. Bu guruhga ba’zi onkoviruslar kiradi (havfli o‘sma qo‘zg‘atish qobiliyatiga ega viruslar) va VICH (uning genomi iiRNKbo‘lsa ham, DNKstadiyasi virusning hayot siklini ajralmas stadiyasiidir). Virus **genomida qaytalama transkriptaza fermenti** kodlangan bo‘lib, u ham **RNK-tobe (zavisimoy), ham DNK-tobe (zavisimoy)** **DNK-polimeraza** xususiyatiga ega. Virus bilan zararlangan hujayraga virus RNK si bilan birga tushib, qaytalama transkriptaza (+)bzRNK matritsasida **DNK-kopiyalar** sintezi bilan ta’minlaydi **avval (-)bzDNK** shaklida, so‘ngra **izDNK**shaklida, so‘ngra **virus (+)bzRNK**, undan keyin virus oqsillari sintezlanadi va tayyor virionlar shakllanib hujayrani tark etadi va yangi hujayralarni zararlashni yangi davri boshlanadi.

VII. izDNK-RT viruslari – izDNK tutuvchi viruslar, ular o‘z hayot siklida RNK matritsasida DNK sintezi davriga ega (B hepatitiga o‘xshash retroid viruslar). Bu viruslar tarkibiga kiruvchi **izDNK**, I guruh viruslariga qaraganda boshqacha nusxalanadi (ularda virus DNKSini D NK-tobe(zavisimaya) D NK-polimeraza nusxalaydi). Bu holatda avval **virus DNKsi bo‘ylab** hujayraning **D NKtobe (zavisimiyl)** **RNK polimerazasi (+)biRNKni** sintezlaydi. So‘ngra undan virus oqsillari va virus D NK si hosil bo‘ladi. DNKSintezini RT qaytalama transkriptaza fermenti amalga oshiradi.

Bu klassifikatsiya viroidlar uchun juda ham mos bo‘laolmaydi, chunki viroidlar **xalqali bzRNK** dir.

8.3.O‘simlik viruslarining klassifikatsiyasi, nomenklaturasi va ba’zi kasalliklari

Yuqorida aytilgandek MKTV bo‘yicha viruslar universal taksonomiya sistemasida 3 tartib, **80 ta oila (30 ta fitoviruslar oilasi** bilan birga), 233 ta avlodga kiruvchi hayvon, o‘simlik va mikroorganizmlar viruslari avlodlari mavjud va xali klassifikatsiyalanmagan yuzlab viruslar ham bor (23).

MKTV qoidasi bo‘yicha quyidagi virus taksonlari taklif qilindi.

Tartib (Order) – o‘zi ichiga, bir-biridan tartib va oila xususiyatlari bilan farqlanadigan umumiyl tavsifli oilalarni biriktiradi va **-virales** suffiksi bilan

belgilanadi. Hozir MKTB tomonidan 3ta viruslar tartibi mavjud: **Caudovirales**, **Mononegavirales**, **Nidovirales**.

Oila(Famili) va oilacha (Subfamili) lar virus umumiy tavsifga ega bo‘lgan va boshqa oila xususiyatlaridan farqlanadigan avlodlarni o‘z ichiga oladi. Ular oilaga **-viridae** va oilachaga (yoki kichik oilaga) **-virinae** suffikslari qo‘shilishi bilan farqlanadi.

Avlodlar (Genus) viruslarni umumiy xususiyatga ega bo‘lgan va boshqa avlodlardan farqlanadigan guruhlarga ajratiladi va ularga -virus suffiksi qo‘shiladi.

Viruslarni turlari (Species) deb nomlanadi. Klassifikatsiyalash sistemasida **tur** taksoni eng ahamiyatli ierarxik birlikdir. **Tur** taksonini quyidagicha ifodalanadi, ya’ni («Virusny vid yavlyaetsya politipicheskoy kategoriey (klassom) virusov, kotoraya sostavlyaet replitsiruyushchuyusya liniyu i zanimaet osobuyu ekologicheskuyu nishu») viruslarning turi - politipik kategoriya (sinf) bo‘lib, ayrim ekologik nisha va replikatsiya liniyasiga ega bo‘ladi.

MKTV da ko‘pgina xollarda **o‘simlik viruslarini xalqaro inglizcha** nom bilan atash qabul qilindi.

Hozirgi vaqtda viruslarni taksonomiya qilish maqsadida viruslarni xarakteristikalarini - morfologiyasi, fizikaviy-kimyoviy va fizik xususiyatlari, genomi (nuklein kislotasini tipi), genomining o‘lchami (par osnovaniy (juft asoslar), nuklein kislotasini zanjirlari soni, oqsili, lipidlari va uglevodlarinini xususiyatlari, viruslarni antigen xususiyatlari, serologik yaqinligi (rodstvo), tabiiy xo‘jayin spektri, tabiatda tarqalish usuli, tarqatuvchilar bilan aloqasi, patogenligi, to‘qimalarga bo‘lgan tropizmi, hamda patologiyasi, gisto- va sitologiyasini aniqlashda ko‘pgina zamonaviy metodlar ishlatilmoqda.

O‘simlik viruslari klassifikasiya qilish ularning morfologiyasi aniqlanmasdan oldin mavjud edi. Fitovirusologiyaning tarixiga nazar soladigan bo‘lsak, 1927 yilda D. Djonson tomonidan birinchi sistematika qilindi. Uni taklifi bo‘yicha viruslarni belgilash uchun xo‘jayin o‘simlikka “**virus**” so‘zini qo‘shish va mazkur o‘simlikda aniqlanishining tartib raqami qo‘yildi. Masalan, D.Djonson bo‘yicha tamaki mazaikasi virusi “tamaki virusi 1” belgilandi. Tamakida keyingi aniqlangan virus “tamaki virusi 2” va hakozo. Ammo sistematikaga bunday yondoshishda bir guruhga ko‘pincha bir-biri bilan hech qanday umumiylitka ega bo‘lmagan viruslar kirib qolishi aniqlandi. Keyinchalik o‘simlik viruslarni klassifikatsiya qilish uchun hasharot-tashuvchilariga asoslanib ham klassifikatsiya qilindi. Ammo bir virusni ko‘p tashuvchilari, xar-xil viruslarni birdan-bir tashuvchiga ega ekanlagi aniqlangandan so‘ng bu tartibda klassifikatsiya qilish ham keng qo‘llanilmadi. Undan keyingi urinishda o‘simliklarda hosil bo‘lgan simptomlarning o‘xshashligiga asoslanib klassifikatsiya qilindi. Lekin keyinchalik aniqlanishicha har-xil viruslar o‘simlikni kasalantirganida ham o‘xshash simptomlar hosil bo‘lar ekan. 1935-yili viruslarni Stenli tomonidan kristal holatida olindi va shu asosida sistemalarga solindi (Kristallobiote va Plazmobiote). 1937-yili K.Smit D.Djonson

sistematisini birmuncha o‘zgartirib viruslarni o‘simlikni avlodni nomi bilan belgiladi va unga “virus” so‘zini va unga avval berilgan tartib raqamini qo‘yishni taklif qildi. M., tamaki mozaikasi virusini Nicotiana virus 1 deb nomlandi.. Viruslarni shtammlarini belgilash uchun virus nomiga harflar qo‘sib atashni taklif qildi M., Nicotiana virus 1 A va h.

1939-1948-yillarda F. Xolms viruslarni binominal nomenklatura bo‘yicha nomlashni taklif qildi. U hamma viruslarni bir xil prinsip asosida klassifikatsiya qildi va barcha viruslarni Virales tartibiga birlashtirdi va ularni uchta tartibga ajratdi: Phagineae (bakteriofaglar), Phitophagineae (o‘simlik viruslari) va Zoophagineae (hayvon viruslari). Ammo bu klassifikatsiya ham viruslarni barcha xususiyatlarini o‘z ichiga olaolmadi.

1966-yili A.E.Protsenko viruslarni tuzilishi va virus zarrasi xususi imkoniyani berishi mumkinligini ko‘rsatdi. U fitopatogen viruslarni Ribonukleoproteinales sinfiga birlashtiradi. Oila, avlod va turlarga ajratadi. M., tamaki mozaikasi virusini Bacilliaformae oilasiga, Virotrix avlodiga kiritadi va uni quyidagicha nomlaydi Virotrix ivanowskii Ryzkov. Viruslarni Vira olamiga ajratib ularni esa ikkita olamchalarga: Dexyvira va Ribovira larga bo‘ladi.

Yangi ma’lumotlarni paydo bo‘lishiga qarab klassifikatsiya ham boyib, o‘zgarib bordi. 1971-yili B.D.Xarrison va boshqalar klassifikatsiyasida 50 ta belgini ishlatalishni taklif qilishdi. Fitoviruslar xususiyatlarinini qiyosiy o‘rganib, ularni MKTV talablariga asoslanib 26 ta guruhga bo‘linadi.

Dunyo fitovirusologlari “viruslar guruhi” degan tushunchani ishlataboshladilar. Har bir guruhda tipik vakilini asosiy xususiyatlari yoziladi va uni qarindoshlari ko‘rsatiladi. Guruhni nomi tipik vakilni nomi bilan ingliz tilida ataladi. M., tamaki mozaikasi virusi guruhi tobamoviruslar guruhi deyiladi (tobamovirus – tobacco mosaic virus).

Ma’lumki fitoviruslarni Gibbs va Xarrison birqancha guruhlarga bo‘ladi, unda u har bir virusni guruhi va hususiyatlarini kriptogrammalar orqali belgilaydi.

8.4. O‘simlik viruslari sistematikasi (15)

O‘simlik viruslari ham tabiatda keng tarqalgan bo‘lib qishloq xo‘jaligida katta zarrar keltiradi – virus bilan kasallangan o‘simlik hosili va sifati pasayib ketadi. G‘o‘za, jo‘xori, bug‘doy, arpa, suli, tamaki, tomat, kartoshka, sholg‘om, redis, raps, karam, sabzi va boshqalar, tok, shaftoli va boshqa daraxtlar, gullar, dorivor o‘simliklar va hokazolar fitoviruslar bilan kasallananadilar. Bu viruslar ichida bir zanjirli RNK-tutuvchi (m., tamaki, tomat mozaikalari viruslari), ikki-zanjirli RNK tutuvchi (sholi pakana virusi), DNK tutuvchi (gulkaram mozaikasi virusi, kartoshkagul mozaikasi viruslari) viruslar ma’lum. Birgina g‘o‘zani dunyo bo‘yicha 18 dan ortiq, kartoshkani 20 ga yaqin virus kasalliklari ma’lum. Bu viruslarni ajratish, xususiyatlarini o‘rganish va kurash choralarini ishlab chiqish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

YUqorida bayon etilgandek, I.G. Atabekov (1) viruslarni morfologiya va tuzilishining murakkabligiga qarab, guruhlarga ajratgan bo‘lsa, keyinchalik A.Gibbs, B.Harrison(1976) ning “Plant virology The principles” kitobining

tarjimasi (“Osnov virusologii rasteniy») I.G. Atabekov (1978) taxriri ostida chop etildi. Bu kitobdag“Ba’zi viruslar va viruslar guruhlari” qismida eng asosiy o’simlik viruslarini nuklein kislotalari, ularning tiplari, virion tuzilishi va uning murakkabligi, virus yuqtiradigan xo‘jayinlari, tarqatuvchi hasharotlari va boshqa xususiyatlari **criptogramma** ko‘rinishida beriladi. 1-guruhgaga spiral simmetriya asosida tuzilgan tayoqchasimon va ipsimon zarrali viruslar; 2-guruhgaga izometrik viruslar; 3-guruhgaga batsillasimon va sharsimon zarrali viruslar kiradi; 4-guruhdan viroidlar joy oldi. Mualliflar taqdim etayapgan criptogrammada 4 juftli va 8 ta simvollar mavjud bo‘lib ular virusga aloqador ko‘pgina xususiyatlarni aks etdiradi. Hali aniqlanmagan viruslarning xususiyatlari yulduzcha (*) ko‘rinishdagi belgi bilan nishonlangan.

Kriptogrammada quyidagi elementlar bo‘lib, virus xususiyatlari harflar - simvollar orqali belgilanadi. Har bir criptogramma 4 juft simvollardan iborat:

Birinchi juftlik. Nuklein kislota tipi va molekuladagi zanjirlar sonini ifodalaydi. RNK(R) yoki DNK(D) zanjirlar sonining belgilari:

1-bir zanjirli; 2- ikki zanjirli;

Ikkinchi juftlik. Nuklein kislotalarning molekulyar massasi (dalton, millionlarda). Virus zarrasidagi nuklein kislota miqdori (foizda). Bu miqdor yuqumli virus zarrasi tarkibini ifodalaydi.

Ba’zi virus genomlari fragmentlardan tashkil topgan. Agar virus zarrasi genomi bipHecha fragmentlardan tashkil topsa, genom fragmentlarining yig‘indi xususiyatlari olinadi;

Uchinchi juftlik. Virion shakli va nukleokapsida shakli (virus nuklein kislotosi va unga musthkam birikkan oqsil);

Virus strukturasini izohlovchi simvollar:

S - sferasimon;

E - tomonlari parallel bo‘lgan uzunchoq struktura;

U - ikki uchi yumaloq, tomonlari parallel, uzunchoq struktura;

X - murakkab struktura

To‘rtinchi juftlik. Virus yuqadigan (kasallantiradigan) xo‘jayin tipi va virus tashuvchilar tipi.

Xo‘jayin tiplarining simvollari:

A - suvo‘tlari (A1ga);

V - bakteriyalar (Bacterium);

Fu - zamburug‘lar (Fungi);

I - umurtqasiz hayvonlar (Invertebrate);

M - mikoplazma (Mycoplasma);

S - urug‘lik o’simliklar (Seed plant);

V - umurtqali hayvonlar (Vertebrate);

Virus tashuvchilar tiplarining simvollari:

Al - oq qanotlar (Aleyrodidae);

Ar - shiralar (Aphididae);

Sl - qo‘ng‘izlar (So1eortera);

Di - pashshalar, chivinlar (Diptera);

Ne - nematodlar (Nematoda);

Rs - psillidlar (Psyllidae);

O - virus tarqatuvchilarsiz tarqaladi yoki tarqatuvchisi no'malum o'simlik yoki tashqi muhitdagi virus bilan kasallanadi.

*- bu virus xususiyati haqida axborot yo'q

8.4.1. Spiral simmetriya prinsipida tuzilgan tayoqchasimon va ipsimon viruslar

1. Tobraviruslar (R/1 :2,3/ 5 +0,6 - 1,3/ 5:E/E :S/ Ne)

Bu guruhning vakili tamaki bargini shaldirashiga sabab bo'luvchi virus tabacco rattle virus. Zarralari tayoqchasimon shaklga ega. Ko'pgina vakillari o'simliklarga mexanik usulld yuqadi. O'simliklarning juda ko'p oilalarini kasallantiradi.

2.Tuproq orqali o'tadigan, bug'doy mozaikasi virusi R/1:2/ (5):E/E:S/ Fu va kartoshka o'sish nuqtasini jingalaklashtiruvchi virus (**virus mop—topa R/1:*:E/E:S/Fu**, bug'doy mozaikasi virusi, SHimoliy Amerikada, bug'doyga katta zarar etkazgan. Hozirgi vaqtda unga chidamli navlar eqilmoqda. Mop -top virusi esa, G'arbiy Evropada tarqalgan bo'lib, uning virionlari tamaki mozaikasi virusiga o'xshaydi. Ammo uzunligi 100-160, ba'zan esa 300 nm ni tashkil qiladi. Virus o'simliklarni kam kasallantiradi, zamburug'lar zoosporalari bilan tarqaladi.

3. Tobamoviruslar [R/1:2/ 5:E/E :S/ O]

Bu guruh tamaki mozaikasi virusi (tabacco mosaic virus), tomat mozaikasi virusi, turli dukkakliklar viruslarini hamda qovoqsimonlar, kaktuslar viruslarini o'z ichiga oladi. Bularidan eng ko'p tarqalganlari tamaki mozaikasi virusi bo'lib, uzunligi 300 nm, eni 18 nm ni tashqil qiladi. Ko'pgina o'simliklarga mexanik usulda yuqadi, mozaika va nekroz kabi simptomlar hosil qiladi.

4. Kartoshkaning X virusi guruhlari [R/1:2,2/6:E/E :S/ O].

Bu guruh kartoshka X - virusini, oq yo'ng'ichqa mozaiqasi virusi va boshka viruslarni o'z ichiga oladi. Virionlarining uzunliklari 480 - 580 nm bo'lib, oson bukuluvchan iplardan iborat. O'simliklarga mexanik usulda hamda hasharotlar yordamida yuqadi. Kasal o'simliklarda mozaika hosil qiladi. Nekroz hosil qiladigan o'simliklardan Gomphrena globosa (qulupnay gul) o'simligini ko'rsatish mumkin.

5. Karlaviruslar guruhi [R/1:*/6:E/E:S/Ar]

Bu guruh viruslari 5-virusi nomi bilan yuritilib chinnigul latent virusi (carlavirus: capHation latent virus), kartoshkaning M va S viruslari va yana boshqa sakkizta viruslarni o'z ichiga oladi. Zarrachalari 650 nm keladigan to'g'ri iplardan iborat. o'simliklarga mexanik usulda oson yuqishi mumkin. Ba'zilari esa shiralar yordamida yuqishi mumkin.

6. Potiviruslar guruhi [R/1:3,5/5:E/E:S/Ar]

Y - guruhiga mansub viruslarni o‘z ichiga oladi (potyvirus: potato virus Y). Bu gurux qishloq xo‘jaligida katta zarar keltiruvchi no‘xot va loviya mozaikasi viruslarini o‘z ichiga oladi. Zarrachalarining uzunligi 730 - 790 nm. Bu viruslar mexanik usulda va shiralar yordamida tarqaladi.

7. Qant lavlagining sariq virusi [R/1:4,5:E/E:S/Ar] va sitrus o‘simliklar viruslari [R/1:*/*:E/E :S/Ar].

Bu guruhga qishloq xo‘jaligiga katta zarar keltiruvchi sitrus o‘simliklari viruslari kirib, ularning uzunligi 2 mkm, qant lavlagining sariq virusi esa 1,2 mkm ni tashqil etadi. Mevali daraxtlar viruslari (olma, bargina, sariq doglari viruslari) ham shu guruxga kirib, ularning uzunligi 600 - 700 nm.

8.4.2. Izometrik zarrali viruslar

8. Kukumoviruslar guruhi [R/1:1,3/19+0,8/19:S:S/Ar]

Bodring mozaikasi virusi (Cucumber mosaic virus) va unga yaqin tomat aspirmiyasi viruslari izometrik shaklga ega bo‘lib, diametri 30 nm. Ulardan ajratilgan RNK to‘rt fragmentdan iborat bo‘lib, molekula massasi $0,4 \cdot 10^6$ - $125 \cdot 10^6$ ga teng. Virusning yuqumliligi saqlanishi uchun 3 ta katta fragment zarur. Bodring mozaikasi virusi 40ga yaqin yopiq urug‘lilarga mansub o‘simliklarni kasallantiradi. Ko‘pgina o‘simliklarda mozaika va ba’zan nekrozlar hosil qiladi. Ular mexanik yo‘l va shiralar yordamida tarqaladi.

9. Timoviruslar guruhi. [R/1:2/37:S/S :S/S1]

Bu guruhning asosiy vakili, tupHepsni sariq mozaika virusi (tymovirus: tupHip yellow mosaic) bo‘lib, virionlarining diametri 25 - 30 nm. Ularga harakterli xususiyatlaridan biri, ba’zi zarralarida nuklein kislota bo‘lmay, kasallantirish qobiliyatiga ega emas. Tarqalishi mexanik usulda va ba’zan esa qo‘ngizlar yordamida amalga oshadi

10. Komoviruslar guruhi [R/1:2,3/34+1,5/28:S/S :S/Cl]

Gurux o‘z ichiga mol no‘xoti mozaikasi virusi () redis mozaikasi virusi va xokozolarni olib , verionlarning diametri 25 - 30 nm. Ba’zi zarrachalari nuklein kislotasiz bo‘lsa, ba’zilarida 28 - 34 % nyklein kislota buladi. Ularning hammasi mexanik usulda va qo‘ngazlar yordamida tarqaladi.

11.Nepoviruslar guruhi [R/1:2,4/43+1,4-2,1/30--40±Σ2,8/46):S/S:SNe]

Bu viruslar nematodlar (nematode) yordamida tarqaladi: ularning zarrachalari ko‘p qirralik poliedr shaklida bo‘lib, diametri 30 nm. Vakillaridan, tok va ko‘pgina mevali daraxtlar kasalliklari viruslari, tamaki va tomat barglarining xalqali dog‘ viruslarini ko‘rsatish mumkin. **12. Tamaki nekrozi virusi [R/1:1,5/19:S/S :S/Fu]**

Ularning zarrachalari sharsimon shaklga ega bo‘lib, diametri 26 nm; mexanik usulda oson tarqaladi, kasallangan o‘simliklarda nekroz hosil qiladi. Tabiiy sharoitda zamburug‘larning zoosporalari orqali tarqalishi mumkin.

13. Yo‘ldosh-virus R/1:0,4/20:S/S :S/Fu

Bu ancha mayda virus bo‘lib, u ko‘payish jarayonida doimo tamaki nekrozi virusi bilan birga uchraydi. Diametri 17 nm. Mexanik usulda oson tarqaladi, tamaki nekrozi virusi kabi zamburug‘lar zoosporalari orqali tarqaladi.

14. Brom viruslar guruhi [R/1:1,1/23+1,0/22+0,7/21:S/S:S/*]

Bu guruhga yaltirbosh mozaikasi virusi kabi sharsimon shaklli viruslar kirib, ularning diametri 25 nm atrofida. ularning genomlari uchta fragmentdan iborat. Virus osonlik bilan mexanik ravishda yuqadi, tabiiy tarqatuvchilari ma’lum emas.

15. Tombasviruslar guruhi [R/1:1,5/18:S/S :S/*]

PomidopHing pakana shoxlanish virusi va yana to‘rtta virus shu guruhga kiradi. Zarrachalarini diametri 30 nm atrofyada bo‘lib, bir - birlaridan katta-kichikligi bilan farq qiladi. Bu viruslar mexanik ravishda oson tarqaladi, tarqatuvchisi nomalum. Bu guruhning bazi vakillari tuproq orqali tarqalishi mumkin.

16. Kartoshka bargining buralishi virusi va shunga o‘xhash viruslar [R/1:2/*:S/S :S/Ap].

Bu guruxga, kartoshka bargining buralishi virusidan tashqari, loviya bargining buralishi virusi kabi bir qator viruslar kiradi. Virionlarining diametri 25 nm. Bu viruslarning birortasi ham mexanik usulda yuqish qobiliyatiga ega emas. Ular shiralar yordamida persicent usulda tarqatadi.

Ba’zi olimlarning fikricha, ular shiralar organizmida ham ko‘payishi mumkin.

17. Ikki va undan ortiq beqaror zarrachali viruslar.

Ko‘pgina mevali daraxtlar viruslari shu guruhga kirib, zarrachalarining diametri 20-35 nm, zarrachada 15 - 20% RNK bor. Bu viruslarning ba’zilari o‘simlik changlari yoki urug‘lari yordamida yuqadi. ularning tarqatuvchilari aniqlanmagan. Virionlari 3 xil zichlikka ega, zarrachalardai iborat. Fraksiyalarga ajratilmagan virus preparatidan RNK ning 3 xil asosiy va 2 minor fragmenti ajratilgan. Bu viruslar, olma mozaikasi virusiga serologik tomonidan yaqin. Bu guruhga mansub ma’lum viruslar ilarviruslar (ilarvirus: isometric labile particles - beqaror izometrik zarralar) guruhiga kiritiladi.

18. No‘xot shaklining o‘zgarishi mozaikasi virusi. [R/1:1,6/28+1,3/28:S/S :S/Ap]

Bu guruh viruslari dukkakli o‘simliklarni kasallantiradi va barglarida mozaika va deformatsiya kabi simptomlar hosil qiladi. Ikki qismlik genomga ega. Shiralar va o‘simlik shirasi yordamida sog‘ o‘simlikka o‘tadi. Zarrachalarining ko‘pgina xususiyatlari viruslarinikiga o‘xshaydi.

19. Kaulimoviruslar guruhi [D/2:4,5/16:S/S :S/Ap]

Bu guruhning eng yaxshi o‘rganilgan vakili gulkaram mozaikasi virusidir (caulimovirus: cauliflower mosaic virus). Uning nuklein kislotasi DNK tipida. Bu virusning serologik xususiyatlari kartoshka guli mozaikasi virusiga o‘xhash bo‘lib, zarralarining diametrлари 50 nm. Bir o‘simlikdan ikkinchisidan mexanik

usulda va shiralar yordamida o‘tadi. Gulkaram mozaikasi virusi hamma kontinentlarda uchraydi.

20. Beda jarohati shishi virusi va unga o‘xhash viruslar. [R/2: Σ 10-16/11-22:S/S :S,I/Au]

Beda jaroxati shishi, sholi pakanalashishi virusi hamda jo‘xorining g‘adir-budur pakanalik virusi umumiy xususiyatlarga ega bo‘lib, izometrik zarralarining diametri 70 nm: zarracha 2 zanjirchali RNK ning bir qancha fragmentlarini tutadi. SHakli va virion tarkibi bilan reoviruslarga o‘xshaydi. Bu viruslar sikadkalar yordamida tarqaladi. Ularning tashuvchi hashorat organizmida ko‘payishi bu viruslarga xos xususiyatlaridan biridir.

21. Tomat zarhallanishi (bronzalashishi) virusi. (R)/*:*/*:S/*:S/Th

Bu viruslar tripslar yordamida bu viruslar tarqaladi. Kasal o‘simlikda mozaika va nekroz hosil qiladi. Mexanik usulda boshqa o‘simlikka oson o‘tadi, o‘simlik shirasida beqaror. Zarrachalarining diametri 80 nm, lipidlar tutadi. Bu viruslar hayvon viruslariga o‘xhab ketadi.

8.4.3. Zarrachalari batsillasimon yoki o‘qsimon shaklli viruslar

22. Beda mozaikasi virusi. R/1(1,1/16)+(0,8/16)+(0,7/16):U/U :S/Ap

Bu viruslar batsillasimon shaklga ega bo‘lib, to‘rt xil uzunlikka ega. Eng kattasining uzunligi 58 nm, eni 18 nm. Zarrachalarida RNK ning uch xil fragmenti mavjud. Ularning yig‘indisi virus genomini tashqil etadi. Virus mexanik usulda o‘tadi. Nopersistent usulda shiralar yordamida ham tarqaladi. Kasal o‘simlikda mozaika yoki xalqali dog‘lar hosil qiladi. Bu virus guruhi kukumoviruslar guruxiga yaqin.

23. Kakao shoxlarining deformatsiyasi virusi. */*:U/U:S/Cc

Viruslarning shakli batsillasimon bo‘lib, diametri 28 nm: zarrachalarining uzunligi o‘zgarib turadi: ko‘pincha 100- 150 nm. Virusning tashuvchisi hitovkalar (qalqonsimonlar) bo‘lib. ularda virus rivojlanishning ma’lum siklni o‘tadi. O‘simlik shirasidagi virus beqaror bo‘lib, mexanik usulda qiyinlik bilan boshqa o‘simlikka yuqadi. O‘simliklarda mozaika va o‘simlik shoxlarini o‘sib ketishiga olib keladi. Janubiy Afrikada ko‘p tarqalgan. Kakao o‘simligiga katta zarar etkazadi.

24. Rabdoviruslar guruhi. [R/1:4/2:U/E:S,I,V/Ap,Au,Di,O]

Batsillasimon zarralarga ega bo‘lib, murakkab tuzilishga ega: ularning eni 50-100 nm, uzunligi 200 - 300 nm. Zarrachalar tashqi tomonidan oqsil-lipid membranaga ega: nukleokapsidi spiralsimon shaklli bo‘lib, u oqsil va RNK dan tuzilgan. Bu guruhga baliq (forel), hashoratlar (drozofil), hayvon (quturish) kasalliklari viruslari kiradi.

8.4.4. Viroidlar

O‘simliklarda virusga o‘xhash kasalliklar yuzaga keltiradi. Harakterli xususiyatlaridan biri, ular nukleoproteid hosil qilmaydi. Bir o‘simliklardan ikkinchisiga mexanik usulda oson o‘tadi. RNK molekulyar massasi $50\cdot10^3$ dan

$125 \cdot 10^3$ gacha. Eng yaxshi o'rganilgan viroid bu "kartoshkaning dugsimonlashishi viroidi"dir. Viroidlar, birinchi marta Diner tomonidan (1972) aniqlangan. Xrizantema o'simligining pakanalashishi kasalligiga ham uning viroid sababchidir.

V.M Jdanovning(1990) (18) **viruslarni oddiydan – murakkabga prinsipi asosida tuzilgan klassifikatsiyasi** "Evolysiya virusov" kitobida viruslarni evolyusion nuqtai nazardan eng oddiy prion, vioidlardan boshlab virus tuzilishi murakkablashgan sari ular klassifikatsiyani keyingi pog'onasiga joylashtirilgan holda berilgan (qavs ichida tartib raqamlari keltirilgan). Asosiy e'tibor bu erda virion xususiyatlari, ularni morfologiyasi(tayoqchasimon, izometrik, o'qsimon), viriondagi qobiqni borligi pozitiv yoki negativ genomli, nuklein kislotani tiplariga qaratilgan.

V.M. Jdanov (1914 - 1987) virusolog- olim, epidemiolog (1960 yildan boshlab)." D.I.Ivanovskiy nomidagi Virusologiya institutining direktori. CHechak virusini yo'qotishni global programmasining mualliflaridan (1958 yildan).

(RNK yoki DNK, bir zanjirli yoki ikki zanjirli), zarrachadagi nuklein kislotani bir (monopartit), ikki (bipartit), ko'p qismlardan (multipartit) tuzilganligi ko'rsatilgan:

A. Prionlar

B. Viroidlar

V. RNK-tutuvchi viruslar

1. Birzanjirli RNK

1.1. Qobiqsiz

1.1.1. Monopartitlar

1.1.1.1. Izometrik

PicopHaviridae, Caliciviridae, Nudaurelia ‡, Leviviridae, MCDV,

Tymovirus, Luteovirus, Tombasvirus, Sobemovirus, Necrovirus (1-10)

1.1.1.2. Tayoqchasimonlar

Slosterovirus, Carlavirus, Potzvirus, Potexvirus, Tobamovirus,(11-15)

1.1.2. Bipartitlar

1.1.2.1. Izometrik

Dianthovirus, Comovirus, Nepovirus, PEMV, Nodaviridae, TMV

(16-21)

1.2.2.2. Tayoqchasimonlar

Tobravirus (22)

1.1.3. Multipartitlar

1.1.3.1. Izometrik

Cucumovirus, Bromovirus, Harvirus (23-25)

- 1.1.3.2.Tayoqchasimonlar
Hordeivirus (26)
- 1.1.3.3.Aralashlar
- ALMV (27)
- 1.2. Qobiqlilar
- 1.2.1. DNK sintezisiz
- 1.2.1.1. Pozitiv genomli
Togaviridae, Flavoviridae, Coronaviridae, TSWV(28-31)
- 1.2.1.2. Negativ genomli
- 1.2.1.2.1. Uzluksiz genomli
Paramyxoviridae, Rhabdoviridae (32-33)
Genomi fragmentlardan iborat
Orthomyxoviridae, Bremyaviridae, Arenoviridae(34-36)
- 1.2.2. DNK sintezli
Retroviridae (37)
2. RNK ikkizanjirli
- 2.1. Qobiqsiz (bez obolochek)
- 2.1.1. RNK uzluksiz
Totiviridae (38)
- 2.1.2. RNK bisegmentli
Partitiviridae, BipHaviridae (39-40)
- 2.1.3. RNK trisegmentli
Trisegmentli mikoviruslar (41)
- 2.1.4. RNK multisegmentli
Reoviridae (42)
- 2.2. Qobiqli
Syctoviridae (43)
- G. Plazmidlar
- D.DNK-tutuvchi viruslar
1. Birzanjirli DNK
- 1.1. Qobiqsiz
- 1.1.1. Izometrik
Mycroviridae, Parvoviridae (44-45)
- 1.1.2. O'qsimon
Mikoplazmalar fagi (46)
- 1.2. Qobiqli
Plasmoviridae(47)
2. D NK ikkizanjirli
- 2.1. Qobiqsiz
- 2.1.1. Monopartitlar

Papovaviridae, Adenoviridae, Iridoviridae, Myoviridae,
Styloviridae, Podoviridae, Tectoviridae (48-54)

1.2.1. Multipartitlar

Polydnnaviridae (55)

2.2. Qobiqli

Plasmaviridae, Hepadnaviridae, Baculoviridae, Herpesviridae
(56-59)

2.3. Murakkab tuzilishga ega

Poxviridae(60)

Yuqorida viruslar klassifikasiysi oilalar, avlodlar va viruslar guruhlari **Met'yuzning 1982 (26)** yili chop etilgan klassifikatsiyasi va nomenklaturasi bo'yicha keltirildi). Bu klassifikatsiyani esa Jdanov tomonidan murakkablashishiga qarab guruhlarga bo'lindi va so'nggi taksonomik guruhlar bilan to'ldirildi (18).

Virusologiyada viruslarni klassifikatsiyasi va nomenklaturasi doimo o'zgarib mukammallashib boradi. 1973-yildagi Moskvadagi Xalqaro mikrobiologiya kongressida viruslar nomenklaturasi bo'yicha Xalqaro Qo'mita viruslar klassifikatsiyasi va nomenklaturasini birmuncha tartibga keltirdi va takomillashtirib 1973-yil Xalqaro Viruslar Taksonomiyasi Qo'mitasi (MKT) degan nomni berdi. MKT bo'yicha viruslar universal taksonomiya sistemasida 3 tartib, 80 ta oila (30 ta fitoviruslar oilasi bilan birga), 233 ta avlodga kiruvchi hayvon, o'simlik va mikroorganizmlar viruslari avlodlari mavjud. MKT qoidasi bo'yicha quyidagi virus taksonlari mavjud:

Tartib (Order) – o'z ichiga, bir-biridan tartib va oila xususiyatlari bilan farqlanadigan umumiyl tavsifli oilalarni biriktiradi va -virales suffaksi bilan belgilanadi. Hozir MKT tomonidan 3ta viruslar tartibi mavjud: Caudovirales, Mononegavirales, Nidovirales.

Oila (Famili) va oilacha (Subfamili) lar virus umumiyl tavsifga ega bo'lgan va boshqa oila xususiyatlaridan farqlanadigan avlodlarni o'z ichiga oladi. Ular oilaga -viridae va oilachaga -virinae suffikslari qo'shilishi bilan farqlanadi.

Avlodlar (Genus) viruslarni umumiyl xususiyatga ega bo'lgan va boshqa avlodlardan farqlanadigan guruhlarga ajratiladi va ularga -virus suffaksi qo'shiladi.

Viruslarni turlari (Species) deb nomlanadi. Klassifikatsiyalash sistemasida tur taksoni eng ahamiyatli ierarxik birlikdir. Tur taksonini quyidagicha ifodalanadi. Viruslarni turi - politipik kategoriya (sinf) bo'lib, ayrim ekologik nisha va replikatsiya liniyasiga ega bo'ladi. («Virusny vid yavlyatsya politipicheskoy kategoriey (klassom) virusov, kotoraya sostavlyaet replitsiruyushchuyusya liniyu i zanimaet osobuyu ekologicheskuyu nishu»).

MKT da ko'pgina hollarda o'simlik viruslarini xalqaro inglizcha nom bilan atash qabul qilingan. Hozirgi vaqtida viruslarni taksonomiya qilish maqsadida viruslarni xarakteristikalarini - morfologiysi, fizikaviy-kimyoviy va fizik xususiyatlari, genomi (nuklein kislotasini tipi), genomining o'lchami (juft

asoslar, nuklein kislotasini zanjirlari soni, oqsili, lipidlari va uglevodlarini xususiyatlari, viruslarni antigen xususiyatlari, serologik yaqinligi (rodstvo), tabiiy xo‘jayin spektri, tabiatda tarqalish usuli, tarqatuvchilar bilan aloqasi, patogenligi, to‘qimalarga bo‘lgan tropizmi, patologiyasi, gisto- va sitologiyasini aniqlashda ko‘pgina zamonaviy metodlar ishlatilmoqda.

Hozirgi kunda MKTB tomonidan 30 ta fitoviruslar oilasi tasdiqlangan. Ular ichida ikki oila **Geminiviridae** va **Caulimoviridae** oilalari **birzanjirli** va **ikkizanjirli DNK-genomga** ega. Qolgan fitoviruslar RNK-genomlidir, ularni ko‘pchiligi bir zanjirli pozitiv RNK ga ega –bz RNK(+). Fitoviruslarni oila va avlodlarini tavsifini fitoviruslarga qo‘llab ularni nuklein kislotalari va ularni tarkibiy qismlariga asoslangan klassifikatsiyasini ba’zi oila avlod va vakillarini I.A. Kartashova (2007) tomonidan batafsil talqin qilingan. Quyida mazkur klassifikatsiyani asosiy qismlarini keltiramiz. Mazkur klassifikatsiyada 30 ta fitoviruslar oilasidan 13 tasining tavsifi, ya’ni **DNK-tutuvchi viruslar oilalari**, **RNK-tutuvchi virus oila, avlod va tipik** vakillari haqida so‘z yuritiladi.

8.5. DNK-tutuvchi viruslar

1. Caulimoviridae oilasi

Bu oila **ikki zanjirli DNK** ga ega. Replikatsiya jarayonida qaytalama transkripsiya bosqichini o‘tadi.

Caulimovirus avlodi. Tipik turi Cauliflower mosaic virus (CaMV) - gulkaram mozaikasi virusi. Izometrik zarrachalarni diametri 50 nm, Virionning molekulyar massasi - 20 million. Bu avlod viruslarining tabiiy xo‘jayin-o‘simpliklar spektiri ancha tor, ya’ni tor doiradagi o‘simpliklarni kasallantiradi. O‘simpliklar mazkur viruslar bilan kasallanganda undagi simptomlar mozaika yoki dog‘lar shaklida namoyon bo‘ladi. Ko‘pgina hujayralar tizimli (sistemno) kasallanadi. Viruslarni tabiatda tarqalishi shiralar yordamida persistent bo‘lib tarqaladi. Virus yana mexanik inokulyasiya usulida kasallanadi. Kasallangan o‘simpliklar hujayralarida virus kiritmalari hosil bo‘ladi. Ularni yorug‘lik mikroskoplarida kuzatish mumkin. Virus zarralari kiritmalarda to‘planadi, ba’zi turlar esa hujayra yadrosida to‘planadi.

Bu avlodga quyidagi virus avlodlari: chepHika o‘simpligi qizil xalqa dog‘liligi virusi, gulkaram mozaikasi virusi, xrenning latent virusi, zemlyanikaning tomirlarining hoshiyanishi virusi, artishokni dog‘lanishi virusi kiradi. Bu avlodga bo‘ztikan xol-xollanishi virusi, 4-zubturum virusi kabi virus turlari kirishi ehtimol qilinadi.

Caulimoviridae oilasiga yana birqancha tropika gulli o‘simpliklarini kasallantiradigan virus avlodlari kiradi.

2.Geminoviridae oilasi

Bu oilaga bir molekula xalqali DNKli viruslar kiradi (bzDNK). Virionning o‘lchami -18x30 nm, 22 kapsomerli ikki to‘lmagan ikosedrdan tashkil topgan.

Mastrevirus avlodi. Tipik vakili Maize streak virus (MSV) – virus polostosti kukuruz (jo‘xorini shtrixliligi - chiziq-chiziqliligi- yoki tilim-tilimliligi-

yoki taram-taramliligi virusi). Xo‘jayin-o‘simlik spektri tor doirada. Bu avlod viruslari donli o‘simliklarni oilasi vakillarini kasallantiradi. Tabiatda ularni yuqishi persistent usulda sikadkalar yordamida amalga oshadi. Mexanik inokulyasiya usulida yuqmaydi. Bu avlodga jo‘xorini quyidagi virus turlari kiradi: jo‘xori-, tariq-, shakar qamish chiziq-chiziqliligi viruslari, yalturbosh chiziq-chiziqliligi virusi, paspalum, tamakinini sariq pakanaligi virusi, bug‘doyni pakanaligi viruslari kiradi. Avlodni quyidagi turlari extimol (predpologaeme) shu turlarga kirar: ekiladigan tariq chiziq-chiziqliligi virusi, no‘xotning xlorotik pakanaliligi viruslari kiradi.

Curtovirus avlodi. Tipik tur Beet curly top virus (virus kurchavoy verxushki svekl) lavlagini tepasini jingalakliligi virusi. 44 oilaga qarashli 300 dan ortiq xo‘jayin-o‘simlik spektriga ega. Tabiatda persistent usulda tarqaladi. Ehtimol shu avlodga deb mo‘ljallangan turlari: tomat bargini buralishi virusi, tomatni tepasini jingalaklashishi viruslari kiradi.

Begomovirus avlodi. Tipik turi Beon golden mosaic virus (BegMV)-loviyani tillarang mozaikali virusi(virus zolotistoy mozaiki fasoli).

Virus ikki pallalik xo‘jayin-o‘simliklar ichida juda tor spektriga ega. Oqqanoltar Bemissia tabaci yordamida tarqaladi. Ba’zi viruslari mexanik inokulyasiya yordamida tarqaladi. Avlod 48 ta turni o‘z ichiga oladi va 9ta shu avlodga kiradigan vakillarni taxminan o‘z ichiga oladi.

Nanovirus avlodi. Tipik turi Subterranean clover stunt (SCSV) “virus karlikovosti podzemnogo klevera” (erosti bedani pakanalashishi virusi). Virionlari sferasimon, qobiqsiz, diametri 20 nm.

Viruslar o‘sishni to‘xatadi, o‘simliklarni pakanalashishiga olib keladi. Asosan shiralar yordamida tarqaladi. Bu avlodga banan tepe qismini shoxlanishi virusi kiradi va kokos barglarini chirishi virusi taxminan kiritiladi.

8.6. RNK tutuvchi viruslar

Ikki zanjirli (iz)RNK-tutuvchi viruslar

3. Reoviridae oilasi

Fijivirus avlodi (Tipik turi – Fidji kasalligi virusi).

Phytoreovirus(tipik turi – jaroxatli o‘sma virusi).

Oryzavirus (tipik virusi – (virus loxmatoy karlikovosti risa) (sholini chigallashgan, taralmagan (to‘zg‘igan) karlik virusi).

Reoviruslarga bu viruslardan tashqari qator hayvon viruslari kiradi.

Virionlari ikosaedrik formada bo‘lib diametri 60-80 nm, ichki “yadrosi” birqancha oqsil qavatlar bilan o‘ralgan. Tarqalishi sikadkalar (delfatsidami) va sikadkalar bilan persistent o‘tadi (latent davri hasharot tanasida ikki haftacha), ba’zi xollarda transovarial tarqaladi).

4.Partitiviridae oilasi

Alhacriptovirus avlodi. (tipik turi– «kripticheskiy virus belogo klevera 1») (tipga xos tur –«oq bedaning kriptik virusi 1»). kryptos – skryt, o‘zbek tilida

yashiringan so‘zga to‘g‘ri keladi. Demak, «**oq bedani yashiringan virusi 1**» yoki rus tilida «maskirovanny virus belogo klevera» deb atasa bo‘lsa kerak.

Betacryptovirus avlodi. (tipichny vid - kripticheskiy virus belogo klevera 2)(tipga xos tur – “oq bedaning *kriptik -yashiringan* virusi 2”).

O‘simlik viruslar oilasini bu avlodlariga yana **Partitivirus va Chrysovirus avlodlarining** zamburug‘ viruslari kiradi.

Virionlari ikosaedr tipida, qobiqsiz, diametri 30-40 nm. Samarali immunogen hisoblanadi. Diffuziya testlarida bitta pretsipitatsiya chizig‘ini hosil qiladi. Oiladagi fitoviruslar va zamburug‘ viruslari orasida serologik yaqinlik kuzatilmagan.

Viruslar o‘simlikda latent holatida bo‘ladi. Tarqatuvchilari noma’lum. O‘simlik kriptoviruslari embrionga tuxum hujayra va changlari orqali hujayralarni bo‘linishida tarqaladi (gulni) beriladi (o‘tadi) degan taxmin qilinadi. Asosiy virusni tarqalishi urug‘ orqali amalgalashadi.

Alhacryptovirus avlodiga 16 ta tur virus kiradi va yana 10 tupHi shu avlodga kirishi mo‘ljallangan. Bu avlod vakillari dukkakkilar oilasiga kiruvchi hamda qator sabzavotlarni kasallantiradi.

Betacryptovirus avlodiga 4 tur viruslar kiradi va bittasi va yana bedani kriptik virusi 2 ni ham shu avlodga kirishi mo‘ljallanmoqda.

Varicosavirus avlodi. Tipik turi – latuk salatining tomirlarini kattalashib ketishi virusi. Virionlari tayoqcha shaklida, 18x300-340 nm. Viruslar Olpidium sp. Zamburug‘i orqali o‘tadi. SHu avlodga kiritilishi ehtimoli bor tur – tamakini pakanalashishi virusi.

BzRNK (-)- tutuvchi viruslar

5. Rhabdoviridae oilasi. Bu oila **Mononegavirales** tartibiga kiradi.

Cytorhabdovirus avlodi (tipga xos tur – latuk-salati nekrotik sariqligi virusi)

Nucleorhabdovirus avlodi (tipga xos tur – kartoshkani sariq pakanaligi virusi).

Virionining uzunligi 100-430 nm va diametri 45-100 nm.

O‘simliklarni kasallantiruvchi viruslar ko‘pincha batsillasimon yoki o‘qsimon shaklda bo‘ladi. Batsillasimon virionning tashqi yuzasida uzunligi 5-10 nm, dimaetri 3 nm li glikoprotein tabiatli o‘simtalar (peplomerlar) bor. Ichki nukleokapsidini diametri 30-70 nm bo‘lib spiral simmetriyali strukturaga ega. Agar virusni ko‘ndalang kesmasini negativ bo‘yab ko‘rilsa yaqqol ko‘rinadi.

Rabdoviruslar keng o‘simlik spektriga ega, ammo har bir virus chegaralangan xo‘jayin o‘simliklar spektriga ega. Ko‘pgina rabdoviruslar sikadalar, delfatsidlar yoki shiralar, ba’zilari kanalar, kloplar tarqaladi va o‘simlik shirasi bilan tarqaladi. Bu viruslar persistent tarqaladi (replikatsiyasi tarqatuvchi-hasharotda bo‘ladi).

Cytorhabdovirus avlodi 8 tur virusni o‘z ichiga oladi: arpa sariq pakanaligi virusi, suli barglarini tilimliligi virusi, shimoliy bug‘doy mozaikasi virusi, bug‘doyini amerika shtrixli mozaikasi virusi, latuk-salatini sariq nekrozi

virusi, zemlyanikani bujmayishi mozaikasi virusi, brokkolini sariq nekrotik virusi, osot virusi.

Sitorabdoviruslar kasallangan hujayraning sitoplazmasida replikatsiyalanadi. Viruslarni morfogenezi endoplazmatik retikulumda ro‘y beradi.

Nucleorhabdovirus avlodi kartoshkani sariq pakanaligi virusini, jo‘xori mozaikasi virusini, baqlajonni xol-xol pakanaligi virusini va b.larni o‘z ichiga oladi.

Nukleorabdoviruslar o‘simgilik yadrosida to‘planadi va yirik granulyar kiritmalar hosil qiladi (replikatsiyalanadigan joyi ham bo‘lishi mumkin).

YUqorida aytib o‘tilgan rabdoviruslar oilasiga kiradigan viruslardan tashqari morfologik o‘xshashlikga ega bo‘lgan 58 ta rabdoviruslar oilaga kirishi ehtimoli bo‘lgan fitorabdoviruslar bo‘lib, ular o‘simgiliklarni xar xil oila vakillarini kasallantiradi. Quyidagi virus turlari rabdoviruslar oilalariga kirishi mumki: sitrus o‘simgiliklarini moxov kasalligi, Dendrobium barglarini tilimlanishi virusi kabi viruslar kirishi mumkin.

6. Bunyaviridae oilasi

Tospovirus avlodi (tipga xos bo‘lgan turi - tomatni dog‘li so‘lishi virusidir)

Tenuivirus avlodi (tipga xos bo‘lgan turi – sholi shtrixliligi virusidir).

Orhiovirus avlodi (tipga xos virus – sitrus o‘simgiliklari psoriozi virusi). Bu oilaga o‘simgilik viruslaridan tashqari birqancha hayvon virus avlodlari ham kiradi.

Bu oilani avlodlaridagi viruslarni morfologiyasi bir-biridan farq qiladi, ammo ular sferasimon ko‘rinishda yoki pleomorf bo‘lishi mumkin, diametrlari 80-120 nm, tashqi yuzasida qalinligi 5 nm li lipid qobiqdan chiqib turuvchi, uzunligi 5-10 nm li ikki qavatli glikoproteid o‘simgitalarga ega. Odatda bu hujayrani Goldji membranasidan kelib chiqadi yoki kamdan-kam hujayra membranasidan kelib chiqadi. Virus nukleokapsidasi spiral simmetriyalı bo‘lib diametri 2-2,5 nm, uzunligi 200-3000 nm.

Avlodni hamma tur viruslari bo‘g‘imoyoqli hasharotlarda replikatsiyalanadi.

Barcha avlod viruslari bo‘g‘imoyoqli-tashuvchilarda replikatsiyalanadi. **Tospovirus avlodiga** balzaminni dog‘li nekrozlanishi virusi va tomatni dog‘li so‘lish viruslari kiradi. Tospoviruslar 50 oilaga kiruvchi 300 dan ortiq o‘simgilik turlarini kasallantiradi. Tospoviruslar 9 tur tripslarda persistent usulda yuqadi.

Tenuivirus avlodi ning xo‘jayin o‘simgiliklari bo‘lib donli o‘simgiliklar oilalari viruslari xizmat qiladi. M., jo‘xori shtrixligi virusi, sholini oq borgliligi virusi, sholini shtrixliligi viruslari kiradi.

Tenuiviruslar polupersisten usulda delfatsidlar yordamida tarqaladi, ba’zan transovarialno tarqaladi.

Ophiovirus avlodi viruslari mexanik usulda yuqadi, ammo donli o‘simgiliklarni kasallantirmaydi.

BzRNK(+)-tutuvchi viruslar

1. Sequiviridae oilasi

Sequiviridae avlodi (tipga xos tur – pastepHakni sariq dog‘liligi virusi).

Weikavirus avlodi (tipga xos tur – tungro sholisining sferasimon virusi).

Zarrachalari izometrik, diametri 30 nm. Virusning tabiiy xo‘jayinlari cheklangan. Viruslar yarim persistent usulda tarqaladi, ko‘plari sikadkalar bilan tarqaladi.

Sequiviridae avlodiga qoqi o‘t ning sariq mozaikasi virusi kiradi

Weikavirus avlodiga jo‘xorini xlorotik pakanaligi virusi va tungro sholisining sferasimon viruslari kiradi.

8.Tombusvirus oilasi

Tombusvirus avlodi (tipga xos tur – pomidopHing pakanaligi virusi).

Bu oilani yana 7ta avlodlari mavjud.

Virionlari ikosaedr tipida, 180 oqsil subbirliklaridan tashkil topgan, diametri 28-35 nm. Xo‘jayin o‘smlik spektri bir pallali va ikki pallali o‘smliklar. Infeksiya ko‘pincha ildizda lokalizatsiyalanadi, virus tizimli kasallantirganda xol-xol dog‘lar, bargni buradishi va deformatsiyalanishlari kuzatiladi. Ba’zi viruslar simptomsiz kasallantirishi mumkin. Hamma viruslar mexanik usulda va vegetativ tarqaladi. Ba’zilari kontakt usulda va urug‘lari yordamida tarqaladi. Tabiiy muhitda suvli joylarda, tuproqda tashuvchilarsiz infeksiya tarqaladi. Ba’zilari zamburug‘ va qo‘ng‘izlar yordamida tarqaladi.

9. Luteoviridae oilasi

Luteovirus avlodi (tipga xos tur – arpani sariq pakanaligi virusi).

Polerovirus avlodi (tipga xos tur – kartoshka bargini buralishi virusi).

Virionlari geksagonal, diametri 25-30 nm, ikosaedr simmetriyasi asosida tuzilgan. Ko‘pgina lyuteo- va poleoviruslar antigenlari aktiv, xo‘jayin spektri bir oila o‘simliklari bilan cheklanadi. SHiralalar yordamida sirkulyativ usulda o‘tadi: floemadan ular gemotselga o‘tadi va gemolimfa orqali so‘lak bezlariga tushadi. O‘simliklardagi lokalizatsiyasi floemada, to‘qimalarni nekrozlaydi, o‘sishni susaytiradi, xlorofillni yo‘qotadi va barglarni sarg‘aytiradi.

Avlodga arpani sariq pakanaligi virusi, loviya bargini buralishi virusi, sabzi bargini qizarishi virusi, lavlagini g‘arbiy jeltuxasi virusi, soyani pakanaligi virusi, tamakini nekrozlashgan pakanaligi virusi, pomidor tepe qismini sarg‘ayishi viruslari kiradi. Bundan tashqari bu avlodga kiritilishi mo‘ljallangan 14 ta virus bor.

Tymovirus avlodi Tipga xos tur – tupHepsni sariq mozaikasi virusi. Bu avlodga baqlajon mozaikasi virusi eryong‘oq sariq mozaikasi virusi fizalis mozaiksi viruslari kiradi. Bu viruslar juda keng tarqalgan, mexanik usulda va qo‘ng‘izlar yordamida yuqadi. Simptomlari - sariq mozaika yoki xol-xol dog‘lar paydo qiladi.

10. Bromoviridae oilasi

Alfamovirus (tipga xos virus – beda mozaikasi virusi).

Bromovirus (tipga xos virus – yaltirbosh mozaikasi virusi).

Cucumovirus (tipga xos tur- bodring mozaikasi virusi). YUqorida keltirilgan avlod turlari (Bromovirus, Cucumovirus) zarrachalari sferasimon, diametri 26-35 nm, Alfamovirusni virionlari batsillasimon, diametri 18 nm, uzunligi 30-57 nm.

Bu oilani viruslar juda keng tarqalgan ular ko‘pgina ahamiyatli o‘simliklarni kasallantiradi. Tarqalishi o‘simlik shirasini inokulyasiyasi yordamida, Cucumovirus, Alfamovirus lar ko‘pgina shiralar yordamida ba’zilari urug‘ va gul changlari yordamida amalga oshadi.

11. Comoviridae oilasi

Comovirus avlodi (tipga xos tur - sigir no‘xoti mozaikasi virusi-1).

Nepovirus avlodi(tipga xos virus – tamakini xalqali dog‘lanishi virusi).

Fabavirus avlodi (tipga xos turi - dukkaklilar so‘lishi virusi -1).

Virionlari ikosaedrik simmetriyada tuzilgan, diametri 28-30 nm.

Komoviruslar tor spektr xo‘jayinlar doirasiga ega, nepo- va fabaviruslar ancha keng xo‘jayin spektriga ega. Simptomlari har xil. Komoviruslar qo‘ng‘izlar yordamida, fabaviruslar – shiralar, nepoviruslarni ko‘pi nematodalar yordamida tarqaladi. Hamma viruslar mexanik inokulyasiya yordamida tarqaladi. Nepoviruslarga xarakterli xususiyat ular urug‘lar yordamida ham tarqaladi.

Komoviruslar avlodida 15 tur virus kiradi va ular dukkakli o‘simliklarni kasallantiradi.

Nepoviruslarni 28 ta turi mavjud, ular turlari tok bo‘g‘inlarini qisqarishi tokni sariq mozaikasi viruslari va h. Nepoviruslar nematodalar yordamida, ba’zan o‘simlik changlari yordamida tarqaladi.

12. Potyviridae oilasi

Potyvirus avlodi (tipga xos tur – kartoshkani U virusi).

Tritimovirus avlodi (tipga xos tur – bug‘doyni tilimli (polosatoy) mozaikasi virusi.

Bulardan tashqari yana 4 avlod mavjud.

Virionlari ipsimon yoki tayoqchasimon, diametri 11-15 nm. Genomlari bir a’zoli, uzunligi 650-900 nm, genomi ikki a’zoli zarrachalarni uzunligi 250-300nm va 500-600 nm. Oilani barcha viruslari amorf va kristalsimon strukturali sitoplazmatik kiritmalar hosil qiladi. Xo‘jayin o‘simliklari spektri tor, o‘rtacha, yoki keng bo‘lishi mumkin. Mexanik inokulyasiya yordamida oson yuqadi, ba’zi viruslar urug‘ yordamida tarqaladi.

Potyvirus avlodi virionlari (uzunligi 680-900 nm, diametri 11-13 nm) oson egiluvchan, spiral simmetriyali, spiral qadami 3,4 nm.

Tarqalishi nopersistent usulda va b’zilari urug‘ yordamida amalga oshadi. Avlodni 77ta turi mavjud. KUV, loviyani sariq mozaikali virusi, jo‘xorini

pakana mozaikali virusi, lola gultojbarglarini rangbaranglashishi virusi, soya mozaikasi virusi va h.

Rymovirus avlod viruslari ipsimon bo‘lib oson bukiluvchan, o‘lchami 690-720 x 11-15 nm. Graminea o‘simliklarini kasallantiradi, kanalar (Eriphydae), urug‘ yordamida va mexanik inokulyasiya yordamida tarqaladi. Bu avlodga arpa mozaikasi virusi, suli nekrotik xol-xolligi virusi va h.lar kiradi.

Bymovirus avlodiga oson egiluvchan virionlar kiradi, ularni o‘lchamlari 250-300 va 500-600 nm., diametri 13 nm. Genomi **ikkia’zoli Virus sitoplazmada kirtmalar** hosil qiladi. Donli o‘simliklar orasida xo‘jayin o‘simliklar spektiri ancha tor dirada.

Avlodga yana arpani sariq mozaikasi virusi kiradi. Arpani kuchsiz mozaikasi virusi va boshqa viruslar kiradi.

Tobamovirus avlod. Tipga xos virus TMV. O‘lchami 300 x 18 nm. Xo‘jayin o‘simlik doirasi o‘rtacha yoki keng. Tarqalishi kontakt yordamida, bazilar urug‘ yordamida amalga oshadi. Viruslari kasal o‘simliklarda kristallik kirtmalar hosil qiladi. Dunyoda juda keng tarqalgan. Bu avlodga TMV, bodringni yashil xol-xollashishi mozakasi virusi, tomat mozaikasi virusi, (L-shtamm), bulg‘or qalampirini kuchsiz xol-xolligi virusi (S-shtamm), lansetsimon zubturum mozaikasi virusi va b.

Tobravirus avlod. Tipga xos virus – tamaki bargini shaldirashi virusi. Virionlari to‘g‘ri trubkasimon spiral strukturali, spiral qadami 2,5 nm, ikki turi bo‘lib, uzunligi – 180-215 nm va qisqalari 46-115 nm, zarralarini diametri 21,3-23,1 nm. Xo‘jayin o‘simliklari bir pallali va ikkipallali o‘simliklar ichidagi o‘simliklar. Tabiiy tarqatuvchi hasharotlari nematodlar avlodlari – Trichodorus Paratrichodorus (xarxil viruslarni xar xil turlari va shtammlari). Tarqatuvchilari viruslarni uzoq muddatgacha saqlaydi. Ba’zi ho‘jayin o‘simliklarini urug‘lari ham viruslarni tarqatadi. Ba’zi viruslar xo‘jayin o‘simliklarini sistemali, ba’zilari mahalliy (lokal) kasallantiradi. Bu avlodga tamakini pakana virusi, no‘xotni erta qo‘ng‘irlashishi viruslari kiradi.

Hordeovirus avlod. Tipga xos virus - arpani shtrixli mozaikasi virusi. Virionlari tashqi qobiqsiz qattiq tayoqchasimon 20 x 110-150 nm spiral simmetriyalı, spiraldagi qadami 2,5 nm. Tabiatda xordeoviruslar g‘alla o‘simliklarini, ba’zilari labgullilarni kasallantiradi. Tarqatuvchi hasharotlari noma’lum. Bu viruslar urug‘lari, gul changlari va kontakt yo‘lida tarqaladi.

Vitivirus avlod. Tipga xos virus – tokni A-virusi. Bu avlod viruslari 1997 yili Trichovirus avlodidan genomini strukturasi va biologik xususiyatlariga asosan ayrim takson bo‘lib ajralib chiqqan.

Virionlari oson egiluvchan ipsimon, o‘lchamlari 800 x 12 nm. Bu viruslar tabiatda faqat toklarni tanasida (kichik) chuqurliklar va ariqchalar hosil qilib kasallantiradi. Tarqalishi payvandlash, ekish materiallaridan hamda chuvalchanglar yordamida, mexanik usulda ancha qiyinchilik bilan kasallik o‘tadi. Avlodga tokni A-virusi, tokni V-virusi tokni D-virusilari kiradi.

Bu oilaga yana birqancha (6) **avlodlar (furovirus, pomovirus, pekluvirus, benivirus, kapillovirus, trixovirus)** kiradi. **Closterovirus oilasi**

13.Closterovirus avlodi

Tipga xos virus - lavlagi jeltuxasi virusi.

Crinivirus avlodi. Tipga xos virus – salat jeltuxasi yuqumli virusi. Virionlar oson bukiluvchan ipsimon uzunligi 850-2200 nm, diametri 12 nm., spiral simmetriya asosida tuzilgan, spiral qadami 3,4-3,8 nm. Genomi ikki molekula RNK dan iborat. Xo‘jayin o‘simliklari tor chegarali. Simptomlari – barglarni sarg‘ayishi yoki qizarishi va bargni buralishi, ichga botib kirishi yoki yog‘och qismini ariqchalashishi, floemasning nekozlashishi kuzatiladi. Mexanik inokulyasiya yordamida qiyinchilik bilan o‘tadi, urug‘i orqali ancha kam miqdorda o‘tadi. Tashuvchi hasharotlari - yarimpersistent usulda – shiralar, oqqanotlar, psevdokoksid chuvalchanglari orqali amalga oshadi.

Klosteroviruslar avlodi virionlarining uzunligi 1200-2200 nm, genomi bir molekula RNK dan iborat, yarimpersistent usulda – shiralar, chuvalchanglari orqali amalga oshadi. Avlodga lavlagi jeltuxasi virusi, lavlagini sariq pakana viruslari kiradi, sabzi bargini sarg‘ayishi viruslari kiradi.

Carlaviruslar avlodi. Tipga oid tur – chinnigulni latent virusi.

Virionlari sal bukilgan ipsimon, o‘lchamlari 620-700 nm x 12-15 nm spiral simmetriyali, spiral qadami 3,4 nm. Tabiatdagi xo‘jayin o‘simliklari spektri tor doirada, eksperimental kasallanirilganda ancha keng doiradagi o‘simliklarni qamraydi. Hamma viruslar mexanik usulda tarqaladi, ko‘plari shiralar yordamida yarimpersistent usulda tarqaladi., ikki tur oqqanotlar tarqatadi,, boboviy o‘smliklar viruslari urug‘i orqali ham tarqaladi. Kasal o‘simlik hujayralar membranalari oldida viruslar massasidan tashkil topgan agregatlar hosil qiladi, kiritmalari X-tanachalar kabitdir. Avlodga 29 tur viruslar kiradi., ular qatoriga chinnigulni latent virusi, kartoshkani M va S- viruslari, no‘xotni dog‘lanishi viruslari, chesnokni mozaikasi virusi, kartoshkani janubiy latent viruslari va boshqalar kiradi.

Potexvirus avlodi. Turga xos virusi kartoshkani X-virusi.

Virionlari – sal bukilgan ipsimon, o‘lchamlari 470-580 x 13 nm, spiral simmetriyali, spiral qadami 3,3-3,7 nm.

O‘smlilarda mozaika yoki halqasimon dog‘lar hosil qiladi. Tabiiy xo‘jayinlari (ayrim turlarni) chegaralangan. Viruslar mexanik usulda, kontakt bo‘lganda oson yuqadi. Tarqatuvchilari aniqlanmagan. Dunyoda juda keng tarqalgan.

Avlodga 19 ta tur kiradi, shular qatoriga XVK, kartoshkani aukuba-mozaikasi virusi, lolani X-virusilarini ko‘rsatish mumkin.

Shu avlodga kiritilishi mumkin bo‘lgan tur viruslar - petrushkani virusi-5, pastepHakni virusi-3, reven virusi-1, smorodinani latent virusi va b.

Foveavirus avlodi. Tipga xos bo‘lgan tur – olma daraxtini chuqurchalashishi virusi.

Virioni – ipsimon spiral simmetriyali, uzunligi 800 nm, diametri 13 nm.

Viruslar sitoplazmada likalizatsiyalanadi, payvandlash orqali, ekish materiallaridan o‘tadi, tashuvchi hasharotlari noma’lum.

Bu avlodga olma daraxtini chuqurchalashishi virusi, olchani halqali dog‘lanishi viruslari kiradi

Allexivirus avlodii. Tipga xos tur - piyozni (shalot) X-virusi.

Virionlari – ipsimon uo‘lchamlari 750 x 13 nm. Tabiatda kanalar yordamida tarqaladi. Avlodga piyozni X-virusi, chesnokni A-virusi va chesnokni S-viruslari kiradi.

9-bob. Odam va hayvon viruslari oilalari va ba'zi virus kasalliklari

1982-yili viruslar taksonomiysi bilan shug‘ullanuvchi Xalqaro qo‘mita tasnifida viruslar kimyoviy tarkibiga ko‘ra, asosan, ikki guruhga bo‘lindi: 1. DNK tutuvchi viruslar; 2. RNK tutuvchi viruslar. Bu vaqtga kelib DNK tutuvchi viruslarning **17 DNK-genomli** va RNK tutuvchi viruslarning **42 RNK-genomli** oilasi mavjud edi (15-jadval).

Viruslarga keyingi vaqlarda tavsif berilganda ulardagi nuklein kislotaning turi va uning viriondagi miqdori (foyizi), kapsomerlar soni, nisbiy molekulyar og‘irligi, viruslarning tuzilish xususiyatlari, reproduksiyasi va boshqa ma’lumotlar hisobga olinadigan bo‘ldi (16-jadval).

Viruslar tasnifi. Mazkur tasnifga quyidagi mezonlar kiritilgan:

1. Nuklein kislotaning xili (RNK yoki DNK), uning tuzilishi (zanjirchalar soni);
2. Lipoproteid qobig‘ining borligi;
3. Virus genomining reproduksiya qilish usuli;
4. Virionning hajmi va morfologiyasi, simmetriya turi, kapsomerlar miqdori;
5. Irsiy ta’sirlashuvlarning ko‘rinishi;
6. Virusga ta’sirchan xo‘jayinlarning turlari;
7. Patogenligi, hujayraga ta’sir ko‘rsatishi va hujayra ichi kirtmalarining hosil bo‘lishi;
8. Geografik tarqalganligi;
9. YUqish yo‘llari;
10. Antigen xossalari.

Mazkur belgilarni asosida viruslar oila, avlod, tur va tiplarga bo‘linadi. Oilaning bo‘linishi 1 va 2 mezonlarga asoslangan bo‘lsa, turkum va tiplar qolgan belgilarni bo‘yicha ajratildi.

Viruslarning nomenklaturasi. Viruslarni Xalqaro viruslar nomenklaturasi qo‘mitasi (XVNQ) tomonidan Vira olamiga (odam, hayvon, o‘simlik, hasharot, bakteriya) tan olingan **55** ta oila va ulardan 20 (17+3) tasi odam va hayvon viruslaridir (hozirgi kunda oilalar soni 80 dan ortiqdir). Viruslarni nomlanishida qator qoidalar mavjud. Oila nomi “viridae”, kenja oila -“virinae”, avlod – “virus” deb tugallanadi (Muhamedov va b., 2002). Faqat umurtqalilarda uchraydigan viruslarga gerpes, adeno-, ortomikso-, aren-, koronaviruslar kiradi. Bir qancha viruslar ham umurtqalilarni, ham umurtqasizlar organizmida (kanalar, chivinlar, iskaptoparlar) ko‘paya olish xususiyatiga ega (bunya-, toga-, rabdo- va reoviruslar (ma’lum avlodlarini)). Bu viruslar uchun bo‘g‘imoyoqlilar ham tabiiy xo‘jayin, ham tashuvchi vazifasini bajaradi (arboviruslar). Odam va hayvon viruslarning asosiy oilalari, Viruslarni nuklein kislota tipi, uning zanjirlari soni, tashqi qobig‘ining bor-yo‘qligi, oilalari va asosiy vakillari quyidagi jadvalda keltirilgan (15-jadval).

15-jadval

Viruslar klassifikatsiyasi(Muhamedov va b., 2002).

Taksonomik belgisi	Oilasi	Asosiy vakillari
--------------------	--------	------------------

1. DNK tutuvchi viruslar		
Ikki ipli DNK	Adenoviruslar	Adenoviruslar
Tashqi qobig‘i yo‘q	Papovaviruslar	Odamning papiloma, polioma va so‘gal viruslari
Bir ipli DNK	Parvoviruslar	Adenobirlashgan viruslar
Tashqi qobig‘i yo‘q	Gerpesviruslar	Oddiygerpes(uchuq), sitomegaliya, suv chechak viruslari
Ikki ipli DNK.Tashqi qobig‘i bor	Gepadnoviruslar Poksviruslar	V hepatit virusi CHinchechak, chechak vaksinatsiyasi viruslari
2. RNK-tutuvchi viruslar Musbat bir ipli RNK.Tashqi qobig‘i yo‘q	PikopHaviruslar Kalitsiviruslar	SHol, Koksaki, ESNO A hepatit viruslari Bolalarning gastroenterit viruslari (Norfolk)
Ikki ipli RNK. Tashqi qobig‘i yo‘q	Reoviruslar	Reoviruslar, rotaviruslar, orbiviruslar
Qayta (lama)transkriptazaning borligi	Retroviruslar Togaviruslar	OIV, T-leykoz viruslari, onkoviruslar Omsk gemorragik isitmasi viruslari, qizilcha
Musbat bir ipli RNK.Tashqi qobig‘i bor	Flaviviruslar	Kana ensefaliti, Denge isitmasi, sariq isitma viruslari
Musbat ipli RNK(musbat genom)	Bunyaviruslar Arenaviruslar	Qrim isitmasi viruslari Limpotsitar xoriomeningit, Lasso kasalligi viruslari
Manfiy biripli RNK	Rabdoviruslar Paramiksoviruslar	Qutirish, vezikulyar stomatit viruslari
Ikki ipli RNK. Tashqi qobig‘i bor	Ortomiksoviruslar Filoviruslar	Paragripp, tepki, qizamiq, RSV viruslari Odam, hayvon va qushlarning gripp viruslari
Tashqi qobig‘i bor, nukleokapsidi spiral tipda Biripli musbat RNK tutadi	Koronaviruslar	Marburg va Ebol viruslari Respirator va enteral koronaviruslar

Ularning oila va boshqa takson nomlari Filds va Nayp (1987) tahriri ostida chop etilgan 3 tomlik “Virusologiya” darsligida berilgan barcha oilalar mos ravishda berilgan va ularni asosiy vakillari va uning tagida asosiy vakillaridan ba’zilarinig morfologiyai va sxematik ko‘rinishi keltirilgan (29).

16-jadval

Odam va hayvonlar viruslari oilalarini o‘z ichiga olgan klassifikatsiya (29, 28)

Aniqlagich xususiyatlari	Oila
--------------------------	------

Ikkizanjirli DNK, tashqi qobiqqa ega	Poxviridae Iridoviridae Herpesviridae
Ikkizanjirli DNK, tashqi qobig'i yo'q	Adenoviridae Papovaviridae [Hepadnaviridae] ¹
Birzanjirli DNK, tashqi qobig'i yo'q	Parvoviridae
Ikkizanjirli RNK, tashqi qobiqqa ega	Reoviridae [BipHaviridae] ¹
Birzanjirli RNK, tashqi qobiqqa ega DNK-kopiya replikativ siklda yo'q	
Pozitiv genom	Togaviridae Coronaviridae
Negativ genom	
Segmentlarga bo'linmagan genom	Pramyxoviridae Rhabdoviridae [Filoviridae] ¹
Segmentlarga bo'lingan genom	Orthomyxoviridae Bunyaviridae Arenaviridae
DNK-kopiya replikativ siklda qatnashadi. Birzanjirli RNK, tashqi qobig'i yo'q	Retroviridae PicopHaviridae Caliciviridae

Kvadrat qavs ichidagi nomlar hozircha MKTV tomonidan tasdiqlanmagan. Ishlatilgan terminlar: **tashqi qobiq** – qisman hujayra membranasidan kelib chiqqan lipidtutuvchi bisloy; **pozitiv genom** – bevosita oqsil translyasiya qiluvchi nukleotid ketma- ketlikdan iborat genom; D NK-tutuvchi viruslarda uning nukleotid ketma-ketligi unga mos keladigan m-RNK kiga mos keladi; **negativ genom** –ketma ketligi komplementar mRNK ga mos nukleotid ketma- ketlikdan iborat genom.

Filds va Nayp (1989) tahriri ostida chop etilgan “Virusologiya”ning birinchi tomida Merfi (1989) tomonidan MKTV da hisobga olingan **22** ta odam va hayvon viruslari oilalarining tavsiflari va qisqacha qo‘zg‘atadigan kasalliklari keltirilgan. Quyida ana shu olingan natijalar va ba’zi intepHet materiallarini birlashtirgan holda qisqartirilgan ma’lumotlarni keltiramiz.

9.1. Poxviridae oilasi (Poksviruslar) (66)

Poxviridaeoilasi oilasida ikki kichik oila bor

Kichik oila: Chordopoxvirinae (umurtqalilar poksviruslari).

Avlod: *Orthopoxvirus* (ospovaksina, ospa viruslari).

Avlod: *Parapoxvirus* (pustula hosil qiladigan parvovirus).

Avlod: *Avipoxvirus* (tovuq chechagi viruslari).

Avlod: *Capripoxvirus* (qo‘y chechagi viruslari).

Avlod: *Leporipoxvirus* (miksoma virusi).

Avlod: Suipoxvirus (cho‘chqa chechagi virusi).

Kichik oila: Entomopoxvirinae (hasharotlar chechagi virusi; uch avlod bo‘lishi mumkin).

Xususiyatlari

Poxviridae oilasi (ingl. Pox – yara, chechak) tabiiy chechak qo‘zg‘atuvchidan tashqari bir qator avlodlari boshqa umurtqaliklar va hasharotlarda shunga o‘xshash kasalliklarni qo‘zg‘atadi. Orthopoxvirus avlodiga tabiiy chechak virusi, maymunlar chechagi virusi va ospovaksina kiradi.

Bu avlodni hamma vakillari hayvon viruslari ichida eng yiriklaridir, virionlari parallelepiped shaklida, ularning o‘lchamlari (300- 450)x(170-260) nm ga etadi. Ular eng murakkab tuzilgan viruslardir. Elektron mikroskop tagida kuzatilganda xuddi qirralari doiraga o‘xhatilgan g‘ishtlarga o‘xshaydi. G‘isht ichida gantelsimon markaziy “yadro” yoki “nukleoid” joylashgan. U oqsil bilan bog‘langan m.m. $85-250.10^6$ DNKga ega. Gantelning ikki yonboshida – 2 oval shaklli tanacha mavjud. Butun bu qurilma – ko‘p qismi zararlagan hujayra membranasidan tashkil topgan qo‘sishimcha tashqi qobiq - superkapsid bilan o‘ralgan. Shu yo‘sinda virus o‘zi zararlagan hujayra xududini egallaydi. Virus tarkibida yana 30 dan ortiq har xil (o‘zini qayta qurish fermentlari bilan bir qatorda) oqsillar mavjud. Bu virus boshqa ba’zi viruslarga o‘xshab faqat nukleoproteiddan tuzilgan (birinchi ochilgan virus – TMV ga o‘xshash faqat nuklein kislota va oqsildan tuzilgan) bo‘lib qolmasdan, bu bakteriya hujayrasini miniyatURA holatini eslatadigan murakkab sistemadir (**- rasm**).

Ko‘payishi. Ko‘payishi ham boshqa DNA tutuvchi viruslarga o‘xshab yadroda emas, balki sitoplazmadadir. U avvalo ustida joylashgan maxsus retseptorlar orqali hujayraga kiradi va uning nuklein kislotasi superkapsid va ichki oqsillardan ozod bo‘ladi va o‘zining tarkibiy qismlarini sintez qiladi. Ular keyinchalik mustaqil ravishda tayyor virionlar ishlab chiqadi. Yangi virus zarralari zararlangan hujayra ustida kurtaklanib, hujayradan chiqish jarayonida o‘zi etilgan hujayra membranasini bir qismiga o‘raladi. Ular ko‘paygan hujayrani butunlay parchalab (lizis) tashqariga chiqishi ham mumkin. Optimal sharoitda butun ko‘payish sikli 6 soatni tashkil qiladi. Tabiiy chechak virusi hujayrada ko‘payganda sitoplazmada yorug‘lik mikroskoplarida ko‘rinadigan kiritmalar-to‘plamlar hosil qiladi. Birinchi marta bu to‘plamlarni 1892y.da G. GvapHieri kasallangan quyon ko‘zining shox pardasini o‘rganish jarayonida kuzatadi.

Antigenlari. Virus tarkibida birqancha antigenlar – nukleoproteidlar (hamma chechak viruslariga xos), eruvchi antigenlar va gemagglyutininlar bor.

Chechak viruslari oilasining vakilliri orasidagi umumiy antigenlarni borligi ular orasida rekombinatsiya imkoniyatlarini borligini ko‘rsatsa, u o‘z navbatida yangi antigen variantlari paydo bo‘lishi imkoniyatlarini beradi. Orthopoxvirus avlod novirion gemagglyutininini sintezlaydi.

Odamlarda kasallik qo‘zg‘atuvchilar:

Orthopoxvirus: chechak viruslari, ospovaksina, maymun chechagi, sigir chechagi. Parapoxvirus: orfa virusi (noinfektion pustulyoz dermatiti), qora mollar psevdoospasi virusi.

Klassifikatsiya qilinmagan poksviruslar ham bor bo'lib, ular quyidagi viruslardir: mollyuska kontagioz virusi, YAba virusi, Tana virusi.

Hayvonlarda kasallik qo'zg'atuvchilar:

Orthopoxvirus: sigir chechagi virusi, sichqonlar ospasi, quyonlar ospasi virusi, maymunlar ospasi virusi.


Parapoxvirus: Orfa virusi, sigirlar psevdoospa virusi, buzoqlar papilloz stomatiti virusi.

Avipoxvirus: qushlar poksviruslarining ko'plab turlari.

Capripoxvirus: qo'ylar chechagi virusi, echkilar chechagi virusi, sigirlar teri kasalligi virusi. Leporipoxvirus:miksomalar virusi (quyonlar) quyonlar fibromasi virusi.

Suipoxvirus: cho'chqalar chechagi virusi.

Klassifikatsiyalanmagan viruslar: Tana virusi Yaba virusi (maymunlar)



Parapoxvirus

24 - rasm. Poksvirus (yashil rangda ko'rsatilgan) xo'jayin-hujayraga kirishida o'zini xuddi chiqindidek tutadi (qizil rangda ko'rsatilgan) bu hujayrani uni yutishiga majbur qiladi (67).

Poksviruslar tashqi muhitda chidamli bo'lib, bipHecha oylar quritilgan holda bo'lishi mumkin, ko'pgina dezinfeksiya moddalariga chidamli: 1% fenolda bir sutkadan so'ng aktivligini yo'qotadi, 5% xloraminda - 2 soatda aktivligini yo'qotadi, glitserin eritmasidasovutgichda bipHecha yil saqlanishi mumkin, 100⁰S da birzumda, 60⁰S da - 15 min. da aktivligini yo'qotadi.

Tabiiy chechak virusni ko'paytirish (kultivirovaanie) uchun tovuq embrioni ishlatiladi. Unda oq blyashkalar hosil qiladi, ospovaksina virusi esa qora blyashkalar hosil qiladi. Bu oila vakilliri har xil hujayra kulturalari (ekmalari)da sitopatik effektlar –o'zgarishlar hosil qiladi.

Poksviruslar organizm hujayrasiga shlaklarni chiqarish yo'llari orqali kiradi.

YAngi tadqiqodlarga asosan, virus chiqindi zarrachalarga o'xshab yashirin holatga kiradi va ular hujayrani har hil begona zarrachalardan tozalaydigan hujayralar tomonidan yutiladi. Poksviruslarni hujayraga yuqishini quyidagicha

tushuntiriladi. Viruslar ko‘payishlari uchun hujayraga kirishni qandaydir yo‘lini topib, o‘z DNK larini hujayraga joylashtiradilar. DNK hujayraga joylashgandan so‘ng, hujayra virusni ishlab chiqaradigan xususiyatga ega bo‘ladi. Ko‘p viruslar bu usulni amalga oshirish uchun hujayra membranasi bilan birlashib ketadilar. DNK sini joylashtirish yoki hujayra bo‘shlig‘iga kirish uchun membranani kichik kanalchalari orqali amalga oshiradi.

Poksviruslar hujayra bilan munosabatda bo‘lishni bu ikkala yo‘li bilan ham amalga oshirishi mumkin. Ammo virusni hujayraga kirish hozircha to‘la aniqlanmagan. 1977 yili 26 oktyabrda oxirgi virus Somalida topildi.

1980 yili bu virusni “Butundunyo sog‘liqni saqlash tashkiloti” (VOZ) butunlay planetada yo‘qotilgan deb e’lon qildi. Bu virus hozircha butunlay yo‘qotilgan viruslar qatoriga kiradi. Ammo ba’zi mamlakatlar laboratoriyalarda ilmiy tadqiqot ishlari uchun saqlab turiladi, xolos. Bu virusni shtammi Rossiya mamlakatining Novosibirskdagi “Vektor” nomli virusologiya va biotexnologiya ilmiy markazida (GNS da), AQSH ni Atlantadagi “YUqumli kasalliliklar markazida” va yana bir nusxa YUAR da saqlanadi.

9.2. Iridoviridae oilasi (Iridoviruslar) (68)


Avlod: Iridovirus (hasharotlarning **mayda** iridissent viruslari).

Avlod: Chloriridovirus (hasharotlarning **yirik** iridissent viruslari).

Avlod: Ranavirus (qurbaqalar viruslari).

Avlod: (nomsiz) (baliqlarni limfokistoza viruslari).

Avlod: (nomsiz) (afrika cho‘chqalari chumasi viruslari).



25 -rasm. Iridoviruslar virioninig strukturasi (69)

Xususiyatlari

Iridoviruslarning virionlari lipidli tashqi qobiqqa (ba’zi hasharot viruslarida uchramaydi) va ikosaedrik nukleokapsidga ega.

Iridoviruslarni birqancha oila vakillari baliqlar va amfibiyalar kasalliklari bilan bog‘liq. Eng mashhuri baliqlarni limfotsitlari virusi terida “o’smasimon” o‘zgarishlar qo‘zg‘atadi. U 90 dan ortiq har xil dengiz va chuchuk suvlar baliqlarida kasallik qo‘zg‘atadi va eng ahamiyatga molik patogendir.

Iridoviruslar - qobiqli viruslarga kiradi, diametri —300 nm. Umurtqalilar iridoviruslari morfologiyasi Afrika cho‘chqalari chumasi (ACHS) virusiga o‘xshash. Iridovirus murakkab ikosaedrik kapsidga ega bo‘lib, diametri 130—170 nm. Viruslari 20 dan ortiq struktura oqsillariga va birqancha virion fermentlariga ega. Genomi bitta liniyali ikkizanjirli DNK dan iborat bo‘lib, uning o‘lchami 95 000-190 000 juft asosdan iborat, m.m. (100-250) $\times 10^6$. Moskitlar iridoviruslarining genomi 440 000 par asosdan va yirik DNK genomli va eng yirik genomli DNK viruslarga kiradi. DNKning transkripsiysi va replikatsiyasi uchun hujayra yadrosi zarur, ammo ba’zi DNK lar sitoplazmada sintezlanib sitoplazmada virionga aylanadi. Iridoviruslar genomining oxirigi uchi ACHS nikidan halqa simon joylanishi, uchining meyordan ortig‘ligi-mo‘lligi bilan hamda bakteriya DNK larinikidek metillangan asoslar tutishi bilan farq qiladi, Replikatsiyasi sitoplazmada o‘tadi (yadro DNK sintez uchun kerak bo‘lsa ham). Virionlar kurtaklanish natijasida ajraladi yoki hujayrani buzilishi natijasida erkinlikga chiqadi.

Umurtqalilar iridaviruslari amfibiy vo sutemizuvchilarning har xil hujayra kulturalarda 12-32⁰S da ko‘payadi. Ularning replikatsiyasi ACHS nikiga o‘xshash. Ammo ularning genomi RNK polimerazani kodlantirmaydi, aksincha u hujayraning “polimeraza II”sini ishlataladi, u virus mRNKSini ko‘plab sintez qilish uchun struktura oqsillari bilan modifikatsiyalanadi. Iridoviruslarni boshqa farqi DNK replikatsiya isning birinchi davri yadroda o‘tishi, ikkinchisi – sitoplazmada virus genomidan 10 va undan ortiq konkatemerlar hosil qilishidir. Asfaroviruslar kabi umurtalilar iridoviruslari virionlari zararlangan hujayra sitoplazmasida yirik parakristall strukturalar hosil qiladi. Bu oila viruslariga va ko‘plab har xil tabiiy xo‘jayinlarga egaligi xarakterlidir (oliy primatlardan tortib to zamburug‘largacha). Odamlarda virus kasallik qo‘zg‘atishi aniqlanmagan.

Iridoviruslar qo‘zg‘atuvchi kasalliklar

Amfibiylardagi iridovirus kasaliklari Ranavirus avlodiga birlashtiriladi. Ba’zi iridoviruslar faqat amfibiyarnigina emas balki reptiliylarni va baliqlarni ham kasallantiradi. Ular tashqi muxitga chidamli bo‘lib, virusli materiallari quriq holatda ham uzoq vaqt aktivligini saqlaydi. Tirik iridoviruslar ko‘paymasdan ham aktivligini saqlashi mumkin.

Simptomlari: Klinik simptomlari amfibiyarlarni hamma rivojlanish jarayonlarida namoyon bo‘ladi. Itbaliqlarida (golovastiklar)da kasallik ta’mirida ularning aktivligini pasayishi, assit, maxalliy qon quyilishi va o‘lishi kuzatiladi.

Diagnostikasi: O‘lgan hayvonlarni yoki to‘qimalarini (o‘t pufagi yoki buyragini) laboratoriya sharoitida tekshirishdir.

Davolash: ishlab chiqilmagan.

Cho‘chqalarni Afrika chumasi (Pestis africana suum, sinonimlari: ACHS, Montgomeri kasalligi, cho‘chqalarni sharqiy afrika bezgagi) - o‘tkir o‘ta yuqori kontaktda tarqaluvchi kasallik. Kasallik cho‘chqalarni hamma yoshida va yil faslini barchasida yuqadi. Kasallik tezda epizootiy va panzootiyya aylanib, cho‘chqachilikga katta iqtisodiy zarar keltiradi. 100% o‘lim bilan tugaydi.

Etiologiya. Qo‘zg‘atuvchisi — African swine fever virus DNK-tutuvchi viruslar avlodidan, yuqori virulentlikga ega.

9.3. Herpesviridae oilasi (Gerpesviruslar) (70)

Kichik oila: Alphaherpesvirinae (oddiy gerpes virusiga o‘xshash viruslar).

Avlod: (*Simplexvirus*) (oddiy gerpes virusiga o‘xshash viruslar).

Avlod: [*Poikilovirus*] (yolg‘onqutirish virusi i va unga o‘xshashlar).

Avlod: [*Varicellavirus*] (chechak, halqali lishay virusi).

Kichik oila: Betaherpesvirinae (sitomegaloviruslar).

Avlod: [*Cytomegalovirus*] (odam sitomegaloviruslari).

Rod Avlod: [*Muromegalovirus*] (sichqon sitomegaloviruslari).

Podsemystvo: Gammaherpesvirinae (limfotsitlar lar bilan bog‘liq viruslar)

Avlod: [*Lymphocryptovirus*] [Epshteyna —Barr (ER) viruslariga o‘xshash viruslar]

Avlod: [*Thetalymphocryptovirus*] (Marek kasalligi viruslariga o‘xshash viruslar).

Avlod: [*Radinovirus*] (maymunlarni say-miri va ateles viruslariga o‘xshash viruslar.

Virus kasalliklari ichida gerpes tarqalishi, har xil ko‘rinishda paydo bo‘lishi, kasllikni surunkali kechishi xamda kasallikni har xil yo‘llar bilan tarqalishi jihatidan eng oldingi o‘rinlardan birini egallaydi. Gerpes keng tarqalgan nazorati qiyin viruslarga kiradi. Bu gerpes viruslari oilasini nomi grekcha "**herpein**" - **sudralish** (polzti, raspolzatsya) ma’nosini anglatadi. Gerpes bilan kasallangan shilliq qabatlar va terida puffakchali toshmalar va ularni yorilishi, tarqalishi va yoyilib ketgan erroziya kuzatilishi xarakterlidir. Beqaror gerpes kasalligi o‘chog‘idan (labdagi gerpes) gerpes virusi oilasiga mansub birinchi virus ajratilgan. Gerpes viruslar oilasi 8 ta sinfga ajratladigan viruslar kiradi: - oddiy gerpesa virusi (VPG-1) va genitalgerpes virusi (VPG-2), varicella zoster virusi, Epstayna-Barr virusi, sitomegalovirus, gerpesa 6 virusi, 7, 8-chi tipa gerpes viruslari. Shu bilan bir qatorda xali 80 tacha klassifikatsiya qilinmagan odam va hayvon gerpes viruslari mavjud.

Hozirgi kunda **Herpesvirida** oilasini 3ta kichik oilalari shakllangan. Alphaherpesvirinae, Bethaherpesvirinae, Gammaherpesvirinae.

Alphaherpesvirinae kichik oilasiga xarakterli xususiyatlardan biri virus bilan zararlangan hujayrada virus qisqa reproduksiya sikliga va sitopatik ta’sirga ega. Bu viruslarga quyidagilar kiradi:

Oddiy gerpes virusi (VPG-1)

Oddiy gerpes virusning 2- tip (Genitalgerpes virusi (VPG-2)),

Gerpes virusini 3- tipi – varicella zoster virusi.

Bethaherpesvirinae kichik oilasi viruslariga xarakterli xususiyat faqat bir tur xo‘jayinga egaligidir. Ularni tarkibiga sitomegaloviruslar, shu qatorga

5 - tip gerpes virusi - odam setamegalovirusi (SMV) kiradi.

Gammaherpesvirinae kichik oilasiga xarakterili xususiyat o‘zlari uzoq vaqt persistirovat qiladigan V- yoki T-limfotsitlarga xos tropizm mavjud. Ularga quyidagilar kiradi:

4- tip gerpes virusi - Epstain-Barr (VEB) virusi;

6- tip gerpes virusi (VGCH - 6);

7-tip gerpes virusi (VGCH - 7);


8- tip gerpes virusi (VGCH - 8).

Xususiyatlari

Immun sistemasi normada bo‘lgan odamlar organizmida bo‘lishi mumkin, ammo simptomlar yashiringan bo‘ladi. Ko‘zga yaqqol ko‘rinmaydi. Immunsupressiyali odamlarda esa bu viruslar o‘limga olib kelishi mumkin. VOZ ning ma’lumotlariga qaraganda o‘limga olib kelish hepatitdan so‘ng(35,8%). ikkinchi o‘rinni(15,8%) egallar ekan. SHahar aholisi ichida 18 yoshgacha 90% odam gerpes virusi yoki shtammlari bilan kasallananar ekan.

Gerpes viruslarining tuzilishi


Gerpes viruslarining virionlari yirik bo‘lib, diametri 150-200 nm, nukleokapsiddan va tashqi qobiqdan (superkpsiddan) tuzilgan. Nukleokapsidi (yoki o‘zagi) kubsimon(ikosaedr) simmetriya tipida tuzilgan, 162 ta “g‘ishtchalardan”- kapsomerlardan tuzilgan. Superkapsidni yadro membranalaridan hosil bo‘lgan glikoprotein tikanlar (o‘sintalar) teshib o‘tadi va ular ho‘jayin hujayrasiga yopishish va uni ichiga kirish kabi zarur vazifani bajaradi. Nukleokpsid (o‘zak) va superkapsid (tashqi qavat) orasida oqsildan tuzilgan yangi virusni yangidan yaratilishini boshlanishida zarur bo‘lgan oqsil qavat joylashgan. Genomi kalta (18%) va uzun (82%) komponentlardan iborat ikki zanjirli DNA molekulalaridan iborat.



26-rasm. Gerpes virusining tuzilishi (71)

Gerpes viruslarini hujayrada ko‘payish mexanizmi (chizmasi)

Viruslarni asosiy xususiyatlari ularni faqat o‘zlari zararlagan hujayrada parazitlik qilib ko‘payishlaridir. Hamma viruslar kabi herpes viruslarini ham reproduksiyasi xo‘jayin hujayrasi resurslarini ishlatibgina amalga oshadi. Herpes virusini hujayraga kirishi virusni hujayra membranasi retseptori bilan munosabatda bo‘lishidan boshlanadi. Herpes virusi hujayra retseptori bilan birlashib o‘z qobig‘ini bir qismini yo‘qotadi, “echinib” hujayrada shu holatda harakatlanadi, uni harakatidan maqsad uni hujayra yadrosidir. Membrana yadrosida virus to‘la “echinadi”, yadro tashqarisida yana bir qibig‘ini qoldiradi. YAdroda virusni ko‘payishi boshlanadi – DNK replikatsiyasidan. Virus yangi virus zarralarini hosil qilishda hujayin hujayrasini o‘ziga ishlatishga majbur qiladi. Bitta hujayra bir necha million viruslarni hosil qiladi. YAngi DNK ning qurilib bo‘lingandan so‘ng virus qobiqlari **tegment i superkapsid** sintezlanadi. Bularni qurish uchun virus hujayra butunligini buzib hujayra membranasini ishlatadi. Jaroharlardan hujayra suyuqlik bilan to‘ladi va tezda nobud bo‘ladi.



27 - rasm. Gerpes virusini ko‘payish mexanizmi (71)

Virusni yuqish yo‘llari

Ko‘pincha birlamchi va qayta virus yuqishi havo-tomchi yo‘li bilan yuqadi, to‘g‘ridan-to‘g‘ri kontaktda bo‘lganda yoki gigI.E.Na va shaxsiy predmetlar (umumiy sochiq, dastro‘mol va h.) orqali ro‘y beradi. Og‘iz, genitaliy, orogenitaliy, transfuzion usulda (qon quyganda), transplansentar (onadan homilaga) usullarda yuqishlari isbotlangan. Herpes viruslarini ahamiyatli tomoni

ularni birinchi marta yosh organizmga tushgandan so‘ng unda butun umri bo‘yicha saqlanadi. Har xil provakatsion faktorlar – sovuqda qolish, stress, oftobda toblanish, menstruatsiya, infeksiyalar ta’sirida aktivligini tiklaydi (reaktivatsiya).

Virusni tashqi muhitda normal temperatura va namlikda o‘rtacha hayotchanligi 24 soatni tashkil qiladi. Bu virus termolabil bo‘lib 50-52°C 30 min., davomida, 37°C da - 10 soatda aktivligini yo‘qotadi. Past temperaturada uzoq muddatgacha aktivligini saqlaydi, ayniqsa -70°C da. Metallar yuzasida (tanga pullar yuzasida, eshik tutqichlarida, vodoprovod kranlarida) gerpes viruslar 2 soat, plastiklar va yog‘och yuzalarida 3 soatgacha yashashi mumkin. Hamma gerpes viruslari odam uchun patogen, uzoq vaqt organizmda persistiruyut(yashab yuradi), kasallikni avj olishida virus virusemiya vaqtida qon leykotsitlarida ko‘payadi. Bunday virusni patogenligida immundefitsitlik holatini rivojlantiradi.

17-jadval

**Odamlarda kasallik qo‘zg‘atuvchi gerpes viruslari va
ular qo‘zg‘atadigan asosiy kasalliklar**

Herpesviridae oilasi virulari	Virus yuqqandan so‘nggi kasallik	Latent infeksiyani aktivlashganidan so‘ng kuzatiladigan kasallik
1-tipli oddiy gerpes virusi (VPG-I)	Asosan yuz terisida, labda qizil hoshiya paydo bo‘lishi, og‘iz bo‘shlig‘i shilliq qabatidagi birlamchi gerpes kasalligi, ko‘z kon‘yunktiviti, meningoensefalit, tug‘ma gerpes	Retsidiviruyuший gerpes litsa, verxnix konechnostey, oftalmogerpes, retsidiiviruyuший meningoensefalit. YUz, odamning yuqori qismlari, oftalmogerpeslar qaytalovchi erpesi,qaytalovchi meningoensefalit
2-tipli oddiy gerpes virusi (VPG-II)	Birlamchi yuzterisini,genitaliy shilliq qabatini , dumba terisini zararlaydigan gerpes, meningoensefalit, genitaliy gerpesi, tug‘ma gerpes	Genitaliy, dumba, son, mielit, ensefalit qaytalama gerpesi.
Suvchechak virusi - gerpes-zoster (VVZ)	Suvchechak	Immuntanqisligi kasalliklaridagi retsidiiviruyuший gerpes zoster
Epshteyn-Barr virusi (VEB)	YUqumli mononukleoz, V-limfoproliferativ kasallik	Berkit limfomasi, nazofaringeal karsinoma.
Sitomegalovirus (SMV)	BirlamchitsMV-infeksiya, tug‘ma SMV-infeksiya.	immunokompetent shaxslarning xronik SMV-infeksiisi; immunokompetent shaxslarning o‘tkir SMV-iifeksiysi, retinit, kolit, ensefalit

6- tipli odam gerpesvirusi (GCH-6)	YAngitug‘ilganlar ekzantemasi	A’zolppHi ko‘chirib o‘tkazilgandagi sistemali kasallik
7- tipli odam gerpesvirusi (GCH-7)	YAngitug‘ilganlar ekzantemasi.	Doimiy charchash sindromi
8- tipli odam gerpesvirusi (GCH-8)	Noaniq	Kaposhi sarkomasi.

Hozirgi kunda Herpesviridae oilasi 80 ta vakilni o‘z ichiga olib, ulardan 8 tasi odam uchun o‘ta patogendir (human herpes virus-HHV). Yirik DNK-tutuvchi gerpesviruslar — filogenetik qadimiy oila bo‘lib, yuqumli jarayon o‘tadigan kasallantirgan hujaralariga, virus reproduksiyasi xarakteri, genomini tuzilishi, molekulyapHo-biologik va immunologik xususiyatlariga nisbatan 3 kichik oilaga bo‘linadi: α , β i γ . **α -gerpesvirus**, juda tez replikatsiya qiladigan va pitopatik ta’sir qiladigan HSV-1, HSV-2 i VZVlarni o‘z ichiga oladi. α -gerpesviruslar reproduksiyasi xar xil tip hujayralarda o‘tadi, viruslar latent holatda ko‘pincha gangliyalarda saqlanadi.

β -gerpesviruslar turga spetsifik bo‘lib, har xil hujara turlarini zararlaydi va ularning o‘lchamlari kattalashadi (sitomegaliya) immunosupressiv holatlarni qo‘zg‘atadi. Bu guruhga CMV, HHV-6, HHV-7lar kiradi.

γ -gerpesviruslarni xarakterli xususiyatlari, ularni limfold hujayralarga bo‘lgan tropizmidir (T- i V-limfotsitlarga), ularda uzoq vaqtgacha saqlanib ko‘payib ularni transformatsiya qilib limfoma va sarkomalarga hosil qiladi. Bu guruhga Epshteyna-Barr i HHV-8-gerpes — virusi, Kaposhi sarkomasi (KSHV) bilan assotsiatsiyalangan bo‘ladi.

Hujayra virus bilan zararlangandan so‘ng masalan, oddiy gerpes virusi 1 yoki 2 tiplarida yangi oqsil sintezi 2 soatdan so‘ng boshlanadi va 8 soatdan so‘ng maksimumga etadi. “Qiz” virionlar etilish jarayonida ularni kapsid qobiqlari va DNK si zararlangan hujayra ichidagi aminokislotalar, oqsillar, lipoproteidlar va nukleozidlardan shakllanadi. Bu molekulalar hujayra ichidagi zapaslari kamayishi bilan tashqaridan to‘qimalararo bo‘shliqdan kelib tushadi.

To‘la shakllangan “qiz” virionlar keyingi aktiv reproduksiyaga tayyor virionlar zararlangan hujayrada 10 soatdan so‘ng paydo bo‘ladi. 15 soatdan so‘ng ularni miqdori maksimal bo‘ladi. Virionlarni soni virus infeksiyasini keyingi tarqalishi va zararlash maydoniga ta’sir qiladi.

Gerpesviruslarni birinchi “qiz” generatsiyasi tashqi muxitga (hujaralararo bo‘shliqqa, qonga, limfaga va boshqa biologik muxitlarga) 18 soatdan so‘ng tushadi. Hosil bo‘lgan va adsorbsiyalangan gerpes viruslar har bir generatsiyasini yashash vaqt 3 sutka. Virionlari termolabil, 50–52°Cda 30 minutda aktivligini yo‘qotadi.

Diagnostika qilish

Viruslarni barcha indikatsiya i identifikatsiya metodlari quyidagi prinsiplarga asoslangan:

elektron mikroskop yordamida; sezgir hujayralarda ajratish va identifikatsiyalash; viruslapH antitelalar yordamida ajratish va identifikatsiya qilish (IFA, IB, PH);

analiz qilinadigan namunada nuklein kislota borligi va (PSR, MG) uni ajratib identifikatsiya qilish.

9.4. Adenoviridae oilasi(Adenoviruslar oilasi) (72)

Mastadenovirus avlodi (sutemizuvchilar adenoviruslari).

A - kichik avlodi:

Turlari: h12,h18,h31².

V - kichik avlodi:

Turlari: A3, h7, h11, h14, h16, h21, h34, h35.:

S - kichik avlodi:

Turlari: h1, h2, h5, h6.

D - kichik avlodi:

Turlari: h8, h9, h10, h13, h15, h17, h19, h22, h23, h24, h26,
h27, h29, h30, h32, h33, h36, h37.

E - kichik avlodi:

Turi: *h4*. (Kichik avlodlari aniqlanmagan.)

Turlari: bos1dan to bos9gacha (yirik shoxli mollar adenoviruslari) ,

sus1 dan to sus 4gacha (cho‘chqalar adenoviruslari),

ot ovi 1 do ovi 5 (qo‘ylar adenoviruslari),

equ1 (otlar adenoviruslari),

can1dan sap 2 gacha (itlar adenoviruslari)

cap1 (echki adenovirusi),

mus1 (sichqonlar adenovirusi).

Aviadenovirus avlodi: (qushlar adenoviruslari).


Turlari: ga 11dan ga l9 gacha (tovuqlar adenoviruslari),

Me 11dan te12gacha (kurmalar adenoviruslari),


ans1 (g‘ozlar adenoviruslari),

pha1 (fazanlar adenoviruslari),

ana1 (o‘rdaklar adenoviruslari).



28-rasm ORZ qo‘zg‘atuchi adenovirus (73)



29-rasm.Adenoviruslar strukturasi (74)

Bu oila nomi grekcha adeno – bez degan ma’noni anglatadi, chunki bu guruh viruslarini birinchi vakillari odam adenoididan ajratilgan. Adenoviruslarni har xil serotiplari arab harflari bilan belgilangan. Keyinchalik adenoviruslar guruqlariga morfologiyasining o‘xshashligiga qarab xar xil hayvonlardan ajratilgan adenoviruslar kiritildi. Ularni ham adenoviruslar deb atalib ularga yana umurtqali xo‘jayinlari nomi ham qo‘shib ataladigan bo‘ldi.

Xususiyatlari

Adenoviruslar izometrik zararachalar bo‘lib ikosaedr shaklda . o‘lchamlari 70-90 nm. Virionining molekulyar massasi 170-175 megadalton, CsCl-suzish zichligi (plavuchaya plotnost) 1,33-1,35 g/sm³, sedimentatsiya konstantasi 560 S. Qobig‘i yo‘q. Kapsidi 252 kapsomerdan, ulardan 12 cho‘qqisi (vershinn) pepton

shaklida, 240 tasi geksonlardir. CHo'qqi kapsomerlari (vershinne kapsomer) uzunligi 10-37 nm 1-2 ta ipsimon bo'rtmalarga ega.

Antigen strukturasi murakkab: 7 tacha struktura antigenlarga ega. Guruhga xos antigenga ega(gruppospetsificheskiy), umumiyl antigenlar faqat ozgina guruhgaginadir vaayrim serotiplarnikigina individualdir (individualne dlya otdelnx serotipov).

Tipoga spetsifik antigenlari asosan virion tashqarisida (ustida) joylashgan Gekson kapsomerlari bilan svyazan antigen, indutsiruyuishiye neytralizuishiye antitela. Filament imeyut gemagglyutinirugoishiye svoystva.

Virus pH 6,0-9,0 stabil, tez aktivligini 56° S da tez aktivligini yo'qotadi, yog'erituvchilaga sezgir emas.

Genomi ikki zanjirli D NK bir liniyada joylashgan molekula (v vide edinichnoy lineynoy molekul) s mol massasi 20-30 megadalton; G+S 48-61%. Replikatsiya va virionning etilishi yadrda ro'y beradi, va u erda kristal to'plamlar hosil bo'ladi.

Ba'zi adenovirus faqat maymun adenoviruslari yoki SV40 virusi bo'lgan holatda ko'payadi, ular bilan laboratoriya sharoitida stabil gibrildar olingan. Adenovirusla adenosatellit viruslari ko'payishiga(replikatsiyasga) sharoit yaratib beradi. Adenoviruslar oilasida har xil genetik munosabatlar mavjud, masalan, gibrizatsiya va rekombinatsiya. Kapsid qismlari orasida fenotipik aralashuv kuzatiladi. Odatda adenoviruslar tor doiradagi xo'jayinlarga ega, ammo ba'zi odam adenoviruslari quyonlarga, cho'chqa bolalariga va buzoqlarga patogendir.

Har xil tur hujayra qulturalarda ko'payadi

Odam adenovirus asosan respirator, ichak yo'llari infeksini qo'zg'atadi va ko'zni jarohatlaydi. Hayvonlar adenoviruslari gepatit ko'rinishida ro'y beradi. Bir qator adenoviruslar onkogenlik xususiyatiga ega. Tarqalishi xar-xar joyda (povsemestno). Gorizontal usulda tarqatuvchisiz o'tadi.

Adenoviridae oilasi ikki avlodga bo'lingan: (grekcha. mastos - ko'krak, sut bezi) va **Aviadenovirus** (latincha. avis – qush).

Sutemizuvchilar adenoviruslariga qaraganda qushlar adenoviruslari tarkibida nisbatan ko'p miqdorda D NK ga ega, ammo polipeptidlari kamroq. Avlodlari orasida antigen bog'likligi yo'q.

Adenoviridae oilasiga qurbaqalar adenoviruslari kiradi [Norrby E. ea., 1976].

Adenoviruslar infeksiyasi – bu adenoviruslar qo'zg'atadigan patologik holat bo'lib, ko'p organ va sisteialarni zararlaydi.

Adenoviruslar D NK – tutuvchi viruslar bo'lib, adenoviruslar oilasiga kiradi.

Adenoviruslar infeksiyalarini manbai kasal odam yoki virus tashuvchi bo'ladi. Adenoviruslarni burun halqumdan olingan suyuqlik, so'lak, kon'yunktivitdan ajralgan moddalar, ahlat va peshoblardan aniqlanadi.

Adenoviruslar bilan zararlanish adenoviruslar etarlicha bo'lgan havodan ro'y berishi mumkin. Yana og'iz orqali bo'ladi. Birinchi klinik belgilar infeksiya tushgandan so'ng 5-7 kundan so'ng boshlanadi. Eng birinchi belgilardan biri shamollash alomatidir. Avval burundan tiniq, bipHecha kundan

so'ng bakteriya mikroflorasi bilan aralash, ular shilimshiqsimon, ba'zan gnoynqy bo'lishi mumkin. Shamollash 4 hafta davom etishi mumkin. Burun oqishidan tashqari ba'zi kasallarda tomoq zararlanishi (faringit) kuzatilishi, kasallarni yutinganda qiynalishi va tomoqni qirilishi bezovta qiladi. Tomoqni qizarishi kuzatiladi. Patalogik jarayon mindalinalarni ham zararlashi va ularni o'lchamlarini kattalashishi, qizarishi mumkin (tonzilit) mumkin. Yuqumllik jarayonini kelgusi rivojlanishida traxeya, bronxlar zararlanib pnevmoniya rivojlanadi.. Adenoviruslarni eng tez uchraydigan belgilaridan kon'yunktivitdir, u kasallik birinchi kunlari paydo bo'ladi. Ko'zga qum to'lgandek ko'zni achishishi kuzatiladi.

Kasallik oshqozon-ichak sistemasini ham egallashi mumkin va diareya kuzatiladi, ko'ngil aynashi, qayt qilish kuzatiladi.

Qorin og'rishi, el to'planishi, tana haroratini oshishi va o'ta yuqori holatlari kuzatiladi. Ko'pincha 1-4 hafta davom etadi.

Adenoviruslar meningitga o'xshab markaziy nerv sistemasini kasallantirishi mumkin, bosh og'rishi kuzatiladi.

Adenoviruslar siyidik puffagini kasallantirishi mumkin (sistit) Tez-tez siyish ro'y beradi. Siyidik eritrotsitlarni borligi hisobiga qizg'ish rangga kiradi. Bu holat 3-4 hafta davom etishi mumkin.


Diagnostikada qon, siyidik tekshiriladi, leykotsitlar miqdorini avval oshishi vo so'ngra kamayishi kuzatiladi.


Diagnoz qo'yishda hujayra to'qimalarida virusni ajratish va organizmda spetsifik antitelolarni aniqlash eng ahamiyatlilaridan hisoblanadi.

9.5. Papovaviridae oilasi (Papovaviruslar) (75)

Avlod: Papillomavirus (papilloma viruslari).

Avlod: Polyomavirus (polioma viruslari).





30 -rasm. Papovaviruslarni tashqi ko‘rinishi (76)

Xususiyatlari

Papovaviruslar virionlari tashqi qobiqqa ega emas. Ular ikosaedrik simmetriya asosida tuzilgan, diametri ix 45dan to 55 nm gacha. Virus zarralari tashqi $7 = 7$ reshetka hosil qiladigan 72 kapsomerdan tuzilgan. Genomi bitta halqali, ikki zanjirli, mol. masssi $(3—5) \cdot 10^6$ ga teng DNK dan iborat. Viruslar beshtadan ettitagacha struktura oqsillaridan iborat. Replikatsiya va virus yig‘ilishi yadroda, virionlarni ajralib chiqishi hujarani parchalanishidan so‘ng sodir bo‘ladi. Ko‘pgina viruslarni kasallantiradigan ho‘jayinlari spektri tor doirada. Ba’zi papovaviruslarga xos xususiyat ho‘jayin – hujayrani transformatsiya va onkogenez qilish xususiyatiga ega.


Odam papillomasi virusi (VPCH) – bu Papovaviridae oilasiga kiruvchi DNK- tutuvchi virus bo‘lib, teri va shilliq qavvatlarga zarar keltiradi, unday hujayralar o‘sishi chegaralanib qoladi va o‘z-o‘zidan regressiyalanish boshlanadi. Bu infeksiya odatda tez-tez jinsiy yo‘l orqali o‘tadi, bu oddiy hol hisoblanadi. Oddiy hol deyishga 50 foyiz jinsiy aktiv katta yoshdagilar bir yoki bipHecha VPCH tiplari bilan kasallangan bo‘ladi, bularni 50 foyizi tranzit usulda yuqadi.

Bu infeksiyani klinik belgilari genitaliydagi genitaliy so‘gali va o‘tkir uchli kondiloma, yoki xalq tilida aytishicha “xo‘roz tojisi” belgisidir. Kasallikni inkubatsiya davri o‘zgarib turadi – qisqa muddatli 2 hafta ichidan to 8 oygacha, yoki o‘rtacha davom etishi 3 oy, virusni organizmda latentligi va persistentligi haqida ma’lumot kam.

Ba’zi VPCH bilan bog‘liq kasallanishlarda, har xil darajadagi neoplaziya rivojlanadi. Priznano, chto na sheyke matki Ba’zi VPCH tiplari bilan assotsiiyalangan bachadon bo‘ynida (servikal neoplaziyasida) karsinoma rivojlanishi mumkin, kasallikni kechish muddati har xil bo‘ladi.

Diagnostikasi. Kondilomlar diagnostikasi klinikada va gistologiya usullari bilan olib borilishi mumkin.

9.6. Hepadnaviridae oilasi (Gepadnaviruslar) (77)



(a)

(b)

31-rasm. V hepatiti virusi (a) va uning tuzilishi(b) (78)

Xususiyatlari

Birqancha odam va hayvonlarda hepatit qo‘zg‘atuvchi DNK-tutuvchi viruslar, hozirgi zamон klassifikatsiyasi bo‘yicha Hepadnaviridae oilasiga birlashtirilgan. Odam hepatiti V virusi (HBV) **Orthohepadnavirus avlodi vakilidir**, bu avlod yana birqancha viruslarni o‘z ichiga oladi; ulardan yaxshiroq o‘rganilgani o‘rmon surogi virusi (WHV) va er olmaxoni viruslaridir (YSHV).

Hepadnaviridae oilasiga bipHechta qushlar viruslari Avihepadnavirus avlodiga birlashtirilgan, ularga yaxshi o‘rganilgan pekin o‘rdaklari (DHBV) va kam o‘rganilganlari – saplya va uy g‘ozlari viruslaridir.

Bu ikki avlod orasidagi prinsipial farq shundaki, qushlar viruslari genomi gandan tuzilgan va X-genga ega emas. Avihepadnavirus avlodi vakillarida 3 glikoproteid o‘pHiga faqat L- va S-oqsillar mavjud.

D.Deyna va shogirdlari negativ kontrastlash usuli bilan V hepatiti bilan kasallangan bemorlarni qoni zardobida lipid membrana va o‘zakga ega diametri 40-48 nm lik virus zarralari hamda 16 dan 36 nm gacha bo‘lgan lipid membranalik strukturalar aniqlandi. Zarralar lipid membrana va o‘zakga ega. Keyingi izlanishlar asosida V hepatiti virusini parametrlari yaxshilab o‘rganilganda virionning diametri 42 nm, nukleokapsidiniki esa 27-28 nmligi aniqlandi. **Genomi** 4 gandan tuzilib R, S, S va X. R-genlar ko‘pfunksiyalik polimerazani kodlantiradi, S-gen S-oqsilni (NVsAg) va E-oqsilni (HBeAg) kodlantiradi. S-genda 3 ta initsiatsiya kodoni 3 oqsil sintezini nazorat qiladi Genomlar har xil oqsillarni kodlantiradi. Va ularni funksiyalari ham turlicha. L-oqsil virionni hepatotsit bilan retsepsiyasigahamda S-oqsil bilan birgalikda V hepatiti virusini virionini shakllanishida ma’lum rol o‘ynaydi.

V hepatiti virusining o‘lchami 42-45 nm bo‘lib, Orthohepadnavirus avlodi Hepadnaviridae oilasi vakilidir.U yuqori va past temperaturaga chidamlı, fizik va

kimyoviy ta'sirlarga o'ta chidamli. Xona haroratida 3 oy, sovuqxonada 3 yil, muzlatilganda 15-20 yil, qaynatilganda 30 minutdan so'nggina nobud bo'ladi. Virus barcha dezinfeksiya qiladigan moddalarga chidamli. Avtoklavda 120 gradusda 5 minutdan so'ng, quruq issiqlikda 160 gradusda 2 soatda virus yuqumliligi pasayadi.

V hepatiti bilan kasallanganda o'tkir yoki xronik hepatitga olib keladi keyinchalik bu jagar serroziga yoki birlamchi rakga aylanishi mumkin. V hepatiti virusi hepatotsitlarga nisbatan kuchli tropizmga ega. Infektion jarayon vaqtida yuqumli virus zarralari bilan bir qatorda yuqumlilik xususiyatiga ega bshlmagan defekt virus zarralari hosil bo'ladi. Ular qonda doimo katta konsentratsiyada bo'ladilar (0,5 mg/ml). Viruslar hujayrada birqancha yillar yoki umrini oxirigacha bo'lishi mumkin.

Viruslar jigarda va qonda uzoq muddat persistnent holatida bo'lishi mumkin. Virionlari (Deyna zarrachalari) sferasimon bo'lib diametri 42-47 nm bo'ladi. Sferani ichida zich o'zak bo'lib diametri 22-25nm ni tashkil qiladi. Virusni qobig'i 3 ta polipeptiddan tuzilgan, katta L, o'rtancha M va kichik deb nomlanadilar hamda huo'jayin organizmning membrana lipidlari mavjud. Bu oqsillarni pre-S1, pre-S2 i HBsAg deb nomlanadi.

Odam hepatitining HBV ni tuzilishiga keladigan bo'lsak, u 240 monomer o'zak core-oqsil (HBcAg) dan, tuzilib ikosaedr strukturaga ega triangulyasi soni T = 4 ga teng Kapsidida ikkizanjirli genom DNK si va virus DNK-polimerazasi mavjud(teskari trankriptaza). Bu hepatit virusi bilan kasallangan odamlar qonida virus zarrachalarini soni 1 ml 10 va undan ortiq bo'lishi mumkin. Qonda Deyna zarrachalaridan tashqari virusnierkin nuklein kislotasi, sferasimon lipid – tutuvchi, ipsimon (o'zakka o'xshash) subvirus strukturalari hamda asosan S-oqsili va qisman M i L oqsillari bo'ladi.


Bu subvirus sferasimon strukturalarni DNK si yo'q bo'lib ularni diametri 22 nm. O'zaksimon subvirus strukturlari xam DNK i oqsil kapsiddan xolidirlar, ulareni 20 nm va uzunligi 200 nmgacha bo'ladi. Subviruslarni konsentratsiyalari to'la virus zarrachalaridan 100-1000 marta ko'p bo'ladi. Genomi ikkizanjirli halqasimon DNK bo'lib, uni uzunligi 3,2-3,3 t.p.n. tashkil qiladi. Gepadnoviruslarni hujayraga kirish mexanizmi hozircha to'la o'rganilmagan.

9.7. Parvoviridae oilasi (Parvoviruslar) (79)


Parvovirus avdlodi (sutemizuvchilar va qushlar parvoviruslari).

Dependovirus avdlodi (adenoassotsiirlangan viruslar, AAV).

Densovirus avdlodi (hashoratlar parvoviruslari).




32- rasm. Adeno-assotsiirlangan virusning kristallik strukturasi virusa (80)



33 - rasm -Denso virusining virioni

ICTV 8th Report - Images by Jean-Yves Sgro ©2004
images at virology.wisc.edu/virusworld

20Å Canine parvovirus PDB_ID: 2CAS



Coordinates from: PDB: www.rcsb.org/pdb/ VIPER: mmtb.scripps.edu/viper/

34 -rasm.Parvovirusning tashqi ko‘rinishi (80)

Xususiyatlari

Parvoviridae oilasining birinchi vakili Kilkem va Oliverlar tomonidan 1959 yil tavsiflangan edi. Bu virusga Kilkem latent virusi deb nom berildi. Parvovirularning virionlari qobiqsiz mayda ikosaedrsimon diametri 17-28 nm, diametri 2-4 nm li 32 kapsomerli zarrachadir. Zarrachaning yuzasi o'simta yoki chuqurchalarsiz silliq ko'rinishda. Seziy xlorda suzish zichligi - 1,38 - 1,45 g/sm³.

Parvoviruslarning genomi birzanjirchali DNK, o'lchami - 1,4-1,7x10⁶ Da. Virusning reproduksiyasi yadroda amalga oshadi, virus bilan kasallangan virionlarning yig'ilish fabrikasi yadroda ham, sitoplazmada ham amalga oshishi mumkin.

Parvoviruslar termostabil, lipid erituvchilarga va nordon muxitga chidamli. Parvoviruslar oilasining strukturasi quyidagi jadvalda ko'rsatilgan.

Parvoviruslar avlodining tipik vakili kalamushlarning Kilkem latent virusidir, uning tarkibiga molekulyar massasi 83x10³, 65x10³ i 60-62x10³ Da bo'lgan uchta polipeptid - VP1, VP2, VP3 kiradi.

Virion tarkibiga birzanjirli DNK molekulasi kiradi. Har xil virionlarning tarkibida har xil qutbli iplar uchraydi -"+", hamda "-". Virus populyasiyasi tarkibida "--" zanjir uchramasligi mumkin yoki uning miqdori "+"-zanjirdan oshmasligi mumkin. DNK ajratganda birzanjirli molekulalar o'z-o'zidan (spontanno) gibridlashib ikki zanjirli molekula hosil qilishlari mumkin.

Yirik qoramollar, cho'chqalar va parrandalar parvoviruslari. Ular qishloq ho'jalik hayvonlarini, parrandalarni kasallantiradi, ko'pincha kasallanish latent holatida o'tishi mumkin. Ular embrional kulturalarda yaxshi rivojlanadilar va xomiladorlikni xarxil davrlarida kasallinishlarga olib keladilar, embrionning har xil organlarini kasallantiadilar, homila tushishi va tabiiy kamchilikli ko'rinishdagi avlodlar paydo bo'lishi mumkin.

Parvoviruslarni birqancha odam parvoviruslari shtammlari ajratilgan doktorom Cosert tomonidan ajratilgan. Ulardan birinchisi surunkali gemolitik anemiya qo'zg'atuvchi virus bo'lgan.

Tabiatda keng tarqalgan.

Virion strukturasi barcha viruslarni tashqi muxitda chidamli qiladi. Virus asosan najas (fekaliya) va siydikdan ajratiladi. Virusni tarqalishi ham fekalno-oral, aerozol usulida yuz beradi. Hayvonlarni boqish jarayonida ishlatiladigan asboblar, ozuqa moddalari, odam orqali va ektoparazitlar yordamida tarqalishi mumkin.

Parvoviridae oilasi strukturasi

Parvovirus avlodi	Dependovirus avlodi	Densovirus avlodi
Kalamushlarni Kilkema virusi Virus RV	Adeno-assotsiirlangan odam virusi: 1 tip (AAV-1) 2 tip (AAV-2) 3 tip (AAV-3) 4 tip (AAV-4)	Virus denso Nukleoza
Virus N1 Virus N3 Virus Lu 3 Virus X-14 Virus MVM	Adeno-assotsiirlangan virus KRS (BAAV)	
CHo'chqalar parvovirusi	Adeno-assotsiirlangan otlar virusi (H AAV)	
KRS parvovirusi	Adenoassotsiirlangan itlar virusi (SAAV)	
G'ozlar parvovirusi		
Quyonlarp parvovirusi		

9.8. Reoviridae oilasi (Reoviruslar oilasi) (81)

Reovirus avlodi: (odam va hayvon reoviruslari).


Orbivirus avlodi (orbiviruslari).

Rotavirus avlodi (rotavirular).


Phytoreovirus avlodis (o'simlik reoviruslarining 1- kichik guruhi).

Fijivirus avlodi (o'simlik reoviruslarining 2- kichik guruhi).

Cyopivirus avlodi (sitoplazmatik poliedroz viruslari).



35- rasm. Rotavirus (a) (sxema) va (b) ichki tuzilishi (82)



36-rasm. Rotavirus (mikroskopom ostida) (83)

Reoviruslar oilasiga bipHavirislardan tashqari barcha segmentlarga bo‘lingan **izDNK** genomli viruslar kiritilgan. SHuning uchun ular juda murakkab hisoblanadilar. Bu oilaga kiramagan viruslar besh avlodga: ortoreo-viruslar, orbiviruslar, rotaviruslar, koltiviruslar va akvareoviruslar avlodlarga mansubdirlar.

Birinchi uch avlodga barcha sutevizuvchilar va parrandalar viruslari va antigenlari bir-biri bilan bog‘liq bo‘lmaganlari. Ortoreoviruslar uchta sutevizuvchilar viruslarini (1, 2 i 3 reoviruslar) va 11 ta parranda viruslarini o‘z ichiga oladi.

Serologik xusustiyatlari va genotiplariga asosan **orbiviruslar** 14 subguruhga bo‘linadi.

Har bir subguruhni serologiya usulida aniqlanadigan umumiyligi antigenlari bor, ularni qisman sekvenirlanganda qarindoshliligi kuzatiladi. Rotaviruslarni klassifikatsiyasi genotipik va serologik analizlarga bog‘liqidir.

Vakillarini ba’zilari kolorada kanasining bezgagi koltiviruslar avlodini tashkil qiladi. Bunday viruslar KalifopHiya, Indoneziya va Xitoyda ajratilgan.

Akvareoviruslar avlodi suvda hayot kechiradigan baliq va boshqa hayvon va o‘smliklarni viruslarini o‘z ichiga oladi.


Reoviruslarni virionlari qobiqsiz sferasimon diametri **80 nm** zarrachalardir. Virionda ichki va tashqi ikosaedr simmetriyaga ega bo‘lgan kapsid va o‘zak mavjud. Genomi ipsimon iz RNK, u 10 qismga bo‘lingan (ortoreoviruslarda va orbiviruslarda), 11(rotaviruslarda va akvareoviruslarda) yoki 12 (koltiviruslarda)ta segmentga bo‘lingan. Genomi: ortoreo-(23 tpn (m.j.n)), orbi-(18 tpn), rota--(16-21 tpn), kolti--(27 tpn), i akvareoviruslarda-(15 tpn), o‘ziga mos holda tashkil topgan (23, 18, 16—21, 27, 15m.j.n.(tpn)).

Pozitiv zanjirdagi har bir ikki zanjirli segmentda KEP-struktura (5'-uchida) bor, negativ zanjir uchlari esa fosforirlangan 5'-uchga ega. Ikkala zanjipHi Z'-oxirida poli-A strukturlar uchramaydi.

Cho'chqa rotaviruslarini patogenligi to'rtinchi gen segmenti bilan bog'liq. Tashqi kapsidni kapsomerlarini yaxshi ko'ringani uchun miqdorini va ularni fazoviy joylashishini aniqlash mumkin. Rotaviruslarni tashqi qobig'ini tripsin bilan yo'qotish mumkin. Ichki kapsidni diametri 4 nm lik kapsomerlardan tuzilgan. Tashqi kapsidda 12 ta o'simta bor, agar tashqi kapsid yo'qotilsa, bu ipsimon o'simtalar qoladi va sezgir hujayralar bilan aloqani - bog'lanishni ta'minlaydi.

Ortoreoviruslar, Orbi (lotincha halqa m'nosini bildiradi)**viruslar, Koltiviruslar va akvareoviruslar** o'z strukturasi va xususiyatlari bilan amaliy jihatdan oila xususiyatlaridan kam farq qiladi. Rotaviruslar hamda boshqa virus oilalari xususiyatlari bilan to'laroq tanishish uchun Vaxabov, SHurigin (2013) "Virus cheloveka i jivotnx" o'quv qo'llanmasiga qaralsin).

9.9. BipHaviridae oilasi (BipHaviruslar) (84)



37-rasm. Bursa yuqumli kasalligi virusi va bipHaviruslar strukturasi. (85)

Oilaning taksonomik strukturasi

Avlodlari: *AquabipHavirus,*
AvibipHavirus,
EntomobipHavirus.

Xususiyatlari

Virion tavsiyi. Morfologiysi. Virioni qobiqsiz, ikosaedrik simmetriyada tuzilgan (diametri 60 nm) bitta oqsil "qobig'i" bor xolos. Kapsidi 260 trimer subbirliklardan iborat($T = 13$), ichki qavati 200 trimer subbirlikdan iborat, Virion m.m. 55×10^6 , suzish zichligi CsCl'da $-1,33$ g/sm³ (defekt zarrachalariniki - $1,30$ g/sm³), sedimentatsiya koeffitsI.E.Nti S_{20w} 435S.

Virus zarralari pH 3-9 da, 60 °S da 1 soat davomida qizdirilganda ham barqaror, efirga chidamli, 20 °Sda, 1%-li dodetsilsulfat natriyga (pH 7,) 30 minut davomida ishlov berilagnda ham chidamlidir.

Genomi. Genomi 2 segmentli ikkispiralli RNK (virion massasini 9-10%). “Baliqlar oshqozonosti bezining yuqumli nekrozi virusi” (IPNV)ning katta A segmentini o‘lchamlari ma’lum diapazonda o‘zgarib turadi: (IPNV) 2962 bp (SP shtammi), 3092 bp (Jasper shtammi) va 3104 bp (N1 va DRT shtammlari). V segmentini o‘lchami 2731 bp (DRT shtammi) dan 2784 bp (Jasper shtammi) orasida o‘zgarib turadi. “Bursa yuqumli kasalligi virusi”ning, “Drosophila X(DXV) viruslar”ining ham A segmenti o‘lchamlari ma’lum diapazonda o‘zgarib turadi. Bu virusning V segmentining o‘lchami 2715 bp (UK661 shtammi)dan 2922 bp (QC-2 shtammi)gacha o‘zgarib turadi.

Virusni mRNA sinii 5'-kep strukturaga egaligi haqida ma’lumot yo‘q. Lipidlar ham virion strukturasida topilgan emas.

Virus hujayraga kirishi bilan virusni RNK-tobe RNK polimerazasi aktivlashadi, virus RNKsining transkripsiysi yarim konservativ usulda amalga oshadi. Minus zanjipHi sintezi haqida ma’lumotlar yo‘q. Organizm hujayrasi kasallangandan so‘ng 3-4 soat o‘tgach ikkala mRNA paydo bo‘la boshlaydi va replikativ sikl davomida bir xil miqdorda to‘planadi (A molekula V molekulaga qaraganda 2 marta ko‘p to‘planadi). Virusspetsifik oqsillar kasallangandan so‘ng hujayrada 4-5 soatdan so‘ng uchrayboshlaydi. Ertagi va kechki oqsillar yo‘q. Virus zarrasini qurilishi va to‘planishi sitoplasmada ro‘y beradi. Virusni erkin ajralib chiqish mexanizmi noaniq.

Biologik xususiyatlari. “Baliqlar oshqozonosti bezining yuqumli nekrozi virusi” (IPNV) ni tabiiy xo‘jayinlari lasossimonlardir. Viruslar gorizontal va vertikal usulda tarqaladi. Vektorlari (tarqatuvchilar) topilgan emas. Virus harjoy - harjoyda tarqalgan, ko‘pincha epizootiylar yosh lasoslarda, sun’iy boqiladiganlarida bo‘ladi va ularni nobud qiladi. Virus oshqozon osti bezida nekrozlar hosil qiladi, ammo buyragida, ichaklarida, miyasida va boshqa organlarida bo‘lsa ham ularni o‘zgartirmaydi. Kattalari simptomlarsiz umrbod virus tashuvchi bo‘lib qoladilar.

Parrandalarda uchraydigan “jo‘jalar bursasining yuqumli virusi” (IBDV) ni tabiiy ho‘jayinlari jo‘jalar, kurkalar va o‘rdaklardir.

AquabipHavirus avlodi: tipik turi: “Oshqozonostibezining yuqumli nekrozi virusi - biologiyasi. Baliqlarni, mollyuskalarini va raksimonlarni kasallantiradi. AkvabipHavirusrular chuchuk va sho‘r suvlardagi hayvonlardan ajratilgan.

AvibipHavirus avlodi: tipik turi: “yuqumli bursal kasalligi virusi”- inglizcha Infectious bursal disease virus (IBDV) rus tilida virus infektionnoy bursalnoy bolezni deb ataladi.

Biologik xususiyatlari. Faqat qushlarni kasallantiradi. Tipik turi: “yuqumli bursal kasalligi virusi” (IBDV) jo‘jalarda kasallik qo‘zg‘atadi, limfasimon hujayralarini kasallantirishi natijasida apoptoz yuz beraldi. Virus harer - harerda tarqaladi, ayniqsa kontakt usulida tez tarqaladi. Bu bilan parrandachilikda katta

zarar keltiradi. Uni ikki serotipi bo‘lib birinchisi jo‘jalarda kasallik tug‘dirsa, ikkinchisi napatogendir.

EntomobipHavirus. Tipik turi: Drosophila X virus (DXV): EntomobipHavirus hasharotlarni kasallantiradi. Avlodida bittagina turi bor.

Klasslarga bo‘linmagan bipHaviruslar ham bor: Rotifer bipHavirus (RBV) (Brachiorus plicatilis).

PicobipHavirus nomli yangi avlodi ham bo‘lib, u bolalardan va ba’zi hayvonlardan ajratilgan. Bu viruslar ikosaedr simmetriyasida tuzilgan bo‘lib, triangulyasiya soni $T=3$ ga teng, diametri 30-40 nm. Suzish zichligi CsCl da1,4 g/sm³. Genomi 2 yoki 3 segmentdan tuzilgan. Ikki spiralli RNKning uzunligi 2,6 va 1,9 kbp – genomniki ikki segmentli 2,9, 2,4 va 0,9 kbp – uchsegmentli genomniki. Viruslar deyarli hayvonlarni fekaliysidan ajratilgan.


9.10. Togaviridae oilasi (Togaviruslar) (85)

Alphaviruslar avlodi (“A guruhi” arboviruslari).


Flaviviruslar avlodi (V guruhi arboviruslari)”.

Rubiviruslar avlodi (“qizilcha viruslari”)

Pestiviruslar avlodi (shilliq qavatlar virus kasalligi).



38-rasm. Alfavirusni tashqi ko‘rinishi (chapda – mikroskopda olingan rasm, o‘ngda – tashqi ko‘rinishi) (86)



39-rasm. Rubivirus (87)

Xususiyatlari

Togaviruslarni nomlari (toga – plash, yopinchiq degani) birinchi marta RNK tutuvchi qobiqli nukleokapsidi kubsimon simmetriyada tuzilgan viruslarga berilgan. Bu oila vakillari ikki avlodga bo‘linadi:

Alfaviruslar va rubiviruslar bo‘lib ular bir-biridan tuzilishi va serologik xususiyatlar bilan farqlanadi. Yana ikkita “suzib yuruvchi” avlodlari mavjud: deltaviruslar(delta hepatit virusi) va E hepatiti virusi va ularga o‘xshash viruslar. TGV ning tarqalish areali bo‘g‘imoyoqli hasharotlar tarqalgan (tarqatuvchisi) hamda tabiiy ho‘jayini-umurtqaliklar yashaydigan, ayrim geografik zonalar bilan cheklangan.

Alfaviruslar bo‘g‘imoyoqlilar tarqatadigan 20 dan ortiq antigenlari bilan yaqin turlari birlashgan. Rubiviruslarda bittagina faqat odamda kasallik qo‘zg‘atadigan tur – qizilcha virusi bor. Shunga o‘xshash viruslardan Sindbis virusini ko‘rsatish mumkin. Avlod tarkibiga venesuela, otlarni sharqiy va g‘arbiy amerika ensefaliti kiradi. Alfaviruslarga xos xususiyatlardan biri pantropnostdir. Asosan biologik yo‘l bilan tarqaladi. Havo-tomchi usulida ham tarqaladi.

Togavirular — hayvon viruslari ichida eng mayda qobiqli viruslardir. Virionlari monomorf sferik diametri 70 nm., virionlardir. Nukleokapsidi ikosaedr simmetriyali diametri 40 nm, RNK dan tashqari bitta S oqsili (30-33kD) bor. Nukleokapsidi ikki qavatli lipid membrana bilan o‘ralgan. Lipid membrana ho‘jayin - hujayraning virusspetsifik polipeptidlar tutuvchi plazmatik membranasidan o‘tadi. Virion yuzasidan chiqib turuvchi 10 nm li glikoprotein o‘sintalar bilan qoplangan. Ular 80 ta trimerdan iborat va ularni har biri uchta glikoproteinlarni geterodimerini (E1 va E2) tutadi. Togoviruslarni nukleokapsidi har bir oqsilni 240 ta nusxasiga ega.

Ba’zi viruslarni qobig‘i ikkita emas 3 ta oqsilga ega: E1 (45—53 kD), E2 (53—59 kD) va EZ (10 kD). Kapsid oqsilini hisobiga struktura oqsillarini 20% ketadi.

Virionni qaysi eridan oqsil topilgan bo‘lsa, ularni quyidagicha nomlanadi: alfaviruslarda S-nukleokapsid oqsili, E1, E2, EZ – qobiq oqsillari. Rubivirusni superkapsidi qobig‘ida 2 glikozirlangan E1 (50 kD) va E2(65kD) oqsillar mavjud.

Genom chiziqli bir molekula, birzanjirli o‘lchamlari 9,7 (rubiviruslarda) dan to 11,8 tn (alfaviruslarda) bo‘lgan (+)RNK bir molekula chiziqli, birzanjirli (+)RNK o‘lchamidan 9,7 (rubiviruslar) to 11,8 tn (alfaviruslar). RNK ning 5'-uchida metillangan kep struktura bor. Z'-uchi poliadenillangan. 2/3 5'-oxiri nostruktura oqsillarini kodlantiradi.

Togaviruslarni replikatsiyasi sitoplazmada bo‘ladi. Viruslari har xil hujayra kulturalarida yuqori titrda ko‘payadi. Hujayra kulturalarida virus ravshan ko‘rinadigan SPE qo‘zg‘atadi.

Virus hujayra bilan munosabatda bo‘lganda bиринчи hujayra yuzasidagi fosfolipid retseptor bilan E1 oqsilnini bog‘lanishi kuzatiladi, hujayraga kirgandan so‘ng u hujayrani E2 oqsili bilan bog‘lanadi. Virus nukleokapsidini hujayra sitoplazmasiga kirishi virus qobig‘ini endosomal membrana bilan birlashishi orqali bo‘ladi. Virion RNK sitoplazmaga kirganidan so‘ng ikki qayta translyasiya bo‘ladi. Avval mRNA bo‘lib xizmat qilayotgan genom RNK translyasiyalanib poliprotein hosil qiladi va u keyin 4ta nostruktura oqsilga parchalanadi va ulardan ikkitasi RNK-tobe virus polimerazasini shakllantiradi. Bu ferment to‘lao‘lchamli genom RNK sini negativ nusxasini transkripsiya qiladi va keyingi genom (+)RNK ning sintezida matritsa bo‘lib xizmat qiladi. 2 tur (+)RNK sintezlanadi:

1) to‘lao‘lchamli genom RNKsini hujayrada infeksiya jarayoniini davom etdirish uchun va virion avlodini tashkil qilish uchun;

2) 26S subgenom mRNA ni unga o‘xshash (identichny) ketma- ketlikda 3'-uchli genom RNK(sintezida).

Subgenom RNK ning translyasiyasi natijasida katta miqdorda poliprotein hosil bo‘ladi. U o‘z navbatida individual struktura oqsillarga parchalanadi, hamda nukleokapsid S- oqsili sintezlanadi.

Shunday qilib, genom RNK avval nostruktura virus oqsillarini translyasiya qilishda messenjer RNK bo‘lib xizmat qiladi, undan keyin esa komplementar (-)RNK sintezida matritsa bo‘lib xizmat qiladi. Bu esa o‘z navbatida ikki turdag‘i RNK ni sintezida: yangi genom (+)RNK si va subgenom RNK ning sintezida qatnashadi.

Nukleokapsidi endoplazmatik membrana sitoplazmasida shakllanadi va plazmatik membranaga qarab harakatlanadi va u erda virus glikoprotein peplomerlari to‘plangan uchastkalarda tizilib turishadi.

Oxiri virion kurtaklanib plazmatik mebranada shakllanadi, glikoprotein peplomerlaridan hosil bo‘lgan kiritmalar bilan to‘latilgan plazmatik membranadan nukleokapsid kurtaklanib virion shakllanadi. Virionlar chidamli bo‘lmaydi va dezinfeksilovchi moddalar bilan oson aktivligini yo‘qotadi.

Togaviruslar antigeni.

Alfaviruslar strukturasida 3 ta antigen domeni ajratilgan. Tur spetsifikligini bildiradigan, guruhlarichi va avlodlarichidagi aloqalarini bildiradigan domenlar ajratilgan. Ulardan ikkitasi oqsil qobig‘inig struktura oqsillarida joylashgan, bittasi nukleokapsid oqsili bilan bog‘langan. Qobiqning oqsili va nukleokapsidning oqsillari o‘zaro bir-biri bilan antigenlar orqali bog‘lanmagan Alfaviruslarni aktivligini neytrallash uchun E1 va E2 glikoproteinlar mutassadidir. E1 va E2 glikoproteinlarda to‘rtta va uchta epitoplar aniqlangan (sootvetstvenno).

Virionlari sferasimon 60-70 nm. Nukleokapsidining diametri 30—35 nm ho‘jayin hujayrasi qobig‘i bilan o‘ralgan. Barcha shtammlari kuchsiz temperatura sezgirdir, virus urojayı - hosili 37°Cga qaraganda 35°Cko‘proq. Krasnuxa virusi alfaviruslarga qaraganda sekinlik bilan ko‘payadi: eklips fazasi 10-12 soat gacha boradi, virusni maksimal to‘planishi 30-48 soat. Qizilcha virusi alfaviruslarga qaraganda ancha sekin ko‘payadi: eklips fazasi 10—12 soatga cho‘ziladi, virusni maksimal to‘planishi - 30—48 soat.

Qizilchani struktura oqsillari poliprotein (r110) shaklida translyasiya qilinadi. Keyingi parchalanishi natijasida kapsid oqsili (33 kD) va ikkita glikoprotein E1 (58kD) va E2 (42-47 kD) hosil bo‘ladi.


GA-aktiv va virusni antitelalar bilan neytralash uchun E1 glikoproteinda 3ta epitop aniqlangan. Qizilchada birinchi emlagandan so‘ng uzoq muddatli imunitet hosil bo‘ladi. Cho‘chqa bu virusni rezervuari bo‘lishi aniqlangan.

9.11. Coronaviridae oilasi (Koronaviruslar) (88)


Coronaviridae oilasi ikki avlodni o‘z ichiga oladi:

Soronavirus avlodi (koronaviruslar)

Torovirus avlodi (toroviruslar)



40- rasm. Koronavirus (89)



41-rasm. Koronaviruslar (elektron mikrofotografiya va chizma) (90) Xususiyatlari

Koronaviruslar avlodi sutemizuvchilar va qushlarda respirator kasalliklarni qo‘zg‘atuvchi, enterit, poliserozitlar, miokarditlar, hepatitlar, nefritlar, immunopatologiya kasalliklarini qo‘zg‘atuvchi eng ahamiyatli patogen viruslarni o‘z ichiga oladi. Odamda koronaviruslar boshqa viruslar bilan birgalikda oddiy shamollahsh sindromini qo‘zg‘atadi.

Toroviruslar avlodida ikkita virus bo‘lib, ular otlardan va KRS dan ajratilgan. Keyinchali odamlarda va boshqa hayvon turlaridan ajratildi.

Koronaviruslarga molekulyapHo-genetik, struktupHo-morfologik va serologik xususiyatlari asoslanib bir guruhga biriktirilgan qobiqli viruslarni ko‘plab vakillari kiradi.

Ko‘plab koronaviruslarda yaqqol ko‘rinadigan tropizm hodisasi bor. Ular nafas olish yo‘llarining hujayralariga vaichak traktiga kuchli tropizm bor. Koronaviruslarni vakillari yumaloq shaklda bo‘lib diametri 80—220 nm. Virionlari spiral simmetriyada tuzilgan nukleokapsiddan iborat va glikoprotein qobig‘i mavjud. Ularni ustida esa bir-biridan uzoqroqda turuvchi uzunligi 20 nm lik quyosh tojiga o‘xshash to‘g‘nag‘ichsimon o‘sintalari bor. Ba’zi koronaviruslarda kaltaroq 5 nm uzunlikdagi peplomerlar bor. Koronaviruslar uchta yoki to‘rtta struktura oqsillari bor: nukleokapsid oqsili N; asosiy peplomer glikoproteini S; transmembrana glikoproteinlari M va E. Ba’zi viruslari bulardan

tashqari NE-oqsiliga ega. Toroviruslar ham xuddi shunga o‘xshash oqsillarga ega, ammo ularda E oqsili yo‘q. Torovirus KRS da NE - oqsili bor (M, 65000).

Koronaviruslarda uchta antigen guruhlari bor.

Koronaviruslar vakillarida quyidagi strutura oqsillari aniqlangan. U predstaviteley roda koronavirusov obnarujen sleduyuviye **struktupHe belki**. Glikoprotein S (150—180 kD) virion tashqarisida katta o‘simtalar hosil qiladi. KRS koronaviruslarni (180 kD) S-oqsili.

Virionni etilishi da yoki etilgandan so‘ng hujayra proteazalari bilan S1 va S2 ga parchalanadi, ammo virion peplomerida nokovalent bog‘langan holda bo‘ladi. S oqsil virus qobig‘i bilan hujayra membranasini birlashishiga mutassadidir. S oqsil ko‘pfunktional oqsildir.

M glikoprotein virion tashqarisida qisqa domen hosil qiladi. Virion qobig‘ida kichikroq E oqsil bor (9—12 kD). M va E oqsillar virionni shakllanishida va ularni kurtaklanib hujayradan chiqishida qatnashadi.

Nukleokapsid oqsili N (50—60 kD) genom RNK bilan munosabatda bo‘lib virus nukleokapsidini shakllantiradi. Koronaviruslar hujayra sitoplazmasida ko‘payadilar. Qizvirionlar kasallangandan so‘ng 6-8 soatdan so‘ng paydo bo‘ladilar. Koronaviruslarni tipik turi bo‘lib qushlarni infeksion bronxiti virusi hisoblanadi.



Etiologiya. Koronaviruslar oilasi RNK tutuvchi o‘rtacha kattalikdagи pleomorf viruslarni birlashtiradi. Diametri 80 dan to 220 nm.

Korona viruslar oilasiga odam respirator virusi kiradi. Koronaviruslar tashqi muhitga chidamsiz bo‘ladilar, 56°Cza 10-15 min temperaturada parchalanadi.

Patogenezi yaxshi o‘rganilmagan. Respirator kasalliklar ichida koronaviruslar etiologiyasi bo‘yicha 4,5 do 10% ni tashkil qiladi.

Simptomlari. Bu kasallik symptomlari respiratorHo-sinsitial, paragrippoz viruslar va rino-viruslarnikiga o‘xshaydi, yutganda og‘riq, aksirish, holsizlik, o‘rtacha bosh og‘rishi kuzatiladi. Inkubatsiya davri 2-3 kun. Kasallikni umumiy davom etishi 5-6 kun.

9.12. Paramyxoviridae oilasi (Paramiksoviruslarlar) (91)



Ondrej G. Schäfer 2007

42-rasm. Paramiksovirus (chapda – elektronmikrofotografiyasi vao‘ngda – sxematik ko‘rinishi.) (92)

Paramyxovirus avlodi (paramiksoviruslar).

Morbilliviruslar avlodi (qizamiqqa o‘xshash viruslar).

Pneumovirus avlodi (respiratopHo-sinsitial viruslar).

Xususiyatlari

Oilada ikki kichik sinf va 5ta avlod bor: respiro-, rubula-, morbilli-, pnevmo- va metapnevmoviruslar. Paramiksoviruslar og‘ir odam va hayvon kasalliklarini qo‘zg‘atadi. Ularga qizamiq, parotit, nyukasl va boshqa virus kasalliklari kiradi. Oilada ikki kichik oila va beshta avlod mavjud.

Paramiksoviruslarni strukturasi va xususiyatlari model viruslarda – nyukasl kasalligi viruslarida, 1 paragripp virusida (Senday virusi) va maymunlar paragrippi ((SV5))da.

Virionlari spiral simmetriyalı nukleokapsid va ulardagi 8-20 nm uzunlikdagi peplomer o‘sintalardan iborat. Virionlari pleomorf bo‘lib diametri 100-300 nm sferasimon yoki ovalsimondir. Nukleokapsidi ipsimon shakllilarining uzunligi 600—800 nm, diametri 13 nm (pnevmoviruslar) — 18 nm. Bu viruslar sitoplazmada ko‘payadi plazmatik membrana orqali kurtaklanadi. Paramiksoviruslarni virionlari 70% oqsil, 20—25% — lipid va 6% uglevoddan iborat. O‘rtacha 70% viriondagi uglevodlar glikoprotein va 30% — glikolipid holida. Lipidlari ikki qavatli membranani markaziy qismi virus memranasini tashkil etadi va va struktura karkasi rolini bajaradi. Oqsillari ikki qavatli lipid qavatni tashqi va ichki tomonlarida joylashgan.

Virionning lipoprotein membranasi o‘zgargan bo‘lib, hujayra oqsillari to‘la virusspetsifik oqsillar bilan almashtirilgandir.

Genomi bir molekula chiziqli negativ qutbli bir zanjirli RNK o‘lchami 15-16 tn. Ko‘pgina genlarinig mahsulotlari virionning struktura oqsillaridir. Paramiksoviruslar tarkibida 7 ta oqsil topilgan NP yoki N), P, M, F, L va HN (yoki N yoki G).

Paramiksoviruslar va morbilliviruslar 6 tadan gen, rubulaviruslarda - 7, pnevmoviruslarda - 10 gen ga ega. Ammo pnevmoviruslarni 10 geni 10 oqsilni kodlantiradi, boshqa viruslarni 6 yoki 7 geni esa 10-12 oqsilni kodlantiradi. Ko‘p genlarni mahsulotlari virionning struktura oqsilidir. Peplomerlarda 2 ta glikoprtein: yopishtirish oqsili (F-oqsil) va gemagglyutinin-neyraminidaza (HN-oqsil). Paramiksivirularni ko‘payishi sitoplazmada ro‘y beradi. Virionlari HN-oqsil yordamida hujayrani sialoglikoprotein yoki glikolipid retseptorlariga yopishadi. So‘ngra F-oqsil virus qobig‘i bilan hujayrani plazmatik mebranasini biriktiradi. Natijada nukleokapsid u bilan birikkan 3ta oqsil bilan (N, R i L) hujayrada bo‘lib qoladi, so‘ngra virionning RNK-tobe RNK polimerazasi yordamida (transkriptaza) transkripsiya jarayoni boshlanadi. Genomda transkribsiya bo‘ladi va natijada bitta promotordan ketma-ket uzuq-uzuq sintez natijasida 6 —10 diskretn(neprotsessirovannx) mRNK hosil bo‘ladi. Genom RNK (+RNK) sining to‘la o‘lchamli kopiysi ham sintezlanadi va genom RNK (-

RNK)sining sintezi uchun matritsa bo‘lib xizmat qiladi. Bu jarayonlar asosan transkripsiya darajasida nazorat qilinadi.

Boshqa bitta oqsilni kodlantiradigan genlardan farqli o‘laroq, paramiksoviruslarning kichiq oilasi vakillarini R-geni 2-5 ta har xil oqsillarini kodlantiradi.

Yangi sintezlangan N-oqsil bilan va tpHskriptaza bog‘langan genom RNK lari nukleokapsidlarni shakllantiradi. Virionni etilishiga quyidagilar kiradi:

1) hujayra plazmatik membranasining o‘zgargan uchastkalariga virus glikoproteinlari kiritiladi;

2) matritsa oqsilini (M)ni va boshqa glikozilirlanmagan oqsillarni o‘zgargan hujayra mebranasi oqsili bilan bog‘lanadi;

3) nukleokapsid subbirliklarini M-oqsilga joylashtirilishi (размещение нуклеокапсидных под единиц под M-белком);

4) etilgan virionlarni shakllanishi va kurtaklanish yo‘lida erkinlikga chiqishi.

RS-virus strukturasida 9 yoki 10 ta polipeptidlar aniqlangan, ulardan ikkitasi G i F glikozirlangan va virionni ustida joylashgan. F-oqsili ikkita subbirlikdan tuzilgan va qo‘shilish funsiyasini bajaradi, G-oqsili esa yopishib olish funsiyasini bajaradi.

Odamlarda kasallik qo‘zg‘atuchi viruslar

Paramyxoviruslar: paragripp viruslarini 1, 2, 3 va 4 tiplari, tepki virusi.

Morbilliviruslar: qizamiq virusi.

Pneumovirus: respirator-sinsitial virus

Hayvonlarda kasallik qo‘zg‘atuvchi viruslar

Paramyxoviruslar: nyukasl kasalligi virusi, paragripp virusini 1 tipi (sichqonlarni Senday virusi), 3 paragripp virusi (yirik shohli mollar), yirik shohli mollar virusining boshqa paramiksoviruslari, qushlar paramiksoviruslari.


Morbilliviruslar: qo‘y va echkilarda kasallik qo‘zg‘atuvchilari va h. Viruslar.

Pneumoviruslar: buqalar respirator-sinsitial virusi, sichqon pnevmoniysi virusi.


Chidamliligi. Virusni yuqumliligi, immunogenligi, gemaggltinin aktivligi 56°C 5 min - 6 s. orasida. 37°C da bu o‘zgarishlar bipHecha soatda, kunda, 20 i 8°Cda oylar va yillar bo‘lishi mumkin. Virus pH 2-10 chidamli, ammo ultratovush ta’sirida esa tezda parchalanadi, past temperaturaga chidamli, muzlatilgan holatda virus yillar bo‘yi saqlanishi mumkin. Formalin (1-2%), natriy gidrooksidi (1-2%), sovunli kreol (1%-ny) vai fenolada (3-4%) tezda nobud bo‘ladi. Kunduzgi yorug‘likda 4 soatda yuqumliligi tezda pasayadi.

Virusning lokalizatsiyasi. Virus ilikda va bosh miyada, muskullarda yo‘g‘on va ingichka ichaklarda va har hil ajratilgan moddalarda saqlanadi. Kasallik avj olgan vaqtida virus havo orqali ham tarqaladi.

9.13. Rhabdoviridae oilasi (Rabdosiviruslar) (93)



43-rasm. Lyssavirusning tuzilishi (94)



44-rasm. *Vesiculovirus avlodi* (vezikulyar stomatit virusi va unga o‘xshash viruslar) (95)

Vesiculovirus avlodi (vezikulyar stomatit virusi va unga o‘xshash viruslar)

Lyssavirus avlodi (qutirish virusi va unga o‘xshash viruslar).

(nomsiz) avlodi (o‘simliklarning rabdoviruslar guruhi).

Ko‘pgina sутемизувчilar, qushlar, baliqlar, bo‘g‘imoyoqlilar va hokazo boqa birorta guruhga kiritilmagan viruslar.

Xususiyatlari

Oilaga 75 tacha umurtqali, umurtqasiz hayvonlarlar va o‘simliklar viruslari kiradi. Bu viruslar odam, uy hayvonlari va donli o‘simliklarni kasallantiradi. Umurtqalilarni kasallantiradigan viruslar o‘qsimon, o‘simlik viruslari batsillasimon shaklli bo‘ladilar. Virus zarralarini uzunligi 130dan to 380 nm gacha, eni 50 dan to 95 nm gacha bo‘ladi. Tashqi qobig‘ida 5-10 nm li o‘simtalari bor. Nukleokapsidi spiralsimon simmetriyada tuzilgan, diametri 50 nm. Hamma o‘rganilgan viruslarni 5 ta oqsili bor. Vezikulyar stomatit virusining (umurtqalilar

rabdovirusi oqsillari L (katta), G (glikoprotein), N(nukleokapsid), NS(nostruktura) va M (matriks) deb ataladi.

Genomi bir molekula birzanjirli RNK bo‘lib, m.m.si 3,5 - 4,5 megadalton. RNK-genom bipHecha tur i-RNK larga o‘lchami protein strukturasiga mos holda transkriptsiyalanadi.

Nukleokapsid tarkibida RNK-mute RNK-polimeraza bor va nukleokapsid yuqumlilik xususiyatiga ega. Reproduksiya jarayonida morfologiyasi bilan farqlanadigan interferensiya xususiyatlari defekt T-zarrachalar hosil bo‘ladi.

Rabdoviruslar 2 guruhga bo‘linadi:

- 1) Umurtqalilar va umurtqasizlar rabdoviruslari;**
- 2) YUksak o‘simliklar va umurtqasizlar rabdoviruslari.**

1) Umurtqalilar va umurtqasizlar rabdoviruslariga *Vesiculovirus* va *Lyssavirus avlodlari*, hamda qator avlodlarga bo‘linmagan umurtqali va umurtqasiz hayvonlar viruslari kiradi.

Vesiculovirus avlodi

Tipik turi - vezikulyar stomatit virusi, Indiana serotipi kiradi. Virionlari o‘qsimon 70X170 nm. Umurqali hayvonlarda va bo‘g‘imoyoqlilarda ko‘payadi. Avlod tarkibiga Argentina, Braziliya, Kokal va Nyu-Djersi, Isfaxon virusi, Piri va Chandipura vezikulyar stomatiti viruslari kiradi. Bu viruslar serologik yaqin viruslardir..

Chandipura (Indiya, Nigeriya) va Piri (Braziliya) viruslari odam uchun patogendir. Vezikulyar stomatit virusi tabiiy holda otlar va xachirlarda asosan kasallik qo‘zg‘atsa ham, ammo ular odam uchun ham yuqumlidir.

Lyssavirus avlodi

Tipik turi – ko‘cha (da uchraydigan) qutirish virusidir. Morfologiyasi Vezikula virusiga o‘xshaydi, ammo ularda uchramaydigan ikki qo‘sishimcha minor oqsili bor. Ko‘payishi umurtqalilarda va bo‘g‘imoyoqlilarda bo‘ladi. Viruslar orasida antigen bog‘liqligi. Tarkibiga Duvenxeydt (odamdan ajratilgan), Kotonkan (Culicoides dan ajratilgan)viruslar kiradi. Lagos ko‘rshapalaklari virusi, Mokola (odam va dalasichqonidan ajratilgan), Obodian (chivinlardan ajratilgan) viruslar ham kiradi.

Avlod tarkibiga kirmagan viruslar: Forellar gemorragik septitsemyasi, Kamese, KepH-Kanon, Kyuraliba, Kimberli, Klamat, Kununura, Kvatta, Marko, Mossuril, Maunt Ilgon ko‘rshapalaklari, moviy karplar rabdoviruslari, ilonlar rabdovirusi, va hokazolar.

2)YUksak o‘simliklar va umurtqasizlar rabdoviruslari.

Bu guruhga 50 ga yaqin viruslar kiradi. Virionlari batsillasimon shaklda. Zarrachani eni 50-80 pm, uzunligi 200-300 nm. Xona temperaturasida tezda aktivligini yo‘qotadi. Hasharotlar (shiralarda) va o‘simliklarda ko‘payadi. Bu

guruhgaga kira digan o'simlik viruslari: kartoshkani sariq pakana virusi, amerika bug'doyining yo'l-yo'l mozaikasi virusi, virus polosatoy mozaiki amerikanskoy pshenits, rus kuzgi bug'doyi mozaikasi virusi, arpani sariq yo'l-yo'l sarg'ayishi virusi, arpa mozaikasi virusi va boshqalar.

Qutirish kasalligi

Qutirish (lat. rabies) – yuqumli kasallik bo'lib viruslar qo'zg'atadi. Markaziy nerv sistemasini zararlaydi o'limga olib keladi. Odamlar asosan tulki, it, mushuk va boshqa hayvonlar tishlaganda, tipHaganda, so'laklaridan yuqadi. Inkubatsiya davri 10 kundan bir yilgacha. Qutirish – Markaziy asab sistemasini o'tkir yuqumli kasalligidir. Bu kasallik barcha suteinizuvchilarga yuqadi va yuqish biologik suyuqliklar orqali, asosan so'lak orqali bo'ladi.

Asosan hayvonlarni tishlaganida va kam darajada qutirish virusi bor ovqatga kasal hayvonlarini go'shtini ishlatganda va kasallangan to'qimadan transplantatsiya qilinganda ro'y beradi.


Etiologiyasi. Qutirish kasalligi virusi o'qsimon shaklli bo'lib, tashqi qavat bilan o'ralgan, diametri 75-80 nm. Genomi birzanjirli RNK. Lyssaviruslar avlodiga kirishini serologik usullarda aniqlanadi. Qutirish kasalligini qo'zg'atuvchisini antirabik zardoblar bilan neytrallanadi. Tashqi qobig'ini bigizsimon glikoproteidi o'simtasi xolinoretseptori bilan bog'lanadi va virusni neyropatogen harakatini ta'minlaydi va tormozlantiruvchi gemaggltinatsiya va antitelalarni neytralizatsiyasini amalga oshiradi.

Epidemiologiyasi. Qutirish kasalligi Avstraliya, Okeaniya va Antarktidadan tashqari barcha erlarda tarqalgan. Kasallikni asosiy rezervuari yovvoyi hayvonlardir.

9.14. Filoviridae oilasi (Filoviruslar) (96)



(a)



(b)

45-rasm Ebola virusi (Filoviridae oilasiga kiradi).

(a –tashqi ko‘rinishi, b – virionni tuzilishi,), beshta turi bor: Zair, Sudan, Kot-d'Ivuar, Bundibudjio va Reston turlari. (97)

Ebola virusi Filoviridae oilasiga(filovirusov) kiradi va beshta har xil turlari bor: Zair, Sudan, Kot-d'Ivuar, Bundibudjio i Reston.

Xususiyatlari

Filoviruslar oilasida ikkita avlod bor va ular hozirgacha nomlangan emas.

Birinchi avlodi Marburg va unga o‘xshash viruslarni va ikkinchi avlodi

Ebola va unga o‘xshash viruslarni o‘z ichiga oladi. Filoviruslar, zoonoz viruslarga kiradi va odamlarda og‘ir kasalliklarni qo‘zg‘atadi va ularda odamlarni ko‘plab nobud bo‘lishlari kuzatiladi. Ular ayrim o‘ta xatarli virus kasalliklariga kiradi. Ammo ularni ekologik joylari va tabiiy ho‘jayin doiralari ma’lum emas. **Filoviruslar** hamma (-)RNKli segmentlarga bo‘linmagan genomli viruslardek umumiy tavsiqga egalar.

Genomi bi tartibda va bir xil tashkil bo‘lgan; virion-RNK- polimerazaga ega; nukleokapsidi spiralsimon; mRNK ning transkripsiysi bitta promotordan ketma-ket uzuq-uzuq bo‘lib sintezlanadi; virionning etilishi nukleokapsidni plazmatik membranasi orqali virionlarni kurtaklanib virus glikoprotein peplomerlari to‘plangan joylardan kurtaklanadi.

Filoviruslar virion pleomorfligi bilan ajralib turadi. Ular ipsimon shaklli, ba’zan shoxlangan, yoki u-o‘xshash, yoki «6»-o‘xshash yoki xalqasimon shakllarga ega. Virionlarining diametri 80 nm va asosan o‘zgarib turishi uzunligi hisobiga bo‘ladi (14 000 nm gacha), ammo ~800 nm li (Marburg) va 1000 nm (Ebola) uzunlikdagi bitta nukleokapsidga ega. Virionning uzunligi yuqumlilik bilan bog‘liq bo‘ladi (korellyasiyalanadi). Marburg virusining yuqumlilik maksimum cho‘qqisi virionalarni uzunligi 790 nm bo‘lganda, Ebola virusiniki esa -970 nm bo‘lganda ro‘y beradi. Virionlarni har xil hujayra ekmalarida

ko‘paytirilganda ularning uzunliklari 860 nm (Marburg virusiniki) va 1200 nm (Ebola virusiniki).

Virionlar spiral simmetriyadagi ribonukleoproteinga ega, hujayra plazmatik membranasidan kelib chiqadigan qobiq bilan tig‘iz birkadigan murakkab nukleokapsid, uzunligi 10 nmli peplomerlar bilan qoplangan. Diametri 50nmli nukleokapsid va uning ichidagi 20 nmli o‘qli boshliqda joylashadi, spiral davri 5 nm ga ega. Virioning suzish zichligi 1,14gr/ml. Virion bir molekula chiziqlik bir zanjirlik (—) RNK bo‘lib, o‘lchami 19,1 tn, u yuqumlikga ega bo‘lmagan va u RNK genomlik negativ qutublik viruslarning eng yirigidir.

Filoviruslar genomi 7ta oqsil sintezini kodlantiradi.

Filoviruslar hujayra ekmalarida yaxshi ko‘payadi. Masalan Veroda juda tez sitoplazmatik kiritma tanachalar hosil qilib sitopatik o‘zgarishlar qo‘zg‘atadi. Transkripsiya bir promoter saytdan boshlanadi, u virus genomini 3'-oxirida joylashgan. Natijada monotsiston mRNK hosil bo‘ladi, ya’ni har bir oqsilga ayirim mRNAK mos keladi. Natijada mRNAK promoterga yaqinroq joylashgan genlar bilan kodlantiriladi, uzoqdagilar esa kamroq kodlantiriladi. Genlarni ekspressiyasi natijasida ko‘plab struktura oqsillari hosil bo‘ladi. Ulardan nukleoproteinlar va kamroq miqdorda RNK-polimeraza oqsili sintezlanadi. Virioni etilishi nukleokapsidni kurtaklanishi bilan glikoprotein peplomerlari yig‘ilgan joyda sodir bo‘ladi.

Ebola virusi

Ebola virusi eng qo‘rinchli virus bo‘lib u bilan kasallanganlarni 90 foyizi nobud bo‘ladi. Ebolani beshta turi tarqalgan: Zair, Sudan, Kot-d'Ivuar, Bundibudjio va Reston. Katta epidemiyalar patogenligi yuqori bo‘lgan Zair, Sudan va Bundibudjio bilan bog‘liqdir. Bu yangi ochilgani tur bo‘lib, 2007 yildagi epidemiya shu virus turi bilan bog‘liq.

Bu kasallik gemorragik bezggak kasalliklariga kiradi, unda ichki va tashqi qon ketishlar bo‘ladi, hamda holsizlanish, mushak va bosh og‘rish kabi simptomlar kuzatiladi. So‘ngra quşish, diareya, toshmalar paydo bo‘ladi, buyrak va jigar funksyalari buzilishi kuzatiladi. Letallik 53-90 foyizni tashkil qiladi. Ebola bezgagiga qarshi samarali davo hozircha yo‘q.

Ebolani tabiiy rezervuarlari Afrikaring nam o‘rmonlarida, Tinch okeanning g‘arbiy qismi rayonlarida deb hisoblanadi. Ammo kasallikni ildizi qaerdaligi hozircha mavxumligicha qolmoqda. Ebola Kongo respublikasi va shunga yaqin xududlarda shimpanze, gorilla va antilopalarni murdalaridan ajratilgan. Ammo bu hayvonlar ham asosiy rezervuar hisoblanmaydi, balki kasallatirish jarayonidagi zanjipHi bir halqasi xolos, deb xisoblashmoqda. Ba’zi fikrlarga qaraganda ko‘rshapalaklar tropika o‘rmonlarida kasallikni manbai bo‘lishi mumkin, chunki ular laboratoriya sharoitida kasallantirilganda ular tirik qolishdi. Bu hozircha gipoteza xolos. Odam kasallardan ajratiladigan biologik suyuqliklardan (qon, organizmdan ajralgan har xil ajratmalar) kontakt vaqtida kasallikni yuqtirishi mumkin. Yana boshqa manba bu kasallikni ovqatlardan yuqishidir. Fekaliylardagi Ebola virusi qondagiga qaraganda o‘ta havfli hisoblanadi.


Marburg gemorragik bezgagi.

Bu kasallik ham og‘ir kasalliklarga kirib uning virusi ham Ebola virusi guruhiga kiradi. Bu virusda ham letallik juda katta Elektron mikroskop tagida virusni har xil shakllarini kuzatish mumkin: uzunchoq ip, ba’zan uni har xil ko‘rinishda cho‘zilgan shaklariga qarab virusni buralgan shakllariga qarab uni Filoviridae oilasiga kiritilgan. Viruslar har xil bo‘lsa ham kasallikni klinik belgilari bir-biriga o‘xshashdir. Kasallikga qarshi vaksina ham, maxsus davolash ham yo‘q. Hozircha bu kasallikni (Marburg va Ebola viruslarini) rezervuarini topish uchun ekologik tadqiqotdar o‘tkazilmoqda.


Inkubatsiya davri 3 - 9 kun.

Sezgirlingi. Hamma yoshdagi odamlar bu kasallikga sezgirdir.

9.15. Orthomyxoviridae oilasi (Ortomiksoviruslar) (98)



46-rasm. Gripp virusining sxemasi (A va V) (99)



47-rasm. A gripp virusi(elektronmikrofotografiya) (100)

Oilaning nomi **ortomiksoviruslar** (ot grech. *orthos* – pravilny (to‘g‘ri), *myxo* – sliz (shilimshiq)

Ortomiksoviruslar 4 avlodga ega:

A gripp virusi, V va S va togotoviruslar.

Gripp virusi eng havfli viruslar qatoriga kirib vaqtı-vaqtı bilan mavsumga qarab Er sharning ba’zi xududlarida paydo bo‘ladi va u juda tezlik bilan tarqalib va bir mamlakat xududidan xar xil yo‘llar bilan (havo, temir yo‘l, suv yo‘llari va h.) orqali boshqa mamlakat xududlariga ham tarqaladi va pandemiyalarga sabab bo‘ladi. Masalan, 2009 yil Meksika poytaxtida yangi respirator kasalligi - "cho‘chqa gripi" tarqalgan edi. Tez kunlar ichida AQSh, Kanada, Braziliya, YAngi Zelandiya, Isroil, Turkiya, Daniya, Shveysariya, Rossiya, Ukraina va Evropaning boshqa qator mamlakatlarida ham ushbu kasallikka chalinish holatlari aniqlangan. U ba’zi hollarda odamlar o‘limiga sabab bo‘ldi. Shu boisdan Jahon sog‘lijni saqlash tashkiloti ushbu kasallikni "sog‘lijni saqlashga xalqaro darajada xavf soladigan" gripp turi deb e’lon qildi.

Chunki faqat respiratorli yuqumli kasalliklarni qo‘zg‘atuvchilarning o‘zi bir necha yuztaga etadi. H_1N_1 gripining bu shtammi ham shular jumlasidandir. Xorijlik mutaxassislar tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, bu navbatdagi **virus - mutant** bo‘lib, u tarkibida **parranda, cho‘chqa va inson**

gripi genlari bo‘lgan **gibrild** hisoblanadi. Yangi virusni yuqtirgan odamda oddiy gripga o‘xshash tashqi belgilari paydo bo‘lishi mumkin. Ammo u qator hollarda nihoyatda og‘ir asoratlar, shu jumladan, zaharli pnevmoniya sabab bo‘lishi mumkin. Ushbu kasallik havo-tomchi orqali, ya’ni yo‘talganda, aksirganda, maishiy aloqa yo‘li, masalan, umumiylidish va gigI.E.Na vositalaridan foydalanilganda yuqadi.

Gripp (Grippe). Sinonimlari: ispanka, epidemik virusli gripp.


Qo‘zg‘atuvchisi - bakterial filtrlardan o‘tuvchi virus. **1918-1919** yillarda katta epidemiyalarga sabab bo‘lgan. Gripp virusi qo‘zg‘atgan kasallik Amerikada boshlanib so‘ngra Evropaga, Osiyoga va butun dunyoga tarqalgan. Bu virus epidemiyasi davrida butun dunyo bo‘yicha 500 million odam kasallanib, ularning 20 milliondan ortig‘i halok bo‘lgan.

1957 yilda gripning yangi epidemiyasi Janubi-sharqiy Osiyoda boshlanib, (“osiyo gripi”) tezda Evropaga etib boradi va u shu yilning kuzigacha butun dunyoni egallagan. **1959** va **1962** yillarda gripp epidemiyasi qaytariladi. Bu epidemiyalar er sharining katta qismida tarqalgani uchun uni **pandemiya** deb ataladi (Smorodinsev, 1965).

Gripp virusining A tipi 1933 yili U.Smit, K.Endryus va P.Leydlouar, V tipi 1940 yilda T. Frensis va T.Medjiyalar, S tipi 1947 yilda R.Taylor tomonidan aniqlangan.


Gripp bir necha o‘n yilda tezgina tarqalib pandemiyalarni keltirib chiqarishi bilan birga milionlab odamlarning hayotiga zomin bo‘ladi. Birinchi gripp haqidagi hujjatlarga asoslangan xabarlar 1580 yilga taalluqli bo‘lib, kasallik Xitoy va Rossiya orqali Afrikaga o‘tib, undan Evropaga etib kelgan va ularning aholisini sezilarli darajada qisqartirgan. XX asrda bu virus ta’sirida uchta pandemiya bo‘lib o‘tgan: 1918-19 y., 1957 y. va 1968 yillar. Buning eng havfisi “*ispanka*” bo‘lib, 1918-1919 yillarda 50-100 million kishining hayotiga zomin bo‘lgan. Bu kasallik hozirgi kunda Er sharining barcha hududlariga tarqalibgina qolmasdan, Arktika kengliklari va Tinch okeani orollariga ham etib borgan.

Gripp virusining “cho‘chqa”, ”odam” va “parranda” shtammlarining genetik hosilasi N₁N₁ shtammidir (48-rasm).



48-rasm. Cho‘chqa organizmida A/N₁N₁ shtammining hosil bo‘lishi

H_1N_1 gripi Kanada va Turkiyada yuzlab odamlarni kasallantirdi va bugungi kunda Daniya, Shvetsariya, Ukraina va Rossiyaga ham etib keldi. Rossiyada ushbu virus tufayli ko‘plab odamlarning kasallanishi kuzatildi. Butun dunyo sog‘lijni saqlash komitetining 2009 yil avgust oyi hisobotiga asosan bu kasallikning tarqalishi quyidagi xaritada ko‘rsatilgan (49-rasm).



49-rasm. 2009 yilda H_1N_1 gripi bilan zararlangan mamlakatlar xaritasi (qizil rang - virus tarqalgan hududlar)

Masalan, **1918 yilda “ispanka” deb nomlangan gripning pandemiyasi bir chekkadan odamlarni yalpi kasallantira boshladi**. Bemorlarda kislorod etishmaslik alomatlari kuzatilib, o‘pkaning xavfli shamollahshi paydo bo‘ldi va bir yarim yil ichida dunyoning barcha davlatlariga tarqaldi. Milliarddan ko‘proq aholi bu virusdan kasallandi. Kasallik natijasida 20 milliondan ortiq aholi nobud bo‘ldi. To‘rt yil davom etgan birinchi jahon urushida ham buncha ko‘p odam o‘lmagan edi. Gripp virusi natijasida o‘lim bilan tugashi ancha kam deb hisoblanadi, ammo gripp bilan kasallanganda o‘pka va yurak qon-tomir kasalliklari sababli o‘lim ko‘payadi. Gripp bilan kasallanmaganda bunday bemorlar uzoq muddat yashashlari mumkin edi. Bu xavfli va makkor virus bilan bir necha yillardan buyon kurash olib boriladi. Ammo uning ko‘p sirlari hamon yashirinligicha qolmoqda. Vaksinatsiya kasallikni bir yarim - ikki barobarga kamaytirdi. Ba’zi yillari esa uning samaradorligi nolga aylandi. Orttirilgan immunitet keyingi gripp epidemiyalaridan qutqara olmadi. Virus qaerdan keladi va epidemiyalar orasidagi muddatda u qaerda berkinib yotadi? Nima sababdan har gal virus o‘z xususiyatini o‘zgartiradi va odam immunologik to‘sиг‘ini chetlab o‘tadi? Bu muammoning echimi zamonaviy virusologiyaning kun tartibidan

olingen emas. Har safar virus o‘z “kiyimini” o‘zgartiradi, yangi virus tipi yangi virus epidemiyasini qo‘zg‘atadi.

2. Gripp virusining viruslar klassifikatsiyasidagi o‘pHi

V.M Jdanovning “Evolysiya virusov” asarida viruslarni quyidagi “oddiydan – murakkabga” prinsipi asosida tuzilgan (qavs ichida tartib raqamlari keltirilgan) viruslarni evolyusion nuqtai nazarda joylashtirilgan holda berilgan klassifikatsiyasida gripp virusini Orthomiksoviridae oilasiga kiritgan U RNK tutuvchi viruslarning qobiqlilar guruhini, genomi fragmentlardan iborat negativ genomilari qatoridan o‘rin olgan. Jdanov tomonidan tuzilgan viruslar klassifikatsiyasi jadvalda u 34 o‘rinni egallagan.

3.Gripp virusining molekulyar tuzilishi va shtammlari

Virusning tuzilishiga qaraydigan bo‘lsak, ularni o‘rganish elektron mikroskoplardagina amalga oshiriladi. 1939 yilda A.V.Arden va G. Ruskalar birinchi marta viruslarni elektron mikroskopda o‘rgandilar. SHu vaqtadan boshlab viruslarning morfologiyasi haqida aniq ma’lumotlar olina boshlandi. Jumladan, gripp virusini elektron mikroskopda o‘rganilib uni murakkab viruslar guruhiga kirishi aniqlandi. Ularning nozik strukturalarini o‘rganish S.Brenner va D.XopHning viruslarni negativ kontrastlab bo‘yash usulini qo‘llashdan boshlandi va viruslarning struktura elementlarini (subbirliklarini) o‘rganish imkonini tug‘ildi.


Gripp virusining virioni spiral simmetriya asosida tuzilgan bo‘lib, **A** va **S** tiplarining o‘lchamlari 80-120 nm, **V** tipiniki esa 90-110 nm (50-rasm, A). **Sxematik ko‘rinishi, uning molekulyar tuzilishi va boshqa rasmlar Filds va Naypning taxriri ostida chop etilgan “Virusologiya” kitobida hamda intepHet saytlarida batafsil yoritilgan (101, 102)**

Virionning markazida oqsilga o‘ralgan bir zanjirli RNK (8 fragmentdan iborat) bor (50-rasm, 4). Bu virionning eng stabil qismi bo‘lib, u virus tipiga qarab doimo bir xildir. YUqorida aytilgandek, 3 ta tip gripp virusi mavjud – A, V va S. Bulardan pandemiyalarga sabab bo‘ladigani va eng xavflisi A tipidir. V tipi kam, S tipi esa undan ham kam uchraydi. Demak, asosiy kasallikda rol o‘ynaydigani A tipli gripp virusidir. Virusning markazidagi nukleotid qismi - o‘zagi o‘ta stabil bo‘lishiga qaramay, uning ikkita oqsil – **gemaglyutinin va neyramnidaza** (50-rasm, 1, 2) tutuvchi tashqi qavati o‘ta o‘zgaruvchandir. SHu ikki oqsili bilan odam organizmi uchrashadi va unga qarshi immunitet hosil qiladi. Ammo bu tashqi qavat oqsillari o‘ta tezlikda o‘zgarib turadi.

Nukleokapsidi spiralsimon buralgan diametri 7 nm. Uzunligi 50-130 nm, 8 fragmentdan (qismidan) iborat. Ular ichki membrana (matriks) bilan o‘ralgan bo‘lib, virion o‘zagini tashkil qiladi. Tashqi lipid qobig‘i (4-rasm, 3) ustki glikoprteid - gemagglyutinin trimerlaridan va neyramnidaza tetramerlaridan tuzilgan. Gemagglyutinin molekulalarining uzunligi 14 nm, diametri 4 nm. Neyramnidaza molekulalarining boshchasining o‘lchami 4 x 8,5 va poyasining o‘lchami 10 x 4 nm. Gripp virusining genomi bir zanjirli RNK ning 8 segmentidan tuzilgan va o‘lchamlari: RB₁ – 2341 nukleotiddan, RV₂ – 2341, RA

– 2233. NA – 1778, NP – 1565, NA – 1413, M – 1027 va NS – 890 nukleotidlardan tuzilgan. Virusning tiplariga qarab nukleotidlarning soni va molekulyar massalari har xil bo‘ladi. A va V tiplariniki keskin farq qiladi. S tipi 7 segment RNK dan iborat, ularda neyramnidaza geni uchramaydi. Sanab o‘tilgan oqsillar quyidagi molekulyar massaga ega: 96000 (RV₁), 87000 (RV₂), 85000 (RA), 50000-60000 (NR), 48000-63000 (NA); gemoaglyutininning subbirliklari (qavs ichida uglevodlarning qo‘sishimcha molekulyar massalari ko‘rsatilgan)- 36000 (11500) va 27000 (1300). Ikkita gen ikkitadan oqsilni kodlaydi: M₁ (27000) va M₂ (15000), NS₁ (25000) va NS₂ (12000). Tabiiyki, har xil viruslarda bu kattalik o‘zgarib turadi. SHunday qilib RNKning 8 fragmenti 10 ta oqsilning sintezini kodlaydi (V.M.Jdanov, 1990) (18). Gripp virusini **1933** yilda ajratib olinganda unga N_oN₁ (gemagglyutinin N_o, neyramnidaza N₁) simvoli bilan belgilandi (49 va 50-rasmlar (A).

1947 yildagi gripp epidemiyasiga virusning yangi varianti N₁N₁ sababchi bo‘ldi, neyramnidaza avvalgidek qoldi, ammo uning gemagglyutininini o‘zgardi. 1957 yilgi “osiyo” pandemiyasida virusning ikkala oqsili o‘zgardi – uning formulasi N₂N₂. Gripp virusining oqsili – antigen tuzilishi vaqtı-vaqtı bilan o‘zgarib turadi. Ularning A₁, A₂, B va S tiplari ma’lum. JSST tasnifiga binoan A viruslar gemagglyutininini bo‘yicha 13 ta (N₁-N₁₃) va neyramnidazasiga ko‘ra 10 ta (N₁-N₁₀) kenja tiplarga bo‘linadi. SHulardan odamlarda kasallik qo‘g‘atuvchi A virus tarkibiga uchta gemagglyutinin (N₁, N₂ va N₃) va ikkita neyramnidaza (N₁ va N₂) kiradi. Gripp V va S tiplarining antigen strukturalari deyarli o‘zgarmaydi (Muhammedov va boshqalar, 2002).



50-rasm. Har xil viruslarning (taqqoslash uchun) elektron mikrofotografiyasi:
A - gripp virusi; B - kartoshka X-virusi; V - bakteriofag T4; G - karonavirus;

Gripning bu o‘zgargan oqsillari qaerdan keladi? degan savolga hozirgacha aniq javob yo‘q. Taxminlar bor, xolos.

Gripp virusi faqat odamlarni kasallantirib qolmasdan, hayvonlarni ham chetlab o‘tmaydi. Virus bиринчи hayvonlarda aniqlangan edi. 1932 yili cho‘chqalardan odam virusiga o‘xshash virus ajratilgan edi. Keyinchalik cho‘chqa, it, ot, buzoq singari ko‘plab uy va yovvoyi hayvonlar hamda parrandalardan gripp virusi ajratildi. Masalan, **1968 yili “gonkong”** gripi paydo bo‘ldi. Undan 4-5 yil ilgari esa ikkita gripp virusi - Ukrainada o‘rdaklardan, AQSh da otlardan ajratildi.

Shunday qilib, virusning odam va hayvonlar orasida sirkulyasiya qilishi aniqlandi va shunga asoslanib, har bir yangi virus bu hayvon va odam viruslarining rekombinantlari (o‘zaro chatishish)dir va rekombinatsiya odamdan tashqarida pandemiyalar orasidagi muddatda tabiatda qaerdadir sodir bo‘ladi va bu virus yangi “kiyimga” o‘ralib qaytadi. Endi virus tashqi qavati yangi xususiyatlarga ega bo‘lib, odam immun sistemasidan osonlikcha o‘ta oladi. Qachon virusdan qutulamiz? degan savolga har holda yaqin orada emas, deb javob berish hozircha o‘rinlidir. Javobning ijobiyligi bo‘lishi virusning tashqi qavatidagi oqsillarini qanday o‘zgartirishi va pandemiyalar oralig‘ida virus

qaerga “sho‘ng‘ib” yangi xususiyatlar bilan qaytib kelishi sabablarining aniqlanishiga bog‘liq.

1977 yili 1957 yildan so‘ng yo‘qolib ketgan N₁N₁ virusi **1977** yilda 20 yildan so‘ng yana paydo bo‘ldi. Nega u 20 yilga yo‘qolib ketdi va yana qaytadan paydo bo‘ldi? Ehtimol, u hayvonlarda saqlanib va ular orasida sirkulyasiya qilib yurgandir yoki yana rekombinatsiya asosida yangi virus sintezlangandir.

Gripp viruslari tovuq embrionining xoriallantois qobig‘ida va maymunlarning buyrak to‘qimalarida ko‘paytiriladi. A tipidagi gripp viruslari ikki kichik tiplarga bo‘linadi. Gripp virusining barcha tiplariga xos xususiyat – ularning o‘zgaruvchanligidir, ayniqsa, epidemiya vaqtida yangi shtammlari paydo bo‘ladi. Virusning adsorbsiyalanishi va hujayraga kirishi 51-rasmda keltirilgan.



4. Gripp virusining va xususiyatlari

Tarqalishi: aksirganda, yo‘talganda va gapirganda havoda tarqaladigan suyuqlik tomchilari orqali bo‘ladi (6-rasm). Gripp virusi – bronxit, plevrit **kabi “ikkilamchi kasalliklarga”** yo‘l ochib beradi . **Morfologik va kultural xususiyatlari.** Gripp virusi sharsimon shaklli, tovuq embrionida va to‘qimalar kulturasida o‘sadi.


Antigenlik xususiyatlari va tipi. Antigenlik xususiyatiga ko‘ra gripp virusi **4 tipga (A, V, S, D)** bo‘linadi. Gripp virusining antigeni eruvchan xususiyatga ega. Bu antigen uzoq saqlanadi, u 100⁰S da parchalanib ketadi (YU. Ahmadjonov, 1964). Bu antigen ribonukleoproteiddan iborat bo‘lib, virusning tipiga spetsifikdir, lekin virusning antigenlik xususiyati o‘zgarib turadi. Agar gripp virusini kuchsizlantirib, u bilan immunizatsiya qilinsa, organizmda immun modda - antitelolar hosil bo‘ladi. Immun modda kasallik natijasida virusning eriydigan qismi - antigeniga qarshi hosil bo‘ladi.

Toksigenligi. Gripp virusining zaharli moddasi borligi hayvonlarda sinab aniqlangan. Virusni quyon yoki dengiz cho‘chqasining ko‘ziga kiritilsa, toksin ta’sirida ko‘zda **keratit** paydo bo‘ladi. Agar gripp virusini tuxum embrionida o‘stirib, allantois suyuqligidan sichqonga qon tomiridan va miyasiga kiritilsa, sichqon 24 soatda zaharlanib o‘ladi.

Gripp virusining zaharli moddasi gripp kasalligining boshlang‘ich davrida odam qonida ham topiladi. Bu zaharli modda virus zarrasining xususiyatiga bog‘liqidir. Virusning tiplariga ko‘ra, uning zaharli moddasi ham har xil bo‘ladi, ular o‘ziga mos keladigan immunmoddali (gomologik) qon zardobi bilan neytrallanadi. Gripp virusining toksini gripp kasalligidan tuzalgalarning qon zardobi bilan neytrallanadi.



51-rasm. Gripp virusining hujayraga adsorbsiyalanishi, ko‘payishi (A) va etilishi (B).



52-rasm. Gripp virusining tarqalishi

Chidamliligi. Gripp virusi chidamsiz bo‘lib, uy temperaturasida bir necha soatda o‘ladi. Muzlatilgan holda bu virus virulentligini bir necha oylab saqlaydi. Liofil usulda vakuumda quritilib, past temperaturada saqlansa, bu virus bir necha yilgacha tirik qoladi. 65° S da gripp virusi 5-10 minutdan so‘ng halok bo‘ladi. Ishqoriy va nordon muhitga, efir ta’siriga hamda dezinfeksiya qiluvchi moddalarga chidamsizdir. Ultra binafsha nur, ultratovush ta’sirlariga sezgirdir, glitserinda bir qancha oy saqlanishi mumkin.

Patogenligi va patogenezi. Gripp virusi oq sichqon, oq kalamush va oq sassiq ko‘zanga patogendir. Bu hayvonlarning nafas yo‘llarini shikastlaydi. Bu virus yumronqoziq va boshqa hayvonlarga osonlik bilan o‘tadi.

Grippni **qo‘zg‘atuvchi pnevmotrop virus** odamga havo bilan yuqori nafas yo‘llaridan kirib, shilliq pardada ko‘payadi va u erdag‘i silindrik epiteliy hujayralarini nekrozlantirib nobud qiladi, ayni vaqtida virus butun organizmni ham zaharlaydi. Keyin virus nafas yo‘lining boshqa qismlariga yoyilib, bronx va alveolalarga etib borishi mumkin.

Klinik belgilari. Grippda inkubatsion davr ko‘pincha 2-10 soat (ba’zan 48 soat va undan ko‘p ham bo‘lishi mumkin) davom etadi.

Kasallik simptomlari og‘ir zaharlanish va nafas yo‘llarini yallig‘lanishi, odatdag‘i tipik holatlarda kasallik 10 kunda va undan ortiqroq kunda o‘tadi va to‘la tuzalib oyoqqa turishi bir oyga cho‘ziladi. Bolalarda, yoshi katta va surunkali kasallar bilan og‘igan odamlarda gripp o‘pka, bosh miya va yurak musullarida asorat berishi mumkin. Grippning og‘ir o‘ta yuqori toksik holatlarida (gipertoksik) qon ketishlar, miya, yurak va ichki organlarning ishlari buziladi va letal holatga olib kelishi mumkin. Kasallikning asosiy klinik belgilari rasmda keltirilgan (53-rasm).



53-rasm. Cho‘chqa gripining asosiy kasallik alomatlari

Yuqorida aytiganidek, virus, odatda, kasal odam yo‘talganda, aksirganda, havoga sachragan tupuk zarrachalari vositasida yuqadi. Shu bilan birga bemor qattiq isitmalaydi, boshi og‘riydi. Ayniqsa, ko‘z kosachasi atrofida og‘riq bo‘ladi, tana qaqshaydi, kasal darmonsizlanadi, yo‘taladi. Tumov belgilari paydo bo‘ladi va ba’zan kasalning ovozi birqadar bo‘g‘iladi, ishtahasi pasayib, og‘iz mazani ajrata olmaydi. Qonda leykopeniya bo‘lishi grippning doimiy belgisidir. Kasalning muhofaza kuchlari pasaygani uchun organizmdagi normal va shartli patogen mikroflora faollashib, bir qator qo‘srimcha infeksiyalar aralashadi. Ko‘pincha bronxit, sinusit, pnevmoniya va boshqa infeksiyalar ro‘y berishi mumkin.

Gripp o‘tmishda ham, hozirda ham katta epidemiya tusida tarqalgan, ba’zan esa pandemiyaga aylanuvchi kasallikkadir.

5. Diagnozi va profilaktikasi

Diagnozi. Gripp diagnozi klinik belgilarga va laboratoriya tekshiruviga asoslanadi. Mikrobiologik diagnoz uchun quyidagi usullardan foydalilanadi:

1. Kasal og‘zini chaygan suvni tekshirib virus borligini aniqlash. Buning uchun komplement bog‘lovchi reaksiya yoki gemagglyutinatsiya reaksiyasi qo‘llaniladi. Gemagglyutinatsiya reaksiyasining asosi shuki, gripp viruslari odam, tovuq, it va dengiz cho‘chqasining eritrotsitlarini agglyutinatsiya qilish xususiyatiga ega. Mazkur xususiyatga asoslanib, virus tashqi strukturalari va eritrotsitlar orasidagi munosabatni o‘rganiladi. Bu reaksiya diagnostikada ishlatilmoqda, uni Xyorst reaksiyasi (1941 yil) ham deyiladi. Gripp virusining bu xususiyatini neytrallash yo‘li ham topilgan. Agar gemagglyutinatsiya paytida eritrotsitlarga virusni neytrallovchi immunmodda qon zardobidan aralashtirilsa, bunday sharoitda eritrotsitlar agglyutinatsiya bo‘lmay qoladi. Bunday hodisani

agglyutinatsiyani to‘xtatish reaksiyasi deyiladi. Bu reaksiya yordamida gripp virusining tipini aniqlash mumkin.

V.D.Solovyov va A.K.Shubladzelar gemagglyutinatsiya reaksiyasini buyum shishasida bajarish yo‘lini topishgan. Buyum shishasiga kasal og‘zini chaygan suvdan 1-2 tomchi olib, unga tovuqning (yoki dengiz cho‘chqasi) eritrotsitlaridan 2% li aralashmasidan bir tomchi qo‘silsa, 2-3 minutda eritrotsitlar agglyutinatsiya bo‘ladi. Bu reaksiya gripp kasalligi uchun xarakterlidir, ammo spetsifik reaksiya emas.

2. Kasaldan olingan materialni (og‘iz chayilgan suvni) tovuq embrioniga yuqtirib, virusni topish usuli ham bor. Ammo bu usul bilan kasallik kech aniqlanadi. Bu usul virusni ko‘paytirib, vaksina tayyorlash uchungina qo‘llaniladi.

3. Kasaldan olingan materialni oq sichqonga nafas yo‘li orqali yuqtirish usuli ham bor, lekin bu usulda virusni topish uchun virusli materialni sichqondan ketma-ket bir necha marta passaj qilish lozim. Hayvon 1-2 kunda o‘ladi, so‘ngra sichqon o‘pkasini ezib olib, gemagglyutinatsiya reaksiyasini qo‘llab ko‘rilsa, virus borligini aniqlash mumkin.

4. Virusli materialni elektron mikroskop yordamida ham maxsus usullar bilan ko‘rish mumkin, ya’ni kasallangan hayvon to‘qimasining o‘ta yupqa kesmasi virusli suyuqlikni formvar yoki kollodiy pardali mis to‘rlarga solinadi. Keyin fosfor volfram kislotasi bilan kontrastlab yoki virus toza preparatini maxsus usullarda tozalab, so‘ngra uni platina metallari bilan changlatib ko‘riladi (Axmadjonov, 1964).

Kasallikka tashxis qo‘yish uchun burun-halqumdan suyuqlik va surtmalar, letal hollarda shikastlangan o‘pka to‘qimalaridan, traxeya va bronxlarning shilliq qavatlaridan qirmalar olinadi. Bunday qo‘llaniladigan usullar olingan materiallardagi antigenni aniqlashga asoslangan. Olingan materiallar IF va boshqa zamonaviy usullarda (GAR, KBR, GATR, NR va IF reaksiyalari yordamida maxsus immun zardoblardan foydalanib identifikasiya qilinadi) aniqlanadi (Muhammedov va boshq, 2002).

Davolash. 1950-yillar adabiyotlarida berilishicha, grippni davolash uchun Smorodinsev immun moddalik zardobni taklif etgan. Antibiotiklardan ekmolin qo‘llanilgan. Sintetik preparatlardan esa kutizon ishlatilgan. U kasallikning davomiyligini qisqartiradi. Bulardan tashqari, sulfamid preparatlar va penitsillin ham keng qo‘llaniladi. Ular ko‘pincha gripp paytida ro‘y beradigan pnevmoniya va boshqa qo‘srimcha infeksiyalardan saqlab turish uchun ishlatilgan (Axmadjanov, 1964).

Hozirgi kunda grippdan davolanishda quyidagi tavsiyalar berilyapti. Kasal organizmidagi virus rivojlanishini to‘xtatish, intoksikatsiyani kamaytirish choralar ko‘riladi, kasalning boshlanishida bemorga immunomodulin, interferon beriladi. Kimyoviy moddalardan remantadin yaxshi natija beradi. Kasallik og‘ir kechganda ikkilamchi infeksiyalarning oldini olish uchun antibiotiklar va sulfanilamid preparatlar qo‘llaniladi (Muhammedov va boshqalar, 2002). Bundan tashqari, gripga qarshi immunizatsiya qilingan otlarning antizardoblari (quritilgan

va suyuq holdagi), antibiotiklar, sulfanilamid preparatlarini qo'llash orqali olib boriladi. Hozirgi kundagi intepHet ma'lumotlariga qaraganda, vaksina orqali 95 % odamni ushbu kasallikdan asrash mumkin.

Gripga qarshi ishlatiladigan yangi preparatlardan - remantadin preparati yaxshi natija bermoqda. Profilaktika qilish uchun tirik va inaktivatsiya qilingan **vaksinalar** ishlatiladi. Bulardan tashqari, axborotlardan ma'lum bo'lgan yangi dori preparatlari - adamantanlardan amantadin va remantadin, gripp neyraminidazasi ingibitorlaridan ozeltamivir va zanamivir kabi dori vositalari mavjud. Davolashda virusni o'ziga va uni ko'payishiga ozeltamivir preparatining samarali ta'sir qilishi isbotlangan. Uning yo'qligida esa JSST (VOZ) zanamivipHi, agar kasallik engil o'tadigan bo'lsa, arbidolni tavsiya etiladi. Haroratni pasaytirishda ibuprofen tutuvchi preparatlar va paracetamoldan foydalanish mumkin.

Nafas olishning qiyinlashishi, miya faoliyatini pasayishi va yurak-qon tomir sistemasining buzilishi – harsillash, nafas olishning qiyinlashishi, sianoz (terini ko'karib ketishi), hushdan ketish, rangli balg'amning paydo bo'lishi, qon bosimini pasayib ketishi, ko'krakda og'riq paydo bo'lishida tez tibbiy yordamga murojaat qilish zarur. Kasallikning ozgina engillashib, so'ngra kasal ahvolining yomonlashishi va to'rtinchchi kunda ham yuqori haroratning saqlanishi kuzatilsa, albatta shifokorga murojaat etish zarur.

Profilaktikasi. Organizmni chiniqtirish, kasalni boshqalardan tezda ajratish, xonalarni vaqtி-vaqtி bilan shamollatib turiladi va dezinfeksiya qiluvchi moddalar bilan artib turiladi, ovqatdan oldin qo'lni sovun bilan, kasalning idish-tovog'ini albatta qaynoq suvda yuvish va chayish lozim.

Organizmni o'ta sovuq qotishidan asrash kerak. CHunki bunday hollarda, kasal organizmida himoya faktori hisoblangan interferon ishlab chiqilishi sekinlashadi.

Profilaktika maqsadida gripp viruslaridan tayyorlangan o'lik yoki tirik vaksina ishlatiladi.


Shaxsiy profilaktikada interferon, antigrippin, oksalin malhami kabi preparatlardan foydalaniladi (Muhamedov va boshq., 2002)

Immuniteti. Gripda birinchi haftaning oxiridan boshlab organizmda virusga qarshi immun modda to'plana boradi. 2 haftadan so'ng kuchli immunitet paydo bo'lsa-da, lekin bu immunitet bir yildan keyin yo'qolib ketadi.


Gripda paydo bo'ladigan immunitet virusning tipiga moslashadi, ya'ni kasallikni qaysi tipdagи virus qo'zg'agan bo'lsa, immunitet ham o'sha tipdagи virusga nisbatan paydo bo'ladi. Shuning uchun boshqa tipdagи virus shu paytda yana kasallik qo'zg'atishi mumkin.

Gripdagи immunitetda virusning toksinini neytrallovchi va gemagglyutinatsiyaga qarshi immun modda paydo bo'lishi, nafas yo'lidagi to'qimalar virusga chidamli bo'lib qolishi isbotlangan.

9.16. Bunyaviridae oilasi (Bunyaviruslar) (103)



54-rasm. Bunyavirus virionining tuzilishi.. Diametri 80 - 120 nm. (104)



55-rasm. Bunyavirus (chapda elektronmikrofotografiysi. o‘ngda– tashqi ko‘rinishi (sxemasi) (105)

Bunyaviruslar oilasi quyidagi avlodlarni o‘z ichiga oladi:

Bunyavirus avlodi (Bunyamver superguruhi).

Phlebovirus avlodi (moskit bezgagi virusi).

Nairovirus avlodi (qo‘ylarning Nairobi virusiga o‘xshash viruslar).

Uukuvirus avlodi (Uukuniemi virusiga o‘xshash viruslar).

Xususiyatlari

Bunyaviruslar avlodi: banya-, flebo-, nairo- i xanta - viruslar avlodlarini o‘z ichiga oladi. Oilaga 300 dan ortiq qon so‘ruvchi bo‘g‘imoyoqlilar tarqatadigan, eng ko‘p chivinlar tarqatadigan viruslar kiradi. Bunyaviruslar odam va havonlarni kasallatiradi. Masalan, Rift vodiysi va Nayrobi kasalligi viruslari qo‘y, echki, yirik qoramollar kasalliklari SHarqiy va Janubiy Afrikada tarqalgan o‘tkir transmissiv kasalliklarga kiradi.

Bunyavirus avlodi 18 ta seroguruh va 160 dan ortiq viruslarni o‘z ichiga oladi. Prototip bo‘lgan Akabane virusi 30 dan ortiq odam va uy hayvonlarida kasallik qo‘zg‘atadigan viruslardir.

Xantaviruslar avlodiga 22 viruslar kirib persisten usulda virus bilan kasallangan kemiruvchilar orqali tarqaladi.

Fleboviruslar avlodi ga ikkita seroguruh kiradi, chivinlar orqali tarqaladigan 50 dan ortiq virusni o‘z ichiga oladi. Prototipvirus bo‘lib Rift vodiysi virusini olish mumkin.

Nairoviruslar guruhiba ettita seroguruh kiradi, 33 ta virus ni o‘z ichiga oladi. Prototip virusga qo‘ylarni Nayrobi virusi kiradi.

Bunyavirular virionlari sferasimon qobiqli virus bo‘lib diametri 80—120 nm. Ularni nukleokapsidi spiral simmetriyalı, qalinligi 10—12 nm lipoprotein qobiqqaega. Tashqi yuzasida 10-12 nm li glikoprotein o‘sintalari bor. Ular ikki qavatli 5-7 nm li lipid qobiqni teshib o‘tadi. Virion markazida uchta sirkulyar spiralsimon nukleokapsid segmenti joylashgan, ular o‘zaro 3’ i 5'-oxiri har bir RNK-genomn segmenti nokovalent bog‘lar bilan birikkan. Uchchala RNK segmentni oxirgi uchlari bir xil ketmaketlikka ega, ammo har hil avlodniki bir-biridan farq qiladi. Bir virionga 270—1400 peplomer to‘g‘ri keladi, ular virus glikoproteinlari G1 i G2 geterodimerlardan tuzilgan, ammo fleboviruslarni ozroq qismini yuzasidagi subbirliklari gomodimerlardan tuzilgan. Gomodimerlar, balki boshqa avlod dimerlarida ham tuzilgandir. Fleboviruslar sferasimon tig‘iz joylashtirilgan 10—11 nm morfologik birliklar bilan qoplangan(markaziy bo‘shlig‘ini diametri ~5 nm.

Bunyaviruslarda, boshqa RNK tutuvchi qobiqli viruslardan farqli o‘larоq membrana(matiksli) oqsili yo‘q. Nukleokapsidni oqsili to‘g‘ridan-to‘g‘ri ikki qavatli lipid qavatni ichki yuzasiga yopishib turadi. Bunyaviruslarni virionlari 58—70% oqsil, 20—33% lipid, 7% uglevod va 1—3% RNK dan iborat.

Ularda uchta asosiy oqsil bo‘lib, ularni ikkitasi glikoproteindir. G1 i G2 glikoproteinlar virion tashqarisida joylashgan va o‘sintalar hosil qiladi, ularni proteoletik fermentlar bilan yo‘qotish mumkin. Bu o‘sintalarni yo‘qotilgan viruslarni yuqumliligi birdan pasayadi. Glikoproteinlar viruslarni sezgir hujayra yuzasiga adsorbsiyalanishida bevosita qatnashadi deb taxmin qilinadi.

Bitta virionga 2000—2500 ta N- oqsili molekulasi, 20—40 ta L- oqsili, 600—700 G1 i G2 glikoprotein molekulasi to‘g‘ri keladi.


G1 i G2 glikoproteinlar spetsifik antigen determinantalari bo‘lib, neytrallovchi antitelalarni hosil bo‘lishini ta’minlaydi.

Rift vodiysi bezgak viruslarining izolyatlari 1977 yildagi Egipet epidemiyasida ajratilgan va 1987 yili Mavritaniyada ajratilgan izolyatlari antigenlari bilan farqlanadi.

Virionlarda uchta birzanjirli RNK-genomli segment bor: katta - L(6,3-12 th), o'rtacha - M (3,5-6,0 tn) i kichik - S (1,0-2,2 tn). Barcha virusni gen segmentlari birxil komplementar nukleotidlarga ega. Virusni uch gen segmenti komplementar 3' va 5'-oxiri birxil nukleotidlarga ega.

Rift vodiysi bezgagi virusi yirik shoxli mollarda, qo'ylardaga uchraydi va kasallanganda kuchli bezgak tutadi, nekrotik gepatit kuzatiladi. YOsh hayvonlarda kasallik o'lim bilan tugaydi. Afrika kontinentida tarqalgan. Odamlarni ham kasallantirishi mumkin, 1977 yili shu virusdan Egipetda 200 000 odam kasallangan. Ulardan 600 tasi nobud bo'lgan. Kasallikdan tuzalgnalarda immunitet uzoq muddat saqlanadi.

9.17. Arenaviridae oilasi (Arenaviruslar) (106)



56-rasm. Arenavirus virioni. Diametri 60 to 300 nm. (a-tuzilishi, b- elektron mikrofotografiyası) (107)

Arenavirus avlodi. (arenaviruslar).

Arenaviruslar oilasini bitta avlodi bor bo'lib, uni serologiya va gentika xususiyatlariga asosan ikki subguruuhga bo'lingan. Birinchi subguruuhga Eski dunyo virus limfotsitar xoriomeningiti, Lassa virusi va boshqa arenaviruslari kiradi. Ikkinci subguruuhga YAngi dunyo arenaviruslari kiradi (Takaribe-kompleksi arenoviruslari).

Xususiyatlari

Arenoviruslarni virionlari pleomorf zarrachalar bo'lib diametri 60-300 nm. Ularni ko'plarini diametri 110—130 nm. Virionlarini qobig'ida uzunligi 8-10 nm li glikoproteinli peplomerlarga bor, ular glikoproteinlarni GP1 i GP2 (tetrameridir). Virionni markaziy qismida ikkida sirkulyar nukleokapsid bor, ular xuddi munchoqqa o'xshab turadi. RNK genomnli segmentlar bir-biri bilan o'zaro

konservativ komplementar ketma – ketliklar 3' i 5' oxirlarida birlashagandur. Virion kanalini ichida, qumlarni eslatuvchi hujayrani nefunksional ribosomasi bor. Genomi ikki segmentli otsRNK L (7,2 tn) va S (3,4 tn) fragmentlardan iborat. Ularni viriondagi miqdori 1:2 nisbatdadir. Virionlari ikki genom segmentini nusxalarini tutadi, ko‘pincha S-RNKtni nusxalari uchraydi. Genomni ko‘p qismi negativ qutblidir, ammo L segmentni 5'-oxiri pozitiv qutblidir.


Virus oqsillari nukleoprotein (NP) va RNK — mute-RNKhpolimeraza, ikki glikoprotein, sink-bog‘liq oqsil va minor oqsillardan iborat.

Arenaviruslar sitoplazmada ko‘payadi, hujayra ekmalarida katta konsentratsiyada to‘planadi. Genomi birzanjirchali negativ qutblidir, u bevosita transkriptsiyalanishi mumkin. Genom RNK sida virionning RNK-mute RNK polimerazasi yordamida komplementar genom mRNK si transkriptsiyalanishi mumkin. NPgenlar va RNK-mute RNK polimeraza L va S RNK — segmentlarni 3' oxirida bo‘ladi, shunga mos holda L i S RNK 3' oxiri L i S RNK — segmenti m-RNK transkriptsiyasi orqali ekspressiyalanadi. Ancha murakkab replikanishlar asosida etilgan virus zarrasi hosil bo‘ladi hujayradan kurtaklanish yo‘lida plazmatik membranadan ajraladi. Barcha arenaviruslar odam uchun patogendir.


Odam arenoviruslar bilan virus tashuvchi kanalar orqali virus yuqtiradi.

9.18. BopHaviridae oilasi (BopHaviruslar).

BopH virus kasalligi (108)



57-rasm. BopHavirusning kesmasi (molekulyar strukturasi) (109)



58-rasm. BopH kasalligi virusi, diametri ot 70 do 130 nm. (110)

Xususiyatlari

BopH kasalligi virusi oila va avlodni birdan -bir vakilidir. Bu kasallik butun dunyoda tarqalgan. Bu kasallik ko‘pincha otlarda, qo‘ylarda mushuk, it va strauslarda uchraydi. Bu virusni tabiiy ho‘jayini otlar va qo‘ylardir. Ularda virus nevralgik simptomlar hosil qiladi, ba’zan nobud ham qiladi. Ko‘p holatlarda bu virus bilan kasallangan hayvonda kasallanish simptomlari ko‘rinmaydi, bu esa hujayin organizimini virus tashuvchilikga olib keladi. Otlarda bu kasallik vertikal usulda tarqaladi. Tabiiy sharoitda bu kasallik yirik shoxlik mollarda va mushiklarda uchraydi. Ba’zan kasallik it, xachir va boshqa hayvonlarda sporadik uchraydi. Eksperimental sharoitda bu virus kelib chiqishi har xil bo‘lgan (filogenetik xar xil xayvonlar) qushlardan tortib kemiruvchilar va odamsimon primatlarni ham kasallantiradi. Serologik va molekulyapHo-epidemiologik tadqiqodlar ko‘ratisficha bu virus odamlarni kasallantirib nerv sistemasini psixik buzilishlarga olib keladi. Bu kasallik umurtqalilarni ko‘plarida markaziy nerv sistemasini kasallantiradi hamda u markaziy nerv sistemasi virus infeksiyalarida persistentlikni o‘rganish modeli bo‘lib xizmat qiladi.


BopH kasalligi virusi nerv va nerv to‘qmalarini sitolizsiz hujayra ekmalari liniyalarida ko‘payadi.

Virusni PSR va nishonlangan antitelolar yordamida aniqlanadi. Virus antigeni yadroda bo‘ladi. Virioni sferik zarracha bo‘lib 70-130 nm, uning qobiq bilan o‘ralgan o‘zagida (50-60 nm). Bu qobiq uzunligi 7 nm bo‘lgan peplomerlar bilan o‘ralgan. Virioni pH=5,0—12,0 da chidamli bo‘ladi.


Virusning genomi bir molekula negativ qutubli bir zanjirli RNKbo‘lib, o‘lchami 8,9 tn molekulyar massasi ~3x10⁶ D. u oltita oqsilni kodlantiradi: r40, r24, r18, r16, r56 va r180. r40, r24, r16 polipeptid fosfoprotein (N), transkripsiya aktivatori (R) va matriks oqsili (M) lar nukleoprotein tarkibiga kiradi. G

oqsili(56kD) glikoprotein qobiqni, M oqsili (180 kD)RNK tobe RNK polimeraza va oqsil (18kD) glikoproteindirlar. Bu virusning transkripsyasi hujayrada bo‘ladi.

9.19. Semeystvo Retroviridae oilasi



Copyright © 2002, Elsevier Science (USA). All rights reserved.



59-rasm.VICH virionining(chapda) tuzilishi,(o‘ngda)tashqi ko‘rinishi (112)

Oncovirinae kichik oilasi (RNK-tutuvchi onkogen viruslar guruhi).

Avlodi: (nomsiz (S tipidagi onkovirus).

Avlodi : (nomsiz) (V tipidagi onkovirus).

Avlodi: (nomsiz) (D tipidagi onkovirus).

Kichik oila Spumavirinae (ko‘piklanuvchi viruslar)

Avlodi: Spumavirus (ko‘piklanuvchi viruslar).

Kichik oilasi: *Lentivirinae* (visni/medi guruhi viruslari).

Avlodi Lentivirus (visn/medi guruhi viruslari).

Xususiyatlari

Retroviruslar ikki genom molekulasiga o‘xshash genomli RNK va RNK-tobe DNK - polmerazaga ega (teskari transkriptaza , revertaza). Retroviruslar har xil turdag'i hayvonlardan ajratilgan va ular har xil patogenlikni namoyon qiladi. Retroviruslar oilasi 7ta avlodni o‘z ichiga oladi: alfa-, beta-, gamma-, delta-, epsilonretroviruslar, lentiviruslar va spumaviruslar. Oilada odam va ko‘pgina hayvonlarga patogen bo‘lgan viruslar mavjud. Ko‘p retroviruslar limfa hujayralariga nisbatan tropizm xususiyatini namoyon qiladi. Retroviruslar infeksiyalari bilan kurashish uchun asosan ularni yuqish yo‘llarini yo‘qotish zarur.

Retroviruslarni virionlari dumaloq qobiqli diametri 80-100nm. Zarrachalar noyob uch qavatli strukturaga ega. Markaziy qismi nukleoprotein kompleksiga ega, uni tarkibida 30 molekula revertaza bo‘lib, ular spiral simmetriyaga ega. Bu struktura o‘lchami 60 nm li ikosaedrik kapsid bilan

o'ralgan. Bu struktura hujayra membranasidan kelib chiqqan qobiqlan iborat va uni ustida glkoprotein peplomerlar joylashgan. Lentiviruslар yuzsida 72 ta shishkaga o'xshash uzunligi 10 nm li peplomerga ega, buni uchi tuxumsimon zichlashgan strukturaga ega.

Retroviruslар diploid genomga ega. U bir zanjirli ikki molekula chiziqli pozitiv qutbli invertatsiyalangan dimerdir. Har bir molekulada 7-11 t.n. va poliA ketma-ketlikga ega Z'-oxiri va 5'-oxirida KEP-strukturusi bor. Retroviruslарни genomini noyobligi shundaki ular:

- 1) yagona diploidli;
- 2) virus RNK si stezilanadi va hujayra mRNA sini o'zgartiradigan mexanizm yordamida o'zgaradi;
- 3) bu yagona genom bo'lib, RNK ning funksiyasini butunlayicha birlamchi replikatsiyaga uzatadi;
- 4) bu yagona bz(+)RNK bo'lib yuqish jarayoni bo'lgandan so'ng bu mRNA funksiyasi bo'lмаган yagona RNK dir;
- 5) u qaytalama trankriptazani kodlantiradigan yagona genom bo'lib, u o'z-o'zicha ham noyobdir.


Produktiv infeksiya jarayoni yuz berganda virion shakllanadi va sitoplazmatik membranadan kurtaklanib erkinlikka chiqadi. Ba'zi retroviruslар o'sma hosil bo'lishini qo'zg'atadi.

Immun tanqisligi virusining (VICH) uy hayvonlarining (medi-visna, echkilar ensefalit artriti lentiviruslari genomi bilan qisman genomining gomologiyasi bor. Eng ko'p gomologiya medi-visna virusi genomi bilan aniqlangan.


Yirik shoxli mollarning immunodeffitsitga o'xshash kasalliklari virusi genetikasi va antigenlari borasida VICH-1 bilan qarindoshdir, mushuklarni immuntanqisligi virusi mushuklarda SPID ga o'xshash kasalliklarni qo'zg'atadi.

Retroviruslарни glikoproteinlari antigen determinantalar vazifasini bajaradi, bular har bir virusni individual spetsifikligini aniqlaydi. Ular bilan ho'jayin spektri, to'qimaga bo'lgan spetsifiklik, virionni adsorbsiyasi va uni hujayraga kirishi, interferensiya spetsifikligi, neytrallovchi antitelolar sintezining induksiyasi va himoya xususiyatlarini belgilaydi.

9.20. PicopHaviridae oilasi (PikopHaviruslar) (113)



60-rasm. PikopHavirus virioni (114)



61-rasm. Rinovirus virioni (115)

Enterovirus (enteroviruslar).

Cardiovirus (ensefalomiokardit virusiga o‘xshash viruslar o‘xshash).

Rhinovirus (rinoviruslar).

Aphthovirus (yashchur(oqsim, oqsil) virusi).

Xususiyatlari

Mazkur oila 200 dan ortiq viruslarni kirib, ularni 6 ta avlodga birlashtiriladi. Odamlarda kasallik qo‘zg‘atuvchilar 4 turga kirma. Hayvonlarda kasallik qo‘zg‘atuvchilari 6 turga kiradi: entero-, afro-, kardio-, rino-, hepatoparexoviruslar. Bu avlodxa xos va differensiatsiya qilishda ishlatiladigan xususiyatlari ularni pH ga chidamliligidir. Aftovirular pH 7,0 da beqaror – chidamsiz bo‘ladilar; rinovirus — pH 5,0dan pastda; entero-, hepatoparexoviruslar pH =3,0 ga chidamli bo‘ladilar. Viriondari qobiqsiz, sferasimon diametri 27 nm bo‘lgan silliq yuzaga ega. pri pH =3,0. 5'-netransliruemaya oblast genoma kardio- i aftovirusov soderijit dlinny poli (S) uchastok, otsutstvuyushchii u predstaviteley drugix rodov. Aftovirus unikal po nalichiyu v genome trex podobnx, no ne identichnx uchastkov, kodiruyushchix belok VPg.

Genomi bir molekula bir zanjirli (+)RNK o‘lchami 7,2—8,4 tn. Genomnaya RNK poliadenillangan va Z'-uchida VPg oqsili bo‘lib 5'-uchi bilan kovalent bog‘langan. Genomnaya RNKsi yuqumlilik xususiyatiga ega va mRNA dek funksiyaga ega. Bitta poliprotein holida translyasiyalanadi va so‘ngra 11 ta ayrim oqsillarga parchalanadi. PikopHaviruslar har bir 4 oqsildan 60 ta nusxalarga ega. : VP1, VP2 va VP3 (har birini m.m. 30000) va VP4 (m.m. 7000-8000) va 1 ta kichikroq oqsilini nusxasiniki VPg (m.m. o‘zgarib turadi); aftoviruslar 3 variant VPg ni kodlantiradi). Bundan tashqari ko‘p pikopHaviruslarda funksiyasi noma’lum bo‘lgan minor oqsillar uchraydi.

Uchta struktura oqsiliga o‘xshagan VP1, VP2 va VP3 oqsillar tashqi virion qavatini tashkil qiladi, VP4 oqsili esa kapsid ichida bo‘lib genom RNK


bilan bog'langandir va RNK ning replikatsiyasida qatnashadi. VPg oqsili RNK ning replikatsiyasida qatnashadi va inkapsidatsiya jarayonida signal funksiyasini bajaradi. Poli- va rinoviruslarda VP1, VP2 va VP3 lar bittaga birlashib, 5-tomonlik strukturani o'rabi oladigan «» hosil qiladi. Kanon ichidagi aminokislotalar variabellik xususiyatiga ega. Kanon tubida joylashgan konservativ aminokislotalar viruslarni birikishida yordam beradigan retseptorlarni shakllantirsa kerak, ularni immun mexanizmlardan ham muhofaza qiladi degan fikrlar mavjud.

Kanon strukturasiga ega bo'limgan silliq qobiqli yashchurga o'xshash rinoviruslarni virionlaridagi qavariqlaruchida hujayra retseptorlariga yopishadigan retseptorlari joylashgan bo'lsa kerak. Bu uchastkalar o'ta antigenllikka ega bo'lib yashchur virusini serologik – serotipik spetsifikligini belgilaydi. PikopHaviruslarni antigen sturkturalarida umumiyligida qonuniyat aniqlangan ya'ni immunizatsiya qilishdan(146 S-zarrachalar bilan, ammo 12-14 S-subbirliklar bilan emas) so'ng virusneytrallovchi antitelalarni hosil bo'lishi kuzatiladi.


Yashur. Aftovirus avlodi. Yashchur virusi.

Yashur — kontakt orqali tez yuqadigan virus kasalligidir. Kasallangan juftuyoqli hayvonlarda vezikulalar va hazm qilish organlarining shilliq qavatlari tuyoqlarining orasida va boshqa junsiz uchastkalarida eroziyalanish kuzatiladi. Ko'p mamlakatlar uchun yashchur dolzarb muammoligicha qolmoqda. Kichik shoxli mollarni va cho'chqalarni vaksinatsiya qilingani bilan yaxshi ijobiy natija olinmayapti. Yashchur virusining antigen strukturalari katta variabellikga ega. Ettita antigen tiplari ma'lum: O, A, S, SAT1, SAT2, SAT3 va Osiyo 1. Bu shtammlarni bittasi bilan kasallangan hayvon boshqa shtammlardan muxofazalana olmaydi. Immunizatsiya bitta tip virus bilan qilinsa u hayvonni boshqa tip viruslardan qutqaraolmaydi. Yashchur virusi uzoq muddat saqlanadigan virusdir. Virus bilan kasallangan yirik shoxli mollarni tomonidan ajratilgan viruslar 539 kun gacha ham saqlangan.

9.21. Caliciviridae oilasi (Kalitsiviruslar) (116)



62-rasm.Kalitsiviruslar virioni



63-rasm. Cho'chqalarni vezikulyar ekzantema virusi (117)

Caliciviridae oilasi morfologiyalari bir xil, ammo antigen strukturalari bilan farqlanadigan RNKpozitv birzanjirli katta guruh viruslarni birlashtiradi, virionlari qobig'i yuzasidagi kosasimon chuqurchalari borligi bilan xarakterlidir, ularni nomini kelib chiqshi ham shundan olingan, ya'ni calyx, yoki chalice – kosa degan ma'noni bildiradi.

Oilanning tarkibida 4 ta avlod bor:

Veziviruslar avlodi (Vesiviruslar),

Lagoviruslar avlodi (Lagoviruslar),

Norfolkga o'xshash viruslar avlodi (noroviruslar) (Noroviruslar) va Sapporoga o'xshash viruslar (sapoviruslar) (Sapoviruslar).

Birinchi ikki avlod viruslari hayvonlarda kasallik qo'zg'atadi, ikkita keyingisi esa odamlarda kasallik qo'zg'atadi.

Kalitsiviruslarni kasallantiradigan ho'jayilari doirasi juda kengdir, yani ularni cho'chqa, mushuk, dengiz sheri, morj, odam, buzoq, jo'ja, norka, reptiliy, amfibiy va hasharotlardan ajratildi.

Oilanning tipik virusi cho'chqalarni vezikulyar ekzantemakasalligi virusidir. Bu kasallik 1932 yili Janubiy KalifopHiyada ajralilgan va AQSHda 1956 yilda butunlay yo'qotilgan. 1972 yili bu kasallik Saxalin orolidagi cho'chqachilik ho'jaligida topilgan.

Kalitsiviruslarni virionlari qobiqsiz kubsimon simmetrili diametri 35-40 nm.Ularda 180 bir xil o'xshash oqsil molekulalari (m.m. 60 000) bo'lib, ular dugsimon dimer bo'lib to'plangan struktura birliklarini tashkil qiladi, ular o'z navbatida 32 ta kosasimon chuqurchalarni hosil qiladi va bu esa ularni virionlariga noyob ko'rniishlarni beradi.

Struktura oqsillari virionni 82 % ni tashkil qiladi. Virionda bitta eng asosiy polipeptid va bitta minor polipeptid bor. Undan tashqari yana bitta kichikroq polipeptid bo'lib (VPg), u virusni yuqumliliginini belgilashda rol o'ynab, virion RNK si bilan kovalent bog'langandir.

Bu oqsillarni molekulyar massalari 60-70, 15-19, 10-15 kD ni tashkil qiladi. Minor oqsil virionni 2% ni tashkil qiladi. Olimlar bu polipeptid hujayraga qarashli bo'lishi ham mumkin degan fikr bildirishadi. Virionda 180 ta asosiy

molekulalar va 12 ta minor polipeptid molekulalari bor bo'lsa kerak deb hisoblashadi.

Genomi bir molekula chiziqli birzanjirli RNK bo'lib, uning o'lchami 7,4—7,6 pn.uni 5'-uchi kepp strukturali bo'lib VPg oqsil bilan kovalent bog'langan, 3'-uchi poliadenillangan. Genom RNK va birqancha subgenom RNK lar replikatsiya jarayonida hosil bo'ladilar, etilgan oqsillar ikki xil yo'lda hosil bo'ladilar, poliproteinni parchalanishidan va subgenom mRNA ni translyasiyasidan. Genom RNK yuqumlik xususiyatiga ega.


Viruslar nisbatan issiqlikga chidamli, ammo pH ni pasti darajalariga o'ta sezgidir (99% i pH =3,0 bo'lganda akitligini yo'qotadi). Kalitsiviruslar sitoplazmada ko'payadi.

Genom RNK ni replikatsiyasi oraliq(—)RNK sintezi orqali bo'ladi. Virionlari sitoplazmada amorf va parakristal holatda to'planadi. Virionlari hujayrani lizisi natijasida erkinlikga chiqadi.

9.22. Mimiviridae oilasi (mimiviruslar (118)

Mimivirus avlod (mimiviruslar)

Mimiviruslar oilasi bitta avlod *Mimivirus avlodini* o'z ichiga oladi. Undaa birdan bir tur aniqlangan tur Acanthamoeba polyphaga mimivirus (APMV) bor, xolos. 2011 yil oktyabrgacha bu virus yagona virus hisoblandi. Ammo shu yili undan yirikroq virus Megavirus chilensis ochildi. Mimivirusni diametri 500 nm bo'lgan bo'lsa megavirusniki undan ancha kattaligi aniqlandi. Boshqa viruslardan farqli o'laroq mimiviruslar porolarining diametri 0,22 mkm li filtrlardan o'taolmaydigan va oddiy yorug'lik mikroskopida ko'rish mumkin bo'lgan virusdir. Bu eng kichik bakteriyalarga – mikoplazmalarga yaqin. Unda 1,2 millionov par nukleotid bo'lib genomi juda murakkab strukturaga egadir.



64-rasm. Mimiviruslarni elektron mikroskopda ko'rinishi (119)

Kerakli ma'lumotlarni kamligidan ba'zi bu viruslarni birinchilar qatori ochgan olimlar bu viruslarni bakteriyalar va viruslar orasidagi zanjipHing etishmayotgan halqasi bo'lsa kerak degan fikrlar ham bildirishdi. Bakteriyalarga ham, viruslarga ha o'xshamaydigan yangi olam organizmlari bo'lishi mumkin, degan fikr ham bildirishdi.

Nomning etimologiyasi. Bu virusga nom berishda "mikrobgan o'xshash mimikriyalangan" -«mimikriruyushchiy pod mikrob» (angl. mimicking microbe virus) deb fikr bildirildi. CHunki ancha vaqtgacha uni o'lchamini kattaligiga, hivchinga o'xshash oqsil iplriga qarab va Gram usulida musbat bo'yalishlariga asoslanib mikrob deb hisoblab kelindi.

Kashf qilinishi. APMV bиринчи мarta 1992 yili *Acanthamoeba polyphaga amyobasidan ajratib olindi va uni sharafiga shu nom berildi*. Organizmni Bradfordcoccus deb amyoba ajratilgan rayonning nomi bilan atashdi (Bredford, Angliya). Bu organizmni bakteriyalardek muxitlarda o'stirishga urinishlar samara bermaganligidan so'ng va bakteriyalarni genlarini aniqlaydigan 16S rRNK tiplarga ajratadgan universal praymerlar yordamida olib boriladigan PSR reaksiyalari ham aniqlashga imkon bermadi. Namunasov uquxonada 10 yil saqlangandan so'ng Fransiyaga berildi va uerda qo'shimcha tadqiqodlar bajarildi. Natijada Bradfordcoccus ni gigant virus ekanligi tasdiqlandi. Olingan natijalar 2003 yili «Sci.E.Nce» jupHalida chop etildi.

Klassifikatsiyasi. Mimivirus avlodni Mimiviridae oilasiga kiradi. Bu oila esa yirik yadro-sitoplazmatik DNK-tutuvchi viruslarni sistemalanmagan(sistemadan tashqari bo'lgan) viruslariga (inglizcha nucleocytoplasmic large DNA viruses, NCLDVs) kiradi. Bu guruhga poksviruslar, iridoviruslar, askoviruslar, asfarviruslar va fikodnaviruslar kiradi. Bu viruslarni barchasining o'lchamlarining kattaligi, molekulyar tavsiflarini bir-biriga o'xshashligi, hamda murakkab genomga egaligi bilan ajralib turadi. Mimiviruslarni replikatsiyada qatnashadigan qator oqsillari, yirik yadro-sitoplazmatik DNK-tutuvchi viruslarning oqsillari bilan gomologik oqsillar ekanligi aniqlandi. Bu esa o'z navbatida ularni kelib chiqishi umumiyligini ko'rsatadi. Mimiviruslarni ko'pgina oqsillari hozirgacha aniq bo'lgan oqsillar bilan o'xshash ekanligi kuzatilmaydi. Bundan tashqari mimiviruslarning genomi katta miqdordagi eukariotlarni va bakterialarni oqsillariga o'xshash oqsillarini kodlantiradi. Bu genlar mimiviruslar bilan ikkinchi marta o'zlashtirilgan bo'lib, va ular virus xo'jaini genomidan va uning parazitidan kelib chiqqan bo'lishi mumkin.

Mimiviridae oilasi xalqaro viruslar taksonomiyasi qo'mitasi tomonidan shu vaqtgacha biror-bir otryadga biriktirilgan emas. 2012 yili bu va boshqa yirik virus oilalarini Megavirales deb nomlangan yangi otryaga birlashtirish taklif qilingan edi.


Baltimor klassifikatsiyasi bo'yicha mimiviruslar 1- guruxga kiradi (RNK stadiyasi bo'lmagan ikki zanjirli DNK tutuvchi viruslar). Bu guruxga yana iridoviruslar, poksviruslar va boshqa viruslar kiradi.

Kapsid va tashqi qobiqning strukturasi.


Mimiviruslar ikosaedr kapsidga yaqin bo‘lib, diametri 450-500 nm. Kapsidi uzunligi 80-120 nm bo‘lgan ko‘plab oqsil iplari bilan qoplangan. Ilmiy adabiyotlarda virionning razmeri 400-800 nm gacha berilgan, bunda balki kapsidni diametri xamda virusni umumiy uzunligi va oqsil iplarini ko‘shib o‘lchalgan bo‘lishi mumkin. Virusning kapsomeri romashka ko‘rinishida geksogonal joylangan: 6 kapsomer, ular orasidagi bitta chuqurchani o‘rab turadi. Kapsid tarkibida po‘stloq struktura **oqsili L410** topilgan va ikki domendan iborat. Bu oqsil kapsidni tashkil qiladigan birligi bo‘lgan geteromer kapsomepHi shakllantiradi. Kapsomerlar geksogonal shaklda “romashkaga” o‘xshab joylanishgan: oltita kapsomer bitta chuqurchani o‘rab turadi. Kapsid tarkibida yana L410 po‘stloq (korovy) oqsili bor.

Kapsidni bir cho‘qqisida yulduzsimon struktura topilgan bo‘lib, uning nurlari uchburchak tomonlarni hosil qiladi. Nurlarini eni 50 nm, qalinligi - 40 nm va uzunligi -200 nm bo‘lib qo‘shni cho‘qqigacha etib boradi. Bu strukturani bo‘lishi virion tomonlarini joylanishini o‘zgartiradi va oqibatda uning shakli ideal ikosaedrdan sal chetlashadi: viriondan faqat bitta yulduzsimon strukturani cho‘qqisidan o‘tadigan besh nurli o‘q o‘tkazish mumkin bo‘ladi. Ho‘jayin hujayrani kasallantirishda bu struktura katta rol o‘ynaydi: virus yuqishida bu joydan yulduzsimon “zastyojska” ochiladi va virus DNK si kapsiddan chiqadi. Shu sababli yulduzsimon strukturani “yulduz eshiklar” ham deyiladi.

Mimiviruslarda tashqi qobiqni bo‘lmaslididan ular kasallangan hujayrani endotsitoz yo‘lida tashlab ketmaydi. Mimivirusni kapsidini uzun quyuq oqsil qavati qoplab turadi. Bu iplarni elektron mikroskopda (atomno-silovoy mikroskop) kuzatilganda, ular umumiy bir strukturaga birlashgan bo‘lib bir globulani hosil qiladi. Hozirgacha ular kapsid yuzasidagi uni qaysi uchastkasiga birikkanligi noma’lum. Bu oqsil iplar lizotsim bilan ishlov berilguncha proteazaga chidamlidirlar. Bu ularni peptidoglikan bilan qoplanganliklaridan darak beradi. Bu o‘z navbatida mimiviruslarni Gram usulida bo‘yalishi sababini tushuntiradi. Iplarni ustini qalin glikozirlanganligi ho‘jayin- amyobani jalb qilishda rol o‘ynaydi, degan fikrlar bor.



65-rasm. Mimiviruslarni tuzilishi (120)



66-rasm. Mimiviruslarni oqsil iplari. A, B — ipning tashqi yuzasi, (atomno-silovaya mikroskopiya); S — lizotsim va bromelayn bilan ishlov berilgan mimivirus (krioelektron mikroskop); D — ichki oqsil iplar (atomno-silovaya mikroskopiya) (121)

Nukleokapsidi.

Mimivirus boshqa yirik yadero-sitoplazmatik DNK-tutuvchi viruslarni xususiyatlariga egadir. Masalan mimivirus kapsidini tagida membrana rolini bajarishi mumkin bo‘lgan ikkita elektron zinch qavat mavjud. Ularni tagida esa chiziqli ikkizanzirli virus DNK sini qoplab turgan 7 nm qalinlikdagi oqsil qavat bor.

Ta’riflangan barcha strukturalar nukleokapsidni tashkil qiladi. Nukleokapsidni devori kapsid devoridan 30 nm uzoqda joylashgan bo‘lib, yulduz strukturali joyda ular nukleokapsidni yuzasi sal botiq shaklda bo‘ladi. Taxmin qilinishicha, yulduzsimon struktura cho‘qqisi bilan nukleokapsid orasidagi joy gidrolitik fermentlar bilan to‘latilgan bo‘lib ular virus hujayraga kiramagan vaqtida

kerak bo‘lar ekan. Kapsid va nukleokapsid orasida ichki oqsil iplar bo‘lib ular nukleokapsidni kapsid ichida stabil turishini ta’minlaydi.

Nostrukturaviy oqsillari va RNK.

Kapsidda strukturaviy oqsillardan tashqari virion tarkibida boshqa birqancha funksional guruh oqsillar mavjud:

Transkripsiya qatnashuvchi oqsillar,

5 subbirlik DNK-mute RNK-polimeraza,

2 xelikaza (R350, L540),

Keplovchi ferment,

4 transkripsiya faktorlari (L377, L538, L544, R563),

Oksidlanish yo‘llari oqsili (virusni oksidlanuvchi stresslardan o‘tishida yordamlashuvchi, ho‘jayin-hujayra sistemasini aktivlashishi bilan bog‘liq bo‘lgan oqsillar), lipid va oqsillarni modifikatsiyalovchi oqsillar, proteinkinazalar, proteinfosfataza, fosfoesteraza, lipaza, DNK metabolizmida ishtirok etuvchi oqsillar, topoizomeraza, IA va IB topoizomerazalar, DNKn zararlangan qismlarini ultrafiolet nur bilan korreksiyalovchi endonukleazalar.

Oqsil va DNK dan tashqari virionda har xildNK-polimerazani (R322) kodlantiruvchi mRNK va hokazolar mavjud.

Mimiviruslarni nomi chiziqli ikkizanjirli DNK 2004 yili to‘la sekvenirlangan. Unda 1 181 404 juft asos bor bo‘lib, faqat Megavirus chilensis (2012yil natijalariga qaraganda)dan keyin turuvchi nomi katta virusdir. Unda hujayrali organizmlarni 30 tasini genetik axboroti mavjud.

Genlari

Mimivirusning yarim genlarining gomologlari zamonaviy bilimlar bazasida uchramaydi. Faqatgina 24% nigina mo‘ljallangan funksiyasi ma’lum xolos.

Mimiviruslarni genomlarida barcha yirik yadero-sitoplazmatik viruslarga xos bo‘lgan genlarini asosiy gomologlari topilgan. Mimiviruslarda topilgan gomolog genlarni ko‘plari noyob genlardir.

Masalan, mimivirus nomi translyasiya apparatidagi birqancha oqsillarni kodlantiradi: tirozil-, arginil-, sisteil- va metionil-tRNK-sintetaza, translyasiyanini initsiatsiyalash gomolog faktorlari eIF4E (L496), eIF4A (R458) va SUI1/eIF1 (R464), translyasiyaning elongatsiya faktorlari eEF-1 (R624) va translyasiyaning terminatsiya faktori eRF1 (R726). Translyasiyada qatnashadigan oqsil genlaridan tashqari 6 ta gen bo‘lib, ular leysin, triptofan, gistidin, va sistein kodonini tanuvchi tRNK ni kodlantirsa kerak. Mimivirus tRNK va rRNKdagi uratsil qoldig‘ini metillaydigan ikkita RNK-uratsil-5-metiltransferaza (R405, R407) fermentini gomologlarini kodlantiradi.

Mimivirus yana uglevod, lipid i aminokislota metabolizmi fermentlarini kodlantiradi.

Mimivirusni hayotiy sikli.


Ho‘jayin –hujayrasi. Birinchi ma’lum bo‘lgan virusning ho‘jayini amyoba Acanthamoeba polyphaga dir. Boshqa bir va ko‘p hujayrali organizmlarni eksperimental kasallatirilganda faqat Acanthamoeba avlodining — A. castellanii i A. mauritanI.E.Nsis turlari kasallandi xolos va ular mazkur virusni xo‘jayinlari

bo‘lishlari mumkin. Fan olamida olingan natijalar mimivirus makrofaglarga ham kirishi va ko‘payishi mumkinligini ko‘rsatdi.

Replikatsiya sikli (-rasm)

Mimivirus 24-soatlik hayot faoliyatiga ega. Eklips fazasi 4-5 soatni tashkil qiladi. Barcha hayot sikli sitoplazmada o‘tadi. Mimiviruslarni amyobani kasallantirish quyidagicha ro‘y berishi mumkin:

1. Miimivirus virioni amyobani ovqati bilan endotsitoz usulida yutiladi;
2. Oqsil iplari qisman endosomada lizisga uchraydi, natijada kapsid endosomal membrana bilan munosabatda bo‘ladi;
3. Kapsid yulduzsimon strukturalar oldidan ochiladi va uni ichidagi unsurlar sitoplazmaga tushadi, ichki membrana va endosomani membranalari qo‘shiladi (sliyanie) (bu virus infeksiyasi ro‘y bergandan 2 soat o‘tganda sodir bo‘ladi);
4. Po‘st zarracha qismini(korovaya chast) sitoplazmaga chiqqanidan so‘ng (nukleokapsidni ichki qismi), virus apparatini borligi sababli transkriptsiyalanadi, virus mRNK si sintezi boshlanadi. Bu mRNK lar po‘st zarraning ichida granullalar ko‘rinishida to‘planadi. Birinchilar qatorida RNK polimeraza ta’sirida AAAATTGA-promotor nazoratidagi genlar transkriptsiyalanadi;
5. Virus bilan kasallanish bo‘lganiga 4-5 soat o‘tgandan so‘ng virusDNKsizarrachani po‘st qismidan chiqadi va dekondensirlanadi, va replikatsiya boshlanadi. Natijada po‘st zarrachanni bo‘sh qobig‘i yonida “virus fabrikasi” –virus qismlarini sintezi joyida shakllanadi va virus zarrachalarini yig‘ilishi boshlanadi. Agar hujayraga bipHecha virus kirgan bo‘lsa virus fabrikalari ham shuncha hosil bo‘ladi va ular shakllantirgan virus fabrikalari qo‘silib ketadi va dekondensirlanadi, uni replikatsiyasi boshlanadi;
6. Kasallanish jarayonidan 6—9 soat o‘tgandan so‘ng kapsidlarni yig‘ilishi, ularda DNK ni joylanishi jarayonini kuzatish mumkin. Bu oxirgi jarayon “virus fabrika”sini chetki qismlarida bajariladi. Mimiviruslarni odatdan tashqari xususiyati shundaki, ularni yig‘ilishi va fabrikadan chiqishi ikki xar xil teshiklarda ro‘y beradi;
7. Infeksiya jarayonini 14—24 soatida amyoba hujayrasini lizisi ro‘y beradi va virionlar erkinlikga chiqadilar, bu vaqtga kelib hujayrada 300 dan ortiq virion to‘planadi.




67-rasm. Virus fabrikalari va ularda mimivirus DNKsi ni joylashishi(transmission elektron mikroskop). VF — virus fabrikasi; Cyt — sitoplazma. A — virus fabrikasi va virus zarralarini har xil etilish davrlari. V, S —DNK ni virionga joylashishi (yashil strelkalar yoki kamon o‘qlar bilan virus zarrachasiga DNK ni keltirish teshiklari ko‘rsatilgan. (121)

Patogenligi. Ba’zi gipotezalarga qaraganda mimiviruslar odamlarda pnevmoniya kasalligini qo‘zg‘atishi mumkin ekan. Ammo shu vaqtgacha bu nazariya foydasiga faqat bilvosita guvoxliklar keltirilgan. Birinchidan eksperimentlarda mimiviruslarni fagotsitoz usulida kirib makrofaglarni zararlashi va replikatsiyalanishi aniqlangan.

Ikkinchidan ba’zi kam sonli pnevmoniya bilan kasallangan bemorlarda mimiviruslarga qarshi antitelalar topilgan. Birdan bir mimiviruslar kulturasi bilan ishlaydigan laborantda pnevmoniya kuzatilgan. Uning ham qonida mimiviruslarga qarshi antitelolarni miqdori oshiq bo‘lgan. Antitelolarni bo‘lishi uni patogenligini ko‘rsatmaydi, balki mimivirus kuchli immunogenlik xususiyatiga egaligidir. Birorta holatda mazkur patsI.E.Ntlardan, suyuqliklari namunalaridan toza virus ajratib olingan emas. PSR reaksiyasi ham birorta patsI.E.Nt namunasida ijobiy natija bergani yo‘q. 2012 yili 109 ta pnevmoniya bo‘lgan patsI.E.Ntdan mimivirus aniqlangani yo‘q, ammo uchtaidan virus antigenlari topilgan. Mimivirusni odamga patogenligi masalasi hozircha ochiq qolmoqda.

Mimiviruslarni virofaglari. Mimiviruslarni kashf qilgan guruh olimlari mimiviruslarga o‘xshash viruslarni, hamda sal ulardan kattaroq bo‘lgan mamaviruslarni (ingl. Mamavirus) ajratib olishdi. Bu viruslarni ham “virus fabrikasini ” o‘rganilganda ularda kichikroq bo‘lgan boshqa virus virionlarini aniqlashdi va uni yo‘ldosh (sputnik) (ingl.. Sputnik) (Ris. 41) deb ataldi. Bu yo‘ldosh virus o‘zicha mustaqil amyobani kasallantiraolmas va unda ko‘payaolmas ekan. Lekin u birgalikda mama- yoki mimiviruslar bilan birgalikda bajarishi mumkin, shuning uchun uni virus-satellit deb klassifikatsiya qilindi.

Sputnik ikkizanjirli DNK tutuvchi eukariot hujayralarda ko‘payadigan birinchi sputnik-satellitdir. Bu virusni olimlar oddiy virus emas balki bakteriofaglar kabi bakteriya virusi yoki virofag (**virusni virusi**) deb atadilar. Virofaglar xo‘jayin-hujayra va va virusni o‘zini ko‘payishi uchun xujayin-hujayrani replikativ apparatini ishlataladi. Bugungi kunda ikkinchi mimivirusni virofagini CL shtammi ochildi.



68-rasm.Virofagni sputnigi (122)

9.23.Prionlar yoki sekin kechadigan infeksiyalar

Prionlarni Muxamedov va safdoshlari tomonidan chop etilgan Tibbiyot virusologiyasi kitobida sekin kechadigan infeksiyalarga kiritadi. Uning fikricha ma’lum bir sharoitda odatdagি viruslar keltirib chiqaradigan sekin kechuvchi infeksiyalarni ikki guruhga bo‘linadi. Birinchisi guruhni kasallik qo‘zg‘atuvchilari odatdagи viruslar(qizamiq, qizilcha, kanali ensefalit, sitomegaliya, adenovirusli infeksiyalar, OITS) bo‘lsa va ikkinchi guruhning qo‘zg‘atuvchilariga “prionlar” deb nomlangan yuqumli oqsillarni kiritadi (Muxamedov va b., ,2012). Quyida u tomonidan berilgan tavsifni keltiramiz. Prionlar odamlarda va ayrim turdagи hayvonlarda aniqlangan bo‘lib, ular **alimentar** yo‘lda boshqa hayvonlarga va kamdan-kam holatda odamga yuqishi mumkin. Hayvonlarda – (sigirlardagi “quturish”, norkalarning kasallikkari va h.). Muxamedov va uning safdoshlarini (2012) fikricha odamlarda 5 ta shakli topilgan. Ularni eng ko‘p tarqalgani Kreysfeld-Yakob kasalligi va Kuru kasalligidir. Boshqa kasallikkarga fatal uyqusizlik Gerstman-SHtraussler-SHeinker sindromi va yosh bolalarda uchraydigan ensefalopatiya kiradi.

Prion kasallikkari yuqumli va irsiy kasallikdir. YUqishi har xil tibbiy instrumentlardan foydalanilganda va ayrim hayvon biopreparatlari yuborilganda yuqadi.

Prionlani tuzilishiga kelsak ular – **PrP-sc yuqumli oqsillar** (sialogiko-proteidlar) bo‘lib, hujayraviy oqsil **PrP-c** ning o‘zgargan turidir. Me’yorda PrP-c oqsil organizm hujayralarining tashqi membranalarida bo‘ladi, ayniqsa ular neyronlarda ko‘puchraydi. Bu oqsillar hujayraning o‘zaro bir-birini tanishida,

sinapslarningsh paydo bo‘lishida va uyquni boshqarishda qatnashadi (PrP-c vazifalari oxirigacha o‘rganilmagan).

Patalogik prionli oqsillarlar PrP-s meyordagi PrP-c oqsilidan tuzilishi bilan farqlanadi, ya’ni ularni izomerlari hisoblanadi.

CHidamliligi: Prionlar fizik va kimyoviy omillarga o‘ta chidamli. Ularni 134° S da bir soatda avtoklavda yoki 90% li fenol eritmasi ta’sir etdirib nobud qilish mumkin.

PrP-ss prion molekulasi neyron yoki glial hujayraga kirib, meyordagi PrP-c oqsil molekulasi bilan ta’sirlashadi va unga o‘zining patogen holatini o‘tkazib, uning konfiguratsiyasini o‘zgartiradi. SHu yo‘l bilan meyordagi oqsil patologik prionga aylanadi. Bu jarayon geometrik progressiya ravishda o‘sib boradi.

Patalogik prionli oqsillar hujayra proteazasiga ta’siriga chidamli, interferonga sezgir emas. Ular ko‘p miqdorda tushganda barcha yangi hujayralarni o‘limga olib keladi. Miya ensefalitini rivojlanadiradi.

Klinik belgilari quyidagicha bo‘ladi: sezgi a’zolarini vazifalarini pasayishi bilan sezuvchanlikni buzilishi;

Falajlik rivojlanishi bilan harakatchanlikni buzilishi;

Depressiya., uyquvchanlik, aqliy faoliyatni pasayishi kabi ruxiy o‘zgarishlar; Prionli infeksiyalarda interferon hosil bo‘lmaydi, organizmda immun javobni chaqirmaydi. Klinik belgilari va autopsiya natijalari asosida prionli infeksiya tashxisi qo‘yiladi (laboratoriya usullari ishlab chiqilmagan) (Muxamedov va b.).

? Savollar.

1. Odam va hayvonlar viruslari oilalarini o‘z ichiga olgan klassifikatsiya haqida malumot bering.
2. Poxviridae oilasi avlodlari va vakillari, xususiyatlari. Dunyoda chechak kasalligi muammolari. Nega hozirgi kunda chechakka qarshi emlash to‘xtatilgan
3. Iridoviridae oilasi avlodlari va vakillari, xususiyatlari. Suvda uchraydigan hayvonlar kasalliklari haqida ma’lumot bering.
4. Herpesviridae oilasi avlodlari va vakillari, xususiyatlari. Uchuq virusi qo‘zg‘atadigan kasallik simptomlari.
5. Adenoviridae oilasi avlodlari va vakillari, xususiyatlari.
6. Papovaviridae oilasi avlodlari va vakillari, xususiyatlari.
7. Hepadnaviridae oilasi avlodlari va vakillari, xususiyatlari. Sariq kasalligi virusi simptomlari.
8. Parvoviridae oilasi avlodlari va vakillari, xususiyatlari.
9. Reoviridae oilasi avlodlari va vakillari, xususiyatlari.
10. BipHaviridae oilasi avlodlari va vakillari, xususiyatlari.
11. Togaviridae oilasi avlodlari va vakillari, xususiyatlari.
12. Coronaviridae oilasi avlodlari va vakillari, xususiyatlari.
13. Paramyxoviridae oilasi avlodlari va vakillari, xususiyatlari. Tepki kasalligi va uni simptomlari.

- 14.** Rhabdoviridae oilasi avlodlari va vakillari, xususiyatlari. Qutirish kasalligi va Lui Paster ishlari.
- 15.** Filoviridae oilasi avlodlari va vakillari, xususiyatlari. Zika va Ebola kasalliklari, tarqalishi va uularning havfliligi.
- 16.** Orthomyxoviridae oilasi avlodlari va vakillari, xususiyatlari. Gripp virusining immunitetini nega bipHecha yillargacha davom etmasligi, shtammlari, fermentlari va o‘zgaruvchanligi.
- 17.** Retroviridae oilasi avlodlari va vakillari, xususiyatlari. OITS va unga qarshi kurash.
- 18.** PicopHaviridae oilasi avlodlari va vakillari, xususiyatlari. Poliomielit kasalligi, kurash choralar.
- 19.** Mimiviridae oilasi avlodlari va vakillari, xususiyatlari. Nega bu virusni viruslarga kiritilganligi haqidagi mulohazalar
- 20.** Prionlar yoki sekin kechadigan infeksiyalar. Prionlarning viruslardan farqlari va qo‘zg‘atadigan kasalliklari

IV–qism. Virus epifitotiyalarini rivojlanish qonuniyatları asoslari

10 –bob. Virus epifitotiyalarini rivojlanish qonuniyatları asoslari haqida

10.1. Virus kasalliklari o‘choqlari

Odam va hayvonlarni kasalliklarini bir davlat hududida tarqalishi epidemiya deb nomlanib, kasallikni bir davlat xududidan tashqi davlatlarga ham tarqalishini pandemiya deb nomlanadi. Epifitotiya deganda esa o‘simliklarda tarqaladigan kasalliklarni epidemiyalarini tushuniladi va ularni kasalliklarini qo‘zg‘atuvchilari eukariot va prokariot organizmlar va viruslar bo‘lishi mumkin. Bu mavzuda fitovirus kasalliklarini epifitotiyari haqida so‘z boradi. Virus kasalliklarini biror xududda (“o‘choq”da), biror organizm(lar)da biror virus qo‘zg‘atadi. Bu aytilgan fikrlardan ko‘rinadiki uch faktor asosan virus kasalligini tarqalib epidemiya, pandemiya va epifitotiya darajasiga etishi va juda katta zararlar etkazishi mumkin. Bu erda tarixda gripp virusidan ko‘rilgan katta zararni - 20 millionlab odamlarni qurbon bo‘lganligini, o‘simlik viruslari ta’sirida g‘o‘za, kartoshka, tamaki, tomat, poliz ekinlari, shaftoli va boshqa daraxtlardagi virus kasalliklarini Bouden eslatganidek () fitoviruslarni kasalliklari orqali qishloq ho‘jaligi birqancha millionlab zarar ko‘rishi va ba’zi o‘simlik navlarini biror xududda ekish mumkin bo‘lmay qolishlari kuzatilgan. Ba’zi noyob o‘simliklarni navlarini kasallik oqibatida butunlay yo‘qolib ketganligi kuzatilgan. Kasallikni zarar keltirishidagi uch faktorni doimo nazoratda olib yurish, uni zararini yo‘qotishga qarab tashlangan qadam bo‘ladi. “Virus”ni (kasallikni qo‘zg‘atuvchini) “tashuvchi omil” (hasharotlar, odamlar, hayvonlar va h.k.) kasallikga “moyil organizm”ga (o‘simlikga) olib borishi va kasallik qo‘zg‘atilishi yuzaga keladi. Demak, bu bir “uch halqalik zanjir” bo‘lib, uni birorta halqasini uzib tashlash kasallikni ro‘yobga chiqishini kamaytiradi; ikki halqasini uzib tashlash esa kasallikni yanada ro‘yobga chiqish foyizini kamaytiradi va h. Uchinchi halqa esa o‘z navbatida bu o‘simlik bo‘lsa, uni virusga moyilligi, immunligi, fiziologik holati va boshqalar unda kasallini ro‘yobga chiqishini kamaytiradi. Undan tashqari agrotexnik omillar, ya’ni ekiladigan o‘simliklarni ekilganda virus va kasallanadigan o‘simlik orasiga himoya vositasi bo‘lgan o‘simliklarni ekish va hokazollalni qo‘llash, o‘simliklarni siyrak yoki qalin ekilganligi ham kasallikni ro‘yobga chiqishi bilan bog‘liqligini hisobga olish, o‘simliklarni ekish muddatlarini o‘zgartirib, tashuvchini xali kamligi vaqtida ekish, tashuvchini umuman biologik, kimyoviy omillar bilan yo‘qotish, tashuvchi va virus rezervatorlarini esa kimyoviy, biologik usullar bilan yo‘qotish va h. larni e’tiborga olish maqsadga muvofiq bo‘ladi. O‘rni kelganda aytib o‘tish joyiz bo‘lsa kerak, Q.S. Davranov tomonidan jo‘xorini sariq pakana mozaikasi virusini O‘zbekistonda aniqlab, uni rezervatori g‘umayni “Dalapon” va tashuvchisi shiraga qarshi “BI-58” ni qo‘llab, mazkur virus kasalligiga qarshi kurash chorasini ishlab chiqishni, Z.N. Qodirova tomonidan raps, sholg‘om, redis virus kasalliklariga qarshi “Bitoksibatsillin”

nomli *Bac. thuringiensis* asosida tayyorlangan biologik preparatni qo'llab, virus tashuvchi omil-shiralarga qarshi kurash chorasiini qo'llaganligini eslash mumkin.

Yuqorida aytilganlardan xulosa qilib shuni aytish kerakki Yu.I.Vlasovni E.N. Pavlovskiy nazariyasini fitovirusologiyada qo'llash va uni virus epifitotiyalarini rivojlanish qonuniyatlarini o'rganishi viruslarga qarshi kurash choralarini ishlab chiqishda eng samarali ishlardan ekanligini ko'rsatdi. Pavlovskiy nazariyasida aytlishicha "barcha virus kasalliklarini tabiatda o'choqlari mavjud bo'lib, ular orqali kasallik qo'zg'atuvchi (virus), spetsifik tarqatuvchisi va hayvonlar – kasallik qo'zg'atuvchining rezervuarlari avlodlarini o'zgarishi davomida, chegaralanmagan uzoq muddatda, hayot faoliyatini odamga bog'liq bo'lмаган holda, о'з табиий о'choqlarida avval о'tган evolyusiyasida va hozirgi davrda ham hayot faoliyatini davom etdiradi". Uning ko'rsatishi bo'yicha, tabiiy o'choqli kasalliklarga uzoq sharq ensefaliti virusi eng yaxshi misol bo'laoladi, ya'ni bu kasallik virusi kanalar orqali transovarial tarqaladi va ularda qishlaydi. Kanalar har xil yovvoyi hayvonlarni virus bilan kasallantiradi va ulardan virus yangi sog'lom kanalarga o'tadi va ularga virus kasalligini yuqtiradi. Bu holatda odam bu kasallikga sezgir bo'lsa ham virusni tarqalishiga va tabiatda saqlanishiga hech qanday aloqador bo'lmaydi. Odamni kasallanishi uni faqat virus tabiiy o'choqlariga kirganidagina ro'y beradi. Demak, "tabiiy o'choq" tushunchasi o'z ichiga "kasallikni qo'zg'atuvchisi" (virus) – "tashuvchisi" – "kasallikga moyil organizm"ni qamrashini tushuniladi. Tabiiy o'choqning bo'lishini fundamental asosi tabiiy o'choqda kasallikni qo'zg'atuvchisini doimo sirkulyasiya qilishidir (Yu.I. Vlasov , 1974; 1982; Parshin, 1976; Davranov, Vaxobov, 2016). Bu sohada Yu.I. Vlasov tomonidan virus kasalliklarini tabiiy o'choqlarini o'rganish borasida katta ishlar qilingan. U bu muammoni nazariy tomonlarini, ular bilan kurashishni amaliy tomonlari va virus epifitotiyalarini prognoz qilish bilan bog'ladi. Tabiiy o'choqlar sohasidagi ta'limotni amaliy ahamiyati ham bor bo'lib, unda qishloq xo'jalik o'simliklariga xatarli infeksiya manbalarini aniqlashni, patogenni ma'lum bir o'choqda sirkulyasiyalanish xususiyatlarini aniqlash, epifitotiyarlari rivojlanishini oldini oladigan choralarini ishlab chiqishni taqazo etadi (mujassamlashtiradi). Har bir guruh o'z spetsifik xususiyatlarga ega. Epifitotiyarlari rivojlanishi virus tabiiy o'choqlari, ekologiya omillari (sharoitlari) , virus patogenligi, virus infeksiyasini yuqish mexanizmi, xo'jayin o'simlikni virus yuqishiga moyilligi, agrotexnika omillari va h.lar bilan uzviy bog'liqdir.

10.2. O'simlik virus kasalliklarini tabiiy o'choqlari va tiplari

Tipik tabiiy-o'choqli kasalliklarga yovvoyi o'simliklar – tashuvchilar – yovvoyi o'simliklar sxema bo'yicha sirkulyasiya qiladigan kasalliklar kiradi. Bu guruhga kiruvchi viruslar ba'zan madaniy o'simliklarda epifitotiyalarga sabab bo'lsa ham, bu viruslarni sirkulyasiyasida madaniy o'simliklar majburiy zveno hisoblanmaydi. Mazkur virus yoki virus kasalliklarini quyidagi guruhlari mavjud:

1. Tipik tabiiy-o'choqli kasalliklar;
- 2.Qo'zg'atuvchisi madaniy o'simliklar orasida ham muqim sirkulyasiyaga ega tabiiy o'choqli kasalliklar;
- 3.Qo'zg'atuvchilari tabiiy o'choqlar bilan qisman aloqani saqlagan kasalliklar;
4. Tabiiy o'choqlar bilan aloqasi tasdiqlanmagan kasalliklar

10.2.1. Tipik tabiiy-o'choqli kasalliklar

Virus ko'p yillik begona o'tlarda qishlaydi. Bahorda, yozning boshlarida Aphis fabae birlamchi xo'jayinidan (kalina, jasmin) begona o'tlarga o'tadi, yuqadi va undan ekilgan dukkaklarga o'tadi. Shiralarni bir qismi esa begona o'tlarga o'tib yangi o'choq hosil qiladi. Demak, virus doimo tabiiy o'choqlarda begona o't – shira- begona o'tda sirkulyasiya qiladi. Uning tabiatda muqim saqlanishi dukkaklilarni bor yo'qligiga bog'liq emas. Virusning biologiyasini o'rganish quyidagi faktorlarga e'tiborni tortadi. Birinchidan tabiiy o'choq yashirin latent bo'lishi mumkin, chunki ko'pincha begona o'tlarda kasallik simptomlari yorqin bo'lmaydi. Ikkinchidan, bitta emas balki bipHecha begona o'tlar "virus –tashuvchi" bo'lishi mumkin. Bularni barchasi dukkaklilar sariqligi va unga yaqin viruslar tabiiy o'choqlarda sirkulyasiyasi muqim bo'lishini tasdiqlaydi (19-jadval).

Beda jarohati o'smasi, Oddiy bodiring mozaikasi, G'o'za bargini buralishi, Qiltanoqsiz koster mozaikasi, Sholi pakanaligi viruslari ham "Tipik tabiiy-o'choqli kasalliklari" guruhiba kiradi. Ularni ham o'z spetsifik kasallantiruvchi o'simliklari, tashuvchi hasharotlari, o'z sirkulyasiyalari mavjud. Bu qonuniyatatlarni, xususiyatlarni o'rganish va ularga amal qilish virus epifitotiyalarini oldini oladi.

19-jadval

Tipik tabiiy-o'choqli kasalliklarni belgilovchi faktorlari

Kasallik-lar (viruslar)	Simptomlari	Tarqatuvchi hasharotlar	Urug' orqali tarqalishi	Rezervatori	Sirkulyasiyasi	Adabiyot
No'xotlar va dukkaklilarini sarg'ayishi	Xloroz, yuqori barglarini buralishi va maydalashi shi, o'sish va rivojlanishda orqada qolishi	Dukkak lilarni qora shirasi- Aphis fabae Scop.yana loviya, vika, beda shiralari	Urug' orqali o'tishi isbotlanmag'an	Cirsium arvense (L.) Scop., Chenopodium album L.ikkilamchi o'chog'i beda	Virus ko'p yillik begona o'tlarda qishlaydi .	Vlasov, 1964; 1966

10.2.2. Madaniy o'simliklar orasida ham qo'zg'atuvchisi muqim sirkulyasiyaga ega tabiiy o'choqli kasalliklar

Yu.I.Vlasov va uning hamkasblari tomonidan Ukraina, Kavkazorti, Krasnodar o'lklarida tomatni dog'li zarhallanishi (so'lishi) virusi (*Lycopersicon virus 3 Smit*) har tomonlama o'rganilib, bu virusni rezervatorlari, tashuvchi hasharotlarini o'rganish natijasida mazkur kasallikni "madaniy o'simliklar orasida ham qo'zg'atuvchisi muqim sirkulyasiyaga ega tabiiy o'choqli kasalliklar" guruhiba kirishi haqida ko'plab ma'lumotlar olishdi va ularni o'choqlari aniqlashdi. Begona o'tlar (*Datura stramonium L. esculentum*, *Sisymbrium officinale Perg.* (*gulyavnik*)), bilan bir qatorda mazkur virusni madaniy o'simliklarni – kartoshka, kartoshkagul, qalampipHi kasallantirishi va bir yildan ikkinchi yilga kartoshka yoki kartoshkagulni tuganaklari orqali tarqalishini isbotlandi. Virusni begona o'tlardan hamda bularga bog'liq bo'lmagan holda madaniy o'simliklardan tripslarni har xil turlari (*Thrips tabaci Lind.*, *Franklinella insularis Frank*, *F.maltoni Frank* va h.) orqali tashilishini aniqlashdi. Demak, bu virus madaniy o'simliklar orasida ham muqim tashuvchilar orqali sirkuyasiya qiladi. Bu guruhiba juda ko'p virus kasalliklari kiradi. Ularning sirkulyasiyasi qonuniyatlarini Tomatni dog'li zaxallanishi (so'lishi) virusi *Lycopersicon virus 3 Smit*. misolida ko'ramiz. Bu kasallikni 1941 yilda Eristavi E.M. birinchi marta Rossiyada kashf qilgan. Keyinchalik bu virus biologiyasini Razvyazkina G.M., Suxov K.S lar tamaki va maxorka o'simliklarda o'rganganlar. Bu virusni tarqatuvchisi *Thrips tabaci Lind.* va uni birqancha turlari kasallikni tarqatadi. Virus hasharot tanasida qishlaydi. Virusni Ukrainada maxorkada tarqalgan shtammini "yuqori xloroz" yoki rus tilida "verxushechny xloroz" deb nomlanadi. Ukrainada aniqlangan bu shtammni Tomatni dog'li zaxallanishi virusi guruhiba kiritiladi. Qishlab chiqqan tripsdan tashqari virusni tarqatuvchi manbalariga ba'zi begona o'tlar, jumladan gulyavnik *Sisymbrium officinale Perg* kiradi. Ma'lum miqdorda rezervator bo'lib kartoshka ham katta rol o'ynaydi. Bu virusni biologiyasini Vlasov va shogirdlari Krasnodar o'lkasida, Abxaziyada o'rganishgan. Subtropika iqlim zonalarida bu virusni o'rganishda, uni tarqalishi va saqlanishi gulyavnikni ishtirokisiz ham bo'lishi mumkinligini ko'rsatildi. Abxaziya, Adler xududlarida gulyavnik umuman uchramasa ham tomatni zarhallanishi kasalligi tarqalganlini aniqlandi. Virus infeksiyasi *Datura stramoniumda* uchrashi aniqlandi. Demak virusni tarqalishida bu o'simlik ma'lum rolni o'ynashi mumkin. Virusni qishlash joyini aniqlash ma'lum daraja o'rganishni taqazo qiladi. K.Smit bu virusni eng ahamiyatli xo'jayinlardan biri deb kartoshkagulni hisoblaydi. Bu o'simlikni tuganaklari orqali virus keyingi yilga ham berilishi va boshqa xududlarga tarqalishi mumkin. Tomat ekilgan erlar kartoshkagul ekilgan xududlarga yaqin bo'lsa kasallikni ko'payishi va uzoqlashganda aksi kuzatiladi. Demak bu natijalardan quyidagi xulosa qilish mumkin: gulyavnik uchramaydigan xududlarda virus begona o't hisoblangan do'rmonda uchraydi, madaniy o'simliklar ichida virus rezervatori bo'lib kartoshkagul xizmat qilishi mumkin.

Poltavada bu virusni rezervatori bo‘lib qora ituzum va mingdevona (belena)ni ko‘rsatish mumkin. K.Suxov va G.M.Razvyazknani fikrlari bo‘yicha virus kasal o‘simlikdan zararlangan tripsni tanasida qishlashi va virusni saqlashi mumkin va u virus tarqatadigan doimiy o‘choq bo‘lishi mumkin.

20-jadval


Tabiiy-o‘choqlarining qo‘zg‘atuvchilari madaniy o‘simliklar orasida ham muqim sirkulyasiyaga ega kasalliklar.

Kasal liklar va viruslari	Simptomlari	Tarqatu vchi hasharot lar	Urug ‘orqali tarqalishi	Rezervatori	Sirkulyasiyasi
Tomattni dog‘li zarxa llanishi (so‘li shi) virusi rusi Lyco persicon virusi 3 Smit	Tomat barglarida zaxallangan xalqali dog‘lar hosil bo‘laboshlaydi va keyinchalik ko‘payib zaxallik barg yuzasini qoplaydi.Dog‘lar sekin asta nekroplashadi, quriydi.Qurish yuqori barglardan boshlanadi. Kasallangan mevalarda normal sariq ranglar va o‘ta qizil konsentrik ranglar paydo bo‘ladi.	Thrips tabaci Lind., Franklinella insularis Frank, F.maltoni Frank va h., mexanik usulda	Tuganaklar	Begona o‘tlardan: Datura stramonium L.eskulentum , Sisymbrium officinale Perg (gulyavnik), madaniy o‘simliklarda n: kartoshka,qalampir kartoshkagul va uni tunganaklari	Virusni begona o‘tlardan hamda bularga bog‘liq bo‘lmagan xolda madaniy o‘simliklardan tripslarni xar xil turlari (Thrips tabaci Lind., Franklinella insularis Frank, F.maltoni Frank va h.) orqali tashilishini aniqlashdi. Demak bu virus madaniy o‘simliklar orasida ham muqim tashuvchilar orqali sirkulyasiya qiladi.

10.2.3. Qo‘zg‘atuvchilari tabiiy o‘choqlar bilan qisman aloqani saqlagan kasalliklar

Bu guruhga kontakt orqali yuqadigan viruslar kiradi. Bu viruslar tabiiy o‘choqlarga ega emas, ular madaniy o‘simliklar orasida muqim tarqalishi mumkin. Ammo bu virus kasalliklarining ham tabiiy o‘choqlar nuqtai

nazaridan qaraydigan bo‘lsak, ularning ba’zi shtammlari masalan tamaki mozikasi virusining zubturumda tarqalgan shtammi (Goldin, 1953) tabiiy o‘choqlarda tabiiy yo‘llar orqali tarqalishi mumkin. AQShda bu shtamm fizalis va paslyonda (Dulitl, 1956 (Vlasovdan olindi) Vlasov ishlarida TMV ni gulyavnikni Sisymbrium loiselii (Polak, 1965) kasallantirishi tasdiqlangan. KXV virusni bedada uchrashi R. Goth, R. Wilcoxon, 1960; 1961 olimlar ishlarida keltirilgan (Vlasov dan olindi, 1974).



69-rasm. Virus sirkulyasiyasining faslgan qarab amalga oshishining sxematik ravishda ifodalanishi.

Kasallik qo‘zg‘atuvchi viruslarni tashuvchi hasharotlar yordamidagi sirkulyasiyasi (strelkalar soat miliga monand hasharotni virus tashuvchiligini ko‘rsatadi)

Bu viruslarni Vlasov va uning shogirdlari tomonidan olib borilgan ishlarda TMV va KXV ni tabiiy o‘choqlari borligi tasdiqlangan. Bunday ishlar O‘zMU ning aspiranti Fayziev tomonidan ham tasdiqlangan va yana yangi tabiiy o‘choqlari aniqlangan (Fayziev V.B., 2012). Tabiiy o‘choqlar bilan qisman aloqasi saqlangan kasalliklarga yana kartoshkani S virusi, kartoshkani M viruslarini kiritish mumkin.

Tabiiy o‘choqlar bilan qisman aloqasi saqlangan kasalliklar

Kasalliklar va viruslari	Simptomlari	Tarqatuvchi hasharotlar	Urug‘ orqali tarqalishi	Rezervatori
TMV	mozaika		Tomat urug‘lari orqaligina	Gulyavnik Sisymbrium Loeselii (Polak,1965)
XVK	Mozaika, xol-xollik	shiralar	tuganaklar	bedada uchrashi R. Gloth, R. Wilcoxon,1960 ; 1961

10.2.4. Tabiiy o‘choqlar bilan aloqasi tasdiqlanmagan kasalliklar

Tabiiy o‘choqlar bilan bog‘liqligi aniqlanmagan virus kasalliklariga soya mozaikasi, oddiy loviya mozaikasi virusi, bodringni och yashil va oq mozaikasi, arpa shtrixli mozaikasi, vigna mozaikasi viruslari hamda birqancha mevali daraxt, buta o‘simliklarining virusli kasalliklari kiradi. Bu guruh viruslarini “ixtisoslashi”ini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, bu termin “fitovirusologiya”da ancha chalkash va murakkabliklarga ega. Ba’zi tor o‘simlik doirasini kasallantiradigan viruslar deb hisoblangan viruslarni eksperimental kasallantirilganda kutilmagan o‘simliklarni kasallantirishi aniqlandi. Masalan, arpa shtrixli mozaikasi virusi tabiatda faqat donli o‘simliklarda tarqalgan bo‘lsa eksperimental yuqtirilganda esa u sho‘ra o‘simligini ham, nekrozlar hosil qilib kasallantirishi aniqlandi. Ba’zi mevali daraxtlar viruslari sun’iy yuqtirilganda bodring o‘simligini, sho‘ra avlodiga kiruvchi o‘simliklarni kasallantiradi. Kartoshkani X virus kasalligi sistematik o‘rni jixatidan juda uzoq bo‘lgan qulupnay gulni nekrozlar hosil qilib kasallantiradi. Bunday xolatlar adabiyotda ko‘plab uchraydi.

Urug‘ orqali tarqalishi arpa shtrixli mozaikasi, oq va yashil mozaikali bodring loviyani oddiy mozaikasi viruslarida urug‘ orqali tarqalishi aniqlangan.

SHunday qilib aytish mumkin, agar kasallik tabiiy o‘choqlar bilan bog‘lanmagan bo‘lsa, bunday kasalliklar kasal o‘simliklar tabiiy o‘choqlar bilan aloqasi bo‘lmagan viruslar urug‘ orqali boshqa sog‘ o‘simliklarga yuqishi aniqlandi.

Umumiy xulosa qilib aytiganda bu guruh virus kasalliklarini birdaniga ko‘payib “tarqalishi” («vspshkasi») sabablari – dastlabki materialni o‘zini kasallangan bo‘lishi, yani urug‘ni va boshqa ekish materiallarini virus bilan kasallangan bo‘lishi va kasallanishni birdaniga rivojlanishiga muxim optimal sharoitni to‘g‘ri kelishidir.

Shunday qilib yuqorida virus o‘choqlari haqida, ularni virusning tabiatini, uning tashuvchilarini, rezervatorlari va ularning turlariga ekologik, xududiy joylashishlariga qarab Vlasov bo‘yicha fitoviruslarni guruhlari va ularga o‘z xususiyatlari bilan, qo‘zg‘atuvchisi, tashuvchisi va kasallantiradigan o‘simliklari

va bu asosda ularni sirkulyasiyalari o‘rganilib virus epifitotiyalarin ma’lum xududlarga moslab o‘rganildi.

22-jadval

Tabiiy o‘choqlar bilan aloqasi tasdiqlanmagan kasalliklar

Kasalliklar va viruslari	Simptomlari	Tarqatuvchi hasharotlar	Urug‘ orqali tarqalishi
Soya mozaikasi	Tabiatda bu virus faqat soyani mozaika simptomlari hosil qilib kasallantiradi	Har xil shira turlari	Uzoq SHarqda ham virus faqat soyani kasallantiradi.Ukraina da urug‘i orqali. Sobolevani olgan natijalari bo‘yicha O‘zbekistonda ham urug‘i orqali tarqaladi (4 – 56%).
Vigna mozaikasi	Vignani ba’zi namunalari ni mozaika hosil qilib kasallantiradi	Har xil shira turlari	Urug‘i orqali

Bu qilingan ishlar boshqa xududlarda tarqalgan virus kasalliklarini aniqlash, sirkulyasiyalarni o‘rganish va ularni profilaktikasi, prognozi va epifitotiyalarini rivojlanish qonuniyatlarini ochib berilishiga yo‘naltiradi. Kasallikni yuzaga chiqmasligi uchun har bir xududga munosib asosiy faktorlardan bo‘lgan virus, virus tashuvchi, o‘simlik tizimi sho‘nalishida ish olib borish kerakligini taqazo etadi.

10.2.5.Epifitotiyarni rivojlanishiga ta’sir qiluvchi asosiy faktorlar. Epifitotiyarni rivojlanishiga ta’sir qiluvchi asosiy faktorlarga o‘simlik virus kasalliklarini tabiiy o‘choqlari, ekologik faktorlar, infeksiyani tarqalishi mexanizmi, xo‘jayin-o‘simlikni kasallikga moyilligi, virusni patogenligi, agrotexnik omillarni ko‘rsatish mumkin. Ana shu faktorlarni har tomonlama o‘rganish va ular asosida xulosalar qilish albatta virus epifitotiyalarini rivojlanishini oldini olishga katta yordam beradi.

Ekoliya omillari (sharoitlari). Ekologiyaning virus kasalliklariga ta’siri ikki xil bo‘lishi mumkin, ya’ni a) ekologik omillarni (namlik, temperatura, yorug‘lik, pH, virusni holati) virus kasalliklarini rivojlanishiga va b)tarqalishiga ta’siri bo‘ladi.

a) ekologik omillarni virus kasalliklarini rivojlanishiga ta’siri o‘simlik virus bilan kasallangandan so‘ng tashqi ta’sir patologik jarayonga ta’sir qiladi. Bouden

F. ning aytishicha kasallik simptomlarini tavsiflaganda atrof muxit sharoitlarini ham ko'rsatilishi kerak bo'ladi. Ularni o'zgarishi bilan kasal o'simlikni tashqi ko'rinishi butunlay o'zgarib ketishi mumkin. O'simlikni o'stirish sharoiti, unga virusni yuqish moyilligini, simptomlar hosil bo'lish muddatini o'zgartirib yuborishi mumkin. Bunda virus va o'simlik orasidagi munosabatlar ham o'zgaradi, natijada kasallanish simptomni maxalliy yoki tizimli bo'lishi mumkin. Ba'zan kasallik simptomlari yuzaga chiqmasligi va latent shaklda bo'lishi mumkin.

b) tarqalishiga ta'siri. Tashqi ta'sir kasallikni tarqatuvchi hasharotlarni aktivligiga noqulay bo'lishi mumkin. Natijada kasallik keng masshtabda tarqalaolmaydi. Tashqi ta'sirni noqulayligi tuproqda virusni saqlanish muddatiga ham ta'sir etadi. Bu holatlarni tushunib etmaslik olingan natjalarni noto'g'ri talqin qilishga olib keladi. Yu.I.Vlasovning tomat o'simligi kasalliklariga tashqi ta'sirni o'rganish borasidagi ko'p yillik ishlari bu kasallikni virusini (TMV) issiqxonada o'stirishda temperatura va yorug'likni ta'sirida har xil simptomlar hosil bo'lishini ko'rsatdi

10.3. Virus infeksiyasini yuqishi

Patogenni yuqish va tarqalish mexanizmini bilish mexanizm zanjiridagi bir zanjir halqasini uzish orqali virus kasalliklariga qarshi kurash choralarini ishlab chiqishda katta rol o'ynaydi. L.V Gromashevskiyi (1962) aniqlashicha kasallikni qo'zg'atuvchini bir organizmdan ikkinchisiga o'tishi uch bosqichdan iborat bo'ladi: 1) virusni tashqi muxitga chiqishi, 2) tashqi muhitda bo'lishi va 3) yangi organizmga kirishi.

Virusni kasallangan organizmdan tashqi muhitga chiqishi har xil yo'llarda amalgaloshishi mumkin. Tashuvchi hasharotga virusni kelib tushishi hasharotni kasal o'simlikdan oziqlanishi orqali amalgaloshadi. Tuproq orqali tarqaladigan viruslarda esa kasal o'simlik ildizidan ajralgan eksudatlardan, kasal o'simlik qoldiqlaridan, virus kasal o'simlikdan ularga ishlov berilganda paydo bo'ladigan jarahotlar orqali ajralishi mumkin. Bunda yuqumli shira bilan qo'llar va ishlov berish asbob-uskunalar infeksiyalanadi. M.I.Goldinining maxsus tajribalarida tuproq orqali yuqadigan viruslarni kasal organizmidan chiqishi ko'rsatib berilgan. TMV bilan kasallangan o'simlik ildizidan ajralgan ma'lum miqdor virus eritmaga o'tadi. Tabiatda viruslarni tarqalishiga yana boshqa birqancha faktorlar ta'sir qiladi. Bulardan virusning patogenligini, ho'jayin-o'simlikni virus yuqishiga moyilliği (vospriimchivost), agrotexnika omillarini ko'rsatish mumkin.

I.A.Kartashova o'zining "Selskoxozyaystvennaya fitovirusologiya" kitobida Vlasovni yuqorida keltirilgan "tabiiy o'choqlar" haqidagi fikrlarini qisqacha qilib viruslarni oilalari bo'yicha 4 guruhga bo'ladi va ularga kirgan viruslarni qisqacha tavsiflaydi.

Birinchi guruhga bodring mozaikasi virusi, yaltirbosh mozaikasi virusi, no'xot mozaikasi virusi, fizalis virusi va h.larni kiritadi.

Ikkinchi guruhga kartoshkani U virusi, gulkaram mozaikasi virusi, tomat zaxallanishi virusilarini kiritadi.

Uchinchi guruhga esa TMV, kartoshkani X viruslarini kiritadi va ularni uchraydigan madaniy o'simliklarini (tamaki, tomat, qalampir, kartoshka), hamda yovvoyi o'simliklarda (gulyavnik, fizalis, sikoriy) o'simliklarida uchrashini ko'rsatadi. TMV ni urug' orqali o'tishi, kartoshkani X virusini tuganaklar orqali o'tishi ularni qishloq ho'jalik o'simliklarida muqim sirkulyasiga moslashganligini ko'rsatadi.

To'rtinchi guruhga esa tobamoviruslar avlodiga kiruvchi bodring mozaikasi (xol-xolligi) virusini, potiviruslardan soya mozaiksi viruslarini keltiradi. Ularni tor doiradagi o'simliklarni kasallantirishi va ular urug' va ekish materiallari orqali kontakt usuli yoki virus tashuvchilar orqali tarqalishiga e'tibor qaratadi. Ba'zi virus kasalliklari faqat payvandlash orqali o'tishini ko'rsatadi.

Yu.I.Vlasov tomonidan ayrim patogenlar – tabiiy o'choqli kasalliklarni qo'zg'atuvchilarini biologiyasini o'rganib, bu natijalarni birqancha nazariy aspektlarini virus kasalliklarga qarshi kurash choralarini ishlab chiqishda va virus kasalliklarni epifitotiyalarini prognoz qilishda ma'lum natijalar olindi. Bu xususiyatga ega bo'lib viruslar va mikoplazmalarni rezervatorlari - yovvoyi o'simliklar bo'lishi mumkin. Birlamchi tabiiy o'choq madaniy o'simlikga bog'liq bo'limgan holda faoliyat ko'rsatishi - yashashi mumkin. Madaniy o'simliklarni kasallantirish uchun ularni infeksiya o'chog'i zonasida o'stirish hamda tabiiy o'choqdan tashuvchini qishloq ho'jalik ekinlariga o'tishiga sharoit bo'lishi kerak.

Birlamchi tabiiy o'choqlar bilan bir qatorda ikkilamchi tabiiy o'choqlar mavjud bo'ladi. Ular madaniy o'simliklarda tarqalgan virus ko'pyillik va yovvoyi o'simliklarni kasallantirishidan hosil bo'ladigan zonalarda paydo bo'ladi. Vaqt o'tishi bilan yovvoyi flora vakillari u yoki bu patogenni doimiy tabiiy xo'jayiniga aylanadi. Infeksiyani harqanday tabiiy o'chog'i patobiotsenoz hisoblanadi, chunki uni tarkibiga kasllikni qo'zg'atuvchisi ham kiradi. Bu holatda patobiotsenoz deb ma'lum tashqi sharoitda muxitda evolyusiya natijasida hosil bo'lgan o'simlik-xo'jayin, tashuvchi va patogen (virus, mikoplazma) tushuniladi.


Hozirgi vaqtida ko'pgina erlar o'zlashtirilishi natijasida birlamchi virus o'choqlari qisqardi. Buning natijasida endi madaniy va yovvoyi o'simlik, kasallik qo'zg'atuvchi va tashuvchi orasida yangi aloqalar paydo bo'ldi. Bu aloqalar ham qandaydir darajada tabiiy o'choqlar tushunchasi bilan tavsiflenadi. Ba'zi viruslar o'zini tor o'simliklar doirasida ixtisoslashganligi sababli ular tabiiy o'choqlarda umuman tarqalmaydi. Xullas bu yo'nalishdagi ishlarni ham nazariy, ham amaliy tomonlarini yangi, zamonaviy usullar va texnologiyalar yordamida o'rganish yaqin keljakdagi oldimizdagi dolzarb vazifalardandir. SHu kungacha O'zbekistonda barcha o'rganilgan (tomat, tamaki, sholg'om, raps, redis, kartoshka, beda, g'o'za, jo'xori, bulg'or qalampiri) viruslarini bir qancha xususiyatlari haqida ma'lumotlar mavjud. Ammo ularni tabiiy o'choqlari va guruhlari va ularni sekin asta madaniy o'simliklarni kasallantirishi va yangi virus o'choqlarini paydo bo'lishlari haqida ma'lumotlar yo'q va ular hozirgi kungacha o'rganilmagan. Shularni e'tiborga olgan holda biz O'zbekistonda o'rganilgan ba'zi viruslarni tabiiy o'choqlari guruhlarga bo'linishini aniqlash oldimizda turgan dolzarb masalalardandir.

? Savollar

1. Virus kasalliklarining o‘choqlari deganda nimani tushunasiz?
2. Pavlovskiy nazariyasi nima va uni virus tarqalishidagi rolini ko‘rsatib bering?
3. Vlasov tomonidan fitoviruslar kasalliklari o‘choqlari nazariyasini ishlab chiqish va qo‘llashini aytib bering.
4. Tabiiy o‘choqli kasalliklar deganda nimani tushunasiz?
5. Ensefalist virusi misolida iabiiy o‘choqli kasalliklarni tushuntiroib bering.
6. Tabiiy o‘choqli kasalliklarni tiplprinechta va ularni sanab bering.
7. Qo‘zg‘atuvchisi madaniy o‘simliklar orasida ham muqim sirkulyasiyaga ega tabiiy o‘choqli kasalliklar deb qanday kasalliklarga aytildi?
8. Qo‘zg‘atuvchilari tabiiy o‘choqlar bilan qisman aloqani saqlagan kasalliklar deb qanday kasalliklarga aytildi?
9. Tabiiy o‘choqlar bilan aloqasi tasdiqlanmagan kasalliklar deb qanday kasalliklarga aytildi?
10. Tabiiy o‘choqlarni o‘rganish, viruslar sirkulyasiyasi aniqlash, va undagi qo‘zg‘atuvchi – tashuvchi – organizm tizimini o‘rganish qanday qonuniyatlarni oqilishiga olib keladi?
11. Epifitotiya nima va uni prognoz qilish mumkinligini asoslarini so‘zlab bering.
12. Epidemiya, pandemiya va epifitotiyalarni o‘rganishni qanday nazariy, amaliy va siyosiy ahamiyatlari borligini tushuntirib bering.


S.O.A.

ILOVALAR



Ilova, 1-rasm.Tamaki mozaikasi virusini yosh tomat o'simligida tarqalishi.
Rasm tepasidagi raqamlar tajriba qilingan kunlarni ko'rsatadi (3)

Viruslarni eksperimental yuqtirish



Ilova, 2-rasm. Virus tashuvchi hasharotlarni ko‘paytirish va ular bilan ishlashda qo‘llaniladigan moslamalar.

A. SHiralarni ko‘paytirish uchun ishlatiladigan selluloiddan tayyorlangan moslama. Uni bir necha joyida doka (to‘r) bilan to‘silgan shamollatishga xizmat qiladigan tirqishlar mavjud.

B. Sikadalarni (chirildoq) saqlashda qo‘llaniladigan kichik moslama.

B. Virustashuvchi xasharotlar bilan ishlashda qo‘llaniladigan asboblar. YUqorida: tish muolajasida ishlatiladigan uchi qayrilgan asbob bo‘lib, u nematodalar bilan ishlash jarayonida foydalaniladi.

O‘rtada kanalarni o‘tkazishda foydalaniladigan 1 dona olmaxon mo‘yi. Pastda xuddi shunga o‘xshash, shiralar bilan ishlashda foydalaniladigan olmaxon mo‘yi to‘plami.

G. Sikadalar (chirildoq) bilan ishlashda ishlatiladigan aspirator. So‘rib olish uchun ishlatiladigan naychani bir tomoni doka bilan berkitilgan bo‘ladi.

**Virus preparatining tozaligini ko‘rsatadigan asosiy mezonlar
(Ilova, 3 - 7-rasmlar)**

A



B



Ilova, 3-rasm. Arpa shtrixli mozaikasi virusining elektron mikrofotografiyasi:

A – palladiy bilan changlatilgan (kattalashtirilishi 60 000 x);

B – fosfor - volfram kislotasi bilan kontrastirlangan (kattalashtirilishi 150 000 x)


A



B



Ilova, 4-rasm. Tamaki mozaikasi virusining elektron mikrofotografiyasi:
A – palladiy bilan changlatilgan (kattalashtirilishi 60 000 x);
B – fosfor-volfram kislotasi bilan kontrastirlangan, pH 7,0 (kattalashtirilishi
100 000 x)




Ilova, 5-rasm. Bodring mozaikasi virusining elektron mikrofotografiyasi:
A – palladiy bilan changlatilgan (kattalashtirilishi 90 000 x);
B – fosfor-volfram kislotasi bilan kontrastirlangan, pH 7,0 (kattalashtirilishi
150 000 x)


A




B



Ilova, 6-rasm. Kartoshkani X -virusining elektron mikrofotografiyasi:
A – palladiy bilan changlatilgan (kattalashtirilishi 90 000 x);
B – fosfor-volfram kislotasi bilan kontrastirlangan, pH 7,0 (kattalashtirilishi
100 000 x)




Ilova, 7-rasm. Yaltirbosh mozaikasi virusining elektron mikrofotografiyasi:
A – palladiy bilan changlatilgan (kattalashtirilishi 100 000 x);
B – fosfor-volfram kislotasi bilan kontrastirlangan, pH 7,0 (kattalashtirilishi
330 000 x)




Ilova, 8-rasm. Tozalangan virus preparatlarining UB-nupHi yutish spektri: 1-TMV, 2- ACHMV, 3-KXV, 4-KUV, 5-YAMV, 6-TSMV;
absitsa o‘qida viruslarni UB -nupHi yutishi; ordinatada to‘lqin uzunliklari.



Ilova, 9-rasm. ACHMV virusining gelfiltratsiya usulida tozalangan preparatini gelfiltratsiyadan oldingi va gelfiltratsiyadan keyingi olingan fraksiyalarini ACHMVga qarshi olingan antizardob bilan va arpaning normal hujayra tarkibiy qismlariga qarshi olingan antizardob bilan immunologik reaksiyalari: 1- chuqurchalar ACHMVga qarshi olingan antizardob bilan; 2- arpaning normal hujayra tarkibiy qismlariga qarshi olingan antizardob bilan; 3 - gelfiltratsiyadan oldingi, 12, 14, 16, 18, 19, 22, 23, 27, 28, va 29 chuqurchalar - gelfiltratsiyadan keyingi olingan fraksiyalar bilan to‘ldirilgan



Ilova, 10-rasm. ASHMV ni gelfiltratsiya usulida tozalangan preparatini analitik ultratsentrifugada sentrifugalash.Rasmlar rotopHi aylanish tezligi minutiga 20 000 marta bo‘lganda olingan. Virus konsentratsiyasi 2 mg\ml



Ilova, 11-rasm. "Chiziqli" saxaroza yoki sulfat seziy konsentratsiyalari gradientlarini tayyorlashda ishlataladigan qurilma:

1-rezervuar, 2-arashtirgich, 3-jo'mrak, 4-ajratadigan truba.

5-20% liniyalı gradient tayyorlash tartibi:

- 1.Ikki idish orasidagi jo'mrakni yopish. Aralashtirgichdagi eritma oqib ketmasligi uchun ajratgich turubani yopish yoki |ko'tarish kerak.
- 2.Aralapgtirgich idishga 20% li saxaroza quyiladi.
- 3.Jo'mrak ochilib, ikki idish orasidagi truba 20% li saxaroza eritmasi bilan to'ldiriladi.


4.Jo'mrak yopiladi va idishlarni biriga 5% li saxaroza eritmasi quyiladi.

- 5.Ikki idish orasidagi jo'mrak ochiladi va aralashtirgich ishga solinadi va uning tezligini eksperimental ravishda aniqlanib, 5% va 20% saxaroza eritmalarini optimal aralashtiradigan qilinadi.

6.Ajratgich quvurcha ochiladi pastga tushiriladi va aralashma probirkaga tusha boshlaydi. Quvurcha uchi probirka devoriga tegib turishi kerak. Uning uchi eritma satxidan balandroq qilib o'rnatiladi.

- 7.Saxarozanı oqib chiqish tezligi o'ta sekin bo'lishi kerak. (SW-27 rotopHing probirkasi 15- 20 minutda to'lishi kerak).

8.Gradient tayyorlash jarayonida aralashtirgichdagi saxaroza konsentratsiyasi pasayib boradi va sentrifuga probirkasida uzluksiz konsentratsiyali gradient hosil bo'ladi. Tayyorlangan saxaroza gradientini 1 sutkaga sovutgichda saqlanadi, so'ngra ishlataladi.



Ilova, 12-rasm. Poliakrilamid gelida preparativ elektroforez aziladigan priboriing sxemasi (A) va unda virus tozalash (B)


A:

1. tok manbai,
2. qopqoq,
3. platina elektrodi,
4. anod idishi,
5. elektrod buferi,
6. poliakrilamid geli,
7. sovutadigan suv,
8. katod idishi,

B:


4. virus va hujayra qismlari, (elektroforezgacha bo‘lgan holat), a-gel ustidagi virus, b —gel ichidagi virus,
5. saxaroza (30%),
6. poliakrilamid geli (4%),
7. hujayra qismlari.

Viruslarni morfoloyiyasi




Ilova, 13-rasm. Har hil tipdagi o'simlik viruslari zarrachalarini elektronmikrofotografiyalari.

Hamma rasmlar birxil kattalikda bo‘lishiga harakat qilingan(Gibbs, Garrison,1978 dan olindi) ; Tamaki mozaikasi virusi zarrachasining uzunligi 300 nm. A. Tamaki mozaikasi virusi. B. Latuk salatinining nekrozlanib sarg‘ayishi virusi. V.kakao shoxlarining deformatsiyalanishi virusi. D. Qantlavlagining sariq kasalligi virusi. E. Beda mozaikasi virusi. J - Kartoshkaning X - virusi. 3. TupHepsning sariq mozaikasi virusi. I. Tomatning zaxallanishi virusi. K. Tamakining nekrozi virusi (yirik zarrachalar) va satellit(yo‘ldosh)-virus (mayda zarrachalar). L. Gulkaram mozaikasi virusi.




Ilova, 14-rasm. To‘g‘nag‘ichsimon(kolbasimon) faglarni sxematik ko‘rinishi. Bakteriofaglarni ba’zilarida sterjen ustini qoplab turuvchi qisqaradigan po‘stlari bor: *a* — qisqarguncha bo‘lgan holat; *b* — qisqargandan so‘nggi holat; 1, 2 — T2 E. coli; 3, 4 — T2 *Typhoid*; 5, 6 — Vil *Typhoid*; v — qisqarmagan holati; 7 —T1 i T5 E. soli va S1BL *Typhoid*; *S* — PC. *Pseudomonas*, 77 va 187 *Staphylococcus*; 9 — 6 *Staphylococcus*; 10 — T3 E. coli va Brucella; 11 — 3ML *Streptococcus*; 12 — 3V *Staphylococcus*(Atabekov, 1971).


Ba’zi odam va hayvon viruslarining shakllari (1 - 9).




**1. Poksvirus
(Chechak virusi)
respirator**




**2. Iridovirus
(Cho‘chqa chumasi)**




**3. Adenovirus
(ORZ-o‘tkir
kasalliklar virusi)**




**4. Parvovirus
(Denso virusi)**




**5. Gepadnovirus
(gepatit V virusi)**




**6. Reovirus
(rotavirus)**



**7. Koronavirus
(BepHe virusi)**





**8. Togavirus
(Rubivirus)**



**9. Filovirus
(Ebol virusi) Ilova,**

15- rasm.Ba’zi odam va hayvon viruslarining shakllari (1 – 9)




Ilova, 16-rasm. Tamaki mozaikasi virusi bilan kasallangan *Nicotiana tabacum* o'simligi bargining tukchalari.

Chapda barg tukchalari hujayrasidagi geksagonal virus kiritmalari. O'ng tomonda shu virus kiritmasini hujayradan ajratib olingan holati (31).

O'simlik virus kasalliklari simptomlari




Ilova,17-rasm. O'simliklarda uchraydigan ba'zi virus(1-7) va stolbur (8) kasalliklari(stolbur kasalligini hozirgi vaqtda aniqlanishicha bakteriya-mikoplazmalar qo'zg'atadi): (<http://gotovlegco.ru/wp-content/uploads/2014/11/%D0%A4%D0%B8%D0%B7%D0%BD%D0%BB%D0%B8%D1%81-1024x680.jpg>):1— kartoshkani ajinli mozaikasi-(morg'zinistaya mozaika kartofelya1); 2 —bug'doy mozaika ;3 — malina mozaikasi;4 — olxo'ri mozaikasi ;5 —g'o'za barlarini buralishi;6 —lavlagi mozaikasi ;7 — jo'xori mozaikasi kasalligi;
8 — tomat stolburi.(bu kasallikni qo'zg'atuvchisi mikoplazmalardir).




Ilova, 18-rasm. Assimmetrik subbirliklarni tekislikda to‘g‘ri joylashishi. Har bir subbirlik 6 ta qo‘sni subbirliklar bilan bog‘lanishi va bu bog‘lanish hamma subbirliklarda bir-biriga o‘xshashligidir.


[57]



Ilova, 19-rasm. Asimmetrik subbirliklarni silindr satxida spiralsimon joylashishi.



Ilova, 20-rasm. Tamaki mozaikasi virusining subbirliklari(127-129), nuklein kislota ipini bir qismi(129) va ularni rekonstruksiyasi (sekin- asta virus oqsili va RNK sini o‘z-o‘zini tiklash (samosborka) davrini boshlanishi(133-135)(31)




Ilova, 21-rasm. Tamaki bargini “shildirashi” virusining (TBSHV) strukturasi.

A. Kontrastlovchi modda sifatida uranil formiat ishlatib olingan TBSHV ning elektron mikrofotografiyasi.

B. Kalta virus zarralarining oldidan va yon tomonidan ko‘rinish sxemasi(chapda); o‘ngda – TMV ning shu masshtabdagi qismi(qiyoslash uchun).

N — bir aylanadagi (vitok) subbirliklarni o‘rtachasi:

TBSHV - 25 ga, TMV -16 teng.



Ilova, 22-rasm. TMV oqsilini polimerizatsiya jarayonining sxematik ko‘rinishi

a – disksimon agregatlar hosil qilinadigan agregatsiya; b – spiralsimon struktura hosil qilinadigan polimerizatsiya [172]

Kalit so‘zlar

Adsorbsiya – virus zarrasini sezgir sistema(odam, hayvon, o‘simlik, bakteriya, to‘qimalar kulturalari)xo‘jayin retseptoriga kimyoviy yoki biotspetsifik yoki mexanik bog‘lanishi;

Avtoklav – mikroorganizmlarni ozuqa muxiti, kimyoviy idishlar, mikrobiologiyada qo‘llaniladigan barcha mikroorganizmlardan xoli qilinadigan asboblar, ishlatilgan viruslent va avirulent mikroorganizm va ularni sporalarini, viruslarni o‘ta qizdirilgan par va bosim yordamida nobud qiluvchi asbob;

Avirulent – virulentligi yo‘q degan ma’noni bildiradi;

Agar-agar dengiz suvo‘tlaridan olinadigan, asosan neytral polisaxarid agaroz va zaryadli agorapektindan tashkil qizdirilganda suyuq holatga o‘tib, 40-50 graduslarda qattiq gel holatga o‘tadigan, mikrobiologiyada bakteriyalarni toza kulturalarini olishda ishlatiladigan, virusologiya va biokimyoda granulalangan xromatografik kolonkalarni to‘ldirib virus tozalashda ishlatiladigan modda;

Agglyutinatsiya – virus va antitelolar bilan bog‘langan stafilokokklarni bir-biriga yopishishi

Adenovirus - adenoid bezlaridan ajratib olingan virus;

Adaptatsiya – moslashish;

Adsorbent – adsorbsiyalanadigan viruslarni yopishtiradigan muxit;

Ad’yuvant – virusologiyada viruslarga qarshi antizardob olishda ishlatiladigan, antitelohosil bo‘lish jarayonini kuchaytiradigan moddalar to‘plami. Ular to‘liq m, Freynd ad’yuvanti, virus bilan 1:1 nisbatda aralashtirilib hayvon mushagiga yuborilishda ;

Albumin – aminokislota;

Antibiotik – lug‘aviy “hayotga qarshi” degan ma’nosni bildiradi, bu moddani m., Flemming tomonidan mog‘or zamburug‘laridan ajratib olingan penitsillinni ko‘rsatish mumkin;

Antitana – virus, bakteriya va boshqa moddalarga qarshi organizmda hosil bo‘ladigan spetsifik modda

Antigen – Antitana olishda ishlatiladigan biopolimerlar (virus va undagi biopolimer moddalar;

Antikodon – oqsil sintezida informatsion RNK ga kelib komplementar bog‘lanadigan t-RNK dagi triplet;

Antizardob – viruslarga qarshi olinadigan hayvon qonidan ajratib olinadigan spetsifik zardob;

Agar-agar – dengiz suvo‘tlaridan olinadigan polisaxarid, u neytral agarozza va zarryadli zarralar tutuvchi agaropektindan iborat

Adenovirus – Adenoviridae oilasiga kiruvchi virus vakillarini nomlanishi

Antigen – organizmga kirgandan so‘ng antitelolar hosil qiluvchi birikmalar

Antibiotik aktinomitsin D – transkripsiya jarayonida m-RNK a va DNK orasiga kirib transkripsiyanı tormozlaydigan antibiotik modda

Antitela - birorta oqsil, virus vaboshqa antigenlarni organizmga kirganidan so‘ng organizmda ishlab chiqiladigan antitana

Arbovirus – hasharotlar tarqatadigan lik tarqatuvchi virus

Aseptika – mikrobiologiya va virusologiya amaliyotida mikroorganizmlarni holilash, eksperiment vaqtida uning qoidalariga amal qilish ko‘zdatutiladi;

Bakteriofag – bakteriyalarni parchalovchi fag yoki bakteriya virusi

Bakteriofagiya – bakteriya viruslarini o‘rganadigan fan

Biokatalizator – bu erda fermentlarni reaksiyani olib borishi ko‘zda tutiladi;

Biologik namuna – kasallangan organizm va uning chiqindilaridan olinadigan peshob, qon, va h.

Vaksina – kasallikni profilaktika qilishda ishlatiladigan modda, kuchsizlantirilgan virus va h.lar;

Vaksina – viruslarga qarshi ishlatiladigan modda bo‘lib uni organizmga yuborib, ma’lum vaqtdan so‘ng organizmdan olingan qondan ajratib olingan modda

Vaksina – vaksi – lotincha sigir ma’nosini anglatadi. Vaksina birinchi marta Jenner tomonidan chechak bilan kasallangan sigilardan ajratib olib sog‘lom odamga yuqitirishda ishlatilgan modda

Vaksinatsiya - odamlarga vaksinalar yuborib ularni kasallikklardan himoya qilish

Virus – lug‘aviy ma’nosи zaxar degan ma’noni bildiradi;

Virion – virusni hujayradan tashqaridagi holati, zarrachasi

Vegetativ virus – ko‘payayotgan hujayra ichidagi virus

Virusologiya – viruslarni o‘rganadigan fan

Virion – hujayradan tashqaridagi virus zarrasi;

Viroid – asosan nuklein kislotadan tuzilgan va kartoshka va boshqa organizmlarda kasallik qo‘zg‘atadigan hujayrasiz agent;

Virulent – kasallantirish qobiliyati mavjud bo‘lgan virus yoki boshqa mikroorganizm;

Gelfiltratsiya – xromatografiyani bir turi bo‘lib virus tozalashda, viruslarni bir-biridan molekulyar o‘lchamiga qarab saralashda, biomolimer moddalarni bufer muxitlarini almashtirishda va juda ko‘p biokimyoviy ishlada ishlaptiladigan usul;

Gemagglutinin – gripp virusining tashqi peplos qavatidagi biopolimer modda;

Genom – virus genetik axborotini saqlovchi nuklein kislota;

Denaturatsiya – viruslarni tabiiy holatini yo‘qotishi;;

DNK – dezoksi ribo nuklein kislota;

Dializ – viruslarni yarim o‘tkazuvchi moddalar yordamida eritilgan muxitidan xolilab boshqa muxitga o‘tkazish;

Immunizatsiya – virusga qarshi odam va hayvonlarni biror kasallikka qarshi immun moddalar bilan immunitetini oshirish

Immunodiagnostika - antigen va antitana ishlatishga asoslangan kasalliklarni diagnostika qilish usullari , ya’ni ikkiyoqlama immunodiffuziya, virobakterial agglyutinatsiya va g‘usullar;

Inaktivatsiya – virus yoki uning nuklein kislotasini aktivligini yo‘qotishi.

Gripp –Ortomiksoviridae oilasi vakillarining nomi, qo‘zg‘atadigan kasalligi

Immeuniet – Organizmni kasallikga qarshi muhofaza reaksiysi

Kapsid – murakkab viruslarni ustidagi qobig‘i, yopinchiq deb ham ataladi

Kapsomer – kapsidni tashkil qiluvchi monomer birliklar

Murein – bakteriyalar qobig‘ida uchraydigan peptidoglikan moddasi

Mutant – viruslarni har xil faktorlar ta’sirida o‘z genomini o‘zgartirilishi va virusni boshqa xususiyatlarga ega bo‘lishi

Patogen – biror organizmga kirgandan so‘ng kasallik qo‘zg‘atuvchi

Attenuirlangan virus – virulentligini sun’iy pasaytirilgan virus. Paster qutirish kasalligi virusini quyonlarga bipHecha marta(yuzlab marta) immunizatsiya qilib, to qutirish kasalligi virusini yuborganda quyonni tirik qolishi dozasini aniqlab virusni virulentligini pasaytirigan virusni olish

Adenovirus - adenoid bezlaridan ajratib olingan virus;

Adaptatsiya – moslashish;

Adsorbent – adsorbsiyalanadigan viruslarni yopishtiradigan muxit;

Ad’yuvant – virusologiyada viruslarga qarshi antizardob olishda ishlatiladigan, antitelo hosil bo‘lish jarayonini kuchaytiradigan moddalar to‘plami. Ular to‘liq m, Freynd ad’yuvanti, virus bilan 1:1 nisbatda aralashtirilib hayvon mushagiga yuborilishda ishlatiladi ;

Antitana – virus, bakteriya va boshqa moddalarga qarshi organizmda hosil bo‘ladigan spetsifik modda

Antigen – Antitana olishda ishlatiladigan biopolimerlar (virus va undagi biopolimer moddalar;

Antikodon – oqsil sintezida informatsion RNK ga kelib komplementar bog‘lanadigan t-RNK dagi triplet;

Antizardob – viruslarga qarshi olinadigan hayvon qonidan ajratib olinadigan spetsifik zardob;

Arbovirus – hasharotlar tarqatadigan viruslar;

Aseptika – mikrobiologiya va virusologiya amaliyotida mikroorganizmlarni holilash, eksperiment vaqtida uning qoidalariga amal qilish ko‘zdatutiladi;

Biologik namuna – kasallangan organizm va uning chiqindilaridan olinadigan peshob, qon, va h.

Vaksina – kasallikni profilaktika qilishda ishlatiladigan modda, kuchsizlantirilgan virus va h.lar;

Virus – lug‘aviy ma’nosи zaxar degan ma’noni bildiradi;

Virion – hujayradan tashqaridagi virus zarrasi;

Viroid – asosan nuklein kislotadan tuzilgan va kartoshka va boshqa organizmlarda kasallik qo‘zg‘atadigan hujayrasiz agent;

Virulent – kasallantirish qobiliyati mavjud bo‘lgan virus yoki boshqa mikroorganizm;

Gelfiltratsiya – xromatografiyani bir turi bo‘lib virus tozalashda, viruslarni bir-biridan molekulyar o‘lchamiga qarab saralashda, biomolimer moddalarni bufer muxitlarini almashtirishda va juda ko‘p biokimyoviy ishlada ishlaptiladigan usul;

Gemagglyutinin – gripp virusining tashqi peplos qavatidagi biopolimer modda;

Genom – virus genetik axborotini saqlovchi nuklein kislota;

Denaturatsiya – viruslarni tabiiy holatini yo‘qotishi;,,

DNK – dezoksi ribo nuklein kislota;

Dializ – viruslarni yarim o‘tkazuvchi moddalar yordamida eritilgan muxitidan xolilab boshqa muxitga o‘tkazish;

Immunizatsiya – virusga qarshi odam va hayvonlarni biror kasallikka qarshi immun moddalar bilan immunitetini oshirish

Immunodiagnostika - antigen va antitana ishlatishga asoslangan kasalliklarni diagnostika qilish usullari , ya’ni ikkiyoqlama immunodiffuziya, virobakterial agglyutinatsiya va g‘.usullar;

Inaktivatsiya – virus yoki uning nuklein kislotasini aktivligini yo‘qotishi.

Mnojestvennost zarajeniya – virus yuqtirish jarayonida .virus bilan hujayrani miqdori.

Virus retseptorlari – Hujayraning ma’lum qismlari bilan spetsifik bog‘lanadigan virus zarrasidagi (fibrillaridagi) ma’lum molekulalar guruhi.

Struktura birligi (elementi) - yuqoriroq darajadagi oqsil **ansambli** bo‘lib, birqancha kimyoviy bog‘ga ega bo‘lgan o‘xhash - identik yoki ularning aksi bo‘lgan subbirliklardan tashkil topgan.

Morfologik birlik - kapsid satxidagi elektron mikroskopda ko‘rinadigan o‘sintalar guruhi (fanda **klaster** deb ataladi). Odatda beshtadan (pentomer) yoki oltitadan (geksomer) tuzilgan klasterlar kuzatiladi. Bu hodisa **pentamer-geksamer klasterizatsiya** deb nom olgan. Bu morfologik birlik kimyoviy ahamiyatli bo‘lsa unga kapsomer terminini ishlatiladi .

Kor (sore) - nuklein kislotaga bevosita birikib turgan ichki oqsil qobiqdir.

Matriks – superkapsid va kapsid orasida joylashgan oqsil qismdir.

Nukleokapsid – oqsil va nuklein kislotani kompleksi bo‘lib, genomni joylashtirish shaklidir.

Peplomer va tikanlar – superkapsidni satxidagi do‘ngliklar yoki o‘sintalar.

Superkapsid yoki peplos – hujayra lipid membranasidan va virus oqsilidan tashkil topgan virion qobig‘idir.

Адабиётлар ва Интернет сайtlари

1. Агол В.И., Атабеков И.Г., Крлов В.Н. Тихоненко Т.И. Молекулярная биология вирусов// Изд. «Наука». Москва, 1971.
2. Ахмаджонов Ю. Микробиология ва вирусология асослари. 1964.
3. Валихонов М.Н. Биокимё. Университет. Тошкент. 2008.
4. Васильев Д.А., Луговцев В.Ю., Макаров В.В., Середа А.Д. Классификация и номенклатура вирусов (Ульяновск, 1999).
5. Вахабов А.Х. Применение метода гельфильтрации на гранулированном агаре и агарозе для препаративных и аналитических целей в вирусологии. Дисс. ... канд. Biol. Наук. –М., 1970. -157 с.
6. Вахабов А.Х. Характеристика наиболее распространенных фитовирусов в экологических условиях Узбекистана. 03.00.06- вирусология. Дисс. ...докт.биол. наук. –Ташкент.,1990.- 344 с.
7. Вахабов А.Х., Атабеков И.Г. Препаративное вделение вирусов растений методом гельфильтрации на гранулированном агаре. 1. Очистка вирусов со спиральной симметрией.//Биол.науки.- 1969. –С.148-154.
8. Вахабов А.Х., Атабеков И.Г. Препаративное вделение вирусов растений методом гельфильтрации на гранулированной агарозе. 1. Очистка сферических вирусов.//Биол.науки.- 1970. № 2. –С.116-120.
9. Вахабов А.Х., Атабеков И.Г. Разработка оптимальных условий для гельфильтрации вируса мозаики костра на гранулированном агаре и агарозе. //Биол.науки.- 1973. № 2. –С.98-103.
10. Ваҳобов А.Х. Умумий вирусологиядан амалий машғулотлар. Тошкент. 2004. – 182с.
11. Вахабов А.Х. Шуригин В.В. Вирус человека и животных. Университет. Тошкент. 2014
12. “Вирусология” 1-жилд. Фильдс ва Найпнинг таҳрири остида. Москва, ИЛ. 1989.
13. Власов Ю.И. Сельскохозяйственная вирусология 1982
14. Власов Ю.И. Закономерности развития вирусных эпифитотий 1974
15. Гиббс. А., Харрисон Б. Основ вирусологии растений// Изд. «Мир» Москва, 1978.
16. Детерман Г. Гельхроматография. М. 1970. Доклад шведской фирм Фармация Файн Кемикале по производству и применению химического препарата «Сефадекс». Фракционирование макромолекул и вирусов в

агарозных гелях. Перевод Бюро переводов ВИНИТИ. Перевод №70105/7.1967.

17. Дурнов Л.А. Опухоли печени детей. - М., 1980.
18. Жданов В.М. Эволюция вирусов. М. Медицина, 1990. 374 с.
19. Жданов В.М. Вирус, медицина и биология. Сб. О природе вирусов. 1966
20. Зоринсон С.М. Вирусные гепатиты. - Спб., 1998.
21. Иноғомова М., Ваҳобов А.Ҳ. Микробиология ва вирусология асослари Тошкент, Университет. 2010. 203 б.
22. История вирусологии. www.vira-ssnarod.books002004.doc 2012
23. Карташова И.А. Сельскохозяйственная фитовирусология. М., "Колос", Ставрополь "АГРУС". 2007. 164 с.
24. Куст С.В. Идентификация вирусов в инфекционной смеси с помощью набора растений индикаторов. Практикум по общей вирусологии. Изд-во МГУ, 1981, -С. 43-46.
25. Мейхи Е. Вирусология. Метод. Москва. Изд-во "Мир" 1988.
26. Метьюз. Вирус растений. М., «Мир». 1973.
27. Мухамедов И.М., Иноятова Ф.И. Тиббий вирусология. Тошкент. 2013.
28. Мухамедов И., Эшбоев Э., Зокиров Н., Зокиров М. Микробиология. Иммунология. Вирусология. "Ўзбекистон миллый энциклопедияси". 2002, 519
29. Мэрфи Ф.А. Таксономия вирусов. Вирусология. 1-3 т под ред. Б.Фильдса, Д. Найпа и др. М. «Мир». 1989. с 10-53.
30. Смородинцев А.А. Вирус и вирусные болезни. М., 1965.
31. Стенли У., Вэленс Э. Вирус и природа жизни. 1963. 239 с.
32. Сухов. К.С. Общая вирусология. М., 1965, 299с.
33. Тоҷиҷибов M.U. Sport biokimyosi. "Tafakkur bostoni". Toshkent-2012
34. Человек и вирус ИМПАКТ (ЮНЕСКО, 1989)
35. Dane D.S. et al. //Lancet. - 1970. - No.7649. - P.695-698
36. N. J. DimmockA. J. Истон, K. И. Leppard. Introduction of ModepH virology, Six pa © 2007. Blackwell Publishing Ltd 2007. Уорика университети, Ковентри
37. Fishbein DB, Robinson LE: Current concepts. Rabies. N Engl J Med 329:1632, 1993
38. Ganem D. //Field Virology. Third Ed. - Philadelphia, 1996. - P.2703-2737.
39. Gong Z.J. et al. IX Tri.E.Nnil IntepH. Symp. of Viral Hepatitis and Liver Dis. - Rome, 1996.
40. Heerman K.H. et al. //J. Virol. - 1984. - V.52. - P.396-402.
41. Hollinger F.B. //Field Virology. Third Ed. - Philadelphia, 1996. - P.2739-2807.
42. Immunization Practices Advisory Committee (ACIP): Rabies prevention, United States, 1991. Morb Mort Week Rep 40(RR-3): 1, 1991

43. Javadi MA et al: Transmission of rabies by copHeal graft. CopHea 15:431, 1996
44. Lopez RA et al: Outbreak of human rabies in the Peruvian jungle. Lancet 339:408, 1992
45. Mirhamedova P., Vahobov A.H., Davranov Q. Tursunboeva G.S. // Mikrobiologiya va biotexnologiya asoslari, "ILM ZIYO" Tosykent. 2014. 336
46. Muhamedov I.M., Inoyatova F.I., Dushanbieva S.D, Rustamova S.M., Xodjaeva Sh., Kurbanova S.Yu. Tibbiyot virusologiyasi T.: " Fan va texnologiya", 2012, 208 .
47. Murphy F.A., Fauquet C.V., Bishop D. H., et al, Virus Taxonomy. Six Report ICTV .1995).
48. Sacramento D et al: PCR technique as an altepHative method for diagnosis and molecular epidemiology of rabies virus. Mol Cell Probes 5:229, 1991
49. Smith JS: New aspects of rabies with emphasis on epidemiology, diagnosis, and prevention of the disease in the United States. Clin Microbiol Rev 9:166, 1996
50. Takahashi K. et al. //J. Virol. - 1995. - V.76. - P.3159-3164.
51. Warrell MJ: Human deaths from cryptic bat rabies in the USA. Lancet 346:65, 1993
52. WHO Expert Committee: Report on Rabies, technical report series no. 824. Geneva, World Health Organization, 1992
53. Wilde H et al: Rabies in Thailand 1990. Rev Infect Dis 17:644, 1991
54. Wilde H et al: Heterologous antisera and antivenins are essential biologicals: Perspectives on a worldwide crisis. Ann IntepH Med 125:233, 1996

Интернет сайт:

55. <http://sci-lib.com/article75.html>
56. <http://meduniver.com/Medical/Microbiology/1044.html>
57. <http://meduniver.com/Medical/Microbiology/1006.html>
58. <http://meduniver.com/Medical/Microbiology/1030.html>
59. <http://meduniver.com/Medical/Microbiology/1076.html>
60. <http://meduniver.com/Medical/Microbiology/1083.html>
61. http://medbiol.ru/medbiol/infect_har/000a1928.htm
62. <http://medi.ru/doc/15b0408.htm>
63. <http://ru.wikipedia.org/wiki/Мимивирус>
64. http://viralzone.expasy.org/all_by_species/17.html
65. [www.erudition.ru / Медицина, здоровье, отдых/ http://www.erudition.ru/referat/printref/id. 57489-1 html 20.05.2006.](http://www.erudition.ru/)
66. [www.vira-ss.narod.ru.books/002004.dok\(2012\)](http://www.vira-ss.narod.ru.books/002004.dok(2012))
66. meduniver.com/Medical/Microbiology/704.html
67. dinos.ru
68. http://medbiol.ru/medbiol/sol_vir/0000d174.html, http://humbio.ru/humbio/sol_vir/0000d174.htm
69. viralzone.expasy.org

70. https://ru.wikipedia.org/wiki/Герпесвирус,humbio.ru/humbio/sol_vir/00007cbb.htm
 71. http://www.biofon.ru/ill/gerpes_all.html
 72. http://ru.wikipedia.org/wiki/Аденовирус,www.medbiol.ru/medbiol/sol_vir/000205e1.htm
 73. <http://anginap.ru/zarazna-li-angina-i-mozhno-li-eyo-predotvratit.html>
 74. <http://www.vokrugsveta.ru/news/2666/>
 75. ru.wikipedia.org/wiki/Паповавирус,humbio.ru/humbio/sol_vir/0000afe7.htm
 76. <http://www.stanford.edu/group/virus/retro/2000/humanpapilloma%20virus.html>
[http://ru.wikipedia.org/wiki/Hepadnaviridae,
http://maffia.fatal.ru/wap/micra/vor/otv.php?g=17&f=2&f1=4&f2\)](http://ru.wikipedia.org/wiki/Hepadnaviridae,http://maffia.fatal.ru/wap/micra/vor/otv.php?g=17&f=2&f1=4&f2))
 77. <http://www.biovek.com/gepatit-virus.html>,
<http://www.prostata.ru/clinic/Immunology/gepB.html>
 78. humbio.ru/humbio/sol_vir/0000c158.htm,
<http://www.eurolab.ua/microbiology-virology-immunology/3664/3697/35545/>
 79. http://stokes.chop.edu/programs/johnsonlab/features/adeno_associated_viruses.php; <http://dicciomed.eusal.es/palabra/parvovirus>
 80. http://humbio.ru/humbio/sol_vir/00012059.htm, <http://bepHadette-poiraton-bonnerue.com/diagnostika/semejstvo-reoviridae-reovirusov.html>
 81. <http://detkino.ru/node/1526>, <http://7eika.ru/zabolevaniya/rotavirus.html>
 82. <http://www.consilium-medicum.com/article/9449>
 83. <http://medicalplanet.su/1371.html>,
<http://window.edu.ru/library/pdf2txt/581/77581/58685/page7>
 84. <http://www.med.monash.edu.au/biochem/staff/coulibaly.html>,
<http://www.afbini.gov.uk/electron-micrograph-original.html>
 85. <http://www.eurolab.ua/microbiology-virology-immunology/3664/3696/35266/>, http://humbio.ru/humbio/sol_vir/0001623f.htm
 86. <http://www.stanford.edu/group/virus/toga/2000/e.html>
 87. http://viralzone.expasy.org/all_by_species/626.html
 88. ru.wikipedia.org/wiki/Коронавирус,humbio.ru/humbio/sol_vir/00011516.htm
 89. <http://medportal.ru/mednovosti/news/2013/03/13/coronavirus/>
 90. http://vetlabcentr.ru/index.php?option=com_content&view=article&id=210:2011-02-28-07-53-20&catid=35:catdiseases&Itemid=98
 91. <http://4medical.in/semejstvo-paramyxoviridae/>,
<http://ru.wikipedia.org/wiki/Парамиксовирус>
 92. <http://www.abc.net.au/scI.E.Nce/features/sars/thebug.html>
<http://de.academic.ru/dic.nsf/dewiki/1076830>
 93. <http://ru.wikipedia.org/wiki/Рабдовирус>,
<http://www.eurolab.ua/microbiology-virology-immunology/3664/3696/35376/>
 94. http://viralzone.expasy.org/all_by_species/2.html
 95. <http://www.microbiologybytes.com/virology/Rhabdoviruses.htm>

96. <http://www.eurolab.ua/microbiology-virology-immunology/3664/3696/35375/>
97. 3D4Medical.com/Getty Images,
http://viralzone.expasy.org/all_by_species/23.html
98. http://humbio.ru/humbio/sol_vir/0000f9a3.html,
<http://www.eurolab.ua/microbiology-virology-immunology/3664/3696/35386/>
99. <http://www.wvdhhr.org/labservices/labs/virology/influenza.cfm>
100. <http://withfrI.E.Ndship.com/user/svaruna/influenzavirus-a.php>
101. http://humbio.ru/humbio/sol_vir/0000f9a3.html
102. <http://www.eurolab.ua/microbiology-virology-immunology/3664/3696/35386/>
103. http://medbiol.ru/medbiol/sol_vir/0001511b.htm,
<http://ru.wikipedia.org/wiki/Буниавиrus>
104. http://viralzone.expasy.org/all_by_species/82.html
105. <http://www.stanford.edu/group/virus/adeno/2005/elianacards.html>,
<http://www.stanford.edu/group/virus/adeno/2005/elianacards.html>)
106. http://humbio.ru/humbio/sol_vir/000109ac.htm,
<http://whiteclinic.ru/mikrobiologiya-virusologiya/semeystvo-arenavirusov-arenaviridae>
107. http://viralzone.expasy.org/all_by_species/501.html
<http://pathmicro.med.sc.edu/mhunt/lcmv.htm>
108. http://humbio.ru/humbio/sol_vir/00011516.htm,
109. <http://www.stanford.edu/group/virus/bopHa/2005/>
110. http://viralzone.expasy.org/all_by_species/93.html
111. http://humbio.ru/humbio/sol_vir/00013982.htm,
<http://ru.wikipedia.org/wiki/Петровикус>
112. <http://erickbio.wordpress.com/2011/10/01/mechanisms-reverse-transcription/>, <http://elementy.ru/genbio/synopsis?artid=152>
113. <http://ru.wikipedia.org/wiki/Пикорнавиirus>,
<http://www.eurolab.ua/microbiology-virology-immunology/3664/3696/35215/>
114. http://viralzone.expasy.org/all_by_species/33.html
115. <http://microvirology.blogspot.com/2008/12/orthomyxoviridae-and-picopHaviridae-pHa.html>)
116. <http://meduniver.com/Medical/Microbiology/1083.html>
117. <http://www.stanford.edu/group/virus/calici/2005kallem/caliciviridae.html>
118. <http://ru.wikipedia.org/wiki/Мимивиirus>
119. <http://ru.wikipedia.org/wiki/Мимивиirus>
120. http://viralzone.expasy.org/all_by_species/17.html
121. <http://ru.wikipedia.org/wiki/Мимивиirus>
122. http://ru.wikipedia.org/wiki/Sputnik_viophage

Xotima

Mazkur darslikda virusologiyaning predmeti, ko‘zga ko‘ringan yirik virusologlarning viruslar haqidagi fikrlari va viruslarga berilgan ta’rif, viruslarning ochilishi va virusologiyaning rivojlanish tarixining bosqichlari, tabiatda tarqalgan viruslarni ular kasallantiradigan spetsifik ho‘jayinlari yordamida biologik tozalash va ularni zamonaviy fizik-kimyo metodlari yordamida tozalangan preparatlarini olish va o‘simlik, hayvon va odam, bakteriya va suvo‘tlari viruslarini morfologiyasi, strukturasi (spiral simmetriya asosida va ikosaedr simmetriyasi asosida tuzilgan), oqsil va nuklein kislotalari spetsifikasi, reproduksiyasi (ko‘payishi)ning o‘ziga xosligi, virus DNK, RNK si va oqsilining sintezlari, klassifikatsiyasi, hamda virus epifitotiyalarining rivojlanish qonuniyatları haqida (virus o‘choqlari, tashuvchilari, sirkulyasiyasi) haqida ma’lumot berilgan. Viruslarning tabiatdan ajratib olish va ularni zamonaviy biologik, fizik-kimyoviy metodlar (gelxromatografiya, elektroforeз, differensial sentrifugalash, moddalar gradienti zichligida sentrifugalash, immunologik usullar) yordamida oqsil va nuklein kislotalarini ajratib olish kabilar haqida ma’lumotlar berilgan.

Darslikni yozishda mazkur mutaxassislik bo‘yicha turli adabiyotlardan foydalanildi, jumladan, quyidagi adabiyot va saytlarni ko‘rsatish mumkin: V.I. Agol, I.G. Atabekov., T.I.Tixonenko, V.Krlov larning “MolekulyapHaya biologiya virusov” (1971 y.); V.M. Jdanov “Evolusiya virusov” (1990 y.); F.A. Merfi Taksonomiya virusov. Virusologiya. 1-3 t.I.L.; Gibbs A. va Xarrison B. larning “Osnov virusologii rasteniy”(1978 y.); Vahobov A.H. ning “Umumiyy virusologiyadan amaliy mashg‘ulotlar” (2004 y.);

I.A Kartashovaning “Selskoxozyaystvennaya fitovirusologiya” (2007 y.); **N. J. DimmockA. J. Iston,K. I. Leppard. Introduction of ModepH virology, Six ra © 2007.** Uorika universiteti; D.A.Vasilev, V.YU.Lugovsev, V.V. Makarov, A.D.Sereda Klassifikatsiya i nomenklatura virusov (Ulyanovsk), **1999**, A.I.Zinchenko, D.A.Parul. Osnov molekulyapHoy biologii virusov i antivirusnoy terapii. Minsk. MGEU 2003. A.X.Vaxabov, V.V.SHurigin Virus cheloveka i jivotnx. Universitet. 2014, Juraeva U.M., Vaxabov A.X. larning “Prakticheskie i laboratopHe zanyatiya po virusologii (2015 g.) Ular ichida chet el olimlarining yozgan adabiyotlaridan quyidagilarni ko‘rsatish mumkin.

1. N. J. DimmockA. J. Iston, K. I. Leppard. **Introduction of ModepH virology, Six ra © 2007** Blackwell Publishing Ltd

BLACKWELL ISBN 10: 1-4051-3645-6 (pbk.: qog‘ozi) 2007. Uorika universiteti, Koventri.SSHA.

2. Agol V.I., Atabekov I.G., Tixonenko T.I., Krlov V. larning “**MolekulyapHaya biologiya virusov**” (1971 y.) Moskva, Rossiya.

3. Vasilev D.A., Lugovsev V.YU., Makarov V.V., Sereda A.D. Klassifikatsiya i nomenklatura virusov (Ulyanovsk), 1999 . Rossiya.

4. A.I.Zinchenko, D.A.Parul. **Osnov molekulyapHoy biologii virusov** i antivirusnoy terapii. Minsk. MGEU 2003. 174 s. Belarusiya.

5.“Virusologiya” 1-3 том. Pod redaksiey Filds va Naypa. Moskva, IL. 1989. (Perevod s angliyskogo yazka).

Mazkur adabiyotlar chet elning dunyoga tanilgan olimlari tomonidan yaratilgan. Moskva Davlat universitetining olimlari Agol, Atabekov va b.) (MGU ning Virusologiya kafedrasining professorlari), Zinchenko va Parullar (Belarusiya universitetlaring professorlari va h. lar) virusologiyani zamonaviy molekulyar darajada talabalarga o‘qib kelayotgan ma’ruzalar asosida yaratganlar. Biz ham mazkur “Virusologiya asoslari” darsligini yaratishda ulardan foydalandik, hamda N. J. DimmockA. J. Iston,K. I. Leppard. Introduction of ModepH virology, Six ra © 2007 adabiyotidan ko‘pgina mavzularni taqqoslab, tanqidiy o‘rgandik. Ko‘p mavzular V.I. Agol va boshqalarda borligi va ularni biz “Virusologiya”, “Viruslar molekulyar biologiyasi asoslari” kurslarida bipHecha yillardan beri foydalanib kelayotganimiz uchun o‘z holida qoldirdik. Quyida o‘xhash mavzular qisqacha keltirilgan:

I-qism

1.Virus nima va uning xususiyatlari; 2. Viruslarni aniqlash usullari; 3.Hayvon viruslarini aniqlash; 4.Viruslarni strukturasi;

II-qism 1. Viruslarni o‘stirish (kultivirovanie); 2.Viruslarni yuqtirish; 3.Virus DNK larini replikatsiyasi; 4.Virus RNK sining replikatsiyasi; 5. Virus RNK – DNK larni replikatsiyasi; 7. Virus DNK sining ekspressiyasi;8. Virus RNK sining ekspressiyasi; 9. Viruslar arxitekturasi;

III-qism10. Virus kasalliklari; 11. Odam virus kasalliklari; 12. OITS;
13.Odamlarda karsinoma va o‘smalarni paydo bo‘lishi; 14.Vaksinatsiya.

Darslikni yaratishda yuqorida zikr qilingan mualliflarni darslik va qo‘llanmalaridan, elektron mikrofotografiyalaridan, rasmlaridan, jadvallaridan foydalanganimiz uchun ularga hamda “Mikrobiologiya” kafedrasini o‘tib ketgan va hozirda faoliyat ko‘rsatayotgan ustoz professor-o‘qituvchilari, xodimlari, fakultet va universitetimiz jamoasiga doimiy hayrixoxliklari va yordamlari uchun ham chuqr minnatdorligimizni bildiramiz.

Mundarija

Bet

Muqaddima.....	2
So‘z boshi.....	3
I – qism. Virusologiya predmeti va tarixi.....	4
1-bob Virusologiya predmeti va viruslarga ta’rif.....	4
1.1. Virusologiyaning tarmoqlari.....	4
1.2. Viruslar haqida ba’zi ko‘zga ko‘ringan mutaxassis olimlarning fikirlari.....	5
1.3. Virusologiya soxasidagi ba’zi kashfiyotlar.....	10
2-bob Virusologiyaning rivojlanish tarixi.....	12
2.1. Virusologiyaning viruslarni ochilishigacha bo‘lgan tarixi.....	12
2.2. Viruslarni ochilishi.....	15
2.3. Virusologiyaning rivojlanish bosqichlari.....	20
2.4. Viruslar tabiatи haqidagi konsepsiyaning rivojlanishi.....	28
2.5. Viruslarning ahamiyati.....	30
2.6. Viruslarning kelib chiqishi.....	32
2.7. Viruslarni ishlatilishi.....	33
II -qism. Viruslar molekulyar biologiyasi asoslari.....	38
3-bob. Viruslarni ajratish va biologik tozalash.....	38
3.1. Viruslarni ajratib olish.....	39
3.2. Fitopatogen viruslarni indikator o‘simliklarga yuqtirib identifikatsiya qilish.....	53
3.3. viruslarni toza preparatlarini olish.....	59
4-bob. Viruslarni fizik va kimyoviy usullarda tozalash.....	64
4.1. Viruslarning tozalik mezonlari.....	64
4.2. Virus ajratishni optimallashtirish.....	67
4.3. Virus tozalash metodlarining imkoniyatlari haqida.....	69
4.4. Viruslarni ajratish va tozalashning fizik-kimyoviy metodlari.....	70
4.5. Gelfiltratsiya.....	72
4.6. Tamaki mozaikasi virusining qisman tozalangan preparatini virusning izo elektrik nuqtasida (i.e.n.) da olish.....	83
4.7. Tamaki mozaikasi virusini tuz yordamida cho‘ktirib qisman tozalangan preparatini olish.....	85
4.8. TMV ning differensial sentrifugalash metodi bilan toza preparatni olish.....	85
4.9. TMV ning "saxaroza gradienti konsentratsiyasida sentri-fugalash" usulida tozalash.....	86
4.10. TMV bilan kasallangan o‘simliklardan biospetsifik xromatografiya usulida toza virus ajratish.....	90

4.11. TMV ni poliakrilamid gel (PAAG) kolonkasida elektroforez usulida tozalash.....	91
4.12. Kartoshkani X-virusini (KXV) toza preparatini ajratish.....	92
4.13. Virus zarralarini tarkibiy qismlarga ajratish metodlari.....	924.
14. Nuklein kislotalarni tadqiq qilish.....	98
5-bob. Viruslarni morfologiyasi va strukturasi.....	100
5.1. Viruslarning morfologiyasi.....	100
5.2. Virus nukleoproteidining o‘lchamlari.....	102
5.3. Viruslarni strukturasi va molekulyar tuzilishi.....	104
5.4. Spiral simmetriyaning o‘ziga xosligi spetsifikligi va TMV ni strukturasi.....	112
6-bob. Viruslar bioximiysi.....	118
6.1. Viruslarning tarkibiy qismlari.....	119
6.2. Virus oqsillari. Oqsillarni lokalizatsiyasi.....	122
6.3. Nuklein kislotalar.....	126
7-bob. Viruslarning reproduksiyasi.....	136
7.1. Virus va hujayra orasidagi munosabat.....	136
7.2. Virus DNK sining sintezi.....	153
7.3. Bir zanjirli DNKning replikatsiyasi.....	161
7.4. Virus RNK sining sintezi.....	164
7.5. Virus oqsillarini sintezi.....	170
III – qism. Viruslar klassifikatsiyasi va kasalliklari.....	184
8-bob. Viruslarni klassifikatsiyasining rivojlanish tarixi haqida.....	184
8.1. Viruslar klassifikatsiyasining qisqacha rivojlanishi.....	185
8.2. Baltimor klassifikatsiyasi.....	191
8.3. O‘simlik virularining klassifikatsiyasi, nomenklaturasi va ba’zi kasalliklari.....	193
8.4. O‘simlik viruslari sistematikasi.....	195
8.5. DNK-tutuvchi viruslar.....	204
8.6. RNK-tutuvchi viruslar.....	206
9-bob. Odam va hayvon viruslari oilalari va ba’zi virus kasalliklari.....	214
9.1. Poxviridae oilasi (Poxviruslar).....	217
9.2. Iridoviridae oilasi (Iridoviruslar oilasi).....	220
9.3. Herpesviridae oilasi (Gerpesviruslar oilasi).....	222
9.4. Adenoviridae oilasi(Adenoviruslar oilasi).....	228
9.5. Papovaviridae (Papovaviruslar oilasi).....	231
9.6. Hepadnaviridae (Gepadnaviruslar oilasi).....	233
9.7. Parvoviridae (Parvovirus).....	235
9.8. Reoviridae (Reoviruslar oilasi).....	238
9.9. BipHaviridae oilasi (BipHaviruslar).....	240

9.10. Togaviridae oilasi (Togaviruslar).....	242
9.11. Coronaviridae oilasi (Koronaviruslar).....	245
9.12. Paramyxoviridae oilasi.....	248
9.13. Rhabdoviridae oilasi (Rabdoviruslar).....	251
9.14. Filoviridae oilasi (Filoviruslar).....	254
9.15. Orthomyxoviridae oilasi (Ortomiksoviruslar).....	257
9.16. Bunyaviridae oilasi (Bunyaviruslar).....	269
9.17. Arenaviridae oilasi (Arenaviruslar).....	271
9.18. BopHaviridae oilasi (BopHaviruslar).....	273
9.19. Retroviridae oilasi(Retroviruslar).....	274
9.20. PicopHaviridae oilasi (PikopHaviruslar).....	276
9.21. Caliciviridae oilasi (Kalitsiviruslar).....	278
9.22. Mimiviridae oilasi (mimiviruslar).....	280
9.23. Prionlar yoki sekin kechadigan infeksiyalar.....	287
IV – qism. Virus epifitotiyalarini rivojlanish qonuniyatları assolari.....	289
10 – bob. Virus epifitotiyalarini paydo bo‘lish qonuniyatları haqida.....	289
10.1. Virus kasalliklari o‘choqlari.....	289
10.2.O‘simglik virus kasalliklarini tabiiy o‘choqlari va tiplari.....	291
10.3. Virus infeksiyasini yuqishi.....	297
Ilova.....	301
Kalit so‘zlar.....	320
Adabiyotlar.....	326
Xotima.....	331

Содержание

Стр.

Предисловие.....	3
I – часть. Предмет и история вирусологии	4
1-глава. Предмет вирусологии и определение вирусов.....	4
1.1. Раздел вирусологии	4
1.2. Мнения различных крупных вирусологов о вирусах.....	5
1.3. Некоторые открытия в вирусологии.....	10
2-глава. История вирусологии.....	12
2.1. История вирусологии до открытия вирусов.....	12
2.2. Открытие вирусов.....	15
2.3. Этап развития вирусологии.....	20
2.4. Развитие концепции о природе вирусов.....	28
2.5. Значение вирусов.....	30
2.6. Происхождение вирусов.....	32
2.7. Применение вирусов.....	33
II -часть. Основы молекулярной биологии вирусов.....	38
3-глава. Вделение вирусов и биологическая очистка.....	38
3.1. Вделение вирусов.....	39
3.2. Идентификация вирусов при помощи индикаторных растений.....	53
3.3. Получение чистых вирусных препаратов.....	59
4-глава. Очистка вирусов физико-химическими методами	64
4.1. Критерии чистоты вирусных препаратов.....	64
4.2. Оптимизация вделения вирусов.....	67
4.3. О возможностях методов очистки вирусов	69
4.4. Физико-химические методы вделение и очистки вирусов.....	70
4.5. Гельфильтрация.....	72
4.6. Получение частично-очищенных препаратов вирусов методом изоэлектрической преципитации(и.э.п.)	83
4.7. Получение частично-очищенных препаратов ВТМ методом всаливания.....	85

4.8. Приготовление чистых препаратов ВТМ методом дифференциального центрифугирования.....	85
4.9. Очистка ВТМ методом центрифугирование градиента плотности сахароз.....	86
4.10. Очистка ВТМ методом биоспецифической хроматографии.....	90
4.11. Очистка ВТМ методом электрофореза в колонках в полиакриламидном геле(ПААГ).....	90
4.12. Вделение чистого препарата X-вируса картофеля.....	92
4.13. Метод разделения вирусов на составные части.....	92
4.14. Изучение нуклеиновых кислот.....	98
5-глава. Морфология и структура вирусов.....	100
5.1. Морфология вирусов.....	100
5.2. Размер вирусных нуклеопротеидов.....	102
5.3. Структура и молекулярное строение вирусов.....	104
5.4. Специфика спиральной симметрии и структура ВТМ.....	112
6-глава. Биохимия вирусов.....	118
6.1. Составная часть вирусов.....	119
6.2. Белки вирусов. Локализация белков.....	122
6.3. Нуклеиновые кислот.....	126
7-глава. Репродукция вирусов.....	136
7.1. Взаимодействие вируса и клетки.....	136
7.2. Синтез вирусных ДНК.....	153
7.3. Репликация одноцепочечных вирусных ДНК.....	161
7.4. Синтез вирусных РНК.....	164
7.5. Синтез вирусных белков.....	170
III – часть. Классификация вирусов и болезней.....	184
8-глава. Об истории развития классификации.....	184
8.1. Краткое развитие классификации вирусов.....	185

8.2.	Классификация	по
Балтимору.....	191	
8.3. Классификация, номенклатура и некоторе болезни вирусов растений.....	19	
3		
8.4.	Систематика	вирусов
растений.....	195	
8.5. ДНК содержащие вирус.....	204	
8.6. РНК содержащие вирус.....	206	
9-глава. Семейства вирусов человека и животных и некоторе вирусные болезни.....	21	
4		
9.1. Семейство Poxviridae (Поксвирус).....	217	
9.2. Семейство Iridoviridae (Иридовирус).....	220	
9.3. Семейство Herpesviridae (Герпесвирус).....	222	
9.4. Семейство Adenoviridae (Аденовирус).....	228	
9.5. Семейство Papovaviridae (Паповавирус).....	231	
9.6. Семейство Hepadnaviridae (Гепаднавирус).....	233	
9.7. Семейство Parvoviridae (Парвовирус).....	235	
9.8. Семейство Reoviridae (Реовирус).....	238	
9.9.	Семейство	BipHaviridae
(Бирнавирус).....	240	
9.10. Семейство Togaviridae (Тогавирус).....	242	
9.11. Семейство Coronaviridae (Коронавирус).....	245	
9.12. Семейство Paramyxoviridae (Парамиксовирус).....	248	
9.13. Семейство Rhabdoviridae (Рабдовирус).....	251	
9.14. Семейство Filoviridae (Филовирус).....	254	
9.15. Семейство Orthomyxoviridae (Ортомиксовирус).....	257	
9.16. Семейство Bunyaviridae (Буньявирус).....	269	
9.17.	Семейство	Arenaviridae
(Аренавирус).....	271	
9.18. Семейство BopHaviridae (Борнавирус).....	272	
9.19. Семейство Retroviridae (Ретровирус).....	274	
9.20.	Семейство	PicopHaviridae
(Пикорнавирус).....	276	
9.21. Семейство Caliciviridae (Калицивирус).....	278	
9.22. Семейство Mimiviridae (мимивирус).....	280	
9.23. Прион или медленно протекающие инфекции.....	287	
IV – часть. Закономерности развития вирусных эпифитотий.....	289	
10 – глава. О закономерностях развития вирусных эпифитотий.....	289	
10.1. Очаги вирусных инфекций.....	289	
10.2. Естественные очаги инфекции вирусов растений.....	291	
10.3. Распространение вирусных инфекций.....	297	

Приложения.....	30
1	
Ключевые слова.....	320
Литература.....	32
6	
Заключение.....	331

Content	Page
Introduction.....	3
Part I. The subject and history of virology	4
Chapter 1. The subject of virology and the definition of viruses	4
1.1. Sections of virology.....	4
1.2. The opinions of various virologists about viruses	5
1.3. Some discoveries in virology.....	10
Chapter 2. History of virology development.....	12
2.1. The history of virology before the discovery of viruses.....	12
2.2. Discovery of viruses.....	15
2.3. Development stages in virology.....	20
2.4. The development concepts about nature of viruses	28
2.5. Value of viruses	30
2.6. Origin of viruses.....	32
2.7. Usage of viruses.....	33
Part II. Foundations of molecular biology of viruses.....	38
Chapter 3. Virus isolation and biological purification.....	38
3.1. Isolation of viruses.....	39
3.2. Identification of viruses with indicator plants.....	53
3.3. Receiving of pure viral preparations.....	59
Chapter 4. Purification of viruses by physico-chemical methods	64
4.1. Criterion for the cleanliness of viral preparations	64
4.2. Optimizing virus excretion.....	67
4.3. Capability of purification methods.....	69
4.4. Physico-chemical methods of virus isolation and purification.....	70
4.5. Gelfiltration	72
4.6. Receiving of partially purified virus preparations by isoelectric precipitation (IEP).....	83
4.7. Obtaining partially purified UTM preparations by salting out.....	85
4.8. Preparation of pure TMV preparations by the differential centrifugation method.....	85
4.9. Purification of TMV by centrifugation of the sucrose density gradient.....	86
4.10. Purification of TMV by biospecific chromatography.....	91
4.11. Purification of TMV by Electrophoresis in Columns in Polyacrylamide Gel (PAGE)	90
4.12. Isolation of the pure preparation of the X-virus of potatoes	92
4.13. Methods for separating viruses into component parts.....	92
4.14. The study of nucleic acids.....	98
Chapter 5. Morphology and structure of viruses.....	100
5.1. Morphology of viruses.....	100
5.2. The size of viral nucleoproteins.....	102
5.3. Structure and molecular structure of viruses	104

5.4. Specificity of spiral symmetry and the structure of TMV	112
Chapter 6. Biochemistry of viruses.....	118
6.1. Component of viruses	119
6.2. Virus proteins. Protein localization	122
6.3. Nucleic acids.....	126
Chapter 7. Reproduction of viruses.....	136
7.1. Cooperation between the virus and the cell.....	136
7.2. Synthesis of viral DNA	153
7.3. Replication of single-stranded viral DNA.....	161
7.4. Synthesis of viral PHA.....	164
7.5. Synthesis of viral proteins.....	170
Part III. Classification of viruses and diseases.....	184
Chapter 8. History of classification development.....	184
8.1. A brief development of the classification of viruses.....	185
8.2. Classification by Baltimore	191
8.3. Classification, nomenclature and some diseases of plant viruses.....	193
8.4. Systematization of plant viruses.....	195
8.5. DNA containing viruses.....	204
8.6. PHA containing viruses.....	206
9-chapter. Human and animal viruses and some viral diseases.....	214
9.1. Poxviridae (Poxvirus)	217
9.2. Iridoviridae (Iridoviruses)	220
9.3. Herpesviridae (Herpesviruses)	222
9.4. Adenoviridae (Adenoviruses).....	228
9.5. Papovaviridae (Papovaviruses).....	231
9.6. Hepadnaviridae (Gepadnaviruses).....	233
9.7. Parvoviridae (Parvoviruses).....	235
9.8. Reoviridae (Reovirus).....	238
9.9. BipHaviridae	
(BipHaviruses)	
.....	240
9.10. Togaviridae (Togaviridae)	242
9.11. Coronaviridae (Coronaviruses)	245
9.12. Paramyxoviridae (Paramyxoviruses).....	248
9.13. Rhabdoviridae (Rabdosviruses).....	251
9.14. Filoviridae (Filoviruses).....	254
9.15. Orthomyxoviridae (Orthomixoviruses).....	257
9.16. Bunyaviridae (Bunyaviruses).....	269
9.17. Arenaviridae (Arenavirus).....	271
9.18. BopHaviridae (BopHaviruses).....	
272	
9.19. Retroviridae (Retroviruses).....	274
9.20. PicopHaviridae (PicopHaviruses).....	
276	
9.21. Caliciviridae (Calicivirus).....	278

9.22. Mimiviridae (mimiviruses).....	280
9.23. Priions or slow-onset infections.....	287
Part IV. Regularities in the development of viral epiphytoty.....	289
Chapter 10. Regularities of the development of viral epiphytoty.....	289
10.1. Sources of viral infections.....	289
10.2. Natural sources of infection of plant viruses	291
10.3. Spreading of viral infections.....	297
Annexes.....	301
Keywords.....	320
Literature.....	326
Conclusion.....	